

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI
BO-YICHA MUVOFIQE ASHTIRUVCHI-METODIK MARKAZ

ABDUJABBOR KABIROV



**QADIMGI SHARQ
TARIXI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI BO'YICHA
MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODIK MARKAZ

ABDUJABBOR KABIROV

QADIMGI SHARQ TARIXI

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan

5120300 – Tarix,

5120400 – Arxeologiya,

**5220300 – Arxivshunoslik yo'nalishlari
talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya qilingan**

**TOSHKENT – 2016
“Tafakkur” nashriyoti**

УЎК:372.111.1(024)

КБК:31.226.1Узб.

K-31

Mas'ul muharrirlar:

T. O'. Salimov, O'zMU tarix fakulteti dotsenti

Z.A. Saidboboyev, O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz direktori, dotsent

Taqrizchilar:

A. Bobobekov, Arxeyologiya kafedrasi katta o'qituvchisi

A.Biqo'ziyev, Jahon tarixi kafedrasi o'qituvchisi

Qadimgi Sharq kishilik madaniyatining ilk markazlaridan biri hisoblanadi. Qadimgi Sharq tarixi deganda Yevropadan Sharqda joylashgan ko'hna Misrdan Xitoygacha bo'lgan hududlarda yashagan xalqlar va davlatlar tarixi tushuniladi.

Mazkur o'quv qo'llanmada Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyo, Arabiston, Eron, O'rta Osiyo, Hindiston, Xitoy, Koreya, Yaponiya va Janubi-sharqiy Osiyo xalqlari va davlatlarining tarixi, xo'jalik faoliyati, moddiy va ma'naviy madaniyati haqida ma'lumot beriladi.

O'quv qo'llanmada Sharq davlatlarining tarixiga bog'liq xaritalar va rasmlar ilova qilingan.



ISBN: 978-9943-24-124-4

MUNDARIJA

Muqaddima	6
I BO'LIM. QADIMGI MISR TARIXI	
1-§ Qadimgi Misrda ilk davlatlarning tashkil topishi	15
2-§ Qadimgi Misr tarixining asosiy manbalari va tarixnavisligi	17
3-§ Ilk podsholik davrida Misr (m.av. XXXIII–XXIX asrlar).....	40
4-§ Qadimgi podsholik davrida Misr (m. av.XXVIII–XXIII asrlar).....	44
5-§ O'rta podsholik davrida Qadimgi Misr (m. av. XXI–XVIII asrlar)	48
6-§ Misr giksoslar hukmronligi ostida (m. av. XVIII–XVI asrlar)	52
7-§ Yangi podsholik davrida Misr (M. av. XVI–XII asrlar)	54
8-§ 19-20- sulolalar davrida Misr podsholigi	58
9-§ So'nggi podsholik davrida Misr (m. av. XI–IV asrlar) ...	61
10-§ Qadimgi Misr madaniyati	67
11-§ Qadimgi Misr fani va diniy e'tiqodi.....	73
II BO'LIM. QADIMGI MESOPOTAMIYA TARIXI	
1-§ Mamlakatning tabiiy sharoitlari, aholisi, manbalari va tarixnavisligi	83
2-§ Mixsimon xatlar va ularning o'qib chiqilishi.....	95
3-§ Eng qadimgi Mesopotamiya. Ilk tabaqaviy jamiyat shakllanishining shart-sharoitlari	102
4-§ Mesopotamiya markazlashgan davlatning tashkil topishi. Akkad podsholigi va Urning III sulolası davlati.....	107
5-§ Qadimgi Bobil podsholigi (m.av. XIX–XVI asrlar).....	118
6-§ Ossuriyada ilk shahar-davlatlarning tashkil topishi va eng Qadimgi Ossuriya.....	131
7-§ Ulug' Ossur harbiy sultanati (m.av. X–VII asrlar).....	136
8-§ Yangi Ossur podsholigi davri (m.av. X–VII asrlar)	140

9-§ Qadimgi Mitanni davlati	146
10-§ M.av. II mingyillik oxiri I ming yillikning boshlarida Yangi Bobil podsholigi	152
11-§ Qadimgi Mesopotamiya xalqlari madaniyati	158
12-§ Qadimgi Mesopotamiya san'ati, adabiyoti va diniy e'tiqodi	161

III BO'LIM. O'RTAYER DENGIZINING SHARQIY VA G'ARBIY SOHILIDAGI QADIMGI DAVLATLAR

1-§ O'rtayer dengizining sharqiy va g'arbiy sohilining qadimgi aholisi tarixi va davlatlari tarixnavisligi	166
2-§ O'rtaer dengizining sharqiy sohilidagi qadimgi davlatlar. Qadimgi Falastin	173
3-§ Qadimgi Suriya va Finikiya	176
3-§ Qadimgi Karfagen davlati	181
4-§ Arabiston yarim orolidagi qadimgi davlatlar. Mamlakat va uning aholisi. Qadimgi Arabiston manbalari va o'rganilish tarixi	189

IV BO'LIM. KICHIK OSIYO VA KAVKAZORTI MAMLAKATLARI TARIXI

1-§ Qadimgi Xett podsholigining manbalari va tarixnavisligi	201
2-§ Kichik Osiyodagi qadimgi dehqonchilik va ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi. Ilk davlatlarning tashkil topishi. (m. av. VIII – VII ming yillik)	204
3-§ Qadimgi Xett podsholigi	206
4-§ Qadimgi Troya va Frigiya podsholiklari	213
5-§ Qadimgi Lidiya podsholigi	216
6-§ Qadimgi Van-Urartu podsholigi	219

V BO'LIM. QADIMGI ERON PODSHOLIGI VA O'RTA OSIYO

1-§ Qadimgi Eronda dastlabki davlatlarning tashkil topishi.....	229
2-§ Ahamoniylar davlati	240
3-§ Qadimgi Eronning xo'jaligi va madaniyati.....	244
4-§ Qadimgi Parfiya podsholigi	249
5-§ Yunon-Baqtriya podsholigi	254
6-§ Kushon podsholigi	257

VI BO'LIM. QADIMGI JANUBIY OSIYO TARIXI

1-§ Qadimgi Janubiy Osiyoning geografik o'rni, tabiiy sharoitlari, aholisi, davrlashtirilishi, asosiy manbalari va tarixnavisligi	262
2-§ Ilk Hind sivilizatsiyasi (m. av. XXIII–XVIII asrlar).....	270
3-§ M. av. XV–IV asrlarda Qadimgi Hindiston	276
4-§ Makedoniyalik Aleksandr davlatining parchalanishi	280
5-§ M. av IV–I va milodiy I–IV asrlarda qadimgi Hindiston.....	283
6-§ Qadimgi Hindistonning ijtimoiy tuzumi va madaniyat...	288

VII BO'LIM. QADIMGI XITOY VA XUNNLAR DAVLATI

1-§ Eng Qadimgi Xitoy	294
2-§ Qadimgi Shan-In davlati	303
3-§ Chjou podsholigi	305
4-§ Sin podsholigi	308
5-§ Xan podsholigi	312
6-§ Xan sultanatining zaiflashuvi va ommaviy harakatlar ...	317
7-§ Qadimgi Xitoy madaniyati	321
8-§ Xunnlar davlati.....	325

VIII BO'LIM. SHARQIY VA JANUBI-SHARQIY OSIYODAGI QADIMGI DAVLATLAR

1-§ Koreya yarim orolidagi qadimgi davlatlarining tashkil topishi	331
2-§ Janubi-sharqiy Osiyoning qadimgi davlatlari	336
Xulosa	345
Qadimgi Sharq tarixiga oid muhim sanalari. Ilovalar	353
Ibratli hayot yo'li	360
Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati	362
Glossariy	363

MUQADDIMA

Qadimgi Sharq tarixi Qadimgi dunyo tarixining tarkibiy qismini tashkil etib, u Shimoliy, Shimoli-sharqi Afrika, Old, Janubi-g'arbiy, Janubiy, Markaziy, Sharqi va Janubi-sharqi Osiyoning ulkan hududini ishgi'ol qiladi. Shuni ta'kidlash joizki, Qadimgi Sharq tarixining davriy sanasi m. av. IV mingyillikning ikkinchi yarmidan to milodiy IV asr oralig'i dagi davrni o'z ichiga oladi. Bu ulkan hudud o'zining xilma-xil tabiiy sharoiti: yer usti tuzilishi, iqlimi, suv manbalari, osmono'par Himolay, Pomir, Hindikush, Kunlun, Tyanshan tog'lari, o'simliklarga va hayvonot dunyosiga boy bo'lishligi bilan o'ta qadimdan boshlab hamma davr odamlarning diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelgan.

Sharqi, Markaziy, Janubi-sharqi, Janubiy va O'rta Osiyo ilk odamzod yashagan o'lkalar qatoriga kirib, olimlar bu hududi antropogenez jarayoni sodir bo'lgan mintaqaga kiradi, deb hisoblaydilar. Bu katta hududda ibtidoiy jamoa tuzumining hamma bosqichlarida odamlar yashab kelgan.

Bu ulkan hududda yashagan ibtidoiy kishilar o'zlar uchun qulay, hayvonot va o'simliklar olamiga boy bo'lgan joylarda istiqomat qilib, dastlab yovvoyi hayvonlarni ovlab, ildizmevali va mevali daraxtlarning mevalarini, shuningdek, qushlarning tuxumi ni va katta-kichik hashoratlarni terib yeb tirikchilik o'tkazganlar.

Keyinchalik esa Sharq dunyosining odamlari daryo bo'ylerda, jilg'a, buloq, kichik-kichik soylarning etaklarida termachilikdan asta-sekin loyqa liman va qayr dehqonchilikiga, so'ng esa katta-kichik daryo bo'ylarida ilk sug'orma dehqonchilikka o'ta boshlaganlar. Qadimgi odamlar ovchilikdan yovvoyi hayvonlarni qo'lga o'rgatib, chorvachilikka asos solganlar. Ibtidoiy jamoa tuzumining neolit-yangi tosh davriga kelib esa hunarmandchilikning turli tarmoqlari rivojlana borgan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Qadimgi Sharqda ishlab chiqarishning rivojlanishi munosabati bilan bu hududda birinchi, ikkinchi va uchinchi mehnat taqsimoti sodir bo'lgan.

Shu munosabat bilan, ya'ni xo'jalikning rivojlanana borishi nati-jasida jamiyatdagi kishilar orasida xususiy mulk, mulkiy tengsizlik va tabaqalanishning vujudga kelishi uchun zarusht-sharoit yaratiladi. Shu tariqa urug'chilik tuzumining yemirilishi munosabati bilan jamiyatni boshqarish tizimi shakllana borib, joylarda ilk davlatlarning tashkil topishi munosabati bilan Nil, Dajla (Tigr), Frot (Efrot), Qadimgi Sayxun, Jayxun, katta-kichik daryolarning unumdar vodiylaridagi qulay tabiiy sharoitlar m.av. IV mingyil-likdayoq sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikning vujudga kelishiga yordam bergen.

Sharqshunos olim V.I.Avdiyev yozganidek Qadimgi Sharq xalqlari tuzumining boshqalardan farq qiladigan eng muhim xususiyati – unda urug'chilik tuzumi qoldiqlarining uzoq vaqt saqlanib qolganligi, shuningdek, qadimgi jamoa, avvalo oila jamoasi, keyin esa qishloq jamoasi qoldiqlarining mustahkam saqlanib qolganligidir. Ammo hududda ishlab chiqarish kuchlarning rivojlanishi ijtimoiy tuzumni o'zgartirib yuboradi. Qadimgi Sharq dunyosida metallurgiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi texnikani bir qadar taraqqiy qildirib, qishloq xo'jaligining va asosan hunarmandchilikning rivojlanishiga turki berdi.

Ta'kidlamoq joizki, chorvachilikning dehqonchilikdan, keyin-roq hunarmandchilikning qishloq xo'jaligidan ajralib chiqishi hamda hunarmandchilik va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish sohasida turli tarmoqlarning paydo bo'lishi qo'shimcha yordamchi ishchi kuchini talab qilgan. Endilikda xo'jalikning hamma tarmog'ida ko'proq mahsulot ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lingan. Buning uchun ishlab chiqarishga yangi ishchi kuchi talab qilinganki, urushlarda asir tushgan kishilar va qarzdorlar qul'sifatida ishlatila boshlangan. Shu tariqa dastlabki qulchilik vujudga kelgan.

Ortiqcha ishlab chiqarilgan mahsulotlarni bozorga olib chiqib boshqa buyumlarga almashtirish boshlangan. Shuningdek, turli metallardan tangalar zarb qilingan. Aholi orasida ayirboshlash

ishini amalga oshiradigan savdogarlar paydo bo‘lgan. Savdogarlikning paydo bo‘lishi munosabati bilan mehnatning uchinchi yirik ijtimoiy bo‘linishi sodir bo‘lgan.

Qadimgi Sharq dunyosidagi davlatlarda ham bu jarayon asta-sekinlik bilan amalga oshirilgan.

Xo‘jalikning hamma tarmoqlarida kishilarning ehtiyojidan tashqari ortiqcha mahsulot ishlab chiqarilgan. Ko‘proq mahsulotlar ishlab chiqarish esa qo‘srimcha ishchi kuchidan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqargan. Qabilalar va davlatlararo bo‘lib o‘tgan urushlarda g‘oliblar tomonidan qo‘lga olingan asirlar qulga aylantirilgan. Ikkinchidan qashshoq aholi orasida qarzga botgan kishilar ham qul qilinib, xo‘jalikning hamma tarmoqlarida shafqat qilmay ishlatilgan.

Xo‘jalikning hamma tarmoqlari rivojlanishi, mahsulotlarning bir hovuch kishilar qo‘lida to‘plana borishi natijasida jamiyatda xususiy mulk, mulkiy tengsizlik, tabaqlananish yanada kuchayib borgan. Qarzdorlik, urushlarda asir tushgan kishilar qul va qulchiliking eng muhim manbai bo‘lgan.

Sharq dunyosining Xitoydan O‘rtayer dengizigacha bo‘lgan joylarida birin-ketin jamiyatning qullar va quidorlar tabaqasiga bo‘linishi jarayoni sodir bo‘lgan. Ammo qadimgi Sharqda qulchilik Qadimgi Yunoniston va Rimga nisbatan juda ham sekin rivojlangan. Tarixchilar Sharqdagi bu qulchilikni “ibtidoiy qulchilik” deb ataganlar. Boylar, aslzodalar va badavlat savdogarlar, katta yer-mulkka ega bo‘lganlar, shuningdek, quidorlar bilan kambag‘allar va qullar o‘rtasida kuchli tabaqaviy kelishmovchiliklar paydo bo‘ladi. Bu hol jamiyatda davlat tashkilotlarining paydo bo‘lishiga olib kelgan. Demak, davlat va uning tashkilotlari majmuasi quidorlarga qullar va aholining qashshoq qatlaming qarshiligin va qo‘zg‘olonlarini bostirish uchun zarur bo‘lgan. Ikkinchidan Qadimgi Sharqda tashkil topgan davlatlar va ularning qo‘sni mamlakat va o‘zgalar yer-mulkini bosib olishi uchun ham xizmat qilgan. Qadimgi Sharqdagi bu davlatlar “sharq despotiyasi”, ya’ni “mutlaq hokimiyati”, deb atalgan. Sharq despotiyasida oliy hokimiyat butunlay podsho qo‘lida bo‘lgan. Despotizm – podsholarning cheksiz huquqqa ega

bo‘lishlari Sharq quldarlik davlatlariga xos xususiyat bo‘lib, ayniqsa Misr fir’avnları va Xitoy imperatorları mutlaq hokimlikda hammasidan yuksak turar edilar. Misrdan Xitoygacha, O‘rta Osiyodan Hindistongacha bo‘lgan hududlarda barcha yer-suv davlat mulki hisoblangan. Yer-mulkda oddiy ziroatchilarning ham hissalari bo‘lgan, albatta.

Qadimgi Sharqda podsho, imperator va fir’avnlar din va diniy tashkilotlar tomonidan Xudoning yerdagi timsoli, mujassami deb e’lon qilingan. Sharqda din, uning ruhoniylari despotik davlatlarning himoyachilari bo‘lishgan. Sharqdagi barcha despotik davlatlar mustahkam iqtisodiy va siyosiy aloqalar negizida emas, balki istilolar asosida itoat ettirilgan ayrim-ayrim qabila va xalqlardan tashkil topgan edilar.

Qadimgi Sharqdagi davlatlarning xalqlari turli tillarda gapirganlar. Ularning ba’zilari o‘z yozuvlarini yaratganlar. Qadimgi Sharq xalqlarining tarixi, xo‘jalik faoliyatları, ularning tillari, yozuvları, yozma manbalari hamda arxeologik ashyolarni chuqur tahlil qilish orqali o‘rganilgan va o‘rganila boradi.

Sharq tarixi mutaxassislarining fikrlariga ko‘ra, bu hudud aholisi dunyoda birinchilardan bo‘lib Xuanxe, Yanszi, Gang, Jamna, Hind, Amudaryo, Panjob, Frot, Dajla, Murg‘ob, Tajan, Nil va boshqa daryo va soylarning unumdon vohalarida ilk sug‘orma dehqonchilikka asos solganlar. Sharqda ilm-fan, xalq og‘zaki ijodiyoti, adabiyot, tasviriy san’at va me’morchilik yer yuzining boshqa joylariga nisbatan ancha ertaroq shakllanib, rivoj topgan.

Qadimgi Sharq xalqlari madaniyati jahon xalqlari madaniyatining rivojiga o‘zinig buyuk hissasini qo‘shtigan. Qadimgi Sharq xalqlari tarixini o‘rganishda Gomer, Gesiod, Gerodot, Diodor, Arrian, Strabon, Beros, hind, xitoy mualliflarining asarlari juda katta ahamiyatga ega.

Qadimgi Sharq xalqlari tarixi va madaniyatini o‘rganishda G.Maspero, E.Meyer, U. Jans, F.Pitri, B.A.Turayev, V.V. Struve, F.Shampalon, N.M.Nikolskiy, A.B.Ranovich, N.D.Flittner, I.G. Frank, G.Vinklyer, L.Vulli, B.B.Piotrovskiy, G.V.Sereteli, G.Kapaniyan, Y.P.Fransev, V.I.Avdiyev, M.E. Mate va boshqa tarixchi

olimlarning xizmatlari benihoya kattadir. Shuningdek, Qadimgi Sharq tarixi o'rganish ishida A.A.Viga Sin, M.A.Dandamayev, D.V.Deopark, G.F.Ilin, M.V.Kryukov, V.I.Kuzishin, V.M.Masson va boshqa tarixchi va sharqshunoslarning xizmatlari ham kattadir.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Qadimgi Sharq dunyosi Shimoliy, Shimoli-sharqiy Afrika, Old Osiyo, Eron yassitog'ligi. O'rta Osiyoning janubiy hududlari, Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Koreya va Janubi-sharqiy Osiyo hamda bular orasidagi turli tabiiy muhitga ega bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan ulkan maydondan iborat bo'lgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, qadimgi Sharq dunyosining tabiiy sharoiti har jihatdan xilma-xil bo'lib, unga xos bo'lgan tabiiy sharoitning asosiy manzarasi quyidagilardan iborat bo'lgan:

1. Keng dashtu cho'llari va tekisliklari bo'lgan suvsiz, qurg'oqchil yassi tog'liklar.

2. Nil, Frot, Dajla, Hind, Gang, Jamna, Braxmaputra, Xuanxe, Tajan, Murg'ob kabi katta-kichik daryolar oqib o'tadigan va shu daryolarning suvi bilan sug'oriladigan, allyuvial yotqiziqli, serhosil, unumdon pasttekisliklar.

3. Okean va dengizlarga bevosita tutashgan sohilbo'yi mamlakatlari.

4. Hududning Zagros, Kavkazorti, Turkman – Xuroson, Pomir, Hindikush, Himolay, Sharqiy Tyanshan, Tibet, Kunlun kabi tog'lik viloyatlari;

5. Sharq dunyosining har qayerida uchraydigan va yastanib yotgan sho'rxok cho'l mintaqalari.

Mazkur geografik muhitning birinchi ko'rinishiga Suriyani Mesopotamiya bilan bog'lab turuvchi Suriya-Mesopotamiya dashtlari, hududning katta-kichik tog'lari, Kaspiybo'yi dashtlari, Markaziy Osiyo yassi tog'liklari, Hindistondagi Dekan, shuningdek, Xitoyning keng tog'lik viloyatlari va dashtlarini kiritish mumkin. Geografik muhitning ikkinchi ko'rinishiga Buyuk daryolarning oqiziqlaridan hosil bo'lgan qadimgi allyuvial – yotqiziqli unumdon dashtlar va pasttekisliklar, xususan Misrdagi Nil, Mesopotamiyadagi Frot va Dajla, Shimoliy Hindistondagi Hind va Gang, O'rta

Osiyodagi Murg‘ob va Tajan, Amudaryoning o‘rta oqimi, Zarafshon daryosi vodiylari, shuningdek Xitoydagি Yanszi, Xuanxe va boshqa daryolarning vodiylari kiradi.

Geografik sharoitning uchinchi turi Nil, Frot va Dajla deltalari, Suriya va Finikiyaning O‘rta dengiz qirg‘oq bo‘ylari, Hindistonning janubi-g‘arbiy qismidagi unumdar Malabar qirg‘oqlari kiradi.

Joylarning tabiiy sharoiti Qadimgi Sharqda xo‘jalikning sust yoki tezroq rivojlanishiga ta’sir etgan. Kamsuvli yassi tog‘liklarda sug‘orma dehqonchilik uncha yaxshi rivojlanmagan. Aksincha bu joylarda chovachilikning turli tarmoqlari intensiv ravishda rivojla na borgan.

Ta’kidlash joizki, Qadimgi Sharqning allyuvial vodiylarida tuproqning unumdarligi, tabiiy o‘g‘itlarning serob bo‘lishi va katta daryolarning vaqtı-vaqtı bilan toshishi hududda sug‘oriшhga asoslangan dehqonchilikning ertaroq paydo bo‘lishiga va irrigatsiya inshootlari texnikaning yuksak darajada taraqqiy etishiga imkoniyat bergen. Bunday jarayonni O‘rta Osiyoning katta-kichik vodiylarida ham kuzatish mumkin. Dengiz bo‘ylaridagi Suriya, Finikiya va Falastin ham shunday jarayon sodir bo‘lgan hududlarga kiradi.

Qadimgi Sharqning o‘rmon va foydali qazilmalari boy bo‘lgan tog‘lik mamlakatlarda hunarmandchilik, ayniqsa metallurgiya rivoj topgan edi.

Okean va dengizga yaqin Finikiya, Suriya, Misr va boshqa mamlakatlarda dengiz savdosi ayniqsa rivoj topgan.

Qadimgi Sharq xalqlari ishlab chiqarishning hamma sohalarida katta yutuqlarga erishib, jahon madaniyati xazinasiga o‘zining ulkan hissalarini qo‘shganlar. Bir-biridan uzoq masofada bo‘lgan Sharq xalqlari 12-13 ming km uzunlikka cho‘zilgan “Buyuk Ipak yo‘li” tufayli har bir sohada, xususan madaniyat sohasida ham bir-birlari bilan uzviy aloqada bo‘lib kelganlar.

Mamlakatimizda istiqlol sharofati bilan tariximiz va jahon tarixiga bo‘lgan munosabat, kishilik madaniyatiga bo‘lgan munosabat butunlay o‘zgardi. O‘rta Osiyo xalqlari tarixi jahon va Sharq xalqlari tarixining tarkibiy qismini tashkil etadi. Ularni bir-biridan ajratib o‘rganish mumkin emas.

Respublikamiz birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganidek, “O‘zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi... haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o‘zlikni anglash mumkin emas”. Zero, tarixni o‘rganishga xolislik bilan yondashuv uning haqqoniyligi va ilmiy ahamiyatini oshiradi. Qadimgi Sharq tarixini o‘rganishda ham bu muhim ahamiyat kasb etadi.

Sezar davrining mashhur siyosiy arbobi, senator, mashhur notiq Mark Tulliy Sitseron (m.av. 106 – 43) aytganidek, “Tarixni bilmagan kishi umr bo‘yi go‘dakligicha qoladi”.

“Qadimgi Sharq tarixi”ni O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tarixi bilan bog‘lab o‘rganish ham beqiyos ahamiyatga egadir.

Tarixiy davrlar, uning bosqichlari, sanalar va ularning Qadimgi Sharq tarixini o‘rganishdagi o‘rni.

Ma’lumki, kishilik jamiyati tarixi biri ikkinchisi bilan almashinuvchi tarixiy davrlarga bo‘linadi. Ular ibtidoiy jamoa, qadimgi, o‘rta asr, yangi va eng yangi tarixiy davrlardir. Bu davrlarning hammasi alohida-alohida davr, bosqich va tarixiy sanalarga bo‘linadi. Bular million yilliklar, yuz mingyilliklar, o‘n mingyilliklar bilan shuningdek, o‘nyilliklar bilan belgilanadi.

Olimlar tarixiy sanalarni m.av. va yangi milodiyyillarga bo‘lishni tavsiya qilganlar. M. av. sanalar u yoki bu tarixiy voqeani yangi milodiy yilning dastlabki sanasidan yoki hozirgi kunimizdan qancha vaqt ilgari sodir bo‘lganini hisoblab, yer yuzida eng qadimgi odamlar bundan yoki milodiy yildan 2,5 – 3 million yil oldindan boshlab yashayotganliklarini faraz qiladilar.

Milodiy sana Iso Masih payg‘ambar tug‘ilgan yildan boshlangan bo‘lib, u yangi milodiy yil deb nomlanadi. Bu tarixiy sana bo‘yicha birinchi asrning birinchi yiliga to‘g‘ri keladi.

M. av. sanalar katta tarixiy sanalar bilan boshlanib 3 million, 2,5 million, 2 million, 1,5 million, 1million, 900, 800, 700, 600, 500, 400, 300, 200, 100 mingyil, 90, 80, 70, 60, 50, 40, 30, 20, 10 mingyilliklar bilan belgilanadi.

Milodiy Iso Masih yili esa birinchi asrdan boshlanib, II-III, IV-V, VI-VII, VIII-IX, X-XI, XII-XIII, XIV-XV, XVI-XVII, XVIII-XIX va nihoyat XX – XXI asrlar bilan hisoblanadi.

Qadimgi dunyo, Qadimgi Sharq tarixining, xususan, Qadimgi Misr tarixining sanasi m.av. to‘rtinchı mingyillikning ikkinchi yar-
midan boshlanadi. Qadimgi Sharq davlatlari tarixining boshlanish
sanasi bir-biridan farq qilib, o‘sha joyning geografik, iqtisodiy va
siyosiy sharoitidan kelib chiqib turli davrda boshlangan va yakun
topgan. Qadimgi Sharq xalqlari tarixining sanalarini aniqlash tarix-
shunoslar oldidagi murakkab masalalardan biri hisoblanadi.

Tarixiy manbalarning aniq sanalari yozib qo‘ylgan taqdirda-
gina ular muayyan ahamiyatga ega bo‘ladi. Tarixchilar voqeа va
hodisalarning zamonini, davrini va sanasini aniqlash uchun ikki xil
xronologiya: mutlaq va nisbiy xronologiyadan foydalanadi. Birin-
chisi absolyut ya’ni mutlaq xronologiya bo‘lib, unda voqealar-
ning mingyilligi, m.av. uchinchi, ikkinchi va birinchi ming yilliklar,
ya’ni m. av. XXV–XIV asrlar bilan belgilanadi. Aleksandrning
Sharqqa yurishi va urushlari (m.av. 334–325), Isroil-Yahudiy pod-
shosi Dovudning podsholik qilgan yillari (m. av. 1000–965), uning
o‘g‘li Sulaymonning podsholik yillari (m.av. 965–935) va boshqa-
lar. Bu tarixdagи absolyut – aniq sanalardir.

Ikkinchisi nisbiy xronologiya bo‘lib, unda vaqt birliklari
qo‘llanilmaydi, balki bir voqeа ikkinchi voqeадан oldin yoki keyin
sodir bo‘lgani ko‘rsatilib, voqealarning izchilligi belgilanadi. Nis-
biy xronologiya ko‘proq arxeologiya, geologiya, paleoantologiya,
paleoklematologiya ma'lumotlariga asoslanadi hamda voqeа-hodisa-
ning nisbiy sanasini aniqlashda qo‘llaniladi.

Shunday qilib Qadimgi Sharq tarixining sanasini aniqlashda,
asosan absolyut – mutlaq xronologiyadan foydalilanadi.

Yana shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki Qadimgi Sharqdagi har
bir davlat tarixi muayyan davrlarga bo‘linadi. Jumladan, Qadim-
gi Misr beshta, Qadimgi Ossuriya uchta, Xett davlati ikkita, Xi-
toy to‘rtta tarixiy davrlarga bo‘lib o‘rganiladi. Shuningdek, har bir
tarixiy davrda sodir bo‘lgan voqeа hodisalarning absolyut sanasi
belgilanadi.

Bulardan tashqari Qadimgi Sharqda sulolaviy davrlashtirish
ham mavjud bo‘lib, bunda muayyan oila vakillarining davlatni
meros tariqasida boshqaruvi tushuniladi.

Demak, insoniyat jamiyat tarixida xronologiya va davrlashtirish hamda ularning bosqichlari orasidagi voqealarni o'rganish tarixchilar uchun juda katta ahamiyatga egadir.

Shunday qilib sharqdan g'arbga cho'zilgan, ulkan hududda joylashgan katta-kichik davlatlar va ularda yashagan xalqlar dunyoning boshqa joylarida yashagan xalqlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'naviy madaniyatiga o'zlarining ijobiy ta'sirini o'tkazib keldilar.


I BO'LIM. QADIMGI MISR TARIXI

1-§. Qadimgi Misrda ilk davlatlarning tashkil topishi

Qadimgi Misrning geografik o'rni, tabiati va aholisi. Misr Sharqdagi eng qadimgi despotik davlatlardan biri bo'lib, u Afrika qit'asining shimoli-sharqiy chekkasida joylashgan mamlakatdir. Nil dunyodagi eng katta daryo, uzunligi 6500 kilometrdan ortiqdir. U Markaziy Afrikaning katta ko'llaridan oqib chiqadigan Oq va Ko'k Nil daryolarining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Daryo to'rt sharshara-ostonalardan o'tgach 700 kilometr masofada vohadan oqib o'tadi va bir necha tarmoqlarga bo'linib O'rtayer dengiziga quyiladi. Toshqin paytida Nil ko'pdan-ko'p o'simliklar va turli

tog' jinslarini oqizib keladi. Oqib kelgan tog' jinslaridan daryo qip-qizil tusga kiradi.

Toshqin tugagach, o'simlik chirindilari, tuproq va tog' jinslaridan hosil bo'lgan zarralar suv bosgan joylarda cho'kib, qoramtil quyqumlar qoldiradi. Quyqumlar qurib serhosil qora tuproqli yer hosil qildi.



Shuning uchun misrliklar Nil vohasini "Qora yer", yunonlar esa "Egipet" deyishgan.

Misrning g'arb tomonida Liviya yassitog'ligi, sharq tomonida esa Arab qirlari joylashgan. Mamlakat janubi Nubiya tog'lari bilan

o‘ralgan. Misrning shimoliy chegaralari O‘rtayer dengiziga borib tutashadi.

Misr issiq mamlakat, u yerda yog‘ingarchilik kam bo‘ladi. Nil sohillarida xilma-xil o‘simlik va yovvoyi mevalar, xususan lotos, papirus va qamishlar o‘sib yotadi. Qadimdan hayvonot dunyosi boy bo‘lib, Nil sohillarida sher, qoplon, buyvol, yovvoyi buqa, jirafa, antilopa, timsoh va gippopatam kabi katta-kichik hayvonlar yashagan. Daryoda baliq, suv hayvonlari, to‘qayzorlarda esa har turli qushlar ko‘p bo‘lgan. Yovvoyi hayvon va o‘simliklar qadim zamondan boshlab ibridoiy kishilarning ozuqa va ov manbai bo‘lgan. Misrda mis, oltin kabi ma’danlar va har xil toshlar ko‘p. Qadimgi misrliklar hayotida Nil daryosining ahamiyati juda katta bo‘lgan. Mashhur yunon tarixchisi Gerodot “Misr – Nil in’omi, tuhfasi” deb yozgan ekan.

Qadimgi Misr aholisi. Misrning qulay geografik o‘rnii va boy tabiiy sharoiti qadim zamondan boshlab kishilarni o‘ziga jalg qilib kelgan. Ibtidoiy odamlar Nil vohasiga juda qadim zamonlardayoq kirib kelishgan. Mashhur arxeolog D.D.Klarkning ma’lumotlariiga ko‘ra, Misrda ibridoiy odamlar 80–90 ming yildan beri yashab kelar ekanlar. Ammo daryo toshqini odamlarning bu yerda doimo yashashlariga xalaqit bergen. Arxeolog olimlar Fayum vohasidan bundan 25–30 ming yillar ilgari yashagan odamlarning manzil-gohlarini topganlar. Bu yerdan topilgan arxeologik ashyolar shu davr odamlari yog‘och, qamish, lotos va papiruslardan chaylalar qurib yashaganligi, tosh, yog‘och va suyaklardan qurollar yasab ovchilik va termachilik bilan shug‘ullanganliklaridan dalolat beradi.

M.av. VI–V mingyilliklarda Misrda aholi ancha ko‘payib, dastlabki qishloqlar paydo bo‘lgan. Antropologik ma’lumotlarga ko‘ra, Qadimgi misrliklar qorachadan kelgan, xushqomat bo‘lib, kamso-qol bo‘lishgan. Misrga janubdan nubiyaliklar, Markaziy Afrikadan esa past bo‘yli odamlar – pigmeylar yoki liliputlar, g‘arbdan livingaliklar, shimoli-sharqdan esa giksos kabi qabilalar kelib o‘rnashganlar. Keyinchalik esa Nil vohasiga habashlar, ossurlar, forslar, yunonlar, makedonlar va rimliklar ham kirib kelganlar. Ularning

ko‘pchiligi misrliklar bilan aralashib, ularning madaniyati, tili va urf-odatlarini qabul qilganlar.

Qadimgi misrliklarning mashg‘ulotlari. Qadimgi misrliklar Nil vohasini yangi tosh davridan boshlab o‘zlashtirib, o‘troq dehqonchilikka asos solganlar. Ular oddiy ketmoncha – motiga bilan qayr yerga ishlov berib bug‘doy, arpa, künjut, poliz ekinlari ekib, ulardan mo‘l hosil olganlar. Misrliklar bog‘dorchilik bilan ham shug‘ullanganlar. Shu tariqa Misrda dehqonchilik ancha erta rivoj topgan. Nil keltirgan loyqa tabiiy o‘g‘it tufayli Misr yerlari unum-dor bo‘lib hosilga baraka bergan.

Misrliklar it, cho‘chqa, qo‘y, echki va qoramollar parvarish qilganlar. Chorvachilik va hunarmandchilik ham ancha erta rivoj topgan. Shu davrlarda ichki va tashqi savdo ham jonlana boshlagan. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida Misrda xususiy mulk, mulkiy tengsizlik va tabaqalanish paydo bo‘lgan.

2-§. Qadimgi Misr tarixining asosiy manbalari va tarixnavisligi

Qadimgi Misr tarixining manbalari va tarixnavisligi. Ma’lumki, Qadimgi Misr tarixi Qadimgi Sharq tarixining tarkibiy qismini tashkil etadi. Qadimgi Misr tarixini uning manbalari va tarixnavisligi qo‘lga kiritgan ma’lumotlarisiz o‘rganib bo‘lmaydi. Qadimgi Misr tarixini o‘rganish uchun bu ko‘hna diyorning zamonamizgacha saqlanib qolgan ko‘pdan-ko‘p bitiklari, yodgorliklari birinchi darajali ahamiyatga egadir.

Qadimgi Misr yozuvi manbalaridagi ma’lumotlar, moddiy madaniyat yodgorliklarini ko‘p jihatdan to‘ldiradi.

Qadimgi Misr tarixining manbalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan tarixnavislik bilimi Qadimgi Sharq tarixi, xususan Qadimgi Misr tarixini o‘rganishda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Tarixnavislik, ya’ni istoriografiya – tarixiy bilimlarni, tarix fanining taraqqiyotini, tarix manbalarini va tarix navisligini o‘rganadigan ilmdir. Tarixiy manbalarsiz va tarixnavisiksiz tarix-

bir mamlakat tarixini. jumladan Qadimgi Misr tarixini ham o'rganish mumkin emas.

Qadimgi Misr tarixiga doir manbalar Qadimgi Mesopotamiya tarixiga doir manbalar singari uch asosiy qismga bo'linadi:

1. Antik – mualliflarning Misr haqida aytganlari va yozib qoldirganlari.

2. Moddiy madaniyat yodgorliklari, shu jumladan arxeologik yodgorliklar.

3. Qadimgi Misr yozuvi yodgorliklari.

Qadimgi zamon mualliflarining Qadimgi Misr haqidagi yozganlari. Ma'lumki, antik mualliflarning Qadimgi Misr haqida yozgan asar va esdaliklaridan ozmi-ko'pmi ma'lumot olish mumkin.

Ta'kidlash joizki, m.av. VII asrdayoq yunon savdogarlar, yollangan askarlar va boshqa toifadagi kishilar Misrga kirib kelganganlar. Yunon faylasuflari va siyosiy arboblari Fales. Anaksimandr. Demokrit va Salonlar Misrga sayohat qilib, Misr xalqining ming yillar davomida to'plagan bilimlarini o'rganganlar. Shu bois yunon yozuvchilari – tarixchi va geograflarining asarlaridan Qadimgi Misrga oid juda ko'p ma'lumotlarni topish mumkin.

M. av. 485–425-yillarda yashab ijod etgan galikarniaslik Gerodot o'z asarlarida Qadimgi Misr tarixi va madaniyati haqida anchagina ma'lumot qoldirgan. U tarixda "tarix otasi" nomi bilan mashhur bo'lib, 9 jildlik "Tarix" asarining ikkinchi kitobini butunlay Qadimgi Misr tarixiga bag'ishlagan.

Gerodot Qadimgi Misr tarixi va madaniyatini mumkin qadar to'laroq tavsiflashga harakat qilgan. "Tarixning otasi" – Gerodot Nil bo'ylab mamlakatning shimoliy chegaralaridan janubiy chegaralarigacha sayohat qilgan. Gerodot Nil vodiysi va deltasining tabiiy sharoitlarini, Qadimgi misrliklarning urf-odatlari, diniy e'tiqodlari, mamlakatning xo'jaligi va ijtimoiy tuzumi to'g'risida ham ba'zi ma'lumotlar beradi. U Qadimgi Misrning tabiatini haqida gapirib, Nil daryosi toshqinlarining Qadimgi Misrda dehqonchilik xo'jaligining rivojlanishi uchun juda katta ahamiyatga ega ekanligini bayon etadi.

Gerodotning hikoya qilishicha, “daryo toshib, dalalarni sug‘oradi, sug‘orib bo‘lgach, suv qirg‘oqlarga – o‘zanga qaytadi; so‘ngra har bir dehqon o‘z yeriga urug‘ sepaди va bu yerga cho‘chqalarни qo‘yib yuboradi, cho‘chqalar tuproqni bosib yurib, urug‘likni tuproq bilan aralashdirib yuboradilar”.

Gerodot misrliklar dini haqida ko‘pgina ma’lumotlar berib, dinning marosim xususiyatlarini bayon qilgan. U misrliklar muqaddas deb hisoblagan ho‘kiz, lochin, it, mushuk va timsoh kabi jonivorlarga e’tiqod qilishlarini ham bayon qilgan.

Shuni ta‘kidlash lozimki, Gerodot Misrning siyosiy tarixiga ham katta e‘tibor berib, u o‘z asariga Misr davlatining eng qadimgi asoschisi Mina haqidagi rivoyatni kiritgan.

Gerodotning IV sulolaga mansub fir‘avnarning xalqni juda qat-tiq jabr-zulmga duchor qilib, piramidalar qurishda nihoyatda ko‘p odamlarni ishlatganliklari to‘g‘risidagi hikoyasi zo‘r mahorat bilan bayon etilgan. Gerodot Misr tarixining Sais va Fors davri(m.av. XI–IV asrlar)ga oid voqealarni bayon qilgan hikoyasi ancha to‘g‘ri va mufassaldir.

Gerodot Misr madaniyatiga yuksak baho berib, birinchi marta misrliklar alohida taqvim tuzganliklarini, astronomik kuzatishlarga asoslanib yilni 12 oyga ajratganliklarini aytadi.

M.av. 332-yilda Misr Makedoniyalik Aleksandr tomonidan jangsiz bosib olingen. Makedoniyalik Aleksandr qo‘shinlari bilan bu yerga juda ko‘p makedoniyaliklar, yunonlar ko‘chib kelishgan. Makedoniyalik Aleksandr zamondoshi Manefon degan ruhoniylarning yunon tilidagi “Misr tarixi” asarini yozgan. Manefon m.av. IV–III asrlarda yashab ijod etgan tarixchilardan biri bo‘lib, Misr haqida yozgan qadimgi mualliflar orasida alohida o‘rin tutadi. Manefon Misr kohini – bosh ruhoniysi bo‘lganligi tufayli, Misr ibodatxona arxivlariga va kutubxonalariga bemalol kira olgan. Shu bois u Qadimgi Misr manbalarini yaxshi o‘rgangan. U yunon tilini yaxshi bilgan va yunon ilm-fanidan bahramand bo‘lgan. Afsuski, Manefonning Misr tarixiga bag‘ishlangan asari to‘liq holda zamonamizgacha saqlanib qolmagan. Keyingi asrlarda yashagan mualliflar Iosif Flaviy (milodning I asri) va Evsefiy (milodning IV

asri) kabilarning asarlarida Manefonning asarlaridan olingan qisqa-qisqa ko'chirmalar zamonamizgacha saqlanib qolgan. Ancha keyingi zamonlardagi tarixchilar tomonidan Manefon asari asosida tuzilgan va 30 sulolaga mansub bo'lgan hamma fir'avnlarning nomlari haqida qisqacha ma'lumotlar va xronologik sanalar yozilgan matn saqlanib qolgan. Manefon tarixiy asarining shu kichik-kichik parchalari ham Qadimgi Misrning siyosiy tarixini va xronologiyasini tiklashda katta ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan. Manefondan keltirilgan parchada giksoslarning Misr ustiga bostirib kirishlari haqidagi ma'lumot ham katta ahamiyatga egadir.

Manefondan keyin yashagan mualliflar uning asariga yuksak e'tibor bilan qaraganlar. Chunonchi, Sinkell Manefonning o'z asarlarida misrliklar tarixini o'rganishda Misr yozuvlaridan manba sifatida foydalanganligini aytadi. Jumladan, Evsefiy "misrlik Manefon faqat butun Misr tarixini emas, balki uning butun teologiya – diniy aqidalar majmuasini ham yunoncha shaklga solgan", – deb yozadi. Mashhur sharqshunos tarixchi V.I.Avdiyevning fikricha, zamona-miz tarixchilari Manefon asarlaridan olingan parchalarga tanqidiy ko'z bilan qaramoqlari kerak.

M.av. I asrda yashagan, o'zining umumiyligi tarix to'g'risidagi asarini yozganda yunon tarixchilari Gekatey Abderskiy va Agatar-xidning ko'p asarlaridan foydalangan. M. av. I asrda yashagan Diodor o'zigacha o'tgan tarixchilarning asarlaridan foydalanib Misrning tabiiy sharoitini atroflicha bayon etgan. U Nexo degan Misr fir'avni Nil daryosining sharqiy tarmoqlaridan kanal chiqarib, uni Qizil dengiz bilan tutashtirmoqchi bo'lganini hikoya qilgan. Diodor o'z asarida Qadimgi Misr qonunlari va ma'muriy idora tartibining xususiyatlarini bayon qilar ekan. Qadimgi Misrning despotik – zo'rlikka asoslangan davlat tuzumini ideallashtiradi. U Misr sudi, forslar davrigacha o'tgan beshta podshoning yangi qonunlari haqida gapirib, mazkur qonunlarni maqtagan. U Qadimgi Misr madaniyatiga yuksak baho berib, Qadimgi Misr madaniyatining qadimgi dunyo madaniyatiga ko'rsatgan ta'sirini ta'kidlab o'tadi.

Diodorning Misr tarixinining forslar hukmronligi va undan keyin-gi davrlarga oid voqealarni bayon qilgan qismi diqqatga sazovordir.

Shuningdek, Diodor o‘z asarida Nubiyadagi oltin konlaridan misrliklar qanday foydalanganliklarini ham batatsil bayon etgan.

Diodorning aytishicha, ana shu konlarda mahkum etilgan jinoyatchilar “kishan solingan holda, kecha-yu kunduz tinmay ishlaydilar, ular hatto qochishga umid qilish imkoniyatidan ham mahrumdirlar, chunki ular chet ellik askarlar nazorati ostidadirlar”. Bu ma’lumotlar Diodor Sitsiliyskiyning “Tarixiy kutubxona” asarida ham bayon etilgan.

M. av. I va milodiy I asrlarda yashagan yunon mualliflaridan biri Strabon o‘zining “Geografiya” asarida Qadimgi Misr haqida ham qimmatli ma’lumotlar yozib qoldirgan.

Strabon o‘zidan oldin o’tgan tarixchilarning asarlaridan keng foydalaniib, Nil daryosi, uning toshqinlarini, tabiiy va sun’iy sug‘orish tizimini, Misr o’simliklari va hayvonot dunyosini atroficha bayon etgan. U Qadimgi misrliklarning xo‘jalik hayoti, kanallar va yulduzlar tizimi, Fayum vohasining suv ta’minoti masalalari haqida qimmatli ma’lumot beradi. Strabon Misrdagi zaytunchilikni, undan o’simlik moyi tayyorlash yo‘llarini va musallaschilikni bayon etib, xo‘jalik jihatdan juda boy bo‘lgan Arsinoy degan joyni ko‘rsatib o’tadi.

Strabon o‘z asarida Misrga qo‘shti bo‘lgan qabilalar, xususan Efiopiya haqida qimmatli ma’lumot beradi, Misr madaniyatining Yunonistonga qilgan ta’sirini ko‘rsatib o’tadi. Strabon Evdoks va Platon kabi mashhur yunon olim va faylasuflarining uzoq yillar Misrda yashaganlari va misrlik kohinlardan ko‘p narsa o‘rganganliklarini bayon qilgan. Qadimgi Misr haqidagi ma’lumotlar milodiy I-II asrlarda yashagan rimlik yozuvchi Tatsit va milodiy IV asrda yashagan Ammian Marsellin asarlarida ham saqlanib qolgan.

Misrliklarning diniy e’tiqodini o‘rganishda m. 46–120-yillarda yashab ijod etgan Plutarx Xeroneyskiyning “Izida va Oziris to‘g‘risida” degan asari muhim ahamiyatga egadir. Plutarx bu asarini juda ko‘p manbalar asosida yozgan.

Shunday qilib, qadimgi yunon mualliflarining asarlari Qadimgi Misr tarixi, uning tabiatni, Nil toshqinlari, xo‘jaligi, sug‘orish inshootlari tarixi, madaniyati va diniy e’tiqodini o‘rganishda qimma-

li manba bo'lib, ularidan keyingi avlod tarixchilari keng miqyosda foydalanganlar.

Misrda arxeologik tekshirishlar tarixidan. Qadimgi dunyo madaniyatining rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan ko'hna Misr madaniyati Yevropa va jahon sayyoohlari va olimlarining diqqat-e'tiborini o'ziga tortib kelgan. Ma'lumki, Qadimgi Sharq madaniyati bilan yaqindan bog'lanib o'sgan qadimgi Yunoniston va Rim tarixi hamda madaniyatini Yevropada Uyg'onish davridan boshlab o'rganishga kirishilgan. XVI asrning buyuk faylasufi Jordano Bruno o'z asarlarida Qadimgi Misr madaniyatiga yuksak baho bergan. J. Bruno fikricha, qadimgi yahudiylar, yunonlar va rimliklar Qadimgi Misr madaniyatidan bahramand bo'lganlar.

XVIII asr o'rtalarida Misrga kelib ketgan Pokok, Norden va Bryus kabilalar u yerdagи qadimgi piramidalar – ehromlar va Fiva yaqinidagi marhumlar vodiysida berkitilgan podsho maqbaralarini ta'rif va tasvir etgan muhim asarlar qoldirganlar. G'arbiy Yevropaning o'qimishli ziyolilari Napoleon Bonapartning 1798-yildagi Misrga harbiy yurishlari tufayli Qadimgi Misr madaniyati bilan kengroq tanishish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Bonapart ekspeditsiyasi tarkibida turli olimlar, shu jumladan arxeologlar ham bor edi. Mazkur ekspeditsiyaning ilmiy tekshirishlari natijasida "Misr tasvirlari"ga bag'ishlangan juda qimmatli asar nashr etilgan. Mazkur asar 24 jildlik matn, hamda Qadimgi Misr ibodatxonalarini xarobalarining rasmlari, yozuvlarning nusxalari va ekspeditsiya qatnashchilari to'plagan juda ko'p qadimgi yodgorliklarni ko'rsatuvchi jadvallardan iborat. Yevropaga keltirilgan Qadimgi Misr yodgorliklarining kolleksiyalari olimlar va keng jamoatchilik o'rtasida Qadimgi Misr tarixi va madaniyatiga zo'r qiziqish uyg'otgan. Ba'zi olimlar kolleksiyalar ichidagi Misr yozuviga qiziqib, uni o'qib chiqishga qizg'inlik bilan kirishganlar. Bular orasida mashhur fransuz filologi Fransua Shampalon (1790–1832) faoliyati alohida o'rinni egallaydi. U Misr iyeroglislarini o'qish usulini topgan. J.F.Shampalon ana shu kashfiyoti va bir qancha ilmiy asarlari bilan misrshunoslikka asos solgan olimdir.

Napoleon Bonapartning Misrga qilgan yurishlari vaqtida topilgan Rozett toshidagi ikki tilda – yunon-misr tilida yozilgan yozuv Misr yozuvlarini o'qib chiqish uchun birgina asos bo'lган. Misrshunoslik tarixidagi ana shu birinchi davr moddiy madaniyat yodgorliklari, yozuvlar, rasmlar va nusxalardan iborat haqiqiy ma'lumotlarni zo'r berib toplash bo'lган. Shampalon o'zidan oldin o'tgan olimlarning ishini davom ettirib. Qadimgi Misr tarixi va madaniyatini o'rganish yuzasidan katta reja belgilaydi. U o'zining "Misrga abadiy sayohat loyihasi haqidagi maktubi"da Misr madaniyatidan qolgan moddiy yodgorliklarning hammasini shu joyning o'zida o'rganish zarur degan fikrni ilgari suradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, J.F.Shampalon qadimgi misrliklarning san'ati, dini va mifologiyasi bilangina emas, balki Nil vodiysida hunar va fanning taraqqiysi hamda "Fir'avnlar mamlakati"ning siyosiy tarixi bilan ham qiziqqan. U Fiva maqbaralarida tasvirlangan va aholining turli tabaqalarining turmushi va maishatiga oid suratlardan sinchiklab nusxalar olishni zarur deb bilgan. Bunda xususan "etnografik bo'rtma tasvirlar"ga, astronomik suratlarga va asosiy iyeroglis yozuvlariga e'tibor berish zarurligini aytgan. U 1828-yilda Misrga arxeologik ekspeditsiya tashkil etib, o'zining tuzgan loyihasini amalga oshirishga muvaffaq bo'lган. Shampalon bu ekspeditsiyasi bilan Misrda bir yarim yilcha turib qazish ishlarini o'tkazgan. Bu davrda u qadimgi yodgorliklarni qazib o'rganib, ko'p ma'lumot to'plagan, rasmlar chizgan va yozuvlardan nusxalar olgan. J.F.Shampalonning zo'r g'ayrat bilan qilgan ishlarining juda qimmatli samaralari, uning o'limidan keyin bosilgan "Misr va Nubiya yodgorliklari" degan albomlar seriyasida nashr etilgan. XIX asr o'rtalarida nemis misrshunoslari Lensius va G.Brugsh katta arxeologik qidiruv ekspeditsiyalari tuzib Misrga borganlar. Ular birgina Misrni emas, balki Suriya, Falastin, Sinay yarim oroli, Nubiya va Sudanni, shuningdek, Misrga yondosh viloyatlarni ham arxeologik nuqtayi nazardan tekshirganlar. Bu ekspeditsiyalar nati-jasida juda ko'p yodgorliklar o'rganilib, ularning madaniy qatlamlaridan yuqorida nomlari zikr qilingan mamlakatlar tarixiga oid juda ko'p ma'lumotlar to'plangan.

Bu ekspeditsiyaning ish natijalari “Misr va Efiopiya yodgorliklari” degan katta va go’zal albomlarda nashr etilgan.

Joni-dili bilan fanga berilgan iste’dodli olim Mariyett Misrda rejali ravishda va keng ko’lamdagi arxeologik qazish ishlari olib borgan. U Memfis yaqinidagi muqaddas ho’kizlar – Apislar maqbarasi, Sakkaradagi Qadimgi podsholik maqbaralari, Abidosdagi XIX sulola ibodatxonalarida qazish ishlarini olib borgan. U juda ko’p yirik xarobalar saqlanib qolgan Qadimgi Misr podsholari poytaxti Fiva atrofida ham qazish ishlarini o’tkazgan.

Mariyett Misrda qazishmalar va qadimgi yodgorliklarni o’rganish uchun maxsus boshqarmani uyushtirishga Kohirada misrshunoslik muzeyini barpo etishga yordam bergen. F.Shampalon va O.Mariyetning arxeologik ishlarini mashhur fransuz misrshunosi Gaston Maspero (1846–1916) munosib davom ettirgan. G.Maspero serg’ayrat va tinib-tinchimas arxeolog bo’lishi bilan birga, chuqur bilimli filolog va g’oyat zo’r tarixchi ham edi. U V–VI sulolalarining Sakkaradagi piramidalarini sinchiklab tekshirib, ularning ichiga kirishga ham muyassar bo’lgan. Maspero piramidalarning ichki dafn xonalaridan juda muhim diniy matn topgan. Maspero bu yozuvlarni “Sakkara piramidalarining yozuvlari” nomi bilan nashr ettirgan.

U Fivaga yaqin Dayrilbaharda Yangi podsholik davridagi eng mashhur bir necha fir’avnarning mumiyosini yashirin bir joydan topishga muyassar bo’lgan. Maspero Misrda qadimgi yodgorliklarni saqlash, o’rganish va nashr ettirish ishlarini uyushtirgan va bu ishlarini yuksak darajaga ko’targan.

XIX asr oxirida maxsus “Misrni tekshirish fondi” tashkil etilgan. Bu fondning tashkil etilishi Misrda arxeologik qazish ishlaringning keng ko’lamda rivojlanishiga yordam bergen.

XIX asrning oxirida birinchi marta arxaik davr yodgorliklarni ochgan J. de Morgan, so’ngra malika Xatshepsutning mag’ora ibodatxonasini sinchiklab tekshirgan. Nihoyat o’zining butun uzoq umrini (1856–1942) Misr yodgorliklarini arxeologik jihatdan tekshirishga bag’ishlangan ingliz arxeologi Flinders Petri Misrda eng katta qazishlar o’tkazgan. U Abidosda sulolalardan ilgarigi davrga

oid podsholarning maqbaralarini, Fayum vohasi yonida O'rta podsholik shahrining xarobalarini, Dafneda va Navkratisdagi yunon manzillarining qoldiqlarini topgan va ularni sinchiklab o'rgangan.

Petri o'tkazgan qazishmalar natijasida fanga Qadimgi Misrning moddiy madaniyati tarixi haqida juda ko'p qimmatli yodgorliklar va nodir yozuvlar qo'shilgan.

XX asrda Misrda arxeologik qazish ishlari tartibga solinib, keng ko'lardagi ishlar amalga oshirildi.

XX asrda Misr arxeologiyasini o'rganish ishiga Reysner, ingliz va fransuz arxeologlaridan Pert. Genn. Lauer, Jeke va boshqalar o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganlar.

Ma'lumki, m. av. II mingyillik o'rtalarida Misr fir'avnlarining jasadlarini hammaga ko'rinish turadigan va talon-taroj qilish oson bo'lgan piramidalarga – ehromlarga ko'mmasdan, balki hech kim bilmaydigan qilib qoyalarga o'yib ishlangan yer osti maqbaralari-ga ko'mganlar. Ulardan bittasi talanmay saqlangan. U ham bo'lsa Fiva shahrining g'arb tomonida, podsholar vodiysidan topilgan mashhur Tutanxamon (m. av. XIV asr) XVIII sulola podshosining mumiyolangan jasadi edi. Uni 1922-yilda ingliz olimlari T. Karter bilan Karnavonlar topishgan. Bu dahmaning hujrasidan 19 yoshli kasalmand yigit – Tutanxamon jasadi ajoyib nafis qilib ishlangan g'oyat go'zal oltin tobutga solingan ekan. Bu oltin tobut yana oltin, tosh va yog'ochdan ishlangan ettita tobutga solingan. Tobut ichida uning qiyofasini aniqlash imkonini beruvchi oltin niqob ham bo'lgan.

Sakkiz qavat tobut yoniga benihoya qimmat buyumlar – nafis naqsh solib ganchdan ishlangan vaza, kumush trubalar, tillaqosh, juda ko'p qimmatbaho ziynat buyumlar, tumorlar, sira qo'l tegilma-gan podshoning mumiyolangan jasadi ham saqlangan.

A.Rou, Feyrmen va boshqalar ham Misrning turli joylaridan XVIII–XIX sulola fir'avnlari davriga mansub ko'plab arxeologik yodgorliklarni topib o'rganganlar.

Shuni ta'kidlash joizki, yuz yildan ortiq vaqt ichida Misrda o'tkazilgan arxeologik qazishlar natijasida juda ham ko'p moddiy madani-

yat yodgorliklari, xilma-xil yozuvlar, san'at asarlari, me'morchilik obidalari va diniy e'tiqod bilan bog'liq buyumlar ham topib o'r ganildi.

Arxeologik qazishmalar vaqtida topib o'r ganilgan buyumlar Qadimgi Misr tarixini oydinlashtirib, ilmiy misrshunoslikning yanada rivojlanishiga jiddiy asos bo'ldi. Bu davrning yana bir ulkan yutug'i Fransa F.Shampalon tomonidan Misr iyeroglf yozuvining o'qib chiqilishi bo'ldi.

Qadimgi Misr yozuvi yodgorliklari – tarixiy manba sifatida. Ma'lumki, keyingi 200 yil davomida Misrda olib borilgan arxeologik qazish ishlari natijasida ko'pgina arxeologik yodgorliklar qazib o'r ganildi. Misrdagi xilma-xil yodgorliklar orasida hudud xalqlari tarixini o'r ganish uchun eng muhim manbalardan biri qadimiy yozuv va yozma yodgorliklar hisoblanadi. Bu qadimgi yozuvlar shifyer – ya'ni silliqlangan tosh lavhalarda, fil suyagidan yasalgan plastinkalarda, qora yog'ochdan yasalgan taxtachalarda va silindr shaklidagi muhrlarda saqlanib qolgan. Bu yozuvlar orasida Narmyer degan fir'avnning g'alaba yozuvi ayniqsa diqqatga sazovordir. Bu yozuvda podshoning dushman ustidan qilgan g'alabasi, askarlarning qal'aga hujumi va hukmdorning jang maydonini tomosha qilayotgani tasvirlagan. Rasm yonidagi katta shifyer lavha da saqlangan. "Palermo toshi" deb atalgan toshda matni saqlanib qolgan qadimgi yilnomalarning bir qismi Qadimgi podsholik davriga mansubdir. Mazkur yilnomada Misrning V sulolagacha bo'lgan podsholarining nomlari qayd etilgan va Neuserra nomi bilan tuga gan. Bu matnda o'sha davrdagi eng muhim voqealar haqida qisqa ma'lumotlar berilgan. Unda u yoki bu podshoning hukmronlik yil larining sanasi ham aytib o'tilgan.

Misr tarixining davrlarini belgilash uchun "Turin podsholik papirusi" deb atalgan papirus ham katta ahamiyatga ega.

Bu papirusda XVIII sulolaga qadar o'tgan Misr fir'avnlarining ro'yxati, ularning podsholik qilgan yil, oy va hatto kunlari ham ko'rsatilgan.

Misrda Yangi podsholik davriga oid yilnomalar va tarixiy matn yaxshi saqlanib qolgan. Bularning ko'pchiligi ibodatxona devorlariga tushirilgan yozuvlardir. Bu jihatdan Karnakda xudo Amonga

atalgan Fiva shahri ibodatxonasining devorlarida saqlanib qolgan “Tutmos III yilnomasi” diqqatga sazovordir. Bu yilnomada Tutmos III harbiy yurishlari, podsholik qilgan va boj olgan yillari, Misr qo’shinlarini harakati, janglari, dushman lagerining tor-mor qilinishi, Suriya shaharlarining qamal qilinishi va olinishi bayon qilingan.

Abu Sumbul, Luksor va Ramyeyseydag'i ibodatxonalarining devorlarida saqlanib qolgan matnda Ramzes II podsholigining 5-yilida uning Suriyaga qo’shin tortib borgani, shuningdek, Kadesh yonidagi mashhur jang haqida ancha mufassal bayon etilgan. Bu matnlarda podsho Ramzes II ni ulug’lash uchun voqe-a-hodisalarni bo’rttirib ko’rsatish hollarini ham sezish mumkin. Misr hukumatinning tashqi siyosatini fir’avn Exnaton bino qildirgan poytaxt Ax-etatondagi davlat arxivi (Amarna arxividan)dan topilgan mixxat hujjatlar ham yorqin tasvirlab beradi. Bu hujjatlar Misr fir’avnlarining Old Osiyo podsholari bilan Suriya va Falastindagi ayrim viloyat va shaharlarning hokimi va noiblari bilan yozishib turgan diplomatik xatlarining matnlaridan iboratdir.

Misrning Xett davlati bilan uzoq yillar davom etgan urushlaridan keyin Ramzes II ning Xett podshosi Xattusili III bilan tuzgan sulu shartnomasining juda yaxshi saqlanib qolgan matni XIX sulola davridagi Misr diplomatiya tarixi uchun juda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Misrning janubiy chegaralarida, Nubiyyada, shuningdek, Vadixamaat darasida va Sinay yarim orolidagi qoyalarida ham qisqa-qisqa yozuvlar saqlanib qolgandirki, ularda misrlik qo’shincharning Nubiyyaga, Sinaya kirib borganliklari haqida, bu mamlakatlarni istilo qilganliklari, u yerlardan qimmatbaho tosh oltin, mis va boshqa buyumlar olib qaytganliklari bayon qilingan.

Qadimgi podsholik zamonidan V–VI sulola va Yangi podsholik zamonidan qolgan, shuningdek, Ramzes IV zamonida tuzilgan “Garris papirusi”ning tarixiy matnlarida podsho farmonlari, unda ibodatxonalarining va ibodatxona dahalarining huquqlari va imtiyozlari bayon etilgan. Ularda ibodatxona qurilishi, podsholarning bu ibodatxonalarga qilgan katta-katta sovg‘a-tortiqlari, shuningdek, Amon ibodatxonasining qayta tiklanishi qayd etilgan.

Ayni paytda podsho va shahzodalarning uylanishi munosabati bilan o’tkazilgan nikoh tantanasi, yangi bir shaharning bino qilinishi ham o’z aksini topgan.

Qadimgi Misrdan qolgan yuridik hujjatlardan Qadimgi podsholik davridagi sudning meros to‘g‘risidagi ishi yuzasidan yozgan bayonnomalarini. O‘rta podsholik zamondagi Fiva saroyining kirim-chiqim daftarini. Ramzes III ga qarshi qilingan fitna va podsholar maqbaralarining talanishi yuzasidan bo‘lgan sud jarayonlarining aktlarini, vasiyatnomalar, darxon yerlarining vasiqalari va bitimlarining matnlarini, statistika ro‘yxatlarining parchalarini ko‘rsatib o‘tish lozim. Sopol idishlarga va tosh parchalariga yozilgan rasmiy hujjatlarning matnlaridan ancha ko‘proq yodgorliklar saqlanib qolgan. Xususiy xatlar, marhumlarga bag‘ishlab yozilgan maktublar, katta mansabdorlarning tarjimayi hollari yozilgan matn va hujjatlar misrliklarning kundalik hayotini yoritib berishda muhim ahamiyatga ega.

Maqbaralarning devorlarida saqlanib qolgan matnlarda davlatni idora qilishning ma‘muriy tizimi, harbiy ishlar va sud ishlarining qanday uyushtirilganligi, Sinayga. Nubiyyaga uyushtirilgan harbiy yurishlar bayon etilgan. Unda ayrim zodagonlarga podshoning yer tortiq qilganligi yozilgan.

Bani-Hasan va Siht nomarxlarining tarjimayi hollari yozilgan matnda O‘rta podsholik bilan Yangi podsholik o‘rtasida o‘tgan davrda mulkdor zodagonlarning kuchayish jarayoni, Gerakleopol podsholarining Fiva hokimlari bilan olib borgan kurashlari tasvir etilgan. Ayrim amaldorlarning tarjimayi holi yozilgan matnlarda Misrning xo‘jalik hayoti va ma‘muriy boshqarish tizimi haqidagi ham qimmatli ma‘lumotlar bor. Podsholar va shahzodalarning “Nasihatnama”larida o‘sha davrdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot va davlatni boshqarish bilan bog‘liq masalalar, shuningdek, kambag‘allar, hunarmandlar va dehqonlarning mashaqqatli hayoti ham tasvirlangan.

Bu jihatdan “Ipusyer nasihatnomasi” bilan “Nefertiti nasihatnomasi” diqqatga sazovordir. Mazkur nasihatnomalarda Misrda bo‘lib o‘tgan katta ijtimoiy to‘ntarish bayon etilgan. Misrdagi kambag‘al va qullar qo‘zg‘oloni O‘rta podsholik davrining oxirlarida, mamlakatga osiyolik giksos qabilalari bostirib kelgan vaqtga to‘g‘ri keladi.

Misrliklarning qo'shni mamlakatlarga qilgan sayohatlari bayon qilingan papiruslar mashhur "Senuxet qissasi", Unu-Amonning "Suriyaga sayohati"da badiiy tarzda bayon etilgan.

Nihoyat tarixchi uchun diniy – sehr-afsungarlik yozuvlari ham katta ahamiyatga egadir.

Qadimgi podsholik davrida qurilgan piramidalardagi matnlar podsholar va podsholik hokimiyatini ilohiyashtiradi va puxta ishlab chiqilgan mafkurani tasvirlaydi. Yagona quyosh xudosiga e'tiqod qilish joriy etilgan davrda quyosh gardishining xodosi Atonga bag'ishlab tuzilgan ajoyib madhiya o'sha zamonlarda katta ahamiyatga ega bo'lgan mazkur diniy islohotni tasvirlash uchun zarur manba bo'lib xizmat qiladi. "Marhumlar kitobi" bo'lmish diniy to'plamda xudolar va podsholarga bag'ishlangan madhiyalar, mafsim va miflar, marhumlarga o'qiladigan sahifalar va duo-afsular, Qadimgi misrliklar dini va sehrgarligini hamda bularning asrlar bo'yli qanday rivojlanib borganligini batafsil o'rganishga imkon beradi.

Shunday qilib, Misr ibodatxonalari, saroylari, piramidalari va papiruslarga yozilgan matnlar, shuningdek, "Nasihatnomा" va "Sayohatnomा"lar misrliklar tarixi, xo'jaligi, ijtimoiy tuzumi, diniy e'tiqodi va madaniyatini o'rganishning bebaho xazinasi hisoblanadi.

Xorijiy mamlakatlarda misrshunoslikning rivojlanishi. Ma'lumki, XIX asr boshlarigacha bo'lgan davrda xorijiy olimlar ixtiyorida Qadimgi Misr tarixi to'g'risida ba'zi ma'lumotlarga bor edi, xolos.

Misrshunoslik fanining boshlanishi mashhur fransuz olimi Jak Fransa Shampalonning 1822-yilda Qadimgi Misr yozushi asosidagi matnlarni o'qib chiqishidan boshlangan. J.F.Shampalon Misrda ekanida juda ko'p moddiy madaniyat yodgorliklari, rasmlar va yozuv matnlari to'plagan. J.F.Shampalonning ko'pgina ilmiy asarlari, jumladan, "Qadimgi Misr tili grammatikasi va lug'ati" asari ham uning vafotidan so'ng nashr etilgan. J.F.Shampalonning Qadimgi Misr va Nubiya tarixiga oid ko'p jildli "Qadimgi Misr va Nubiya yodgorliklari" asari bu mamlakatlar tarixini o'rganish uchun qimmatli manba hisoblanadi.

XIX asr oʻrtalarida J.F.Shampalon izdoshlaridan biri germaniyalik misrshunos R.Lepsius Misrga juda katta ekspeditsiya uyushtiradi. U Misr, Nil vohasi va unga tutash boʻlgan joylarda keng koʻlamdagι qidiruv-qazuv ishlarini yoʻlga qoʻyadi. Bu ekspeditsiya ishlarida germaniyalik G.Brugsh va boshqalar ham faol ishtirok etadilar. Qadimgi Misr arxeologiyasi va tarixini oʻrganish ishida fransiyalik Deveria, de Ruje va Shaba, italiyalik Rozellini va ingлиз olimlari Berglar ham faoliyat koʻrsatadilar. R.Lepsius oʻzining Misrdagi arxeologik qazuv ishlarining natijalarini “Misr va Efiopiya yodgorliklari” degan asarida bayon etgan. R.Lepsiusning buyuk xizmatlaridan biri Misr xronologiyasini oʻrganib, shu asosda Misr tarixini birinchi boʻlib davrlarga boʻldi. G.Brugsh esa Misr tili lugʼati haqida juda koʻp asar yozib nashr ettirgan. Brugsh Misr tarixining birinchi umumiy ocherkini yozdi va misrshunoslik toʼgʼrisida oʼsha zamon uchun foydali boʻlgan maʼlumotnomalar va qoʻllanmalar tuzdi.

Fransuz arxeologi O.Mariyett Misrdagi juda koʻp arxeologik yodgorliklarda keng koʻlamli arxeologik qazish ishlarini amalga oshirdi. U Qohirada “Misrshunoslik muzeyi”ni tashkil etishda faol ishtirok etdi.

Arxeolog, filolog va tarixchining ishlarini bирgalikda qoʼshib olib bora bilgan G.Maspero misrshunoslikka va Qadimgi Sharq tarixini oʻrganishga katta hissa qoʼshdi. U oʻzining “Klassik Sharq xalqlarining qadimgi tarixi” degan katta asarida birinchi marta Qadimgi Misr tarixi va madaniyatini klassik Sharq, yaʼni Shimoli-Shaqriy Afrika va Old Osiyodagi bir qancha xalqlarning juda keng tarixiy rivojlanish doirasiga kiritdi. G.Masperoning ulugʼ xizmatlaridan yana biri shuki, u Qadimgi Misr madaniyati, tili, sanʼati va dinini mufassal oʻrganib, Misr dini va sanʼatining rivojlanishidagi asosiy davrlarni belgilab chiqdi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida A.Erman va K.Zeti misrliklar tilini oʻrganish masalalariga bagʼishlab bir qator yirik asarlar yozdi. A.Erman va Grapovlar esa Qadimgi Misr tilining eng katta lugʼatini tuzdilar. Mazkur lugʼat hozirgi zamonning ulkan yutuqlaridan

biri hisoblanadi. Shuni aytish kerakki, Misr tilining kelib chiqishi borasida turli qarashlar bo'lib, ba'zi olimlar uni shumerliklar tili bilan, ba'zilar Old Osiyo xalqlari tili bilan bog'laydilar. Xususan amerikalik mutaxassis G.Frankfort misrliklar alifbosini shumerliklar yozuvi ta'siri ostida vujudga kelgan degan fikrni bildiradi.

Ingliz olimi A.Gardiner va amerikalik olimlar, xususan, D.G.Brested o'zlarining umumlashgan asarlari bilan misrshunoslikka katta hissa qo'shganlar.

Fransuz arxeologi Jak Vande ham o'zining yirik, qimmatli asarlari bilan misrshunoslikka katta hissa qo'shgan olimdir. Misrshunoslikka ulkan hissa qo'shgan chek olimlari qatoriga Frantishek Leksa va Yaroslav Cherniy kabi tadqiqotchilarni qo'shish mumkin.

XX asrning 20-yillaridan boshlab Misrda mahalliy misrshunoslik maktabi shakllana boshladi. Ulardan biri mashhur misrshunos olim G.Brugshning shogirdi va hamkasbi, birinchi misrlik arxeolog Ahmed Kamol bo'lib u ustozи Brugsh ishini davom ettiradi.

Mahalliy misrshunoslardan Salim Hassan va Zakariyo Xonoem tadqiqotlari ham Qadimgi Misr tarixini o'rganishda alohida o'rinni egallaydi. Ular Qadimgi podsholik davriga mansub maqbara va piramidalarni tadqiq qilib, nom chiqardilar.

Mahalliy misrshunoslardan A. Bakir ham Qadimgi Misr qulchiligi masalasiga bag'ishlangan chuqur tadqiqotlari bilan shuhrat qozondi.

Misr tarixini o'rganish butun XX asr davomida keng miqyosda olib borilib. bu harakat XXI asrda ham keng ko'lamda davom etmoqda.

Rossiya olimlarining Misr tarixini o'rganishdagи o'rni. Ma'humki, rus va sobiq sovet olimlari ham Qadimgi Sharq, shuningdek, misrshunoslari va Qadimgi Misr tarixini o'rganishga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shdilar. Ma'lumotlarga ko'ra, Rossiyada Sharq mamlakatlari, Sharq xalqlari, xususan Qadimgi Misr tarixi va madaniyatiga qiziqish ancha erta boshlangan. Rossiyalik sayyoqlar, savdogarlar, elchilar va ziyoratchilar Falastinda, Suriyada, Arabistonda, Eronda, Hindistonda, Turkiyada, uzoq Xitoy mamlakatlarida bo'lganlar. Ularning ba'zilari Misrda ham bo'lib,

u yerda ko'rgan-bilganchi haqida xotiralar yozib qoldirganlar. O'z zamonasining o'qimishli kishisi M.Grigoryev 1493-yilda Misrda bo'lган va Qohiradagi sulton saroyining tavsif va ta'rifini yozgan.

F.F.Doroxov esa XVII asrning 70–80-yillarda Turkiyada bo'lib, "Turkiya imperiyasining ta'rifi" asarini yozgan. Ayni paytda u bir qancha vaqt Misrda bo'lib, kuzatishlari va to'plagan ma'lumotlari asosida Qohira va Iskandariya shaharlarini ta'rif-tavsif etgan. V.G. Barskiy degan rus sayyohi 1727 va 1730-yillarda Sharqning bir qancha mamlakatlarida, shuningdek, Misrda ham bo'lган. U o'zining "Sayohat" degan asarida Qohira, Rozett va Iskandariyadagi haykallarni tasvirlab, ularga rasmlar ilova qilgan, ularda iyeroglyf yozuvi juda aniq aks ettirilgan.

Misr iyeroglyf yozuvlarining o'qib chiqilishi sohasidagi ilk tajribalar rus sharqshunoslari va boshqa sohadagi olimlarning misrshunoslikka bo'lган qiziqishlarni kuchaytirgan. Misr iyeroglyf yozuvlarining ahamiyatiga bag'ishlangan bir qancha asarlar yozgan I.A.Gulyanov J.F.Shampalon bilan munozara qilib turgan.

I.A.Gulyanov o'z zamonasining bilmndon olimi bo'lган. O'sha davrning iste'dodli tarixchisi T.N.Granovskiy I.A.Gulyanovning faoliyatiga yuqori baho berib, "uning tekshirishlari juda ham qiziq va muhimdir", deb yozgan.

Rus akademigi A.N.Olenin J.F.Shampalon kashfiyotining ahamiyatiga yuksak baho bergan, ular bir-biri bilan tez-tez xat yozishib turishgan. A.N.Olenin Misr yozuvi masalalaridan biriga bag'ishlab maxsus asar ham yozgan.

O'z zamonasining o'qimishli kishilaridan biri bo'lган A.S.Norov 1834–835-yillarda Misr va Nubiyaga borgan.

U bu sayohatlari haqida juda qiziqarli asar yozib uni 1840-yilda nashr ettirgan. Bu asarida A.S.Norov Misr madaniyati yodgorliklarini tasvir etib, unda bir qancha tarixiy masalalar, chunonchi Misr madaniyatining yunon madaniyatiga ko'rsatgan ta'siri yoki o'sha davrdagi Misr aholisi urf-odatlari, qadimgi madaniyat an'analari kabi masalalarni bayon etgan. A.S.Norov T.N.Granovskiy bilan uchrashib uni umumiylaridan darslik yozishga undagan. T.N.Granovskiy "Umumiy tarix dasturiga qisqacha bayon" asarida qadim-

gi Sharq tarixini o'rganishning rejasini chizib bergen. Unda Xitoy, Hindiston va Finikiya tarixiga alohida e'tibor qaratilgan. T. N. Granovskiy o'z vafotidan bir necha oy oldin, 1855-yilda darslikning qadimgi Sharq xalqlari tarixiga bag'ishlangan bo'limini yozgan.

Rus tarixchilaridan Adrian Praxov Misrga sayohat qilib, Misrning qadimgi yodgorliklaridan kolleksiya to'plagan. U 1880-yilda "Qadimgi Misr me'morchiligi" asarini yozgan. Unda Qadimgi misrliklarda me'morchilik usullari shakllarining paydo bo'lishi va rivojlanishi masalalari yoritilgan.

Mashhur rus sharqshunos-misrshunoslardan yana biri akademik B.A.Turayev bo'lib, u 1868–1920-yillarda yashab ijod etgan. Uning asarlaridan biri "Qadimgi Sharq tarixi" bo'lib, bu tarixiy asar g'oyat keng ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va hujjatlar bilan juda yaxshi asoslangan. Unda butun Qadimgi Sharq dunyosi yaxlit madaniy-tarixiy holda aks ettirilgan, deb yozadi shogirdlaridan biri V.I.Avdiyev.

B.A.Turayevning misrshunoslikka qo'shgan hissasi Qadimgi Misr madaniy merosini Misr va Efiopiya madaniyatini bilan bog'lab o'rganishdan iborat bo'ldi. Uning yana bir muhim xizmati shundaki, u Moskva nafis san'at muzeyidagi Sharq yodgorliklari bo'lini tashkil qilgan va rus muzeylarida yig'ilgan yodgorliklarni sinchiklab o'rgangan. B.A.Turayevning "Misr adabiyoti" asari g'oyat katta ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, bu asar ham ma'lumotlarga boyligi jihatdan butun dunyo misrshunoslik adabiyotlari ichida tengi yo'q asarlardan biri hisoblanadi.

Juda qimmatli ma'lumot egasi bo'lganligi va fanga chuqur muhabbatli tufayli B.A.Turayev misrshunoslikning I.M.Volkov, A.L.Kostoyeyskiy, V.V.Struve, N.D.Flittner, I.G.Frank-Kamenetskiy, Gessarlardan iborat butun bir maktabini yaratishga tuyassar bo'ldi.

Mashhur rus misrshunoslardan yana biri 1856–1947-yillarda yashab ijod etgan V.S.Golenishev hisoblanadi. U Misrga tez-tez sayohat qilib, sayohatlari davrida u yerda bir qancha qazish ishlari o'tkazib. Qadimgi Misr yodgorliklaridan ko'p va qimmatli kolleksiyalar to'playdi. Bu kolleksiya keyinchalik Moskva nafis san'at

muzevida qadimgi sharq yodgorliklari bo'limining negizini tashkil qiladi. U Misrda "Hammamat" yozuvlarini o'z joyida sinchiklab tekshirdi.

V.S.Golenishev Stabilal-Antarda ibodatxonalarini qayta tiklash haqida malika Xatshepsutning va Suvaysh kanali yonida Tel-al-Masxutdag'i fors podshosi Doro I ning yozuvlarini ham topib o'rganadi.

U Qadimgi Misr yozuvlarining turli yodgorliklarini o'rganish, nashr etish, tarjima qilish va sharhlash bo'yicha ko'plab asarlar yozdi. Chunonchi, sehr-jodu duolari yozilgan "Metternix lavhasi", "Halokatga uchragan kema" to'g'risidagi hikoyalar, "Unu-Amonning Suriyaga sayohati" kabilar shular jumlasidandir.

B.A.Turayevning iste'dotli shogirdlaridan biri V.V.Struve bo'lib, u rus sharqshunoslari va misrshunoslik maktabini yaratgan iste'dodli tarixchilardan biri hisoblanadi. U Qadimgi Misr va Sharq tarixiga bag'ishlab juda ko'p asarlar yozgan. Bu jihatdan akademik V. V. Struvening "Istoriya drevnego Vostoka" ("Qadimgi Sharq tarixi") kitobi alohida o'rinni egallaydi. Bu ajoyib kitob muqaddimadan tashqari 34 bobdan iborat bo'lib, u butun qadimgi Sharq xalqlari tarixini o'z ichiga qamrab olgan kitobdir. Kitob xilma-xil manba, qadimgi yozuv va arxeologik yodgorliklarga suyanib yozilgan. Bu nodir kitob 45 bosma taboq hajmda chop etilgan.

Akademik V.I.Avdiyev ham taniqli sharqshunos va misrshunoslardan biri hisoblanadi.

V.I.Avdiyevning eng mashhur asarlaridan biri "Istoriya drevnego Vostoka" ilk bor 1948-yilda, ikkinchi qayta ishlangan, to'ldirilgan nusxasi esa 1953-yilda nashr etilgan bo'lib, 47 taboqdan ziyoddir. Kitobga juda ko'p rasmlar, chizmalar va xaritalar ilova qilingan. Bu kitob "Qadimgi Sharq tarixi" nomi bilan 1964-yilda o'zbek tiliga tarjima qilingan. Shuni alohida qayd etish joizki, V.I.Avdiyevning ushbu darsligi o'z vaqtida oliy darajadagi davlat mukofotiga sazovor bo'lган. Tarjimaning maxsus muharirini tarix fanlari doktori, akademik Y.G'.G'ulomov bo'lган.

Keyingi 50-60 yil ichida Qadimgi Sharq tarixi va misrshunoslik sohasida M.A.Korostovseva, Y.Y.Perepyolkina, M.E.Mate, N.S. Petrovskiy kabi mashhur olimlar yetishib chiqdilar.

Ma'lumki, 1974-yilda D.G.Redyer va E.A.Cherkasovalarning Y.S.Krushkol tahriri ostidagi "Qadimgi dunyo tarixi" kitobining birinchi jildi tarjimasi qo'llanma sifatida nashr etildi. Shu mualliflar yozgan "Istoriya drevnego mira" I jildi rus tilida 1979-yilda nashr etildi.

Shuningdek. Qadimgi Sharq tarixi (Istoriya drevnego Vostoka) darsligi 1979, 1988, 1999, 2002, 2009-yillari V.I.Kuzishin tahriri ostida bosilib chiqdi. Bu darsliklar V.I.Avdiyev, A.A.Vichatsin, M.A.Dandamayev, D.V.Dsotek, G.F.Ilin, M.V.Kryukov, V.I.Kuzishin, V.M.Masson, D.G.Reder, S.S.Solovyev, I.A.Ladinin, A.A.Nemirovskiylardan iborat mualliflar jamoasi tomonidan yozilgan.

Ma'lumki, 1983-yilda "Istoriya drevnego mira" ("Qadimgi dunyo tarixi")ga bag'ishlangan uch jildlik kitob nashr etilgan. Bu kitob I.M.Dyakonov, V.K.Afanasyev, I.V.Vinogradov, N.V.Kaziryeva, T.V.Stepugina, G.F.Ilin, V.A.Yakobson, G.G.Georgadze, I.A.Lepis, Y.V.Andreyev, Y.B.Sirkin va boshqa mualliflar jamoasi tomonidan yozilgan.

Mazkur kitobning muharrirlari I.M.Dyakonov, V.D.Neronova va I.S.Svensitskayalardan iborat bo'lgan. Bu darslik asosan ma'ruzalar to'plamidan iborat.

Shunday qilib, mashhur rus va xorijlik sharqshunos, misrshunos olimlar o'zlarining noyob darsliklari va tadqiqotlari bilan Sharq xalqlari tarixi, qolaversa Qadimgi Misr tarixini o'rganishga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shgan va qo'shib kelmoqdalar.

Qadimgi Misr tarixining xronologiyasi va davrlarga bo'linishi masalasi. Xronologiya – bu yunoncha "chronoc" (vaqt), "logos" (bilim, tushuncha) degan ma'noni bildiradi.

1. Xronologiya – bu muayyan bir vaqt dan boshlab tarixni, tarixiy voqealarni hisoblab borish haqidagi fandir.

2. Voqealarning birin-ketin paydo bo'lishi, ya'ni voqealar xronologiyasi, voqealarning yuz berishidir.

Umuman, qadimgi Sharq davlatlari tarixining xronologiyasini belgilash qiyin bo'lgani singari, Qadimgi Misr tarixining xro-

nologiyasini belgilash ham ancha murakkabdir. Bu qiyinchilik Qadimgi Sharqda aniq yil hisobi tizimining bo‘lmaganidan kelib chiqadi. Qadimgi Misrda yil hisobi har qaysi fir’avnning podsholik qilgan yillariga qarab olib borilgan va yangilanib turilgan.

Ma‘lum bir fir’avnning podsholik qilgan davri falon yilida deb ko‘rsatilgan yozuvlar, shuningdek, Misr fir’avnlarining qancha yil podsholik qilganligi to‘g‘risida Manefon asarlarida va Misr yilnomalarida saqlanib qolgan ma‘lumotlardir. Bu Misr podsholaring, ular podsholik qilgan yillarni taxminan aniqlab, ro‘yxatlarini belgilab chiqishga imkon beradi. Nihoyat, astronomik kuzatishlariga asoslangan Misr kalendar-taqvim tizimini o‘rganish natijasida Misr xronologiyasining ozmi-ko‘pmi aniq bo‘lgan asosiy nuqtalarini belgilash mumkin bo‘ldi.

Misrning rosmana taqvimi – kalendar yili 365 kundan iborat bo‘lgan, shuning uchun har to‘rt yil ichida **astronomik** yildan bir sutka keyinga qolib yurgan. Bu xato 1460 yildan keyin bir yilga baravar bo‘lgan. Demak, rasmana kalendar yili bilan **astronomik** yil o‘rtasidagi bir yillik farq faqat har 1460 yilda bir marta to‘g‘irlangan, ya’ni har ikkala yil hisobi yangidan bir kundan boshlangan. Ana shu 1460 yillik davr ellinizm zamonida ham ma‘lum bo‘lgan. Bu 1460 yillik davr astronomik kuzatishlar bilan, xususan Siriusning erta chiqishini kuzatib borish bilan bog‘langan bo‘lsa kerak. Sirius 1460 yilda bir marta **Memfes** kengligida quyosh aylanishi bilan va Nilda suvning ko‘tarila borishi bilan bir vaqtga to‘g‘ri kelgan. Keyingi davrlardagi manbalarda ko‘rsatilishicha, milodning 139-yili shunday “Sirius davri”ning boshlanish yili bo‘lgan. Shunday qilib bundan ilgarigi Sirius davrlarining boshlanish yillari m. av. 1321, 1441 va 1781-yillarga to‘g‘ri kelishi kerak.

Misr yozuvlarida ayni bir fir’avn podsholik qilgan yilning qayси kunida Siriusning chiqishi munosabati bilan bayram qilinganini ko‘rsatuvchi ma‘lumotlar saqlanib qolganligi tufayli ana shu kunning aniq sanasini hisoblab chiqish mumkin.

Shu tariqa XII sulolaga mansub Misr fir’avni Senusert III ning m. av. 1883-yildan to 1845-yilgacha podsholik qilganligi aniqlangan. Yangi podsholik zamonining ba’zi sanalarini ham shunday

astronomik hisoblar yordami bilan belgilash mumkin bo‘lgan.

Amarna diplomatik arxividan olingan hujjatlar Yangi podshollik davridagi Misr fir’avnları bilan Bobil, Ossuriya va Xett davlatidagi ba’zi podsholarning podsholik qilishlari o’rtasidagi ba’zi sinxronizmlarni (zamonning to’g’ri kelishini) belgilashga imkon berdi. Bu ham Misr tarixining xronologiyasini tikelashga yordam beradi. O’tmish zamonlardayoq misrlik tarixchi Makedoniyalik Aleksandr va Doro III larning zamondoshi Manefon Qadimgi Misrning butun tarixini 30 sulolaga, agarda shu ro‘yxatga oxirgi 3 nafar eronlik Misr hukmdori Oh, Arses va Doro III Kodomon qo’shilsa 31 sulolaga bo‘lgan edi. Birin-ketin podsholik qilgan fir’avnarning biron-bir guruhini bir sulolaga birlashtirishar ekan, bu ish shu fir’avnlar o’rtasidagi qarindoshlik munosabatlariga qarab qilinmaydi, balki asosan o’sha fir’avnarning bir joydan kelib chiqqanligi yoki ayni bir shaharning o’zida podsholik qilganligiga qarab guruhlanadi. Manefon o’z tarixiy asarlarini uch qismga bo’lib, shu bilan podsholik sulolalarining butun ro‘yxatini taxminan uchta o’nlikka bo‘ladi. U birinchi qismga 1–11 sulolalarni, ikkinchisiga 12–19- sulolalarni, uchinchisiga esa 20–31- sulolalarni kiritadi.

Misr tarixining birinchi marta Manefon tomonidan kiritilgan ana shu xilda davrlarga bo’linishi ba’zi o’zgarishlar bilan to zamonamizgacha saqlanib kelgan. Sulolalarning shu xilda uchta o’nlikka bo’linishi Lepsiusda butun Misr tarixini uchta katta davrga, ya’ni Qadimgi, O’rta va Yangi podsholik davrlariga bo’lib chiqish fikrini tug’dirgan.

Olimlar Qadimgi podsholik davriga odatda 3–6-sulolalarni, O’rta podsholik davriga 11–12- sulolalarni, Yangi podsholik davriga esa 18–20- sulolalarni kiritadilar.

Shuni aytib o’tish joizki, Qadimgi, O’rta va Yangi podsholik oralig’idagi davrlar Misrning iqtisodiy va siyosiy tushkunlik davri hisoblanadi.

Ma’lumki, 3-suloladan oldingi davrga oid juda oz yozma yodgorliklar saqlanib qolgan. Qadimgi Misrda eng qadimgi quldarlik jamiyatni va mustabid davlatning kelib chiqish zam-

ni bo‘lgan. Bu davrni “arxaik davr” deb atash mumkin. Qadimgi podsholik davri kuchli markazlashgan mustabid davlat tashkil topgan zamon edi. O‘rta podsholik davri Misrning yanidan kuchayishi bilan nishonlanadi. Bu davrda 11–12-sulola fir‘avnlari Nubiya bilan Suriyaga yorib o‘tishga harakat qilganlar. Misr madaniyatining ravnaq topgan ana shu zamonni tabaqaviy kurashining keskinlashuvi bilan ham belgilash mumkin.

Yangi podsholik davri esa Misrning siyosiy va madaniy jihatdan yuksalishining oxirgi davridir. Bu davrda Misr Qadimgi Sharq dunyosidagi boshqa davlatlar o‘rtasida eng ustun, birinchi o‘rinni egallashga intilib, keng istilochilik siyosatini olib boradi va xalqaro kurash maydoniga chiqadi.

21–31-sulolalar davrini mamlakatning sekin-asta tushkunlikka yuz tutib borgan davr deb atash mumkin. Bu davrda Misr oxir-oqibat chet elliq istilochilarga qaram bo‘lib qolgan.

Qadimgi Misr tarixining zamonaviy tarixchilar tomonidan davrlashtirilishi. Ma‘lumki dunyoning ilk madaniyat markazlari dan biri bo‘lgan Qadimgi Misrda tabaqaviy jamiyat, ilk davlat va madaniyatning vujudga kelishi m. av. IV mingyillikning ikkinchi yarmiga borib taqaladi.

Sharqshunos olimlar ilk davlatlar va madaniyatning Ikki daryo oralig‘ida yoki Nil vohasida vujudga kelganligi xususida aniq to‘xtamga kelishmagan.

Misr xalqi va davlati uzoq tarixiy rivojlanish jarayonini bosib o‘tgan ekan, uni butunligicha o‘rganib bo‘lmaydi. Shu bois zamonaviy olimlar Qadimgi Misr tarixini quyidagi tarixiy davrlarga bo‘ladilar:

1. Misr tarixining sulolagacha bo‘lgan birinchi davri. Bu m. av. IV mingyillikning boshlariga to‘g‘ri kelib, bu davr Misrda urug‘ ja moalari munosabatlarining buzila boshlangan davriga to‘g‘ri keladi.

2. Sulola yoki gerzey davri bo‘lib, m. av. IV ming yillikning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrdir. Bu davrda mamlakatda ijtimoiy o‘zgarishlar, sug‘orma dehqonchilik, sug‘orish inshootlari va ilk

davlatchalar – “nom”lar vujudga keladi. Shu davrning oxirida mamlakatda Yuqori Misr va Quyi Misr podsholiklari tashkil topadi.

3. Ilk podsholik davri I-II sulolalar boshqaruvi davri. Shuningdek, yagona Umummisr davlatining barpo etilishi (m. av. XXXIII–XXIX asrlar).

4. Qadimgi podsholik davrida Misrning markazlashtirilishi. III–IV sulola podsholarining boshqaruvi. (m. av. XXVIII–XXIII asrlar)

5. Misrda birinchi o‘tish bosqichi (7–10- sulola, m. av. XXIII–XXI asrlar). Markazlashgan yagona Misr davlatining alohida nom-larga – mayda hokimliklarga bo‘linib ketishi.

6. O‘rta podsholik davrida markazlashgan davlatning qayta tiklanishi. XI–XIII sulola podsholarining faoliyati (m. av. XXI–XVIII asrlar).

7. Ikkinci o‘tish bosqichi (14–17-sulola podsholari, m. av. XVIII–XVI asr o‘rtalaridagi davr). Misrning kuchsizlanishi, xalq g‘alayonlari, Misrning giksoslar tomonidan istilo etilishi davri.

8. Yangi podsholik davrida podsholik va Misr madaniyatining gullashi. (18–20-sulola podsholarining boshqaruvi. M. av. XVI–XI asrlar). Misr sultanatining qayta barpo bo‘lishi.

9. Uchinchi o‘tish davri. (21-sulola, m.av XI–X asrlar). Misr davlatining tushkunlikka uchrashi.

10. So‘nggi podsholik davri (m. av. 1085–332-yillar) Misr chet ellik sulolalar hukmi ostida. (22–25- sulola, m. av XI–VIII asrlar). Sais sulolasiga davrida Misrning qayta tiklanishi. (m. av. VII–VI asrlar).

11. Misrning Eron shohlari tomonidan bosib olinishi va Eron sultanatiga qo‘shib olinishi. (XXVIII–XXX sulola, m. av VI asr oxiri – IV asr).

12. Misrning Yunon-Makedon sultanati hukmronligi ostidagi davri.


Shunday qilib. Qadimgi Misr tarixi ilk, qadimgi, o‘rta, yangi va so‘nggi podsholiklar davriga bo‘linib, u o‘z ichiga birinchi o‘tish bosqichini qamrab oladi. O‘rta podsholik davridan so‘ng Misrda ikkinchi o‘tish bosqichi boshlanadi. Yangi podsholikdan so‘ng ham Misrda uchinchi o‘tish davri hukm surgan.

3-§. Ilk podsholik davrida Misr (XXXIII – XXIX asrlar)

Misrda dastlabki davlatlarning tashkil topishi. M. av. VI–V ming yilliklarda xo'jalikning asta-sekin rivojlanishi natijasida

Misrda ilk davlatlarning tashkil topishi uchun zarur shart-sharoit vujudga kelgan. Urug' jamoasining so'nggi davrida urug' jamoalarini shakllanayotgan oqsoqollar, sardorlar va harbiy boshliqlar idora etishgan. Misrda urug' jamoasi yemirilgach, urug' jamoalar o'rnida dastlab qo'shni jamoalari vujudga kelib, xo'jalikning rivojlanishi natijasida ilk davlatchalar paydo bo'ladi. Yangi vujudga kelgan davlatni sobiq urug' jamoasi oqsoqollari, harbiy boshliqlar, badavlat va nufuzli zodagon kishilar idora qila boshlaydilar.

Dastlab Misrda bir necha o'n davlatchalar tashkil topgan. Misrliklar bu davlatchalarini "sepat", yunon tarixchilari esa "nom" deb ataganlar. Nomlar atrofida qishloqlari, dalalari, mahalliy xodosi bor shahardan iborat bo'lган. Har bir nomning o'z hokimi bo'lib, u yunon tilida "nomarx" deyilgan. Ma'lumotlarga qaraganda m. av. IV mingyillik boshlarida va o'rtalarida Misrda 42 ta davlat bo'lган. Bu davrda Yuqori Misrda 22 ta, Quyi Misrda esa 20 ta mayda davlat mavjud bo'lган edi. Memfis shahri Yuqori va Quyi Misr nomlarining chegarasida joylashgan. Har bir nomning



nomarxi o'zining hududidagi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va sug'orish inshootlari qurilishiga katta e'tibor bilan qaragan. Nomarxlar oqsoqol, sardor va harbiy boshliqlarga tayanib, jamoat, diniy va harbiy ishlarni boshqarib turgan. Bu davlatlarda qulchilikning dastlabki kurtaklari ham paydo bo'lgan. Urushlarda asir olingan kishilar qulga aylantirilgan. Shunday qilib jamiyatni boshqaruv tashkiloti sifatida ilk davlatchalar vujudga kelgan va rivojlanma borgan.

M. av. IV mingyillikning ikkinchi yarmidagi vaziyat Misrdagi mayda davlatchalarni birlashtirishni talab etgan. Ko'p jangu-jadallardan keyin Nil daryosining tor vodiysida Yuqori Misr davlati tashkil topadi. Daryo tarmog'ining shimalida joylashgan shaharchalar birlashtirilib, Quyi Misr davlati barpo etilgan. Bu davlatlar o'z podsholariga ega bo'lib, ular mustaqil ish yuritganlar. Keyinchalik esa Misrda yagona podsholik barpo etish uchun ikki podsholik o'rtaida kurash avj olgan. Yilnomachilarining ma'lumotlariga ko'ra, Yuqori Misr podshosi Narmer Quyi Misr yerlariga bostirib kirgan. Narmer qo'shinlari Shimoliy Misr podshosi qo'shinlari ustidan g'alaba qozongan. G'alabadan so'ng u 6000 kishini asir olib, juda ko'p boylik, o'ljalari bilan qaytgan. Shundan boshlab Misrda yagona davlat tuzish uchun kurash kuchaygan.

Misrda yagona davlat tuzish uchun kurash. Misrni yagona davlat bayrog'i ostida birlashtirish Yuqori Misr podshosi Mina (Menes) davrida amalga oshirilgan. M. av. 3000-yilda Mina Yuqori va Quyi Misrni birlashtirib, yagona davlatga asos solgan. U yagona Misr davlatining dastlabki podshosi sifatida birinchi sulolaga asos solgan podshohdir. Mina Quyi Misr chegarasida Memfis shahrini bino qildirib, uni mamlakat poytaxtiga aylantirgan. Mina davrida Quyi misrliklar o'z mustaqilliklari uchun bir necha bor qo'zg'olon ko'targanlar. Ammo bu qo'zg'olonlar shafqatsizlik bilan bostirilgan. Mina va uning avlodlaridan so'ng Misrda ikkinchi sulola namoyandalari podsholik qilganlar. Shu davrdan boshlab Misr podsholari fir'avn deb atala boshlangan. Bu ikki sulola vakillari idora qilgan davr Misrda "Ilk podsholik davri" deb nomlanib, m. av. 3000–2800-yillarni o'z ichiga oлади. Yagona Misr davlatining tash-

kil topishi har jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu Misrdagi dastlabki markazlashgan mustabid davlat hisoblanadi.

Misr fir'avnlarining istilochilik urushlari. Ilk podsholik davrida, xususan fir'avn Jyer davrida Misr qo'shinlari janubda Nubiya, shimoli-sharqda Sinay yarimoroliga bir necha marta bostirib kirgan. Ular bu mamlakatlardan ko'plab asir va behisob boyliklar olib qaytganlar.

Misr qo'shini
qo'mondonlaridan biri
shunday hikoya qiladi:
"Qo'shin qo'shni mamlakatlarni talab, uning
bog'lari va uzumzorlarini yakson qilib, qishloqlariga o't qo'yib,
o'n minglab kishilarni o'ldirib, ko'plab
odamlarni asir olib, eson-omon qaytib keldi.
Buning uchun podsho meni benihoya maqtadi".



Ilk podsholik davrida xo'jalik. Ilk podsholik davrida fir'avnlar mamlakat xo'jaligining hamma tarmoqlariga katta e'tibor berganlar. Yer o'zlashtirish va sug'orish inshootlarining qurilishi kuchaytirilishi tufayli dehqonchilik rivoj topgan. Misr dehqonlari ho'kiz qo'shilgan omoch bilan yer haydab arpa, bug'doy, zig'ir va boshqa boshoqli ekinlarni ekib, bu ekinlardan yuqori hosil olganlar. Misrlarning asosiy suv manbayi Nil daryosi bo'lib, ziroatchilikning asosini sug'orma dehqonchilik tashkil etgan. Ekinzorlar Nil daryosi va Fayum suv omboridan suv oladigan kanallar orqali sug'orilgan. Ularda bog'dorchilik rivoj topib, shimolda uzumchilikka, janubda esa xurmochilikka katta e'tibor berilgan. Mamlakatda tokzorlar ko'paytirilgan.

Qadimgi misrliklar bu davrda chorvachilikka ham katta e'tibor bergenlar. Misrda yirik shoxli qoramol, qo'y-echki va tuyalar boqib parvarish qilingan.

Ilk podsholik davrida hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo ham rivoj topgan. Misrliklar Nubiya, Liviya va O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi mamlakatlar bilan qizg'in savdo-sotiq ishlarini olib borganlar. Savdo-sotiq ishlari quruqlik va suv yo'llari orqali olib borilgan. Nil daryosi va O'rtayer dengizida savdo kemalari muntazam ravishda qatnab turgan.

Misrda tabaqalanish va qulchilikning kuchayishi. Misrda xo'jalik asta-sekinlik bilan rivojlanib borgan. Aholining yuqori tabaqasi fir'avn, amaldor, askarboshi, ruhoniy va nufuzli oqsoqollar hamda boylar hisoblangan. Aholining o'rtahol tabaqasini dehqonlar, hunarmandlar va mayda savdogarlar tashkil etardi. Mamlakat aholisining anchagina qismi kambag'al dehqonlar va qashshoqlardan iborat edi. Misr fir'avnlari urushda asir tushganlarni qulga aylantirar edilar. Dastlabki vaqtarda asirlar dushman sifatida o'ldirib yuborilgan. Shuning uchun misrliklar ularni "murdalar" deb atashardi. Keyinchalik esa asirga tushgan kishilarni o'ldirmasdan ishlatadigan bo'ldilar. Ularni dehqonchilikda, chorvachilikda, ibodatxonalarda va qurilishlarida ishlatganlar. Ular boy xonadonlarning uylarida ham ishlaganlar. Ular qul qilib sotilar, harbiyalar va zodagonlarga bo'lib berilar edi. Omon qolgan asirlarni "tirik murdalar" deyishardi. Bu "tirik murdalar" qullar tabaqasini tashkil etib, ular hech qanday mol-mulkka va huquqqa ega emasdilar. Quldor qul ustidan cheksiz huquqqa ega bo'lib, uni sotish, jazolash, kaltaklash va hatto o'ldirishga ham haqqi bor edi. Qullarning barchasi, kon qazuv ishlarida, kanal, to'g'on, imorat, yo'l qurish ishlarida ishlatilar va qishloq xo'jaligidagi og'ir ishlarini bajarar edi. Cho'ri ayollar ko'proq uy-xo'jalik yumushlarida ishlar edilar. Qul egasi quldor deyilgan. Shunday qilib Misr dunyodagi dastlabki quldorlik davlatlaridan biri bo'lgan.

4-§. Qadimgi podsholik davrida Misr (m. av. XXVIII–XXIII asrlar)


Misrda qadimgi podsholikning vujudga kelishi va ravnaqи
(m. av. XXVIII–XXIII asrlar). Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 1–2-sulola fir'avnlari Misrni birlashtirishga asos solganlar. Qadimgi podsholik davri m. av. 2800-yildan 2250-yilgacha davom etib, unda 3–6- sulola fir'avnlari hukmronlik qilganlar. Misr fir'avnlari podsholik yerlarini kengaytirish, mustahkamlash va markazlashtirish uchun qattiq kurash olib borgan. Qadimgi podsholik davrida Misr fir'avnlari boylik orttirish maqsadida qo'shni mamlakatlar ustiga takror-takror qo'shin tortib borgan. 4-sulola podshosi Snofru janubda Nubiya, shimoli-sharqda Sinay yarimoroli. Falastinga, g'arbiy yo'nalishda esa Liviya qabilalari ustiga harbiy yurishlar qilgan. U misga boy Sinay yarimorolini Misrga qo'shib olgan. Nubiyanidan 7 ming asir, 200 ming chorva va juda ko'p qimmatba-ho buyumlar olib qaytilgan. 4-sulolaning so'nggi vakillari davridan boshlab mamlakatda ichki qarama-qarshilik kuchaygan va qo'zg'olonlar boshlangan. 6-sulola namoyandalari davrida ya'ni m. av. XXIV–XXIII asrlarda Qadimgi Misr davlati kuchsizlanib, parchalana boshlagan. Podsholikka itoat etgan davlatlar mustaqil bo'lish uchun qattiq kurash olib borganlar.

Qadimgi Misr podsholari va ularning amaldorlari mamlakat xo'jaligini rivojlantirish uchun yangi yerlar o'zlashtirish, to'g'on, kanal va boshqa sug'orish shaxobchalarini qurish ishiga alohida e'tibor bergenlar. Chunki Misrdek issiq mamlakatlarda sug'orma dehqonchilik xo'jaliqning asosini tashkil etgan. Misr dehqonlari don, dukkakli ekinlar ekkan, poliz va sabzavotchilik mahsulotlari yetishtirgan va bog'dorchilik bilan ham shug'ullanganlar. Misrda ziroat ishlarining barcha og'irliklari dehqonlar va qullar yelkasiga tushgan edi.

Qadimgi podsholik davrida fir'avnlar chorvachilikka katta e'tibor bergen. Ular qoramol, echki, cho'chqa, eshak va parranda boqqanlar. Dehqonchilik va chorvachilik misrliklarning asosiy oziq-ovqat manbayi hisoblangan. Chunki chorva mahsulotlari

misrliklarni avval go'sht, yog', sut-qatiq, teri, jun va ishchi hayvon kuchi bilan ta'minlagan.

Bu davrda misrliklar hunarmandchilik sohasida jiddiy yutuqlarga erishganlar. Misrda miskarlik, qurolozlik, me'morchilik va hunarmandchilikning boshqa sohalari ancha rivoj topgan edi. Shu davrda kulolchilik charxi kashf etilib, kulolchilik yanada rivojlangan.



Misrda dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning rivojlanishi natijasida ortiqcha mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlar o'z ixtiyorlaridagi ortiqcha narsalarni o'zaro almashganlar. O'zaro almashuv ichki va tashqi bozorni vujudga keltirgan. Misrning shahar va qishloqlari orasidagi almashuv suv va quruqlik yo'llari orqali olib borilgan. Misr shaharlari va qishloqlaridan har tomona savdo yo'llari tarqalgan edi. Nil daryosi bo'ylab shimoldan janubga va janubdan shimolga har xil mahsulot ortilgan kemalar va qayiqlar tinimsiz qatnab turgan. Misr savdogarları Janubda Nubiya, Efiopiya, g'arbda liviyaliklar va shimoli-sharqda falastinliklar, finikiyaliklar, O'rtayer dengizi havzasidagi mamlakatlar va Mesopotamiyaning shahar-davlatlari bilan qizg'in savdo-sotiq ishlarini olib borganlar. Shuni ham aytib o'tish joizki, misrlik savdogarlar g'arbda Arab qirlari orasidagi qulay soy so'qmoqlaridan Qizil dengiz sohillarigacha chiqib borganlar.

Misrda mulkiy tengsizlik va tabaqalanish. Misrda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va buyumlar almashuvi

rivojlanib, ortiqcha mahsulot ishlab chiqarilishi natijasida buyum almashinuvi rivoj topgan. Qishloq xo'jaligi, chorvachilik, hunarmandchilik va savdodan keladigan daromadlarning katta qismi fir'avnlar, ruhoniylar, sarkardalar, katta yer egalari va yirik savdogarlar qo'lida to'plangan. Shu bois ular tobora boyib borganlar. Misr fir'avnlari qo'shni mamlakatlarga tez-tez urushlar uyushtirib turgan. Aksariyat hollarda Misr qo'shinlari qo'shni mamlakatlardan ko'plab asir, o'lja va boyliklar olib qaytgan. Bu boylik va o'ljalar fir'avn va uning amaldorlari orasida taqsimlangan. Mazar-kur davrda Misrda xususiy mulk, mulkiy tengsizlik va tabaqalanish yanada kuchaygan. O'sha davrda Misr aholisi bir necha toifa-tabaqalarga bo'lingan edi. Fir'avn, a'yon va ruhoniylar aholining eng nufuzli kishilarini hisoblangan. Kichik amaldorlar va jangchilar aholining ma'lum tabaqasini tashkil etgan. Dehqonlar va hunarmandlar mehnatkashlar tabaqasini tashkil etgan. Misrda hech qanday mol-mulkka ega bo'lmagan, huquqsiz kishilar ham bo'lgan. Bular aholining eng quyi tabaqasi – cho'rilar va qullar edi. Misr fir'avnlari mamlakatni vazirlar, qozikalonlar, katta-kichik amaldor-a'yonlar, ruhoniylar, sarkarda va ko'p sonli qo'shinga tayanib boshqarganlar. Lashkarboshilar va qo'shin podsholikning asosiy tayanchi edi. Misr fir'avnlari mamlakatni markaziy, viloyat va mahalliy tashkilotlar orqali idora qilganlar. Qadimgi Misr fir'avnlari hukmronlik qilgan mustabid quldarlik davlati edi. Demak, fir'avnlari mamlakat boshqaruvida cheksiz huquqqa ega edilar. Hatto ular o'zlarini ilohiylashtirib xudo darajasiga ham ko'targanlar.



Misr ehromlari. Qadimgi Misr ehromlari, ya'ni piramidalari jahon me'morchiligining eng noyob obidalardan biri hisoblanadi. Ehromlar asosi uch, to'rt va ko'p burchakli geometrik shaklda

bo'lib, asosi keng, yuqori tomoni torayib borgan va uchburchak shaklga ega bo'lgan.

Qadimgi podsholik davrida Misr fir'avnlari va a'yonlari o'zlarini uchun toshdan ulkan sag'ana – ehromlar qurdirganlar.



Bu ehromlarni bizdagi va boshqa joylardagi maqbaralarga qiyos qilish mumkin. Bunday maqbaralarga vafot etgan fir'avnlari, ularning oila a'zolari va amaldor-a'yonlari dafn etilgan. Ehrom-maqbaralar o'zining kattaligi va salobati bilan kishini hayratga so'lad. Ayni paytda ehromlar fir'avni va amaldorlar kuch-qudratining ramzi ham bo'lgan. Misrda qurilgan eng katta va hashamatli ehromlar Josyer va Hufu maqbarasidir. Memfis shahri yaqinida m. av. 2600-yilda to'rtinchи sulola fir'avni Xufu qurdirgan maqbara o'zining ulkanligi va hashamatli bilan kishini lol qoldiradi. Ehromning tomonlari 250 metr bo'lib, uning atrofini aylanib chiqish uchun sayyoh bir kilometr yo'l bosishi kerak. O'z davrida uning balandligi 150 metrdan ziyod bo'lib, hozirgi holati 146 metrdir. Uni qurish uchun ikki million uch yuz ming dona taroshlangan tosh ishlataligan. Ehromlarning xomashyosi bo'lgan toshlar Nil daryosining o'ng sohili bo'ylab cho'zilgan arab qirlaridagi tosh konlaridan qazib olingan hamda silqliqlanib, sollarga ortilgan holda suv yo'li bilan olib kelangan. Tosh-

lar pastda taroshlanib. silliqlangan. Maqbara qurilishiga taroshlab tayyorlangan toshlarning eng kichigi ikki yarim tonna, kattasi esa o'n besh tonnadan iborat bo'lgan. Yunon tarixchisi Gerodotning yozishicha, bu ehrom maqbara 25–30 yil mobaynida qurilgan ekan. Uning qurilishida 100 mingdan ortiq kishi doimiy ravishda ishlagan. Maqbara toshlari silliqlanib bir-biriga shunday zinch qilib terilganki, toshlar oralig'iga Misrga tashrif buyurgan fransuz imperatori Napoleon Bonapart qilichining tig'i ham sig'magan ekan. Ehromlar Qadimgi Misr me'morchiligining eng noyob yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Olimlar Xufu maqbarasini dunyodagi yetti mo'jizaning biri hisoblaydilar. Ehromlarni qurishda silliqlangan katta-kichik bahaybat tosh plitalarini yuqoriga sudrash usuli bilan olib chiqilgan bo'lsa kerak. Shubhasiz, bu ishda me'morlar qo'l kuchi va ishchi hayvonlar – ho'kizlardan foydalangan bo'lsalar ajab emas. Ehromlarga ishlatilgan ulkan toshlarni yuqoriga chiqarish masalasi olimlar orasida turli bahslar kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Fikrimizcha, toshlarni yuqoriga olib chiqish uchun pastdan yuqoriga yo'g'on-yo'g'on to'sinlardan maxsus ko'tarma qurilgan. To'sinlarni yo'nib, silliqlab, unga yog', moy surilgan hamda toshlar sirg'antirish usuli bilan yuqoriga chiqarilib joylashtirilgan bo'lishi mumkin.

5-§. O'rta podsholik davrida Qadimgi Misr (m. av. XXI–XVIII asrlar)

Qadimgi podsholikning yemirilishi. Misr fir'avnlari, ruhoniy va a'yonlari ulkan ehromlar, saroylar va ibodatxonalar qurilishiga ko'plab mablag' sarf etganlar. Ularning kundalik turmushi va dabdabali hayoti uchun ham behisob boyliklar sarf qilinardi. Tashqi mamlakatlarga uyushtirilgan bosqinchilik urushlari oddiy xalq boshiga og'ir musibatlar olib kelar edi. Qadimgi podsholikning oxirlariga kelib mamlakatdagi hokimliklar – nomlar (kichik davlatlar) fir'avnlarga itoat etmay, mustaqil bo'lishga intilganlar. Soliqlar miqdorining ortishi va qo'shimcha majburiy xizmatlar oddiy xalqning sabr kosasini to'ldirib, mamlakatda qo'zg'olonlar boshlanishiga sabab bo'lgan.

Qadimgi podsholikning oxirlariga kelib markaziy hokimiyat zaiflashgan. M. av. XXIII asrda mamlakat yana mayda nomlarga bo‘linib ketgan. Mayda nomlar esa bir-birlari bilan qonli urushlar olib borganlar. Shu tariqa Misrda Qadimgi podsholik inqirozga uchrab, mamlakatda tarqoqlik davri boshlangan.

O‘tish davrida Misrdagi ahvol va O‘rta podsholikning tashkil topishi (m.av. XXI – XVIII asrlar). Misrda tarqoqlik davri m. av. XXIII asr o‘rtalarigacha davom etgan. Bu davrda mamlakat xo‘jaligi ishdan chiqqan. Kanallar, suv omborlarini o‘t, loyqa bosib, sug‘orish tarmoqlari yaroqsiz bo‘lib qolgan. Nil sohilidagi unumdar yerlar botqoqlikka va to‘qayzorlarga aylangan. Hunarmandchilik, savdo-sotiq va chorvachilik ham izdan chiqqan.

Markazlashgan Misr davlatining yemirilishi va parchalanishidan qo‘shti qabilalar foydalanganlar. Ular Misrga bostirib kirib, mamlakatni vayron qilib, boyliklarini talab qaytganlar. Qadimgi podsholikning markazi Memfis ham inqirozga uchragan va huvillab qolgan. Unda hukmronlik qilayotgan 8-sulola vakillari mamlakatni birlashtirishning uddasidan chiqolmagan.

M. av. XXI asr oxirlariga kelib Misrni qaytadan birlashtirish uchun kurash boshlangan. Misrni yangidan birlashtirish shimol bilan janubda bir vaqtida boshlandi. Shimoliy Misrdagi davlatlarni birlashtirish ishiga Gerakleopol shahrining hukmdorlari boshchilik qilgan. Gerakleopol podsholari shimoldagi davlatlarni birlashtirib osiyolik va liviyalik ko‘chmanchilarini mamlakatdan haydab chiqaradi. Ular ikki podsholikni birlashtirib o‘zlarini Yuqori va Quyi Misr podshosi deb e’lon qilgan. Ammo 9–10- sulola podsholari mamlakatni o‘z qo‘llarida uzoq vaqt saqlab qola olmaganlar. Shundan so‘ng Misr janubida mamlakatni birlashtirish ishiga Fiva hukmdorlari boshchilik qilgan. 11-sulola hukmdori Mentuxatep Gerakleopol podsholariga qarshi kurashib, Yuqori va Quyi Misrni birlashtirib markazlashgan Misr davlatini qayta tiklagan. Fiva yagona Misr davlatining poytaxti bo‘lib qilgan. Bu davrda 11–13-sulola vakillari Misrda podsholik qilgan. Bu Misr tarixida O‘rta podsholik nomi bilan mashhur bo‘lgan.

O'rta podsholik davri Misrda m. av. 2250–1750-yillarda davom etgan. Bu davrda Misr qo'shinlari piyodalardan iborat edi. O'rta podsholik davrida fir'avnlar qo'shni mamlakatlarga talonchilik va bosqinchilik yurishlari qilganlar. Misr qo'shini Nubiya, Sinay, Finikiya, Falastin va hatto Frot daryosi sohillarigacha kirib borgan. Fir'avnlar bo'ysundirilgan o'lkalardan mis, oltin, kumush, qora yog'och, qimmatbaho buyumlar, ko'p minglab asir va chorva molalarini haydab olib ketganlar.

O'rta podsholik davrida xo'jalik. Misrda markazlashgan kuchli davlatning tashkil topishi natijasida xo'jalik ancha taraqqiy etgan. Misr fir'avnlari yangi yerlar ochishga va sug'orish inshootlarini qurish ishiga katta e'tibor berganlar. Fayum vohasidagi ko'l chuqurlashtirilib sun'iy suv omboriga aylantirilgan. Nil daryosidan suv ombori tomon kanal qazilib unga suv keltirilgan. Baland joylarga suv chiqarish uchun shoduf kashf etilib, ulardan foydalangan. Ma'lumki Qadimgi Sharq dunyosidagi Hindiston, Arabiston, Eron, O'rta Osiyo havosi issiq mamlakatlar qatoriga kiradi. Bu mamlakatlarda ziroatchilik asosan sun'iy sug'orishga asoslangandir. Xususan, Qadimgi Misr ikki sahro – Sahroyi Kabir va Suriya – Mesopotamiya, shuningdek, Arab sahrolari orasida joylashgan mamlakatdir.

Garchi Misr yerlaridan dunyodagi eng ulkan daryo – Nii (6500 km) oqib o'tishiga qaramasdan, dehqonchilik qilinadigan dalalarni suv bilan sug'orish muammo bo'lib kelgan. Chunki Nil daryosining o'zani ancha chuqur bo'lib, ekin maydonlariga suv chiqarish mushkul bo'lган. Kanallardagi suv sathi ko'pincha dalalar sathidan ancha pastda bo'lган. Shu sababli Sharqda, xususan Qadimgi Misrda suvni pastdan yuqoriga uzatish chorasi ko'rilgan. Suvni yuqoriga uzatishning eng qadimgi qo'l usuli Misr tipi – shoduflar bo'lib, qadimiy Misrda, Mesopotamiyada va Hindistonda shoduf keng tarqalgan edi. Shoduf bir ustun, ustunga bog'langan yog'och dastak qovg'a(mesh, paqir)dan iborat. Shoduf daryo, kanal bo'yiga yoki quduqqa quriladi. Dastakning qovg'a-mesh tomoni suvg'a botirilib, dastakning tosh osilgan orqa tomoni bosiladi va qovg'ada suv yuqoriga ko'tarilib, tarnovli hovuzga quyiladi. Hovuzdan suv

tarnov orqali ekinzorlarga quyiladi. Shuni ta'kidlash kerakki, suv sathi past bo'lib, ekin maydonlari baland bo'lsa, shoduflar balandlikka qarab bir nechta yerga o'rnatilgan. Chunonchi, birinchi shoduf o'z suvini 2-shodufga, ikkinchisi esa uchinching hovuziga quygan. Shodufni harakatga keltirish uchun unda ikki kishi ishlagan. Ba'zan shodufda navbat bilan bir necha kishi ishlagan bo'lishi mumkin. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, shoduf yordami bilan bir soatda ikki metr balandlikka 3400 litr, uch metr balandlikka 2700 litr, to'rt metr balandlikka esa 1800 litr suv chiqarish mumkin ekan. Mehnatni yengillashtirish va shoduflar ishini tezlashtirish uchun ularni bir necha qavatlari qilar edilar. Shoduf dastagi 1,5 metr dan ortiq bo'lмаган. Shoduf Misr irrigatorlari tomonidan O'rta podsholik davrida, m.av. 1750–1600-yillar orasida kashf qilingan. M.av. 285–212-yillarda yashagan mashhur yunon fizigi va olimi Arximed Misr chig'irini takomillashtirgan ekan. Shu tariqa Misrda dehqonchilik ancha rivojlangan. Voha atrofida chorvachilik ham taraqqiy etgan. Misr shaharlari va qishloqlarida hunarmandchilik, xususan shishasozlik ham shu davrda rivoj topib ichki va tashqi savdo taraqqiy etgan. Misr savdogarlarini Finikiya, Falastin, Nubiya, Kichik Osiyo va Ikki daryo oralig'idagi mamlakatlar bilan qizg'in savdo-sotiq ishlari olib borganlar. Savdo ishlari asosan quruqlik va suv yo'llari orqali amalga oshirilgan. O'rta podsholik davrida Fayum vohasida Ittaun shahri qurilib, u ayni vaqtida fir'avnlarning qarorgohiga aylangan. 12-sulola davrida Misr Sharqdagi eng qudratli davlatga aylangan.

O'rta podsholikning tushkunlikka uchrashi, kambag'alalar va qullar qo'zg'oloni. M. av. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab O'rta podsholik tushkunlikka yuz tutadi. 13-sulola davridan Misrda o'zaro urushlar boshlanib tushkunlik yana kuchayadi. Mamlakatdagi ichki nizolar, soliqlar va fir'avnlarning bosqinchilik urushlari mehnatkash xalq va qullarning ahvolini yanada yomonlashtirib yuboradi. Toj-taxt uchun kurash qizg'in tus olib, fir'avnlar tez-tez almashinib turgan. Misrdagi tushkunlikdan qo'shni mamlakatlar foydalaniib, birin-ketin mamlakatga bostirib kiradilar. 13-sulola podsholari esa qo'shni qabilalarning hujumini qaytara

olmaydilar. Ichki urush-janjallar va qo'shni qabilalarning hujumlari mamlakat xo'jaligiga katta zarar keltiradi. Mamlakatdagi qiyinchiliklarning barcha og'irligi oddiy mehnatkash xalq va qullar yelkasiga tushar edi.

Og'ir jabr-zulm va qiyinchiliklardan sabr kosalari to'lgan mehnatkash xalqm.av. 1750-yilda qo'zg'olonda jabrdiyda qullar ham faol ishtirok etadilar. Bu qo'zg'olonda butun podsholikni qamrab olib mamlakatni larzaga keltirgan.

Misrdagi bu voqealar o'sha vaqtida yaratilgan "Ipusyer so'zlari" degan yozma bitikda o'z ifodasini topgan. Bu bitik muallifi yirik mansabdor shaxs bo'lgan. U xalq ommasi va qullar qo'zg'oloniga nafrat bilan qaragan. "Ipusyer so'zlari" dagi ma'lumotlarga qaraganda dehqonlar, kambag'allar va qullar, zodagon va a'yonlarga qarshi bosh ko'targanlar. Qo'zg'olonchilar zodagon va a'yonlarning uylariga bostirib kirib, mol-mulklarini talon-taroj qilganlar.

"Ipusyer so'zlari"da qo'zg'oloning oqibati nima bilan tuga-gani bayon etilmagan. Keyinchalik qo'zg'olon bostirilgan bo'lsa kerakki, Misrda fir'avnlar hokimiyati qayta tiklangan. Qo'zg'olon bostirilgani bilan, oddiy xalq va qullar zolimlarga qarshi ko'p marta bosh ko'targanlar.

6-§. Misr giksoslar hukmronligi ostida (m. av. XVIII – XVI asrlar)

Giksoslar haqida umumiylar ma'lumot. Qadim zamonlarda Arabistonning shimoli-g'arbiy qismidagi dashtlarda semit-xamit va xurrit naslidan bo'lgan ko'chmanchi giksos qabilalari yashar edilar. Ular turli urug' va qabilalar birlashmasidan tashkil topgan bo'lib, asosan dashtlarda yashab, qo'y, echki, qoramol va yilqichilik bilan shug'ullangan. "Giksos" so'zi aslida misrcha bo'lib, "xeka xasut" degan so'zdan kelib chiqqan. Bu so'z "cho'ponlarning hokimlari", "cho'l mamlakatining hukmronlari" degan ma'noni bildirar ekan. Giksoslar ko'chmanchi chorvador qabilalar bo'lib, xo'jalik va madaniyat darajasi jihatidan misrlik yoki mesopotamiyaliklarga qaraganda ancha qoloq bo'lishgan. M. av. XIX asrda Arabiston-

ning shimoli-g'arbida giksoslarning harbiy ittifoqi tashkil topadi. Ular Sinay yarimoroli, Falastin va Suriya dashtining katta qismini bosib oladi. Megiddo va Kadesh shaharlarini ham o'zlariga itoat ettiradilar.

Giksoslarning Misrga bostirib kirishi. M.av. XVIII asr o'rta-lariga kelib Misr podsholigi zaiflashib, bir nechta mayda nomlarga bo'linib ketadi. Misrning zaiflashib ketganligidan foydalanib giksoslar ham Quyi Misr yerlariga kirib keladi. Ular dastlab mayda podsholarga xizmatga kirib, xizmatlari evaziga yer-mulklar oladilar va katta-katta viloyatlarni boshqara boshlaydilar. Dastlab giksoslar mamlakatga tinchlik bilan kirib kelib joylashgan. Keyinchalik esa Quyi Misrni butunlay bosib olganlar. Ular Quyi Misrda o'mnashib olganlaridan keyin, Nil daryosi tarmog'inining sharqiy qismida Avaris shahrini barpo etib, uni poytaxtga aylantirganlar. Ular shu shhardan turib mamlakatni boshqarishgan. Giksoslar Misrga kirib kelar ekanlar misrliklar madaniyati va xo'jaligida erishgan yutuqlaridan foydalanganlar.

Giksoslar misrliklardan ko'p narsalarni o'rgangan. Ayni paytda ular Misrga otliq qo'shin va ot qo'shilgan ikki g'ildirakli jang aravalarini ham olib kelgan. Giksoslar kelgunicha misrliklar otni ham, ot qo'shilgan jang aravalarini ham bilmas edilar. Giksoslarning kirib kelishi munosabati bilan Misrda yilqichilikka katta e'tibor berilgan. Misr yaylovlarida uyur-uyur yilqilar, qulunlar boqilib, parvarish qilingan. Keyinchalik esa misrliklar giksoslarning ot qo'shilgan jang aravalarini ham o'zlashtirganlar. Giksoslar Misrda m. av. 1710-yildan to 1584-yilgacha qariyb 130-yil hukmronlik qilgan. Shu yillar davomida 15–16-sulolaga mansub podsholar giksoslardan edi. Giksos podsholari Avarisdan turib mamlakatni boshqargan. Ammo Misr janubidagi Fiva nomi o'z mustaqilligini saqlab qolgan. Giksos podshosi Xian davrida podsholik kuchayadi. Shu davrda Falastinning katta qismi, Krit oroli va boshqa joylar giksoslarga itoat etib boj to'lar edi.

Xian davrida Misrda dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik sezilarli darajada rivojlanadi. Bu davrda savdo-sotiq ancha ravnaq topadi. Misr savdogarlari Krit oroli, Suriya, Falastin,

O‘rtayer dengizining sharqiy sohilidagi shahar-davlatlar bilan qizg‘in savdo ishlarini olib boradilar. Xian vafotidan so‘ng giksoslar davlati zaiflasha boshlaydi va tushkunlikka yuz tutadi.

Misrdan giksoslarning quvib chiqarilishi. M. av. XVI asr boshlarida Misrda ozodlik, mustaqillik uchun kurash boshlanadi. Mustaqillik uchun kurashga 17-sulolaga mansub Fiva podsholari boshchilik qiladi. Bosqinchilarga qarshi ozodlik kurashi Fiva podshosi Kamesu davrida kuchayadi. Kamesu mamlakatdagi amaldorlarni saroyiga chaqirib, ularga giksoslarni Misrdan haydash vaqt yetganligini tushuntiradi.

U amaldorlar oldida nutq so‘zlab, oxirida “Mening maqsadim Misrni bosqinchilardan qutqarish va osiyoliklarni yer bilan yakson qilishdir”, deb xitob qiladi.

Kamesu boshlagan kurash ozodlik urushiga aylanadi. Og‘ir janglardan so‘ng Misr qo‘sishnlari giksoslarni ustidan g‘alaba qozonadi. Ozodlik uchun bo‘lgan janglar vaqtida Kamesu juda ko‘ptan jarohati oladi. O‘sha vaqtdagi solnomalarda Kamesu Misrni giksoslarni zulmidan ozod qilish uchun kurash olib borgan qahramon sifatida madh etiladi.

Kamesudan so‘ng uning ukasi Yaxmos I qo‘sishnlari giksoslarni mamlakatdan butunlay uloqtirib tashlaydi. Yaxmos I qo‘sishnlari Falastin janubidagi Sharuxen qal’asiga kelib joylashgan giksoslarni uch yillik qamaldan so‘ng bo‘ysundiradi. Janglar davom etib. Misr qo‘sishnlari Falastin, Finikiya va Suriyaning ko‘p joylarini istilo qilgan.

Misr qo‘sishlarining g‘olibona janglari natijasida Misr giksoslardan ozod qilingan. Shu bilan Misrdagi Giksoslar davlati yemirilib barham topib, Misr yana mahalliy sulola namoyandalari boshqaradigan mustaqil davlatga aylanadi.

7- §. Yangi podsholik davrida Misr (m. av. XVI–XI asrlar)

Misrda Yangi podsholikning tashkil topishi va kuchayishi

Giksoslar mamlakatdan quvilgach, Misrda Yangi podsholik davri boshlangan. Bu podsholik m. av. 1584-yildan 1085-yilgacha

davom etib, unda 18–20-suloladan chiqqan fir’avnlar Misr podsholigini boshqargan.

Bu davrda podsholikning chegarasi ancha kengaygan. U janubda Nubiyaga, shimol va shimoli-sharqda O’rtayer dengizining shariqiy sohillarigacha bo’lgan yerlarni egallagan edi. Yangi podsholikning kuchayishi munosabati bilan xo’jalik yangidan rivoj topgan. Yangi yerlar ochilib, suv omborlari, kanallar ta’mirlanib, yangilari qurilgan. Dehqonchilikda ishlatalidigan mehnat qurollari takomillashtirilgan. Qishloq xo’jaligida qullar mehnatidan keng foydalanilgan. Misrda sug’orma dehqonchilik qilinadigan yerkarning katta qismi fir’avn, sarkardalar, ruhoniylar va zodagonlarga tegishli bo’lgan. Ozod Misr dehqonlari – “falohlar” ham ozmi-ko’pmi o’z yerlariga ega bo’lganlar. Dehqonchilikda bug’doy, arpa, kunjut, sholi ekilgan. Bu davrda Misrda xurmo, zaytun, uzum, shuningdek poliz ekinlari ham ekilgan va ulardan mo’l hosil olganlar.

Hunarmandchilik va savdo-sotiq. Yangi podsholik davrida hunarmandchilik ham ancha rivoj topgan. Temirchilik, yog’ochsozlik, ko’nchilik, binokorlik, kulolchilik, to’qimachilik, zargarlik, qurolsozlik, kemasozlik va boshqa kasb-korlar rivojlangan. Yangi podsholik davrida mamlakatning ichki va tashqi savdosi ravnaq topgan. Ichki va tashqi savdoda mol ayirboshlash Nil daryosi, O’rtayer, Qizil dengiz va quruqlikdagi yo’llar orqali amalga os-hirilgan. Misrdan o’zga mamlakatlarga oltin, fil suyagi, kumush, yog’ochdan ishlanib, lojuvard toshlari bilan bezatilgan buyumlar chiqarilgan. Bundan tashqari, misrliklar qo’shni mamlakatlarga shisha buyumlar, qimmatbaho mato, qurol-aslaha va boshqa buyumlar ham chiqargan.

Suriyadan Misrga don, sharob, quruq meva, yog’och, asal, chorva mollari, charm va boshqa buyumlar keltirilgan. Kipr oroli, Sinay yarimoroli va Mesopotamiyadan esa mis, jez, Badaxshon lojuvardi, gazmol, kiyim-kechak, jang aravalari, ot va boshqa narsalar olib kelingan. Lojuvard, la’l kabi qimmatbaho toshlar Misrga qo’shni mamlakatlarning savdogarlari orqali O’rta Osiyodan keltirilgan bo’lsa kerak.

Shunday qilib. Yangi podsholik davrida Misrda hunarmand-chilik, ichki va tashqi savdo yanada rivojlanadi. Bu davrida Misr Sharqdagi eng qudratli, eng boy mamlakatga aylangan.

Misr qo'shini va uning tuzilishi. Misr fir' avnlariga mamlakatni tashqi dushmanlardan himoya qilish va o'zga o'lkalarni bosib olish, mamlakatdagi ichki qo'zg'olonlarni bostirish uchun kuchli qo'shin zarur edi. Shuning uchun Misr fir' avnlari o'z qo'shirlarini qayta tuzishga kirishganlar. Avvalgi podsholiklar davrida Misr qo'shirlari faqat piyoda askarlardan iborat edi.

Yangi podsholikdan boshlab esa Misr qo'shinda ot qo'shilgan jang aravalalaridan iborat yangi qismlar tuzilgan. Misrliklar otliq qo'shin va jang aravalalaridan tuzilgan harbiy qismlardan foydalanishni giksoslardan o'rgangan.

Shu davrdan boshlab Misrda-yilqichilikka katta e'tibor berilib, qulunlar parvarish qilinadigan alohida davlat xo'jaligi tashkil etilgan. Piyoda, otliq va jang aravalalaridan tuzilgan harbiy qismlarning askarlari o'q-yoy, nayza, oybolta, qilich va boshqa aslahalar bilan qurollangan edi. Misr jangchilari qalqon tutib, dushmanlarning o'tkir qurollaridan himoyalananadigan zirhli kiyimlar kiyib jangga kirganlar. Og'ir qurolli qismlar kamonchi va nayzachi guruuhlar bilan to'ldirilgan.

Misr qo'shinarida ot qo'shilgan ikki g'ildirakli yengil jang aravalari alohida o'rinni egallar edi. Aravada ikki askar bo'lib, jang vaqtida ularning biri otlarni boshqarar, ikkinchisi esa kamondan dushmanlarga o'q uzib, nayza sanchib, qilich chopar edi. Jang vaqtida ular dushman ustiga shiddat bilan hujum qilar, chekinayotgan dushmanlarni tezkorlik bilan ta'qib qilib borar edi. Misr fir' avnlari dengiz jangini olib borish uchun harbiy dengiz floti kemalarini ham qurganlar.

Shunday qilib yangi podsholik davrida misrliklar butun Sharq dunyosida eng kuchli qo'shinga ega bo'lgan mustabid davlatga aylangan.

Misr fir'avnlarining istilochilik yurishlari. Yangi podsholik davrida Misr fir'avnlari qo'shni mamlakatlar ustiga tez-tez talonchilik va bosqinchilik urushlarini uyushtirib turganlar. Fir'avn Tutmos I Suriya va Falastinga bostirib kirib, Frot daryosi sohil-

larigacha yetib borgan. Tutmos III esa O'rtayer dengizining shariqiy sohilidagi mamlakatlarga 15 marta harbiy yurish qilgan. Misr qo'shinlari Suriya va Falastinni qayta ishg'ol qilib, Frot daryosi bo'yidagi Karxemish shahrini ham bosib olgan. Misr qo'shining kuch-qudratidan cho'chigan Ossuriya, Xett, Bobil va Mitanni podsholari o'zlarini fir'avnning "birodarlari", deb e'lon qilgan va o'z mustaqilliklarini saqlab qolgan. Tutmos III qo'shinlari janubdagi Kush, Nubiya va Punt kabi mamlakatlarga ham bir necha bor bostirib kirgan. Askarlar bu mamlakatlardan son-sanoqsiz asirlar, oltin, kumush, qimmatbaho buyumlar, fil suyaklari olib qaytganlar. Fir'avn Amenxotep davrida ham Misr qo'shinlari Suriya, Falastin, Mitanni va Nubiyaga harbiy yurishlar uyushtirib, Misrga juda ko'p o'lja va harbiy asirlar bilan qaytgan. Tutmos III va Amenxotep II davrida Misr Yaqin Sharqdagi eng qudratli davlat bo'lib qolaverган.

Fir'avn Amenxotep III davrida behuda urushlar bo'lmagan. U tinchlik siyosatini qo'llab, qo'shni mamlakatlar bilan do'stona, savdo va madaniy aloqalarini kuchaytirgan. Amenxotep III podsholining oxirlarida Misrning bosib olingen mamlakatlar ustidan o'rnatilgan ta'siri susaya boshlagan. Finikiya va Falastin itoat etmay qo'ygan. Amenxotep III dan so'ng Misr taxtini Amenxotep IV egallagan. U Misrni m.av. 1365-yildan 1348-yilgacha boshqargan. Amenxotep IV davrida Misr davlati kuchsizlanib, qaram mamlakatlar uning ta'siridan chiqib keta boshlagan. Misrning kuchsizlanishidan foydalangan ko'chmanchi jangari qabilalar mamlakatga bostirib kirgan.

Exnatonning diniy islohotlari. Amenxotep IV davrida Misrda har xil nizo va fitnalar kuchaygan. Fir'avn diniy islohot o'tkazib, ko'p xudolikni cheklab yakka xudolikni joriy qilishga uringan. U Amon xudosiga sig'inishni bekor qilib, ularning xodimlari ni quvg'in qilgan. Amenxotep IV mamlakatda Aton – Quyoshga sig'inishni joriy qilgan. Shu munosabat bilan Misrda yangi poytaxt – Axetaton shahrini bunyod etgan. Bu shahar "Exnaton" deb atalgan. Uning ma'nosi "Quyosh shu'lesi" demakdir. Amenxotep IV ham o'zini "Exnaton" nomi bilan atashni buyurgan. U yangi din

– Quyosh ruhoniysi bo'lib olgan. Ammo yangi din eski din ruhoniylari va aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan. Misr zodagonlari ham Exnatonning diniy islohotiga qarshi turgan. Exnaton vafotidan so'ng uning yaqin qarindoshlari va amaldorlari ilgarigi dinning ruhoniylari bilan murosa qilishga majbur bo'lganlar. Zodagon va ruhoniylar Exnatonning kuyovi Tutanxamonni taxtga o'tqizadi.

Mamlakatda eski din tartibi o'rnatilib, uning kohinlari – ruhoniylariga katta imtiyozlar berilgan. Ularning baxtiga qarshi Tutanxamon 19 yoshida o'lgan. Ruhoniylar uni g'oyat katta dabdaba bilan yer osti dahmasiga dafn etganlar. Tutanxamonning beva qolgan xotini Xett shahzodasiga turmushga chiqqan. Misrning oliv amaldorlari Misr taxtiga begonaning kelib o'tirishiga yo'l qo'yamanlar. Xett shahzodasi fitnachilar tomonidan o'Idirilgan. 18-sulola davrida Misrda yana parokandalik boshlanib mamlakat zaiflashib ketgan, xo'jalik ham tushkunlikka uchragan.



8-§. 19–20-sulolalar davrida Misr podsholigi

19-sulola davrida Misr (m.av. XIV–XI asrlar). M. av. XIV asr o'rtalariga kelib Misrda ahvol og'irlashgan. Mamlakatda xo'jalik izdan chiqqan. Suriya, Falastin va Nubiya mamlakatlari Misrga itoat etmay qo'yganlar. Ana shunday og'ir sharoitda nomarxlarning zodagon urug'idan bo'lgan Xoremxeb to'ntarish yasab Misr taxtiga o'tradi. U 19-sulolaning asoschisi bo'lib, m. av. 1334-yilda hokimiyat tepasiga kelgach, Aton e'tiqodini bekor qiladi, eski Amon e'tiqodini tiklab, uning ruhoniylariga katta imtiyozlar bera-

di. Xoremxeb bir necha ma'muriy islohotlar o'tkazib qo'shinni qayta tuzadi, soliq tizimini tartibga keltiradi, o'g'irlik, askarlar ning talonchiligi va amaldorlarning poraxo'rлигiga qarshi choralar ko'radi. Oq'ir jinoyatchilarga qarshi o'lim jazosini joriy etadi. U tashqi siyosat masalasiga katta e'tibor bilan qaraydi. Suriya, Falastin va Nubiyaga bir necha bor harbiy yurishlar uyushtiradi. Xoremxeb mamlakat xo'jaligini yaxshilash uchun choralar ko'radi. U m. av. 1306-yilda vafot etadi. Uning vorislari Ramzes I, Seti I lar davrida Misr ham harbiy, ham iqtisodiy jihatdan kuchayib yuksaladi. Seti I davrida Misr qo'shinlari Suriya, Falastin va Finikiya ustiga bostirib borib, Tir, Magiddo, Kadesh kabi shaharlarni bosib oladi. Seti I davrida Falastindagi hokimlar qo'zg'oloni bostiriladi. Harbiy yurishlar natijasida Misrning O'rtayer dengizi sharqiy sohilidagi mamlakatlar ustidan bo'lgan ta'siri kuchayadi. Natijada bu mamlakatlar bilan Misrning aloqasi izga tushiriladi. Misrda qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo rivojlanadi.

Ramzes II va vorislari davrida Misr podsholigi. Seti I vafot etganidan so'ng Misr taxtiga uning o'g'li Ramzes II (m. av. 1290–1224) o'tiradi. U Misr tarixida Meriamon – "Amonning sevikli fir'avni" nomi bilan mashhur bo'lган. U mamlakatda 66 yil podsholik qilib, mamlakat obodonchiligiga katta e'tibor beradi. Ramzes II davrida yangi yerlar o'zlashtiriladi. yangi-yangi kanallar qazilib, to'g'on va suv omborlari barpo etiladi, sug'orish tarmoqlari kengaytirilib, dehqonchilik rivoj topadi. Nil daryosi kanallaridan suv olib yuqoriga chiqariladigan shoduf va charxpalaklar takomillashtirilgan.

Ramzes II O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi mamlakatlar ni bosib olish uchun Kichik Osiyodagi xettlar bilan qattiq va uzluksiz kurash olib boradi. U m. av. 1296-yilda bo'lib o'tgan jangda xettlardan yengilib asir tushishiga oz qoladi. M. av. 1290–1280-yillar orasida Misr bilan Xett davlati o'rtasida qonli janglar bo'lib o'tadi. Urushda goh Xett, goh Misr qo'shinlari g'olib chiqqan. Nihoyat m. av. 1280-yilda Ramzes II bilan Xett podshosi Xettusili III o'rtasida tinchlik va do'stlik bitimi tuziladi. Sulhga ko'ra ikki mamlakat pod-

sholari bir-biriga har tomonlama yordam berishga kelishib olishadi. Ana shu bitimning misr va akkad tillarida yozilgan nusxalari bizgacha yetib kelgan. Bitimda mingta Xett va mingta Misr xudolari garov qilib qo'yilganligi bayon etilgan va qonunlashtirilgan.

Bitimga muvofiq Suriyaning shimoli Xett davlatiga, Janubiy Suriya, Falastin va Finikiya sohillarining katta qismi esa Misr tasarrufiga o'tgan. Ramzes II davrida Misr qo'shinlari Nubiyaga ham bir necha bor harbiy yurishlar uyuşhtirgan. Misr qo'shinlari u yerdan juda ko'p boylik va o'ljalar bilan qaytgan. Nubiyadan Misr ga juda ko'p qullar olib kelingan.

Ramzes II davrida Misrda dehqonchilik, hunarmandchilik, sando-sotiq yuksalgan. Misr harbiy jihatdan sharqning eng qudratli davlatiga aylangan. Ramzes II m. av. 1224-yilda vafot etadi. Taxtga uning o'g'li Merneptax o'tiradi. Merneptax davrida (m. av. 1224–1214) Misrning kuch-qudrati susayadi.

Bundan foydalangan g'arbiy cho'l qabilalari Misrga bostirib kirib, Memfes shahrini qamal qiladilar. Shimoldan "dengiz xalqlari" Misrga bostirib kiradi. Misr qo'shinlari qo'shni qabila va xalqlar hujumini qaytaradi. Shu davrda Suriyada Misrga qarshi qo'zg'olon ko'tariladi. Misr qo'shinlari Suriya shaharlaridagi qo'zg'olonlarni qiyinchilik bilan bostiradi. Misrning o'zida suriyalik lrou degan kishi qullar va osiyolik yollangan jangchilarga tayanib qo'zg'olon ko'taradi. Qo'zg'olonchilar boylar va ibodatxonalarning mulklerini talaydilar. Misr qo'shini qo'zg'olonni shafqatsizlik bilan bostiradi. Qo'zg'olonchilar qattiq jazolanadilar.

20-sulola davrida Misr podsholigi (m.av. 1147–1085-yillar). Memneptax vafotidan keyin Misr taxtiga Setnaxt o'tiradi (m.av. 1200-yilda). U ancha tadbirkor kishi bo'lib, Misrdagi mushkul ahvolni ancha yaxshilashga erishadi. Mamlakatdagi qo'zg'olonlar bostirilib, tartib o'rnatiladi. Setnaxting o'g'li Ramzes III (m.av. 1190–1159) davrida mamlakat xo'jaligini tiklashga katta e'tibor berilgan. Misr qo'shini kuchaytirilib, intizom yaxshilangan. U mamlakat ichidagi nizolarga qarshi kurash olib borgan. Liviyaliklar va "dengiz xalqlari"ning Misrga qilgan hujumlari qaytarilgan. U Suriya va Falastinda g'olibona urushlar olib borib, u yerda Misr-

ning avvalgi ta'sirini tiklagan. Ammo Ramzes III podsholigining oxirlarida u bilan ruhoniylar, nom hokimlari va ayrim amaldorlar o'rtasida nizo chiqqan. Fitnachilar Ramzesga suiqasd uyushtirib, m.av. 1166-yili uni o'ldirganlar. Ramzes III o'limidan so'ng juda ko'p podsholar almashgan. Lekin ularning hech biri Misrning avvalgi kuch-qudratini tiklay olmagan. Nihoyat, m. av. 1085-yili Ramzes XI vafotidan so'ng Misr fir'avnlarining 20-sulolasi tugatilgan. Yagona Misr davlati ikkiga bo'linib ketgan. Janubiy Misr Fiva hokimlari, Shimoliy Misr esa 21-sulola asoschisi Tanis hukmdori Smendes qo'liga o'tgan. Shu bilan Misr tarixidagi Yangi podsholik davri ham tugagan.

9-§. So'nggi podsholik davrida Misr (m. av. XI – IV asrlar)

Misr liviyaliklar hukmronligi ostida. M.av. XI asr boshlari-da Misrda Yangi podsholik davri barham topib, So'nggi podsholik davri boshlangan. Bu davrni "Liviya-Sais davri" ham deyiladi.

Yangi podsholik davrida Misr qo'shinida yollangan ajnabiy liviyalik askarlar xizmat qilishar edi. Yangi podsholik oxiridagi tarqoqlikdan ajnabiy liviyaliklar ustalik bilan foydalanganlar. Ular misrliklarni harbiy xizmatdan chetlashtirib, davlat tashkilotlarining yuqori lavozimlarini egallab olgan.

M. av. 945-yili liviyalik Sheshonk I shimolda hokimiyatni egal-lab olgan. U XXII sulolaga asos solib, Liviya sulolasi Misrda m. av. 945-yildan 722-yilgacha hukmronlik qilgan. Ular deltagidagi Bubasti shahrini o'z davlatlarining poytaxti qilib tanlaganlar. Shuning uchun liviyaliklar asos solgan sulola "bubastislar sulolasi" deb ham ataladi.

Sheshonk I va uning vorislari davrida xo'jalik va qurilish ishlari biroz jonlangan. U Falastin va Nubiya ustiga qo'shin tortib borgan. U yerlardan ko'plab harbiy asir, katta o'ljalar bilan Misrga qayt-gan. Bubastislar davrining oxiriga kelib Misr yana kuchsizlanadi. Sharqdan Ossur qo'shinlarining istilosи boshlanadi. Ossurlar bilan Suriya Falastin-Misrning birlashgan qo'shinlari m. av. 853-yili Qar-qara shahri yaqinida to'qnashadi. Jangda Ossur qo'shinlari g'alaba

qozonadi. Bu mag'lubiyatdan so'ng Misrning obro'si tushib ketadi. Shu davrda kelib chiqishi liviyalik Tanis hukmdori Petubastis m.av. 808-yilda o'zini Misr fir'avini deb e'lon qilib, 23- sulolaga asos soladi. Bu sulola davrida Misrdagi ahvol yanada yomonlashadi.

M. av. VIII asrda hukmronlik qilgan 24-sulola vakillari, xususan Bakxoris davrida (m.av. 721–715) mamlakatni inqiroz botqog'idan qutqarish uchun ayrim islohotlar o'tkazilgan. Bu islohotlar ham Misrdagi ahvolni yaxshilay olmagan. Mamlakatda vaziyat yana yomonlashib, Misr qaytadan mayda hokimliklarga – nomlarga bo'linib ketgan.

Misrda Efiopiya hukmronligi. M. av. VIII–VII asrlarda yuqori Misr janubida Efiopiya (Kush) davlati ravnaq topadi. Misrning kuchsizlanganidan foydalaniб Efiopiya podsholari Misr ustiga bostirib kiradi. Efiopiya podshosi Pianxi va uning vorisi Shabakalar davrida (m.av. 740–720) Misr Efiop qo'shnirlari tomonidan bosib olinadi. M. av. 715-yilda bo'lib o'tgan jangda Misr qo'shnirlari tormor qilinib, fir'avn Bakxoris asir olinadi va tiriklayin o'tga tashlab kuydiriladi. Misr bosib olingach. Efiopiya va Misr bitta davlat qilib birlashtiriladi. Shu tariqa Misrda Efiopiya sulolasi hukmronlik qildi. Bu Misr tarixidagi 25-sulola edi. Efiopiya sulolasi Misrni m. av. 715-yildan 664-yilgacha boshqaradi. Shabaka davrida mamlakatda tinchlik o'rnatilib, xo'jalik va madaniyat ancha rivoj topadi.

Misrda Ossuriya podsholigining hukmronligi. M. av. VII asrning birinchi yarmida Ossuriya davlati qaytadan kuchayadi. Asarxadon va Ashshurbanipal podsholik qilgan davrda Ossuriya qo'shnirlari Misrga uch marta bostirib kirgan. Ular aholini qirg'in qilib, Misr boyliklarini talab, aholining bir qismini qul qilib haydab ketgan. Asarxadon m.av. 674–671-yillardagi jangda Efiopiya-Misr podshosi Taxarkani yengib, o'zini Efiopiya-Misr podshosi deb e'lon qilgan. Ossur podsholarining Misrdagi hukmronligi m.av. 671-yildan 655-yilgacha davom etgan. Shu davr ichida Misrda Ossurlarga qarshi Taxarka rahbarligida ikki marta qo'zg'olon ko'tarilgan, 663-yilda esa ossur qo'shnirlari bilan Taxarkaning vorisi Tanutamon qo'shnirlari o'rtasida qattiq jang bo'lib, jangda ossurlar g'alaba qozonadi. Shu jangdan so'ng 25-efiopiya sulolasi tugati-

ladi, mamlakat 20 ta nomga bo'linib ketadi. Nilning quyilishidagi Sais nom davlati ossurlardan biroz imtiyoz olib, o'zlarini mustaqil sezardilar. Sais hukmdorlari Misr taxtini egallash uchun harakat boshlaydilar.

Misrni qayta birlashtirish uchun kurash. Sais quiyi Nil tar-mog'inining g'arbiy qismida joylashgan shahar bo'lib, atrofi botqoqliklar bilan qurshalgan edi. Asli Kichik Osiyolik Sais hukmdorlari dan Psammetix I Lidiya, Yunoniston va Bobil bilan ittifoq tuzib mamlakatdan efiopiyaliklarni va ossuriyaliklarni surib chiqargan. Shundan so'ng janubiy Misrda ham o'z hokimiyatini mustahkmalab, m.av. 655-yilda mamlakatni birlashtirish nihoyasiga yet-kazilgan. U 26-sulolaga asos solib, bu sulola m. av. 664-yildan 525-yilgacha Misrda hukmronlik qilgan. Psammetix I mamlakat obodonchiligi va xo'jaligini rivojlantirish ishiga homiylik qilgan.

Psammetix I ning o'g'li va taxt vorisi Nexo II (m.av. 610–595) Misrni kuchli davlatga aylantirish uchun harakat qilgan. U Falastin va Suriya janubida Misr ta'sirini qayta tiklamoqchi bo'lib, Frot daryosigacha borgan. Ammo Frot daryosi sohiliga chiqqan. Nexo II qo'shinlari bobilliklarning qarshiligidagi duch kelgan. Karxemish yonidagi jangda uning qo'shinlari bobilliklardan yengiladi. Nexo II davrida Misrda obodonchilik va xo'jalikni rivojlantirishga katta e'tibor berilgan. Xuddi shu davrda Qizil dengiz bilan O'rtayer dengizini birlashtiradigan 84 km uzuntikdagagi kanal qazilgan. Kanal qurilishida asirlar, qullar va oddiy aholi ishlagan. Qurilish vaqtida 120 mingdan ortiq odam og'ir mehnat natijasida o'lib ketgan. Nexo II buyrug'i bilan Finikiya dengizchilari m.av. 600–597-yillarda Afrika atrofini aylanib chiqqanlar. M. av. 569-yili mamlakatda g'alyonlar boshlangach Misr taxtini sarkadalardan bo'lgan Yaxmos II egallagan. U m. av. 570–525-yillarda Misrda podsholik qilgan. U Misr davlatini mustahkamlash uchun ko'p harakat qilgan. Lekin, Yaxmos II Eroniylar Misrga bostirib kirishlaridan biroz oldinroq vafot etgan.

M. av. 525-yili Eron qo'shinlari Pelusiya yonida bo'lgan jangda Misr qo'shinlarini tor-mor etadi. Eron shohi Misrni istilo qilgan va o'ziga tobe qilib olgan. Shu vaqtidan boshlab Kamibiz 27- sulolaga

asos solib o‘zini ham Eron podshosi, ham Misr fir’avni deb e’lon qiladi. Ammo 28, 29 va 30- sulola vakillari misrliklardan bo‘lgan.

M. av. 332-yili Misr Makedoniyalik Aleksandr davlati tarkibiga kirib, uning vafotidan keyin bu yerda Ptolemylar davlati qaror topgan. Keyinchalik esa Misr Rim sultanati tarkibiga qo’shib olingan. 395-yildan Misr Vizantiya ta’siriga tushib qolgan. Shu bilan Qadimgi Misr tarixi barham topib, tarix sahnasidan butunlay ketgan.

Misr ahamoniylar va yunon-makedonlar hukmi ostida. Ma’lumki, O’rta Osiyo massagetlari bilan olib borilgan jangda Eron qo’shinlari tor-mor etilib, shoh Kayxusrav II janglarning bida fojiali tarzda halok bo‘lgan. Gerodot keltirgan afsonaga ko’ra massagetlar malikasi To’maris Kayxusravni yengib, urush maydonidan uning jasadini topib kelishni buyurgan va uning kallasini kishi qoni to’ldirilgan meshga tiqayotib “sen qon talab eding, seni qonga to’yg’izmoqchi edim”, – degan ekan. Kayxusrav vafotidan so‘ng uning o‘g’illari o’rtasida toju-taxt uchun kurash boshlanadi. Kambiz Eron davlatining to’la huquqli podshosi bo‘lib oladi.

Bu kurashda u o‘z ukasini qatl ettiradi. Kambiz taxtda mustahkam o‘rnashib olgach, joylardagi qo’zg’ololnlarni shafqatsizlik bilan bostiradi. U otasi Kayxusravning istilochilik siyosatini davom ettirish maqsadida Misr ustiga qo’shin tortib borishga tayyorgarlik ko’radi. Mazkur davrda Misr Eron shohlari uchun xavfli raqib hisoblanar edi. So’nggi podsholikka mansub Amazis-Yaxmos II yunonlar bilan aloqa bog‘lab, o‘z qo’shiniga yunonlardan yollanma askarlarni jalb etadi. U Misrning iqtisodiy, siyosiy va harbiy qudratini mustahkamlamoqchi bo‘lgan. O‘zining ulkan qo’shini va ittifoqchilari – finikiyaliklar, kiprliklar, samosliklarning kuchli harbiy dengiz flotiga suyanib, Kambiz II m.av. 526-yilda Misrga qarshi harbiy yurish boshlagan. Misrga qarshi yurishda lidiyaliklar ham ishtirok etgan. Kambiz shimoliy arab qabilalari sardorlari bilan ittifoq tuzib, m.av. 526-yili Eron qo’shinlari Misr chegaralari ga yaqinlashib kelayotgan paytda zamonasining mashhur arbobi Amasis-Yaxmos II ittifoqchisi hisoblangan yunonlarning yollangan qo’shinlaridan ustalik bilan foydalandi. Uning vafotidan so‘ng o‘g’li Psammetix taxtga o’tirdi.

Psammetix o‘z mamlakatini dushmanlar hujumidan va o‘z davlatining mustaqilligini saqlab qolishning uddasidan chiqa olmagan. Kambiz qo‘sinchilari m.av. 525-yilda chegaraga yaqin bo‘lgan Pelusiya yaqinida Misr qo‘sinchilari bilan to‘qnashib, misr va yunon yollanma qo‘sinchilarini tor-mor etgan. Shuningdek, Memfis shahri uchun bo‘lgan jangda ham eroniylarning qo‘li baland kelib, ular Misrni o‘zlariga bo‘ysundirganlar. Misr qo‘sinchilarining yengilishi-ga asosiy sabab Fanes boshliq yunon yollangan qo‘sinchilari va nom qo‘sinchilari sarkardalarining xoinligi bo‘lgan.

Shuningdek, Misrga qo‘schni bo‘lgan liviyaliklar eronliklarga o‘z ixtiyorlari bilan taslim bo‘lishgan. Shimoliy Afrikadagi kirenalilik va barqaliklar ham eroniylarga so‘zsiz taslim bo‘lib, Kambizga xiroj to‘lagan hamda sovg‘a-salomlar yuborib turgan.

Shu davrda Misrda g‘alayonlar boshlanib, unga qarshi eronliklar qattiq jazo choralarini qo‘llaydilar. Jumladan 26-sulolaga mansub so‘nggi Misr fir‘avni Psammetix, Gerodot ta‘biri bilan aytganda “misrliklarni qo‘zg‘olonga chaqirishda” ayblanib o‘ldirilgan.

Kambiz II qo‘sinchilari Misrni istilo qilish bilan cheklanib qolmay, Misrga chegaradosh mamlakatlarga kirib borgan. U Karfagenni, vohalarni va uzoq Efiopiyanı ham istilo qilishga urinib ko‘rgan. Kambiz Nubiya va Efiopiya istilosiga yaxshi tayyorgarlik ko‘rmagan edi. Qo‘sinda ocharchilik boshlanib, askarlar orasida odamxo‘rlik kelib chiqqan. Ammo Kambiz qo‘sinchilari Efiopiya va Karfagenni bosib olishga muvaffaq bo‘la olmagan. Kambizning vohalarga yuborgan qo‘sinchilari vohaning jazirama qum-cho‘llari-da halok bo‘lganlar. Finikiya floti karfagenlik o‘z qabiladoshlariga qarshi chiqishdan bosh tortgan.

Kambiz o‘zini eroniylardan bo‘lgan XXVII sulolaning asoschisi deb hisoblab, Misr fir‘avni va Eron shohi deb e’lon qilgan. Ammo Kambiz m.av. 522-yili Eronga qaytayotgan vaqtida sirli tarzda o‘ldirilgan. Uning o‘rniga taxtga ahamoniylardan bo‘lgan Doro I o‘tirgan (m.av. 522–486). Doro I davrida Misr Eron davlati tarkibida bo‘lgan. Ammo eroniylarning Misrdagi hukmronligi asta-sekin zaiflashib borgan. Eron shohlari va amaldorlari Misrda zo‘ravonliklarni kuchaytirib, soliqlarni oshirganlar. Bunga qarshi Misrda

qo'zg'olonlar bo'lib, ular eroniylar tomonidan shafqatsizlik bilan bostirilgan. Bunga javoban m. av. 460-yilda G'arbiy delta-da Inar boshchiligidagi eroniylarga qarshi qo'zg'olon boshlangan. Qo'zg'olonda yunon dengiz floti qo'shinchilari ham qatnashgan. Ammo bu qo'zg'olon m. av. 454-yilda shafqatsizlarcha bostirilgan. M.av. V asr oxirlarida Eronda toju-taxt uchun ichki kurash qizg'in tus oladi. Bu vaziyatda Sais hukmdori Amirtey qo'zg'olonga rahbarlik qiladi. Amirtey qo'shinchilari Eron qo'shinchilarini yengib, hokimiyatni o'z qo'liga oladi. U Misrda mahalliy hukmdorlarning 28-sulolasini boshlab beradi hamda mamlakatni m.av. 404–398-yillarda idora qiladi.

Amirteydan so'ng markaziy deltadagi Mendes shahridan chiqqan kishilar hokimiyatni egallaydilar. Ular Misrda 29-sulolani boshlab berib, m.av. 398–380-yillarda mamlakatni boshqargan. Bu sulolaga mansub hukmdorlar tez-tez almashib turgan. Sulolaning so'nggi vakili Akaris mamlakatni 13 yil (m.av. 393–380-yillarda) boshqaradi. Akaris vafotidan so'ng ichki to'ntarish natijasida 30-sulolaga asos solgan hukmdorlar hokimiyat tepasiga keladi. Ular Mendes shahriga qo'shni bo'lган Sevennitadan chiqqan edilar. Mazkur sulola vakili serg'ayrat Nektanib I (m.av. 380–363-yillar) mamlakatni boshqaradi. Uning davrida misrliklar eroniylarga qarshi kurash olib boradi. Nektanib I dan so'ng Misrda Taxos (m.av. 363–361-yillarda) hukmronlik qiladi. Taxosdan so'ng taxtga Taxosning jiyani Nektanib II (m.av. 361–343) o'tirib mamlakatni boshqaradi. Taxos va Nektanib II davrida (m.av. 361–343-yillarda) misrliklarning eronliklarga qarshi kurashi davom etadi.

M.av. 337–335-yillarda Memfis hukmdori Xabbash ikki yil davomida eroniylar bilan kurashni davom ettiradi. Ammo Eron podshosi Doro III qo'shinchilari Xabbash qo'shinchilarini yengib, Misrni qaytadan ahamoniylar saltanatiga qo'shib oladi. Biroq Doro III ham Misrni uzoq vaqt Ahamoniylar Eronni tarkibida saqlay olmadi.

M.av. 332-yilda Makedoniyalik Aleksandar qo'shinchilari Misrni bostirib kirib, uni jangsiz egallaydi. Misrliklar Makedoniyalik Aleksandrni hurmat-ehtirom bilan kutib oladi va unga fir'avn unvonini beradilar. Uni Amonning o'g'li deb e'lon qilishadi.

Shu bilan mahalliy suloqlalar davri tugab, Misr Makedoniyalik Aleksandr sultanati tarkibiga qo'shib olinadi. Uning vafotidan so'ng Misrda Ptolemeylar davri boshlanadi. Bu davr Misrda "ellinizm davri" deb ham ataladi. Ptolemeylardan so'ng esa Misr Rim sultanati tarkibiga qo'shib olinadi. Shu bilan Misr xalqlari tarixining qadimgi davri o'z nihoyasiga yetdi.

10-§. Qadimgi Misr madaniyati

Qadimgi Misr madaniyati haqida umumiylumot. Azim Nil daryosining quyi qismida joylashgan Qadimgi Misr kishilik madaniyatining eng ko'hna, eng qadimgi markazlaridan biri hisoblanadi. Misr madaniyati m. 4000–5000 yil muqaddam vujudga kelgan va bir necha tarixiy davrlarni boshidan kechirib, taraqqiy etib borgan. Madaniyat ko'pqirrali tushuncha bo'lib, u bir-biri bilan bog'langan ikki tarkibiy qismdan iboratdir. Ularning biri moddiy madaniyat bo'lsa, ikkinchisi ma'naviy madaniyatdir. Moddiy madaniyat deganda ajdodlarimizning aqli-zakovati, qo'l mehnati bilan yaratilgan turar joylari, me'moriy binolari, ust-bosh, kiyim-kechaklari, iste'mol qiladigan taomlari, uy-ro'zg'or anjomlari, xuldas odamlarning kundalik ehtiyoji uchun kerak bo'ladigan buyumlar majmuasi tushuniladi.

Kishilikning ma'naviy madaniyati esa moddiy madaniyat bilan uzviy, chambarchas bog'liq bo'lib, u ham ko'p qirralidir. Ma'naviy madaniyat tarkibiga axloq, odob, yurish-turish, kishilar bilan muomala, til, tafakkur, xalq og'zaki ijodiyotining hamma turlari, yozuv, yozma adabiyot, raqs, qo'shiq, musiqa, rassomchilik, haykaltaroshlik, yer bilimi, amaliy san'at buyumlari, ilm-fan, huquq, din, diniy tushunchalar va boshqa narsalar kiradi.

Qadimgi misrliklar madaniyatning har ikki tarmog'i bo'yicha ham kattadan-katta yutuqlarga erishganlar. Qadimgi Misr madaniyatining ildizlari 4-5 mingyillik emas, balki, bir necha o'n ming yilliklarga borib taqaladi.

Misrning qulay geografik muhiti hudud aholisining moddiy va ma'naviy madaniyati hamda texnikaning juda barvaqt taraqqiy

etishiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Misrning jazirama issiq ob-havosi, Nil vohasida sun’iy sug‘orish inshootlariga bo‘lgan benihoya zo‘r ehtiyoj juda qadim zamonlardayoq kanallar, to‘g‘onlar, dambalar va dastlabki vaqtarda oddiy pitang bilan ko‘tariladigan bosmalar, keyinchalik esa charxpalaklar, shoduf, nova va boshqa sug‘orish texnikasining murakkab tizimini kashf etishga majbur qilgan.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, qadimdan boshlab Misrda toshtaroshlik g‘oyat ravnaq topib, toshdan ajoyib ibodatxonalar, saroylar, piramida-ehromlar va turli me‘moriy obidalar yasaganlar. Qadim zamonlardanoq misrlik hunarmandlar fil suyagi, oltin, mis, kumush va qimmatbaho toshlardan ajoyib, nafis ziynat buyumlari yasashda katta yutuqlarga erishgan.

Misrda yer yuzining boshqa joylariga qaraganda yozuv va yozma adabiyot ancha ilgari paydo bo‘lgan va rivojlana borgan. Yozuv paydo bo‘lishi munosabati bilan maktab va ma‘orif ham asta-sekin shakllana borib, rivoj topgan. Mamlakatda astronomiya, matematika, tabobat, geografiya, veterinariya va boshqa ilmiy bilimlarning kurtaklari shakllanib ravnaq topgan.

Ko‘pgina misrshunos olimlar, xususan V.I.Avdiyevning yozishi-cha, “Misr madaniyati qadimgi Sharqdagi turg‘un madaniyatning timsoli sifatida juda sekinlik bilan rivojlana borgan. Misr madaniyatining turg‘unligi, to‘g‘risi, juda sekin taraqqiy qilishiga Nil vodiyining geografik jihatdan boshqa olamdan ajralib qolganligi, hamda u yerda ibtidoiy jamoa tuzumi qoldiqlarinig uzoq saqlanib qolganligidir”. Biroq keyinchalik birinchi, ikkinchi mehnat taqsimotining bo‘lishi hamda savdo-sotiqning rivojlana borishi oqibatida xususiy mulk va mulkiy tengsizlik qadimgi urug‘doshlik jamiyatini yemirib, tabaqaviy quldorlik jamiyati va eng qadimgi mustabid davlatlarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan.

Urushlar va tashqi savdo misrliklarning qo‘shni mamlakatlar bilan tanishish va aloqa bog‘lashiga imkoniyat yaratgan. Shu munosabat bilan misrliklar O‘rtayer dengizining sharqiy viloyatlari va Mesopotamiya aholisi madaniyatidan juda ko‘p narsalar o‘rganib, o‘z o‘rnida bu xalqlar madaniyatining rivojiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatgan. Bunga Misrning geografik o‘rni ya’ni 3 qit‘a – Afrika, Osiyo

va Yevropa chegaralari tutashgan yerda joylashganligi ham birinchi yordam bergen. Shuningdek fir'avnlar, arkoni davlat, qo'shin, ruhoniylar va ko'p sonli Misr aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlashning asosiy manbayi hisoblangan yer bilimi va u bilan bog'langan ziroatchilik misrliklar madaniyati rivojining eng muhim omillari o'lgan.

Qadimgi Misr yozuvlari. Misr insoniyat madaniyatining eng qadimgi markazlardan biri hisoblanadi. Yozuv ma'naviy madaniyatning ajralmas qismidir. Qadimgi misrliklar bundan 6-7 ming-yillar muqaddam belgi-rasmlar shaklidagi iyerograf yozuvini kashf etganlar. Bu yozuvlar 750 belgi-rasmlardan iborat bo'lgan.



Misr yozuvida narsa va hodisalar har turli rasm va belgilar yordamida ifoda etilgan. Masalan, suv so'zi uch qator to'lqinsimon chiziq, tog' so'zi ost tomoni tekis, yuqori tomoni qabariq, o'rta-si botiq shakl bilan ifoda etilgan. Qo'lida o'q-yoy ushlab turgan odam rasmi jangchi, o'roq ushlab turgan kishi tasviri esa o'rmoq degan ma'noni bildirgan. Keyinchalik belgi-rasm shaklidagi yozuv takomillashib soddalashtirilgan. Zamonlar o'tishi bilan belgi-rasm shaklidagi yozuvlar alifbo belgilariga aylangan. Qadimgi podsholik davrida misrliklar yozuvida 24 ta asosiy tovushni bildiradigan alifbo tizimi paydo bo'lgan. Misrliklar dastlab alifbo va xatlarni

tosh, yog'och, po'stloq, taxta, teri kabi buyumlarga yozganlar. Nil sohillarida o'sadigan papirus o'simligining barglaridan esa yozuv qog'ozi o'rnida foydalanilgan. Misrliklar papirus barglaridan varaqlar tayyorlab, varaqlarni bir-biriga ulab uzunligi 45 metrgacha papirus o'ramlari tayyorlaganlar. Zaruriy ma'lumot, hodisa va boshqa narsalar papirusga yozib berilgan. Unga qamishdan tayyorlangan yozuv asbobi bilan yozilgan. Bu misrliklarning o'ziga xos kitobi edi. Misrning turli joylaridan arxeolog olimlar qadimgi "papirus kitob"larini topishgan. Qadimgi Misr iyerogliflarini, tilshunos olimlar o'rghanishga urinib ko'rghanlar. Lekin ular bu sohada aytarli natijalarga erisha olmaganlar.

Mashhur fransuz olimi J.F.Shampalon Misr iyerogliflarini o'qib chiqib, shuhrat qozongan. Misr tarixini o'rghanishda "Rozzet" bitik-toshi ham katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Qadimgi Misrda maorif va maktab. Qadimgi Misr murakkab davlat tizimiga va keng miqyosli xo'jalikka ega mamlakat bo'lgan. Misr davlati va xo'jligini boshqarish uchun xat-savodli, bilimdon kishilar zarur bo'lgan. Shu tufayli Misr fir'avnlari va a'yonlari xat-savodli va bilimdon xodimlar tayyorlashga alohida ahamiyat bergenlar. Misrda talabalarni o'qitish va ta'lim-tarbiya berish maskani maktablar edi. Mamlakatning hamma shaharlari va yirik qishloqlarida maktablar bor edi. Maktablarda fir'avnlar, a'yonlar, amaldorlar, ruhoniylarning bolalari va o'qishga havasi bo'lgan kishilarning farzandlari ham o'qiganlar.

Misrda boshlang'ich, o'rta va olyi maktablar faoliyat ko'satgan. Boshlang'ich maktablarga bolalar 5-6 yoshdan jalb etilib, harflar o'rgatilib, savodi chiqarilgan. Bolalar maktabda



husnixat bilan ham shug'ullanib, ular har kuni 3 sahifa yozishlari kerak bo'lgan. Misrdagi o'rta va oliy maktablarning ko'pchiligi mirzolar tayyorlab chiqargan. Ularni "mirzolar maktabi" ham deyishgan.

Misr fir'avnlarining markaziy mahkamasi qoshida podsho xazinasi uchun maxsus amaldor mirzolar tayyorlaydigan maktablar ham bo'lgan. Bu maktablar katta tajribaga ega bo'lgan bilimli ustoz-o-qituvchilar bilan ta'minlangan. Maktablarda matematika, geometriya, astronomiya, tarix, tibbiyat, adabiyot kabi dunyoviy va diniy bilimlar o'qitilgan.

Misr maktablarida intizom juda qattiq bo'lib, u tan jazosi bilan mustahkamlangan. O'sha vaqtida yozilgan "Nasihatlar"da: "Ey mirza, dangasalik qilma, yo'qsa jazoga duchor bo'lasan. Qo'lingda kitob bo'lsin, ovoz chiqarib o'qigin va o'zingdan ko'p biladiganlar bilan maslahat qilib ish tut. Bir kun ham yalqovlik qilma, yo'qsa kaltak yeysan. Axir bolaning qulog'i yelkasida bo'ladi-da, qachon ursang, shunda uning qulog'iga gap kiradi", – deb yozilgan.

Misrda yozuv, ilmiy, amaliy va diniy bilimlarning vujudga kelishi va rivojlanishi mamjakat xo'jaligi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Misrda vujudga kelgan ilmiy-amaliy bilimlar xo'jalikning hamma tarmoqlari rivojiga juda katta ta'sir ko'rsatgan.

Qadimgi Misr folklori va adabiyoti. Qadimgi Misr adabiyoti bundan VI–VII mingyil muqaddam vujudga kelgan. O'rta podsholik davridayoq adabiyot juda yuksak darajaga ko'tarilgan. Qadimgi misrliklar juda ko'p xalq maqollari, matallari, ertak, afsona,



doston va qo'shiqlar yaratganlar. Xalq og'zaki ijodiyotida dehqon, cho'pon, savdogar, hammol, amaldor, ruhoniy va hatto Misr fir'avnlarining turmush tarzlari sodda tilda bayon etilgan.

Qadimgi misrliklarning “Ikki og‘a-ini”, “To‘g‘ri va egri”, “Isida va Osiris haqida”, “Gor bilan Set janjali”, “Halokatga uchragan kema haqida hikoya”, “Sinuxet hikoyasi” kabi rivoyat, afsona, ertak va hikoyalari diqqatga sazovordir.


Qadimgi Misr adiblari sayohatnomalar, pand-nasihat, diniy poeziya va gimnlarga katta e’tibor berganlar. Ular shu yo’nalishda ko‘plab asarlar yaratishgan.

“Halokatga uchragan kema haqida hikoya” rivoyatida podsho konlariga qilingan mashaqqatli sayohat haqida so‘z yuritiladi. Hikoya qilinishicha, sayyoohlар dengizda dahshatli dovulga duch keladilar. Dovul ularni “ruh oroli”ga uloqtirib tashlaydi. Orolda ulkan ilon qiyofasidagi olijanob podsho yashar ekan. Ilonshoh sayyoohlarni yaxshi qabul qilibdi. Ularga ko‘p oltin, kumush, fil tishlari, xushbo‘y narsalar, it va maymunlar sovg‘a qilib, Misrga kuzatib yuboribdi.

“Sinuxet hikoyasi”da misrlik amaldor Sinuxetning Suriyaga safari, uning o‘zga mamlakatda ko‘rgan-bilganlari, boshidan o‘tkazgan og‘ir mashaqqatlari g‘oyat go‘zal iboralar bilan bayon etilgan.

Shunday qilib. Qadimgi Misr xalqining badiiy ijodi mazmun jihatidan xilma-xil va boy bo‘lib, jahon adabiyotining durdonalari qatoridan munosib o‘rin olgan.

Qadimgi Misrning san’ati va me’morchilik. Me’morchilik, haykaltaroshlik, rassomchilik, musiqa, qo’shiq va xalq o‘yinlari Qadimgi Misr san’atining ajoyib namunalari hisoblanadi. San’atning bu turlari Misrda juda qadim zamondan boshlab shakllangan



va rivoj topgan edi.

Misr fir‘avnulari va yuqori tabaqaga mansub a’yonlar me’morchilikka katta e’tibor berganlar. Yuqori Nilning ikki so-

hilidagi tog'larda me'morchilikda ishlatiladigan turli toshlar ko'p bo'lgan. Fir'avnlar, a'yonlar, nomarxar va ruhoniylarga qarashli saroylar, ibodatxonalar, maqbaralar, ehromlar va boshqa ma'muriy binolar ana shu toshlardan qurilgan edi. Tosh konlarida yuz ming-lab qullar va asirlar ishlatilgan. Misrga xos me'moriy obidalardan biri piramidalar – Misr ehromlaridir. Bu jihatdan Sakkaradagi Jos'er, Gizadagi fir'avn Xeops ehromlari, boshi odam, tanasi shersurat qilib ishlangan Sfinks va boshqalar o'zlarining salobati, ulug'verligi bilan hozirgacha kishilarini hayratga solib keladi.

Misrda haykaltaroshlikka ham katta e'tibor berilgan. Misr haykaltaroshlari tosh bo'laklaridan fir'avn, amaldor, ruhoniy, oddiy kishilar va hayvonlarning haykallarini juda nozik did bilan ishlanganlar. Bu jihatdan Ramzes II, Amenemxet III, Tutanxamon, Ex-naton, uning xotini Nefertiti, amaldor Raxotep va mirzo haykallari diqqatga sazovordir.

O'sha vaqtarda Misrda rassomlik ham ancha taraqqiy etgan edi. Saroy, ibodatxona va ma'muriy binolarning devorlariga fir'avnlar, amaldorlar va ruhoniylar timsoli hamda afsonaviy voqealardan olingan rasmlar ishlangan.

Misrliklar san'atining yana bir turi kuy-qo'shiq va raqsdir. Misrda puflab, urib va chertib chalinadigan not, sistra, qayroq, arfa, ud va boshqa asboblar keng tarqalgan edi. Raqs san'ati ham yuksak darajada taraqqiy etgan.

11- § Qadimgi Misr fani va diniy e'tiqodi

Misrda ilmiy bilimlarning rivojlanishi. Dehqonchilik, savdo-sotiqlik, hunarmandchilik, chorvachilik va boshqa sohalarni rivojlantirish uchun misrliklarga ilmiy-amaliy bilimlar juda ham zarur bo'lgan. Shuning uchun ham matematika, geometriya, geografiya, astronomiya, tarix, tibbiyat, yer bilimi, veterinariya va qishloq xo'jaligi bilimlari ancha erta rivoj topgan.

Qadimgi va O'rta podsholik davrida misrliklar matematika sohasida jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritganlar. Ular 1, 10, 100, 1000 lik va hokazolardan iborat son-sanoq tizimini kashf etganlar. Bu sonlar

uchun alohida belgilar bo'lgan. Yarim doira o'nni, o'rilgan arqon yuzni, nilufar guli belgisi esa ming raqamini bildirgan.

Misrliklar geometriya – “yerni o'lchash” sohasida ham katta yutuqlarga erishgan. Chunki, kanallar qazish, dalalarni paykallarga ajratish, binolar qurish, sath va hajmlarni o'lchashda geometriya fani zarur bo'lgan. Misrliklarda kaft, barmoq, qarich va tirsak uzuqlik o'lchovlari sifatida xizmat qilgan.

Qadimgi Misr astronomlari osmon jismlarini, yulduzlar va sayyoralar harakatini o'rganib, o'z davrida katta yutuqlarga erishgan.

Ma'lumki, Misrda qishloq xo'jaligi ishlari boshlanishidan avval Nil daryosi toshgan. Bu voqeа ravshan yulduz Sirius ertalabki shafaqda ko'ringandan ikki-uch kun o'tib sodir bo'lar edi.

Astronomlar Siriusni ko'rishlari bilan Misr aholisini Nilning toshishi va ekish mavsumi boshlanishi haqida xabardor qilar edi. Demak, Nil daryosining toshish mavsumini hisoblash ehtiyoji Misr astronomiyasini yaratdi.

Misr astronomlari dunyoda birinchi bo'lib yulduz va sayyoralar xaritasini tuzgan. Yulduz va sayyoralarning joylashuvini ko'rsatadigan qadimgi xaritalar Misrdagi Senmut maqbarasi, Edfu va Dender ibodatxonalarining shiftlarida saqlanib qolgan. Astronomik bilimlar mamlakatning ichki va tashqi savdosida katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Misr astronomlari dunyoda birinchi bo'lib o'zlarining alohida quyosh kalendor-taqvimlarini tuzganlar.

Taqvimga ko'ra bir-yil 365 kun bo'lib, u 12 oyga bo'lingan. Har bir oy 30 kundan iborat bo'lib, qolgan 5 kuni bayram hisoblangan. Misrliklar tungi vaqtini yulduzlarga, kunduzgi vaqtini quyoshga qarab belgilaganlar. Vaqtini belgilaydigan qum va suv soatlari ham ilk bor Misrda kashf etilgan. Demak, Qadimgi misrliklar Nil toshqini vaqtini bilish, kanal, to'g'on qurish, dalalarni ekishga hozirlashda astronomiya ma'lumotlariga tayanganlar. Ular daryo va dengizlarda suzganlarida, safarga chiqqanlarida astronomiya bilimlariga suyangan. Astronomiya fani qishloq xo'jaligi ishlarida, savdo-sotiq aloqalari va harbiy harakatlarda ham katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Qadimgi Misr tabobati. Qadimgi Misr issiq mamlakat bo'lganligi uchun turli kasalliklar ko'p bo'lgan. Misr tarixidagi

ko'pdan-ko'p janglar, istilolar va ichki urushlar natijasida ko'plab aholi, jangchilar jarohatlanganlar. Ularni davolash ehtiyoji Misrda tabobatning juda erta shakllanishiga turtki bo'lgan.

Qadimgi solnomalar Misrda m. av. IV mingillardayoq dastlabki shifoxonalar bo'lganligi haqida hikoya qiladi. M. av. 3600-yilda Memfis shahrida afsonaviy tabib Imxoteb sharafiga maxsus ibodatxona qurilgan. Bu yerda bemorlarga tibbiy yordam berish uchun alohida xonalar ajratilgan. Shifoxonada tabobatni yaxshi biladigan tabib – kohinlar ishlagan va bemorga tashxis qo'yib ularni davolagan.

Misrning Sais, Geliopolis kabi shaharlarida tabiblar tayyorladigan maxsus tibbiy maktablar bo'lgan. Ayni paytda misrlik tabiblar tabobatga bag'ishlangan kitoblar ham yaratganlar.

Misr tabiblari mo'miyolash uchun odamning ichki a'zolalini jarrohlik yo'li bilan ochganlar. Shu sababli ham ular odamning hamma a'zolarini puxta bilganlar. Tabib-hakimlar kasallikni aniqlashda kishining tashqi holati va tomir urishiga alohida e'tibor qaratganlar. Tabiblar ko'z, bosh, tish, ichki, ruhiy kasalliklar, singan-chiqqan va boshqalar bo'yicha ixtisoslashgan. Ular jarohatli bemorlarni jarrohlik yo'li bilan davolashda maxsus mis va jez asboblardan foydalanganlar.

Qadimgi Misrda Erazistrat, Xerofil, Imxoteb va Koslik Filipp kabi mashhur tabiblar faoliyat ko'rsatgan. Tabiblar bemorlarni davolashda shifobaxsh o'simlik, meva va turli hayvon mahsulidan tayyorlangan dori-darmonlardan foydalanganlar. Misr tabobati jahon tabobatida alohida o'rinni egallagan. Misrliklar veterinariya sohasida ham muayyan bilimga ega bo'lganlar.

Qadimgi Misrda tarixiy va geografik bilimlar. Qadimgi misrliklar tarixiy va geografik bilimlarga qiziqib qaraganlar. Misr tarixiga oid dastlabki tarixiy ma'lumotlar shifer lavhalariga, fil suyagi bo'laklariga, qora yog'och taxtachalariga, Palemos toshi, ibodatxona devorlariga bitilgan yozuv va yilnomalarda saqlanib qolgan. Bu jihatdan "Tutmos III yilnomasi" qimmatlidir. Qadimgi Misr haqida papiruslarga yozilgan turli ma'lumotlar ham muhimdir. Qadimgi yunon tarixchisi Gerodot o'zining "Tarix" kitobida

Qadimgi Misr haqida juda ko'p ma'lumot beradi. U o'z kitobida "Misr – Nil tuhfasidir" deb yozgan edi.

Qadimgi misrliklar geografiya fani sohasida ham muayyan bilimlarga ega bo'lishgan. Ular yerning chetlari tog'lar bilan o'rabi, atrofi oqib turadigan okean suvidan iborat deb tasavvur qilganganlar. Misrliklar yerning Nil oqib keladigan tomoni janub. O'rtayer dengizi tomoni shimol, daryoning so'l tomoni g'arb, o'ng tomoni sharq deb hisoblagan. Qadimgi Misr geograflari o'z o'lkalari va Arabiston yarimoroli xaritasini ham chizganlar. Arabiston cho'llaridagi oltin konlari belgilangan xarita zamonamizgacha saqlanib qolgan.

Qadimgi misrliklar konchilik, ob-havo, iqlimshunoslik va boshqa sohalarda ham ancha bilimlarga ega bo'lgan.

Misrliklarning dirlari va e'tiqodlari. Ma'lumki, din, xususan qadimgi Sharq xalqlari dini kishilar turmush tarzidagi ijtimoiy hodisa bo'lib, ma'naviy madaniyatning ajralmas qismini tashkil etadi. Misrliklar eng qadimgi davrdan boshlab milodiy III–IV asrlargacha uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Ular turli fanlar sohasida ko'plab bilimlarga ega bo'lsalar ham hali tabiat hodisalarini oldida ojiz edilar. Ular Nil toshqini, zilzilalar, Sahroyi Kabir tomonidan esadigan qum bo'ronlari, momaqaldiroq, sayyoralar va yulduzlarining harakatida qandaydir g'ayritabiiy kuch bor deb tasavvur qilganlar. Bu hodisalar misrliklarning dini va e'tiqodida o'z ifodasini topgan.

Qadimgi Misr xalqlari ham din va diniy e'tiqodlarining xilma-xil ko'rinishlarini o'z turmush tarzlarida namoyon etganlar. Misrliklar e'tiqod qiladigan xudolarning ko'pligi bilan butun Sharq dunyosida dastlabki o'rnlarda turadi. Manbalarda keltirilishicha, "Misr – ming xudolar mamlakati" deb tilga olinadi.

Qadimgi Misrda ibridoyn din shakllaridan fetishizm, totemizm, animizm, quyoshparastlik, podshoni ilohiylashtirish, har xil tabiat hodisalariga va Misr podsholari – fir'avnlarga sig'inish mavjud bo'lgan hamda keng tarqalgan edi.

Xrsitianlik dini tarqalgungacha bo'lgan davrda Misrda yaratilgan diniy matnlar va yodgorliklar uning taraqqiyotini urug'chilik jamoasi yemirilgan vaqtidan boshlab kuzatishga imkon beradi. Misr-

liklar ijtimoiy tuzumining va umuman butun madaniyatning sekin rivojlanganligi dinning ibtidoiy shakllari sarqitlarining juda uzoq davr mobaynida saqlanib qolishi uchun zamin bo'lib xizmat qilgan. Bunga Misr tarixining hamma davrlarida buyumlarga va hayvonlarga e'tiqod qilishning keng tarqalganligi ham sabab bo'lgan.

Fetishizm e'tiqodi. Fetishizm eng qadimgi e'tiqodlardan biridir. Fetishizm – ibtidoiy din shakllaridan biri bo'lib, u butun dunyo, qadimgi Sharq xalqlarining diniy e'tiqodida muhim o'rinni tutib kelgan. Bu din aslida ibtidoiy qabilalar xudo deb bilgan narsalar, odamlar so'zsiz va ko'r-ko'rona topinadigan, xudo darajasiga ko'targan narsa, buyum, masalan, pul fetishiga sig'inishdir. Misrliklar e'tiqodicha fetish buyumlar sehrli va muqaddas hisoblangan. Misrda juda qadim zamondan boshlab ma'buda Neytning muqaddas ramzi bo'lgan o'q-yoga topinganlar. Shuningdek, xudo Sopduning o'tkir tishlariga, xudo Uxning pay va tasmalar bilan bezatilgan hassasiga, xudo Minaning yog'ochdan ishlangan buyumiga sig'inganlar.

Shunday qilib, qadimgi misrliklarda xudolarning ayrim buyumlarini sehrli deb hisoblab, ularga topinish fetishizm e'tiqodi deyiladi.

Tabiatga sig'inish. Tabiatdagi buyumlar va hodisalarga sig'inish misrliklarning qadimgi e'tiqodlaridan biri hisoblanadi. Misrdan g'arb tomonda ulkan Sahroyi Kabir cho'li yastanib yotadi. Vaqtı-vaqtı bilan cho'l tomondan Nil vodiysiga qum aralash dahshatli dovul esib turgan. U tomonlarda har turli yirtqichlar izg'ib yurgen, hayvonlar odamlarga, ekin maydonlariga ko'plab zarar keltirgan. Cho'lda yashagan ko'chmanchi qabilalar esa vodiyya bostirib kirib, talonchilik, odamlarni o'ldirib vahshiyliklar qilgan. Qadim zamondan boshlab misrliklar tog'larga, muqaddas toshlarga sig'ingan. Misr dehqonlari va aholisi Muqaddas Yer xudosi Jeb, suv xodosi Nunni ilohiylashtirganlar. Suv ularga butun tabiatning asosi bo'lib ko'ringan. Chunki Nil suvi atrofi jazirama sahro bilan o'ralgan misrliklar uchun muqaddas hisoblangan.

Misrliklar Nil daryosini ilohiylashtirib uni Xapi deb ataganlar. Suvni muqaddas bilib va ilohiylashtirib, unga topinish hamma uchun muqaddas burch bo'lgan. Suv xodosi boshi ajdaho, tanasi odam qiyofasida ifoda etilgan.

Misrliklar quyosh va uning yerdagi ramzi bo'lgan olov-o'tni ham ilohiyashtirganlar. Rivoyatga ko'ra, tanasi odam, qarchig'ay boshli Quyosh xudosi Ra xudolar podshosi hisoblangan. U har kuni oltin qayiqchasida osmonni kezib chiqadi va g'arbga tushadi. Misrliklar Raga atab ibodatxonalar qurban.

Totem e'tiqodi. Qadimgi diniy e'tiqodlardan biri bu tote-mizmdir. Totemizm, ya'ni hayvonlarga e'tiqod qilish Misrda ibtidoiy davrdan boshlanib, arxaik davrgacha keng tarqalgan edi. Misrliklar juda qadim zamondan boshlab sher, timsoh, ilon, buqa, qo'chqor, lochin, asalari, mushuk va boshqa hayvonlarni ilohiyashtirib ularga e'tiqod qilgan. Ularga bag'ishlab ibodatxonalar qurib, haykallar yasashgan.

Qadimgi Misrning juda ko'p viloyatlarida muqaddas sher, arslonlarga topinganlar. Bubastisdagi Minzisga e'tiqod qilish hamda Tenis, Memfis va Esnadagi urg'ochi arslon ma'budalarga e'tiqod qilish ana shular jumlasidandir. Bular orasida arslon boshli ma'buda Soxmet e'tiqodi ayniqsa keng tarqalgan.

O'rta, Yangi va So'nggi podsholik davrlarida zaharli ilonlarga, xususan, kobra – ko'zoynakli ilonga e'tiqod etish mavjud bo'lgan. Xususan, Abu-Sambuldagi g'or ichiga solingan ibodatxona kiraverishida Ramzes II ning g'oyat katta haykali saqlanib qolgan bo'lib, uning bosh kiyimining peshona qismida ham zaharli ilonning tasviri bor.

Shuningdek, fir'avn Exnaton haykali portretining boshi bizgacha saqlanib qolgan. Exnaton bosh kiyimining old tomonida ko'zoynakli ilonning tasviri bor. Buto shahrida zaxarli ilonga ma'buda Uajit deb nom berib, unga sajda qilganlar.

Qadimgi Misrda uy hayvonlariga e'tiqod qilish, ularni ilohiyashtirish keng tarqalgan edi. Masalan, Misrning qadimgi poytaxtlari bo'lgan Memfls va Geliopolda Apis va Mnevis degan muqaddas buqalarga topinganlar. Muqaddas buqa keyinchalik ilohiyashtirilgan. U tabiatdan ham ustun turuvchi kuchga ega bo'lgan podsho obrazi bilan qo'shilib ketgan. Qo'chqor shaklida tashkil etilgan xudo Xnum ijodiy kuch xudosi hisoblangan. Muqaddas qo'chqorni ilohiyashtirish Fiva xudosi Amon e'tiqodida Makedoniyalik Aleksandr zamonigacha ham saqlanib qolganki, kohinlar Aleksandrni "Xudo Amon o'g'li" deb ta'riflaganlar.

Mendes, Germopol va Likopolda muqaddas echkiga topinganlar. Muqaddas sigir – ma'buda Xatxor e'tiqodi butun Misrda juda keng yoyilgan e'tiqod bo'lib, uning markazi Dender shahri bo'lган. Muqaddas hayvonlarga e'tiqod qilish podshoning e'tiqodida ham aks etgan. Muqaddas lochin, asalari, kalxat va ilonlar azaldan podsho hokimiyatining homiylari hisoblangan. Podshoning o'zi esa ko'pincha odam boshli arslon (sfinks) sifatida tasvir etilgan.

Muqaddas hayvonlar rassomchilik, haykaltaroshlik va tasviriy san'atning boshqa turlarida o'z ifodasini topgan. Misrliklar o'z xudolariga bag'ishlab madhiyalar yozib, turli ma'raka va jonliq so'yib qurbanliklar o'tkazgan. Misrda yovuzlik xudosi Set bo'lib, u odam tanali, eshak boshli qilib tasvirlangan. O'simliklar va dehqonchilik xudosi Osiris bo'lib, u Set tomonidan o'ldiriladi.

Misrda fir'avnlarni ilohiyashtirish ilk podsholik davriga borib taqaladi. Yangi podsholik davrida bu yanada kuchayadi. Fir'avnni xudo darajasiga ko'tarib Amon farzandi deb ataydilar.

Misr-Xett sulhi tuzilganda hujjatga har ikki tomondan mingtadan xudoning nomi yozib qo'yilgan ekan. Misr madaniyati o'ziga xos tarixiy yo'lni bosib o'tib, jahon madaniyatiga o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazgan. Misrliklar boshqa xalqlar madaniyatidan ham bahramand bo'lganlar. Shunday qilib, Misr madaniyati jahon xalqlari sivilizatsiyasi rivojiga juda katta hissa qo'shgan.

Misr xudolari

1. Geb – "muqaddas yer", "tabiatning onasi, ma'buda va yerning azaliy xudosi" hisoblangan.

2. Nun – dastlabki suv xudosi.

3. Xapi – Nilning ilohiyashtirilgan nomi.

4. Osiris – "tabiat kuchlariga hayot baxt etuvchi xudo" hisoblangan. o'simlik va suv xudosi.

5. Gor – Quyosh xudosi.

6. Isida – yomg'ir ma'budasi.

7. Sobk – suv girdobi xudosi.

8. Go'zal – Tum – Norfertum – o'simliklar ma'budasi.

9. Uajit – zaharli ilon qiyofasidagi ma'bud.

10. Apis – muqaddas buqa ma'budi.

11. Mnevis – muqaddas buqa ma’budasi.
12. Xnum – ijodiy kuch xudosi, ma’budi.
13. Amon – xudo, Fivaliklar xudosi, qayirma shoxli qo’chqor qiyofasida tasvir etilgan.
14. Xatxor – muqaddas sigir ma’budi.
15. Ra – qadimgi podsholik davri oliv Quyosh xudosi.
16. Amon – Ra – yangi quyosh xudosi.
17. Misr fir’avnları – “ezgu xudo”, “ulug’ xudo” quyosh qonidan yaratilgan, uning farzandi deb uni ilohiylashtirganlar.
18. Unnafar – Onufriy – dehqonchilik xudosi hisoblangan. U ko’karib turgan boshqolar shaklida tasvirlangan va uni ezgu “sohibjamol” (Unnafar, Onufriy) obirahmat xudosi deb ulug’langan.
19. Set – yovuz xudo – o’lim va cho’l mamlakatlari xudosi hisoblangan.
20. Aton – yangi podsholik davridagi yagona quyosh xudosi. Exnaton davri xudosi.

Misr fir’avnlarını ilohiylashtirish. Ma’lumki, 3–4-sulola namoyandalari podsholik qilgan davrda ular cheksiz hokimiyatga asoslangan Qadimgi Misr despotiyasi tashkil topgan. Mazkur despotiya podshoning ilohiyligi haqidagi ta’limot negiziga qurilgan diniy e’tiqodlar majmuasi yordami bilan mustahkamlab berilgan. Manbalarga ko’ra, “Misr ming xudolar” mamlakati hisoblangan. Misr aholisi fir’avn hayatı vaqtidayoq xudolarga sig‘ingandek unga sig‘inganlar. Fir’avn o’lgandan keyin esa uni yer xudosi, osmon xudolarining merosxo’ri sifatida toshdan qurilgan g’oyat katta maqbaralarga dafn etganlar.

M.av. VI–V asrlar fir’avnları piramidalarining dafnxona devorlarida yozilgan yozuvlar podshoni ilohiylashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan diniy e’tiqodlarni yorqin tasvirlab beradi. “Piramidalar matni” deb atalgan bu bitiklar o’sha zamondagi diniy e’tiqodlarning butun tizimini bat afsil tasvirlab beradi. Podsho bu yozuvlarda tangri sifatida tasvirlangan. Bir yozuvda shunday deyilgan: “Ey Pepi, sen Osiris siymosidagi xudo kabi uning taxtida o’tiribsan”. O’lgan podshoning osmonda xudolar orasida paydo bo‘lishi matnlarda yangi xudoning paydo bo‘lishi deb tasvirlangan.

Podsho hokimiyatini ilohiylashtirish g‘oyasi bir qator tantanali marosimlar, urf-odatlar va bayramlar vositasi bilan rejali, tashkiliy ravishda amalga oshirilgan. Sakkarda Joserning zinapoya-simon piramidasi atrofida o‘tkazilgan qazishmalar natijasida bir qancha katta va kichik ibodatxona va butxonalardan iborat katta me’moriy majmua topilgan. Mazkur ibodatxona va butxonalar-da ilohiylashtirilgan marhum podsho ruhini yo‘qlash marosimlari o‘tkazilgan.

Podsho hayot vaqtida ham xudo timsolida tasvirlangan. Ibo-datxonalarda eng muhim diniy marosimlarni o‘tkazishga, xudoga har xil tortiqlar berish rasmini ado etishga faqat podshonинг o‘zi haqli bo‘lgan ekan. Bu davrdagi afsonalarda podsholarning Qu-yosh xudosi bilan oddiy, dunyoviy xotin o‘rtasida bo‘lgan g‘ayritabiyy nikoh natijasida mo‘jizaviy tug‘ilishlari haqida hikoya qilinadi. Matnlarda bayon qilinishicha, podsho xudoning merosxo‘ri va o‘g‘li sifatida tasvirlangan. Podshoga “Ulug‘ xudo” va “Xushbaxt xudo” degan dabdabali unvonlar berilgan.

Podsho doimo boshqa hamma odamlardan ko‘ra ulug‘ va baland qilib tasvirlangan. Ba’zan podsho g‘ayritabiyy mavjudot sifatida odam boshli mavjudot, masalan, odam boshli arslon – sfinks ko‘rinishda tasvirlangan. Misrlik adiblar Misr xudolari haqida ko‘pgina adabiy asarlar, miflar va rivoyatlar yozib qoldirganlar.

Shunday qilib, Misr va misrliklar dini ular ma’naviy madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Misr va misrliklar dinida qadimdan boshlab ularning xo‘jalik hayot tarzi, ijtimoiy-iqtisodiyoti va madaniyati u yoki bu darajada o‘z ifodasini topgan. Shu bois Misr xalqlari tarixi, xo‘jaligi, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumi tarixini o‘rganishda misrliklar dini muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Xulosa sifatida shuni aytish joizki, Qadimgi Misr va misrliklar jahon madaniyati tarixida o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘lgan.

Seminar mashg‘uloti uchun savollar:

1. Qadimgi Misrning geografik o‘rni, tabiatи va aholisi hamda ularning mashg‘ulotlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Qadimgi Misr tarixiga oid manbalar va tarixnavisligi.
3. Misr tarixini o‘rganishda arxeologik tadqiqotlarning o‘rni.

4. Qadimgi Misr yozuvi yodgorliklari – tarixiy manba sifatida.
5. Xorijiy mamlakatlar olimlari misrshunoslikka qo'shgan hissa va Qadimgi Misr tarixining xronologiyasi va davrlari haqida so'zlab bering?
6. Ilk podsholik davrida Misr (XXXIII–XXIX asrlar).
7. Misrda Qadimgi podsholikning vujudga kelishi va ravnaqi (m. av. XXVIII–XXIII asrlar).
8. O'rta podsholik davrida Qadimgi Misr (m. av. XXI–XVIII asrlar).
9. Misr giksoslar hukmronligi ostida (m. av. XVIII–XVI asrlar).
10. Yangi podsholik davrida Misr (m. av. XVI–XII asrlar).
11. 19–20-sulolalar davrida Misr podsholigi.
12. Ramzes II va vorislari davrida Misr podsholigi.
13. So'nggi podsholik davrida Misr (m. av. XI–IV asrlar).
14. Qadimgi Misr madaniyati, fan va diniy e'tiqodi.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:

1. Fransuz misrshunosi Gaston Maspero: "Sakkara piramidalaringin yozuvlari".
2. Qadimgi podsholik davriga mansub maqbara va piramidalar tadqiqi: Salim Hassan va Zakariyo Xonoem tadqiqotlari?
3. Sharqshunos rus olimi B.A.Turayevning misrshunoslikka qo'shgan hissasi.
4. Misr kalendar-taqvim tizimi.
5. Qadimgi Misr ehromlariga tavsif bering?
6. Misr podsholiklari davrida xo'jalik, hunarmandchilik va savdo-sotiq.
7. Exnatonning diniy islohotlariga ta'rif bering?
8. Qadimgi Misr folklori va adabiyoti.
9. Qadimgi Misrning san'ati va me'morchiligi.

II BO'LIM. QADIMGI MESOPOTAMIYA TARIXI

I-§. Mamlakatning tabiiy sharoitlari, aholisi, manbalari va tarixnavisligi

Qadimgi Mesopotamiyaning geografik o'rni va tabiiy sharoitlari. Ma'lumki, Old yoki Janubi-g'arbiy Osiyodagi mamlakatlar orasida ishlab chiqarish xo'jaligi, ya'ni dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikni keng rivojlantirish, shuningdek, savdo-sotiqni yo'lga qo'yish va yuksaltirish qulay bo'lgan Dajla va Frot daryolari o'rtasida joylashgan mamlakatni qadimgi yunonlar "Mesopotamiya" – Ikki daryo oralig'i deb ataganlar. Bu o'lka shimolda Armaniston tog'laridan boshlanib, janubda Fors qo'llitg'i-gacha cho'zilgan. Bu mamlakatni g'arbda Suriya-Mesopotamiya dashti, sharqda Zagros, G'arbiy Eron tog' tizmalari o'rab turadi.

Mesopotamiyaning o'rta va janubiy qismi tekislik bo'lib, u vaqtı-vaqtı bilan toshib yerlarni sug'oruvchi va o'g'itlovchi Dajla va Frot daryolari keltirgan yotqiziq-allyuvallardan iborat bo'lgan. Dajla daryosi Van ko'lining janubi, Armaniston tog'lari, Frot esa Arzirunning sharqida dengiz sathidan 2 ming metr balandlikdan boshlanadi. Frot daryosining uzunligi 2600 km, Dajlaning uzunligi esa 1850 km. Dajla juda tezoqar bo'lib, vohaga Frotga nisbatan ikki barobar ortiq suv keltiradi. Dajla va Frot daryolari, ayniqsa Frot sel-sovur paytlarida o'z o'zanidan chiqib tekisliklarga yoyilgan. Bu toshqinlar martning o'rtalaridan boshlanib, sentyabrgacha davom etgan. Dajla va Frot daryolari mamlakatning asosiy suv manbasi bo'lib, qadimda ulardan juda ko'p kanallarga suv bog'laganlar. Bu daryolar sug'orish manbayi bo'lishi bilan birga daryo kemasozligi uchun ham katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu ikkala daryo orqali mesopotamiyaliklar qo'shni mamlakatlar Urartu, Eron, Kichik Osiyo, Suriya, shuningdek, Ikki daryo oralig'idagi shahar-davlatlar bilan doimo aloqada bo'lganlar.

Tog'lardagi qorlar erishi hamda sel-sovur davrida bu ikki daryolarda vaqtı-vaqtı bilan bo'lib turadigan toshqinlar voha bo'ylab allyuvial yotqiziq, loyqalar hosil qilgan. Bu esa mamlakatda sug'orishga asoslangan dehqonchilikning vujudga kelishi va rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan. Bu yerda ilk bor qayr dehqonchiligi shakllanib, keyinchalik sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik vujudga kelgan. Ikki daryo oralig'inining janubidagi Shumer va vohaning o'rta qismini egallagan Akkad iqlim jihatdan bir-birlaridan birmuncha farq qilgan. Shumerda qish yumshoqroq bo'lgani uchun xurmo daraxti yovvoyi holda o'sgan. Akkad esa qishda qor yog'adigan va xurmo daraxti yovvoyi holda o'smaydigan Ossuriyaga yaqindir.

Garchi Arman Zagros tog'larida yer osti qazilma boyliklarining bir necha turi bo'lsa ham Janubiy va O'rta Mesopotamiyaning tabiiy boyliklari u qadar ko'p emas. Toshqinlar oqizib kelgan loyqa yotqiziqdan hosil bo'lgan allyuval tuproqdan bo'lgan yopishqoq loy ibtidoiy kulolchilik uchun ajoyib xomashyo bo'lgan. Qadimgi Mesopotamiya aholisi loyni asfalt bilan aralashtirib, juda qat-tiq mustahkam qorishma yasagan. Bu material mamlakat janubida kamdan-kam uchraydigan tosh o'mida ishlatilgan.

Ikki daryo oralig'i o'simliklar olamiga ham uncha boy emas. Mamlakatda arpa, bug'doy, yovvoyi xurmo, shakarqamish, kun-jut, yulg'un o'sgan. Yozma manbalar va suratlarda mamlakatdagi ayrim hayvonlar haqida ma'lumot bor. Zagros va Arman tog'larida muflon, arxar, yovvoyi echkilar, janubning botqoqli changalzorlari-da yovvoyi cho'chqa, daryolarda baliqlar, qush va boshqa hayvonlar yashagan. O'lkaning tog'oldi, tekislik va cho'l mintaqalarida zaharli va zaharsiz ilonlar bo'lgan.

Xulosa o'rniда shuni aytish mumkinki, Mesopotamiya – Ikki daryo oralig'inining tabiiy-geografik muhiti, ayniqsa suv manbalarining mavjudligi bu yerda ibtidoiy jamoaning tosh asriga mansub kishilarning kirib joylashuviga va atrofga tarqalishiga imkon bergan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Mist yunon tarixchisi Gerdot aytganidek "Nil tuhfasi" bo'lsa, Mesopotamiya "Frot va Dajla daryolarining in'omi"dir.

Qadimgi Mesopotamiyaning aholisi va ilk mashg'ulotlari. Qadim zamonlardan Frot va Dajla daryolarining o'rta va quyi oqimida tez-tez toshqin bo'lib turgan. Toshqin tufayli dastlab Mesopotamiyada odamlarning doimiy yashashi uchun qulaylik bo'lмаган. Bu yerda katta-kichik ko'llar, botqoqliklar va qamishzorlar ko'п bo'lган. Shu tufayli qadimgi aholi asosan Zagros tog'lari orasida yashagan. Olimlar Dajla daryosining Zab irmoqlari bo'ylaridan bundan 70–80 ming yil ilgari yashagan odamlarning manzilgohlarini topganlar. Ibtidoiy odamlar ozuqa izlab asta-sekin Mesopotamiya tekisligiga tushib kelgan. Lekin ular bu yerda doimiy turmaganlar.

Bu vohaga ibtidoiy odamlarning kelib joylashuvi m.av. IX–VIII mingyilliklardan boshlangan va VI–V mingyilliklarga davom etgan. Bu davrda Mesopotamiya vohasidagi yerlar asta-sekin o'zlashtirilib, ko'п joylarda ibtidoiy dehqonlarning qishloqlari paydo bo'lган. Shu vaqtan boshlab dastlabki sug'orish inshootlari, to'g'onlar va kanallar qurila boshlangan. Odamlar o'troqlashib, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullana boshlaganlar. Ular asta-sekinlik bilan shimoldan janubga siljib borgan. Keyinchalik Mesopotamiyaga Arabiston yarimoroli, Shimoliy Afrikadan semit qabilalari, janubi-sharq tomonidan esa boshqa qabilalar kirib kelib joylashgan. Zagros tog'lari orqasidan vohaga gutey, cassit, ossur, lulubey, janubdan esa xoldey va boshqa jangovar qabilalar bostirib kirganlar. M. av. IV–III mingyilliklarda tog'li joylarda yashagan elam qabilalari janubi-sharq tomonidan bostirib kirib, Mesopotamiya janubidagi Shumerda o'rashib qolganlar. Keyinchalik bu yerga arameylar, eronliklar, parfiyaliklar, yunonlar, rimliklar va boshqa xalqlar ham kirib kelishgan.

Shunday qilib, Mesopotamiya xalqlari atrofdan kelgan juda ko'п qabilalarning mahalliy aholi bilan qo'shilishi va aralashuvi natijasida vujudga kelgan. Qadimgi mamlakat janubini – Shumer, aholisini shumerlar, shimoldagi yerlarni Akkad, aholisini esa akkadlar deb atashgan. Shumer va Akkad aholisi tashqi qiyofalari jihatidan bir-birlaridan farq qilgan. Shumerlar past bo'yli, kaltabaqay, jussador, kulcha yuzli, tanqaygan burunli, soqol va mo'yloving siyrak-

ligi bilan akkadlardan ajralib turgan. Semit qabilalariga mansub akkadlar esa, kelishgan jussali, norg'il, qirra burun, yuzlari cho'ziq, ko'zları katta-katta, sersoqol va sermo'ylov bo'lishgan.

M.av. VIII-V mingyilliklarda yashagan Mesopotamiya aholisi dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va ilk savdo-sotiq bilan shug'ullanib tirikchilik o'tkazganlar. Bu davrning boshlarida ayollarning urug' jamoasidagi o'rni balandroq bo'lib, ular katta iz-zat-hurmatga sazovor bo'lganlar. Ammo dehqonchilikning rivojlanishi, chorvachilikning, shuningdek, hunarmandchilikning ravnaq topishi bilan erkaklarning ma'suliyati ortib borgan. Mulkchilikning rivojlana borishi natijasida aholi orasida tabaqalanish paydo bo'lgan. Butun jamiyatni boshqarish, davlat tashkil topishi uchun shart-sharoit vujudga kelgan.

Qadimgi Mesopotamiya tarixining asosiy ilmiy manbalari. Ma'lumki, Sharq mamlakatlari, shuningdek, qadimgi Mesopotamiya tarixini ham turli manbalarga asoslanib o'rganiladi. Qadimgi Mesopotamiya o'zining xilma-xil tarixiy manbalariga ega. Ular mamlakat tarixiga oid moddiy madaniyat yodgorliklari, yozuv, yozma hujjatlar, xalq og'zaki ijodiyoti, yozma adabiyot va boshqalardir.

Mesopotamiyaning moddiy yodgorliklariga qadimgi turarjyllardan arxeologik qazish davrida topilgan mehnat qurollari, turar joylarning qoldiqlari, qabrular, maqbaralar, odam va hayvonlarning haykal va haykalchalari, shahar xarobalari, turli hayvonlarning suyak qoldiqlari, don va boshqa o'simliklarning qoldiqlari, zebziynat buyumlari, idish-tovoqlar va boshqa buyumlar Mesopotamiya xalqlarining qadimgi tarixini o'rganishda muhim manbalar hisoblanadi. M.av. IV-I mingyilliklarga mansub moddiy madaniyat yodgorliklari Mesopotamiyaning Eredu, Ur, Uruk, Lagash, Nippur, Nineviya, Mari, Bobil va boshqa qadimgi shaharlardan arxeologik qazish ishlari natijasida topilgan. Arxeologik qazish davrida topilgan silindrik muhrlar ham tarix uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Mesopotamiya shahar xarobalaridan topilgan bu muhr nusxalari Misr, Bahrayn orollari, Hindiston va boshqa mamlakatlardan ham topilgan.

Bunday buyumlarning Mesopotamiyadan tashqarida topilishi mesopotamiyaliklarning uzoq-yaqin o'lkalar bilan madaniy, iqtisodiy va savdo-sotiq qilib, yaqin munosabatda bo'lganliklarini bildiradi. Muhrlarda ba'zan mifologik manzaralar aks ettirilgan. Bu bizga misrliklarning diniy e'tiqodi haqida ham ko'p ma'lumot berishi mumkin.

Mesopotamiyada yozuv va yozma manbalar m. av. IV mingyllik oxirlarida paydo bo'lgan. Mesopotamiyaning qadimgi yozuvlari o'z mazmuniga ko'ra xo'jalik, yuridik, diplomatik hujjatlar va yil-noma kabilarga bo'linadi.

Xo'jalik hujjatlari. Mesopotamiya shaharlaridan arxeologik qazishlar vaqtida topilgan xo'jalikka oid hujjatlar mamlakatning qadimgi iqtisodiyoti, ijtimoiy munosabatlarini yoritishda juda katta ahamiyatga ega manbalar hisoblanidi.



Mesopotamiyaning Uruk va Jemdet-Nasr shaharlari dan m.av. II mingyllikning oxirlari ga mansub bo'lgan mingga yaqin yozuvli sopol lavhalar topilgan. Ular Mesopotamiya yozuvlari ning eng qadimgisi

– piktografik, ya'ni belgi rasmlar shaklidagi yozuvlar edi. Unda savdo-sotiq, mol almashuvi va qul savdosi bilan bog'liq masalalar yoritilgan. M.av. III mingyllikka oid xo'jalik hujjatlari arxivi Shumerining Ur, Lagash va boshqa shaharlaridan ham topilgan. Ular ning aksariyati ibodatxonalarda bo'lib, ibodatxona va davlat xo'jaliklari haqida ma'lumot beradi.

M.av. II mingyllikka mansub xo'jalik hujjatlari orasida xususiy kishilarga qarashli arxivlar ham bo'lgan.

M.av. II mingyllikka mansub bo'lgan ossuriyalik va amoriy savdogarlariga tegishli 10000 dan ortiq yozuvli lavhalar Kichik

Osiyoning Kadish shahri yaqinidagi Kultepani qazish vaqtida topilgan. Bu shahar o'sha davrdagi xalqaro savdo markazlaridan biri bo'lgan ekan.

M. av. XV–XIV asrlarga oid Qadimgi Arrapxidagi arxeologik qazuv ishlari vaqtida 4000 ga yaqin yozuvli sopol lavhalar topilgan. Bu lavhalar xurritlarning siyosiy va iqtisodiy tuzumini o'rGANISH uchun muhim hujjat hisoblanadi M.av. II mingyillik oxiri (m. av. XII–XI asrlar)ga mansub xo'jalik hujjatlari, Ashshurdagi podsho arxivlari ham katta ahamiyatga ega. M.av. I mingyillikka oid 10000 dan ortiq xo'jalik hujjatlari Nippur. Bobil, Borsipp, Sippara. Ur, Uruk, Surya, Finikiya va Erondan ham topilgan.

Ibodatxona arxivlari va to'plamlari o'sha davr ijtimoiy, iqtisodiy va savdo-sotiq munosabatlarini o'rGANISHDA ayniqla muhimdir. Nippurdagi "Mirashu uy arxivi"dan 800 dan ortiq xo'jalik hujjatlari topilgan bo'lib, ular m.av. V asrga oiddir.

Huquqiy hujjatlari. Qadimgi Mesopotamiya tarixini o'rGANISHNING juda muhim manbalaridan biri huquqiy yodgorliklar, avvalo qonunlar to'plamidir. Qadimgi Sharqning boshqa biror mamlakatida Mesopotamiyadek qonunlar to'plami saqlanmagan.

Shulardan eng qadimgisi Shulgi qonunlar to'plamidir. Bu qonunlar majmuasi m. av. II mingyillikning oxirlariga mansubdir. Mazkur qonunlar to'plamidan Shumer – Akkad podsholigining III Ur sulolasi foydalangan. Bu qonunlar to'plami yaxshi saqlanmagan m.av. XX asrga mansub huquqiy qonunlar to'plami Eshkunna yaqinidan, Diyala daryosi vodiysidan topilgan. Qonunlar majmuasidan uning kirish va 59-moddasi saqlanib qolgan.

M.av. II mingyillikning boshlariga mansub podsho Lipit-Ishtar davrida tuzilgan qonunlar to'plamining parchasi saqlanib qolgan. Lipit-Ishtar podsholigi davrida tuzilgan qonun to'plamidan faqatgina muqaddima butun holda, xulosaning bir qismi va 40 ta modda saqlanib qolgan. Bobil podshosi Xammurapi podsholigi davrida tuzilgan qonunlar to'plamining kirish qismi, asosiy qismi, 282 modda va uning xulosasi zamonamizgacha to'liq saqlanib qolgan.

Bu qonunlar to'plami m.av. XVIII asrga mansubdir. Bu huquqiy qonunlar to'plami ilk bor sopol lavhalarga yozilib, Xammurapi

podsholigining oxirlarida qora bazalt toshiga o'yib-cho'kichlab ko'chirilgan. Toshning yuqori qismiga esa Xammurapining Qu-yosh xudosi Shamashga ibodat qilayotgan tasviri ham tushirilgan. Xammurapi qonunlari yozilgan tosh lavha 1901-yilda fransuz arxeologlari tomonidan elamliklar poytaxti Suza shahridan topilgan. Chunki m.av. XII asrda elamliklar Bobilga bostirib kirgan vaqtlarida bazalt ustuniga qadimgi mixxat bilan yozilgan bu yodgorlikni Elamga o'lja sifatida olib ketgan edilar.

M.av. III mingyillikning o'rtalarida Ashshurda yozilgan qonunlar to'plami ham bo'lган. Bu diplomatik hujjatda Lagash va Umma shahar-davlatlari o'rtaсидаги, xususan, chegara masalасидаги kelishmovchiliklar haqida ma'lumot berilgan. Bu diplomatik hujjat m.av. XXIV asrga mansub. Yangi Bobil podsholigi davrida tuzilgan va amal qilingan, 20 moddadan iborat qonunlar to'plamining parchalari saqlanib qolgan. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda bu qonunlar to'plami Bobilda m.av. 605–562-yillarda hukmronlik qilgan Novoxodonsor tomonidan tuzilganligi ma'lum.

Shuningdek, Mesopotamiyaning turli joylarida, turli tarixiy davrlarda xilma-xil huquqiy hujjatlar, sud bayonnomalarining matnlari, jinoyatchilar ustidan tekshiruv jarayonlari bilan bog'liq hujjatlar saqlanib qolgan arxivlar ham topilgan.

Diplomatik hujjatlar. Arxeologik va yozma manbalarga ko'ra, Mesopotamiyada eng qadimgi diplomatiyaga oid yozuvlar ikkita sopol muhrda saqlanib qolgan. Diplomatik hujjatlarning birida esa m.av. XXIII asrda Akkad podshosi Naram-Suen va Elam podsholarining bir-birlari o'rtaсида uzoq davom etган kelishmovchilikdan so'ng tuzilgan ittifoq haqida so'z yuritiladi. M.av. II mingyillikka mansub diplomatik arxivlarning biri, Mari shahri saroyini qazish vaqtida topilgan. Unda Mari podshosi Zimrilimning Bobil davlati hukmdorlari va amaldorlari bilan o'zaro yozishmalari bayon etilgan. Shuningdek, Mari hukmdorining suriyaliklar, finikiyaliklar va boshqa knyazliklar bilan olib borgan munosabatlari o'z aksini topgan.

O'z ornida mesopotamiyaliklar, misrliklar, xettlar va boshqa xalqlar bilan ham diplomatik munosabat olib borganlar. Bun-

ga Mesopotamiyada ishlangan moddiy buyumlarning Misrda va Xettlar hududida topilishi, shuningdek, Xett podsholari arxividan topilgan buyumlar dalil bo'lishi mumkin. M.av. I mingyillikka mansub xalqaro shartnomalar orasida Ossuriya podsholari bilan qo'shni mustaqil mamlakatlar o'rtasida tuzilgan diplomatik shart-noma muhim ahamiyatga ega.

1955-yili Kalxa(Namrud)dagi qazishmalarda ossur podshosi Asarxaddon bilan Midiya knyazliklari o'rtasida (m.av. VII asr) tu-zilgan diplomatik shartnoma katta ahamiyatga ega.

Shunday qilib, Mesopotamiya va unga qo'shni bo'lgan mam-lakatlardan topilgan arxeologik yodgorliklar, huquqiy, xo'jalik va qonunlar to'plamlari Mesopotamiya tarixini o'rganishda katta ahamiyatga ega.

Tarixiy mazmundagi yozuvlar. Ma'lumki, qadimda qoyatosh, qabr toshi, saroylarning devorlari va boshqa buyumlarga bitilgan yozuvlar ham Mesopotamiya xalqlari tarixini o'rganishda muhim manbalardan hisoblanadi.

Bu yozuvlar mazmun jihatdan xilma-xil bo'lib, ularda u yoki bu mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va diniy jihatlari, shun-ingdek, harbiy masalalar ham o'z aksini topgan.

Xususan, Lagash hukmdori Uruinimgin, Gudea, Akkad podshosi Rimush, Manishtusi yodgorligi ustiga yozilgan yer haqidagi bitik. Sargoniylar (m.av. VIII–VII asrlar) Sargon II ning xudo Ashshurga yozgan xatida uning Urartuga qilgan zafarli yurishlari. Ashshurbanipalning siyosiy mazmundagi bitiklari diqqatga sazovordir.

Shuni aytish kerakki, Yangi Bobil podsholarining 140 dan ortiq yozuvlari, bitiklari saqlanib qolganki, ularning katta qismi Yangi Bobil shohlari Novuxodonosor II va Nabonid(m.av. VI asr)larga qarashlidir. Qadimgi Mesopotamiyada diniy ruhdagi bitiklar, yo-zuvlar saqlanib qolgan. Ayni paytda Mesopotamiyadagi davlatlar hukmdorlarining bir-birlariga yo'llagan maktub xatlari Mesopota-miya tarixini o'rganishda qimmatli manba hisoblanadi.

Ba'zi tarixiy bitiklarda Shumer, Bobil, Ossuriya podsholarining ro'yxati keltirilgan. Bu jihatdan "Shumer podsholari ro'yxati" yod-

gorlik yozuvi diqqatga sazovordir. Bu va bunga o'xshash yozuv yodgoriklari Mesopotamiyada ko'p.

Qadimgi Mesopotamiya xalq og'zaki ijodiyoti namunalari ga xalq maqollari, matallari, hikoyalari, dostonlari, diniy ruhdagi afsonalar, asotirlar va ertaklar kiradi.

Gilgamish va Aga, Akkad hukmdori – shohi Sargon haqidagi afsona va rivoyatlar shular jumlasidandir.

Oddiy xalq o'zi haqida ham ajoyib maqollar to'qigan. Jumladan, bir maqolda shunday deyiladi: "Kambag'alning yashashdan ko'ra o'lGANI yaxshi, uning noni bo'lsayu tuzi bo'lmasa, tuzi bo'lsayu noni bo'lmasa, go'shti bo'lsayu qo'zichog'i bo'lmasa, qo'zichog'i bo'lsayu go'shti bo'lmasa!".

Qadimgi dunyo mualliflarining Mesopotamiya haqida yozganlari. Ma'lumki, qadimgi dunyo mualliflari Qadimgi Sharq xalqlari, xususan Qadimgi Mesopotamiya haqida ozmi-ko'pmi ma'lumot yozib qoldirganlar. Ular Mesopotamiyaning tabiiy sharoiti, iqlimining o'ziga xos xususiyatlarini, aholining urf-odat, rasm-rusumlari, diniy e'tiqodlari, madaniyat sohasida erishgan yutuqlari, uning tarixi haqidagi xotiralarni tasvirlaganlar.

Shuni ta'kidlash joizki, qadimgi mualliflar qadimgi Sharq tarixi va madaniyatining so'nggi davrlarida m.av. V—I va milodiy I asrlar orasida yashab ijod etganlar.

Qadimgi Sharq, xususan Qadimgi Mesopotamiya haqida yozgan yunon-rim tarixchilari orasida Gerodot alohida o'rin egallaydi. Gerodot m.av. 485—425-yillar orasida yashab ijod etgan mashhur tarixchi. U 9 jılddan iborat "Tarix" kitobini yozgan. Mashhur rimlik senator Sitseron Gerodotni "tarix otasi" deb nomlagan. U Sharq mamlakatlariiga sayohat qilgan vaqtлari Mesopotamiyada ham bo'lgan. Gerodot hainma vaqt mamlakatlarning tabiiy sharoiti, tarixi va madaniyatini har tomonlama yoritishga harakat qilgan. Sharq tillarini bilmasa ham, o'zi foydalangan manbalarga tanqidiy ko'z bilan qaragan. Gerodot o'z asarini yozishda asosan o'sha zamon ruhoniyllari – kohinlari va yo'l boshlovchilarning, tarjimonlarning hikoyalardan, shuningdek, Mesopotamiyada o'z ko'zi bilan ko'rgan voqealaridan keng foydalangan. Mesopotamiyaning tabiiy

sharoitlari to‘g‘rsida gapirganda, mamlakatdagi sun‘iy sug‘orishga. madaniy o‘simliklardan foydalanish va ularni o‘stirish. shuningdek, tuproqning unumdotligiga alohida ahamiyat bergan. U Mesopotamiya xalqlarining turmushi va urf-odatlari haqida gapirib, kemasozlik, suv transporti va savdo haqida ham hikoya qilgan. U o‘z asarida odamlarning kiyim-kechagi, oziq-ovqati, davolash usullari, to‘y rasm-rusumlari va dafn marosimlarini tasvirlangan.

Mesopotamiyaning asosiy shahri bo‘lmish Babilni, ayniqsa, batafsil tasvirlagan hamda bu shaharni “mamlaktning eng mashhur va juda ham mustahkam shahri” deb hisoblagan. Gerodotning “Tarix” kitobida Mesopotamiyaning siyosiy tarixi haqida ma’lumotlar qisqa va kam. Unda tasodify va qisman afsonaviy hodisalar tasvirlangan. Shuningdek, Nin, Sardanapal va Ossur podshosi Sinaxxereb haqida ham hikoya qiladi.

Gerodot o‘z hikoyalarida qadimgi mif (afsona) va xalq ertaklaridan foydalanib, ko‘pincha ularni tarixda bo‘lgan voqealar deb tushintirgan. Chunonchi, Geraklidlar avlodidan chiqqan Belning o‘g‘li Ninni Gerodot ossur podsholigining asoschisi deb hisoblagan.

Shunday qilib, mashhur yunon tarixchisi qadimgi Mesopotamiya xalqlari haqida ko‘pgina qimmatli ma’lumotlar qoldirgan. Ayni paytda Gerodot Sharq xalqlari madaniyatiga yuqori baho berib, quyosh soatlari va yilning 12 qismiga bo‘linishi haqida gapirar ekan, ellinlar – yunonlar “bularning hammasini bobilliklardan olganlar” deydi.

Qadimgi davming muallif-tarixchilaridan biri m.av. V asrning ikkinchi yarmida yashagan Ktesiy Knidskiyidir. U Gerodotning zamondoshi bo‘lib, Eronda uzoq vaqt yashagan. 22 kitobdan iborat “Eron tarixi” degan asar yozib qoldirgan. Bu kitobda Mesopotamiya haqida juda oz ma’lumot yozilgan. Ktesiy qoldirgan ma’lumotlar ilmiy jihatdan unchalik asosga ega emas. U Ossuriya tarixiga bag‘ishlangan lavhasiga ko‘pincha xalq afsonalarini kiritgan. Ktesiy bu lavhaga Sinaxxerib va Asarxonadonning vaziri dono Axikar haqidagi, Ossuriya podsholigiga asos solgan Nin bilan Semiramida haqidagi afsonalarni kiritgan. Ktesiy o‘z asarini yozishda ishonchli manbalardan, shu jumladan shoh arxividagi pergamentlardan ham

keng foydalangan bo'lishi mumkin. Chunki, Ktesiy Eron shohi Artakserskning saroy tabiblaridan bo'lib, Suzadagi shoh arxivlariga kirib, bu yerdagi pergamentlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan. Ktesiyning asari zamonamizgacha yetib kelmagan. Uning asarlaridan olingen ayrim parchalar Diodor asarlarida saqlanib qolgan.

Qadimgi yunon tarixchilaridan yana biri Ksenafont bo'lib, u m.av. V–IV asrlarda yashab ijod etgan. Eron qo'shinida yollanma jangchi sifatida xizmatda bo'lgan vaqtida Mesopotamiyada bo'lgan. Uning "Kiropediya" va "Anabasis" degan asarlarida Dajla va Frot daryolari vodiysi bayoni, mamlakat aholisining urf-odatlari va tarixi haqida juda qisqa ma'lumot saqlanib qolgan. Uning asarlaridan olingen ayrim parchalar Afineya, Diodor va boshqa yunon mualliflarining asarlarida saqlanib qolgan.

Old Osiyo, jumladan Mesopotamiyaning qadimgi xalqlari to'g'risida yozgan qadimgi tarixchilar orasida m.av. IV–III asrlarda yashagan bobillik tarixchi Beros ham alohida o'rinni egallaydi. U Bobildagi Marduk ibodatxonasining kohini-ruhoniyisi bo'lGANI sababli ibodatxona arxivlaridan bemalol foydalanish imkoniyatiga ega bo'lgan. U Bobil tarixi va madaniyatini o'sha zamonning bilimdon tarixchisi nuqtayi nazaridan ta'riflab bera olgan. Berosning asari uch kitobdan iborat. "Donishmandlik" deb atalgan birinchi kitobida Bobil miflari bayon qilingan. Ikkinchi kitobda esa afsonalardagi dunyo to'poni davridan tortib to shoh Pulning (ya'ni ossur podshosi Tiglatpalasar II) podsholik davrigacha bo'lgan Mesopotamiya tarixi bayon qilingan. Uchinchi kitobda esa Mesopotamiya tarixinining Makedoniyalik Aleksandar o'limigacha bo'lgan davrini tasvirlagan. Ammo Berosning bu asari ham to'laligicha zamonamizgacha saqlanib qolmagan. Beros asaridan Iosif Flaviy va boshqa yozuvchilarning asarlarida keltirilgan parchalar va sitatalarga bizning zamonamizgacha yetib kelgan xolos. Bu parcha va sitatalar ibtidoiy zamonlar, to'fon davri, patriarxlar, Sinaxerib va Navuxodonosor haqidagi qissalardan iboratdir.

Yana bir yunon tarixchisi m.av. I asrda yashab ijod etgan Diador bo'lib, u o'zidan oldin yashab o'tgan Gerodot va Ktesiy asarlaridan keng foydalanib "Tarix kutubxonasi" asarini yozgan.

Diauor Ossur podsholigining asoschilari Nin, Semiramidaning afsonaviy hayot va faoliyatini mufassal tasvirlagan. Diador asarida-

gi Bobil tasviri, jumladan, u yerni qazish vaqtida topilgan saroylarning devorlaridagi nafis suratlarning tasviri ayniqsa qiziqarli va tahsinga sazovordir.

Nihoyat Xaldey astrologiyasi va astronomiyasining Diodor asarlarida saqlanib qolgan tasvirlari ham diqqatga sazovor.

M.av. I va milodning I asrlarida yashab ijod etgan Strabonning “Geografiya” asarida Qadimgi Mesopotamiya tarixi haqida juda boy ma’lumotlar saqlanib qolgan. Strabon o’z asarida Mesopotamianing tabiiy sharoitini ajoyib tarzda tasvirlagan. Shuningdek, u Dajla va Frot daryolarining vaqtı-vaqtı bilan bo‘lib turadigan toshqinlariga va sun’iy sug’orish tarmoqlari tashkil qilishning zarurligiga alohida e’tibor bergan. Strabonning ko’pgina kuzatishlari qiziqarli bo‘lishi bilan birga, juda ko‘p mubolag’alar ham bor. U Mesopotamiya yerlarining unumdorligini va xurmo daraxtining xo‘jalikda keng ishlatilishini haddan tashqari bo‘rttirib yuborgan. Strabon bobilliklarning urf-odat, kiyim-kechaklarini, uylanishdagi rasm-rusmlar va ko‘mish marosimlarini batafsil tasvirlagan. Bu sohada u Gerodotga ergashgan.

Strabon asarida Bobil va undagi Xaldey astronomlari observatoriyasining ajoyib ta’rifi berilgan. Shuningdek, mazkur asarda ham Nin va Semiramida haqida qadimgi davr tarixshunosligida keng o‘rin olgan afsonalar kabi tarixiy afsonalar saqlanib qolgan.

Mesopotamiya tarixiga oid ma’lumotlar milodiy I asrda yashagan rimlik tarixchi Pompey Trog asarlarida ham saqlanib qolgan. Pompey Trog asarlarida bobillik va ossuriyaliklar tarixi haqidagi ko’pgina ma’lumotlar bor. Asarda Ossuriya, uning kuchayishi, bosib olingen o’lkalarda boshqaruv usullari va Ossuriya davlatining yemirilishi kabi masalalar bayon etilgan.

Qadimgi Mesopotamiya tarixi haqida Xerila, Kratet, **Fokuvid**, shoir Mark Anney Lukan, Yamvlix, Filostrat va Lukian kabi yozuvchilarning asarlarida ham qisqa-qisqa ma’lumotlar uchraydi.

Milodiy I asrda yashagan Iosif Flaviy o‘zining “Qadimiy ludeya” asarida Ossuriya va bobilliklarning Falastin davlati bilan o‘zaro aloqalari, Bobil va Midya o‘rasidagi qarama-qarshilik, ular bilan Misr o‘rtasidagi munosabatlar yoritilgan. Asar diniy ruhda yozilgan.

2-§. Mixsimon xatlar va ularning o‘qib chiqilishi

Ma’lumki, ponasimon yozuvlarni qidirib topish, ulardan nusxa ko‘chirish XVII asrda boshlangan. Ammo olimlar bu yozuvlarni ko‘p vaqtgacha o‘qiy olmaganlar. XVIII–XIX asrlarda Old Osiyo, xususan Mesopotamiyadan ponasimon yozuvlarni qidirib topish, o‘qib chiqish bo‘yicha jiddiy yutuqlarga erishilgan.

XX asrda esa Old Osiyo va Mesopotamiyada bu qadimiy yozuvlarni qidirib topish, o‘qib chiqish borasida yangidan-yangi muvafaqiyatlar qo‘lga kiritildi.

Qadimgi moddiy madaniyat yodgorliklari, o‘scha davr mualliflari yozib qoldirgan tarixiy ma’lumotlarga qaraganda iyeroglif, mixxat bilan yozilgan hujjatlar, toshlarga, papiruslarga bitilgan yozuvlar katta ilmiy ahamiyatga ega. Iyeroglif va mixxatlar qadimgi zamонlarda Sharq dunyosining, qolaversa butun Old Osyoning asosiy yozuv usuli bo‘lgan. Shoh, amaldorlarning saroylari, ruhoniylar ibodatxonalarining devorlaridan juda ko‘plab yozuvlar topilgan. Sopol lavhalar sirtiga yozilgan iyeroglif va mixxatlarda Old Osiyo, xususan Mesopotamiya xalqlarining xo‘jalik, ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotiga oid turli ma’lumotlar qayd etilgan. Shu bois mazkur xat va bitiklar Mesopotamiya xalqlarining tarixi va madaniyatini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi.

XVII asrda italiyalik savdogar va sayyoh Petro della Vale mixsimon xatlarning nusxalarini birinchi marta Yevropaga olib kelgan. Petro bu yozuvlarni Eron shohi Doroning Persopol saroyi devorlaridan ko‘chirib olgan. Lekin Yevropa olimlari bu yozuvlarni ko‘p vaqtgacha o‘qiy olmaganlar. XVIII asr oxirida daniyalik Karsten Nibur mixsimon (ponasimon) xatlarni o‘qib chiqishga harakat qilgan. Nibur ponasimon xatlarning ma’lum darajada aniqroq chizib berilgan bir necha nusxasini bosib chiqargan va ularni o‘qishga kirishgan. Biroq Nibur ham ponasimon xatlarni o‘qib chiqishni oxiriga yetkaza olmagan. U ponasimon xatlar uch xil yozuv tizimida bitilganini va shu uch xil tizimdan eng soddasи uch alifbo belgisidan iborat ekanligini aniqlay olgan, xolos.

Germaniyaning Gettingen gimnaziyasi o'qituvchisi Grofend (1775–1853) mixxatlarni o'qib chiqishda katta yutuqlarga erishgan. U o'zidan oldingi o'tgan olimlarning egri mix (pona) belgi-ajratuvchi belgini bildiradi va alifboli Persopol xatidagi bir guruh belgilari esa podshoning unvonini bildiradi. degan farazlariga asoslanib, bu yozuvning hammasi umuman ikki Eron shohining unvonini bildiradi, deb taxmin qilgan. Grofend bu yozuvda Ahamoniylar su-lolasidan bo'lган ikki Eron shohining: Doro va Kserksning nomlarini, shuningdek, Doroning otasi Kashtasib(Gistasp)ning nomini o'qib chiqishga muvaffaq bo'lган. Sharqshunos olim V.I.Avdiyev Grofendning qadimgi fors mixxatining to'qqizta alifbo belgisini to'g'ri tushuna olganligi va bu bilan mixxatlarni o'qib chiqish ishiga asos solganligini ta'kidlaydi. Bu Grofendning sharqshunoslikdagi katta kashfiyoti edi. Ammo Grofendning bu kashfiyotini ba'zi olimlar tezda tan olmadilar. Uning ishini Lassen va Byurnuf kabi olimlar davom ettirib, qadimgi fors alifbosining qolgan belgilarni ham aniqlashga muvaffaq bo'lган. Byurnufning 1836-yilda bosilib chiqqan asarida qadimgi fors yozuvidagi 34 alifbo belgisining to'g'ri o'qilishi berilgan.

Ingliz sayyohi G.Roulinson asarlari fors ponasimon xatlarini o'qib chiqishning to'g'rilagini tekshirish va keyinchalik ossurologiya (ossurshunoslik) deb nom olgan yangi fanni yanada rivojlan Tirish uchun juda qimmatli ma'lumot bergen. G.Roulinson Eronda 1835-yili ponasimon xatlardan bir nechtasining nusxasini ko'chirib olgan. Bular orasida qoyaga o'yib yozilgan mashhur Behistun yozushi ham bo'lган. Grofendning o'qib chiqqan yozuvidan bexabar bo'lган G.Roulinson bu yozuvlarni sinchiklab tekshirib, fors ponasimon xatining 18 alifbo belgisini to'g'ri aniqlagan. G.Roulinson to'plagan boy ma'lumotlar ponasimon xatlarning qolgan tizimini ham aniqlashga kirishishga imkoniyat yaratgan. G.Roulinson va Aorris Yangi Elam yozuvlari uchun ham xizmat qilgan ikkinchi tizimning 200 ga yaqin belgisini aniqlashga muvaffaq bo'lганlar. Bu ikkinchi tizim sillab yozushi (bo'g'inli yozuv) tizimidir. Ponasmxon xatning uchinchi tizimini G.Roulinson, Xinks va Oppertlar o'qib chiqqanlar.

Ular uchinchi tizimda 200 dan ortiq sillab (bo‘g‘inli) belgi borligini va bu bilan bir qatorda ishlataladigan bir qancha ideogram-malarning borligini aniqlaganlar. Bu yozuvlarni o‘rganish natijasida ular semit tillar guruhiga mansub bo‘lgan tilda yozilganligi ma’lum bo‘lgan.

Keyinchalik Bobil ponasimon xatiga yaqin bo‘lgan ossur bo‘g‘inli ponasimon tizimi va nihoyat Janubiy Mesopotamiyaning shumeriylar deb atalgan, eng qadimgi aholisida paydo bo‘lgan ponasimon xatning eng qadimgi shakli ham o‘qib chiqilgan. Ponasi-mon xat avvalo shumerlarda paydo bo‘lib, keyin ulardan bu xatni bobilliklar olib, uni o‘z navbatida ossuriylarga o‘tkazganlar.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, XIX asrning 90-yillarda nemis olimlaridan F.Delig tomonidan akkad tilining grammatisasi tuzilgan. Shumer yozuvlarining topilishi hamda o‘qib chiqilishi munosabati bilan ossurologiya faniga asos solingan. O‘z o‘rnida shumer yozuvlaridan urartlar, elamliklar, xettlar va Old Osiyodagi boshqa xalqlar ham foydalanganlar. Natijada keyinchalik ossurologiya fanidan shumerologiya, elamitologiya, urartologiya va xet-tologiya fanlari ajralib chiqqan.

Shumer yozuvlarini o‘qish osonlikcha bo‘lmagan. Buning uchun olimlar ko‘p mehnat qilganlar.

XX asrning birinchi yarmida shumer yozuvlarini topish, o‘qib chiqish ustida F.Tyuro-Danjen, A.Pebel, A.Daymel, A.Falkenshteyn va boshqa olimlarning xizmatlari tafsinga sazovor.

Ular o‘zlarining ko‘pyillik tadqiqotlari natijasida shumer tili grammatikasi va lug‘atining yaratuvchilari hisoblanishadi.

Hozirgi kunda Pensilvaniya universiteti olimlari shumer tili grammatikasi va tiliga oid ko‘p tomlik asar yozish ustida ish olib bormoqda. 1992-yili piktografiyaga bag‘ishlangan ikki tomlik asar nashrdan chiqdi. Hozir esa ilk shumer yozuvlarini o‘qib chiqish ustida faoliyat olib borilmoqda.

Shunday qilib shumerliklarning bu ponasimon xatlari dunyodagi eng qadimgi alifbolardan biri hisoblanadi. Mazkur ponasimon xat orqali yozilgan hujjatlar, bitiklar va turli yozishmalar,

voqeanolmalar Old Osiyo xalqlari tarixi, xo‘jaligi, ijtimoiy-siyosiy tuzumi, moddiy va ma‘naviy madaniyatini o‘rganishda nodir manbalardan biri hisoblanadi.

Qadimgi Mesopotamiyaning arxeologik o‘rganilishi tarixidan. Jahon xalqlarining qadimgi tarixini arxeologiya fani va tadqiqotlarisiz o‘rganib bo‘lmaydi. Shuningdek, Mesopotamiya tarixini o‘rganishda u yerdan topilgan arxeologik yodgorliklar va ularning madaniy qatlamlaridan arxeologlar topgan ashayoviy buyumlar eng muhim manbalar hisoblanadi.

Mesopotamiyada arxeologik qazuv ishlari XIX asrning o‘rtalaridan boshlandi. 1842-yili fransuz diplomati E.P.Botta Kuyunjuk tepaligida qazish ishlarini boshladi. Rivoyatlarga ko‘ra, bu joy Ossuriyaning poytaxti Nineviya ekan. 1843-yilda A.P.Botta podsho Sargon III ning poytaxt shahri Dur-Sharrukin bo‘lgan qadimgi Xorsobodda qazish ishlarini olib bordi.

1844—1845-yillarda ingлиз diplomati G.A. Leyyard Nimrud tepaligida qazish ishlarini boshlaydi. Nimrudni qazish natijasida bu tepalik Ossuriyaning Kalxa shahri ekanligi aniqlangan. Kalxaning madaniy qatlamlaridan topilgan ashayoviy buyumlar uning ossur podsholari saroyi bo‘lganligidan darak beradi. Madaniy qatlamlaridan odam-buqa va odam-arslonning katta haykali topilgan.

1847-yili G.A.Leyyard Kuyunjikda qazish ishlarini olib borib Nineviya shahri xarobalarini, shoh Sinaxerib saroyini (m.av. VII asr), uning nabirasi Ashshurbanipal to‘liq saqlagan “sopol kitob” kutubxonasini topishga tuyassar bo‘lgan. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida Mesopotamiyada arxeologik tadqiqot ishlarining yangi davri boshlanadi.

Leardining safdoshi X.Rassam Kuyunjikda qazish ishlarini davom ettirib, ossiriya shohi Ashshurbanipalning ajoyib ov va urush manzarasi ifoda etilgan tasviri tushirilgan saroyini va shoh kutubxonasini topgan. Nimrud tepaligi yaqinidagi Balavot degan joydan m.av. IX asrga mansub ossuriya yodgorligini, bronza plita, sirtiga harbiy yurish manzarasi ifoda etilgan Blavat darvozasini topgan.

Rassam tomonidan Sippar shohi saroyi xarobasi topilgan. U yerda quyosh xudosi Shamashga atalgan ibodatxona, ish hujjatlari

arxivi va “o‘quv qo‘llanmalar” bo‘lgan maktab binosi ham ochilgan. Yodgorlikning madaniy qatlamlaridan Ashshurbanipalning silindr loy lavhasi topilgan bo‘lib, u fanda “Rassam lavhasi” deb nom olgan.

Mesopotamiyadagi qadimgi shaharlarni qazib ochish va ilmiy o‘rganishda ingliz geologi V.Loftusning ham xizmatlari katta bo‘lgan. U Uruk va Larsada katta kashfiyotlar qilgan. Angliya ekspeditsiyasi XIX asrning ikkinchi yarmida Uruk, Ur, Larsa va Eedu kabi qadimgi Shumer shaharlarini qazib ochdilar. XIX asr oxirida E. de Sarzek boshliq fransuz arxeologik ekspeditsiyasi Shumerdagi Lagash shahrida qazishlar olib borib katta yutuqlarga erishdi. U yerda Lagash hokimlarining, xususan Gudeaning kumushdan yasalgan haykallari va ganjdan yasalgan vazalar topilgan. Shuningdek, u yerdan Lagash hukmdorining Yamma shahri hokimi Uru-nimgin ustidan erishgan g‘alabalarini eslatuvchi yozuv – “Kalxatlar yodgorlik toshi” devoriy rasmlari Lagash hukmdorining islohotlari haqida, shuningdek, ibodatxonalarining xo‘jalik hujjatlariga oid katta arxiv ham topilgan. Amerikalik arxeologlar esa Nippur shahri xarobalaridan 3000 yil ilgari faoliyat ko‘rsatgan xudo Enlil ibodatxonasini ochganlar. Ibodatxonaning madaniy qatlamlaridan 60000 dan oshiq sopol lavhalar bo‘lgan kutubxona, ibodatxonaning xo‘jalik binolari, saroy, maktab, bozor, peshtaxta, uy-joy va boshqa narsalar topilgan.

XX asrdan boshlab Mesopotamiyada arxeologik qazuv ishlari yanada qizg‘in tus oldi. R.Koldevoy boshliq nemislarning arxeologik ekspeditsiyasi Bag‘dod shahridan 90 km janubdagagi tepaliklarni kovlashga kirishadilar. Qazish natijasida qadimgi Mesopotamiyaning siyosiy, iqtisodiy, madaniy-diniy markazi bo‘lgan qadimgi Bobil shahri kashf etildi. Bu yerdagi qazish ishlari 1899-yildan 1917-yilgacha davom etgan. Qazishmalar natijasida m.av. VII – VI asrda yashagan shoh Navuxodonosor II ning saroyi, xudo Marduk ibodatxonasi, zinapoyasimon zikkuratning ulkan binosi ochilgan. 1903–1914-yillarda V.Andre boshliq arxeologlar Ossuriyaning eng qadimgi poytaxti Ashshur shahri xarobalarini kovlaganlar. Qazishlar natijasida podshoh saroyining qoldiqlari,

ibodatxona, jumladan ossurlarning oliv xudosi Ashshur ibodatxonasini, shohlarning yer ostidagi daxma-sag'anasi, shahar ko'chalari va uylarning o'rni topilgan. A.Neldeka, R.Koldevoy va V.Andrelar Fara qishloqchasida qazish ishlari olib borishgan. Bu joy Shumer shahlaridan biri bo'lib, madaniy qatlamlardan qadimgi xo'jalikka oid matnlar bitilgan kutubxona; Bobil yaqinidagi Borsippdan balandligi 49 metrlik zikkurat, shuningdek, Umma shahri xarobalari topilgan.

1933–1939-yillarda A.Perro boshliq fransuz arxeologiya ekspeditsiyasi qadimgi Mari shahrida arxeologiya qazish ishlarini olib borib, u yerdan m.av. II ming yillik boshlarida Mari podshosi tomonidan qurilgan ulkan saroy qoldig'i, 20000 ga yaqin xo'jalik va diplomatik sopol lavhalar qazib olingan. 70-yillarda esa m.av. IV – III mingyillikka oid saroylar, hosildorlik xudosi Ishtar ibodatxonasini, qadimgi qabrular va sopol lavhalar topilgan.

1922–1934-yillarda L.Vulli boshliq ingliz arxeologik ekspeditsiyasi qadimgi Urda qazish ishlari olib borganlar. Urning madaniy qatlamlarida m.av. IV ming yillikdan m.av. IV asrgacha bo'lgan shahar hayotini tiklovchi ashayolar, oy xudosi Ninnari va uning rafiqasi Ningal ibodatxonasi, shoh Ur-Ninnar tomonidan m.av. III mingyillik oxirida qurilgan zikkurat inshooti, ilk sulola davriga mansub shoh maqbaralari, maktab, ustaxona, bozor, daryo kemalari to'xtaydigan gavan – bekat, mehimonxona, turar joy, ibodatxona, davlat va xususiy arxivlar topilgan.

1925–1930-yillarda amerikalik arxeologlar Arrapxadagi uchta tepalikni qazib, u yerdan qal'a, ibodatxona saroyi, xo'jalik, turar joy va m.av. II mingyillikka mansub katta arxiv qazib ochilgan. 1930–1936-yillarda esa amerikalik arxeologlar qadimgi Eshkunani qaziganlar.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng amerikalik tadqiqotchi va arxeologlar ishiga iroqlik olimlardan Faud Safar va Taxa Bakirlar ham jalb qilingan. Ular Eshkunna yaqinidagi Shaduppamada qazish ishlari olib borib, qadimgi sud-adliya qonunlari yozilgan lavha (Eshnunna qonunlari), matematika va boshqa fanlarga oid ma'lumotlar topgan.

Iraq olimlari Eredu shahri xarobalarida ham qazish ishlari olib borganlar. U yerdan tarixiy davrgacha bo'lgan 14 madaniy qatlam

ochilgan. Bu narsalar janubiy Shumer shaharlarining qadimligini ko'rsatuvchi dalillardan biri hisoblanadi. 50–60-yillarda iroqlik arxeologlar Nebi-Yunus tepaligida qazish ishlarini olib borganlar. Bu joy Nineviya shahri xarobalari bo'lib, u yerdan ossur shohi Asarxadon saroyi, qurol-yarog' ombori, xo'jalik-qurilish binolari va ko'pgina yozma hujjatlar topilgan.

50–80-yillarda nemis arxeologlari Uruk shahrida qazish ishlari olib borib, u yerdan m.av. III mingyillikka mansub muqaddas ibodatxona, hosildorlik xudosi Ianna ibodatxonasi, xom g'ishtdan qurilgan qadimgi shahar devori, Urukning afsonaviy shohi "Gilgamih" davri hunarmandlar ustaxonasi, boy qabr-mozorlar, ossur va bobil shohlarining yozuvlari matni kashf etilgan.

M.Mellouen boshliq ingliz arxeologlari Nimrud tepaligida qazish ishlari olib borganlar. U joyda "Salamansar forti" bo'lib, u yerdan m.av. IX – VII asrga mansub kuchli minorali qal'a devori, harbiylar turadigan qarorgoh, xo'jalik binolari, ossur podsholari saroylari topilgan.

Shuni ham aytib o'tish joizki, Mesopotamiyaning qadimgi tarixini o'rghanishda M.V.Nikolskiy, N.P.Lixachev, M.V.Nikolskiyning o'g'li N.M.Nikolskiylarning xizmatlari ham kattadir. Ular ikki daryo oralig'i tarixi, bobilliklar madaniyatiga doir ko'plab maqolalar yozishgan. Mesopotamiya xalqlari va madaniyati tarixini o'rghanishda B.A.Turayev, V.K.Shileyko, V.V.Struve, A.I.Tyumenov, I.M.Dyakonov, V.I.Avdiyev, M.A.Dandamaev, V.M.Masson, R.M.Munchayev, N.Y.Merpert va boshqa rus arxeolog tarixchilari, sharqshunoslarining hissalari kattadir.

Qadimgi Mesopotamiya tarixini davrlashtirish masalasi. Ma'lumki, m.av. VII–IV mingyilliklarda ibridoiy jamoa tuzumining buzilishi va hududda tabaqaviy jamiyatning vujudga kelishi uchun shart-sharoit qaror topadi. M.av. III mingyillik boshida mamlakating janubiy hududidagi Shumer viloyatida dastlabki kichikroq shahar-davlatlar tashkil topadi. M.av. XXVIII–XXIV asrlar Mesopotamiya tarixida ilk sulolalar tarixi davri deb nomlanadi.

Mesopotamiya tarixining navbatdagi tarixiy davri (m.av. III mingyillikning oxiri) yakka hokimlikka asoslangan despotik davr

edi. Bu davr m.av. XXIV–XXIII asrlarga to'g'ri kelib, Mesopotamiyaning markaziy qismida Akkad davlati tashkil topib, Shumerni hamda shimolda bir qancha mayda davlatlarni o'z tarkibiga qo'shib oladi. Guteylarning hujumi ostida Akkad podsholigi kuchsizlan-gach, Mesopotamiya Shumer-Akkad podsholigi qo'l ostiga o'tadi. M.av. II mingyillik boshlarida Dajla va Frot daryolari oralig'idagi hududlarda bir necha shahar-davlatlar tashkil topadi. Ular orasida Bobil podsholigi kuchayib, mamlakatdagi ko'p joylarni podsholik tarkibiga qo'shib oladi. Qadimgi Bobil podsholigi ham bir necha tarixiy davrlarga bo'linadi: Qadimgi Bobil yoki amoriylar (m.av. XIX–XVI asrlar) O'rtabobil yoki cassitlar (m.av. XII–VII asrlar), Bobil podsholigining kuchsizlanishi va mustaqilllik uchun kurash va nihoyat Yangibobil podsholigi qisqa kuchayish davri (m.av. VII–VI asrlar).

M.av. XVI–XIII asrlarda Shimoliy Mesopotamiyaning g'arbiy qismida Mitanni davlatnining mavqeyi oshadi.

Mamlakatning sharqiy qismida esa m.av. III mingyillikda markazi Ashshur bo'lgan Ossuriya davlati qaror topadi. Ossur davlati shakllangan davridan boshlab uchta tarixiy davrga bo'linadi:

1. Qadimgi Ossur podsholigi, tarixiy sanasi m.av. XX–XVI asrlar.
2. O'rta Ossur podsholigi, tarixiy sanasi m.av. XV–XI asrlar.
3. Yangi Ossur podsholigi tarixiy sanasi m.av. X–VII asrlar.

Mazkur davrda Ossuriya Old Osiyodagi eng qudratli davlatga aylandi. Yangi Ossur podsholigi Yangibobil podsholigi bilan Middya podsholigining birlashgan qo'shnlari tomonidan m.av. 605-yilda tor-mor etilib, barham topdi.

3-§. Eng qadimgi Mesopotamiya Ilk tabaqaviy jamiyat shakllanishining shart-sharoitlari

Mesopotamiya sivilizatsiya tongida. Mezolit davrining XI–VIII mingyilliklarda Frot va Dajla daryolari vodiysining tog'larga tutashgan yerlarida aholi termachilik va ovchilik bilangina shug'ullanib qolmay, yovvoyi o'simliklarni madaniylashtirish va yovvoyi

hayvonlarni qo‘lga o‘rgatishga ham urinib ko‘rgan. Ular qo‘yni qo‘lga o‘rgatganlar. Ibtidoiy kishilar toshdan boshoqlarni o‘radigan o‘roq va donni maydalaydigan qo‘l tegirmonidan foydalanganlar. Mezolit davri kishilar qish mavsumida g‘orlarda, yozda esa daryo sohillarida poya va qamishdan chaylalar qurib, istiqomat qilganlar. Ular keyinchalik paxsadan uylar qurishga kirishganlar. Mesopotamiyadagi Zevi-Chemi-Shanidar, Mlefaat va boshqa yodgorliklar ana shu davrga mansubdir.

M.av. VII mingyilliklarda ilk neolit davrida Zagros tog‘lari vodiylari, Mesopotamiya tekisligi chegaralarida Jarmo madaniyatiga mansub qishloqlar vujudga keladi. Bu madaniyatga mansub kishilar bug‘doy va arpani madaniylashtirib, echki, cho‘chqa va itlarni qo‘lga o‘rgatgan. Loyga qamish somonini qo‘shib kulolchilik buyumlari yasaganlar. Mazkur yodgorlikdan metalldan yasalgan buyumlar ham topilgan. M.av. VIII–VII mingyilliklarda chorvador va ilk dehqon qabilalari tog‘dan vodiyya tushib, Tell-Sotto kabi o‘troq qishloqlarni barpo qilganlar.

M.av. VI mingyillikning o‘rtalari va ikkinchi yarmida Shimoliy Mesopotamiya neolit qabilalari tomonidan o‘zlashtirilgan va bu joylarda Xassuna madaniyati nomi bilan mashhur bo‘lgan madaniyat keng tarqalgan. Xassun qabilalari hozirgi Bag‘dod chegarasi-gacha bo‘lgan joylargacha kelib o‘rnashgan. Bu davrda dehqon-chorvachilik xo‘jaligi shakllanib, ular yirik va mayda shoxli chorva boqqanlar, arpaning to‘rt, bug‘doyning uch navini, shuningdek, tut ekib parvarish qilganlar. Kichik-kichik to‘g‘onlar va kanallar qurib, sun‘iy sug‘orishga asoslangan ilk sug‘orma dehqonchilikni kashf etganlar.

1. Mesopotamiyada eng qadimgi davlatlarning vujudga kelishi. M.av. V – IV mingyilliklar orasida mesopotamiyaliklar yangi-yangi yerkarni o‘zlashtirib, katta-kichik kanal, ariq va suv inshootlari qurbanlar. Shuning natijasida dehqonchilik tobora rivojlanib, yerdan mo‘l hosil ola boshlaganlar. Shu vaqtga kelib Mesopotamiyada Eedu, Ur, Uruk, Larsa, Lagash, Umma, Isin va Shuruppak kabi obod qishloqlar buniyod etilgan. Ularning atrofi

esa ancha mustahkam mudofaa devorlari bilan o'rab olingen. Bu qishloqlarda va Mesopotamiyaning boshqa joylarida dehqonchilik bilan bir qatorda kulolchilik, asbobsuzlik, to'qimachilik, zargarlik, duradgorlik, me'morchilik kabi kasb-korlar rivoj topa boshlagan. Ayni paytda voha yaylovlarida chorvachilik ham rivojlanib, aholi uzun, jingalak junli qo'y-qo'zilar, qoramol va eshak boqqan. Bu davrda mesopotamiyaliklar ot bilan tanish emas edilar.

Qadimdan boshlab Mesopotamiya aholisi o'zaro va qo'shni o'lkalar bilan qizg'in savdo ishlari olib borgan. Xo'jalik rivojla-na borib, aholi ko'payib, ibtidoiy qishloqlar asta-sekin shaharlar tusini ola boshlagan. Shu jihatdan qishloqlarni shaharlar onasi deyish mumkin. Ularda haybatli ibodatxonalar, hukmdorlarning qarorgohlari, xo'jalik, ma'muriy idoralar va hunarmandchilik ustaxonalari qurilgan. Shaharlarning atrofi mustahkam, minorali qalin mudofaa devorlari bilan o'rab olingen. Devor sirtida esa mudofaa uchun chuqur xandaqlar bo'lib, ularga doim suv to'latib qo'yilgan.

Ibtidoiy qishloqlar aholisi bir urug' yoki urug'doshlardan iborat bo'lib, uni urug' oqsoqoli boshqarar edi. Shaharlarning vujudga kelishi munosabati bilan unga uzoq-yaqin joylardan, bir-biriga begona bo'lgan odamlar ham kelib o'rasha boshlaganlar. M.av. IV mingyilliklarda Janubiy Mesopotamiyaga janubi-sharq tomondan shumerlar kelib joylashgan. Ular mahalliy aholi bilan aralashib istiqomat qilganlar. Shu vaqtdan boshlab bu joy Shumer viloyati nomini olgan. Janubiy Mesopotamiyada dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning rivojlanishi natijasida badavlat kishilar, erkin jamoatchi dehqonlar, hunarmandlar va qullar ko'paya boshlagan. Bu Mesopotamiya dunyosidagi tabaqalar edi. Endilikda jamiyatni boshqarish uchun qandaydir tashkilot zarur bo'lib qoldi. Bu tashkilot Shumerdagi shahar-davlatlar edi. Har bir shahar-davlatning o'z podshosi, amaldorlari, vaziru vezarolari, qo'shinlari, qo'riqchilari, ruhoniylari, jinoyatchilarni jazolovchilari va qamoqxonalari bo'lgan. Butun shahar unga qarashli qishloq ahli podshoning fuqarosi hisoblanadi. Qadimgi Mesopotamiya shahar-davlatlarini faqat jazolovchi tashkilot deb qarash kerak emas. Bu shahar-davlatlar zimmasida sug'orish inshootlarini tartibga keltirish, dehqonchilik,

chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiqni rivojlantirish va mamlakatni mudofaa qilishdek juda muhim ishlar turgan.

Bu jarayonlar Mesopotamiyada m. av. IV mingyillikning ikkinchi yarmi va III mingyillikning boshlarida sodir bo'lgan.

3. Janubiy Mesopotamiyaning shahar – davlatlari va ularning xo'jaligi. M. av. III mingyillikning boshlarida Janubiy Mesopotamiyada har xil tillarda gaplashuvchi qabilalar yashar edi. Janubda mahalliy aholi bilan aralashgan shumerlar, Dajla va Frot vohasining o'rta qismida esa mahalliy aholi bilan birga akkadlar ham yashar edilar. Ulardan shimolda esa xurrit qabilalari istiqomat qilgan. III mingyillikning birinchi yarmida Shumerda Eredu, Ur, Larsa, Uruk, Lagash, Umma, Shuruppak, Isin, Nippur, Kish, ulardan shimolda esa Ashshur, Mari, Nineviya va boshqa yirik shahar-davlatlar bor edi. Ularning hammasida ham asosan sug'orma dehqonchilikka asoslangan xo'jalik rivojlangan edi. Ular arpa, bug'doy, kunjut ekar, sabzavotchilik, bog'dorchilik, xususan xurmo ekib ko'paytirishga katta e'tibor bergenlar. Dehqonlar yerga motiga bilan ishlov berar edilar. Mesopotamiyada ma'dan hunarmandchiliği rivoj topgan bo'lib, ustalar mis bilan qo'rg'oshin yoki qalayni qo'shib eritib jez ma'dani hosil qilganlar. Undan jang, mehnat, uy-ro'zg'or va zeb-ziynat buyumlari yasashgan. Yog'ochdan omoch, uy jihozlari, arava g'ildiraklari, qayiq, musiqa asboblari va boshqa buyumlar tayyorlaganlar. Shumer hunarmandlari to'qimachilik va kulo'lchilikda ham katta yutuqlarga erishgan.

Tamqarlar deb atalgan kishilar savdo ishi bilan shug'ullangan. Chorva, g'alla, mis va kumush quymalari pul vazifasini o'tagan. Ichki va tashqi savdoda buyumlar boshqa buyumlarga almashtirilgan. Shumerlar Akkad, Suriya, Eron, Kavkazorti va Fors qo'lltig'i sohilidagi o'lkalar bilan qizg'in savdo-sotiq ishlarini olib borganlar.

Janubiy Mesopotamiyada qulchilik endigina shakllanayotgan edi. Urushda asir tushgan odamlar va qarzdor kishilarni qulga aylanadirish boshlangan. Ulardan ibodatxona, uy va xo'jalikning hamma sohalarida foydalanilgan. Qullar, qul egalari tomonidan tamg'alanib sotilgan va sotib olingan. Ularda hech qanday huquq bo'lma-gan. Shumer jamiyatidagi aslzodalar, qul egalari, ruhoniylar va

boshqalar oliy tabaqqa vakillari hisoblangan. Aholining ko'pchiligi mayda ishlab chiqaruvchilar, hunarmandlar, dehqonlar, mayda savdogarlar, askarlar tashkil etgan. Yer egaligining bir necha shakli mavjud bo'lган. Ularning biri xususiy yerlar bo'lib, ular sotilgan va sotib olingan. Ikkinchisi esa davlat va ibodatxonaga qarashli yerlardir. Mesopotamiyada hamma foydalanadigan jamoa yerlari ham bo'lган. Yirik quldarlar jamiyatining oliy tabaqqa aslzodalari hisoblangan. O'sha vaqtdagi shahar-davlatlar "en" deb atalgan. uni oliy ruhoniy boshqargan. Shahar-davlat boshlig'ini lugal deb ham atashgan. Ular aholining yuqori tabaqasi orasidan saylangan. U qo'shin qo'mondoni ham bo'lган. Shumer shahar-davlatlarining o'z qo'shini bo'lib, ular ikki qismdan iborat edi. Bir guruhi nayza va sanchqilar bilan qurollanib, eshak qo'shilgan jangovar aravali askarlardir. Ikkinci guruhi bolta, xanjar, nayza bilan qurollangan og'ir aslahали piyoda jangchilardan iborat edi. Ular boshlariga dubulg'a kiyib, butun tanani berkitib turuvchi zirhli qalqonlar bilan ta'minlangan.

4. Shumer shahar-davlatlari o'rtaсидаги kurash. Ilk Shumer shahar-davlatlari uncha katta bo'lмаган. Eng qadimgi shahar-davlatlar qatoriga Eredu, Sippar, Shuruppak va boshqalarni kiritish mumkin. Har bir shahar-davlat mustaqil bo'lib, ularning o'z podshosi bo'lган. Shumerdagи shahar-davlatlar o'rtaсидаги siyosiy hukmronlik qilish uchun ayovsiz janglar bo'lib turar edi. M.av. XXVIII–XXVII asrlarda Kish shahar-davlati kuchayadi. Dastlab Shumerda I Kish sulolasi podsholari hukmronlik qilishgan. M.av. XXVII asr oxiridan boshlab Uruq shahar-davlatining qudrati oshgan. Gilgamish davrida Uruq kuchayib, Kish hukmronligidan ozod bo'lган. M.av. XXVII–XXVI asrlarda Gilgamish va uning avlodlari davrida Uruqda kuchli qo'shin tuzilib, Lagash, Nippur kabi shaharlar Uruqqa itoat ettirilgan.

Qattiq urushlardan so'ng m.av. XXV–XXIV asrlarda Ur shahar-davlati kuchayib, I Ur sulolasi vakillari Shumerda hukmronlik qiladilar. Urdan keyin bu o'lkada Lagash kuchayadi. Podsho Eannatum zamonida butun Shumer Lagash hukmronligiga o'tadi. Eannatum Elam ustidan ham g'alaba qozonadi. Mamlakatning La-

gash qo'l ostida birlashtirilishi xo'jalikning rivojlanishiga yordam bergan bolsa ham, m.av. XXIV asr oxiriga kelib tinimsiz urush, og'ir soliqlardan aholining noroziligi kuchaygan. Natijada Lagashda davlat to'ntarishi bo'lib, hokimiyat tepasiga Uruinimgin keldi (2318–2312). U Lagashda 6 yil podsholik qilib, ba'zi islohotlar o'tkazib, aholiga ancha yengilliklar bergan va o'z mavqeyini mustahkamlab olgan. M.av. XXIV asr oxirida Umma shahar-davlati kuchaygan va butun Shumer ustidan hukmronlik qilgan. Uruinimgin podsholigining so'nggi yilida Umma shahar-davlati hokimi Lugal-zagissi Lagashga bostirib kirib, uni vayron qilgan, boyliklarni talagan. U Ur, Uruq, Larsa, Adab, Nippur shahar-davlatlarini o'ziga itoat ettirib, Shumer podsholigini tashkil etgan. Lugal-zagissi davrida Shumer birmuncha ravnaq topgan. Ammo Shumer podsholigining mustaqilligi uzoq davom etmagan. Akkadlarning hujumi uni barbob qilgan.

4-§. Mesopotamiyada markazlashgan davlatning tashkil topishi.

Akkad podsholigi va Urning III sulolasi davlati

Akkad podsholigining tashkil topishi. Sargon I istilolari m.av. XXIV asrning ikinchi yarmida Mesopotamiyadagi shahar-davlatlar o'rtaida mamlakatda hokimlik qilish uchun keskin kurash davom etmoqda edi. Shumeriyalar janubi bilan semitlar shimoli o'rtaida janglar semitlar g'alabasi bilan yakun topadi. Semitlarning Akkad davlatiga Sargon I Sharrumken asos soladi. Dastlabki kurashlar natijasida Sargon I Shumerni o'ziga bo'yusundiradi va Mesopotamiyaning kattagina qismini o'z hokimiyati ostida birlashtiradi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, Sargon I o'z davrining yirik siyosiy arbobi bo'lган.

Sargon I haqida ko'p afsonalar ham to'qilgan. Uning onasi kambag'al bir ayol bo'lib, u o'z o'g'lini qamishdan to'qilgan savatga solib Frot daryosi bo'yidagi qamishzorga tashlab ketadi. Akki degan meshkob suv tashuvchi topib olib, uni tarbiyalaydi va ziroatchi-bog'bon qilib yetishtiradi. Shuningdek, rivoyatlar-

dan birida Sargon I tashlandiq bola bo'lganligi ham hikoya qilinadi. Mesopotamiya ma'budalari – xudolaridan biri Ishtar Sargonni yaxshi ko'rib qolib, uni Akkad podshosi qilib qo'yadi. Yana bir rivoyatda esa Sargon Kish hokimining xizmatkori ekani aytildi. Sargon I Kish hokimi Lugal-zagissi qo'shinlarini jangda yengib, saroy to'ntarishi orqali davlat hokimiyatini qo'lga kiritadi va yangi sargoniylar sulolasiga asos soladi. Podsholik taxtiga o'tirish, o'z huquqini qonuniy yo'l bilan asoslash imkoniyatiga ega bo'lmaganligidan, Sargon o'zini bosh ma'buda Ishtarning yaqin odami deb e'lon qiladi. Hokimiyatni zo'rlik bilan qo'lga olgan kishi o'ziga Sargon deb nom bergenligi ham o'z hokimiyatini qonunlashtirishga uringanligini ko'rsatadi. Sargonning asl ismi Sharrum-ken bo'lib lug'aviy ma'nosi "haqiqiy podsho" demakdir.

Sargon I dastlab Akkadda o'z hokimiyatini mustahkamlash vazifasini qo'ygan. Sargon Akkadning eng kuchli, qudratli shahri bo'lgan Kishni zabit etgan, ammo uning mustaqilligini saqlab qolgan. U Kish, Ur-Akshak va Shimoliy Mesopotamiyadagi boshqa shaharlarni o'ziga itoat ettirib, "Kish podshosi". "Akkad podshosi" va "Mamlakat podshosi" maqomini olgan. Frot va Dajla daryosi oralig'idagi yerga yangi shahar bino qilib unga Akkad degan nom bergen va mamlakat poytaxtiga aylantirgan. Mamlakat Akkad podsholigi nomi bilan atalgan. Sargon I shiimolda mustahkamnib olgach, o'zining diqqat-e'tiborini janubga qaratgan. Janubga qo'shin tortib, Lugal-zagissi va Lugal-zagissini qo'llab-quvvatlagan 50 hukmdorning birlashgan qo'shnlari ustidan porloq g'alaba qozongan. Sargon Kish hokimi Lugal-zagissini asir qilib Nippurga keltirgan va uni xudo Ennilga qurbon qilgan. U Shumerning eng muhim shaharlari bo'lgan Uruk. Ur, Lagash, Ummani bosib olib, vayron qilib, butun Shumerni egallagan. "Dengizgacha" – Fors qo'ltig'igacha yetib borgan va g'olib chiqqanligini nishonlab, "qili-chini dengiz suviga yuvgan" Sargon Shumerni bo'ysundirib "Enlil dushmanni ravo ko'rmagan mamlakat podshosi" degan nom olgan. Sargon qo'shnlari mamlakat janubi-sharqidagi Elamga bostirib borib, elamliklarni yengib, uni bosib olgan.

Shundan so'ng Sargon I shimoliy, shimoliy-sharqiy va shimali-g'arbiy mamlakatlarni bosib olishga harakat qilgan. Sargon qo'shirlari Mari va Elbani qo'lga kiritgach, Dajla daryosining yuqori oqimida joylashgan Subartuni bosib oladilar. Shu tariqa Sargon I deyarli butun Mesopotamiyani o'ziga bo'ysundirgan va birlashtirgan.

Sargon I Ikkidaryo oralig'idagi yerlarni bosib olish bilangina chegaralanib qolmay, O'rtayer dengizi qirg'oqlariga chiqib, Suriyaning boy shaharlari, shuningdek, Amurru viloyatlari ustiga ham yurish qilgan. Bu yurishlar natijasida Sargon I qo'shirlari "Kedr o'rmonlari", Subartu mamlakati, Dajla va Frot daryosining sharqiy chegaralarigacha bo'lgan joylarga bostirib borgan. Ba'zi manbalar da Sargonning Suriya va Falastin sohillarigacha bo'lgan yerlarni egallab, u yerlarda o'z hokimiyatini mustahkamlashga uringanligi aytiladi.

Nihoyat. Sargon I o'zining g'olibona, zafarli yurishlari bilan Kichik Osiyoga ham yo'l ochishga urinib ko'rgan. Ba'zi manbalar da Sargon I o'z harbiy qo'shinarini Kichik Osiyoga ham yuborgani aytilgan. Shunday qilib Sargon I (2316 – 2261) o'zining 55 yillik podsholigi davrida Mesopotamiyaga chegaradosh bo'lgan joylarni birlashtirib qudratli davlat tuzgan.

Sargon I "to'rt iqlim podshosi" degan unvonni olgani keng harbiy-savdo siyosati olib borishga intilganligini ko'rsatadi. Tinimsiz urushlar, joylardagi mustaqillik uchun olib borilgan kurashlar va mamlakat ichkarisidagi noroziliklar, qo'zg'olonlar Akkad davlati asta-sekinlik bilan kuchsizlanishiga olib keladi.

Rimush hukmronligi davrida Akkad podsholigi (m.av. 2261 – 2236). Sargoniylar sulolasining asoschisi Sargon I o'zining 55 yillik faoliyatidan so'ng m.av. 2261-yili taxtga uning o'g'li Rimush o'tiradi. Sargon I tirikligi vaqtida Elam va Shumerda Akkad ga qarshi mustaqillik uchun qo'zg'olonlar boshlangan edi. Rimush taxtga o'tirgach, Shumer va Elamdagagi qo'zg'olonlarni bostirishni bosh vazifa qilib qo'yadi. Rimush qo'zg'olon ko'targan mamlakat larga qarshi harbiy yurish tashkil etadi. Uning Umma, Adab, La-

gashga uyuştirgan uchinchi yurishi muhim bo'lib, bu jangda mazkur ittifoqchilarning qo'shini tor-mor etilib, hokimlari asir olinib qatl qilingan. Dyer yaqinidagi jangda ummaliklarning o'zidan 13000 kishi qirib tashlangan. Shumer shaharlaridagi qo'shing'ololalar bostirilgach, Rimush qo'shing'lari Elamga bostirib kiradi. Suza bilan Avan o'rtaida bo'lib o'tgan jangda Rimush qo'shing'lari g'alaba qozonib, Elam qo'shing'lari qirib tashlanadi. Rimush Fors qo'ltig'i sohillaridagi Shumer va Elam hududlarini qaytadan Akkadga bo'ysundirgan. Bu g'olibona yurishlardan so'ng Rimush o'ziga "Kish podshosi" va "Elam xojasi – egasi" degan dabdabali unvonlarni oladi. Rimush o'zining podsholik davrida otasi Sargon I yurgizgan siyosatni davom ettiradi. U o'z davlatini ruhoniyalar va ba'zi amaldorlarga hamda qo'shing'a tayanib boshqargan. Nippur, Ur, Lagash va boshqa ibodatxona xodimlariga katta-katta in'omlar qiladi. U Akkad podsholigining kuch-qudrati va ravnaqiga o'z hissasini qo'shadi. Lekin Rimush mamlakatda butunlay tinchlik o'matishga muyassar bo'la olmagan. Tashqarida ham saroy ichkarisida ham uning dushmanlari bor edi. Saroydag'i ichki dushmanlar – "o'z uyidagi amaldorlar, xizmatkorlar" qo'zg'olon ko'tarib, shohning tosh muhri bilan uni urib o'ldirganlar. Bu o'sha davrga xos saroy to'ntarishi edi. Manbalarda Rimushning o'ldirilgan yili ma'lum emas.

Manishtushu davrida Akkad podsholigi. Rimush o'ldirilgach taxtga uning ukasi Manishtushu o'tiradi. Manishtushu davrida mamlakatning turli burchaklarida qo'zg'olonlar to'xtamaydi. Manishtushu dastlab Elamdag'i qo'zg'oloni bostirish uchun katta qo'shin bilan u yerga boradi. U Elamning Anshan va Shirixum viloyatlarini o'ziga itoat ettiradi. Manishtushu bu g'alaba bilan qoniqmasdan o'z qo'shing'lari Fors qo'ltig'i orqali Eronning janubi -g'arbiy viloyatlariga olib boradi va u yerda 32 shahar hokimlari qo'shing'lari tor-mor keltirib, kumush va toshga boy konlarni bosib oladi. Manishtushu Akkad podsholigining ichki ahvolini mustahkamlash uchun Shumerning e'tiborli kohinlariga, zodagonlariga katta-katta hadyalar ulashib, ularni o'ziga qaratib olishga harakat

qilgan. U Shumer kohinlarining qo'llab-quvvatlashishiga erishish maqsadida maxsus ko'rsatma bilan xudo Shamash ibodatxonasi ning mulk va daromadlari miqdorini aniqlab bergan. Bundan tashqari bu ibodatxonaga nazr qilib 30 talant miqdorida oltin va kumush hadya qiladi. Hozirgi vaqt hisobiga qarab hisoblaganda bir talant 150 gramm oltin-kumush og'irlikka teng keladi. Manishtushu Elamda o'z hokimiyatini mustahkamlash uchun Elam kohinlarini o'z tomoniga og'dirib olish uchun o'z haykalini Elam xudosi Narutiga bag'ishlagan.

Manishtushuning yer masalasidagi siyosati diqqatga sazovordir. U Kish va boshqa shaharlar atrofidagi odamlardan katta-katta yer-mulklar sotib olgan. Bu siyosat podsho yer zaxirasining kengayishi va mustahkamlanishiga yordam bergan. Ikkinchidan, podsho bu yerkarning bir qismini ma'lum shartlar bilan qo'shinda ko'p ishlar qilgan xodimlarga, zodagonlarga bo'lib bergan. Bundan maqsad mulkdorlarni va zodagonlarni o'ziga qaratib olishdan, ularni saroyga yaqinlashtirishdan iborat bo'lgan.

Ammo um.av. 2236-yilda o'z saroyida suiqasdchilar tomonidan o'ldirildi. Sargoniylarning uchinchi vakili Manishtushu vafotidan so'ng Akkad podsholigi taxtiga mashhur Naram-Suen o'tiradi. U podsholikni 2236-yildan 2200-yilgacha boshqaradi. Naram-Suen taxtga o'tirgach joylarda boshlangan qo'zg'olonlarni shafqatsizlik bilan bostiradi. U Akkad podshosiga qarshi chiqqan 9 askariy qismni va Uruk, Umma, Nippur hokimlarini jangda yengganligini o'z bitiklarida faxr bilan gapirgan. Naram-Suen Akkadda bo'lgan qo'zg'olonlarni bostirib ulardan ayovsiz o'ch olgan. Istilochilik urushlarini boshlab, Suriyaga, O'rtayer dengizi sohilidagi yerlarga va Elamga bostirib kirgan. Elamdagagi Avan hokimini o'zi bilan shartnoma tuzishga majbur etgan. Elam tilida tuzilgan shartnoma matni zamonamizgacha saqlanib qolgan.

Naram-Suen Akkad podsholigining chegaralarini kengaytirish uchun shimol tomonga ham, janub tomonga ham harbiy qo'shinlarni boshlab borgan. Akkad qo'shinlari Yuqori Dajlaning ichkarisi – Magan (Arabiston) mamlakatigacha kirib borgan.

Naram-Suenning istilochilik yurishlari natijasida Akkad podsholigining yerlari kengayib, bu mamlakatning obro-e'tibori ortib, Akkad podsholigi o'z ravnaqining eng yuksak cho'qqisiga ko'tarilgan. Naram-Suenning o'ziga "Ilohiy Naram-Suen, Akkadning qodir xudosi" deb dabdabali unvon berilgan.

Suzadan topilgan bir yozuvli yodgorlikda Naram-Suen o'z qo'shiniga bosh bo'lib tog'li mamlakatlarga – lulubeylar ustiga yo'l olganligi va mag'lubiyatga uchragan dushmanni tiz cho'ktirgan ilohiy qaxramon sifatida turganligi tasvirlangan. Shuningdek, Naram – Suen haykalining bir siniq parchasida "To'rt iqlim mamlakatlarining hammasi uning oldida bosh egadi" degan muhim yozuv saqlanib qolgan.

Naram-Suenning istilochilik yurishlari uning ichki va tashqi dushmanlarining tashkiliy zarbasiga uchrashi muqarrar edi. Buning ustiga mamlakat ruhoniylari bilan uning orasidagi ziddiyat tobora kuchayib bormoqda edi. Akkad podsholigining so'nggi yillarida esa uning atrofidagi bo'ysundirilgan o'nlab katta-kichik podsholiklarning Akkad istibdodidan qutulish uchun o'ta dahshatli harbiy ittifoqi tuzilmoqda edi. Shuni ham aytib o'tish joizki. Akkad shahar aholisining isyonchi o'rta tabaqalari, o'z mustaqilligini tiklashga uringan ba'zi shaharlar ham bu harbiy ittifoqqa qo'shilganlar.

Lekin Naram-Suen o'zining ichki va tashqi raqiblarini tor-mor keltirishga va ular bilan bo'lgan shiddatli janglardan so'ng o'zining ilgarigi bosib olgan bepoyon yerlarining bir qismini hatto saqlab qolishga muvaffaq bo'lgan. Sargon sulolasidan chiqqan podsho Sharkalisharri o'zidan oldin o'tgan podsholar istilo qilgan yerlarni saqlab qolish maqsadida Akkad dushmanlari bilan shiddatli kúrash olib borishga majbur bo'lgan. Mazkur davrga mansub bo'lgan yozuvlarda Shumerdag'i qo'zg'olonlarning bostirilganligi shimoli - g'arbda amoriylar va janubi-sharqdan Mesopotamiyaga bostirib kirgan elamliklar ustidan g'alaba qozonganligi hikoya qilinadi.

Ma'zkur davrga kelib bir zamonalr qudratli bo'lgan Akkad podsholigining inqiroz, halokat davri boshlangan edi. Zagros tog'lari orasida yashagan ko'chmanchi tog'li guteylar qabilasi Sharq tomonidan Mesopotamiyaga bostirib kirib, butun mamlakatni vayron

qilgan va uni o‘z hokimiyatiga bo‘ysundirgan. Akkad esa guteylar ning dahshatli hujumlarini qaytarishga ojiz qolgan.

Guteylar istilosি. Guteylar mesopotamiyaliklarga nisbatan madaniy jihatdan qoloq edilar. Ular Zagros tog‘lari va uning orqa tomonidagi yaylovlarda ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanib yashab kelganlar. Ular urushqoq, jangari qabilalar bo‘lib, vaqtı-vaqtı bilan Mesopotamiya ustiga hujumlar qilib, qishloqlarni talab qaytar edi. Ammo u vaqtida sargoniyalar qo‘smini kuchli bo‘lib, gutey qabilalarining hujumini osonlik bilan qaytarib, ularni mamlakat ichkarisiga kiritmagan.

M. av. XXII asrning oxiri – XXI asrning boshlariga kelib sargoniyalar podsholigi siyosiy va iqtisodiy jihatdan zaiflashgach, ular mamlakat ustiga hujum qilib uni bosib oladilar. Mamlakat ichkarisiga kirib ibodatxona va Mesopotamiya shaharlarini talab vayron qiladilar. Shuningdek, m.av. XXIII asr oxiri–XXII asr boshlarida gullab yashnab turgan sargoniyalar podsholigining poytaxti Akkadning boyliklarini talab, uni vayron qiladilar. Vayron qilingan Akkad shahri xarobalari hozirgacha ham topilgan emas. Guteylar ko‘plab odamlarni asir olib, haydab ketgan va aholiga og‘ir soliqlar solgan. Ular mamlakatni “chigirkadek qoplab olganlar”.

Bosqinchi guteylar qabilalar ittifoqidan tashkil topgan bo‘lib, uni ma’lum muddatga saylab qo‘yilgan sardor – yo‘lboshchilar boshqargan. Guteylar asosan ilgari o‘zlari istiqomat qilgan mamlakatda va Arapxa viloyatida yashab, Mesopotamiyani shumerlik va akkadlik harbiy boshliqlar va noiblar orqali boshqarganlar.

Shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, Mesopotamiyaning hamma o‘lkalari va shaharlari guteylarning qattiq jabr-zulmiga bir xilda duchor bo‘lмаганлар. Shumerning janubidagi viloyat va shaharlarda osoyishtalik hukm surgan. Janubiy Shumerdagи shaharlarning hokimlari turli to‘lov va hadyalar berib guteylar asoratidan qutulganlar. Qadimgi Shumer shaharlari Akkad podsholigining kuchsizlanganligidan foydalanib o‘zlarining tashqi savdo-sotiq ishlarini tiklash va kengaytirishga harakat qilgan. Oqibatda Shumerning qadimgi madaniy markazlari ayniqsa Lagash yanada ravnaq topgan. O‘sha vaqtida Lagashda Gudea hokimlik qilgan. U guteylar podshosiga

qaram bo'lsa ham, unga og'ir xiroj to'lab undan qutulib olgan va unga qimmatbaho hadyalar, oltin yombilar, qimmatbaho anjomlar, taxt kursilar, quollar berib o'z shahrini kelgindi guteylar istilosи xavfidan saqlab qolgan.

M.av. XXII asrning ikkinchi yarmida Lagash hokimi Gudea 20-yil mobaynida guteylar nomidan butun Shumerni idora qilgan. Gudea davrida uzoq-yaqindan qurilish ashyolari keltirilib hashamatli binolar, ibodatxonalar, saroylar, muxtasham bog'lar, hovuzlar va boshqa inshootlar qurilishiga katta e'tibor berilgan. Shahardagi qurilish ishlariga Gudeaning o'zi rahbarlik qilib, inshootning birinchi g'ishtini, toshini uning o'zi qo'ygan. Ibodatxonalar atrofida kaptarlar bog'i, baliqlar uchun hovuz, yovvoyi parrandalar bog'i qurilgan. Ibodatxona xazinasiga katta boyliklar to'plangan. Gudeaning qurilish ishidagi g'ayrati sodda uslubdagi bir yozuada: "O'z buzoqchasiga tikilgan sigir kabi, Gudea ham ibodatxona qurilishiga o'zining butun mehrini berdi", degan so'zlar bilan ta'riflangan. Ibodatxonalar qurilib tamomlangan tantanali kunda u yerga xudolarning haykallari olib kelib qo'yilgan. Ibodatxonalar oldindan tuzilgan aniq reja va tarhlar asosida qurilgan. Gudeaning saqlanib qolgan ko'pgina haykallarida u mag'rurona holatda turgan hokim yoki sarkarda sifatida emas, balki tizzalariga yozib qo'yilgan qurilish rejasi va tarhiga diqqat bilan ko'z tikib turgan kamtarin bir odam qiyofasida tasvirlangan. Gudea davrida barcha qurilishlar qatori anhor, suv inshootlari, to'g'onlar qurilishiga ham katta e'tibor berilgan. Shumerdagi qurilishlarning hamma tarmoqlarida xorijiy qullar ham ishlatilgan.

Bu davrda Shumerda va Mesopotamiyada ziroatchilik, bog'dorchilik va chorvachilik ancha taraqqiy etgan. Gudea mamlakatda ichki va tashqi savdoni rivojlantira borib, Shimoliy Mesopotamiya, Suriya, Fors qo'lting'i qirg'oqlari, Eron, Elam, hatto uzoq Hindiston bilan ham mol ayrboshlashni yo'lga qo'ygan. Guteylar Mesopotamiyada 125 yil hukmronlik qilib, mesopotamiyaliklar madaniyatidan bahramand bo'lganlar. Ular Akkad va Shumer qabilalari bilan ma'lum darajada aralashib ketgan. Shuni ta'kidlash

kerakki, ikki daryo oralig‘idagi aholi kelgindi guteylarni yomon ko‘rgan.

Mamlakatda guteylar istibdodiga qarshi qo‘zg‘olonlar boshlangan. Shumer asta-sekin qaddini rostlab, kuch yig‘ib guteylarga ochiq-oydin qarshi chiqqan. Oddiy baliqchidan chiqqan Uruk podshosi Utuxengal guteylar podshosi Tirikanga qarshi qo‘shin tortib borib, o‘sha zamon yozuvlarida “Tog‘lar ajdahosi, xudolar dushmani. Shumer podsholigini tog‘larga olib ketuvchi” deb atalgan Tirikan askarlarini yengib Urukka g‘alaba bilan qaytgan. Bu voqeа m.av. 2109-yilda bo‘lib o‘tgan. Shu bilan guteylarning Mesopotamiyadagi 125 yillik hukmronligiga nuqta qo‘yilgan. Ammo tez orada Utuxengal vafot etgan.

Urning III sulolasi davrida Shumer va Akkad podsholigi.

Ma’lumki, Utuxengal vafotidan so‘ng Mesopotamiyadagi Shumer-Akkad podsholigi Urning III sulolasiga mansub bo‘lgan qudratli podsholar qo‘liga o‘tadi. Urning III sulolasining birinchi podshosi va sulola asoschisi Ur shahridan chiqqan Ur-Nammu bo‘lgan. Ur Shumer viloyatidagi shahar-davlatlardan biri bo‘lib, Frot daryosining Fors qo‘ltig‘iga quyilish joyidan yuqoriroqda, daryoning o‘ng sohilida joylashgan edi. Mazkur sulola podsholari guteylar haydaliganidan so‘ng mamlakatda markazlashgan davlat tuzishga harakat qilganlar. Chunki mamlakatda markazlashgan podsholik tuzmay turib ziroatchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqni keng ko‘lamda rivojlantirib bo‘lmas edi.

Shumer-Akkad podsholigi irrigatsiya tarmoqlarini yaxshi saqlash va yanada kengaytirishda ko‘p jonbozlik ko‘rsatgan. Frot, Dajla va uning irmoqlari bo‘ylab katta-kichik kanallar qazilgan. Mazkur davrda yirik davlat xo‘jaliklari keng taraqqiy etgan. Davlatga qarashli g‘oyat katta yer-mulkarda asosan qullar, cho‘rilar va qisman erkin qishloq aholisi ishlagan. Ishlab chiqarishning rivojlana borishi natijasida xususiy mulk, mulkiy tengsizlik va tabaqalanish yanada kuchaygan. Urning III sulolasi podsholari davrida yerning katta qismi podsholaprga qarar edi. Yerlarning bir qismi mahalliy hukmdorlar va ibodatxonaga qarashli edi. Podsho yerlari bir-necha turga bo‘lingan bo‘lib, ularning bir qismi podshoga qa-

rashli edi. Ularda qullar ishlar, ish haqiga chiqqan hosildan ulush olar edilar. Podsho yerlarida erkin dehqonlar ham ishlaganlar. Podsho yerlaridan muayyan qismi ibodatxonalarga foydalanish uchun ajratilgandi. Yerlarning yana bir qismini davlat xizmatchilariiga, ruhoniylarga va xizmat ko'rsatgan harbiylar, jangchilarga berilgan. Mamlakatda podshoga qarashli yer bilan birga jamoa va ayrim shaxslarning yerlari ham bor edi. Bu yerlar shoh yeriga nisbatan juda-juda kam edi. O'sha davrdan qolgan bir hujjatda Lagashda yashagan har xil kishilarga qarashli yer-mulklarning katta-kichigi bayon etilgan. Masalan, bosh ruhoniylarning 36 hektar yeri bo'lgan. Uning yordamchisining 18 hektar, xo'jalik mudirining har qaysisida 15 hektardan yer bo'lgan. Mayda yer egalarida esa 5-6 hektardan 0,5 hektargacha yer bo'lgan. Ur sulo-lasining podsholari qashshoqlikni va jamoa yerlari oldi-sotdisini to'xtatishga harakat qilganlar. Yer-mulkni hadya qilishga ijozat berilgan. Uy-joy va bog'-rog'larni sotish va sotib olish taqiqlangan. Urning III sulołalsi davrida davlat juda murakkablashtirilib podsho xudo darajasiga ko'tarilgan. Davlat boshqaruv ishlari tanho podsho hokimiyati qo'lostida bo'lgan. Bu davrda ilgarilarini deyarli mustaqil holda yashab kelgan kichik- kichik davlatlarning mustaqil hukmdorlari bo'lgan patesiylar, podsho tomonidan tay-inlanadigan hokimlar oliy hukmdorning irodasi bilan ish qilgan, oddiy amaldorlarga aylantirilgan. Urning III sulolasi davridagi Shumer-Akkad podsholigida qulchilik ancha rivoj topadi. O'sha davrdagi yozuvlarda patesiy larning o'z shaharlari bilan kam bog'langanliklari, podsho ularni bir shahardan ikkinchi shaharga tez-tez ko'chirib turgani ko'rsatilgan.

Ma'muriy vazifalar, sud va moliya, soliq vazifalari patesiy qo'li-da bo'lgan. U ibodatxonalar bilan yaqin aloqada bo'lib, ularning xo'jalik boyliklaridan foydalangan. O'sha davrda sud kodekslarining paydo bo'lishi markaziy hokimiyatning kuchayganligini ko'rsatadi.

Mazkur kodeks oila huquqi, meros va birovning bolasini o'ziga bola qilib asrab olishni belgilaydi. Bunda qonun chiqaruvchi meva

bog'larini ijaraga olish, qo'riqlash, cho'ponga ishonib topshirilgan poda uchun uning javobgarligi. shuningdek, qochqin qullarni bekitganlarga nisbatan qo'llanilgan jazo choralar bilan ko'proq qiziqqan. Bundan tashqari ters qullarni o'jarliklari uchun qattiq jazolash to'g'risidagi moddalar ham saqlanib qolgan.

Hozirgi Tel-Asma degan joyda podsho Eshnunnanining saroyi qazib ochilganda bu yerdan Eshnunnanining Bilalama qonunlar to'plami topilgan. Qonunlar to'plamida Urning III sulolasiga qulagandan keyingi Akkadning xo'jalik va ijtimoiy tuzumiga oid juda ham ko'p qimmatli ma'lumotlar saqlangan. Bu qonunlar to'plami m. av. XX asrga oid bo'lib, unda o'sha davrning ijtimoiy, iqtisodiy qishloq jamoalar, tabaqalar, qullar, cho'rilar, oldi-sotdi masalalari, qulchilik va boshqa masalalar haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

Ur-Nammu (m.av. 2111 –2094) va uning o'g'li Shulgi (m.av. 2093 – 2046) davrida Shumer – Akkad podsholigi keng ko'lamda istilochilik urushlari olib borgan. Podsho Shulgi Sharqiy tog'liklarga, sumuru va lulubey qabilalariga qarshi to'qqiz marta qo'shin tortib borgan. Elamga bostirib borib, Anshanni vayron qilgan va bu yerda Shumer patesiysini hokim qilib qoldirgan. U shimol va shimoli-g'arbgaga yurish qilib, Subartu. Dajlaning yuqori qismi va Suriyani ham bosib olgan. Ammo uning Mesopotamiyadagi hukmronligi uzoqqa cho'zilmagan. Dashtda yashovchi ko'chmanchi amoriy qabilalari Ikkidaryo oralig'inining serhosil viloyatlari va boy shaharlariga tez-tez hujum qilib turganlar. Gimilsin bu qabilalarga qarshi kurash olib borgan va hatto ularning hujumlaridan mamlakatni mudofaa qilish uchun "Amoriylar devori"ni qurdirgan. Ammo podsho amoriylarning shiddatli hujumini daf qila olmagan. Sharq va janubi-sharqdan elamlıklarning hujumi boshlangan. Ni'hoyat Urning so'nggi podshosi Ibbi-Suenning qo'shinlari Urga qarshi birlashgan Mari va Elam qo'shinlari tomonidan tor-mor etilgan. Ibb-Suenning o'zi asir tushirib Mariga olib ketilgan. Shu tariqa Ur III sulolasining qudratli davlati qo'shni davlat va qabilalarning hujumlari natijasida barham topgan va qulagan.

Ikki daryo oralig‘i shaharlarining kurashi va Bobil podsholining yuksalishi. Siyosiy va iqtisodiy jarayonlar natijasida Ikki daryo oralig‘ida Urning III sulolasi qulaganidan so‘ng ikki yuz yildan ortiq vaqt davomida mamlakatda siyosiy tarqoqlik va o‘zaro urushlar yuz berib turgan. Buning ustiga m.av. XXI asrning eng oxirlarida Ikki daryo oralig‘iga g‘arb va shimoli-g‘arbdan amoriy-semit qabilalari va sharq, janubi-sharqdan bostirib kirgan elamliklarning siquvi natijasida Urning III sulolasi boshqargan davlat parchalanib ketgan va inqirozga yuz tutgan.

Bu davrda mamlakat janubida poytaxti Larsa bo‘lgan podsholik, janubda esa markazi Isin shahri bo‘lgan davlatlar bor edi. Shimoliy Mesopotamiyada esa Frot sohilidagi Mari, Dajla daryosi bo‘yidagi Ashshur, Diala daryosi havzasida esa Eshnunna davlatlari hukmronlik qilar edilar. Bu shahar-davlatlarni amoriylarga mansub sulo-la vakillari boshqarardilar.

M.av. XX–XIX asrlarda mazkur shahar-davlatlar o‘rtasida Ikki daryo oralig‘ida hukmronlikni qo‘lga kiritish uchun to‘xtovsiz jangu-jadallar olib borilardi. Uzoq yillik kurashlardan so‘ng Frot daryosining chap sohilidagi Bobil “Xudo darvozasi” qad ko‘tarib, yuksala boshlaydi. Bu shahar-davlat Bobil I yoki Amoriy sulolasini namoyandalari tomonidan boshqarilib, u Qadimgi Bobil davri (m.av. 1894 –1595) nomi bilan mashhur bo‘lgan. Bu shahar-davlatning asoschisi va ilk hukmdori amoriy Sumuabum bo‘lgan. Urushlar natijasida Ikki daryo oralig‘idagi davlatlar bir-birlarini kuchsizlantira boshlagan. Bundan foydalangan Elam podshosi Rim-Sin Janubiy Mesopotamiyani bosib olib, Larsa shahrini o‘zining tayanch istehkomiga aylantiradi. Elam hukmdori Rim-Sin (m.av. 1822 –1763) Janubiy Mesopotamiyada katta-kichik suv inshootlari, kanallar qazdirib, Larsa, Ur va boshqa shaharlarda ha-shamatli ibodatxonalar qurdiradi. Ibodatxonalarga Shumer va Elam xudolarining mis va oltindan quydirilgan haykallarini qo‘ydiradi. Mazkur davrda Janubiy Mesopotamiyadagi Uruk, Nippur, Isin va boshqa shaharlar Rim-Sin qo‘l ostiga o‘tib qoladi. Larsa esa Janubiy Mesopotamianing yirik markazlaridan biriga aylanadi.

M.av. XIX–XVIII asrlarda Mesopotamiyada sug‘orma dehqonchilik, savdo-sotiq rivoj topib shaharlarda yuksalish yuz beradi. Ammo Mesopotamiyada xo‘jalikning yuksakroq darajada rivojlanishiga mamlakatdagi notinchlik to‘sinqinlik qilmoqda edi. Mesopotamiyadagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyat bu yerda kuchli markazlashgan davlat barpo bo‘lishini taqozo etmoqda edi.

Shunday sharoitda Mesopotamiya markazidagi Bobil shahar-davlati asta-sekin kuchaya boshlaydi. Bu shahar har jihatdan qulay geografik muhitga ega bo‘lib, shahardan har tomonga ham quruqlik va ham suv savdo yo‘llari kesib o‘tgan edi. Bobil o‘z davrining yirik iqtisodiy, madaniy va hunarmandchilik markazi ham bo‘lgan.

Bobil esa eng yaqin qo‘shnilari Kish va Akkadning tushkunligi va vayronligidan foydalanib, iqtisodiy va siyosiy jihatdan kuchaya boradi. Yuqorida ta‘kidlanganidek, daryo va karvon yo‘llari tutashgan yerda qulay joylashganligi uning yirik savdo-sotiq markazi ga aylanishiga imkon bergen. Shahar va uning atroflarida Suriya cho‘lidan ko‘plab har xil buyumlar keltirilgan.

Qadimgi Bobil podsholigining tashkil topishi. M.av.1894 –1595-yillar orasidagi davrda bu yerda amoriylarning mustaqil sulolasi vakillari hukmronlik qiladi. Qadimgi Bobil podsholigining gullab-yashnagan davri Bobil I sulolasining yirik namoyandası Xammurapi (m.av. 1792 –1750) podsholik qilgan davrga to‘g‘ri keladi.

Manbalarda yozilishicha, Xammurapi o‘z davrining yirik, mashhur davlat arbobi, uzoqni ko‘rvuchi ayyor diplomat, yirik strateg, dono qonunshunos, uddaburon va aqlli tashkilotchi shaxs bo‘lgan. U o‘z ittifoqchilari bilan harbiy ittifoq tuzib, xo‘jalik masalalari da nozik siyosat olib borib, ishi bitgach ulardan yuz o‘girgan ham. Dastlab Larsa bilan o‘zaro ittifoq tuzib, janubdagi Uruk, so‘ngra Isinni o‘ziga qaratib olgan. Xammurapi o‘zining navbatdagı diplomatik amaliyotini shimolga, endigina Ossuriya asoratidan qutilgan Mari davlatiga qaratib, uning podshosi Zimrilim bilan do‘stona munosabat o‘rnatgan. Mari ittifoqiga tayanib, Bobil shahridan shi-molda joylashgan kuchli Eshnunna ustiga qo‘shin tortib, bu davlat

qo'shinlarini tor-mor etgan. Navbatdagi zARBANI o'Zining sobiq ittifoqchisi Larsaga bergen. Jangda Elam shohi Rimsin qo'shinlari mag'lubiyatga uchrab, Elamga qochib ketgan. Xammurapi qo'shinlari Shumerni bosib olib, uni ham o'z podsholigiga qo'shib olgan.

Shu voqealardan keyin Mesopotamiyada kuchli davlat vujudga keladi. Shuni aytish joizki, "Shimol" va "Janub" mamlakatlarining podsholari, ya'ni Zimrilik va Xammurapi butun Mesopotamiyada mutlaq hukmdor bo'lish uchun shiddatli kurash boshlaydilar. Mari Bobil uchun kuchli va dahshatli raqib bo'lib, Shimoliy Mesopotamiyadagi ko'pgina shaharlarni va Suriya-Mesopotamiya dashtidagi ko'chmanchilarni o'z nazoratiga olgan edi.

Mari O'rtayer dengizi sohilidagi Bibl, Ugarit, Karxemish, Yamxad davlatlari, dengizdagi Krit va Kipr orollari bilan qizg'in savdo va diplomatik aloqalar olib borardi. Zimrilik davrida Marida 2,5 hektar maydonni egallagan 300 xonali muhtasham saroy va xo'jalik binolari qurilgan edi. Saroy devorlari bir-biridan go'zal, chiroli rasm tasvirlar bilan bezatilgan bo'lib, unda ajoyib podsho taxti qad ko'tarib turardi. Bu saroy o'z davrining "me'moriy mo'jizasi" hisoblangan. Bu ajoyib saroyni ko'rish uchun Ugarit, Bobil va Yamxaddan vakillar kelib, uning mo'jizakor ko'rinishidan lol qolganlar. Zimrilik ham Xammurapi kabi dono siyosatchi va uzoqni ko'rvuchi davlat arbobi edi. Shuni ta'kidlash lozimki, Bobilda Zimrilikning diplomat va ko'plab xufyalari faoliyat ko'rsatib, u yerdagи siyosiy va harbiy voqealarni sinchiklab kuzatib borgan va bu haqida o'z hukmdorlariga ma'lumot yuborib turganlar. Bu voqealar haqidagi tafsilotlar Zimrilik saroy arxivlarida saqlanganligini arxeologlar topishgan. Xammurapining Mariga nisbatan siyosati salbiy tomonga o'zgarganligini sezgan Zimrilik ittifoqchisiga yuborgan qo'shinlarini Larsadan chiqarib olgan. Xammurapi ham Zimrilikning bu siyosatini payqab m.av. 1759-yilda o'zining katta qo'shini bilan Mari devorlari ortida paydo bo'lib, shaharni qamal qiladi va uni bosib oladi, Shimoliy Mesopotamiyadagi bu kuchli davlatni o'ziga itoat ettiradi. Ammo Zimrilik Xammurapiga itoat etishni xohlasmay, unga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Xammurapi

qo'shinlari ikkinchi marta Marini qamal qilib uni vayron etganlar, janglarda shahar aholisining aksariyati qirib tashlangan.

Maridagi "mo'jizakor" shoh saroyi yoqib yuborilgan. Bu mag'lubiyatdan so'ng Mari davlati barham topgan. Zimrilingning ittifoqdoshi hisoblangan Nineviya, Ashshur va boshqa shaharlar ham birin-ketin Bobil davlatining vassaliga aylangan. Xammurapi o'zining 42 yillik podsholigi davrida butun Mesopotamiyani o'z ichiga olgan kuchli, yirik, mustabid davlat tuzishga muvaffaq bo'lgan.

Mazkur davrda Bobil Mesopotamiyadagi davlatlardan kichik bir shahar, yangi mustabid davlatning poytaxti bo'libgina qolmay, balki Old Osiyodagi qudratli davlatga aylanib, eng yirik iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz bo'lib qoladi. Ammo ko'plab g'alabalariga qaramay qudratli bo'lib ko'ringan Bobil podsholigi mayda davatlarni kuch bilan ushlab, uyuştirib turgan sultanat edi. Bu esa podsholiking negizi ham u qadar mustahkam emasligini ko'rsatar edi.

Xammurapi vorislari davrida Bobil podsholigi. Manbalarda ta'kidlanishicha, m.av.1750-yilda Xammurapi vafotidan so'ng Bobil podsholigi asta-sekin tushkunlikka yuz tuta boshlagan. Xammurapi vafotidan so'ng uning vorislari, chunonchi o'g'li Samsuiluna (m.av. 1749 –1712) uning ishlarini davom ettirishga harakat qilib ko'rganlar. Samsuiluna 26 podsholik ustidan g'alaba qozonganligini yozib qoldirgan. U zikkuratlar qurib, ibodatxonalarini bezatirib, ularda xudolarga bag'ishlab oltindan taxt barpo ettirgan. Shuningdek, u mamlakatda sug'orma dehqonchilikni yuksaltirish maqsadida ikkita yangi kanal qazishni buyurib, ibodatxonalariga katta-katta hadyalar in'om qilib turgan.

Shuni ta'kidlash joizki, Bobil atrofidagi katta-kichik davlatlar podsholikda sodir bo'layotgan siyosiy voqealarni sinchkovlik bilan kuzatib turardilar. Elam podshosi Rim-Sin Bobilning zaiflashib qolayotganidan foydalananib, Janubiy Mesopotamiyaga bostirib kirib, Shumerning bir qismini tortib olgan. Ammo Bobil qo'shinlari Rim-Sin qo'shinlarini jangda tor-mor etgan, Rim-Sin esa Elamga chekinib, o'z saroyidagi yong'in vaqtida halok bo'lgan. Samsuiluna Rim-Sin qo'shinlarini mag'lub etgach. Ur va Uruk shaharlaring

devorlarini buzdirib, Shumerni yana qaytadan o‘z hokimiyatiga itoat ettirgan. Ammo bu vaqlarda Bobilga qarshi yangi dushmanlar bosh ko‘tarib chiqa boshlaganlar. Bu davrda Isin podshosi Ilumanlu Shumerning janubida mustaqil podsholik tuzgan. U Bobilga qarshi qattiq kurash olib borib, Shumer podsholigining yangi dengizbo‘yi sulolasiga asos solgan. Bu yetmaganidek, sharq tomondan Bobilga Zagros tog‘ oralarida yashovchi jangovar ko‘chmanchi kassit qabilalari bostirib kela boshlaganlar. M.av. 1750-yillardan boshlab Gandash boshliq kassit qo‘shinlari Mesopotamiya tuprog‘iga teztez hujumlar uyushtirib, shahar va qishloqlarni talab, katta-katta o‘ljalar bilan tog‘ oralariga qaytganlar. Xammurapi vorislari, Bobil I sulolasi podsholari 155 yil davomida kassitlarga qarshi kurash olib borgan. Birinchi Bobil sulolasining so‘nggi podshosi Samsuiluna podsholigi davrida (m.av. 1625 –1595) Bobilga shimoli-g‘arbdan Xett qo‘shinlari ham bostirib kiradilar.

Xammurapi qonunlari haqidagi umumiylumot. Ma’lumki, qadimgi Bobil podsholigining xo‘jaligi, ijtimoiy va siyosiy tuzumi haqida podsho Xammurapining bazalt toshi ustunga eng qadimgi mixxat bilan yozilgan mashhur qonunlar to‘plami muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Bazalt ustunining yuqori qismiga taxtda o‘tirgan quyosh xudosi Shamash, uning oldida esa tantanali suratda turgan podsho Xammurapi tasvirlari ishlangan. Ustunning hamma joyi 247 moddadan iborat qonunlar to‘plamining mixxatda yozilgan matni bilan band. Negadir 42 modda yozilgan beshta ustunchadagi matnlar qirib tashlangan. Olimlarning taxminlariga ko‘ra buni ustunni o‘lja sifatida olib ketgan Elam istilochilari qilgan bo‘lsalar kerak.

Ammo o‘sha vaqtdayoq bu kodeks – qonunning boshqa nusxalari ham topilgan. Shu bois uning qirib tashlangan matni tiklangan. O‘sha davr mirzo va sudyalari boshqalarni o‘qitish maqsadida, shuningdek, adliya ishlarida podsho qonunnining ana shu nusxalaridan foydalanganlar.

Xammurapi qonunlar to‘plami uch qismdan iborat bo‘lgan:

1. Xammurapi qonunining kirish qismi.

2. Qonunlar to'plami matni.
3. Qonunning yakuniy xulosasi.

Mazkur qonunning kirish qismida qonunlar majmuasini chiqarishdan asosiy maqsad, mamlakatda adolat o'rnatib faravon hayot yaratishdir deyiladi. Shuningdek qonunning kirish qismida podsho Xammurapi o'z unvonlarini birma-bir ko'rsatib o'tar ekan, o'zining ulug' vorligini ko'klarga ko'tarib maqtab, mamlakat obodonligi uchun qilgan ishlarini bayon etib o'tgan.

Qonunlar to'plamining asosiy qismida esa mamlakatdagi jinoiy ishlarga oid, huquqqa, sud ishlarini yuritishga, xususiy mulk huquqining buzilishiga, ya'ni o'g'irlilik va talash, jangchilar huquqiga oid bandlar birma-bir ko'rsatib o'tilgan. Qonunning ayrim moddalarida ko'chmas mulkka egalik qilish huquqlari to'g'risida, savdo-sotiq ishlari, garovga qo'yish va olish huquqi, oilaviy huquq to'risida o'z-o'zini qasddan mayib qilish, me'morchilik, me'morlar va kemasoz, qayiqsozlar ishi to'g'risida, ish kuchini yollash va qulchilik to'g'risida atroficha ma'lumot keltiriladi.

Xammurapi qonunining asosiy qismida esa qishloq xo'jaligi, suv inshootlari, ekin maydonlari, ziroatchilik, bog'dorchilik va chorvachilik ishlariga ham alohida e'tibor berilgan.

Xammurapi qonunlar to'plamining xulosa qismida esa podsho xalq oldida qilgan xizmatlarini birma-bir sanab o'tgan. Shuningdek, u qonunning xulosa qismida o'zidan keyin uning qonunlarini o'rganib, uni hayotga tatbiq etib ado etuvchi podsholarga oq fotha bergen. Aksincha, podsho qonunlariga rioya qilmaydigan yoki uni bekor qilishga jur'at etgan va etadiganlarni qahr-g'azab bilan la'natlagan.

Qonunlar to'plamida xo'jalik va siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning aks etishi.

Xammurapi qonunlari va m.av. II mingylliklarga oid hujjatlar majmuasi, Mesopotamiya xalqlari xo'jalik hayotining umumiy manzarasini bir qadar tiklashga imkon beradi.

Ma'lumki, Old Osiyoning ko'p xalqlari hayotida ziroatchilik xo'jalikning asosini tashkil etadi. Mesopotamiyaning Dajla va Frot daryolarining toshqinlari natijasida yaxshi o'g'itlanadigan va sug'oriladigan allyuvial tuproq dehqonchilikning rivojlanishiga

ayniqsa katta yordam bergen. Dehqonchilik ilgari ham, Qadimgi Bobil podsholigi davrida ham o'zining muhim ahamiyatini saqlab qolgan. O'sha zamonga oid hujjatlarning birida: "Ekinzorlar – mamlakatning hayoti ekanligini bilmaysanmi?" deb yozilgani Bobilda dehqonchilikning ahamiyatini juda yaqqol ko'rsatib bergen.

Darhaqiqat, Misr uchun Nil, O'rta Osiyo uchun Amudaryo va Sirdaryo, Hindiston uchun Hind, Gang, Jamna, Xitoy uchun Xuanxe va Yanszi qanchalik katta ahamiyatga ega bo'lган bo'lsa Mesopotamiyada sug'orma dehqonchilikni ravnaq toptirish uchun Dajla va Frot ham shunday ahamiyatga ega edi.

Tabiiy sharoit yer, suv, obi havo, yuqori darajadagi quyosh haroratiga ko'ra butun Sharq dunyosida, shuningdek, qadimgi Mesopotamiyada ham dehqonchilik xo'jaligining rivojlanishi asosan sun'iy sug'orish bilan chambarchas bog'liq bo'lган. Shu bois Xammurapi ham o'z sultanati doirasida irrigatsiya – sug'orish ishlarini rivojlantirishga katta ahamiyat bergen. Xammurapi o'z qonunida "Mamlakatni g'alla to'la konga aylantirib, yerlarni ishlashni osonlashtirgani.... tarqalib ketgan aholini Shumer va Akkad yerlariga to'plaganligi, uni farovonlikka va baxt-saodatga erishtirganligi bilan faxrlangan".

Xammurapi buyrug'i bilan "Nar-Xammurapi" degan kanal qazilgan. Bu kanal "Shumer va Akkadga mo'l-ko'l suv beruvchi o'z sohillarini ekin maydonlariga aylantiruvchi, tog'-tog' g'alla yetishtirib beruvchi hamda Shumer va Akkad aholisini doimo suv bilan ta'minlovchi xalq boyligidir", deyilgan.

Sharqning hamma qadimgi mustabid podsholari, shu jumladan podsho Xammurapi davlat hokimiysi sug'orish tarmoqlarini kengaytirish bilan birga bu tarmoqlarni tartibli holda saqlashga ham g'amxo'rlik qilganlar. Bu ishga podsho amaldorlari va ular qo'l ostidagi jamoalar javobgar bo'lishgan. Jumladan Xammurapi qonunlarining 53 – 56-moddasida irrigatsiyaning tegishli tarmog'ini tartibli saqlash mahalliy amaldor va jamoalarning bosh vazifasi ekanligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, agar biron kishining aybi bilan to'g'on buzilib, qo'shni tomorqalarni suv bosib ketsa, aybdor nobud bo'lган g'alla, hosil haqini egasiga to'lashi shart bo'lган.

Qonunning 54-moddasida g'allani to'lashga aybdorning qurbi yetmasa, aybdorning o'zi va uning mol-mulki sotilib, yetkazilgan zarar to'langan. O'sha davrdagi boshqa bir hujjatda sug'orish tarmoqlarini tartibli saqlash ishlari ustidan markaziy hokimiyat qattiq nazorat qilganligi ko'rsatilgan.

Shunday qilib, ziroatchilik va sug'orish tarmoqlarini tartibga solish va nazorat qilish m. av. XVIII asrda va undan keyingi davrlarda ham podsho hokimiyati, amaldorlari va jamoaning bosh vazifasi bo'lgan edi.

Ma'lumki, Mesopotamiya xalqlari hayotida, shuningdek Bobil podsholigi xo'jaligidagi chorvachilik ham katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Mesopotamiyaning sharqidagi Zagros tog'lari, dashtlar va daryo bo'yidagi to'qaylar chorva mollari uchun qulay yaylov hisoblangan. Mazkur dasht, to'qay va tog' yaylovlarida ko'plab yirik va mayda shoxli qoramollar podasi va eshaklar boqilgan. Xammurapi qonunida va boshqa hujjatlarda chorva mollariga egalik huquqi masalasiga ham e'tibor berilib, yirik chorvadorlar manfaati qattiq himoya qilingan. Ko'pincha ish hayvonlari ijaraga berilgan. Qonunga ko'ra, ish hayvonini ijaraga olgan kishi ijaraga olingan ish hayvoni uchun to'la javobgar bo'lgan. Ijaraga olingan hayvon o'lib qolsa yoki zararlansa ijaraga olgan odam bu zararni hayvon egasiga to'lashi lozim bo'lgan. Chorvador boyalar mollarini boqishni kambag'allarga yollab bergenlar. Qonun moddalarida cho'pon o'ziga topshirilgan yirik yoki mayda shoxli qoramollar uchun mutlaqo javobgar bo'lgan. Mollarning tamg'asi o'zgarib qolsa, mol o'g'irlab ketilsa, cho'pon qattiq jazolangan. Shuni ta'kidlash joizki, mamlakatda bog'dorchilik xo'jaligi ham ancha taraqqiy etgan edi. Afsonalarda Qadimgi Mesopotamiya gullab-yashnagan jannat bog'iga o'xshatiladi. Darhaqiqat, Qadimgi Bobilda xilma-xil mevali daraxtlar o'stirilib, mirishkor bog'bonlar ajoyib bog'lar barpo qilganlar. Katta-katta yer egalarining manfaatlarini himoya qiluvchi davlat bog' egalarining manfaatini himoya qiluvchi farmonlar chiqargan. Chunonchi, Xammurapi qonunining bir moddasida birovning bog'idan ijozatsiz kesilgan daraxt uchun aybdor 252,5

grammga yaqin kumush og'irligida bog' egasiga jarima to'lagani yozilgan.

Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatda qurilish ashyolari yog'ochlarga ehtiyoj katta bo'lgan. Shu bois podsho o'rmonlarni qo'riqlash yuzasidan bir qancha tadbirlar ko'rgan. O'rmonlar alohida-alohida o'rmon hududlariga bo'lingan va o'rmonli hududlar xo'jaligi bosh mudiriga bo'ysunuvchi maxsus "hudud o'rmonlari" qaramog'ida bo'lgan. Har bir o'rmon hududlari mudirlari daraxtlarning saqlanishi uchun javobgar bo'lganlar. Qadimgi Bobilning shahar va qishloqlarida hunarmandchilik ancha rivoj topgan edi. Xususan, duradgorlar, toshkesarlar, me'morlar, qurolozlar, temirchilar, ko'nchilar, tikuvchilar, kulolchilik va hunarmandchilikning boshqa tarmoqlari ancha rivoj topgan edi.

Xammurapi qonunlarida hunarmandchilik bilan bog'liq qator moddalar bo'lgan. O'sha davrda hunarmandlar kasbiga tabiblar, veterinarlar, ovqatlanish tarmoqlari egalari, sartarosh kabilar ham kiritilgan.

Xammurapi qonunlarida hunarmandlarga beriladigan ish haqi qat'iy belgilangan. Uy quruvchi, me'mor, duradgor qurgan uyning mustahkamligi uchun javobgar bo'lgan. Agar uy qulab ketib uy egasini bosib o'ldirsa, uyni qurgan usta-me'mor o'ldirilishi lozim bo'lgan. Agar uy qulab uy egasining o'g'lini bosib o'ldirsa, ustanning o'g'li o'ldirilgan. Bu ish qonunning 229-moddasida bayon etilgan. Qonunda bemorlarni davolagan tabiblarga to'lanadigan haq bir xil bo'limgan. Bemorning ijtimoiy kelib chiqishiga qarab ish haqi baland yoki past bo'lgan. Qonunning 218-bandiga ko'ra, tabib ozod bemorni noto'g'ri davolasa, jarrohlik ishi muvaffaqiyatsiz chiqsa, tabib jarrohning barmoqlari kesilgan.

Xammurapi davrida savdo-sotiqqa ham katta e'tibor berilgan. Bobil podsholigida savdogarlar tamkarlar deb atalgan. Ular mamlakatdagi ichki va tashqi savdoda muhim o'rinni egallaganlar.

Bobil podsholigi davrida Ur, Larsa, Nippur, Sippor va Bobil shaharlari juda yirik savdo markazlari hisoblangan.

Bobil va uning Nippur, Sippar, Lagash, Larsa hamda Shumer-Akkaddagi boshqa shahar va qishloqlar g'arbdan sharqqa va shimaldan janubga o'tadigan karvon savdosini yo'lida joylashgan edi.

Qadimgi Bobil podsholigida ham ichki ham, tashqi savdo rivoj-langan bo'lib, savdogarlar ham quruqlik va ham suv yo'li orqali savdo ishlarini olib borar edilar. Frot. Fors ko'rfazi, Qizil dengiz, shuningdek, Dajla daryolarida savdogarlarning savdo kemalari qatnab turardi. Ichki savdo mamlakatning shahar va qishloqlari orasida amalga oshirilar edi. Bobil savdogarlari Misr, O'rtayer dengizi sohilidagi mamlakatlar, Kichik Osiyo, Kavkazorti, Sharqiy Afrika, hatto Hindiston bilan ham savdo aloqalari olib borgan. Bobildan g'arbdan-sharqqa, shimoldan-janubga yo'nalgan quruqlik yo'llari kesib o'tgan edi. Savdo va savdo-sotiq podsholik xo'jaligining katta qismini tashkil etar edi.

Mamlakatda yirik savdo asosan davlat qo'lida, qisman esa "tamkarlar" deb atalgan ayrim boy savdogarlar qo'lida bo'lgan. Bobil podsholigidan chet mamlakatlarga qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan g'alla, jun, moy va xurmo chiqarilgan. Shuningdek, mamlakatdan jundan to'qilgan gazlamalar ham chiqarilgan.

Bobil podsholigidagi Sippar shahri jun gazlama ishlab chiqarishning yirik markazi bo'lgan. Bobilga Elamdan, Ossuriyadan mis, kumush, qo'rg'oshin, bitum va o'zga mamlakatlardan esa qullar va boshqa turli buyumlar olib kelingan. Mamlakatning ichki savdosida Bobil va Sippar bilan bir qatorda Shumerning Larsa, Nippur, Uruk va boshqa shaharlar ham faol ishtirop etganlar. Bu shaharlar ham savdo-sotiqning yirik markazlari edi.

Bobilda savdo-sotiqning yirik ko'tara va chakana, mayda shakli bo'lgan. Savdo-sotiq ishlari Xammurapining qonunlar to'plamida ham o'z aksini topgan. Shunday qilib, Qadimgi Bobil podsholigi, xususan Xammurapi davrida mamlakat Old Osiyodagi eng katta savdo markaziga aylanib borgan.

Qadimgi Bobil jamiyatni zo'rlikka asoslangan – despotik davlat bo'lib, aholi bir necha tabaqalarga bo'lingan edi. Avvalo aholi bir -biridan farq qiluvchi ozod kishilar va qullarga ajratilgan. Mamlakatning teng huquqli fuqarolari "avilyum"- "odam" deb nomlangan. Ozod fuqarolar tarkibiga katta yer egalari, tamkarlar, ruhoniyilar, dehqon jamoalari a'zolari, hunarmandlar kirgan bo'lib, ular o'z o'rnida yana ayrim tabaqalarga bo'linishgan. Bular quzdorlar va mayda ishlab chiqaruvchilar tabaqalaridan iborat edi.

Ammo aholining asosiy qismini mayda ishlab chiqaruvchilar tashkil etardi. Qonunda odamlarni oliv va quyi tabaqalarga bo‘linganligi ta’kidlangan.

Qadimgi Bobil jamiyatida ozod kishilardan tashqari “mushkenumlar” toifasiga mansub kishilar ham bo‘lganki, ular doimo podsho xo‘jaliklarida ishlaganlar. Ularda yer ham, xususiy mulk ham bo‘limgan, ular jamoadan ajralgan holda yashaganlar. Ularni O‘rta Osiyodagi kadivarlargaga qiyos qilish mumkin.

Bobil jamiyatidagi eng quyi tabaqa – bu qullar bo‘lib, ular ba‘zi imtiyozlarga ega bo‘lganlar. Ular ozmi-ko‘pmi mulkka ega bo‘lib, ozod ayollarga uylanish huquqiga ega bo‘lishgan. Ular nikohidan tug‘ilgan bola ham erkin bo‘lib otasi merosiga egalik qilish huquqiga ega bo‘lgan.

Xammurapi qonunlarida oila, qulchilik munosabatlari, qarz va qarzdorlik, yer egaligi, huquq va sud ishlari, davlat hokimiyati va boshqa masalalarga ham katta e’tibor berilgan.

Qonunning so‘nggida shunday deyiladi: “Men Xammurapi adolatli podshodirman, menga qonunlarni Quyosh xudosining o‘zi yuborgan. Mening so‘zlarim bebahosha so‘zlar, ishlarim tengi yo‘q ishlardir”.

Shunday qilib, Xammurapi qonunlari to‘plami Qadimgi Bobil podsholigi davrining ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tuzumini o‘rganishda juda muhim tarixiy manba – hujjat sifatida katta ahamiyatga egadir.

Ammo Xammurapi o‘z zamonasining mustabid hukmdori sifatida yuqori tabaqa davlat arboblari, quldarlar va katta yer egalari manfaatlarini himoya qiluvchi shaxs sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Uning qonunlar to‘plami ham yuqori tabaqa kishilarini himoya qilish bilan chambarchas bog‘liqidir.

Xammurapining mazkur qonunlar to‘plami undan keyingi davrda Old Osiyoda tuzilgan qonunlar majmualariga ijobiy ta’sir etgan.

Kassitlar sulolasi davrida Bobil podsholigi. Ma’lumki, Xammurapi vafotidan so‘ng Qadimgi Bobil podsholigi asta-sekin kuchsizlanadi. Bobil atrofidagi katta-kichik davlatlar podsholikda sodir bo‘layotgan siyosiy voqealarni sinchkovlik bilan kuzatib turardilar.

Mamlakat janubi-sharqidagi Elam podshosi Rim-Sin Bobilning zaiflashib borayotganligidan foydalanib janubiy Mesopotamiyaga bostirib kirib Shumerning bir qismini bobilliklardan tortib oladi. Ammo Samsuiluna (m.av. 1749 – 1712) boshliq Bobil qo'shinlari Rim-Sin qo'shinlarini jangda tor-mor etgan va elamlıklarni janubiy Mesopotamiyadan haydab chiqargan. Jangda mag'lubiyatga uchragan Rim-Sin Elamga chekinib o'z saroyidagi yong'in vaqtida halok bo'lgan.

Samsuiluna elamlıklarni mag'lub etib bo'lgach, Ur va Uruk shaharlarning mudofaa devorlarini buzdirib Shumerni Bobil podsholigiga qaytadan qo'shib olgan. Ammo bu vaqlarda Bobilga qarshi Isin shohi Ilumanlu va shahar hokimlari bosh ko'taradilar. Ilumanlu janubda mustaqil podsholik tuzib, Bobilga qarshi qattiq kurash olib borib, Shumer podsholigining dengiz bo'yи yangi sulolasiga asos solgan.

Bu ham yetmaganidek sharq tomondan Bobilga Zagros tog'lari orasida yashovchi ko'chmanchi kassit qabilalari ko'pdan beri bobilliklarga ko'z olaytirib kelar edilar. Xammurapi va uning vorislari 155-yil davomida kassitlarga qarshi kurash olib borganlar.

Samsuiluna davrida Bobilga shimoli-g'arbdan xett qo'shinlari bostirib kirganlar. Samsuiluna xettlarning qarshiligini qaytarishga muvaffaq bo'lgan.

M.av. 1742-yilda kassitlar sardori Gandash Bobilga bostirib kirib "O'zini to'rt iqlim podshosi" deb e'lon qilgan. U Shumer, Akkad va Bobil hukmdori sifatida kassitlar sulolasiga asos solgan. M.av. XVI asr boshlaridan boshlab mamlakatda kassitlar sulolasi ning hukmronligi boshlanib, u Bobil podsholigining o'rta davri deb atalgan. Kassit sulolasi podsholari m.av. 1155-yilgacha Bobilda hukmronlik qilganlar. Kassitlar davrida ot va ho'kizlar kuchidan harbiy va har turli xo'jalik maqsadlarida foydalanganlar. Kassitlar madaniyat jihatdan Mesopotamiyaliklarga nisbatan juda tuban bo'lganlar. Ular Bobilni bosib olgach, bobilliklarning madaniyatini qabul qilganlar. Kassitlar Bobilda mutahkam o'rnashib olganlaridan so'ng, shimoliy-g'arbdan xetlar qarshiligini sindirib, janubdagi dengiz bo'yи sulolasi qo'shinlarini mag'lubiyatga uchratib,

u yerlarni ham o'zlariga itoat ettirganlar. Kassit podsholaridan Agum II m. av. XVI asrda podsholik qilgan. U ham o'zini "To'it iqlim podshosi" deb e'lon qilgan. Agum II davrida O'rta Bobil podsholigi kuchayadi. Agum II va uning vorislari Qadimgi Bobil podsholigining istilochilik siyosatini davom ettirib, butun Shumer ni o'zlariga itoat ettirib, so'ng dengiz bo'yli sulolasining hukmronligiga barham bergenlar. Agum II davrida Bobil kuchayib, uning qo'shinlari Yuqori Frot mamlakatlarini istilo qilgan. Shimoli-g'arba esa, Suriya Mesopotamiya dashtining bir qismini ham O'rta Bobil podsholigiga bo'ysundirganlar.

Agum II o'z yozuvlarida Xanaan mamlakatidan xudo Marduk va uning xotini Sarpanitning haykallarini keltirganligini, bu haykallarni zarbof kiyimlar, qimmatbaho narsalar va dabbabali toshlar bilan bezaganligini hamda bu xudo haykallarini Bobildagi Esagil ibodatxonasiga qaytadan o'rnatganligini faxr bilan gapirgan. Agum II o'zini "Kashshu va Akkad podshosi, keng Bobil mamlakatining podshosi, Guti mamlakatining podshosi" deb atagan. Bu kassitlar podshosining hokimiyati Dajla daryosining sharq tomonidagi viloyatlarga ham yoyilganligini ko'rsatadi.

Gandash va Agum II davrida O'rta Bobil podsholigi kuchaygan bo'lsa ham, m.av. XIV–XIII asrlarda hukmronlik qilgan ularning vorislari davrida bu davlat asta-sekin kuchsizlana borgan. M.av. XIV asrning oxiri XIII asrning boshlaridan Yuqori Mesopotamiyadagi Ossuriya davlati kuchayib, kassit qo'shinlariiga bir necha bor zarba bergen. Shimoli-g'arbdan xettlar, sharq va janubi-sharqdan elam qabilalari O'rta Bobil podsholigi verlariga hujum boshlagan. Ayni paytda kassitlarga qaram bo'lgan mamlakatlarda mustaqillik, ozodlik uchun kurash va qo'zg'olonlar boshlangan.

Shunday qilib XII asrning o'rtalariga joylardagi qo'zg'olonlar, toju-taxt uchun olib borilgan o'zaro kurashlar, nizolar Xett. Ossuriya va Elam podsholarining birin-ketin olib borgan urushlari natijasida kassitlarning Mesopotamiyadagi hukmronligi zaiflashib, m.av. 1155-yilda kassitlar sulolasiga asoslangan O'rta Bobil podsholigi barham topdi. Ular o'z o'rinnarini Nabopalasar boshliq Yangi Bobil podsholigiga bo'shatib berdilar.

Mesopotamiyaga kelgan cassitlar mahalliy aholi bilan aralashib ketadi. Cassitlar hukmronlik qilgan O'rta Bobil podsholigi davrida Mesopotamiyada dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq me'yorida rivoj topgan. Cassitlar Mesopotamiya xalqlari madaniyatidan unumli foydalanganlar.

6-§. Ossuriyada ilk shahar-davlatlarning tashkil topishi va eng Qadimgi Ossuriya

Qadimgi Ossuriya podsholigi. Ma'lumki, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Mesopotamiyaning ilk quldarlik davlatlaridan biri bu Qadimgi Ossuriya edi. Qadimgi Ossuriya davlati dastlab Shimoliy Mesopotamiyaning sharqidagi uncha katta bo'lmagan maydonni egallagan edi. Qadimgi Ossuriya tarixi uchta asosiy davrga bo'linadi.

Bulardan dastlabkisi Qadimgi Ossur davri bo'lib, u m.av. XX-XVI asrlar orasidagi davrni o'z ichiga oladi va u eng Qadimgi Ossur davri deyiladi. Ossuriya tarixinining ikkinchi davri O'rta Ossur podsholigi deb nomlanib, m. av. XVI-XI asrlar oralig'idagi davrni o'z ichiga oladi. Ossuriya tarixinining so'nggi davri m.av. X-VII asrlarni o'z ichiga olib, Yangi podsholik, ayni paytda Buyuk Ossur sultanati deb yuritilgan.

Eng Qadimgi Ossuriya Shimoliy Mesopotamiyaning sharqiy qismidagi uncha katta maydonga ega bo'lmagan yerkarni egallagan edi. Mazkur hududda Nineviya, Arbeli va Ashshur kabi shahar-davlatlar vujudga keladi. Bu shahar-davlatlar tarkibiga ularning atrofidagi qishloq xo'jalik hududlari ham kirar edi. Bu shahar-davlatlarning m.av. III mingyllik oxiri va II mingyllik boshlaridayoq o'zlariga xos siyosiy tashkilotlari bo'lgan. Eng Qadimgi Ossuriyadagi davlatlar Misr va Janubiy Mesopotamiyadagi nomlar va shahar-davlatlarga o'xshar edi. Bu shahar davlatlari orasida yirik va kuchlirog'i Ashshur shahar-davlati bo'lgan. M.av. III mingyllik oxiri va II mingyllik boshlarida Ashshur shu nom bilan ataluvchi qabilalarning xudosi hisoblanib, mazkur qabilalar unga sig'inganlar. Ayni paytda Ashshur xudosi ovchilik va chorvachilikning homiy-ma'budi hisoblangan.

M.av. 2000-yilda Ashshur podsholari Ashshur xudosiga atab ibodatxona qurib, shahar mudofaa devori bilan o‘rab olingan. Shu munosabat bilan bu qadimgi davlatning nomi Ashshur xudosi nomi bilan Ossuriya bo‘lib ketgan. Ma’lumotlarga qaraganda, eng qadimgi Ashshur sulolasining asoschisi m.av. 1979–1961-yillarda podsholik qilgan Puzur-Ashshur I bo‘lgan ekan.

Ashshur aholisi eng qadimda ovchilik va termachilik bilan shug‘ullanib kelgan bo‘lsa, keyingi davrlarda ziroatchilik bilan shug‘ullanganlar. Ular bug‘doy, arpa ekib, uzumchilik bilan ham shug‘ullanganlar. Ular ekinlarni sug‘orishda tabiiy qor-yomg‘ir, buloq va chashma suvlaridan ham unumli foydalanganlar. Keyinchalik esa ziroatkor-dehqonlar Dajla va uning irmoqlari Diyla, Yuqori va Quyi Zab daryolarining unumdor tuproqli vohalarida dastlabki sug‘orish shaxobchalari-kanallar va suv omborlarini barpo qilib, sug‘orma dehqonchilikni yo‘lga qo‘yanlar. Mamlakating sharqiy hududlari xususan, Yuqori va Quyi Zab, shuningdek, Zagros tog‘lari yonbag‘irlari sero‘t yaylovlarga boy bo‘lib, bu joylarda yaylov chorvachiligi rivoj topgan. U yerlarda qo‘y-echki suruvlari, yirik shoxli qoramol podalari, yilqichilik va tuyachilikni ham rivojlantirish uchun imkoniyat mavjud edi.

Ammo ilk ossur jamiyatni hayotida savdo-sotiq muhim ahamiyat kasb etgan edi. Ossuriya davlatining dastlabki davridayoq O‘rtayer dengizining sharqiy sohilidan, Kichik Osiyo va Kavkaz ortidan Dajla daryosi vodiysi bo‘ylab O‘rta va Janubiy Mesopotamiyaga va undan Elamga boradigan juda muhim savdo-karvon yo‘li kesib o‘tgan edi.

Ashshur esa bu savdo yo‘lida mustahkamlanib olish uchun o‘zining savdo manzilgohlarini barpo qilib, ularda mahkam o‘rnashib qolishga intilgan. U yerdan Mesopotamiya uchun zarur bo‘lgan xomashyo mahsulotlari: mis, qo‘rg‘oshin, qalay, kumush, chorva, jun, charm, mato, yog‘och va boshqa narsalar olib ketilgan. U yerga esa don, tayyor kiyimlar va hunarmandchilik mahsulotlari keltirilar edi. M.av. XX–XVIII asrlarda Ashshur savdogarlari Kayseridan 20 km chamasi shimoldagi Kultepa degan joyda mustahkam o‘rnashib olib, atrofdagi mamlakatlar bilan qizg‘in savdo ishlarini olib borganlar.

Kayseri Akkadda Kanish, Xettda esa Kane deb atalgan. Kanish aholisi savdoda vositachi bo'lish bilan birga juda ko'p pul va buyumlarga ega bo'lishgan, shuningdek, ular sudxo'rlik bilan ham shug'ullanganlar. Mazkur joyda tabaqalanish jarayoni ham rivojla-na borgan.

Qadimgi Ossur jamiyati qulchilikka asoslangan bo'lsa-da, unda urug'-aymoqchilik jamoasining ta'siri hali kuchli bo'lgan. Ossur hukmdorlari m.av. III-II mingyilliklardayoq Dajladan sharqda joylashgan shumer-akkadlarning Gasurdagi sobiq manzilgohlarini o'ziga qaratib olgan edi.

Shuningdek. Ossurlar Kichik Osiyoning sharqiy qismida o'z manzilgohlarini barpo qilganlar. U yerda Ossuriya uchun ham Mesopotamiya uchun ham zarur bo'lgan mis, kumush, chorva, teri, jun va qo'rg'oshin serob bo'lgan. M.av. XX–XVIII asrlarda Ashshur savdogarlari Kultepada joylashgan (Kaysaridan 20 km shimolda) qadimgi Kanishda mustahkam o'rnashib qoladilar va u yerda ham o'z manzilgohlarini barpo etadilar. Kanish o'sha davrdagi yirik savdo markazlaridan biriga aylanadi. Mazkur davrda Ossuriya savdogarlari O'rta va Janubiy Mesopotamiya, Elam, Urartu kabi Old Osiyodagi ko'pgina mamlakatlar bilan qizg'in savdo ishlarini olib borgan.

Qadimgi Ossur jamiyati quldorlik jamiyati bo'lib, unda ibridoiy jamoaning ayrim an'analari saqlanib qolgan edi. Ossuriyada podsho yoki saroy va ibodatxonaga qarashli yerlar bo'lib, unda asosan qullar va erkin jamoa kishilar ishlagan. Yerning asosiy qismi xususiy kishilarga qarashli bo'lgan. Shu bilan birga erkin jamoaga tegishli yerlar ham bo'lgan.

Qullar soni qarzdorlar va urushda asir tushgan kishilar hisobiga ko'paygan. Hujjatlar shuni ko'rsatadiki, urug' jamoasi a'zolari 1-2 tadan qulga ega bo'lgan.

M.av. XVI asrgacha bo'lgan davrda Ossuriya davlati "alum Ashshur", ya'ni Ashshur shahri yoki Ashshur jamoasi deb atalgan. Ilk Ossur davlati m.av. III mingyillik oxirlarida Akkad va Urning 3-sulolasi podsholariga itoat etgan.

Ma'lumotlarga qaraganda ilk Ossuriya davlati tepasida podsho turgan bo'lib, podsholik otadan o'g'ilga meros bo'lib o'tgan. Podsho saroyi qoshida nufuzli kishilardan iborat oqsoqollar kengashi faoliyat ko'rsatgan. Davlat ishlari oqsoqollar kengashi bilan maslahatlashib amalga oshirilgan.

M.av. XX–XVIII asrlardan boshlab ancha mustahkamlanib olgach, Ossur qo'shinlari qo'shni viloyatlarga istilochilik yurishlarini boshlagan. Ossur qo'shinlari Janubda Elam, Fors qo'ltig'i mamlakatlari, g'arbda esa Kichik Osiyoning sharqiy viloyatlari va O'rtayer dengizining Sharqiy sohilidagi boy shahar-davlatlar ustiga qo'shin tortib borib, aholisini qirib, ko'plab harbiy o'ljalar va asir tushganlarni qulga aylantirib Ossuriyaga qaytganlar. Ayni paytda Kichik Osiyoning sharqidagi tog'-kon va savdo manzilgohlarini kengaytirganlar. Olib borilgan urushlar bora-bora Qadimgi Ossuriyaning zaiflashuviga sabab bo'lgan. Bu davrda Xammurapi boshliq Bobil podsholigi kuchayib, Ossuriyaga o'z ta'sirini o'tkazgan. Ossuriya ma'lum muddat Bobil podsholigiga qaram bo'lib qolgan.

M.av. XVI–XV asrlarda Qadimgi Ossuriya qo'shni Mitanni davlatining asoratiga tushib qolgan. Mazkur davrda Mitanni davlati kuchayib, Mitanni podshosi Shaushtatar qo'shinlari Ossuriyaga bostirib kirib, Ossur qo'shinlarini tor-mor etgan. Ashshurni vayron qilib, podsho saroyining oltin-kumush qorishmasidan yasalgan darvozasini Mitanniga olib ketgan. Faqat 100 yildan so'ng bu darvoza Ashshurga olib kelgingan.

Shunday qilib, Ossuriya qo'shni Mitanni davlatiga qaram bo'lib qoladi. Ossuriyaning savdo-sotiq ishlari inqirozga yuz tutib, ilgari-gi savdo karvon yo'llaridan mahrum bo'ladi. Shuningdek, Xett podsholigi Ossur savdogarlarini Kichik Osiyodan chiqarib, ularning bu yerdagi manzilgohlari yo'q qilinib, xettlarga o'tib ketadi. Misr Ossuriyani Suriyadan surib chiqaradi. Mitanni esa ularning g'arbga tomon boradigan yo'lini butunlay berkitib qo'yadi.

M.av. XIX–XVIII asrlarda Old Osiyodagi kuchli davlatlardan biri hisoblangan Ossuriya m.av. XV asr o'rtalariga kelib inqirozga yuz tutadi va o'z mustaqillagini yo'qtadi.

O'rta Ossur podsholigi (m.av. XV –XI asrlar). M.av. XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab ossurlar diplomatik yo'l bilan o'zlarining ilgarigi mavqelarini qayta tiklashga harakat qilganlar. Ossur podsholari Bobil, Mitanni va Xett kabi raqiblariga qarshi kуrashmoq uchun Misr fir'avnlari bilan ittifoq tuzgan. Ossuriya podsholari bilan Misr fir'avnlari o'rtasida iliqlik boshlanib, ossurlar Misr fir'avni Tutmos III ga qimmatbaho sovg'alar yuborgan. Ikki davlat o'rtasidagi do'stlik Misr fir'avnlari Amenxotep III va Ex-naton hamda Ossuriya podsholari Ashshur-nadin-exxe II va Ashshur-uballit I davrida ancha mustahkamlangan.

M.av. II mingyillikning ikkinchi yarmida Misrning qo'llab-quvvatlashi natijasida Ossuriya tashqi siyosat sohasida jiddiy yutuqlarga erishgan. Bu davrda Ashshur Ashshur-uballit I Bobil podsholari uyi bilan qarindoshlik munosabatlarini bog'lab bobilliklar taxtida ossurlar tayin qilgan kishi o'tirmog'i kerak bo'lgan.

Adad-nerari I, Salamansar I va Tukulti Ninurti I podsholik qilgani keyingi yuz yil ichida Mитanni davlati ossurlarga qaram bo'lib qoldi. Tukulti-Ninurta I Suriyaga zafarli yurishlar qilib, u yerdan behisob boyliklar va 30 mingga yaqin asirni qo'lga kiritib qaytadi.

Ossuriyaning g'arbdagi g'alabalari Mist bilan Bobilni unga qarshi ittifoq tuzishga olib keldi. M.av. XIII asrda Ossuriya hukmdori Tikulti-Ninurta I davrida Ossur qo'shinlari Bobilga bostirib kirib, katta g'alabani qo'lga kiritadi. Ossur qo'shinlari vatanlariga juda ko'p o'ljalar, asirlar va xudo Mardukning haykalini olib qaytadilar.

Ossur podsholari Kavkazorti qabilalari ustiga ham zafarli harbiy yurishlar uyushtirgan. Salamansar I Nairi yoki Uruatrida zafarli yurishlar olib borib, o'nlab qabilalarni o'ziga itoat ettirgan bo'lsa Tikulti-Ninurta I 43 ta hokimlik ittifoqi qo'shinlarini tor-mor kelтирган.

M.av. XII asrda Ossuriya podsholigi tushkunlikka yuz tutadi. Ammo XII–XI asrlarda podsholik qilgan Tiglatpalasar I (m.av. 1115 –1077) davrida Ossuriya qayta tiklanib, Yaqin Sharqdagi qudratli davlatga aylanadi. Bu davrda Ossuriya podsholari g'arb tomon 30 marta harbiy yurish uyushtirib, uning qo'shini Shimoliy Suriya va

Shimoliy Finikiyani bosib olib, Kichik Osiyoning Janubi-sharqiy chegaralariga bostirib kiradilar. Tiglatpalasar I bu g‘alabalardan so‘ng finikiyaliklarning kemasiga tushib, dengizda delfin ovlagan ekan.

M.av. XI asrga kelib Ossuriya davlati yana tushkunlikka yuz tutgan. Bu davrda Arabiston ichkarisidan Suriya cho‘li orqali ko‘chmanchi semit qabilalari-arameylarning hujumi boshlangan. Bu davrda Arameylar shimoliy Suriya va Kilikiyadagi kichik-kichik Xett podshohlari qo‘sishinlarini, Yuqori Mesopotamiyadagi mayda Mitanni podsholiklarini yengib, mahalliy aholini semitlashtirganganlar. Arameylar Ossuriyaga ham bostirib kirib, ularning qo‘sishinlarini tor-mor etgan. Shu tariqa arameylarning zarbalari tufayli Ossuriya tushkunlikka yuz tutgan va bu tushkunlik salkam ikki yuz yil davom etgan. Mazkur tushkunlik davrida Ossuriya xo‘jaligining hamma tarmoqlari izdan chiqqan va inqirozga yuz tutgan.

7-§. Ulug‘ Ossur harbiy sultanati (m.av. X–VII asrlar)

M. av. I mingyillik boshlariga kelib ishlab chiqarishda yangi ma‘dan-temirdan foydalanish, quruqlik yo‘li va dengiz savdosining muntazam rivojlanishi va nihoyat Yaqin Sharqdagi odamlar yashashiga qulay bo‘lgan joylarda aholi sonining ortishi qadimgi sharq davlatlarining iqtisodiy jihatdan yuksalishiga olib keldi. Mazkur davrda Yaqin Sharqdagi katta-kichik mamlakatlar o‘rtasida iqtisodiy va madaniy-siyosiy aloqalar tiklanadi va rivoj topadi. M. av. I ming yillikda Yaqin Sharqdagi qudratli davlatlar ikkinchi o‘ringa tushib qoladilar.

M.av. X asr oxirlarida Ossuriya yana qaytadan kuchaya boshlagan. Mazkur davrda Yaqin Sharqda Ossuriyaga bas kela oladigan kuchli davlatlar bo‘limganligi unga katta qulaylik tug‘dirgan. Bu davrda Kichik Osiyodagi Xettlar davlati parchalanib, Mitanni ham inqirozga yuz tutgan edi. Bir vaqtlar Ossuriyaga dahshat solgan arameylar birlashgan kuchli davlat barpo qila olmaganlar.

M.av. IX asr boshlariga kelib Ossuriya Shimoliy Mesopotamiyada mustahkamlanib olgach, tashqi mamlakatlarga istilochilik siyosatini boshlab yuboradi. Ossuriyaning istilochilik harbiy yurislari uning podsholari Ashshurnatsipal II (m.av. 883-859) davrida va Salamansar III davrida ayniqsa faollashgan.

Dastlab Ashushrnatsipal II boshliq ossur qo'shinlari shimalga nairi qabilalari ustiga yurish uyuşdırıshgan. Shu davrda Kavkaz or-tida Urartu davlatining shakllanish jarayoni boshlangan edi. Ossur jangchilari Dajla daryosining sharqiy hududlarida yashagan tog'lik Midya qabilalari bilan ayovsiz janglar olib bordi. Ossur qo'shin-lari janubda Bobil qo'shinlari bilan to'qnashib, bobilliklarning shi-moliy chegarasidagi bir qancha joylarni ham bosib oladi.

Ammo Ossuriya podsholari tashqi siyosat sohasida butun e'ti-borlarini O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi mamlakatlarga qaratadilar. Chunki bu mamlakatlar juda boy, xo'jaligi nihoyat-da rivojlangan bo'lib, geografik jihatdan qulay yerga joylashgan edi. Bu mamlakatlarda metall, qimmatbaho va yarim qimmatbaho ma'danlar, qurilish uchun zarur bo'lgan bebahohoy och-o'rmonlar ko'p ediki, ular Yaqin Sharqda mashhur edi. Sharqiy O'rtayer dengizi sohillaridan xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan quruqlik sa-vdo yo'llari o'tgan edi. Savdo-karvon yo'llari bo'ylab Tir, Sidon, Damashq, Bibl, Arvad va Karxemish kabi savdo-hunarmandchilik markazlari joylashgan edi. Bu hudud shu yerdan turib Kichik Osiyoning ichkarisiga, O'rtayer dengizidagi orollarga Yunoniston va Misr tomon istilolar uyushtirish uchun qulay strategik joy hisoblangan. Xuddi shu yo'nalishdan turib Ashshurnatsipal II aso-siy harbiy harakatlarni rejalashtirgan. Ashshurnatsipal Shimoliy Suriyada yashagan arameylarni tor-mor etishga muvaffaq bo'ladi. Ossur qo'shinlari Shimoliy Suriyadagi Bit-Adini knyazligini bosib oladi. Bu g'alabalar natijasida Ossur podsholari Sharqiy O'rtayer dengizi sohili bo'ylab o'tgan karvon-savdo yo'llarini o'z qo'llari-ga kiritadilar. Sohil bo'yidagi ko'pgina Suriya knyazliklari va Fini-kiya shaharlari ham Ossur podshosiga boj-xiroj to'lab turishga majbur etiladi.

Ashshurnatsipal II vafotidan so'ng uning o'g'li Salamansar III otasining bosqinchilik siyosatini davom ettiradi. Salamansar III 35 yillik podsholigi davrida qo'shni mamlakatlarga 32 marta harbiy yurish uyuştiirgan. G'arb tomonda Frot daryosining butun vodiysidan tortib to Bobilgacha bo'lgan yerlarni batamom o'ziga qaratib olish maqsadida Bit-Adinini o'ziga bo'yundirgan. M.av.

856 yili Salamansar III aramey davlatining poytaxti Til-Barsibni egallagan. Til-Barsib Karxemishdan 20 km janubda bo'lib, bu shahar orqali juda muhim harbiy va savdo yo'li o'tgan edi. Mazkur savdo yo'li Mesopotamiyadan boshlanib, Guzana (Til-Xalaf), Xarran, Xadatu, (Arslon Tosh) Aleppo orqali o'tib Suriyaga va undan keyin Kritga hamda Oront vodiysigacha borgan. Shundan so'ng Salamansar III Suriya tomonga yurib yo'l-yo'lakay eng muhim shaharlarni qo'lga kiritishni va O'rtayer dengizi sohiliga chiqadigan muhim savdo yo'llarini egallahni maqsad qilib qo'ygan bo'lsa kerak. Karxemish, Aleppo va Samal hokimlari Ossur podshosiga o'z ixtiyorlari bilan bo'ysunib, uni katta boyliklar-xiroj bilan kutib olgan. Salamansar III harbiy yurishni davom ettirib, Damashqning qattiq qarshiligiga duch kelgan. Damashq podsholigi ossurlarga qarshi kurashish uchun harbiy ittifoq tuzgan. Bu harbiy ittifoqqa Kue, Hamoy, Arvad, Isroil podsholigi, Ammon, Shimoliy Mespotamiya arablari ham qo'shib, janglarda misrlik askarlar ham faol qatnashganlar. Har ikki katta qo'shin Oront daryosi bo'yidagi Karkara yaqinida uchrashgan. Bu dahshatli urush m.av. 853-yilda bo'lib o'tgan.

Salamansar III o'z yozuvlarida ittifoqchilar ustidan g'alaba qozonib Karkarani vayron etdim, jangda dushmanlarimning 14000 jangchisi qirib tashlanib, u yerdan ko'p boylik va asirlar qo'lga kiritildi deb yozgan. Lekin Karkara yonidagi bu dahshatli jangda ossur qo'shnlari juda katta talofat ko'rghanlari tufayli orqaga chekinishga majbur bo'lgan. Oradan birmuncha vaqt o'tib, Frot ortiga o'n yetti marta harbiy yurish uyuşhtirilgandan so'ng m.av. 840-yilda Salamansar III Damashq ustiga 120 ming kishilik qo'shin bilan bostirib kirgan. Bo'lib o'tgan janglarda Damashq podshosi qo'shnlari tor-mor etilib, dushmanlar shaharni qamal etganlar. Ossurlar juda ko'p o'lja va asirlarni qo'lga kiritganlar. Salamansar III shuncha zo'r bergani bilan Damashqni uzil-kesil yenga olmagan. Ammo Ossuriya Damashqni bir qadar kuchsizlantirib, Suriya ittifoqi kuchlarini bo'lib tashlashga erishgan. Isroil, Tir, Sidon Ossur podshosiga bo'ysunib, unga xiroj to'laganlar. Hatto Misrif'avni ham Ossuriya sultanatini e'tirof etib, unga 2 ta tuyu, begeomot va boshqa ajoyib-g'aroyib hayvonlar yuborgan. Salamansar III

navbatdagi harbiy yurishni janubga–Bobil podsholigiga qaratgan. Bobilga katta qo'shin bilan dahshatli yurish qilib, Fors qo'ltig'i qirg'oqlaridagi Dengiz bo'yi o'lkalariiga ham yetib borgan. Ossur qo'shnlari Bobilni ham bosib olib, u yerdan mislsiz boylik va sa-noqsiz asirlar olib qaytgan.

Shimolda Salamansar III yosh Urartu davlati bilan qattiq janglar olib borgan. Dastlabki janglarda ossur qo'shnlari Urartu ustidan g'olib chiqib, uning markaziy shahrini bosib olgan. Urartu podsholari Sarduri va Aramu davrida Urartu kuchayib, Ossuriyaning raqibiga aylangan. Urartu podsholari o'zlarining g'olibona yurishlari tufayli Ossuriyani Kavkazortidan Kichik Osiyo va Shimoliy Suriyadan ajratib qo'yishga muvaffaq bo'lganlar. Bu hol Ossuriyaning kuchsizlanishiga olib kelgan. Kuchlar nisbati Urartu podsholari tomonga o'tib o'zgargan.

Shunday qilib Ossuriya o'zining Old Osiyoning shimoliy qismidagi hukmronlik mavqeyini yo'qotib, endi bu o'rinni Urartu podsholigi egallagan.

M.av. VIII asr oxirida Ossuriya podsholigining tushkunlikka yuz tutishi. M.av. IX asrning oxiri va VIII asrning birinchi yarmilariga kelib Ossuriya og'ir iqtisodiy va siyosiy inqirozga uchraydi. Ossur podsholari IX asrda olib borgan uzlusiz urushlar xo'jalikning hamma tarmoqlariga salbiy ta'sir etgan. Urushlar natijasida aholining bir qismi janglarda halok bo'lib, mamlakatda ishchi kuchi kamayib ketgan va mayda ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi ham izdan chiqqan. Aholining boshqa tomonlarga ko'chib ketishi, hosilsizlik, har xil yuqumli kasallik, ichki siyosiy bo'hron va kelishmovchiliklar mamlakatning turli burchaklarida katta-kichik qo'zg'ololnarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Ossuriya bosib olgan o'lkalarda esa mustaqillik uchun kurash qizg'in tus oldi. Mamlakat ichidagi siyosiy, diniy, harbiy va savdo-sotiq guruhlari o'rtasidagi o'zaro kurash ham kuchaydi. Ayni paytda mamlakatdagi mahalliy hokimlar markaziy hokimiyatga itoat etmay qo'ydilar. Podsholikka olinadigan og'ir soliqlar mehnatkash xalqning tinkasini quritadi. M.av. XIII asr boshlariga kelib shimolda vujudga kelgan yosh Urartu podsholigi Old Osiyoda siyosiy jihatdan ustunlikka ega bo'lib, Ossuriya kuchsizlanib inqirozga yuz tutishida asosiy omillardan biri bo'ldi.

8-§. Yangi Ossur podsholigi davri (m.av. X-VII asrlar)

M.av. X-IX asrlarda Ossuriyaning iqtisodiy va harbiy jihatdan yuksalishi. M.av. I mingyllik boshlarida Yaqin Sharqdagi ahvol. M.av. I ming yillikda temirdan keng foydalanishi natijasida Qadimgi Sharq davlatlarida iqtisodiy yuksalish, quruqlik va daryo savdo yo'llarida jonlanish jarayoni kuzatilgan. Yaqin Sharqdagi davlatlar orasida yaqin iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqalar kuchaytirilgan va kengaygan.

Mazkur davrda Qadimgi Sharq davlatlarida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jihatdan rivojlanish jarayoni notejis bo'lgan. Bu davrga kelib Xett, Mitanni kabi podsholiklar mayda davlatlarga bo'linib, boshqa kuchli davlatlar tarkibiga kirib nom-nishonsiz yo'qolganlar. Bu davrda Misr, Bobil kabi davlatlar ichki va tashqi jihatdan tushkunlikka uchrab, Ossuriya kabi kuchli davlatlar ta'siriga tushib qolganlar. M.av.I ming yillikda Yaqin Sharqda Urartu, Kush, Lidiya, Midiya va Fors kabi yangi "yosh davlatlar" tarix sahnasida paydo bo'ladilar.

Frakiylar, frigiylar, kariylar, arablar ayniqsa kimmeriylar va skiflar Yaqin Sharq dunyosining an'anaviy siyosiy hayotida faol ishtirok etadilar. Yaqin Sharqdagi davlatlar o'rtaida buyuk harbiy davlat maqomini tolish uchun qizg'in kurash avj oldi.

Buyuk harbiy davlati maqomiga erishishiga intilgan davlatlarning biri Ossuriya edi.

Bosqinchilik siyosati faollashishining sababları. M.av. II mingyllikdayoq Ossuriya Yaqin Sharqdagi eng yirik davlatlardan biri bo'lgan edi. Ammo yarim ko'chmanchi aramey qabilalarining Ossuriya ustiga bostirib kirishlari uning taqdiriga juda katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Arameylar tomonidan Ossuriya shaharlari va qishloqlarining vayron etilishi natijasida xonavayron bo'lgan aholi tog'lik hududlarga qochib borib yashirinishga majbur bo'lgan. Aramey qabilalarining ketishlari natijasida Ossuriyaning shahar va qishloqlari vayron etilib, xo'jalikning hamma tarimoqlari izdan chiqadi. Bir vaqtlar qudratli bo'lgan Ossuriya davlati og'ir damlarni boshidan kechirib inqirozga yuz tutadi va harbiy jihatdan nochor ahvolga tushib qoladi. M.av. X asrga kelib Ossuriya asta-sekin

oyoqqa turib, temir qurollardan xo'jalikning hamma tarmoqlari va harbiy maqsadlarda foydalanishi oqibatida uning xo'jaligi qayta rivoj topib, harbiy salohiyati oshdi. Ossuriya o'zining iqtisodiy va harbiy salohityatini tiklab, mamlakatda siyosiy markazlashish jarayoni barqaror mustahkamlana bordi.

M.av. X–VII asrlarda Ossuriya o'z tarixining yangi bosqichiga Yangi Ossur podsholigi davriga qadam qo'ydi.

Ossuriya o'z xo'jaligi va harbiy salohiyatini qayta tiklab olgach, qo'shni mamlakatlarga harbiy yurishlarni uyushtirish imkoniyatiga ega bo'ldi. Ossuriyaning harbiy yurishlardan maqsadi Old Osiyodagi quruqlik va dengiz savdosи yo'llarini qo'lga kiritib, ular ustidan kuchli nazorat o'rnatish va savdo-sotiqdan tushadigan katta boylikka ega bo'lish edi. Old Osiyodagi serqatnov savdo yo'llariга ega bo'lish Misr, Bobil, Urartu va boshqa davlatlar siyosatining asosini tashkil etardi. Shu bois Ossuriya bu borada o'zining kuchli raqiblari mavjudligini bilar va ular bilan g'olibona urushlar olib borishi muqarrar edi. Shuningdek, urush Ossuriyaning ichki siyosatida ham muhim ahamiyatga ega edi. G'olibona urushlar mamlakatga katta boylik keltirish bilan birga afkor ommani mamlakat ichki ishlaridagi ijtimoiy masalalardan chalg'itardi xolos.

M. av. IX asrda Ossuriyaning bosqinchilik siyosati. IX asr boshlariga kelib Ossuriya davlati kuchayib shimoliy Mesopotamiyada o'zining mavqeyini tiklab olgach tashqi bosqinchilik siyosatini boshlab yuboradi. Ossuriyaning harbiy bosqinchilik siyosati ayniqsa Ashshurnazirpal II (m.av. 883–859) va Salamansar III (m.av. 859–824) davrida faollashadi.

Ashshurnazirpal davrida ossur qo'shinlari shimoldagi Nairi qabilalari bilan g'olibona urushlar olib boradi. Bu davrda Urartu davlatining shakllanish jarayoni boshlangan edi. Ossur qo'shinlari Dajla daryosidan sharqdagi tog'li Midya qabilalari bilan janglar olib borganlar. Ossur qo'shinlari Bobil qo'shinlari bilan olib borilgan urushlar natijasida bobilliklarning shimoliy hududlaridagi yerlarini egallaydi. Shundan so'ng Ossur podsholari o'zlarining harbiy harakatlarini g'arbga–Sharqiy O'rtayer dengizi qirg'oqlariga qaratadilar.

Tiglatpalasar III islohotlari va Ossuriyaning uchinchi yuksalishi. M.av. 746–745-yillarda Ossuriyada vaziyat keskinlashib. Kalxa shahrida qo‘zg’olon boshlanadi. Mamlakatdagi norozilik va qo‘zg’olonlardan foydalangan harbiylar yangi sulola vakili Tiglatpalasar III ni shoh etib ko‘taradilar. Tiglatpalasar III Ossuriya taxtiga o‘tirgach, mamlakat kuch-qudratini mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan islohotlar o‘tkazishga kirishadi.

Ossuriya davlati o‘sib, kuchayib borishi bilan uning qo‘l ostidagi o‘lkalarni ham, istilo qilingan mamlakatlarni ham puxtarоq idora qilish zaruriyati tug‘ila borgan. Atrofdagi subariy, ossur va aramey qabilalarining yagona ossur xalqi bo‘lib birgalashib qorishib ketishi qadimiy qabilaviy va urug‘chilik aloqalarining buzilib ketishi-ga sabab bo‘lgan. Bu esa mamlakatni ma’muriy jihatdan yangidan taqsimlash zaruriyatini keltirib chiqargan. Ossur askarlari istilo qilgan uzoq o‘lkalarda tez-tez qo‘zg’olonlar bo‘lib turgan. Shu sababli Tiglatpalasar III podsholik qilgan davrda katta-katta eski o‘lkalar hududi kichikroq yangi okruglarga bo‘linib, ularga maxsus amaldorlar (bel-paxatilar) boshliq qilib qo‘yilgan. Davlatning be-poyon hududini idora qilish uchun podshoning “topshiriqlarini ijro qiladigan maxsus amaldorlar” (bel-pikittilari) bo‘lgan. Bu amaldorlar yordami bilan juda katta davlatning hamma idora ishlari podsho saroyida istiqomat qiluvchi mustabid shoh qo‘lida to‘plangan.

Yangi Ossur podsholigi davrida davlatni boshqarish uchun markazlashgan idora talab qilingan. Mazkur davrda Ossuriyada podsho oliv bosh ruhoni hisoblanib, diniy marosimlarni uning o‘zi o‘tkazgan. Podsho qabuliga kirgan amaldor-zodagonlar podshoning oyog‘iga yiqilib, “yer o‘pishlari” yoki uning oyog‘ini o‘pishlari lozim bo‘lgan. Shuni ta‘kidlash joizki, Ossur davlati juda kuchaygan davrda ham ossur podshosi har bir ishda ruhoni-kohinlardan maslahat so‘rab ish yuritgan.

Tiglatpalasar III ning muhim islohotlaridan biri harbiy ishlarni qayta tashkil etishdan iborat bo‘lgan. Ilgarigi ossur podsholari mamlakatning erkak kishilaridan tuzilgan xalq lashkarlari yordami bilan joylarda urushlar olib borar va katta-kichik qo‘zg’olonlarni bostirar edilar.

Tiglatpalasar III bilan Sargon II podsholik qilgan davrda harbiy islohotlar o'tkazilib, natijada Ossuriya davlatida harbiy ishlar qaytadan qurilgan. Ossur podsholari ko'p sonli, yaxshi qurollangan va kuchli muntazam qo'shin tuzib, davlat hokimiyatining butun apparatini harbiy ehtiyojlarga xizmat qildirgan. Ossuriyaning ko'p sonli qo'shini bosib olingen o'lka va mamlakatning erkin aholisi bilan to'ldirib turilgan. Har bir viloyat boshlig'i o'z qo'l ostidagi yurtdan askar to'plab, bu askarlarga viloyat boshlig'ining o'zi qo'mondonlik qilgan. Mazkur davrda Ossuriyada maxsus "muntazam qo'shin" tuzilib, bu qo'shinga "podsho bo'linmasi" deb nom berilgan. Bu qo'shin isyonlarni bostirish uchun xizmat qilgan. Shuningdek, Ossuriyada podshoning shaxsiy gvardiyasi ham bo'lib, bu gvardiya podshoning "muqaddas shaxsini" qo'riqlashi lozim bo'lgan. Yozma manbalarda 50 kishidan iborat kichik-kichik askariy bo'linmlar (kisru) bo'lганligi haqida ma'lumotlar bor. Ossuriya askariy qismlarida piyodalar, suvoriylar hamda jang aravasi mingan askarlar bo'lgan. Ossur qo'shini tuzilmasida 200 piyoda askarga 10 ta otliq suvoriy va bitta jang aravasi mingan jangchi to'g'ri kelgan. Shuni aytib o'tish joizki ossur qo'shirlari tarkibida tuyu mingan jangchilar ham bo'lgan.

M.av. IX asrda podsholik qilgan Ashshurbanipal zamonida ossur qo'shirlarida jang aravalari va otliq qo'shirlaridan unumli foydalanilgan. Ossur askarlarining asosiy qismi piyoda askarlardan iborat bo'lib, ular qurol-yarog' bilan yaxshi ta'minlangan. Piyoda askarlar kamonchilar, qalqonchilar, nayzabozlardan tashkil topgan edi. Qo'shining asosiy qurol-aslahasi sovut, qalqon, dubulg'a, kamalak, kalta qilich va nayzalardan iborat bo'lgan. Ossur podsholari o'z qo'shirlarini yaxshi qurollantirishga juda katta e'tibor berganlar. Sargon II ning Ashshurdagi saroyi kavlanganda arxeologlar u yerdan juda ko'p qurol-yarog'lar topishgan. Ossur qo'shirlari o'z davrida qal'a devorlarini buzish uchun ishlataladigan maxsus moslamalarga ham ega bo'lganlar. Qo'shirlar o'nlik, ellilik, yuzlik va ming kishidan iborat qismlarga bo'lingan. Ularning har birining o'z belgisi va bayroqlari bo'lgan.

Bayroqlarga xudo Ashshur va urush xudolarining tasviri tushirilgan. Ba'zi manbalarda ossur qo'shinlarining soni 120 000 kishi deb ko'rsatilgan. Qo'shinda intizom juda qattiq bo'lib, jangchilar, qo'shin boshliqlari va sarkardalar o'z vazifalarini sidqidildan bajarish uchun qasamyod ham qilganlar.

Ossuriya sultanatining gullab-yashnashi. Ossuriya sultanating qudratli davlatga, uchinchi va eng yuqori pog'onaga ko'tarilgan davri m.av. VIII asrning 40-yillaridan m.av. VII asr 40-yillarining oxiriga to'g'ri keladi. Ossuriya VIII asr o'rtalarida yanada kuchayadi. Ayniqsa Tiglatpalasar III (m.av. 745–722) o'zidan oldin o'tgan podsholarning istilochilik siyosatini davom ettirib, Ossuriyani Sharqdagi yagona mustabid davlatga aylantirishni maqsad qilib qo'ydi. Tiglatpalasar III istilochilik yurishlarini boshlab, 743–740-yillarda shimoliy Suriya va kichik osiyoliklardan iborat Arpad ittifoqi qo'shinlarini tor-mor etadi.

Tiglatpalasar III qo'shinlari m.av. 738–735-yillarda Urartu ustiga yurishlar qilib, urartlar yurtidan ko'p o'ljalar va asirlar olib qaytadi. M.av. 734–732-yillarda Ossuriyaga qarshi Damashq va Isroi podsholari, shuningdek, sohil bo'yi arab knyazliklari va Edem harbiy ittifoqi tuziladi.

Ittifoqchilar bilan bo'lgan janglarda Ossuriyaning qo'li baland kelib, Ossuriya sharqiy O'rtayer dengizi sohilida mustahkamlanib oladi. M.av. 737-yili Tiglatpalasar III Midiyada mustahkamlanib olgach, Bobil ustiga qo'shin tortib uni ham egallaydi.

Bu g'alabalar Ossuriyani Old Osiyodaga eng katta qudratli davlatga aylantiradi. Bu davrda Ossuriya davlati tarkibiga Mesopotamianing katta qismi. O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi joylar, shuningdek, Midiyaning qator hududlari itoat etar edi.

Yilnomachilarining keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, Ossur podsholari, sarkardalari rahbarligidagi jangchilarining rahmsizligi va qonxo'rligi, urushda hech qachon insonparvarlik ko'rsatmagan boshqa Qadimgi Sharq qo'shinlarining barcha jabr-zulmlaridan oshib o'tib ketgan. Ossurlar mag'lub bo'lgan dushmanlarni eng vahshiyona usullar bilan jazolaganlar. Bu Ossuriyada eng oddiy va

qonuniy ish hisoblangan. O'sha davr yilnomachilar va rassomlari mag'lublarga nisbatan ishlatalgan jabr-zulm va jazolarni butun tafsilotlari bilan tasvirlaganlar. Tirik kishilarning terisini shilib olish, ko'zini o'yish, lab va iyagini teshib arqon o'tkazish, dorga osish, qoziqqa o'tqazish va shu kabi boshqa razil ixtiolar bo'ysundirilgan xalqlarni jazolash va qo'rqtishning tabiiy usuli hisoblangan. Bugina emas, ossur jangchilari, sarkardalari va podsholari asirga tushgan o'z dushmanlarini shahar darvozalari oldiga to'plab, ularni yoqib yuborganliklari ham ma'lum. Ammo bu jabr-zulmlar va razilliklar ossur qo'shinlari bosib olgan o'lka xalqlarini tiz cho'ktira olmagan. Yengilgan va xonavayron qilingan o'lka xalqlarining ossur hukmronligiga qarshi ommaviy chiqishlari va qo'zg'olonlari to'xtamagan. Qo'shni mamlakatlarning shafqatsiz talanishi qattiq qarshiliklarga sabab bo'lgan va bir o'lkaning xalqlari mustaqillik uchun qayta-qayta bosh ko'tarib chiqqanlar.

Keyinchalik mamlakat ichidagi nizolar, qo'zg'olonlar va qo'shni mamlakatlardagi g'alayonlar vaqtinchalik gullab-yashnagan Ossuriyaning asta-sekin zaiflashuviga olib kelgan. Bu vaziyatdan foydalangan qo'shni davlatlar, xususan, Yangi Bobil podsholigi Midiya podsholigi bilan harbiy ittifoq tuzib, VII asr oxirlarida Ossuriya davlati va podsholigini yanchib yo'q qilib tashlagan. Bu voqeanning tafsiloti shunday bo'lgan: Yangi Bobil podshosi Nabopalasar Midiya podshosi Kiaksar bilan ittifoq tuzib, dastlab m. av. 614-yilda ittifoqchilar qo'shini Ashshurga, 612-yili esa ikki tomondan shiddatli hujum boshlab, har ikki shaharni vayron qilgan. Ossurlarning qolgan-qutgan askarlari g'arbga Xarran va Karxamishga chekinganlar. Ossurlar Misr fir'avni bilan ittifoq tuzib, mag'lubiyatdan saqlanib qolishga umid bog'lagan. M.av. 605-yilda Bobil-Midiya qo'shinlari Ossuriya-Misr qo'shinlarini Karxamesh yonida bo'lgan dahshatli jangda batamom tor-mor keltirgan. Shunday qilib bir vaqtlar Old Osiyo xalqlarini dahshatga solgan Ossuriya davlati inqirozga uchragan va barham topgan.

9-§. Qadimgi Mitanni davlati

Qadimgi Mitanni davlatining geografik o'rni, tabiiy sharoiti va aholisi. Qadimgi Mitanni janubi-g'arbiy Osiyodagi quldorlik davlatlaridan biridir. Bu qadimgi davlat Mesopotamiyaning shimoliy va shimoli-g'arbiy qismida joylashgan. Uning yer usti tuzilishi shimolda tog'lik va qir-adirliklardan, g'arbiy qismi ham tog'liklardan iborat. Janubiy qismi esa Mesopotamiya pasttekisliklari bilan tutashib ketadi. Mamlakat g'arbidan Frot daryosining Xabur va Belix irmoqlari oqib o'tadi. Sharq tomonidan esa quyi Zab, yuqori Zab, Dajla va uning irmoqlari oqib o'tadi. Mitannining obi-havosi quyi Mesopotamiyaga nisbatan biroz boshqacha, yozi mo'tadil, qishi xiyla sovuqroq.

Uning tog'lik joylari ossuriyaliklarniki singari o'tloq-yay-lovlarga ancha boy bo'lgan. Mitanni yerlarining qulay geografik muhiti qadim zamondan o'rta paleolitdan boshlab ibridoiy odamlar diqqatini jalb qilgan. Yuqori va quyi Zab daryolari vodiysida o'rta paleolit makonlarining topilishi fikrimiz dalilidir.

Mitanni aholisining asosiy qismini xurritlar tashkil etib, keyinchalik ular ossurlar, amoriylar va boshqa xalqlar bilan aralashib ketgan.

Mitannining eng qadimgi ibridoiy aholisi hududning tabiiy sharoitidan kelib chiqib, dastlab termachilik va ovchilik bilan shug'ilangan. Keyinchalik bu yerdagi aholi dehqonchilik, chorvachilik xo'jaligini o'rganib, so'ng bu joylarda hunarmandchilik ham rivoj topib, ishlab chiqarish xo'jaligi tashkil topa boshlagan.

Mitanni yerlaridan shimol bilan janubni, sharq bilan g'arbni birlashtiruvchi muhim savdo yo'llari o'tgan. Mazkur savdo-sotiq yo'llari Mitanni aholisining xo'jaligida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va nihoyat savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida Mitanni aholisi orasida xususiy mulk, mulkiy tengsizlik, kishilar orasida tabaqalanish jarayoni yuz berib, ilk davlatning barpo etilishi uchun shart-sharoit vujudga kelgan.

Dastlab bu joylarda urug'-aymoq jamoalari tashkil topib, bir necha o'n urug' jamoalari birlashib qabila jamoasini tashkil etg'anlar. Tarixiy zaruriyat esa bir necha qabilalarni birlashib qabilalar ittifoqi barpo bo'lishiga olib kelgan. Va nihoyat qabilalarning o'zaro birlashuvi natijasida dastlabki davlat qaror topgan.

Bu jarayon Mitanni hududida m.av. XX–XVIII asrlarda sodir bo'lgan bo'lishi mumkin. Tarixchi, arxeolog olimlarning farazlariga ko'ra m.av. XVII–XVI asrlarda bu hududda ilk Mitanni davlati tashkil topgan. M.av. XVI–XV asrlarda Mitanni Old Osiyodagi kuchli davlatlardan biriga aylanadi.

Mitanni davlatining kuchayishi va istilochilik yurishlari. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, m.av. XVI–XV asrlar Mitanni davlatining kuch-qudrat jihatdan gullagan davriga to'g'ri keladi. Bu davrda Mitanni podsholari faol istilochilik urushlarini olib borib, Ashshur, Niniviya shaharlarini, shuningdek, Ossuriyaning bir qism yerlarini ham bosib oladi. Mitanni qo'shnlari sharq va janubi-shraqda Zagros tog'lari orasida yashovchi tog'lik gutey va lulubey qabilalari yerlarini ham bosib oladilar.

M.av. XVI–XV asrlarda Mitanni xettlar bilan g'olibona urushlar olib borib, Kichik Osiyoning sharqiy hududlari, Suriya, Finikiya va hatto Falastinga ham kirib borib ularga o'z ta'sirini o'tkazadi. M.av. XVI asrda Mitanni davlati ta'sir doirasining Old Osiyoda osha borishi uning atrofidagi davlatlarning e'tiborini o'ziga tortmay qo'ymas edi. Xususan, O'rtayer dengizi sharqiy sohillarini bosib olishga intilayotgan Misr fir'avnlari bilan Mitanni podsholari o'rtasida kuchli to'qnashuvlarga olib keldi. Mazkur davrda har ikki davlat o'rtasida Old Osiyoda ustunlikka ega bo'lish uchun qizg'in kurash boshlandi. Misr qo'shnlari Tutmos I boshchiligidagi Frot daryosi bo'yigacha yetib kelib, Mitanni chegarasiga g'alaba toshini o'rnatdi. Tutmos III davrida Misr qo'shnlari Frot daryosini kechib o'tib, Mitanni qo'shnlari bilan g'olibona urushlar olib borib Mitanni podshosi va qo'shnlarini orqaga chekinishga majbur qiladilar. Tutmos III ham Mitanni chegarasiga g'alaba toshini o'rnatadi. Ammo misrliklar o'z g'alabalarini oxiriga yetkazmaganlar. Tutmos III yana bir necha bor harbiy yurishlar uyushtirib, u yerda bosh-

langan qo'zg'olonlarni bostirishga urinadi. Ammo o'sha davrdagi Old Osiyo va Yuqori Misrdagi siyosiy voqealar Misr qo'shinlariga Mitannini butunlay bosib olishga inkon bermaydi. Ikki orada sulk tuzilib Mitanni o'z mustaqilligini saqlab qoladi. Hatto Misr bilan Mitanni o'rtasida m.av. XV asrda Misr Old Osiyodagi bir qator davlatlar bilan juda mustahkam savdo va diplomatiya munosabatida bo'lgan. Ayrim davlatlar o'rtasida bo'ladigan muzokaralar elchilar yordami bilan olib borilgan. Bu muzokaralar natijasida ko'pincha harbiy-siyosiy ittifoq va bitimlar tuzilgan. Siyosiy ittifoqlar, chunonchi Misr bilan Mitanni o'rtasidagi ittifoq kabi ko'pincha sulolaviy nikohlar yo'li bilan ham mustahkamlangan.

Mitanni podshosi bir xatida Misr fir'avniga chegara shaharlarni almashtirishni taklif qilgan. Mazkur davrda Kichik Osiyoning sharqida kuchli Xett podsholigi tashkil topgan. Xett podsholigi qo'shni Mitanni viloyatlari va avval Misr qo'l ostida bo'lgan shimaliy Suriya yerlari hisobiga o'z davlati chegaralarini kengaytirishga intilgan. Xett davlatining kuchayishi birinchi navbatda Mesopotamiyaning shimalidagi Mitanni podsholigi uchun va Misrning Suriyadagi yerlari uchun ham xatarli bo'lgan. Xettlarning istilo qilish xavfi aniq bo'lib qolgach, Mitanni va Misr podsholari bosh ko'tarib kelayotgan dushmanni birgalikda qaytarish maqsadida birlashganlar.

Misr bilan Mitanni o'rtasida ittifoq tuzilib, bu ittifoq bir necha sulolaviy nikohlar bilan mustahkamlangan. Mitanni podshosi Tushrattining Misr fir'avni Amenxoteb III ga yozgan xatlarida pirovardida Misr bilan Mitanni o'rtasida juda ham mustahkam munosabatlar o'rnatilishiga olib kelgan muzokaralarning ayrim bosqichlari ravshan va jonli qilib tasvirlangan. Misr Amenxotep III ning podsholik qilgan zamonida uzoq Suriyadagi o'z yerlarini xettlarning istilosidan himoya qilmoq uchun yetarli harbiy kuchga ega bo'lмаганидан Mitanni yordamiga tayanishga majbur bo'lgan. Mitanni podsholigi esa do'stligi va yordami uchun oltin talab qilgan. Tutmos IV va Amenxoteb III Mitanni podshosi qizlariga uylanar ekan, ular o'rtasida o'zaro do'stlik aloqalari o'rnatilib, ular bir-birlariga sovg'a-salomlar yuborib turadilar. Ammo ikki davlat o'rtasidagi do'stlik rishtalari uzoqqa bormaydi.

M. av. XV asr oxirlarida Misr kuchsizlanib qoladi. Bu vaziyatdan foydalangan Mitanni qo'shnlari shimoliy Suriya va Biblga bostirib kirib, Falastinni ham ishg'ol qiladi. Bu davrda Misr bilan Ossuriya Mitanniga qarshi ittifoq tuzadilar. O'z o'mida Mitanni ham Ossuriya-Misr ittifoqiga qarshi Bobil bilan ittifoq tuzadi. Mazkur davrlar ichida Xett davlati kuchayib, Xett qo'shnlari Mitanniga bostirib kirib, Mitanni qo'shnlarini tor-mor etadi. Bu davrda Mitanni podshosi saroyida fitna-fujur ko'payib, nihoyat Mitanni podshosi o'ldiriladi.

Shimoldagi Alba bilan Ossuriyaning birlashgan qo'shnlari Mitanni qo'shnlariga zarba berib, uning shimoldagi yerlarini bosib oladilar. Bu vaziyatdan foydalangan Xett podshosi qo'shnlari Mitannini ishg'ol qiladilar. Xett podshosi Tushrattining o'g'li Shattivasni taxtga o'tqazib, unga o'z qizlaridan birini nikohlab beradi.

M.av. XIV asrning ikkinchi yarmida Mitanni Xettlarga tobe bo'lib qoladi. Xettlar yordamiga tayangan Mitanni podshosi qo'shnlari Ossuriyani bosib olish uchun ularga qarshi kurash boshlaydi. Ammo jangda Mitanni qo'shnlari mag'lubiyatga uchrab, podsho oilasi bilan ossurlar qo'liga asir tushadi. Mazkur janglar natijasida Mitanni poytaxti Vashshukan ossur qo'shnlari tomonidan ishg'ol qilinadi. Keyingi janglar natijasida Ossuriya qo'shnlari Mitanni qo'shnlarini batamom mag'lubiyatga uchratadi. Urushlar natijasida Mitanni mamlakati vayron qilinib, janglarda juda ko'p mitanni askarlari va oddiy aholi qirg'inbarot qilinadi. 15 mingdan ortiq kishi asir olinib, Ossuriyaga haydab ketiladi. Ossuriyaning ketma-ket bergen zarbalari natijasida Mitanni zaiflashib, mayda davlatchalarga bo'linib ketadi.

Keyinchalik Mitanni Ossuriyaning ta'siriga tushib, davlat sifatida tarix sahnasidan tushib ketadi.

Mitanni davlatining ijtimoiy tuzumi va xo'jaligi. M. av. XVI asrdan XIII asrgacha yashagan Mitanni Old Osiyodagi davlatlar singari quldorlikka asoslangan davlat edi. Mitanni podsholigining ijtimoiy munosabatlari haqida ma'lumotlar juda oz saqlanib qolgan. Ular haqida qadimgi Nuzu va Arrapxi qal'alari qazilishi natijasida topilgan yozma arxivlar ibodatxona va saroy xo'jaliklari haqida

ba'zi ma'lumotlarni beradi. Podsho xo'jaliklari kattaroq bo'lib, yozma arxiv ma'lumotlariga ko'ra uning otxonalarida ko'plab otlar, molxonalarida yuzlab yirik va mayda shoxli sigir, buqa, buzoq, qo'y-echki, cho'chqalar boqilgan. Shuningdek, mamlakatdagi katta-katta haydalgan yerlar, bog'lar va o'rmonlar podsho oilasi a'zolariga qarashli bo'lgan. Podsho xo'jaligidagi ishlarni saroy qullari, erkin-ozod cho'ponlar, hunarmandlar va dehqonlar navbat bilan bajarganlar.

Mitanni podsholigining ijtimoiy tuzumida hududiy jamoalar, qishloq (salu), katta oilali uy jamoalari "dimtular" katta o'rinni tutgan. Yer katta oilali jamoaning mulki hisoblangan. Jamoa savdogarlar, to'quvchi, dehqon va boshqa kasbdagi kishilardan iborat bo'lgan. Mulkiy tengsizlik va ijtimoiy tabaqalanish jamoaning buzilishiga olib kelgan. Qarzdorlik va sudxo'rlik xurrit jamiyatidagi kambag'allarga emas, balki o'rta tabaqalarning ham xonavayron bo'lishiga olib keladi. Mitannida qo'lga tushgan asirlar qulga aylantirilgan. Qarzdorlik ham qulga aylantirishning bir shakli bo'lgan. Mamlakatda qullarni ma'lum muddatga sotish ham keng tarqalgan edi. Mitannidagi qulchilik patriarchal xususiyatga ega bo'lib, ular ba'zi huquqlarga ega edilar. Ular cho'rilargagina emas, ozod ayol-larga ham uylanishlari mumkin bo'lgan. Qullar mehnatidan ishlab chiqarish xo'jaligining barcha tarmoqlarida, ya'ni bog'dorchilikda, mol boqishda, to'quvchilikda, kulolchilik, kir yuvish, yuk ko'tarish, non yopish va boshqa sohalarda foydalanish mumkin bo'lgan. Saroyda ishlaydigan qullar podsho oilasiga ancha yaqin bo'lgan va ular podsho oilasidan katta-katta sovg'alar olib turgan. Ular podsho saroyida kotiblik lavozimini ham egallar edilar. Shuningdek, qullar ma'lum muddatga ijaraga berilgan, sotilgan va sotib olingan. Qochqin qullar qattiq jazolangan.

Davlat tepasida podsho turib, u vafot etgan taqdirda taxt otadan bolaga yoki aka-ukalarga meros bo'lib o'tgan. Viloyatlarni podsho tomonidan tayinlagan "xazannu" – qishloq boshlig'i, amaldori boshqargan. Mitanni podsholigining asosiy kuch-qudrati og'ir va yengil aslahalar bilan qurollangan xalq lashkari, ot qo'shilgan jang aravalardan iborat bo'lib, jang aravalarini "maryanni" degan ara-

vachi-zodagonlar boshqarganlar. Miatnniliklar jang aravalari ni boshqarishning mohir ustalari bo'lishgan. Xettlar va ossurlar ot qo'shilgan jang aravalarda jang qilishni mitanniliklardan o'rganganlar.

Mitanni davlati egallagan yerlar tog'lik, qisman tekisliklardan iborat bo'lib, chorvachilik va lalmi dehqonchilik rivojlanishiga imkon bergen. Mitannida yilqichilik ham yuksak darajada rivoj topib, mitannilik Kikkuli yilqichilikka oid ilmiy asar yozgan. Mamlakatning bir qismi tog'lik bo'lganligi uchun u yerda mis, qo'rg'oshin, toshlar va o'rmonlar mavjud bo'lgan. Bu boyliklar mamlakatda ma'dansozlik va qurilish ishlarini rivojlantirish imkonini bergen. Mitanni dehqonlari mamlakatdan oqib o'tadigan Frot daryosining Xabur va Belix, Yuqori va Quyi Zab, Dajla va uning irmoqlari oqib o'tadigan serunum yerdalarda sug'orma dehqonchilik bilan, suvsiz qir-adirlarda lalmi-bahorikor dehqonchilik bilan shug'ullaniganlar. Dehqonlar asosan bug'doy, arpa, no'xat, kunjut, sabzavot ekkan. Tog'oldi hududlarida esa olma, nok, xurmo va boshqa mevali daraxtlarni ekib, bog'dorchilik bilan ham shug'ullaniganlar. U yerda sabzavotchilik ham yaxshi rivoj topgan. Mitanni bog'bonlari tok ekib uzumchilikka ham katta e'tibor bergenlar. Mitanni aholisi yirik shoxli qoramol-sigir, buqa, ho'kiz va buzoqlar, shuningdek, qo'y-echki kabi mayda shoxli chorva bilan ham shug'ullaniganlar. Mitanni tog'lari chorva uchun o't-o'lanlarga boy bo'lgan. Chorvaning hamma turi tog' yaylovlarida boqilgan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, Mitannida yilqichilik yuksak darajada rivojlangan bo'lib, mitanni otlari butun Old Osiyoda mashhur bo'lgan.

Kulolchilik, to'qimachilik, temirchilik, zargarlik, qurolsozlik va hunarmandchilikning boshqa tarmoqlari yaxshi rivojlangan edi.

Mitanni podsholigi Kavkazoti va Old Osiyoning markazida joylashgan bo'lib, bu yerdan to'rt tomonga o'tadigan yirik savdo yo'llari mamlakat uchun juda katta iqtisodiy, siyosiy va harbiy ahamiyatga ega edi. Mitanni podsholari shu yo'llar orqali Janubiy Mesopotamiya, Misr, O'rtayer dengizi sohilidagi boy mamlakatlar, Ossuriya, Urartu va Xettlar bilan qizg'in savdo ishlari olib borar edilar.

Mitanni davlati avvalo Janubiy Mesopotamiya xalqlari, qolaveisa O'rtayer dengizingin sharqiy sohilidagi mamlakatlar, shuningdek, Misr madaniyatidan bahramand bo'lgan.

10-§. M.av. II mingyilik oxiri I ming yillik boshlarida Yangi Bobil podsholigi

M.av. XII–VII asrlarda Mesopotamiyadagi siyosiy ahvol. M. av. XIII asr oxirlarida Bobilda iqtisodiy va siyosiy tushkunlik yuz bera boshladi. Bu vaziyatdan Bobilning dushmanlari Ossuriya va Elam foydalanib qolishga harakat qiladilar. Bobil uchun janubi-sharqdan bo'ladigan elamlıklarning hujum qilish xavfi bor edi. Darhaqiqat m. av. XII asrda Bobil Elam qo'shinlari tomonidan butunlay bosib olindi. Bobil shaharlari, qishloqlari va ibodatxonalarini elamit qo'shinlari tomonidan talanib. so'nggi kassit podshosi Enlil-nadin-axxe o'zining arkoni davlati bilan elamlıklarga asir tushadi. Bu voqeа m. av. 1117-yilda sodir bo'lgan edi.

Bobilliklarning bosh xudosi bo'lgan Marduk haykali ham Elamga olib ketiladi. Shu tariqa kassitlarning Bobildagi olti asrlik hukmronligi barham topadi. Elamliklar Bobilga o'z kishilaridan birini hokim qilib tayinlaydilar, o'zlari esa Diyala va Zagros tog'lari orqasidagi yerkarni bosib oladilar. Elamliklarni mamlakatdan haydar chiqarish uchun harakat boshlaydilar. Bu kurashda Bobil g'arbidagi Isin shahri hukmdori boshchilik qilib, tashabbusni o'z qo'liga oladi. shundan boshlab Bobil asta-sekin kuchaya bora-di. Ayniqsa m.av. 1126–1105-yillarda podsholik qilgan Navuxodonosor I (Nabukudurriuqr) davrida Bobil podsholigi gullab yashnaydi. Dyer qa'lsi yaqinidagi qirg'in-barot jangida bobilliklar elamlıklar ustidan porloq g'alaba qozonib, Elamga bostirib kiradilar. Bobil qo'shinlarining zarbalari natijasida Elam qo'shinlari tor-mor etilib, mamlakat uch yuz yilgacha o'z mustaqilligini tiklay olmay, Bobilga qaram bo'lib qoladi. M.av. 821-yilgacha bo'lgan davr orasida elamlıklar to'g'risida hech qanday ma'lumot uchramaydi.

M.av. XI asr o'rtalarida Frot daryosidan g'arbda yashovchi yarim ko'chmanchi aramey qabilalari kuchayib, Bobil va Ossuri-

ya ustiga bostirib kiramalar. M. av. VIII asr oxirlarida aramey qabilalari Bobilning shimoliy va g'arbiy hududlarini bosib olib, u yerda o'rashib qoladi.

M.av. IX asrdan boshlab bir necha asr mobaynida aramey tilining bir shevasida so'zlashuvchi xaldeylar (kaldu) Bobil tarixida muhim o'rinn tutadilar.

Xaldeylar haqidagi dastlabki ma'lumot m. av. 878-yilda Ossuriya podshosi Ashshurnatsirpal II ning solnomalarida uchraydi. Xaldeylar Fors qo'llig'i sohilidagi botqoqlik va ko'llar sohilida, Dajla va Frot daryosining quyi qismlarida yashar edilar. Xaldeylar olti qabiladan iborat bo'lib, ularning ko'pchiligi Barsippa shahridan janubdagagi Bit-Dakkuri, ulardan janubroqda Bit-Amukkani hududlarida yashar edilar. Xaldeylarning yana bir kuchli qabilasi Bit-Yaqin Dajla daryosining etaklaridagi Elamga chegaradosh yerdarda bo'lgan joylarda o'rashgan edilar.

M.av. IX asrda Xaldeylar Bobilning janubidagi yerkanni egallaydi. Ular asta-sekin shimol tomon siljib, ayni paytda bobilliklarning madaniyati va dinini qabul qiladilar. Hainma xaldey qabilalari yarim ko'chmanchi bo'lib, dengiz sohillarida baliqchilik bilan hayot kechirganlar. Ular sardorlari rahbarligida urug'-urug' bo'lib, o'z mustaqilliklarini saqlagan holda yashaganlar.

Bobil qo'shinlari piyoda, otliq, jangchilar va ot qo'shilgan jangovar aravalardan tashkil topgan edi. M.av. XII-XI asrlarda bobilliklar olib borgan urushlarda ot qo'shilgan jang aravalalarining o'rni juda katta edi. Xususan, Navoxodonosor I o'zining qo'shni mamlakatlar bilan olib borgan urushlarida jang aravalalaridan keng, mohirona foydalanib porloq g'alabalarga erishgan.

Bobil ossurlar hukmi ostida (m.av.VIII-VI asrlar). M.av. IX asr oxirlarida ossur qo'shinlari Bobilga bostirib kirib, uning shimoliy hududlarini egallay boshlaydilar. M. av. VIII asr o'rtalarida Ossuriya podsholari Bobil shahriga ham xavf sola boshlaydi. M. av. 744-yilda Tiglatpalasar III Bobilga bostirib kirib, xaldeylarga qattiq zarba berib, Sippardan Fors qo'llig'igacha bo'lgan joylarni egallab, o'zini "Shumer va Akkad podshosi", deb e'lon qiladi.

M. av. 729-yilda Tiglatpalasar III Bobilni bosib oladi. Shundan so'ng Bobil o'z mustaqilligini yo'qotib. Ossurga qaram bo'lib qola-

di. Ammo Sargon II davrida ossurlar Bobilni o'z qo'llarida saqlab qola olmaganlar. Bit-Yaxin qabilasining sardori Marduk-apla-iddin II Bobilni egallab, o'zini mamlakat shohi deb e'lon qiladi.

U elamliklar bilan ittifoq tuzib, ossurlarga qarshi kurashajagini e'lon qiladi. M. av. 720-yilda Dyer qal'asi yonida elamliklar ossurlar bilan urush harakatlarini boshlab yuboradilar va xaldey qo'shinlari yetib kelmasdanoq ossur qo'shinlarini tor-mor qiladilar. Bu g'alaba xaldey sardoriga katta imkoniyat ochib beradi. U m. av. 721–710-yillarda Bobil taxtini o'z qo'lida tutib turadi.

Ammo m.av. 710-yilda Sargon II Elamga yana g'olibona yurish qiladi, so'ng Bobil tomon qo'shin tortadi. Xaldey sardori dastlab Bobil janubiga chekinib, so'ng Bit-Yaxinga qochib ketadi.

M.av. 709-yilda Sargon II Bobilni qo'lga kiritadi. M.av. 705-yili Sinnaxerib Ossuriya taxtiga o'tirgach, Marduk-apla-iddin o'z atrofiga Iudeya, Tir, Arvad va Askalon kabi Finikiya shaharlarini to'plab ular bilan ittifoq tuzib, ossurlarga qarshi kurash boshlaydi. U m. av. 703-yili Bobilni egallahsga muvaffaq bo'ladi. Ammo Bobilni o'z qo'lida uzoq tutib tura olmay, ossurlar borolmaydigan Bit-Yaxinning botqoqlik yerlariga chekinadi.

M.av. 692-yilda bobilliklar Elam, Zagros va aramey qabilalari bilan ittifoq tuzib ossurlarga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Ikki tomon o'rtasidag hal qiluvchi jang Dajla (Tigr) daryosi bo'yidagi Xalula degan joyda bo'lib o'tib, ikki tomonidan ham ko'p odam qiriladi. Ikki tomon ham hal qiluvchi g'alabaga erishmaydilar.

M. av. 690-yilda Elam podshosining shol bo'lib qolganini eshitgan Sinnaxerib Bobilga yana qo'shin tortib, uni qamal qiladi. Shaharda ochlik boshlanadi, oziq-ovqatlarning narxi 75 martaga qimmatlashadi, shahar ko'chalari odamlar o'ligiga to'lib ketadiki, hatto ularni ko'mishga imkon ham bo'lmaydi. M. av. 689-yil aprel oyida Bobil Sinnaxeribga taslim bo'ladi. Ossur shohi aholidan qattiq o'ch olib, shahar aholisi va ibodatxonalarining boyliklari talon-taroj qilinadi. Shahar butunlay vayron qilinib, Bobil Ossuriya davlatiga qaram bo'lab qoladi.

Ossuriyaning yangi podshosi Asarxaddon Bobilni qayta tiklab, o'lishidan oldin 669-yili Ossuriyani o'z o'g'illariga bo'lib be-

radi. Ossuriya uning o'g'li Ashshurbanipalga, Bobil esa qaram mamlakat sifatida Shamash-Shum-Ukinga tegadi. M.av. 652-yil Shamash-Shum-Ukin akasi Ashshurbanipalga qarshi Misr, Suriya, Elam, xaldey, aramey va arab qabilalari bilan yashirin ittifoq tuzib Ossuriyaga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Shu yili ittifoqchilar qo'shini bilan Ossuriya qo'shnlari o'rtasida Dyer qal'asi yaqinida qattiq jang bo'lib o'tadi. Jangda har ikki tomon ham hal qiluvchi g'alabaga erishmaydilar.

Ossurlar saroy to'ntarishi va ichki qarama-qarshiliklarni ishga solib, elamliklarni kurashdan chetlatadilar. Endi boshqa ittifoqchilar ham qo'zg'olonchi bobilliklarga jiddiy yordam berolmaydilar. Ossurlar Bobilni uch yil qamal qilib, nihoyat uni m.av. 648-yilda ishg'ol qiladilar. Qirg'in-barot urushda shaharning so'nggi himoyachilari qirib tashlanib, Shamash-Shum-Ukin ham o'ldiriladi. Shahar xarobaga aylantiriladi. Ashshurbanipal o'zining g'olibona urushidan so'ng Bobilda mavqeyini tiklab, mustahkamlaydi.

Yangi Bobil podsholigining tashkil topishi. Ossurlarning zulmi-zo'rligi bobilliklarning mustaqillik uchun kurashini to'xtata olmadi. M.av. 626-yilda Bobilda ossurlarga qarshi qo'zg'olon ko'tariladi. Bu qo'zg'olonga xaldey sardorlaridan Nabopalasar (m.av. 626–605) boshchilik qiladi. Nabopalasar Elam bilan ittifoq tuzib ossurlarga qarshi zafarli harbiy yurishlar olib boradi. M.av. 626-yili Bobil Nabopalasar qo'liga o'tadi va u 25-noyabrda o'zini Bobil shohi deb e'lon qilib, Xaldey yoki Yangi Bobil sulolasiga asos soladi. Ammo m.av. 616-yilda Ossuriya qo'shnlari Bobilga qarashli Uruk va Nippur shaharlarini ishg'ol qiladilar. M.av. 616-yili bobilliklar Ossuriya poytaxti Ashshurni qamal qiladilar, lekin g'alabaga erisha olmaydilar. M.av. 614-yili midiyaliklar Ossuriyaning Arrapxa viloyatini ishg'ol qilib, Nineviyani o'rab oladi. Midiyaliklar Ashshur shahrini bosib olib aholisini qirg'inbarot qiladi. Shahar xarobaga aylanib bo'lgandagina Nabopalasar o'z qo'shnlari bilan Ashshurga yyetib keladi. Midiyaliklar va bobilliklar o'zaro bitim tuzib, Midiya shohi o'z qizi Amitidoyni Nabopalasarning o'g'li Navuxudinosorga uzatib quda bo'ladi.

Ossuriya yana kuch to‘plab ittifoqchilarga qarshi kurashga otla-nadi va urush harakatlarini Frot daryosi vodisida olib boradi. Shu davrda midiyaliklar, skiflar va bobilliklar Nineviyani qamal qilib, uch oydan so‘ng uni ishg‘ol qiladilar, shaharni yer bilan yakson qilib aholisini qirib tashlaydilar. Bu voqeа m.av. 612-yilda bo‘lib o‘tdi. Shundan so‘ng Ossuriyaning qolgan-qutgan qo‘smini g‘arbga Xarron shahriga chekinib, u yerda kurashni davom ettiradi. M.av. 609-yili Nabopalararning ko‘psonli qo‘smini Ossur qo‘sminlarini tor-mor etadi.

M.av. 607–605-yillarda Frot daryosi bo‘yidagi Karkemish yoni-dagi janglarda ittifoqchilarning qo‘smini batamom yakson qilinadi va bir vaqtда butun Old Osiyoda qudratli bo‘lgan Ossuriya davlati ham shu tariqa barham topadi. Ossuriyaning qulashi munosabati bilan Ossuriya davlatining hamma yerkari. Xarran shahri va atro-flari Midiya davlati, butun Mesopotamiya esa bobilliklar tasarrufi-ga o‘tadi. Karxemish va u yerdagi Misr garnizonlari yo‘q qilinib, shahar xarobaga aylantirildi. Shundan so‘ng Bobil qo‘sminlari qar-shiliksiz Suriya va Falastinga kirib borib, ularni ishg‘ol qiladi.

Navuxodonosor II. M. av. 605-yili Nabopalaras vafot etgach, o‘g‘li Navuxodonosor Bobil podshosi deb e‘lon qilindi. U tarix-da Navuxodonosor II nomi bilan mashhurdir. U taxtga o‘tirgach harbiy harakatlarni boshlab, m. av. 605-yilda Finikiyaning Askalon shahrini, 598-yilda Shimoliy Arabistonni va undan o‘tgan karvon yo‘llarini qo‘lga kiritadi. M. av. 597-yilda Bobil shahri Iudeya va uning markazi Iyerusalim (Quddus) shaharlarini olib, uning 3000 aholisi asir qilinib, Bobilga haydab ketiladi.

Ammo g‘arbda vaziyat keskinligicha qolmoqda edi. Misrliklar Finikiyaning Gaza, Tir-Sidon, Iudeya va boshqa shaharlarini bobilliklarga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarishga undamoqda edilar. Bobil qo‘sminlari misrliklarni orqaga chekinishga majbur qiladi. Iyerusalim (Quddus) ikki yillik qamaldan so‘ng m. av. 587-yil bobilliklar tomonidan bosib olinadi.

Navuxodonosor II Iudiya podsholigini yo‘q qilib, uni Bobilga qo‘shib oladi. Minglab yahudiylar asir qilib haydab olib ketiladi

va butun Mesopotamiya shaharlariga, shuningdek, Bobil shahriga tarqatib yuboriladi. Shundan so'ng bobilliklar Tiri qamal qilib, uni 13 yildan so'ng 574-yili ishg'ol qiladilar.

Navuxodonosor II davrida Bobil podsholigi iqtisodiy va madaniy jihatdan gullab-yashnaydi. Bobil Qadimgi Sharqdagi aholisi ko'p (200000) shaharlardan biriga aylanadi. Mazkur davrda Bobilda, Bibliyada tilga olingan "Bobil minorasi", "Osma bog'" va boshqa inshootlar quriladi. Shahar qalin mudofaa devori bilan o'rabi olingan bo'lib, devor tashqarisi suv to'ldirilgan xandaq bilan o'ralgan edi. Shunday qilib Nabopalasar va Navuxodonosor II davrda Bobil Old Osiyodagi eng kuchli, qudratli davlatga aylanadi.

Nabonid va Bobil podsholigining qulashi. Navuxodonosor II o'limidan so'ng (m. av. 562) ruhoniylar va amaldorlar davlat ishlariiga aralashib, uni bo'shatishga harakat qilganlar. Uzoq davom etgan o'zaro kurashlardan so'ng ruhoniylar Navuxudonosorning o'g'li Nabonidni taxtga o'tkazadilar. U mamlakatni m. av. 556 – 539-yillarda boshqaradi.

Nabonid davrida Bobil bilan Midiya orasidagi munosabat buziladi. Hatto Midiya shohi Astiag o'z qo'shinlarini Xarrandan chiqirib oladi. M. av. 553-yili Nabonid qo'shinlari Xarranni bosib oladi. Shu davrda Bobil qo'shinlari Markaziy Arabistonning shimaliy qismidagi Tayma shahrini bosib oladi. Nabonid o'z qaror-gohini Taymaga ko'chirib, o'g'li Bel-sharutsuruni (Valtasar) Bobilni boshqarishga qoldiradi. Nabonid g'arnda harbiy ishlar bilan band bo'lgan bir vaqtda Bobilning sharqiy chegaralarida Midiyani, Lidiyani va Hindistongacha bo'lgan hududlarni bosib olgan Eron davlati kuchayib bormoqda edi. Shu davrda Bobil katta-kichik davlatlar qurshovida edi.

M. av. 539-yili eroniylar sharqdan Bobilga hujum boshlab, Diyala daryosi etaklariga yaqinlashib qolgan edilar. M. av. 539-yili eroniylarning qo'shini Dajla bo'yidagi Opis shahri yonida shahzoda Balshar-uqur boshchiligidagi Bobil qo'shinlarini tor-mor keltiradilar. Shu yili Eron qo'shinlari Sippar va Bobil shahrini ham egalaydi. Kir II qo'shinlari uncha qiyinchiliksiz Bobilni bosib oladilar. Nabonid asir olinib, mahbus sifatida Kirmaniyaga jo'natiladi. Uning

o‘g‘li, Bel-shar-ukur-Valtasar ko‘cha janglari vaqtida halok bo‘la-di. Bobil yerlari Eron podsholigiga qo‘shib olinadi. Keyinchalik esa m.av. 522 – 521, 484 va 482-yillarda Bobilda eroniylarga qarshi bir necha bor qo‘zg‘olon ko‘tariladi. Ammo hamma qo‘zg‘olonlar Eron qo‘shinlari tomonidan shafqatsizlik bilan bostiriladi. Bobil esa Eron davlatining satrapligiga aylanib qoladi.

11-§. Qadimgi Mesopotamiya xalqlari madaniyati

Qadimgi Mesopotamiya xalqlari madaniyati. Mesopotamiya-qadimiy va boy madaniyatga ega bo‘lgan mamlakat. Bu o‘lkada akkadliklar, shumerliklar, elamliklar, arameylar, amoriylar va boshqa elatlar yashagan. Mesopotamiya madaniyatining shakllanishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Shahar-davlatlar va yirik davlatlar vujudga kelgach, uning madaniyati yanada rivoj topdi.

Mesopotamiya xalqlari madaniyati qo‘shni xalqlar madaniyatiga juda katta ta’sir ko‘rsatgan.

Mesopotamiya yozuvlari va maktablari.

Mesopotamiya xalqlari erishgan yutuqlardan biri yozuvning ix-tiro etilishi edi. Mesopotamiyada dastlabki yozuv m.av. IV ming-yillikda Shumerda kashf etilgan. Shuning uchun u Shumer yozuvini ham deyilgan. Bu yozuv suratli bo‘lib, aytimoqchi bo‘lgan so‘z va iboralar rasmlar, belgilar orqali ifoda etilgan. Bu iyeroglyph yozuvlari deyilgan. Masalan, qush so‘zi qushning tasviri, suv so‘zi uch qator to‘lqinsimon chiziq, yulduz esa yulduz tasviri bilan ifoda etilgan.

Ammo suratli yozuv bilan ko‘p so‘z va tushunchalarini ifoda etib bo‘lmagan. Shu bois shumerliklar m. av. III mingyillikda ponasimon shakldagi mixxat kashf etganlar. Ponasimon mixxat yozushi maxsus tayyorlangan, qotmagan loy lavhalar sathiga o‘yib yozilgan. U 600 ga yaqin belgilardan iborat bo‘lib, bu yozuvning kashfiyotchilari shumeriyalar bo‘lishgan. Keyinchalik bu yozuv Bobilga, Ossuriyaga, butun Old Osiyoga, hatto Misrga ham yoyilgan. O‘sha zamonalardan boshlab ruhoni y va mirzolar mamlakatda sodir bo‘lgan muhim voqeя va hodisalarini mixxat yozuvida sopol, teri, qotmagan loy lavha va boshqa buyumlarga yozganlar.

Mesopotamiyaning Ur, Bobil, Ashshur, Lagash, Kish, Larsa kabi shahar-davlatlarida ponasimon mixxat bilan yozilgan kitoblar saqlanadigan kutubxonalar bo'lgan. Bu jihatdan Ossur podshosi Ashshurbanipalning Nineviyadagi kutubxonasi diqqatga sazovordir.

XVII asrdan boshlab Yevropa olimlari Petro della Vallya, Karston Nibur, Grotfendlar mixxatlarni o'qishga urinib ko'rganlar. Amino ular yaxshi natijalarga erisha olmaganlar. Ingliz sayyo-hi G.Roulinson shumer mixxatini o'qishga muvaffaq bo'lgan. Olimlardan Narris, E.Xipks va Oppertlar ham shumeriylarning bu yozuvlarini o'qishga erishganlar.

Mixxatining o'qib chiqilishi natijasida Mesopotamiya tarixi haqida qimmatli ma'lumotlariga ega bo'lindi.

Qadimgi Mesopotamiyada maktab va ma'orif.

Qadimgi Mesopotamiyada maktab va ma'orif ishlariga alohi-da e'tibor bergenlar. Mamlakatdagi maktablarda podsho, ruhoniy, amaldor, badavlat va o'ziga to'q kishilarning bolalari o'qigan. Shuningdek, maktabda oddiy jamoa orasidan chiqqan o'qishga havasmand bolalar ham o'qigan bo'lishlari kerak.

Maktablarning aksariyati ibodatxona va saroylar qoshida bo'lib, ularni ruhoniylar boshqargan. Boshlang'ich sinflarda, yozuv, til, adabiyot va grammatik bilimlar o'rgatilgan. Mesopotamiyaning shahar va qishloqlarida maktablar ko'p bo'lgan.

Mari shahridagi qazish vaqtida yer ostidan o'rindiqlar o'rnatil-gan maktab sinfxonasining qoldig'i topilgan. Mesopotamiyadagi maktablarda davlat uchun xo'jalik, savdo, ma'muriy idoralar va harbiy ishlarni boshqaruvchi xodimlar tayyorlangan. Maktablarda mirzolar tayyorlashga ham katta ahamiyat berilgan. Maktablarda intizom qattiq bo'lib, dangasa bolalar qattiq jazolangan.

Har bir maktabda "xivich bilan savalovchi" maxsus nazoratchi-lar bo'lgan. O'qituvchilar o'quvchilarni qunt va saboq bilan o'qish-ga undaganlar.

Mesopotamiyada ilmiy bilimlarning rivojlanishi.

Qadimgi Mesopotamiyada matematika, geometriya, astronomiya, tibbiyat, tarix va boshqa fanlarga qiziqish ancha erta boshlangan. Yer o'lehash, kanal qazish, suv omborlari qurish, masofani

aniqlash, hosilni hisoblash, me'morchilik va harbiy ishda matematika va geometriya fanlari kerak bo'lgan.

Bu fanlar chorvachilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va boshqa xo'jalik ishlarida ham kerak bo'lgan. Qadimgi mesopotamiyaliklar son va sanashni yaxshi bilganlar. Ular birlik, o'nlik, yuzlik va minglik sonlarni bilganlar. Bu sonlarning hammasi uchun alohida belgilar bo'lgan.

Mesopotamiyada astronomiya faniga ham katta ahamiyat berilgan bo'lib, u yerda olti-yetti qavatlari zikkuratlar, rasadxonalar qurilgan. Olimlar rasadxonalarda quyosh, yer, oy va boshqa osmon jismlarining harakatlarini kuzatganlar. Mesopotamiyalik olimlar quyosh va oy tutilishi hodisalarini oldindan aytib bergen. Ular astronomiya taqvimlari tuzib, quyosh-yili 365 kun, oy-yili 354 kun ekanini aniqlaganlar.

M.av. III mingyllikdayoq shumer tilida astronomiyadan ilmiy asar va qo'llanmalar yaratilgan.

Mesopotamiyada tarix faniga ham katta ahamiyat bergenlar. Os-sur podshosi Ashshurbanipalning hujjatxonalaridan Mesopotamiya va qo'shni xalqlar tarixi va geografiyasiga oid qimmatli ma'lumotlar topilgan.

Mesopotamiya olimlari Misr, Urartu, O'rtayer dengizi, o'z o'lkalari va atrofdagi mamlakatlarining geografik xaritalarini tuzganlar. Ziroatchilik, iqlimshunoslik va boshqa sohalarda ham katta-katta yutuqlarga erishganlar.

Qadimgi Mesopotamiya tabobati. Mesopotamiya issiq mamlakat bo'lib, odamlar tez-tez kasallikka chalinib turgan. Mamlakatda bo'lib turadigan qonli janglar natijasida ko'p odamlar yarador bo'lgan. Kasalliklarni va jarohatlarni davolash tabobat ilmining erta rivojlanishini taqozo etgan. Tabiblar bemor va jarohatlaganlarni alohida guruhlarga bo'lib, so'ng davolashni boshlaganlar. Bemorning kasalini aniqlashda tomir urishi, harakat va boshqa belgilarga alohida e'tibor berishgan. Bemirlarni davolashda esa shifobaxsh giyoh, meva, ildiz va turli jonvorlarning ayrim qismlaridan tayyorlangan sodda va murakkab dori-darmonlar ishlatilgan. Tabobat ishlari bilan asosan ruhoniylar shug'ullangan.

Xammurapi qonunlarining birida jarroh bemorning xastalangan joyini noto'g'ri kesib qo'ysa, yoki noto'g'ri davolasa jarrohning qo'li kesib tashlanishi yozilgan.

12-§. Qadimgi Mesopotamiya san'ati, adabiyoti va diniy e'tiqodi

Me'morchilik va naqqoshlik. Me'morchilik va naqqoshlik mesopotamiyaliklar madaniyatining ajralmas qismi bo'lgan. Me'morlar qadim zamonlardan boshlab muhtasham saroylar, ko'rkarib ibodatxonalar, bog'lar, ajoyib rasadxonalar va boshqa ma'muriy binolar qurishda xom g'isht, pishiq g'isht, tosh va ko'proq yog'och ishlatganlar.

M.av. IV-II mingyilliklarda Uruk, El-Ubayd, Akkad, Ashshur, Ur, Bobil, Mari va Eshkunna kabi shaharlarida ibodatxona va juda ko'p ma'muriy binolar va saroylar qurilgani ma'lum. Bu jihatdan ma'buda Ishtarga bag'ishlab Ashshurda qurilgan ibodatxona, Maridagi, Bobildagi va boshqa shaharlardagi saroylar o'sha davr me'morchiligining nodir namunalari hisoblanadi. Tavrotda aytishcha "Bobil minorasi" nomi bilan mashhur bo'lgan 3,6,7 qavatlari zinapoyali minoralar-zikkuratlar Misr ehromlarini eslatadi. Bunday zikkuratlar Ur va Mesopotamiyadagi boshqa shaharlarda ham qurilgan bo'lib, maktab, ibodatxona va rasadxona vazifalarini bajargan. Bu binolarning devor va shiftlari turli shakldagi o'yma, chizma naqshlar bilan bezatilgan.

Haykaltaroshlik va rassomlik. Arxeolog olimlar Mesopotamiyada qazish ishlari vaqtida ehrom, ibodatxona, saroy va boshqa xarobalar oldidan podsho, amaldor, oddiy kishi, yarmi hayvon, yarmi odam shaklidagi tosh haykallarni topganlar. O'sha qadim zamonlarda bu haykallar ibodatxona, saroy va ma'muriy binolarni bezatib turgan. Bu jihatdan Gilgamsh, Iku-Shamagan, Gudea, Ashshurnazirpal II, qanotli buqa, echki, jangchi va boshqalarning haykallari diqqatga sazovordir.

Qadimgi Mesopotamiyada saroy va ibodatxona devorlarga bo'rtma rasmlar ishlashda ham shuhrat qozonilgan. Bu jixatdan "Kalxatlar lavhasi", xudolar tasviri, Naram Suen, xudo Shamash

bilan Xammurapilarning qabartma rasmlar ham qiziqarlidir. Shuningdek, Qadimgi Nineviya saroyi davorida ossur podshosi Ashs-hurbanipalning yuzma-yuz turib sher bilan olishayotgani, kamon o‘qi sanchilib o‘layotgan sherning, qanotli buqa, sher va afsonaviy hayvonlarning qabartma rasmlari zamonamizgacha saqlanib qolgan. Qadimgi qabartma rasmlar orasida Bobildagi saroyning ma’buda Ishtar darvozasining ikki tomonidagi devorga ishlangan afsonaviy maxluq va sher tasvirlari ham Mesopotamiya tasviriy san’atining nodir namunalaridan hisoblanadi.

Qadimgi mesopotamiyaliklar zargarlik, toshtaroshlik, hunarmandchilik va tasviriy san’atning boshqa sohalarida ham shuhrat qozonganlar.

Xalq og‘zaki ijodiyoti va adabiyot. Mesopotamiyada xalq og‘zaki ijodiyoti – maqollar, matallar, qo‘shiqlar, dostonlar, afsonalarning paydo bo‘lishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Bu borada mesopotamiyaliklar katta yutuqlarga erishgan. Ammo Mesopotamiyada ilk yozma adabiyot asarlari m.av. IV mingyilliklarga borib taqaladi. Shuni ta’kidlash kerakki Mesopotamiya adabiyoti xalq og‘zaki ijodiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

“Dunyoning yaratilishi haqida mif”, “Adapa haqidagi doston”, “Etana haqidagi doston”, “Agushaya haqidagi doston”lar mesopotamiyaliklar adabiyotining eng nodir namunalari hisoblanadi.

“Agushaya haqidagi doston” Ishtar va Saltu o‘rtasidagi kurashga bag‘ishlangan. “Gilgamish haqidagi doston”da esa Gilgamish va Enkidularning sarguzashtlari, qahramonliklari va do‘stliklari haqida hikoya qilinadi.

“Jafokash avliyo haqida doston”da bechora bir avliyoning boshidan kechirgan og‘ir kechmishi haqida so‘z boradi.

Mesopotamiya adabiyotining yana bir nodir asari bu “Xo‘jayining qul bilan suhbatি dostoni”dir. Dostonda xo‘jaligining o‘z quli bilan hayot, mehnat va o‘lim haqidagi munozaralari to‘g‘risida fikr yuritiladi. Shunday qilib, qadimgi mesopotamiyaliklar xalq og‘zaki ijodiyoti va yozma adabiyotda katta yutuqlaga erishgan.

Mesopotamiyaliklarning boy adabiy merosi sharq va jahon xalqlari adabiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Qadimgi Mesopotamiya dini. Ma'lumki, din ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, ma'naviy madaniyatning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Mesopotamiya xalqlari boshqa qadimiy sharq xalqlari kabi ko'p xudolikka e'tiqod qilganlar. Mesopotamiya xalqlarining g'oyaviy hayotida din juda muhim o'rinni to'tgan. M.av. IV-III mingyillik chegarasida Shumerda diniy e'tiqod majmuasi ishlab chiqilgan edi. Shumerdagi har bir shahar o'z homiy-xudosiga ega edi. Shu bilan birga shunday xudolar bor ediki, hamma shumerliklar unga e'tiqod qilar edilar. Shunday xudolardan biri osmon xodosi Anu, yer xodosi Enlil ediki, akkadiklar uni Bel deb ataganlar. Suv xodosi Enki yoki Ea shunday xudolardan biri edi. Mesopotamiyaliklar bu xudolarga butun vujudi bilan e'tiqod qilganlar. Mesopotamiyada har bir xudoning o'z vazifasi bo'lgan. Enlil Nippur shahrining bosh xudolaridan biri bo'lgan. Nippur taqdir xodosi bo'lib, u shaharlar bunyodkori, qo'l chopqisi va omoch ixtirochisi bo'lgan.

Quyosh xodosi Utu (akkad mifologiyasida Shamash deb atagan), Nainnar esa oy xodosi bo'lgan (akkad tilida Sin nomi bilan mashhur bo'lgan). U o'zini Enlilning o'g'li deb hisoblagan. Segi va hosildorlik xodosi Ianna bo'lib, bobilliklar va ossurliklar uni Ishtar deb nomlaganlar. Dumuzi o'lmas xudo hisoblangan. U o'simliklarni o'ldiruvchi va tiriltiruvchi xudo sifatida gavdalaniadi. Nergal urush, kasallik va o'lim xodosi hisoblanib, Mars sayyorasiga qiyos qilinadi. Oliy xudo Marduk bobilliklarning homysi bo'lgan, u Yupiterga qiyoslangan. Mardukning o'g'li Nabu donishmandlik, yozuv, hisob-kitob, o'lchov xodosi bo'lib, Merkuriy sayyorasiga qiyos qilingan. Ossuriyaning oliy xodosi Ashshur bo'lib, u dastlab qabila xodosi hisoblangan.

Bobil podsholigi kuchayishi munosabati bilan Marduk bobilliklar homiysiga aylanadi. Ibtidoiy okean ma'budasi Tiamat Bobil rivoyatida yovuz va yirtqich bahaybat dev-maxluqdek qilib tasvirlangan.

Tiamat o'z zaminida yuzaga kelgan barcha xudolar va ma'bdidlarni yo'q qilishga urinadi. Xudolar kengashga yig'ilib uni yo'q qilishga harakat qiladilar. Xudo Marduk ayniqsa jasur va dov-yurak bo'lgan.

U xudolarga murojaat qilib, Tiamat bilan yakkama-yakka kurashtga kirishishini taklif etgan. Marduk buning evaziga xudolar uning oliv hokimligini e'tirof etishlari kerakligini talab qilgan.

Xudolar ziyofat bergen, sharob ichib, vaqtilar chog' bo'lib, Mardukning shartlarini bajarishga so'z bergenlar. Marduk qurollanib, dahshatli dushmani bilan jangga kirgan. Rivoyatga ko'ra Tiamat raqibini ko'rib, og'zini katta ochgan. Marduk esa uning ichiga yetti shamolni kirgizib Tiamatning ichak-chavog'ini ag'darib tashlagan. Shundan so'ng Marduk Tiamatni mag'lubiyatga uchratib uning tanasini chig'anoqning ikki pallasi kabi yorib tashlagan. Marduk chig'anoqning ustki pallasidan osmonni, pastki pallasidan esa yerni yaratgan. Shundan keyin uning tanasidan o'simliklarni, hayvonlarni va baliqni yaratgan. Marduk jang paytida Tiamat tomonini olgan xudolardan birini o'ldirib, uning qonini tuproqqa qorib loy qilgan va undan odamzotni yaratgan.

Qisqasi, shumerliklarning rivoyatlarida Enlil, Enkin, Ishtar. Tammuz va boshqa ko'p sonli xudolar bilan bog'liq ajoyib va g'aroyib voqealar hikoya qilinadi. Qadim zamonda Mesopotamiyaning shahar va qishloqlarida xudolar sharafiga odamlarni ham qurbanlik qilganlar.

M.av. III mingyillikdan boshlab esa bayram kunlari odamlar o'rniqa qo'y-qo'zilar qurban qilingan. Bayramlar paytida butlar ibodatxonalardan chiqarilib, ularni tantanali marosim paytida ko'tarib yurilgan hasham dor qilib bezatilgan qayiqlarda daryo va kanallar bo'ylab olib yurilgan. Bayram tantanalarida duolar o'qilgan, jodu-afsunlar qilingan, chiltor (arfa) va boshqa musiqa asboblari chalingan.

Shuningdek, mesopotamiyaliklar e'tiqodida ibridoib dinlardan totemizm, animizm, fetishizm, osmon jismlariga, narsa-buyumlariga va tabiat hodisalariga sig'inish ham saqlanib qolgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, Mesopotamiya xalqlari o'z davrida hamma sohada yuksak madaniyat yaratib, Osiyo, qolaversa butun jahon madaniyatining rivojiga o'zining buyuk hissasini qo'shgan.

Seminar mashg‘uloti uchun savollar:

1. Qadimgi Mesopotamiyaning tabiiy sharoiti, aholisi va xo‘jaligi. Qadimgi Mesopotamiya tarixining manbashunosligi va tarixnavisligi.
2. Eng qadimgi Mesopotamiya davlati haqida so‘zlab bering.
3. Akkad podsholigi haqida nimalarni bilasiz?
4. Rimush. Manishtushu davrida Akkad podsholigining harbiy, siyosiy va iqtisodiy ahvoli.
5. Qadimgi Bobil podsholigi (m.av. XIX–XVI asrlar).
6. Ossuriyaning ilk shahar-davlatlari.
7. Ulug‘ Ossur harbiy sultanati (m.av. X–VII asrlar) tashkil to‘pishining shart-sharoitlari.
8. Yangi Ossur podsholigi davri (m.av. X–VII asrlar).
9. Tiglatpalasar III islohotlari va Ossuriyaning uchinchi yuksalishi.
10. Qadimgi Mitanni davlati.
11. Yangi Bobil podsholigining yuksalishi va tanazzulga uchrashi sabablari.
12. Qadimgi Mesopotamiya xalqlari madaniyati.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Mesopotamiya tarixining asosiy ilmiy manbalari: xo‘jalik, huquqiy, diplomatik hujjatlar va tarixiy mazmundagi yozuvlar.
2. Mixsimon xatlar.
3. Janubiy Mesopotamiyaning shahar-davlatlari va ularning xo‘jaligi.
4. Shumer shahar-davlatlari o‘rtasidagi kurash.
5. Xammurapi qonunlari.
6. O‘rta Ossur podsholigi (m.av. XV–XI asrlar).
7. Mitanni davlatining ijtimoiy tuzumi va xo‘jaligi.
8. Mesopotamiya yozuvlari va maktablari.
9. “Gilgamish” haqidagi doston Qadimgi Mesopotamiya san‘atining nodir namunasi sifatida.

III BO'LIM. O'RTAYER DENGIZINING SHARQIY VA G'ARBIY SOHILIDAGI QADIMGI DAVLATLAR

1-§. O'rtayer dengizining sharqiy va g'arbiy sohilining qadimgi aholisi tarixi va davlatlari tarixnavisligi


Iyerixon madaniyati. M. av. VIII–IV mingyillikdagi dehqonlar va chorvadorlar. O'rtayer dengizining Sharqiy sohilidagi hududlar qadim-qadimdan boshlab paleolit ovchilari va termachilari tomonidan o'zlashtirilgan edi. Ovchilik natijasida ko'pchilik yovvoyi hayvonlar qirib yuborilgach, qabilalar orasida ocharchilik boshlanib mahalliy qabilalar o'simliklarning mevalari bilan ovqatlanishga o'tadilar. M.av. IX–VIII mingyilliklarga kelib "natufey" madaniyatiga mansub mezolit qabilalari g'orlarda, daryo va ko'l bo'yidagi manzilgohlarda yashab, yovvoyi o'simliklarning mevasini, qushlarning tuxumlarini terib, ularni ovqat sifatida iste'mol qilganlar.

Yovvoyi turdag'i bug'doy va arpaning turli navlari to'qayzorlarda o'sib yotardi. Bu hol termachilik bilan shug'illangan ibtidoiy kishilarga ilk dehqonchilikka o'tish uchun imkon yaratib bergen.

M. av. VIII–VII mingyilliklarda O'rtayer dengizining sharqidagi hududlarda eng qadimgi o'troq dehqonchilik va chorvadorlar madaniyati vujudga kelgan. Bu Iyerixon madaniyati nomi bilan mashhur bo'lgan qishloq–manzilgoh edi. Mazkur madaniyatga mansub qabilalar arpa va bug'doyning ikki navini madaniylashtirganlar. G'allani kemiruvchilardan saqlash maqsadida ular mushukni qo'lga o'rgatgan. Qo'y, echki boqib ko'paytirganlar. M.av. VI–V mingyilliklarda kichik-kichik qishloqlarda istiqomat qilib, uy devorlarini paxsadan ko'targanlar. Ularning ba'zilari, shu qatori Iyerixon atrofi ham xarsangtoshlar bilan o'rabi olingan edi. Qo'shni qabilalar hujumidan mudofaa qilish va boyliklarini saqlash maqsadida qishloq atrofni mudofaa devorlari bilan o'rash zarurati mavjud edi.

M.av. IV-II mingyilliklarda o'troq dehqonchilik madaniyatini birmuncha rivojlanadi. Arxeologlar tomonidan Bibl, Ugaritning quyi qatlamlaridan dehqon va chorvadorlar madaniyatiga mansub qishloq xarobalari topilgan.

Iyerixonlik va uning atrofida yashagan qabilalar bug'doy va arpadan tashqari, tariq ekib uy echkilari, qo'y, cho'chqa va yirik shoxli qoramol ham saqlab ko'paytirganlar. Yeyiladigan taom tayyorlash uchun ular turli sopol buyumlardan foydalanganlar. Bu sopol idishlar qizg'ish bo'yoq bilan bo'yalgan. Mazkur davrda O'rtayer dengizining sharqidagi mamlakat aholisining xo'jaligi va madaniyatiga Misr va Ikkidaryo oralig'i madaniyatining ta'sirini ko'rishimiz mumkin. M.av.V mingyilliklarda Shimoliy Suriya idishlarida xalaf shaklidagi guldor sopol buyumlar paydo bo'la boshlagan. M.av. IV mingyillikda esa Ikkidaryo oralig'idagi ubayd madaniyati ta'sirini ko'rish mumkin. Mazkur davrda Iyerixon va atrofidagi qabilalar hayotida tosh quollar bilan birga mis buyumlar keng tarqala boshlaydi.



Bunday o'zgarishlar Falastinda ham sodir bo'lib, Iordan daryosi vodiysiда yashagan o'troq dehqonlar tomonidan o'zlashtiriladi. Bu o'zgarishlar Falastindagi Bersheba va Gassul yodgorliklarida ko'zga tashlanadi. Ular yerto'la va paxsadan qurilgan boshpanalarda istiqomat qilganlar. Ularning uy de-

vorlari turli bo‘yoqlar bilan chizilgan odam, hayvon va naqshlar bilan bezatilgan. Misdan bolta, to‘g‘nog‘ich, igna va bigiz kabi uyo‘zg‘or buyumlari yasaganlar. Bersheba va Gassul qabilalari ilk dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘illangan.

Suriya, Finikiya va Falastin (manbalar va tarixnavislik).

O‘rtayer dengizining sharqiy sohillarida yashagan qadimgi qabilalar, etnik guruhlar va xalqlar tarixini o‘rganishning asosiy manbalar qatoriga qo‘shti Misrning El-Amarna arxivni, xettlarning diplomatik hujjatlari, ossur podsholigining ma’muriy yozishmalari, shuningdek, mahalliy manbalar, yozma hujjatlar, adabiy-diniy yodgorliklar, shu jumladan, Bibliya kitobi kabilar ham katta ahamiyatga egadir. Dengizbo‘yi xalqlari tarixi va madaniyatini o‘rganishda Ugarit arxividan topilgan Ras-Shamra hujjatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ras-Shamra matnlarida mamlakatning iqtisodiy, siyosiy, diniy e’tiqodi bilan bog‘liq, shuningdek, mahalliy ugarit yozuv tizimi haqida ma’lumot berilgan. O‘rtayer dengizining Sharqiy sohilidagi ko‘p joylardan juda ko‘p qadimgi yozuvlar topilgan, hali ular o‘qib chiqilganicha yo‘q. Shimoliy Suriyaning epigrafik yodgorliklari orasida m. av. yashagan Xamat shohi, m. av. IX asrda yashagan Meshi shohining Jordaniyadagi yozuvlari ham mamlakat tarixini o‘rganishda qimmatli manba hisoblanadi. Falastindan m. av. IX asrga mansub dehqon taqvimi topilgan. Unda Iyerusalim (Quddus) va uning atroflaridagi suv tarmoqlari – inshooti haqidagi hujjatlar bor.

1974–1975-yillarda italiyalik arxeologlar Urning qadimgi Ebla shahri arxivini topishga tuyassar bo‘ldilar. Bu arxivda 16000 ga yaqin klinopis – ponasimon lavhalar bo‘lib, ularning asosiy qismi shumer tilida, bir qismi qadimgi Xanaan yozuvida bitilgan bo‘lib, uni olimlar eblait yozuvi deb nomlaganlar. Bu arxiv diplomatik, ma’muriy, xo‘jalik, diniy va maorifga oid matnlardan iborat bo‘lgan.

Qadimgi shoh arxivni m. av. III mingyllikning 2-yarmiga mansubdir. Sharqiy O‘rtayer dengizi sohilidagi mamlakatlardan moddiy madaniyat yodgorliklari ham ko‘plab topilgan. Bu jihatdan nemis arxeologi Sellinning 1907-yilda Iyerixondagi qazish ishlari juda

katta ahamiyatga ega bo'ldi. 30–50-yillar orasida Kenion boshliq amerikalik arxeologlar Iyerixonda qazish ishlarini olib bordilar.

Sellin ekspeditsiyasi madaniy yodgorlikdan qadimgi Xanaan va Isroil qatlamlarini ochgan bo'lib, arxeolog olimlar ularda Xett me'morchiligining ta'sirini payqaganlar. Kenionning yangi qazishmalari natijasida u yerdan Iyerixonning eng qadimgi tarixiga oid juda boy arxeologik buyumlar topganlar. Bular Iyerixonning sopsiz neolit, so'nggi neolit va eneolit davriga mansub ashayoviy buyumlar edi.

Qadimgi Megiddo, Gezyer va Laxishdagi qazishmalar vaqtida m.av. II mingyllikka oid ashayolar topilgan. Bu buyumlarning aksariyati Misrdan topilgan buyumlarga juda-juda o'xshaydi. Keyingi yillarda arxeologlar Finikiya, Damashq yaqinidagi Tela-Ramat, Bibl, Tir va Sidondagi yangi qazishmalari natijasida juda ko'p arxeologik buyumlarni qo'lga kirtildilar.

XX asrning 70-yillarida Akko shahri yaqinidan m.av. XIV–XIII asrlarga mansub “savdogar-jangchilarining” mozorlari topib o'r ganildi. Bu yodgorlikning madaniy qatlamlaridan, Egey dunyosi, Misr, Kavkazorti, Mesopotamiya va Kiprden keltirilgan juda boy buyumlar majmuasi topilgan.

O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi mamlakatlar tarixi va madaniyatini o'r ganishda Bibliya – Tavrot, Zabur kitoblari ham muhim manba hisoblanadi. Unda bu yerda hukmronlik qilgan shohlar Dovud, o'g'li Sulaymon haqida ham ko'p ma'lumot olish mumkin.

Qadimgi Bibliya, Tavrot haqida XVII asrda yashagan faylasuf Spinoza (1632–1677) va Y. Belgauzen (1844–1918) kabilar tanzidiy mulohazalar bildirgan.

O'rtayer dengizi sohilidagi qadimgi davlatlar va Bibliya o'zgarishga N. M. Nikolskiy, A. B. Ranovich, chet el olimlaridan P. Monte, M. Dyunan, L. Vulli va boshqalar katta hissa qo'shganlar. Bu o'lkaning qadimiy yozuvlarini o'qib chiqish bilan G. Bauer, Sh. Virollo va E. Doromlar shug'llanishgan.

O'rtayer dengizining sharqidagi qadimgi davlatlar tarixi va madaniyati bilan U. F. Olbrayt, A. Ollisted, P. Xitti, S. Moskati, D. Mellart, R. de Vo va boshqa olimlar shug'llangan.

O'rtayer dengizining sharqidagi qadimgi davlatlarning tarixi va madaniyati bilan X. A. Kink, V. V. Struve, B. A. Turayev, V.I. Avdiyev va boshqa mashhur olimlar ham shug'illanganlar. Keyingi vaqtida bu mamlakatlar tarixini o'rghanishda V.I. Kuzishinining ham xizmatlari katta ekanligini qayd etish kerak.

O'rtayer dengizining sharqidagi qadimgi davlatlar. Ma'lumki, O'rtayer dengizining sharqiy sohiliga tutash joylarda ham o'rta paleolitdan boshlab odamlar istiqomat qilganlar. Bu hududda qadim zamondan boshlab, Falastin, Finikiya, Suriya, Yamxad, Damashq shohligi, Isroil-Yahudiy shohligi va o'nlab shahar-davlatlar shakllangan, rivojlangan va necha martalab inqirozga yuz tutgan.

Bu hududda qadimgi tosh davrining o'rta bosqichidan boshlab ibtidoiy kishilar yashaganligini arxeologik ashylolar tasdiqlaydi.

O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi davlatlar haqida so'z ochishdan oldin tarixiy manbalar va tarixnavislik masalalariga murojaat qilish lozim. O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi qadimgi davlatlar qatoriga Suriya va Finikiyani kiritish mumkin. Suriya va Finikiyaning ba'zi joylaridagi qulay geografik muhit bu yerlarda juda qadim zamondan boshlab odamlar yashab tirikchilik o'tkazishlari uchun imkon bergen. Bu jihatdan Finikiyadagi It daryosi (Nahr-al Qalb) burni yaqinidan, daryoning boshiga yaqin yerdagi Sut chashmasi bilan Asal chashmasi oldidan, shuningdek, Sanin tog'lari etagidagi Xarajeb va Jatta yaqinidan ilk neolit davriga oid qurollar topilgan. Mazkur yodgorliklarning madaniy qatlamlaridan toshdan yasalgan belcha, bigiz, pichoq, iskana, nayza, arralar, uch qirrali kamon o'qining uchi, uchburchak shakldagi boltalar topilgan.

Shimoliy Suriyada ham Frot daryosining yuqori oqimida-gi Aman va Tavr tog' tizmalariga yondashgan joylarda, xususan Soqchi-Goz degan joydan bir qishloqning xarobasi topilgan. Bu yodgorlikdan chaqmoqtosh. obsidian, fil suyagi va oddiy suyakdan yasalgan qurollar, naqsh berilgan sopol buyumlar chiqqan. Shimoliy Suriyadagi Antioxiya va Alyappo o'rtasidan muhim

arxeologik yodgorlklar topganlar. Yodgorlik 14 qatlamdan iborat bo'lib, bular tosh davridan boshlab to milodning birinchi asrigacha bo'lgan katta tarixiy davrni o'z ichiga oladi.

Arxeolog olimlar qadimgi Finikiyaning Bibl shahri yaqinida arxeologik qazishmalar o'tkazib, u yerdan arxaik davrga mansub qabrlardan chaqmoqtoshdan yasalgan pichoqlar, boltalar, kulolchilik qolipini topishgan.

M.av. IV mingyllikda Bibl Misr bilan savdo aloqalari olib borgan. Arxeolog Monte Bibldagi ibodatxonaga yotqizilgan plitalarning tagidan topgan arxaik tipdagi Misr iyeroglis yozuvli silindrik muhr alohida diqqatga sazovordir. Mazkur joydan Misrning O'rta podsholik davriga oid buyumlar topilgan bo'lib, ularning ba'zilariiga Misr yozuvlari bitilgan. Bu yozuvlar Finikiyaning o'sha davrlarda Misrga tobe bo'lganligini ko'rsatadi.

Shimoliy Suriyada, Oront daryosi sohilidan 50 km chamasi janubda, Ras-Shamra yaqinida, dengiz sohilidan katta bir shahar xarobasi ham topilgan. Shahar qalin mudofaa devori bilan o'rallagan bo'lib, muhim savdo porti va qal'dan iborat. Arxeologlar uning madaniy qatlamlaridan ibodatxona, saroy va kutubxona qoldig'ini ham kavlab ochishgan.

Yodgorlikning 7–9 metr chuqurlikdagi joyidan 3-arxeologik qatlam hamda xom g'ishtdan qurilgan binolarning qoldiqlari ham topilgan. Bu qadimgi port ustidagi qoyatosh ustidagi mozordan qabrlar topilgan. Mazkur yerdan topilgan buyumlar va yozuvlar bu joyda kattagina quldorlik davlati bo'lganini ko'rsatadi.

Arxeoglarning taxminlariga ko'ra bu qadimgi Ugarit-shahar-davlati ekan. Bu davlat Kichik Osiyo, Suriya, Mesopotamiya va Misr bilan qizg'in savdo aloqalari olib borgan.

Ras-Shamra yaqinidagi qadimgi savdo shahri xarobalaridan topilgan juda ko'p miqdordagi egey, xett va misrliklarning buyumlari bunga dalildir. Bu yerdan topilgan ponasimon xat yodgorliklari alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu xat odatdagi Ossuriya-Bobil mixxatidan ancha farq qilgan.

Finikiya va Suriya haqidagi yozma manbalar. Finikiya va Suriyaning o'zidan topilgan qadimgi yozuvlar u qadar ko'p emas.

Bu mamlakatda davom etgan ko'pdan ko'p urush-janjallar vaqtida bu yerdagi kutubxona va arxivlar shafqatsiz ravishda vayron qilin-gan bo'lsa kerak. Amma Ras-Shamra yaqinidagi shahar xarobalaridan topilgan va maxsus alifboli mixxat (ponasimon) bilan bitil-gan yozuvlar katta ahamiyatga ega. Bu yozuvlarning ko'pchiligi afsonalardan iborat matnlar bo'lib, Shimoliy Suriya qabilalarining m.av. II mingyllik o'rtalaridagi dini to'g'risida ma'lumot beradi. Suriya va Finikiyaning bu davrdagi siyosiy tarixini o'rganish uchun Amarna arxividan topilgan diplomatiyaga doir xatlar va xett hujjalari alohida ahamiyatga ega. Finikiya yozuvlaridan eng muhimi Sidonni qazish vaqtida topilgan bo'lib, u fors davriga mansubdir. Qadimgi Kilikiya, Qoratepa va Antitavr tog'laridan topilgan Finikiya yozuvlari m.av. IX asrdagi shimoliy Finikiya davlatlarining tarixi to'g'risida yangi ma'lumot beradi.

Suriya va Falastin tarixini o'rganishda Bobil va Ossuriya yozuvlari ham, jumladan, m. av. VIII–VII asrda o'tgan Ossuriya podsholarining ma'muriy yozishmalari ham muhim ahamiyatga ega.

Shuni ayтиб o'tish kerakki, qadimgi davr mualliflarining qadimgi Suriya va Finikiyaga oid qimmatli tarixiy ma'lumotlari saqlanib qolgan.

Finikiya va finikiyaliklar to'g'risidagi Gomerning "Iliada va Odisseya" dostonida ham ba'zi ma'lumotlar bor.

Iosif Flaviy asarlarida Finikiya shahri Tirning qadimgi yilnomalaridan keltirilgan ma'lumotlar saqlanib qolgan. Gerodot asarlarida esa Finikiyaning siyosiy tarixi va madaniyatiga oid muhim ma'lumotlar katta ilmiy ahamiyatga ega. Qadimgi finikiyaliklarining dini va afsonalariga oid juda muhim ma'lumotlar ilk xristian davrining yozuvchisi Evseyevning asarlarida ham saqlanib qolgan. Evseyev finikiyalik Sanxonnotning bobillik Filon tomonidan yunon tiliga tarjima qilingan va o'zi (Evseyev) yashagan davrgacha saqlanib qolgan g'oyat qimmatli asaridan foydalangan.

Shunday qilib, qadimgi Suriya va Finikiya tarixini o'rganishda qadimgi moddiy madaniyat yodgorliklari, yozuvlar va qadimgi mualliflarning asarlaridan olingan ma'lumotlar asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

2-§. O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi qadimgi davlatlar. Qadimgi Falastin

Falastinning tabiatи va aholisi. Falastin O'rtayer dengizining sharqiy sohiliда joylashgan qadimgi mamlakat. Uning hududlari tekislik va yassitog'liklardan iborat. U yerdagi daryolardan biri *Jordan* bo'lib, u O'lik dengiziga quyiladi. Iyerixon va Saron yerlari juda hosildor bo'lib. Saronni "Jannat bog'i"ga qiyos qilishadi. Bu unumdon yerlar Kelt va mayda soy suvlari bilan sug'orilgan. Bu joylar mis va temir rudalariga ancha boy. Falastinning sharqiy tomoni issiq va quruq, dengizga qaragan g'arb tomoni esa yumshoq dengiz iqlimiga yaqin. Mamlakat o'simlik va hayvonot dunyosiga u qadar boy emas.

Falastin serqatnov karvon yo'llari chorrahasida joylashgan edi. Kichik Osiyo. Ikki daryo oralig'i va Misrga boradigan katta savdo yo'llari Falastin yerlaridan kesib o'tganligi muhim ahamiyatga egadir.

Arxeologlar Falastin hududidan 80–90 mingyillar ilgari yashagan odamlarning manzilgohlarini topishgan. Mezolit va neolit davrlariga kelib Falastinda aholi birmuncha ko'payib, ular termachilik, ovchilik bilan shug'illanib, ayni paytda ilk dehqonchilik va chovvachilikka ham asos solganlar.

M.av. III mingyillikda bu joyda mahalliy hisoblangan Xanaanliklar yashaganlar. Falastinning O'rtayer dengiziga tutash joylarida egey qabilalari – filistimlar joylashgan edi. Falastin nomi qadimgi yahudiycha peleshet so'zidan olingan ekan. Mamlakatning Sharqiy va Suriyaga tutash yerlarida amoriy qabilalari istiqomat qilishgan. Mamlakatda yahudiylar ham keng tarqalgan edilar.

Falastinda xo'jalikning rivojlanishi va shahar-davlatlarining tashkil topishi. M.av. IV mingyillik oxiri va III mingyillik boshlaridan Falastinda ishlab chiqarish xo'jaligi rivojlnana boshlaydi. Mamlakatning g'arbiy qismidagi unumdon tuproqli joylarda yashagan aholi asosan sug'orma ziroatchilik bilan shug'ullangan. Ular bug'doy, arpa, tariq, suli ekib, sabzavotchilik bilan mashg'ul bo'lganlar. Ziroatchilar uzum, anjir, anor, zaytun, olma va boshqa

mevali daraxtlar ekib bog'dorchilikka ham katta e'tibor bergenlar. Sohibkorlar maxsus ezuvchi uskunalar yordami bilan uzumdan musallas, zaytundan esa zaytun moyi olganlar. Ular yerni dastlab motiga-ketmoncha bilan yumshatib, keyinchalik omoch bilan haydab so'ng ekin ekkanlar. Ziroatchilar suvli joylarda sug'orma. suvsiz joylarda esa lalmikor dehqonchilik bilan shug'illangan.

Aholining bir qismi dasht va tog'larda yashab, qoramol, qo'y-echki, ot-eshak boqib, chovachilik bilan ham shug'illanganlar. It ham chorvador aholining eng yaqin doimiy yordamchisi bo'lgan.

Falastinda qadim zamonlardan boshlab hunarmandchilik, kulolchilik, qurolozlik, to'qimachilik, zargarlik taraqqiy etgan edi. Falastinliklar bundan 5 ming yil muqaddam jezni ixtiro qilib, undan pichoq, nayza, kamon o'qlari paykonlari, xanjar, bolta va boshqa ro'zg'or buyumlari yasaganlar. Bundan 3-3,5 ming yil muqadda esa u yerda temir kashf etilgan. Hunarmandlar temirdan qishloq xo'jaligi qurollari, yarog'-aslaha va boshqa buyumlar yasaganlar. temir qurollarni qo'llash xo'jalikning hamma tarmoqlari rivojlanishi uchun katta imkoniyat bergen.

Falastin ustalari ishlagan to'qimachilik, zargarlik, kulolchilik buyumlari savdo-sotiq rivojlanishini yanada tezlashtirgan.

M. av. III ming yillik oxiri va II ming yillik boshlariga kelib Falastinda Gezer, Megiddo, Laxish, Iyerusalim (Quddus) kabi shahar-davlatlar qad ko'targan. Bu shahar-davatlarning o'z hokimlari, podsholari, ruhoniylari, amaldorlari, soqchi va qo'shini bo'lgan. Shaharlar qalin mudofaa devorlari, minoralari bilan o'rabi olingan edi.

M.av. XIX-XVIII asrlarda Falastin shaharlari gullab-yashnagan. Shahar-davlatlar Misr, Yunoniston, Bobil. Xett. Finikiya, Karfagen kabi mamlakatlar bilan qizg'in savdo-sotiq ishlari olib borganlar.

Falastinning qo'shni mamlakatlar tomonidan istilo qilinishi va Isroiyl-Yahudiy podsholigining tashkil topishi. Falastin shaharlarining boyliklari qo'shni mamlakatlar, ayniqsa Misr fir'avnlari, ossuriylar, eroniylar va sargoniy podsholari diqqatini o'ziga tortib kelgan. Ular ayniqsa, Falastin shaharlariga bostirib kirib,

uning boyliklarini talab qaytganlar va uni o'zlariga tobe qilib ol-ganlar, aholisini qul qilib olib ketganlar.

M.av. XIII asrda esa Frot daryosi ortida yashagan ko'chmanchi yahudiy qabilalari Falastinga bostirib kirgan. Uzoq davom etgan qonli janglardan so'ng Yahudiylar Falastinni bosib oladilar va Saul degan kishini podsho qilib saylaydilar. U Isroil podsholigini tuzib, *filistimlarga* qarshi kurash boshlaydi. Janglarning birida Saul qo'shinlari yengilib, uning uch o'g'li ham jangda halok bo'ladi. Bu noxush xabarni eshitgan Saul o'zini qilich tig'iga tashlab halok bo'ladi. Saul vafotidan so'ng Falastinni birlashtirishni uning kuyovi **Dovud** (1000–965) davom ettiradi. U Saulning o'g'li **Ishvaa'lampa** qarshi 7 yil kurashib uni yengadi va Isroil-Yahudiy podsholigiga asos soladi. Dovud qo'shinlari Gat shahri yaqinidagi jangda filistimlarni engadi va ularni Isroildan haydar chiqaradi. U Qudusni egallab, uni birlashgan podsholikning markaziga aylantiradi. Dovud mamlakatda osoyishtalik o'rnatib, obodonchilik ishlariga ham katta e'tibor qaratadi. U filistimlar bilan sulu tuzib, ulardan yollanma qo'shin ham tuzadi. Janubda Akab qo'ltig'igacha bo'lgan yerlarni podsholikka qo'shib oladi. Dovud davrida Isroil-Yahudiy podsholigi kuchayib ravnaq topadi va mamlakat xo'jaligi rivojlanadi.

Isroil-Yahudiy podsholigining ravnaq topishi va yemirilishi. Dovud vafotidan so'ng taxtga uning o'g'li Sulaymon (965–935) o'tiradi. Sulaymon davrida Isroil-Yahudiy podsholigi gullab-yashnaydi. Mamlakat xo'jaligi har tomonlama rivoj topadi. U Tirdan temirchilarni, Bobildan duradgorlarni chaqirib, qurilish ishlarini avj oldirib yuboradi. Kilikiyadan ajoyib otlarni keltirib, sottirishga kiri-shadi. Ofir mamlakatidan esa qimmatbaho toshlar, oltin, kumush, fil suyagi, maymun va tovuslar keltirilgan. Mamlakatdagi qurilish ishlariga katta mablag' kerak edi. U mablag' toplash uchun yangi soliqlar joriy qiladi. Bu hol xalq ommasining noroziligiga sabab bo'lib isroilliklar Sulaymonga qarshi **Iyerovoam** boshchiligidagi qo'zg'olon ko'taradilar. Qo'zg'olon Sulaymon askarlari tomonidan shafqatsizlik bilan bostirilib, Iyerovoam Misrga qochib ketadi.

M. av. 935-yilda Sulaymon vafot etgach, taxtga uning o'g'li Rovoam o'tiradi. Bu davrida mamlakatdagи ahvol yomonlashib,

Iyerovoam Misrdan katta qo'shin bilan qaytib kelib. Rovoam qo'shinlarini yengib Isroil podsholigini qayta tiklaydi.

M. av. 930-yili Misr fir'avni Falastinga bostirib kirib shahar va qishloqlarni vayron qiladi. Shu davrda Ossuriya qo'shinlari ham Falastinga bostirib kirib Isroil podsholigini tor-mor etadilar. Sargon II m. av. 722-yili Samariya shahrini bosib olib, Isroil podshosi Osiyani va 27290 isroillikni asir olib, ularni Midiya va Mesopotamiyaga joylashtiradi. Shundan so'ng Isroil podsholigi barham topadi. Keyinchalik Yahudiy podsholigi o'zini tiklab oladi. M.av. VII asr oxirlarida Falastin Misr fir'avnlari ta'siriga tushib qoladi.

M.av. 597–586-yillar orasida olib borilgan janglar natijasida Falastin Bobil podshosi **Navoxodonosor** II tomonidan bosib olinib, Quddus shahri vayron qilinib, aholining katta qismi Bobilga asir qilib haydab ketiladi. Keyinchalik falastinliklar dastlab eroniylar, so'ng yunon-makedonlar va nihoyat Rim sultanati ta'siriga tushib qoladi.

3-§. Qadimgi Suriya va Finikiya

Qadimgi Suriya va Finikiyaning tabiatи va aholisi. Suriya va Finikiya O'rtayer dengizining Sharqiy sohilidagi qadimgi mamlakatlar hisoblanadi. Dengiz sohili bo'ylab **Finikiya**, undan sharq va janubi-sharqda **Suriya** joylashgan edi. Mamlakatlarning g'arb tomoni dengiz suvlari bilan, sharq tomonidan Suriya-Mesopotamiya dashti bilan o'rалган bo'lib, Suriya va Finikiya yerlarining bir qismini **Livan** va **Antilivan** tog'lari qoplab yotadi. Tog'lar orasidan *Iordan*, *Oront* daryolari, ko'plab soy va jilg'alar oqib chiqadi. O'lka iqlimi o'ziga xos, g'arb tomoni iliq, yoqimli shuningdek ser-yomg'ir. Sharq tomoni dashtlik, issiq, kamyog'in va qurg'oqchil. Qishning harorati ham xilma-xil. Qishda tog'larga ko'p qor yog'ib, bahorda esa tog' yonbag'irlarida yog'ingarchilik ko'proq bo'la-di. Bir arab maqolida „*Mamlakatning boshida qish, kaftida kuz, oyog'ida esa doim bahordir*”, deyilgan ekan.

Finikiya va Suriyada odamlar o'ta qadim zamonlardan beri yashab kelganlar. Bu o'lkaning eng qadimgi aholisi *hurriylar*, amo-

riylar va "Sharq bolalari" deb atalgan qabilalar bo'lishgan. Keyinchalik bu yerga xettlar, somiylar, eroniylar, yunonlar va rimliklar kelib joylashgan.

Suriya va Finikiyada shahar-davlatlarining tashkil topishi.

M.av. VIII–VII mingylliklarda bu o'lkada o'troq dehqonchilikka asoslangan ilk qishloqlar paydo bo'ldi. M.av. VI–IV mingylliklarda esa bu qishloqlar kengayib, xo'jaligi rivoj topdi. Aholi orasida xususiy mulk, mulkiy tengsizlik va tabaqalanish shakllana boshlaydi. Keyinchalik esa ibridoq qishloqlar o'mida **Ugarit, Arvad, Bibl, Sidon, Tir, Damashq, Ebla va Kadesh** kabi shahar-davlatlar tashkil topadi. Bu shahar-davlatlarning har birining o'z podshosi, qo'shini, soqchilari, qamoqxonalari, amaldorlari, qozilari va ma'muriy idoralari bo'lган.

M.av. XX asrdan XVI asrgacha Finikiya va Suriyaning ayrim shahar-davlatlari, xususan Bibl Misrga tobe bo'lган. M.av. XIV asr oxirida xettlar shimoliy Suriyaga bostirib kirib, uni o'zlariga itoat ettirganlar. M.av. XIV–XII asrlarda esa Misr fir'avnlari va Xett podsholari Suriya va Finikiyani talashib qonli janglar olib borgan. Bu jang m.av. 1280-yildagi **Misr-Xett** sulhi bilan tugagan. Sulhga ko'ra Suriya va Finikiya Misr va Xettlar tomonidan bo'lib olingan. Mamlakatning shimoli Xett podsholigiga, janubi esa Misrga qaram bo'lib qoladi.

XIII asrda Suriya va Finikiyaga dengiz xalqlari hujum qilib, uning shahar qishloqlarini talab vayron etadilar. Uzoq davom etgan qonli janglar va ichki nizolar natijasida Misr va Xettlar davlati kuchsizlanadi. Bundan foydalangan Suriya va Finikiya shaharlari mustaqillik uchun harakat boshlaydilar. M.av. XI–X asrlarda **Bibl, Sidon va Tir** ancha yuksaladi. **Xiram I** (965–936) davrida **Tir-Sidon** podsholigi kuchayadi. Shu davrda Finikiya dengizchilari Misr fir'avni Nexo taklifiga ko'ra Qizil dengiz bo'ylab suzib, 3 yil deganda Afrika qit'asini aylanib, Gibraltar bo'g'ozni, O'rtayer dengizi orqali vatanlariga qaytganlar. Finikiyaliklar O'rtayer sohilidagi ba'zi joylarda o'z manzilgohlarini barpo qilganlar. Ulardan eng mashhuri Karfagen edi.

Keyinchalik Finikiya va Suriya o'z mustaqilligini yo'qotib Os-suriya, Bobil, Eron, Yunon-Makedon, Salavka va Rim sultanati ta'siriga tushib qoladi.

Yamxad va Geksoslar davlati. M. av. XVIII asrda amoriy qabilalarining katta guruhi Shimoliy Suriyaga bostirib kiradi. Ularning sardori **Sumuepax** Yamxad davlatini tuzib, o'zini hukmdor deb e'lon qiladi. U Karxemishdan Katnagacha bo'lgan yarlarni bosib oladi. Sumuepaxning vorisi **Yarmilim** o'zini shoh deb e'lon qilib, Xalapni davlat markaziga aylantiradi. Yamxadliklar Mari va Bobil bilan qizg'in savdo-sotiq ishlari olib borib, ularga *bug'doy, zaytun moyi, musallas, hunarmandchilik va kulolchilik buyumlari* yetkazib beradilar. Ulardan esa quroq, qo'rg'oshin va zargarlik buyumlari keltiradilar.

Ammo XVIII asr oxiriga kelib, Yamxad davlati kuchdan ketib, o'z mustaqilligini yo'qotadi. M. av. XVIII asr oxiri XVII asr boshlarida Yamxaddan janubdag'i bepoyon dashtlarda giksoslarning harbiy ittifoqi tashkil topadi. Ular Falastin va Janubiy Suriyadagi ko'pgina shahar-davlatlarni bosib oladilar. O'zlarining otliq qo'shini va jangovar aravalarida Shimoliy Misrga bostirib kiradilar. Nil daryosining quyi qismidagi Avaris shahrini mamlakat poytaxtiga aylantiradilar. Ular Misrda 120 yildan ortiq hukmronlik qiladi. M.av. 1580-yili giksoslar Misrdan quvib chiqariladi. Misrliklar Finikiya, Falastin va Suriyada o'z hukmronliklarini o'rnatgach, XV asrga kelib giksoslarning harbiy ittifoqi tarqalib ketadi.

Aholining xo'jaligi. O'rtayer dengizining sharqiy sohilida-gi yerlar dasht-sahro va kichik-kichik unumdar vohalardan iborat bo'lgan. M.av. VI-IV mingyilliklarda aholi ekin maydonlari ni kengaytirib, *bug'doy, arpa, tariq, zig'ir* ekip, sabzavotchilik va bog'dorchilik bilan shug'illangan. Ular donni yormatosh va qo'l tegirmonlarda maydalab un tayyorlaganlar. Bog'bonlar mevali bog'lar va tokzorlar yaratish uchun tog' yonbag'irlaridagi yerdan unumli foydalangan. Misr yozuvlarining birida o'lkadagi mo'l-ko'llik haqida shunday hikoya qilinadi: "**Bog'lar mevalar bilan to'lib-toshib yotibdi. Vino ezbichdan suv kabi oqadi. Terassalarda to'kilib yotgan donlar shunday mo'l-ko'lki, hatto qumdan ham ko'p**".

Suriya va Finikiya yaylovlarida chorvachilik ham rivojlangan bo'lib, ular, qo'y, echki, qoramol boqib, it va mushuk saqlaganlar. Chorvadorlar aholini go'sht, yog', teri va jun mahsulotlari bilan ta'minlagan.

Suriya va Finikiyada hunarmandchilik qadim zamondan boshlab taraqqiy etgan. Livan va Antilivan tog'laridan sifatli temir qazib olganlar. Ularda tog'-kon sanoati rivojlangan. Ustalar temirdan qurol-aslaha, qishloq xo'jaligi asboblari, uy-ro'zg'or buyumlari va boshqa narsalar yasaganlar. Mamlakatda to'qimachilik ham rivoj topgan bo'lib, to'quvchilar jundan ajoyib gazlamalar tayyorlagan. Gazlamalarni dengiz mollyuskalaridan olingan qirmizi (to'q qizil) va pushti rang bo'oqlarga bo'yaganlar. Mato va kiyim bo'yog'i, u yuvilganda ham o'chib, aynib ketmagan. Bu mahsulotlar sifatli bo'lganini ko'rsatadi. Finikiyaning **Ugarit, Arvad, Bibl, Sidon** va **Tir** shaharlarda dengiz chig'anog'i ichidagi mollyuskalardan turli bo'yoq tayyorlaydigan ustaxonalar bo'lgan. Bu bo'yoqlar qo'shni mamlakatlarda yuqori baholangan. Mitanni podsholari qizlarini misrlik shahzodalarga uzatar ekanlar, sovg'alari qatorida har turli bo'yoq, turli rangdagi kiyim-kechak, gazlamalar ham hadya qilar ekanlar. Shubhasiz, bu xil bo'yoqlar Mitanniga Finikiyadan keltilgan bo'lsa kerak. Dengiz mollyuskalarini finikiyalik maxsusus g'ovvoslar dengiz ostidan olib chiqqanlar.

Suriya va Finikiyada shishasozlik, zargarlik, miskarlik, temirchilik, qurolsozlik, kulolchilik, me'morchilik va ayniqsa kemasoziq yuksak darajada taraqqiy etgan edi. Finikiyaning **Ugarit, Arvad, Bibl, Sidon** va **Tir** shaharlari sohilida kemasoziq ustaxonalari bo'lgan. Finikiya kemalari o'zining tezyurarligi va sifatliligi bilan shuhrat qozongan. Yunon tarixchisi Gerodot "Fors kemalari ichida finikiyaliklar yasab bergen kemalar juda yaxshi yurishi bilan boshqalarnikidan ajralib turadi", deb yozgan edi.

Finikiya o'sha zamondayoq o'zlarining jasur qo'rmas dengezhilar va ishbilarmon savdogarlari bilan shuhrat qozongan. Ular m.av. XVI asrdayoq O'rtayer dengizi sohilidagi mamlakatlar bilan qizg'in savdo-sotiq ishlarini olib borganlar. Atlantika okeaniga chiqib, uning G'arbiy sohillari bo'ylab suzib, Britaniyagacha yetib borganlar. Ular Shimoliy Afrikadagi Karfagenda o'z manzilgohlarini qurban. Qora dengiz sohilidagi mamlakatlar bilan qizg'in savdo ishlari olib borganlar. Finikiyaliklar Bobil, Misr, Midiya bilan quruqlik yo'li orqali savdo-sotiq ishlarini olib borgan.

Suriya va Finikiyadan xorijiy o'lkalarga shisha, oyna, zaytun moyi, musallas, qimmatbaho gazlama, zargarlik buyumlari, sifatli qora yog'och, turli bo'yoq va boshqa narsalar chiqarilgan. Xorijiy mamlakatlardan esa mamlakatga ziravor, oltin, kumush, fil suyagi va boshqa buyumlar keltirilgan.

Qadimgi Suriya va Finikiya madaniyati. Suriya, ayniqsa Finikiya Old Osiyodagi madaniyat rivojlangan mamlakat bo'lган. Bu mamlakat xalqi erishgan yutuqlardan biri bu yozuv alifboning ixtiro qilinishidir. Ular m.av. II mingyllik boshlaridayoq bobilliklar mixxati asosida alifbo tuzganlar. M.av. IX–VIII asrlarda esa Finikiyada 24 belgidan iborat yozuv kashf etilgan. Finikiya yozuvi o'sha zamonaldayoq atrof o'lkalarga yoyiladi.

Finikiya va Suriyada rassomchilik, haykaltaroshlik, xalq og'zaki ijodiyoti va adabiyoti ancha erta rivoj topgan. Ular tosh, fil suyagi, yog'och va turli ma'danlardan hayvon, odam va xudolarning haykallari va rasmlarini mohirlik bilan ishlaganlar.

Suriya va Finikiyada **matematika, geografiya, dengizchilik, astronomiya, tarix, yer bilimi, kimyo va fizika fanlari** rivoj topgan edi. Gerodot ma'lumotlariga ko'ra, m.av. VI asrda yashagan miletlik mashhur matematik, fizik, astronom va faylasuf **Fales** asli finikiyalik ekan. Sidonlik faylasuf **Mox** esa yunon faylasuf-matematiklaridan ancha oldin atomlar haqidagi nazariyani ilgari surgan.

Suriya va Finikiyada dastlabki ibridoib din shakllari – tabiat hodisalariga, qoyatoshlarga, hayvon va boshqa buyumlarga e'tiqod qilish keng tarqalgan. Ularda yer va dehqonchilik bilan bog'liq e'tiqodlar ham kuchli edi. Ularning diniy e'tiqodida o'lish va tirilish kabi tabiat xudolari **Vaal** va uning o'g'li **Alyaap** alohida hurmatga sazovor ekan. **Mot** ularda o'lim xudosi hisoblangan. **Molox** ham hurmatli xudolaridan bo'lган. Finikiyada bayram kunlari odamlarni xudolar sharafiga qurbanlik qilganlar.

M. av. III asrda Finikiya manzilgohi hisoblangan Karfagenda xudo Molox haykali oldida bolalarni gulkanga tiriklayin tashlab, kuydirib qurbanlik qilganlar.

3-§. Qadimgi Karfagen davlati

Qadimgi Karfagenning geografik o‘rni, tabiiy sharoitlari va aholisi. Karfagen O‘rtayer dengizining g‘arbida, Afrikaning shimali-g‘arbiy burchagida joylashgan qadimgi quzdorlik davlatlaridan biri hisoblangan. Karfagen tarkibiga O‘rtayer dengizinig g‘arbidagi Malta, Sardiniya, Korsika, Balear orollari va Sitsiliyaning g‘arbiy qismi kirgan. Shuningdek, keyinchalik shimoliy Afrikadagi Utika va Ispaniyadagi Gades shaharlari ham Karfagen qo‘sishlari tomonidan bosib olingan. Karfagen hozirgi Tunis o‘rnida bo‘lgan.

Hozirgi Tunis, qadimgi Karfagenning yer usti tuzilishi xilma-xil bo‘lib, hududining 3/1 qismini Atlas tog‘lari va mamlakat shimalidagi balandligi 1520 metrgacha bo‘lgan yassi tog‘lik tashkil etadi. Mamlakatning markaziy qismida ayrimlari dengiz sathidan past joylashgan sho‘r ko‘llar ham mavjud bo‘lgan tekislik va pasttekisliklar bor. Janub va sharq tomonlarini Sahroyi Kabirning qumlari o‘rab turadi. Karfagenta daryolar kam, asosiy suv manbasi Majarda daryosidir.

Mamlakat iqlimi subtropik, janubiy va sharqiy tomoni issiq-jazira. Karfagen shimalida agava, apunsa, yovvoyi zaytun, eman va boshqa o‘simliklar o‘sadi. Janubida esa tikanli butalar, lishayniklar, sahro daraxtlaridan talxa va etallar o‘sadi. Hayvonot dunyosi u qadar boy emas. Yirik hayvonlari qora qoplon, tog‘ qo‘yi, qoraxal, silovsin, yovvoyi mushuk, gepard, shoqol va tulkidan iborat. O‘rtayer dengizida esa baliqlar va suv hayvonlari serob bo‘lgan.

Bu hududda o‘ta qadim zamondan boshlab odamlar istiqomat qilishgan. Atlas tog‘laridan topilgan qadimgi qazilmalarga ko‘ra odamlar yashagan davr m. av. 400–350 mingyilga borib taqaladi. Ular fanda “atlantrop” – atlantika odami nomi bilan mashhurdir. Mamlakat aholisining asosiy qismini barbarlar, tunisliklarning ajoddlari va finikiyaliklar tashkil qiladi. Keyinchalik esa bu yerga rimliklar ham kelib o‘rnashgan. Milodiy V asrda mamlakat vandallar tomonidan egallanib talon-taroj qilingan.

Karfagen tarixining ilk davri va Finikiya manzilgohining markazi. O‘rtayer dengizining g‘arbiy qismida Finikiya manzil-

gohlariga m.av. II mingyillikning oxiri va I mingyillik boshlarida asos solingan. M.av. I mingyillik boshlarida shimoliy Afrikadagi Utika va Ispaniyadagi Gades yirik shahar markazlariga aylanigan. Ammo Finikiya manzilgohlari orasida Karfagen iqtisodiy va siyosiy jihatdan nihoyatda kuchaygan va taraqqiy etgan.

Karfagenga finikiyaliklarning Tir shahridan chiqqan kishilar m.av. IX asrda – 825–814-yillarda asos solganlar. Karfagen katta va o‘ziga xos shahar bo‘lib, Shimoliy Afrika sohilidagi kichik yarmorolda joylashgan edi. Finikiyaliklar uni Kar Xadatiy – “Yangi shahar” der edilar. Shahar geografik jihatdan juda qulay yerda joylashgan edi. Chunki Karfagen ham dengiz, ham quruqlikdan kesib o‘tadigan yirik savdo yo‘lining chorrahasida o‘rnashgan. Shaharga dastlab kelib o‘rnashganlar mahalliy aholi vakillariga soliq to‘lashlari lozim edi. Hududda suv manbalari tanqis bo‘lganligi bois ekin ekiladigan yangi yerlar kam edi. Dastlabki yillarda ziroatchilik mamlakat xo‘jaligi uchun ahamiyatsizroq edi. Keyinchalik shahar atrofida ekin ekiladigan yerlar kengaytira borilgan. Yoki finikiyaliklar mahalliy qabilalardan yerni ijara olgan va ziroatchilik bilan shug‘ullana boshlaganlar.

M. av. VII asr o‘rtalaridan boshlab Karfagen tarixida dastlabki yuksalish boshlanadiki, bu jarayon ikki yuziyil davom etadi. Bu davrda Karfagen G‘arbiy O‘rtayer dengizidagi Finikiya manzilgohlarining markaziga aylanadi.

M.av. VII asr o‘rtalaridan boshlab Karfagen Shimoliy Afrikada hunarmandchilik va savdo-sotiq yuksak darajada rivoj topgan yirik Finikiya shahriga aylanadi. Karfagen shahar-davlati O‘rtayer dengizidagi ko‘pgina viloyatlar va mamlakatlar bilan qizg‘in savdo-sotiq ishlarini olib boradi. Karfagenning kemalar kelib to‘xtaydigan qo‘ltig‘i qayta qurilib, u harbiy kemalarning ham kirib chiqishi va turishi uchun mo‘ljallangan edi. Karfagen Shimoliy Afrikadagi kuchli shahar-davlat sifatida G‘arbiy O‘rtayer dengizi sohillaridagi yerlarni o‘ziga qaratib ola boshlaydi.

Karfagen m.av. VII asrda Ispaniya yaqinidagi Pitiusk orolida joylashgan Ebos shahrini ham bosib olib, o‘z manzilgohiga aylantiradi. Karfagenliklar Ebosdan turib kuchli Finikiya shahri Gadesni tor-mor keltiradilar.

M.av. VII–VI asrlarda karfagenliklar Pireney yarimorolining janubiy hududlariga kirib borib, u yerga o'mashadilar. Ammo karfagenliklarning yarimorolning Sharqiy hududlarini bosib olish uchun qilgan harakatlari natijasiz tugaydi. Chunki mahalliy aholi Ispaniyaning sharqiy sohillarini Karfagen qo'shinlari tomonidan bosib olinishiga qattiq qarshilik ko'rsatadilar.

M.av. VI asr o'talarida karfagenliklar Sitsiliyaning g'arbiy qismi va Ispaniyaning janubiy hududlarini ham o'z ta'siriga o'tkazish siyosatini olib boradilar.

M.av. VI asr oxirlarida Karfagen ahamoniylar sultanati bilan diplomatik munosabat o'rnatadi. M.av. VI asr o'talarida karfagenliklar Italiyaning markaziy qismida yashagan etrusklar bilan do'stona munosabat o'rnatadi. Karfagen etrusklar bilan ittifoq bo'lib Sitsiliya, Sardiniya va Korsika orollariga bosim o'tkaza boshlaydi. M.av. 525-yilda Karfagen-Etrusk birlashgan dengiz harbiy floti Korsika oroli yaqinidagi Alaliya degan joyda yunon dengiz flotini tor-mor etadi. Ittifoqchilarning kelishuviga muvofiq, Korsika etrusklar ta'siriga o'tadi. Karfagenliklar esa Sardiniya oroliga bostirib kirib, uning janubida mustahkam o'mashib oladi.

M.av. VI asrda Karfagen Pireney yarimorolining janubiy hududlarida o'z mavqeyini mustahkamlab olishga harakat qiladi.

M.av. V asrda Eroniyarning Yunonistonga bostirib kirishi munosabati bilan (500–449) Karfagen yunonlarning Sitsiliyadagi shahlariga yangidan hujum boshlaydi. Ammo Karfagen qo'shinlari etrusklar yordamiga tayanib m.av. 480-yilda Gimere va 474-yilda Kumdag'i dahshatli jangda yunon qo'shinlarining qarshiligiga uchraydi. Bu jangdan so'ng Karfagen Sitsiliya orolining chekka g'arbidagi shaharlarini qo'lda saqlab qoladi xolos.

Karfagen sultanatining tashkil topishi va uning ijtimoiy iqtisodiy manosabatlari. M.av. V–III asrlarda Karfagen quldarlik davlati o'z kuch-qudratining yuqori pog'onasiga ko'tariladi. Karfagen qo'shinlari Sitsiliyadagi mag'lubiyatdan so'ng tashqi siyosat sohasidagi harakatlarini Shimoliy Afrikaga qaratadi. Karfagen qo'shinlari shahar atrofi va qo'shni qabilalar yashaydigan yerlarni bosib olib, qo'shib oladi. Shuningdek, karfagenliklar hozirgi Tunis,

Jazoir, G'arbiy Afrikada joylashgan Marokash, Mavritaniya kabi Atlantika okeani sohillaridagi davlatlarning yerlarini ham bosib oladi.

Mazkur davrda Karfagen G'arbiy O'rtayer dengizidagi Korsika, Sardiniya, Malta, Ispaniyaning janubi va Afrikaning Atlantika sohillarini egallab o'z davrining siyosiy va iqtisodiy jihatdan qudratli davlatiga aylanadi va o'zining istilochilik siyosatini davom ettiradi.

Ma'lumki, m.av. V-IV asrlarda Karfagen O'rtayer dengizidagi eng yirik savdo-sotiq markazlaridan biriga aylandi. Uning hududiga Sharqiy O'rtayer dengizi sohillarida joylashgan Finikiya, Misr, Kichik Osiyo, qator yunon shaharlari. Sahroyi Kabir ichkarisidan, shuningdek, Atlantika sohillaridagi mamlakatlardan turli -tuman buyumlar kelar edi. O'z o'rnida Karfagendan nomlari zikr qilingan mamlakatlarga xilma-xil buyumlar chiqarib sotilar edi. Chetdan kelgan buyumlarni oldi-sotdi savdosida karfagenlik savdogarlar vositachilik vazifasini bajarar edilar. Shuni aytib o'tish joizki Karfagen ko'rfazida dengiz kemalari kirib kelib turadigan va chiqib ketadigan joylar orasta qilib qo'yilgan edi. Uzoqdan kelgan savdogarlar va ularning buyumlarini saqlash uchun omborlar va odamlar uchun turar joylar, mehmonxonalar ham bor edi.

Karfagenliklar tashqariga metall buyumlar va qullarni chiqarib sotar edilar. Ular pul zarb qilmas, oldi-sotdida yunon va eron tangalaridan, shuningdek, qimmatbaho metallardan foydalanan edilar.

M.av. V-III asrlarda Karfagen shaharlarida zargarlik, kulolchilik, haykaltaroshlik, temirchilik, qurolsozlik, kemasozlik, du radgorlik, to'qimachilik, tilla, kumush, mis va qo'rg'oshindan turli buyumlar ishlaydigan ustalar faoliyat ko'rsatar edilar. Shuni ham aytib o'tish joizki, m.av. V-IV asrlarda Karfagenga qarashli yerdarda bug'doy, arpa, don ekinlari ekish, bog'dorchilik, uzumchilik ham rivoj topgan edi. Qishloq xo'jaligida erkin dehqonlar bilan birga yollangan ishchilar va qullar ishlar edilar. Katta yer egalari ning mulklarida esa ko'proq qullar ishlatilgan.

Karfagen jamiyati asl ma'noda quldarlikka asoslangan bo'lib, aholi oliy tabaqa, oddiy fuqaro va qullar tabaqasidan iborat bo'lgan.

Karfagen quldorlik davlatining siyosiy tuzumi. Karfagen quldorlik davlatining siyosiy tuzumi Misr, Qadimgi Bobil, Eron kabi yakka hokimlikka asoslangan tuzumga o'xshamas edi. Karfagenning siyosiy tuzumi Yunonistondagi kabi hokimiyat bir to'da qudratli zodagon harbiy kishilar qo'lida bo'lgan siyosiy tuzum edi.

M.av. V-IV asrlarda davlat hokimiyatining oliv vazifalariga mahalliy aholining boy, qudratli zodagonlari va harbiylari bir yil muddatga saylanar edi. Bu siyosiy tuzumni tarix tilida oligarxiya deyiladi. Ammo butun davlat ishlari 30 kishilik oliv kengash va 300 kishidan iborat oqsoqollar kengashi tomonidan hal qilingan. Shuningdek, 104 kishidan iborat Kengash, sud ishlarini bajaruvchi oliv nazorat tashkiloti ham mamlakatda katta mavqega ega edi. Bu tashkilotga, kengashga asosan mamlakat aholisining eng boy va mashhur kishilari, oilalari, kamdan-kam hollarda oddiy ijtimoiy guruhlardan ham vakillar saylanar edi.

Karfagenda mahalliy aholidan iborat xalq yig'ini ham chaqirilib turardi. Ammo uning mamlakat siyosiy hayotdagagi o'rni ahamiyatsiz edi. Hamma jabhalarida oligarxlarning – zodagon, boy kishilar va harbiylarning ta'siri nihoyatda kuchli edi. Ular mamlakatda bo'layotgan voqealarni sinchkovlik bilan kuzatib borar, qaysidir boy zodagon oilalarni davlat hokimiyatini qo'lga olib boshqarishga yo'l qo'ymas edilar. Mamlakatda ba'zan hokimiyatni o'z qo'liga olib yakka hokimlik qilishga intilgan shaxslar yollangan askarlarning sarkardalari orasida uchrandi. Masalan, m.av. VI asrning o'rtalarida yashagan yollanma qo'shin sarkardasi Malx Sitsiliyadagi urushni zafarli tarzda tugatib o'zining jangovar harbiy floti bilan Karfagenga suzib kelgan. U Karfagenga kelgach, karfagen oligarxiyasi faoliyatini ikkinchi o'ringa surib, o'zining harbiy zo'ravonlik diktaturasini o'matgan. Ammo uning zo'ravonlik diktaturasi mustahkam bo'limgan. Sitsiliyadagi navbatdagi urush muvaffaqiyatsiz tugagach, Malx Karfagenden quvg'in qilingan. Malx mamlakatdan haydalib, uning hokimiyati barham topgandan so'ng, karfagenlik eng boy xonadondan bo'lgan zodagon Magon hokimiyatni o'z qo'liga oladi. Hokimiyatni qo'liga olgan Magon davlatni boshqaruv ishini o'g'li va nabiralariga meros qilib qoldi-

rish siyosatini amalga oshiradi. Magonilar sulolasi Karfagenda 150 yilcha hukmronlik qiladilar. Magoniylarning Sitsiliya, Sardiniya va Korsika orollarida olib borgan zafarli urushlari ular hokimiyat tepe-sida uzoq turib qolishiga sabab bo'lgan.

Karfagen qo'shinlari m.av. 480 va m.av. 474-yillardagi yunonlar bilan bo'lgan urushda qaqshatqich zarbaga uchragach, Magonilar sulolasi hokimiyatdan chetlatilgan. M.av. V asrning o'rtalariga kelib Karfagenda karfagen oligarxiya hukumati to'laligicha qayta tiklandi.

M. av. V asr va III asr oralarida Karfagen O'rtayer dengizining g'arbidagi eng qudratli davlatga aylanadi. Ammo m. av. III asrning 60-yillariga kelib Karfagen g'arbiy O'rtayer dengizida o'ziga nisbatan kuchli bo'lgan raqibi Rim sultanati bilan ayovsiz janglar olib borishiga to'g'ri keldi. Birinchi, ikkinchi va uchinchi Puni urushi natijasida karfagenliklar ba'zan g'alabaga erishgan bo'lsalar, uchinchi jangdagi mag'lubiyat natijasida Karfagen davlati va shahri vayron etilib, bu joylar Rim sultanati mulkiga aylandi.

Karfagen madaniyati. Finikiyaliklar davlati, shuningdek, uning mustamlakasi – metropoliyasi hisoblangan. Karfagen-Tir madaniyati o'ziga xos xususiyat kasb etgan. Uncha katta bo'lma-gan Finikiya katta shahar-davlatlari Misr, Xett, Bobil, Ossuriya va boshqa shahar-davatlarning siyosiy va madaniy ta'siri ostida bo'lgan. Shu bois ularning madaniyati mazkur Sharq xalqlari madaniyati ta'siri ostida vujudga kelgan va rivoj topgan. Ana shunday jarayon ya'ni mahalliy va qo'shni xalqlar madaniyatining aralashuvi, qorishuvi natijasida karfagenliklar madaniyati shakllangan va taraqqiy etgan. Karfagenliklar hamisha mahalliy aholi, shuning-dek, O'rnatayer dengizi havzasasi va qirg'oqlarini bosib olish va mustamlakaga aylantirish jarayonida o'zlarining raqiblari yunonlar va rimliklardan xavfsiragan, xavotirlanganlar. Shu bois ular dastlabki vaqtlardan juda ko'p mablag', kuch va vaqt talab qiladigan urushlarda band bo'lganlar. Shuning uchun ham karfagenliklar yuqori darajadagi o'ziga xos madaniyat yaratishga erisha olmaganlar. Karfagenda xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyot, tasviriy san'at, shuningdek, falsafa ham juda sust rivojlangan edi.

Karfagenliklar Qadimgi Sharq va Yunon mualliflari va ularning asarlaridan foydalanishni ma'qul ko'rganlar. Ular Gomerning "Odisseya va Iliada" dostoni, Gerodotning "Tarix" kitobi. Yunon tragediyasining buyuk namoyandalari bo'lgan Esxil, Sofokl, Evripid, Yunon komediyasining yirik vakili Aristofanning asarlari bilan tanish bo'lganlar va ularni maroq bilan o'qiganlar.

Shuningdek, karfagenliklar yunonlarning mashhur faylasuf, shoirlari va ularning asarlarini yaxshi bilganlar. Ammo Karfagendan chiqqan mashhur faylasuf, adib, notiq va shoirlarning nomlari qadimgi manbalarda kam uchraydi.

Lekin Karfagenda ularning turmush tarzi bilan, hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan amaliy ilmiy bilimlar, xususan, dengizchilik, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq agronomiya, geografiya, matematika, astronomiya va shaharsozlik ancha rivojlangan edi.

Karfagenliklar va ularning ajdodlari finikiyaliklar O'rtayer dengizi sohillarida yashaganliklari uchun kemasozlik va dengizchilik yuksak darajada rivojlangan edi. Gerodot Finikiya dengiz kemalariiga yuksak baho bergenligi fikrimiz dalilidir. Ayni paytda karfagenliklar qishloq xo'jaligi, ziroatchilik ishlarining zukko bilimdonlari edilar. Karfagen dengizchilari Giskon rahbarligida Britaniya orollarigacha yetib borgan. Mashhur dengiz sayyohi Gannon ekspeditsiyasi ekvatorial Atlantika sohillari bo'ylab suzgan. Karfagen me'morlari shaharsozlikda ham katta yutuqlarga erishishgan. Me'morlar Karfagen shahri va uning qal'asini o'z zamonasi darajasida juda mustahkam qilib barpo qilganlar.

Bu hol u yerda amaliy me'morchilik ilmining rivojlanganligidan darak beradi. Me'morlar shaharni mustahkam tosh devorlar va mudofaa minoralari bilan o'rab qurbanlar. Uchinchi Puni urushi davrida rimliklar Karfagennenning mudofaa devorlari va minoralarini juda qiyinchilik bilan buzib shahar ichkarisiga kirganlar. Mahalliy aholi rimliklarga qattiq qarshilik ko'rsatgan.

Karfagenda yer bilimi ancha rivojlangan edi. U yerda Magon tomonidan agronomik – qishloq xo'jaligi, ziroatchilikka oid maxsus qo'llanma tuzilgan. Bu qo'llanma lotin tiliga tarjima ham qilingan. Undan ziroatchilar uzoq yillar davomida foydalanganlar.

Karfagenliklarning geografik bilimlari ham yuksak bo'lgan. Ular Afrika, O'rtayer dengizi, Atlantika okeanining Afrika sohillarini, Kanar va Azor orollarini juda aniqlik bilan xaritaga tushirgalar.

Shuni ham ta'kidlash o'tish joizki, karfagenlik dengizchilar Atlantika okeanini suzib o'tib Amerika sohillariga yetib borganlari ehtimoldan xoli emas.

Vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy (973–1048) G'arbda qandaydir quruqlik bor deganda, XV asrda Kolumb tomonidan "kashf" etilgan Amerikani ko'zda tutgan.

Karfagenliklar o'zlariga xos ma'naviy madaniyat yaratganlar. Ma'naviy madaniyatning bir turi din va diniy e'tiqodlar turkumidir. Karfagenliklarning dini qadimgi finikiyaliklarning an'analarini o'zida saqlab qolgan. Karfagenliklar finikiyaliklar singari ko'p xudolikka e'tiqod qilganlar. Ularning eng mashhuri Tinnit, Vaal-Melkart, Molox va boshqa xudolaridir.

Tinnit ayol xudo bo'lib, u shaharlar homisi oy, donishmandlik, to'kin-sochinlik, va tabiat kuchlarini tiriltiruvchi, jonlantiruvchi timsoli, mujassami sifatida gavdalananadi.

Karfagenliklarning izzatlari va hurmatli xudolaridan biri Vaal – Melkart hisoblanadi. U tabiatni tiriltiruvchi va o'ldiruvchi, kishilariga baxt-saodat, umrboqiylik va dushmanlarga dahshat, qo'rqinch soluvchi sifatida gavdalantirilgan. Karfagentliklarning yana bir xudosi Molox bo'lib, dahshatli urush xudosi hisoblangan.

Karfagenliklar mazkur xudolarga bag'ishlab dabdabali ibodatxonalar qurib, ularda ibodatlarni bajo keltirganlar. Tinnit xudosining ibodatxonasi binosi Birsada-Karfagen akropoli – qal'a, qasrida joylashgan edi. Birsa va Karfagen qal'asi shaharning eng mustahkam joyi hisoblangan. Birsa ibodatxonasining qulatilishi Karfagenning dushmanlar tomonidan qo'lga olinishi hisoblanardi.

Karfagenliklar o'z xudolariga bag'ishlab qurbanliklar o'tkazib turardilar. Xudolarini xursand qilish uchun hatto odamlarni qurbanlik uchun so'yganlar. Karfagen madaniyati G'arbiy O'rtayer dengizi va Shimoliy Afrika tarixida sezilarli iz qoldirgan.

4-§. Arabiston yarimorolidagi qadimgi davlatlar. Mamlakat va uning aholisi. Qadimgi Arabiston manbalari va o‘rganilish tarixi

Arabiston yarimorolining geografik o‘rni va tabiiy sharoitlari. Arabiston yarimoroli – Osiyodagi eng katta yarim orollardan biri bo‘lib, maydoni 3 mln kv km.ni tashkil etadi. Yarim orol g‘arbda Qizil dengiz, sharqda Eron va Omon ko‘rfazlari suvlari bilan, janubda esa Adan ko‘rfazi va Arab dengizi suvlari bilan yuvilib turadi. Aslida bu yarimorol Osiyoning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan.

Arabistonning katta qismini Katta Nefud, Dyaxna, Rub-al-Xali kabi jazirama dashti sahrolar egallagan. Hududning hayvonot dunyosi va o‘simgliklar olami boshqa joylarga nisbatan nihoyatda qashshoq. Yarimorolning shimol qismi “Arab sahrosi” deb atalib, uning g‘arbiy tomoni toshloq Sinay yarimoroli bilan tutashib ketadi. Shimol tomoni esa Suriya-Mesopatamiya dashtiga ulanadi. Uning g‘arbiy qismini Qizil dengiz bo‘yi dashtlari va sho‘rxoklari egallab yotadi. Arabistonda daryolar kam bo‘lib ular katta-kichik kam suvli soy va jilg‘alardan iborat. Sel-sovur paytlaridagina ularda suv oqadi. Ammo ularning aksariyati yoz mavsumida “vadi” deb atalgan quruq o‘zanga aylanadi. Oqqan soylarning suvlari ham borib-borib sahro qumlariga singib ketadi. Ichimlik suvi, umuman suv Arabistonda eng muhim muammolardan biri bo‘lib kelgan. Shu bois arablar qadimdan boshlab yomg‘ir suvlarini toplash maqsadida sun‘iy hovuzlar, suv omborlari, kanallar qurib ularga suv g‘amlaganlar, quduqlar qazib ularning suvidan o‘zлari foydalanib, chorvalarini sug‘organlar. Yarimorolning janubi-g‘arbiy qismida dehqonchilik qilish uchun biroz shart-sharoit mavjud bo‘lgan. Arabiston ladan, mirra, kassiya, balzam, aloe, koritsa, sitnik, shafran kabi dorivor vositalari butun sharq dunyosida mashhur bo‘lgan. Ulardan tabobatda keng foydalanilgan.

O‘sha davrda bu shifobaxsh o‘simglik vositalarni qadimgi Sharq dunyosi hatto Yunoniston va Rim ham sotib olgan.

Yarimorolni o‘ragan dengizlardan g‘avvoslar qizil marjon, qizil ba‘zan qora dur-inju va marvaridlar terib chiqqanlar. Yarimo-

rol hududida oltin, kumush, qo'rg'oshin, temir, qalay, surma kabi qimmatbaho, nodir ma'danlar ham bo'lgan. Janubi-g'arb va janubi-sharqdag'i tog'lar turli rangdagi marmar, oniks va alebastrga boy bo'lgan. U yerlarda zumrad, berillar, ferusza va la'l kabi qimmatbaho toshlar uchraydi. Yarim orolning har joy, har joyida tuz konlari ham bo'lgan. Hozirgi kunda yarim orolning eng muhim boyligi neftdir. Yarim orolning har joy, har joyida qadimgi o'chgan vulqonlar ko'zga tashlanadi.

Arab yarimorolidan ko'p tarmoqli karvon savdo yo'llari kesib o'tgan edi. Bu yo'llar Arabistonning janubi-g'arbidan boshlanib Qizil dengiz sohili bo'ylab shimolga O'rtayerdengizi sohili tomon yo'nalgan edi. Shimoliy Akaba qo'ltig'idan esa Gaza, Ashdod, Tir, Damashq tomon yo'nalgan karvon yo'li kesib o'tardi.

Savdo yo'lining boshqa yirik tarmog'i yarimorol janubidan sahro orqali Mesopotamiyaga tomon yo'nalgan edi. Yarimorolning Shimoliy qismidan Suriya va Bobilga ham yo'l kesib o'tib, Damashq, Suriya va Bobilga, undan esa Misr chegarasiga o'tib ketar edi. Arab yarimorolida quruqlik yo'lidan tashqari dengiz-suv yo'li ham faoliyat ko'rsatar edi. Qizil va Arab dengizlari va Fors qo'ltig'i orqali o'tadigan suv yo'lidan Sharqiy Afrika va Hindiston bilan qizg'in savdo aloqalari olib borilgan.

Bu savdo yo'llari orqali qizil, qora-sandal daraxtlari, fil suyagi, qimmatbaho tosh va boshqa buyumlar tashilar edi. Qizil dengiz sohillarida dengizchilar uchun qulay bo'lgan kemalar to'xtaydigan qo'ltiqlar mavjud bo'lgan.

Qadimgi Arabiston tarixining manbalari. Qadimgi Sharqning boshqa mamlakatlari kabi qadimgi Arabiston xalqlari tarixini o'rGANADIGAN O'ZIGA XOS MANBALARI BO'LIB, ULAR TO'RT TURKUMGA BO'LINADI:

- 1) Epigrafik ma'lumotlar.
- 2) Moddiy buyum yodgorliklari.
- 3) Qadimgi arablar haqida qadimgi sharq mamlakatlaridan topilgan yozma hujjatlar.

4) Qadimgi arablar haqida qadimgi mualliflarning ma'lumotlari.

Toshga, bronzaga va sopol buyumlarga yozilgan 5000 dan ortiq janubiy arab yozuvlari saqlanib qolgan. Mazmun jihatidan ular

ikki qismga bo‘linadi. Ularning biri farmonlar, qonunlar to‘plami, podsholarning harbiy yurishlari, ichki siyosat masalalari qurilish, bag‘ishlov, qabr toshlariga bitilgan yozuvlar, qarzdorlik hujjatlari va sug‘orish inshootlariga va boshqa narsaga bitilgan yozuvlardir. Ularning aksariyati sabeylar, mineylar, xadramaut, kataban va ausanlarga mansub bo‘lib, ular Janubiy Arabiston yerlaridan topilgan. Ba’zilari esa Shimoliy va Markaziy Arabistondan topilgan. Unda savdogarlar, karvonboshilar, hukmdorlarning bu hududga uyushtirgan harbiy yurishlari haqida hikoya qilinadi.

Ba’zi yozuvlar Misr, Mesopotamiya, Delos oroli, Falastin va Efiopiyadan ham topilgan.

Bu yozuvlarning ba’zilari esa Shimoliy va Markaziy Arabiston dashtliklaridan ham topilgan. Janubiy Arabiston yozuvlarining sanasi haqida yagona fikr mavjud emas. Ba’zi olimlarning fikricha, bu yozuvlarning eng qadimgisi m.av. II–I mingyilliklarga mansub desalar, boshqa guruh olimlar ularni m.av. VIII asrga mansub deyildilar. Boshqa olimlar esa bu yozuvlarning sanasi m.av. V asrga tälluqli deb faraz qiladilar.

Epigrafik bitiklar, xususan arab yozuvlari bu hududda yashagan aholining tarixini o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Qadimgi Arabistonning moddiy madaniyati yodgorliklari – bu shahrlar, ibodatxonalar, turar-joylar, qal‘a va sug‘orish inshootlari daxmalar va qoya qabrlari, dehqonchilik va hunarmandchilikka oid mehnat qurollari, tasviriylar san‘at asarlari, sopol va zargarlik buyumlari bo‘lib, ular sayyoohlar va olimlar tomonidan arxeologik tadqiqotlar natijasida o‘rganilgan.

Janubi-Sharqiy Suriya, Janubiy Falastin va Iordaniya orti hududlarida ko‘plab qoyatosh suratlari ham saqlanib qolgan. U yerdan tog‘-kon sanoatiga mansub bo‘lgan qayroq toshlar, nusxa olish qoliplari, teshgichlar, rudadan oltinni ajratib oladigan, metallga ishlov beradigan asbob-uskunalar topilgan.

Mazkur joydan bir necha yuz nabatey qishloqlarining xarobalari, ochiq holdagi ziyyaratgohlar – ibodatxona dargohlarining qoldiqlari, dahmalar, shuningdek, Petri, Xegri va boshqa nabatey shahlarining xarobalari ham topilgan.

Bu jihatdan Janubiy Arabistondagি Sabey podsholigining bosh shahri Marib xarobalarining qoldiqlari ajoyibdir. Shahar xarobasi kovlanganda madaniy qatlamlardan shaharlarning tarhi – rejasи, shoh saroyining xarobalari, mudofaa devori va minoralar, dafn etish qurilishlarining qoldiqlari va ko'plab haykallar topilgan. Bu jihatdan shahardan g'arbda joylashgan ulkan Marib to'g'onining qoldig'i diqqatga sazovordir. U yerdan oy xudosi Almakaxa ibodatxonasi ham topilgan.

Shuningdek, markaz Kataban – Timniy xarobalari ham ochib o'r ganilgan. U yerdan qadimgi mudofaa devori, katta jamoa binolari, ibodatxonalar, dahmalar va tasviriy san'at asarlarining namunalari topilgan. Shahar xarobasining quyi qatlamidan yog'och qoldig'i topilgan. Yog'och radiouglerod yordamida tekshirilganda Timni shahrining paydo bo'lishi davri taxminan m.av. X–VIII asrlarga mansub ekanligi aniqlangan. Mazkur joydan Am-Adia va Kana dengiz porti – kemalar to'xtaydigan joyning qoldig'i ham ochilgan.

Arablar va Arabiston haqida Qadimgi Sharq dunyosi. Bibliya (Tavrot) yunon-rim, ossur, bobil va Eron shohlari yozuvlari va yilnomalarida ba'zi qisqa-qisqa ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Xususan qadimgi mualliflar ham Qadimgi Arabiston haqida ma'lumotlar yozib qoldirishgan. Ular Gerodotning (m.av. V asr) "Tarix", Feofrastning (m. av. IV asr) "O'simliklar tarixi", Strabonning (m. av. I– milodiy I) "Geografiya", Diodorning (m.av. I asr) "Tarixiy kutubxona", Arrianning (mil. I-II asrlar), "Anabasis Aleksandra" asarlaridir.

Shuningdek, Eratosfen, Agafarxid, Artemidor (m. av. III – I asr), Katta Pliniy (mil. I asr), Klavdiy Ptolomey (mil. I asr) va boshqalarning asarlarida qadimgi arablar va Arabiston haqida ko'pgina ma'lumotlar uchraydi.

Qadimgi Arabiston tarixining o'r ganilishi. Qadimgi Arabiston tarixini o'r ganish sayyoohlarning ishidan boshlangan. Sayyoohlalar Arabistonning turli joylaridan epigrafik va etnografik kartografik ma'lumotlar to'playdilar, arxeologik yodgorliklarning xarobalarini chizmaga ola boshlaydilar.

Arabiston tarixini o'rGANIISHDA K. Nibur, I.L. Burkxardta, fransuz J. Galyavi, avstriyalik E. Glazer, G. A. Vallinaning xizmatlari

katta. J. Galyavi Janubiy Arabistonidan 700, E. Glazyer 1800 dan ortiq yozuv namunalarini to‘plashgan. U.G. Zeetsen, G. Vassman, A. Faxri, X. Nami, A. Jamm va boshqalar ham epigrafik yozuvlarni topish, o‘qish va nashr qilish, ularning sanasini aniqlash ishlari-ga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shtalar. Xorijiy mamlakat olimlaridan M. Lidzbarskiy, N. Rodokanakis, J. Pirenn, A. Jamm, M. Xyofner. A. Biston qadimgi Arabiston tarixini o‘rganish ishiga katta hissa qo‘shtalar.

Arabistonda arxeologik tadqiqot ishlari yaxshi rivojlanmagan. Ammo lordaniya orti. Janubiy Falastin va Shimoli-g‘arbdagi yodgorliklar bilan N. Glyuka boshliq ekspeditsiya katta ishlarni olib boradilar. Shuningdek. nemis, fransuz va avstriya ekspeditsiyalari-ning arxeologlari Nabatey qadimiyatini o‘rganganlar. XX asrning 50–60-yillarda Janubiy Arabistonda F.P. Olbrayt, A.Jamm kabi mashhur arxeologlar rahbarligida amerika ekspeditsiyasi samarali ish olib bordi. Ular Sabi poytaxti Maribda va Katabana poytaxti Timna va uning atroflaridagi yodgorlikda arxeologik qazish ishlarni olib boradilar.

Shuni ta’kidlash kerakki, qadimgi arab tarixiga oid dastlabki asarlar XIX asr oxirlarida yaratiladi. Bu ishlarni amalga oshirish ishiga S. Xyurgrone, E. Glazerlar o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shtalar.

Qadimgi Arabiston tarixi bilan Belgiya, Avstriya, AQSh va boshqa mamlakatlarning olimlari, xususan G. Visman, D. Nilsen, G.J. Rikmansi, J. Pirenn, M. Xyofnyer va A. Bitaklar jiddiy shug‘illanganlar.

XIX va XX asrlarda rus sayyoohlari, diplomatlari va olimlari ham Arabiston tarixi bilan qiziqqanlar. Bu jihatdan I.Y. Krachkovskiy, N.V. Pigulevskaya va boshqa olimlar arabshunoslik va sabei-stika ishlariga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shtalar.

So‘nggi yillarda G.M. Bauer, A.G. Lundin, I.Sh. Shifman, M.B. Piotrovskiy kabi mashhur olimlar Arabistonning qadimgi tarixi haqida maqolalar, katta-katta asarlar va monografiyalar yaratdilar.

Arabiston yarim oroli va Suriya-Mesopotamiya dashtining qadimgi aholisি. Arabiston yarim orolida odamlar qadim zamondan boshlab yashab keladilar. Yarimorolning janubi-g‘arbidagi Laxja degan joydan tosh asriga mansub qurollar topilgan. Yarimorolga

aholi Sharqiy Afrikadan kirib kelgan bo‘lsa kerak. Arxeologik qidiruv vaqtida olimlar Orqaiordaniya hududidan qoyatoshlarga ishlangan ov manzarasi tasvir etilgan qoyatosh rasmlarini – petrogliflarni topishgan. Tadqiqotchilarning fikrlariga ko‘ra, bu qoyatosh rasmulari m.av. X–V mingyilliklarga mansub bo‘lib, mezolit va neolit davrlarida ishlangan ekan.

M.av. IV–III mingyilliklarda Arabiston yarimorolida yashagan aholi haqida ham aniq ma’lumot yo‘q. Ba’zi shumer yozuv-hujjatlarida Magan va Maluxxa mamlakatlari haqida eslatib o’tiladiki. u yerda yashagan aholi m.av. III mingyilliklarda Ikkidaryo oralig‘i – Mesopotamiya bilan aloqada bo‘lganlar. Olimlar bu ikki mamlakat yarimorolning sharqiy sohilida joylashgan bo‘lsa kerak, deb faraz qiladilar.

M.av. II mingyillikda Arabiston yarimorolining janubi-g‘arbiy qismida sabeylar, mineylar, katabanslar kabi qabilalar ittifoqi yuzaga keladi. Ular semit-xamit til oilasining janubiy arab shevasida so‘zlashganlar. Arabiston yarimorolining shimoli-g‘arbida yashovchi aholi esa midiya qabilalariga mansub bo‘lishgan.

Juda ko‘p ko‘chmanchi qabilalar yarimorolning markaziy va shimoliy hududlarida joylashgan edilar.

M.av. I mingyillikda yarim orolning markaziy qismida samud, nabatey qabilalari, shimoli-g‘arbida esa kedrelar, Suriya-Mesopotamiya dashtlarining markaziy qismida va shimolida ariblar yashaganlar. Shuningdek, yarimorolda ibodid, dixran, adumu kabi qabilalar yashaganligi haqida ham ma’lumotlar bor. Olimlar toponimik va etnonimik ma’lumotlarga asoslanib bu qabilalar semit-xamit til oilasining janubiy va markaziy til shaxobchasida so‘zlashganlar deyishadi. Shuni ta’kidlash kerakki, Arabiston yarimorolidagi qadimgi aholining etnogenezi – kelib chiqishi masalasi juda murakkab bo‘lib hozirgacha kam o‘rganilgan. Olimlar bu masalada yakuniy xulosaga kelganlari yo‘q.

Shimoliy arab qabilalari va davlat barpo etilishi. Mesopotamiya kabi yirik davlatlar O‘rtayer dengizining sharqiy sohili-dagi kichik davlatchalar chegarasida Suriya-Mesopotamiya dashti va Shimoliy Arabistondagi keng hududda qadimda aribi, kidri

(kedrgi), nabayati (nabaten) samud va boshqa ko‘p qabilalar ko‘chmanchilik bilan hayot kechirar edilar.

Aholining asosiy, mashg‘uloti chorvachilik bo‘lib, ot, eshak, yirik va mayda shoxli chorva, shu jumladan qo‘y boqishar edi. Ular tuya ham boqishardi. Tuya ko‘chmanchilar uchun juda zarur hayvon edi. Tuya suti, go‘shti ovqat uchun ishlatilar, junidan esa ip tayyorlab mato to‘qir edilar. Tuya terisidan charm tayyorlanar, chiqindisidan o‘tin sifatida foydalanganlar. Hozir ham Arabiston yarimorolining hamma joylarida tuya go‘shti keng ko‘lamda iste‘mol qilinadi, suti – qumron shifobaxsh ne‘mat sifatida ichiladi.

Eng muhim tuya dasht sharoitida muhim harakat vositasi edi. Shu bois tuya “sahro kemasi” deb ataladi. Arablar ot bilan birga tuyalardan harbiy maqsadlarda ham foydalanganlar. Ularning ko‘chmanchilik tartibi va xo‘jalik hayoti joyning geografik muhiti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Qishda yilning namgarchilik pallasida, yomg‘ir mavsumi boshlangach, ko‘chmanchilar o‘z podalari bilan cho‘lning suvgaga serob sero‘t soy o‘zanlari – “vadii” larga borib o‘rnashganlar. U yerda bahor boshlangach, aprel – may oylarida o‘t-o‘lanlar tugab soy suvlari qurigach, chorvadorlar tabiiy suv omborlari bo‘lgan bahorgi o‘tloqlarga ko‘chib o‘tganlar. Arxeologlar Suriya dashti va Shimoliy Arabiston hududidan qadimgi quduq, hovuz va suv omborlarining qoldiqlarini topib o‘rganganlar. Iyul – avgust oylariga kelib Shimoliy arab cho‘l-sahrolarida jazirama issiq kunlari boshlanib, asosiy suv manbalari qurigach, chorvadorlar daryo va dengiz sohilidagi yerlarga ko‘chib o‘tishgan. Shimoliy arab qabilalari orasida urug‘-jamoa munosabatlari hukmron edi. U yerda qabilalar ittifoqi va kichik-kichik davlatlar tashkil topgan edi. Aribi, Kidri (Keder) Nabayati kabi davlatlar knyazlik deb atalgan. Bu davlatlarning hukmdorlari ossur hujjatlarida “podsho” deb tilga olingan. Lekin ularni “shayx” deb atash to‘g‘riroq hisoblangan. Shuni aytib o‘tish kerakki, qabilalar ittifoqi boshida podsho – malika hukmronlik qilgan. Bu hol mazkur qabilalar ittifoqida ona urug‘i qoldiqlari saqlanganligini bildiradi.

Arab qabilalari va knyazliklarida o‘ziga xos harbiy tashkilot, taktika va harbiy san‘at shakllangan ekan. Ularda muntazam

qo'shin bo'Imagan. qabilalar ittifoqining voyaga yetgan erkaklari jangchi hisoblanib, ba'zan ayollar ham jangda faol ishtirok etgan.

Jangchilar otliq va piyoda bo'lib, qilich, nayza o'q-yoy bilan qurollanar edilar. Jang vaqtida jangchilar tuyadan ham foydalan-gan. Tuyaga ikki jangchi minib biri tuyani boshqargan, ikkinchisi esa dushman bilan jang qilib, unga qilich solgan, nayza sanchgan va kamondan o'q uzgan. Arab ko'chmanchilari urush olib borish-ning alohida taktikasini ishlab chiqqanlar. Ular dushmanlari ustiga to'satdan bostirib borib, jang qilib, o'lja olgach, tezlik bilan cho'l ichida g'oyib bo'lishgan.

Ba'zan Shimoliy arab qabilalari ittifoqi, kichik davlatlari usti-ga Misr fir'avnlari, Ossuriya va Bobil qo'shinlarining hujumi ham bo'lib turgan.

Shimoliy arab qabilalarining Ossuriya bilan dastlabki to'qnashuvlari m.av. X asr o'rtalariga to'g'ri keladi. M.av. 953-yilda Ossur podshosi Salamansar III qo'shinlari Suriyaning Karka-ra degan joyida Suriya, Falastin, finikiyaliklarning birlashgan qo'shinlarining mag'lubiyatga uchratadi. Bu jangda shayx Gindibu boshliq arab va misrliklar ham ossur qo'shinlariga qarshi kurash-da ishtirok etadilar. Ossur podsholari Tiglatpalasar III Sargon II va Sinaxxarib davrida Ossur qo'shinlari g'arb tomon bir necha bor hujum uyushtiradilar. G'arba o'tish davrida ossuriyalik qo'shinlar bir necha bor arablar bilan ham to'qnashadi. Ossurlar arab qabilala-rining oltin va boshqa boyliklarini talaydilar, ularni katta miqdorda soliq to'lashga majbur etishadi.

Ular arablar qo'lidagi qoramol, qo'y-echki, ot va tuyalarni tortib oladilar. Ossur podshosi Asarxon davrida shimoliy arab qabilalari va davlatlari ossur qo'shinlarining Misrga o'tish yo'li-ni to'sib qo'yadilar. M.av. 675–674-yillarda Asarxon shimoliy arabiston qabilalari va davlatchalarining ayrimlarini o'ziga itoat ettiradi va ossur qo'shinlarining dashtdan o'tishlari va Misr tomon yo'naliishlari uchun o'z tuyalari bilan yordam berishga majbur qila-di. Ashshurbanipal ossurlarning so'nggi qudratli podshosi sifatida arab qabilalari bilan ayniqsa Aribi, Kidri, Nabatiya davlatchalar bilan shiddatli janglar olib boradi. Bunga qarshi o'laroq arab dav-

latlari o'zaro birlashibgina qolmay, balki Ossuriyaga qarshi Misr, Bobil va boshqa davlatlar bilan ittifoq ham tuzadilar. M.av. VII asrning 40-yillarida Ashshurbanipal Shimoliy arab qabilalari ustidan o'z hukmronligini o'rnatdi. Ossuriyaning mazkur qabilalari va davlatlari ustidan hukmronligi vaqtincha, nomigagina edi. Yaqin Sharqdagi boshqa yirik davlatlar ham Arabistoniga kirib borib u yerda o'z hukmronliklarini o'rnatishga intilgan. Jumladan, Yangi podsholik davrida Bobil podshosi Nabonid Shimoliy Arabistonagi Teymu shahrini bosib olib, bir necha yil davomida bu shaharni o'z qarorgohi qilib oladi.

M.av. VI asrga kelib Eron davlati kuchayib atrofdagi mammakatlarni bosib olishga kirishadi. Buning uchun Eron podsholari yarimorolning shimolidagi qabilalar va davlatlar bilan yaqinlashishga harakat qiladi. Eron shohi Kambiz Misrga harbiy yurishga tayyorgarlik ko'rар ekan. m.av. 526-yilda Eron askarlarining arab-nabateylar yeridan o'tishlariga ruxsat oladi. Sharhnomada ko'ra eroniy askarlar cho'ldan o'tayotgan arablar ularni suv va oziq-ovqat bilan ta'minlashlari kerak edi.

Doro I ning qoya yozuvlarida Arabiston eroniylarning tasarrufida bo'lganligi aytildi. Ammo Gerodotga ko'ra "arablar hech qachon eroniylar hukmronligi ostida bo'lmanalar". Ammo shimaliy arab qabilalari har yili 1000 talantdan soliq to'lab turgan va Eron shohi qo'shnilariga tarkibida bo'lgan. Ular m.av. IV asrda yunon podshosi Makedoniyalik Aleksandrغا qarshi kurashda eroniylar tomonida turib jang qilishgan.

Arab qabilalari Makedoniyalik Aleksandrning Sharqqa yurishi davrida Gaza shahri uchun bo'lgan jangda yunon-makedonlarga qattiq qarshilik ko'rsatganlar. Sharqqa yurish tugagach Makedoniyalik Aleksandr arab qabilalarini o'ziga itoat ettirishni rejalashtirgan edi. Ammoni u bu ishni amalga oshira olmay zaharlanish va og'ir kasallik tufayli 323-yili Bobildagi o'z saroyida vafot etadi.

Janubiy Arabistonda ilk davlatlarning tashkil topishi. Arabiston yarimorolining janubi, janubi-g'arbiy va janubi-sharqiy hududlari geografik nuqtai nazardan odamlar yashashi uchun birmuncha qulayliklarga ega bo'lgan. Bu hududda yarimorolning

boshqa joylariga qaraganda dastlab ovchilik, termachilik, so'ngra sug'orma dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdosotiq ancha erta paydo bo'lib rivojlangan. Bu hududda ham ibtidoiy jamoa buzila borib, odamlar orasida xususiy mulk, mulkiy tengsizlik va tabaqalanish vujudga kelgan. Oqibatda yarimorolning bu qismida Main, Saba, Kataban va Xadramaut kabi ilk davlatlar tashkil topgan. Bular qadimgi Yaman sivilizatsiyasining muhim markazlari hisoblangan. Bu davlatlarning eng shimaldagisi Main bo'lib, dastlabki poytaxti Nasil shahri, keyinchalik esa Karnavu bo'lgan. Maindan janubroqda poytaxti Marib bo'lgan Saba davlati joylashgan edi. Sabadan janubroqda esa poytaxti Timiya bo'lgan Kataban davlati, uridan janubroqda poytaxti Misvar bo'lgan Musan davlati joylashgan. Bu davlatdan sharqroqda esa poytaxti Shabva bo'lgan Xadramaut davlati bor edi.

Qadimgi Yaman davlatlarining paydo bo'lish davri m.av. IX–VIII asrlarga mansubdir.

M.av. VI–V asrlarda Main, Kataban, Ausan, Xadramaut va Saba davlatlarining hukmdorlari hududda hukmronlikni ustunlikni qo'lga kiritish uchun shiddatli kurash olib borganlar.

Saba, Kataban va Xadramaut davlatlarining birlashgan qo'shnirlari bilan Ausan qo'shnirlari o'rtaida o'ta dahshatlilik urush bo'lib o'tadi. Urush maydonida ausanliklardan 16000 kishi shafqatsizlarcha qirib tashlangan. Ausanning eng muhim shaharlari vayron qilinib yondirib yuboriladi. tez orada Ausan davlati barham topib Katabanga qo'shib olinadi. Main esa mashaqqat bilan Saba va Katabanning hujumini qaytaradi. M. av. I asrda Xadramaut o'z mustaqilligini saqlay olmay, Sabey podsholigiga qo'shib yuboriladi.

M.av. III–I asrlarda Kataban Arabiston janubidagi kuchli davlatga aylanadi. Ammo m.av. I asrga kelib Kataban qo'shnirlari Saba va Hadramaut qo'shnirlari tomonidan tor-mor etilib, uning yerlari Saba va Xadramaut davlati hukmdorlari tomonidan bo'lib olinadi.

M.av. I yuzyillikda Saba podsholigi Arabiston janubidagi qudratli davlatga aylanadi. Saba davlati o'z qudratining cho'q-qisiga chiqqan vaqtida uning maydoni Qizil dengizdan Xadramautgacha, Markaziy Arabistondan Hind okeani sohillarigacha bo'lgan yerlarni egallagan edi.

Janubiy Arabiston aholisining xo‘jaligi. Ijtimoiy tuzumi va madaniyatি. Janubiy Arabiston davlatlarining xo‘jaligi birinchi navbatda sug‘orma dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirishga qaratilgan edi. Daryo vodiylardagi dehqonchilik vohalarida arpa, bug‘doy va bug‘doyning alohida bir navi ekib parvarish qilin-gan. Tog‘lik tumanlarning yonbag‘ridagi terrassalarda uzumchilik rivojlangan. Vohalardagi asosiy yerlar xurmozorlar bilan band edi. Dehqonlar bog‘dorchilikka ham katta e‘tibor bergenlar. Sun‘iy sug‘orishga asoslangan xo‘jaliklarda sug‘orish inshootlari qurishga katta e‘tibor berilgan. Marib to‘g‘oni, suv ombori Adendagi Tavil va boshqa suv omborlari janubiy arab dehqonchiligidini suv bilan ta‘minlab turgan. Marib suv inshooti juda katta bo‘lib, to‘g‘onning uzunligi 100 metr, balandligi esa 15 metr bo‘lgan. Bu to‘g‘on m. av. VII asrda barpo qilingan bo‘lib, ancha katta dehqonchilik qili-nadigan ekin maydonlarini sug‘organ.

Janubiy Arab davlatlari xo‘jaligida chorvachilik yuksak dara-jada rivojlangan bo‘lib, chorvadorlar yirik shoxli qoramol, kalta junli dumbali qo‘y va tuyachilik bilan shug‘illanganlar. U yerda yilqichilik ham rivojlangan bo‘lsa kerak. Tuya, otlardan xo‘jalikda va harbiy maqsatlarda ham foydalanganlar. Jundan ip yigirib, mato to‘qiganlar to‘qilgan matolardan engil-bosh, uy-ro‘zg‘or buyumlari tikilgan. Bu davlatlarda hunarmandchilik ham rivoj topgan. Tosh-ga ishlov berish, binokorlik ishlari yer osti ma‘danlarini qa-zib olish. ularga ishlov berish, temirchilik, zargarlik, kulolchilik, dengiz bo‘ylaridagi shaharlarda kemasozlik, to‘qimachilik ancha rivojlangan edi. Arabiston yarimorolida ko‘chmanchi chorvador qabilalari bilan janubdagisi o‘troq shahar va qishloq o‘rtasida, shuningdek, shahar va qishloqlar o‘rtasida qizg‘in savdo munosabatlari o‘rnatilgan.

Butun arab dunyosi, xususan janubdagisi davlatlar Sharqiy Afrika, Misr, Ikkidaryo oralig‘i, Hindiston, hatto O‘rtayerdengizi va Egey dengizi havzasidagi xalqlar bilan ham savdo-sotiq ishlarini olib borganlar. Arab savdogarлari xorijiy mamlakatlarga qatnashda dengiz-suv va quruqlik yo‘lidan foydalangan.

M.av. II mingyillik o‘rtalarida janubiy arab til va qabilaviy ja-moalari miney, kataban va sabey kabi yirik qabilaviy ittifoqlarga

bo‘linadi. M.av. II mingyillik oxiri—I mingyillik boshlariga kelib ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi natijasida ishlab chiqarish munosabatlari o‘zgaradi. Yaman hududida ilk qulchilikka asoslangan tabaqaviy jamiyat vujudga keladi. Jamiyatda mulkiy tengsizlik, xususiy mulkchilik o‘sib, odamlar orasida tabaqalanish paydo bo‘ladi. Hokimiyat boy-badavlat kishilar ixtiyoriga o‘tadi.

Seminar mashg‘uloti uchun savollar:

1. O‘rtayer dengizining sharqiy va g‘arbiy sohilining qadimgi aholisi haqida umumiyyat ma’lumot bering.
2. O‘rtayer dengizining sharqidagi qadimgi davlatlar: Falastin, Finikiya, Suriya, Yamxad, Damashq shohligi, Isroil-yahudiy shohligi.
3. Suriya va Finikiya shahar-davlatlari: Ugarit, Arvad, Bibl. Sidon, Tir. Damashq, Ebla va Kadesh haqida ma’lumot bering.
4. Qadimgi Suriya va Finikiya madaniyati.
5. Qadimgi Karfagen davlatining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti.
6. Janubiy Arabistonda ilk davlatlarning tashkil topishi: Main, Saba, Kataban va Xadramaut davlatlari.
7. Janubiy Arabiston aholisining xo‘jaligi, ijtimoiy tuzumi va madaniyati.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:

1. Iyerixon madaniyati haqida so‘zlab bering?
2. Suriya, Finikiya va Falastin (manbalar va tarixnavislik).
3. Finikiya va Suriya haqidagi yozma manbalar.
4. Falastinda xo‘jalikning rivojlanishi va shahar-davlatlarning tashkil topishi.
5. Isroil-Yahudiy podsholigining tashkil topishi.
6. Qadimgi Suriya va Finikiya.
7. Suriya va Finikiyada dastlabki ibridoiy din shakllari.
8. Yaxmad va Giksoslar davlati.
9. Karfagen-Tir madaniyati o‘ziga xos xususiyati.
10. Arabiston yarimoroli va Suriya-Mesopotamiya dashtining qadimgi aholisi.
11. Qadimgi Arabiston tarixining manbalari.
12. Qadimgi Arabiston tarixining o‘rganilishi.

IV BO'LIM. KICHIK OSIYO VA KAVKAZORTI MAMLAKATLARI TARIXI

1-§. Qadimgi Xett podsholigining manbalari va tarixnavisligi

1829-yilda F. J.F.Shampalon tomonidan Ramzes II yozuvlari ning o'qilishi va R.Lepsius tomonidan nashr etilishi XIX asrning 40-yillarida “Kadesh yonidagi jang” Misr-Xett tinchlik shartnomasining tuzilishi qudratli Xett davlatining mavjud bo'lganligini aytishga imkon berdi.

1876-yilda esa xett iyeroglif yozuvi topilgan. 1906-1907-yillarda (hozirgi Bo'g'ozqoya yaqinidagi joy, Anqara yaqinida) xettlar poytaxti Xattusa xarobalari nemis ossurologi T. Vinklyer va turk arxeologi Makirdibey tomonidan qazib ochilgan. Bu yodgorlikning madaniy qatlamlaridan topilgan buyumlar Xett davlati tarixi va madaniyati haqida birmuncha keng ma'lumot to'plashga imkon berdi. Topilgan buyumlar orasida mixxat (ponasimon) bilan akkad va xett tilida yozilgan katta bir arxiv topilgan. Qadimgi xett yozuvlarini o'rganishda atoqli chex olimi B. Grozniyning xizmatlari katta. U 1915–1917-yillarda xett yozuvini o'qishga muyassar bo'lgan.

Xett yozuvlari asosan m. av. XIV asrga mansub bo'lib, mazmunnan xett yilnomalari, podsholarning yozishmalari va Xett qonunlar majmuasidan iborat bo'lgan. Unda Xett diplomatiyasi, adabiyoti, Misr fir'avnlari, Ossur va Bobil podsholari bilan yozishmalari, shuningdek, xalqaro va har xil shartnomalar haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Xett yozuvlarida xo'jalik va adabiy-diniy testlar ham saqlanib qolgan.

B. Grozniy xett yozuvlari va tilini o'rganar ekan, xettlar tilini hindyevropa til oilasiga mansub deb hisoblaydi. Ammo Turkiya olimlari xettlarni turk tili oilasiga mansub deb hisoblaydlar. Ular xettlargacha bo'lgan yodgorliklar “turkiy xususiyatga ega” de b hisoblaydilar.

Qadimgi Xett tarixi va madaniyati B. Landsberger, Y. Levi kabi nemis olimlari, P. Garellidek fransuz, N.B. Yankovskiy, B.A. Turaev va V.V. Struve kabi rus olimlarining diqqat-e'tiborini o'ziga tortgan.

E.A Menabde, G.G. Giorgadze, V.V. Ivanov, I.M. Dunayevskiy, G.I. Dovgaylo, V.G. Ardzinba kabi olimlar Qadimgi Xett davlati tarixi, xo'jaligi, shuningdek, tuzumi, uning o'ziga xos xususiyatlari, tili madaniyati bilan shug'ullanib, tadqiqot ishlari olib borganlar. Xett davlati va qo'shnilarining geografiyasi bilan G. Kapan-san va V.N. Xachatryan shug'ullangan. Xettologlardan chek olimi V. Zamarovskiyning ishlari ham tahsinga sazovordir. Shuningdek, xettlar tarixi, tarixnavisligi bilan xorijiy olimlardan E. Vaydner, E. Forrera, A. Getse, X. Otten, O. Gerni, S. Xaynxold-Kramer, rus olimlaridan V.I. Avdiyev, A.A. Vigasin, M.A. Dandamayev, V.M. Masson, V.I. Kuzishin va boshqa olimlar jiddiy shug'ullanganlar.

Troya, Frigiya va Lidiya podsholiklari tarixi o'rgанишining manbalari. Kichik Osiyoning g'arbidagi Troya, Frigiya va Lidiyaning qadimgi tarixini o'rganishning asosiy manbalari moddiy madaniyat yodgorliklari, epigrafik hujjatlar va qadimgi mualliflarning asarlaridir.

Bu jihatdan havaskor nemis arxeologi G. Shlimanning 1870–1890-yillarda Gissarlik tepaligidagi Troya xarobalarida olib borgan arxeologik qazuv ishlari juda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Troya qazishlari natijasida topilgan ashyoviy dalillarga asoslanib G. Shliman bu shahar tarixi haqida juda qiziqarli ajoyib kitob yozgan.

1932–1938-yillar orasida esa K. Blegen rahbarligidagi Amerika ekspeditsiyasi qazish ishlarini olib borib, juda ko'p moddiy madaniyat yodgorliklarini qo'lga kiritgan.

Amerikalik tadqiqotchi arxeologlar qazishmalar o'tkazar ekanlar, tepalikdagi madaniy qatlamlarning o'zaro ketma-ketligini va ularning sanasi, davri – xronologiyasini aniqlashga muvaffaq bo'lgan.

So'nggi yillarda M. Korfmani boshliq ekspeditsiya Troyada arxeologik qazishlar olib borib yangi kashfiyotlarni qo'lga kiritdi.

Xorijiy mamlakatlarning arxeologlari frigiyaliklarning poytaxti Gordionda, lidiyaliklar poytaxti Sardda, shuningdek, g'arbiy

Osiyoning boshqa markazlarida ham qazishmalar olib borganlar. Arxeologik qazishlar davrida olimlar mazkur joylardan qadimiy saroylarning, ibodatxona, qal'a, qabr-qo'rg'onlarning qoldiqlarini, shuningdek, sopol va tasviriy san'at buyumlarining namunalarini topib o'rganganlar.

XIX asrning birinchi yarmidayoq kariy yozuvlari ma'lum edi, keyinchalik kariy yozuvlari Kichik Osiyo, Misr va Shimoliy Afrikadan ham ko'plab topilgan.

Lidiya yozuvlarini muntazam ravishda toplash, o'qib chiqish va nashr etish XX asr boshlarida boshlanadi. Bu jihatdan lidiyaramey yozuvlarining topilishi lidiya epigrafik matnlarini o'qilishini yengillashtirdi. XX asrning 60-yillaridan boshlab lingvistlar (qadimgi tilshunoslar) eng qadimgi lidiy va kariy davrigacha bo'lgan yozuvlarni o'qish ustida qizg'in tajribalar va bahslar olib bormoqda. Zamonamizgacha Kichik Osiyo g'arbida qadimgi frigiy yozuvlari, shunigdek, qabr toshlariga yozilgan yodgorliklar saqlanib qolganligi aniqlandi. Lingvistik ma'lumotlarni va epigrafik yodgorlikni o'qib chiqishda A.Seys, I.Fridrix, P.Meridji, R.Gusman, O.Karruba, A.Xoybek va E.Laroshlarning xizmatlari kattadir.

Troya, Frigiya va Lidiya shohliklari tarixi va madaniyatini o'rghanishda yunon va kichikosiyoliklarning rivoyat, doston, afsona va hikoyalari juda ko'p ma'lumotlar beradi. Bu jihatdan ko'r-so'qir shoir Gomerning "Iliada va Odisseya" dostonlari Troya shohligi tarixini o'rghanishning eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Bu doston m.av. XII – XI asr troya-yunon urushlari haqidagi aniq ma'lumot beradi.

M.av. II asrda yashab ijod etgan Apollodorning "Mifologik kutubxonasi" asari ham troyaliklar tarixini va madaniyatini o'rghanishda muhim manba hisoblanadi.

Lidiya tarixi haqida kelib chiqishi Kariydan bo'lgan Gerodotning "Tarixi"da ham qimmatli ma'lumotlar bor. M.av. IV asrda yashagan lidiyalik tarixchi Ksanfa asarlarida ham ko'p ma'lumotlar uchraydi.

M.av. I asrda yashagan Nikolay Damasskiy, m. av. I asr va milodiy I asrda yashagan Strabonning "Geografiya" asarida ham

Kichik Osiyo va kichikosiyoliklar haqida ko'p ma'lumotlar bor. K. Belegen "Troya shohligi", E. Akrugalya "Frigiya tarixi, san'ati", G. Kalltcha, K. Mazetti Lidiyaning xronologiyasi haqida ko'p ma'lumot qoldirishgan.

Rus arxeolog tarixchilaridan V.V.Struve, I.M.Dyakonov, V.V.Ivanov, V.I.Avdiyev, P.N.Utakov, V.I.Kuzishin, V.P.Neroznakning hissalari ham kattadir. Ular o'zlarining asarlarida Kichik Osiyo xalqlarining tarixi, etno-lingivistik masalalariga, Kichik Osiyoning g'arbidagi davlatlar, xalqlar tarixining xronologiyasi, shuningdek Yunoniston va Sharq dunyosi bilan o'zaro iqtisodiy va savdo aloqalariga e'tibor qaratganlar.

2-§. Kichik Osiyodagi qadimgi dehqonchilik va ibridoiy jamoa tuzumining yemirilishi. Ilk davlatlarning tashkil topishi

Arxeologik ashyoviy dalillarga ko'ra, m.av. VIII–VII mingyilliklarda Kichik Osiyoda qator qishloqlar paydo bo'lib, odamlari devori paxsadan ko'tarilgan uylarda istiqomat qilganlar. Ular termachilik, ovchilik va ilk dehqonchilik bilan shug'ullanib tirikchilik o'tkazgan. Dehqonchilik va chorvachilikka o'tish xo'jalik va madaniyatning rivojlanishiga asos solgan. Bu jarayon m.av. VII–VI mingyillikka mansub bo'lган Chatal – Xyuyuk madaniyati misolida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu yerda yashagan qabilalar Koni serhosil vodiysini o'zlashtirib, bu yerda o'nlab qishloqlar barpo qilganganlar. Bu qishloqlardan biri Chatal-Xyuyuk edi. Chatal-Xyuyukning maydoni 12 hektarni egallab, qishloq aholisi 14 xilga yaqin ekin turlarini ekib parvarish qilgan. Ular orasida bug'doy, arpa va no'xatning bir necha navi bo'lган, shuningdek, xonaki qo'y va echkilarni boqib ko'paytirganlar. Aholining eng muhim texnologik yutuqlaridan biri mis va qo'rg'oshinni eritib, jez hosil qilib, undan munchoq, har xil ro'zg'or buyumlari, igna va teshgich-bigizlar yasaganlar. Ammo dehqonchilik bilan bog'liq mehnat qurollarining aksariyati toshdan va yog'ochdan bo'lган. Shuningdek, har turli bezaklar, shu jumladan munchoqlar keng tarqalgan edi. Ayollarning qabrlarida yog' bilan tayyorlangan angob-oxra, obsidiandan tayyorlangan

oyna va boshqa bezak buyumlari topilgan. Turar joylar yaqinida uncha katta bo'lmagan ibodatxona bo'lib, uning devorlari loydan yasalgan haykalchalar va rasmlar bilan bezatilgan. U yerda buqa e'tiqodi. hosildorlik, to'kin-sochinlik homiysi, ilk dehqonchilik xudosi siymosi keng tarqalgan edi.

Dehqon-chorvadorlar jamoasi m.av. V-IV mingyillikkarda rivojiana borgan. Ammo ularning madaniyati Chatal-Xyuyukka nisbatan yorginroq va mukammalroq edi. Ular 0,5-5 hektarni egal-lagan qishloqlarda yashaganlar. Bu janubi-g'arbiy Anatoliya va Marsindagi Xodjilar degan joy misolida ko'zga tashlanadi. Mazkur davrda metaldan yasalgan buyumlar ko'payta borib, tosh qu-rollarning soni kamaygan. Marsinda misdan qilingan teshacha va boltalar topilgan. Boshqa qishloqdan esa misdan yasalgan buyumlar omborlari orasida kumushdan yasalgan halqa topilgan. Sopol idishlar chiroyli rasmlar bilan bezatilgan. Bu hol mazkur joyda hunarmandchilikning yaxshi rivojlanganligidan darak beradi.

Yarimorolning tabiiy muhiti bu joylarda alohida madaniyatlar va etnik xilma-xillik vujudga kelishi uchun sharoit yaratgan. Arxeologlar Kichik Osiyoda 10 dan ziyod madaniyatning turlarini aniqlaganlar. Arxeolog olimlarning ta'kidlashlaricha Kichik Osiyo qabilalari Mesopotamiya, Old Osiyodagi qabilalar bilan yaqindan aloqada bo'lgan. Kichik Osiyoda sug'orma dehqonchilik Misr va Mesopotamiyaga nisbatan sust rivojlangan. Chunki bu hududda Misrdagi kabi Nil, Mesopotamiyadagi Frot va Dajla kabi doimo oqib turuvchi sersuv daryolar yo'q edi.

M.av. III mingyillikka kelib etnik guruhlarning ko'chishi natijasida Kichik Osiyoda hal qiluvchi o'zgarishlar sodir bo'lgan. Bu hududda xo'jalikning rivojiana borishi natijasida atrofi mustahkam devor bilan o'rabi olingen shahar tipidagi markazlar qad ko'taradi. Bular qatoriga eng qadimgi Troya podsholigi va boshqalarini kiritish mumkin. Bu shahar tipidagi qal'alar maydoni 1-2 hektar bo'lib, ular hunarmandchilik, savdo-sotiq va boylik to'planadigan joy hisoblangan. Qazish vaqtida bu markazlardan oltindan yasalgan idishlar va bezaklar xazinasi ham topilgan.

Troyani qazish vaqtida Boltiqbo'y i yantari va shimoliy Afg'onistondan keltirilgan la'l kabi qimmatbaho toshlar ham topilgan. Dorakdag'i qabrdan esa Misrda ishlangan yog'och quticha topilgan. Shuni aytish lozimki, Suriya, Mesopotamiya, Ossuriya va boshqa mamlakatlarga Kichik Osiyodan muttasil metall rudasi chiqarilib turilgan. Qadimda Kichik Osiyoning o'zida ham metall eritish, unga ishlov berish gullab-yashnagan.

Mahalliy usta-temirchilar va zargarlar ajoyib taqinchoqlar va xilma-xil qurol-aslahalar ishlab chiqargan. Qurolozlikning rivojlanishi va mudofaa-inshootlarining mustahkamlanishi o'sha davrdagi hayotning qizg'in ekanligini ko'rsatadi. Mazkur davr ibridoiy jamoaning harbiy demokratiya bosqichiga to'g'ri keladi. Tashqi hujumlar vaqtida qabila boshliqlari, savdogarlar va hunarmandlar to'plagan boyliklarini qal'a devorlari orqasiga yashirganlar. Shu davrga kelib ishlab chiqarishning rivojlanishi natijasida mulkiy tengsizlik, xususiy mulk va tabaqalanish shakllana boshlaydi.

Bu haqda Dorak va Aladja-Xyuyukda m.av. III mingyillikda boy zodagonlarning qabri ochilishi misol bo'la oladi.

M.av. III mingyillik oxirlarida Kichik Osiyoda ya'ni Anatoliyada ilk davlatlarning paydo bo'lishi uchun shart-sharoit vujudga keladi.

Keyingi davrdagi manbalarga asoslanib Xatti, Kanish, Busur Xanda, Xaxxa kabi markazlar vujudga keladi. Bular Misrdagi ilk nomlarga o'xshar edi. Bu m.av. XXIV–XXIII asrlarga to'g'ri keladi. Shunday qilib yozma bitiklar, arxeologik ashyolar va yunon mualliflarining asarlaridagi ma'lumotlar Kichik Osiyo xalqlari tarixini va madaniyatini o'ganish uchun eng zaruriy manbalar hisoblanadi.

3-§. Qadimgi Xett podsholigi

M.av. III mingyillik oxiri va II mingyillik boshlarida Kichik Osiyoda juda ko'p qabilalar yashagan. Ular birlashib **Nesa**, **Kanish**, **Burusxand**, **Kussar** va **Xattusa** kabi alohida shahar-davlatlarni tuzganlar. M.av. XVIII asr boshlarida Kussar hukmdori **Pitxan** yarimorolning sharqiy qismini birlashtirib, o'zini podsho

deb e'lon qilgan. Pitxanning o'g'li **Anitta** uzoq davom etgan qattiq janglardan so'ng Nesa Xattusa, Zalpuva kabi shahar-davlatlarini bosib olib, **Xett** podsholigiga asos soladi. **Nesa** Xett podsholigining poytaxtiga aylantiriladi.

M.av. 1680–1650-yillarda hukmronlik qilgan Labarna (Tabarna) mamlakatni birlashtirishni oxiriga yetkazadi. U mamlakatning ko'p joylari va Qora dengizning janubiy sohillarigacha bo'lgan yerlarni istilo qiladi. Ularni Xett davlati tarkibiga qo'shib oladi. U poytaxtni Nesadan **Xattusaga** ko'chiradi. Podsho **Xattusili I**(m.av. 1650–1620) va **Mursili I** m.av (1619–1590) davrlarida Xett podsholigi kuchayib, xett qo'shinlari shimoliy Suriyadagi Xalap va Bibl shaharlarini bosib oladilar. Shu davrda mamlakat ichkarisida qullar va kambag'allar qo'zg'olon ko'targan. Xett podsholari saro-yida fitna kuchayib Xattusili I ga nisbatan suiqasd uyuşhtirilib, u o'z kuyovi tomonidan o'ldiriladi. Podsho Telepen davrida (m.av. 1520–1490) Xett podsholigi biroz kuchaygan. Lekin Telepen vafotidan so'ng podsholik kuchsizlanib inqirozga uchragan.

O'rta Xett podsholigi. Telepen vafotidan keyin, uning o'g'il-lari o'rtasida toj-taxt uchun kurash boshlanadi. Bu davr m.av. XVI asr oxiri va m.av. XV asrni o'z ichiga oladi. O'rta Xett podsholigi davrida podsholik kuchsizlanadi. Shu davrda podsholikning janubi-sharqida Mitanni davlati kuchayib, Mitanni qo'shinlari Kilikiyaning bir qismini bosib oladi. Shimoldan esa Qora dengiz sohillarida yashagan kashk qabilalari xettlar yurtiga hujum qilib, Xattusa shahrini bosib olib, uni vayron qiladi. O'rta Xett podsholigi davomida kambag'allar va qullar qo'zg'olonlari kuchayib ket-gan. Saroyda toj-taxt uchun kurash ham qizg'in tus olgan. Tashqi dushmanlarning hujumi, ichki g'alayonlar va zodagonlar orasidagi o'zaro toju-taxt uchun kurashlar podsholikni halokat ostonasiga olib kelib qo'yadi. Shu bilan O'rta Xett podsholigi ham o'z ni-hoyasiga yetadi.

Yangi Xett podsholigi davrida ulug' Xett sultanati, m.av. XIV–XIII asrlar. M.av. XIV asr boshlarida **Suppilulium** Xett davlati taxtiga o'tiradi. U serg'ayrat lashkarboshi, mohir diplomat va uzoqni ko'rvuchi dono siyosatchi edi. Suppilulium davrida Xett

podsholigi qayta tiklanib ravnaq topadi. U Xett qo'shinlarining jang-ovarlik jihatlariga katta e'tibor beradi. Xett qo'shini ot qo'shilgan tezkor jang aravalari bilan ta'minlanadi. Jang aravalalarining har birida haydovchi, kamondoz va qalqonbardonlardan iborat uch jangchi bo'lar edi. Xettlar urushda jang aravalalaridan foydalanishni gikoslar yoki mitanniliklardan o'rgangan bo'lsalar kerak. Urush vaqtida jangovar aravali qismlar shiddat va tezkorlik bilan hujumga o'tgan va dushman saflarini sarosimaga solgan. Podsho Xett shaharlarni, xususan mamlakat poytaxti Xattusaning mudofaa inshootlarini mustahkamlashga ham katta e'tibor bergen. Suppilulum qo'shni mamlakatlar ustiga lashkar yuborish, o'z qizlarini ularning shoh va shahzodalariga nikohlab berish va turli diplomatiya usullarini qo'llab, ularni o'ziga qaratib, hatto ittifoqdosh qilib oladi. Jango-var xett qo'shnlari janubi-g'arbda Arqava podsholigini, janubda Kilikiya va Suriyaning katta qismini bosib oladi. Xett qo'shnlari Mitanniga hujum qilib, g'olib chiqadi. Mitanni podshosi saroy fit-nachilarini tomonidan o'ldiriladi. Shu davrda Ossuriya bilan Alshinning birlashgan qo'shnlari Mitanniga bostirib kiradi. Vaziyatdan foydalangan Xett podshosi o'z qizini Tushratining o'g'li shahzoda **Shattivasga** nikohlab, shahzodani Mitanni taxtiga o'tqizadi.

Suppilulum davrida Mitanni xettlarga qaram bo'lib qoladi. Suppilulum podsholigi davrida Xett podsholigi Qora dengiz bo'yalaridan Falastin, Bobil va Ossuriya chegaralarigacha bo'ilgan yerlarni o'z ichiga olgan edi.

Suppilulum vafotidan so'ng taxtga Mursili II (1340–1305) o'tiradi. Mursili II davrida asosiy harbiy harakatlar Kichik Osiyoning janubi-g'arbida olib boriladi. Chunki Kichik Osiyoning janubi-g'arbida Arqava podsholigi rahbarligidagi Mira va Lukka davlatlari ittifoqi bor edi. Ular janubi-g'arbdan Xett podsholigiga xavf solib turar edilar. Mursili II Mira, Lukka va Miletlarni o'z tomoniga og'dirib, ittifoqchilarni kuchsizlantirishga erishadi. Lekin ular hamon kuchli raqib bo'lib turar edilar. Valma shahri yaqinida xettlar bilan Arqava ittifoqchi qo'shnlari o'rtasida dahshatli jang bo'lib o'tadi. Jangda ittifoqchilar qo'shini yengilib, Arqava shohi va uning o'g'li qochib ketadi. Xett qo'shnlari Apasu (Efes) shahrini

egallab, Egey dengizi sohillariga chiqadilar. Shundan keyin Arqava davlati Xett podsholigiga qaram bo'lib qoladi. Shuningdek, Kichik Osiyo yarimorolining katta qismi ham xettlar ixtiyoriga o'tadi. Bu davrda Xett podsholigining harbiy kuch-qudrati eng yuqori daraja-ga ko'tarilgan edi.

Xett podsholigining kuchsizlanishi va parchalanishi. Mursili II podsholigining oxirlarida Old Osiyodagi siyosiy ahvol o'zgardi. Seti I va Ramzes II (m.av. 1290–1224) fir'avnlilik qilgan davrda – m.av. 1337–1224-yillarda Misr podsholigi kuchayadi. Misr fir'avnlari O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi mamlakatlar-ni qaytadan qo'lga kiritish uchun xettlar bilan qattiq kurash olib boradilar. Bu urush m. av. 1280-yili **Misr-Xett** sulhi bilan yakunlanadi. Sulhga binoan Suriyaning katta qismi va shimoliy Finikiya xettlar, Falastin va Janubiy Finikiya esa misrliklar ixtiyoriga o'tadi. Shu davrda Ossur podsholari Mitannini olib, xettlarga tahdid soladi. Xett qo'shnulari ularning hujumlarini arang qaytaradilar. Xettlar g'arbda Troyani istilo qilib, Lidiya shohligining poytaxti Sard shahrini vayron qiladilar.

M. av. XIII asr oxirida g'arbdan Kichik Osiyo, O'rtayer dengizining sharqiy sohilidagi mamlakatlar va Misrga "Dengiz xalqlari" nomi bilan mashhur bo'lgan qabilalar hujum boshaydi. "Dengiz xalqlari" – axeylar, sardlik sherdonlar, tursha-etrusk va boshqa qabilalarning ittifoqidan tashkil topgan edi. Misr fir'avnlari juda qiyinchilik bilan ularning hujumlarini qaytarishga muvaffaq bo'lganlar. Kichik Osiyodagi katta-kichik davlatlar, xususan Xett podsholigi ham "dengiz xalqlari" hujumiga bardosh bera olmanlar. Xettlarning jangovar aravalı qismlari ham bosqinchilarning qarshiligini sindira olmagan.

M.av. 1190-yili "Dengiz xalqlari"ning lashkarlari Xett podsholigi markazi Xattusani ishg'ol qilib, uni vayronaga aylantiradi. "Dengiz xalqlari"ning bergen zarbalari natijasida yaqinginada qudratli hisoblangan Xett podsholigi barham topadi. M. av. XII–VIII asrlarda bu qudratli podsholik mayda-mayda davlatlarga bo'linib ketadi.

Xettlarning ijtimoiy tuzumi, xo'jaligi va madaniyati.

Ma'lumki, Kichik Osiyoda dastlab bir necha shahar-davlatlar tashkil topgan edi. Bu davlatlarning o'ziga xos boshqaruv tizimi ham bo'lgan. Shahar-davatlarning hokimlari xalq yig'ini tomonidan saylab qo'yildi. Hokim davlatni amaldorlar, harbiy boshliqlar va ruhoniylariga tayanib boshqargan. M.av. XVIII asr boshlarida Kus-sar hukmdori Pitxan bir necha shahar-davatlarni birlashtirib o'zini podsho deb e'lon qiladi. Anitta davrida esa Xett podsholigiga asos solinadi. Shu davrdan boshlab podsholik taxti otadan bolaga meros tariqasida o'tadigan bo'ldi. Tabarna davrida Xett podsholigi birmuncha kuchayadi. U o'zini "Ulug' podsho" deb e'lon qilgan. Tabarna nomi podsholik unvoniga aylangan. Shundan boshlab Xett podsholari o'zlarini „tabarna" deb ataganlar.

O'sha vaqtgagi yozuvlarning birida: „*Ulug' podsho Tabarna o'z shahri Kissirda kasal bo'lib qoladi. O'g'li Mursilni podsholikka chaqirib, amaldorlariga endi men o'g'limni sizlarning ustingizdan "tabarna"-podsho qildim*”, deb yozilgan ekan. Podsho Telepin davrida taxt vorisligi tartibga keltirilib. mustaxkamlanadi. O'sha davrdagi qoidaga ko'ra podsholik taxti podsho o'g'illariga, o'g'illari bo'lmasa aka-ukalariga, ular ham bo'lmasa kuyovlariga meros qilib qoldirilgan. Xett davlatida podsho juda katta huquqlarga ega bo'lgan. Davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masalalarni hal etishda oqsoqollar kengashi – tuliya va harbiylar yig'ini – pankusni chaqirgan. Podsho tuliya va pankusning roziliginini olmay turib jinoyatchilarini o'limga buyurmagan. Podsho qoshida qarindosh urug'laridan iborat aslzodalar kengashi ham faoliyat ko'rsatgan.

Yer podsho, amaldor, ruhoniy, erkin kishilar o'rtaida taqsimlangan. Mamlakatda qullar ham ko'p bo'lgan. Harbiy asirlar qulga aylantirilgan. Ozod kishilar jinoyat qilsalar jarima to'lab qutulib ketganlar. O'g'irlilik qilib qo'lga tushgan qullarning burni, qulog'i va boshqa a'zolari kesib tashlangan. Jiddiyroq jinoyatchi qullar o'limga hukm qilingan.

Xett podsholigining xo'jaligi. Xett mamlakatining tabiiy sharoiti u yerda xo'jalikning hamma tarmoqlari rivojlanishiga imkon bergen. Xett dehqonlari Qizilirmoq, Yashilirmoq, Sayhun, Jay-

hun kabi katta-kichik daryo va soy vodiylarini o'zlashtirganlar. Bu joylarda kanallar qazilib, to'g'onlar qurilib, aholi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullangan. Ular sabzavot va poliz ekinlari ekib, ulardan mo'l hosil olganlar. Suvsiz, sug'orilmaydigan yerkarta no'xat. arpa, tariq, mosh, bug'doy ekib, lalmikor dehqonchilik bilan ham shug'illanganlar. U yerda sug'orma dehqonchilikka ham alohida e'tibor berilgan. Qadimgi Xett qonunlarida suvdan tejab-tergab foydalanish ta'kidlangan. Aholi olma, nok, o'rik, olxo'ri, anjir, uzum ekib bog'dorchilik bilan ham shug'ullangan. Ma'lumotlarga qaraganda, mamlakatda qadimdan boshlab parrandachilik va asal-arichilik ham rivoj topgan ekan.

Kichik Osiyoning katta qismi sero't yaylovlardan iborat bo'lgani uchun u yerda chorvachilik yaxshi rivojlangan edi. Chorvadorlar sergo'sht, dag'al junli qo'y, echki va qoramol boqqanlar.

M.av. II mingyillikdan boshlab Kichik Osiyoda, shuningdek, Xettlar mamlakatida yilqichilikka alohida e'tibor bergenlar. Dashtlarda otlarning turli zotlari parvarish qilingan. Chorva aholini sut, go'sht, yog', jun, teri va ishchi kuchi bilan ta'minlagan. Ot, eshak va ho'kizlardan xo'jalik maqsadlarida keng foydalanylган. Otlardan esa ko'proq harbiy maqsadlarda foydalanylган.

Anatoliya tog'larida oltin, kumush, mis, qo'rg'oshin, temir, tuz, tosh va boshqa ma'dan konlari ko'p bo'lgan. Shuning uchun mamlakatda *tog'-kon sanoati, temirchilik, misgarlik, qurolosoziik zargarlik, asbob-uskunasozlik va hunarmandchilikning to'qimachilik, kulolchilik, duradgorlik* va boshqa tarmoqlari ham rivoj topgan edi.

Mamlakatda ichki va tashqi savdo yaxshigina rivojlangan bo'lib, xettlar Kavkaz, Yunoniston, Misr, Ossuriya, Mesopotamiya va boshqa qo'shni mamlakatlar bilan quruqlik va suv yo'llari orqali qizg'in savdo-sotiq ishlarini olib borganlar.

Qadimgi Xett madaniyati: yozushi, ilmiy bilimlari, san'ati va adabiyoti. Qadimgi xettlar o'zlariga xos madaniyat yaratganlar. Ular Mesopotamiya, Kavkaz va O'rtayer dengizi sohilidagi mamlakatlar madaniyatlaridan ko'p narsalarni qabul qilgan. Ular shumer-akkad alifbosi asosida Xett iyeroglifi va mixxatsimon yozuvlarini yaratganlar. M.av. 1280-yilda xett podshosi Xattusili III bilan

Ramzes II o'rtasida tuzilgan do'stlik bitimi shumer-akkad, Xett va Misr tillarida shu iyerogliflar bilan yozilgan ekan.

Xettlarda *astronomiya*, *matematika*, *geometriya*, *tarix*, *agronomiya*, *veterinariya*, *tabobat* va boshqa fanlar o'z davrida ancha rivoj topgan edi. Qadimgi Xettlarda haykaltaroshlik, toshtaroshlik, qabartma rassomchilik va qoyatoshlarga rasm ishslash ham rivoj topgan edi. Ular asosan xudolar, podsholar, jangchilar, har xil hayvon, ot, jangovar arava va boshqa narsalarning haykallari, rasmlarini mohirlik bilan ishlaganlar.

“Ullikumin haqida qo'shiq” va “Telepin haqidagi afsona”-lar Xett adabiyotining eng ajoyib namunalari hisoblanadi. O'sha zamonalarda “*Suppilulium I solnomasi*”, “*Mursili II solnomasi*” va “*Xattusili III tarjimayi holi*” kabi tarixiy asarlar ham yaratilgan.

Yangi podsholik davrida esa mesopotamiyaliklarning “*Gel-gamesh haqida doston*”i, Gesiodning “*Teogoniya*” kabi asarlari xett tiliga tarjima qilingan.

O'sha davrda yaratilgan adabiy va tarixiy asarlar xettlar hayotining ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va diniy e'tiqodlarini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Qadimgi Xett dini va e'tiqodi. Qadimgi Xettlar hayoti va e'tiqodida ibridoiy e'tiqod shakllari keng tarqalgan edi. Ular yer, suv, tog‘, momaqaldiroq, chaqmoq xudolariga e'tiqod qilganlar. Ularda hosildorlik xudosi ayol qiyofasida tasvirlangan. Ayni paytda xettlar tog‘ choqqilarini, momaqaldiroq, yashin, yog‘ingarchilik va hosildorlik xudosi **Teshubni** ulug‘lagan va unga e'tiqod qilganlar. U “**Osmon podshosi, Xett mamlakati homiysi**” hisoblangan. Uning xotini Quyosh xudosi bo‘lib, u ham mamlakat homiysi va Xett podsholari malikalarining homiysi bo‘lgan.

Teshubni beliga qilich taqqan va chap qo'lida bir tutam yashin, o'ng qo'lida jang boltasi ushlagan holda tasvirlangan. Boshqa Xett xudolari ham turli qiyofada tasvir etilganlar. Xett podsholari mamlakatning bosh ruhoniylari hisoblangan. Xettlarda podsholar xudo darajasiga ko'tarib ulug‘lagan. Mamlakat ahli podshoni “Quyosh” deb atagan va ulug‘lagan.

Shuni ta'kidlash kerakki, mamlakatda bosh xudolardan tashqari har bir qishloq va shaharning o‘z xudosi bo‘lgan. Qadimgi manbalarda “*mamlakatning 1000 xudosi*” tilga olinadi. M.av. 1280-yilda tuzilgan Misr – Xett do‘stlik bitimida xettlarning 1000 xudosining nomi qayd etilgan. Xettlar o‘z xudolariga va muqaddas hayvonlarga atab haykallar, rasmlar va har turli asarlar yaratganlar. O‘z xudolariga bag‘ishlab bayram kunlari qo‘y, echki va qoramol so‘yib qurbanliklar qilgan.

Shunday qilib qadimgi xettliklar o‘zlariga xos madaniyat yaratib, jahon xazinasiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shganlar.

4-§. Qadimgi Troya va Frigiya podsholiklari

Troya podsholigi. Kichik Osiyoning shimoli-g‘arbiy burchagida **Gissarlik** tepaligi qad ko‘tarib turadi. Arxeolog olimlar bu tepalikni qazib ochganlarida, u qadimgi **Troya** shahrining o‘rnini ekanligini aniqlaganlar. Bundan 4 ming yil muqaddam bu shahar Troya podsholigining markazi bo‘lgan ekan. M.av. XXII asrda shahar dushmanlar tomonidan talanib, yoqib, vayron qilingan. M.av. XVIII–XIII asrlar orasida Troya gullab-yashnagan. U yerda Xettlarga qarindosh qabilalar yashagan. Troya shahri tosh va pishiq g‘ishtilar bilan terilgan mudofaa devorlari bilan o‘ralgan edi. Shahar ichida podsho saroyi, ma’muriy binolar, ibodatxona, badavlat kishilar, amir-amaldorlar va sarkardalarning muhtashami saroylari qad ko‘tarib turardi. Troya podsholigi tepasida podsho o‘tirib, u davlatni oqsoqollar kengashi va xalq yig‘ini bilan maslahatlashib boshqargan. Podsholik taxti otadan bolaga meros bo‘lib o‘tgan. Troyaliklar og‘ir aslaha bilan qurollangan nayzadorlar, o‘q-yoy bilan qurollangan piyoda, oqliq va ot qo‘shilgan jang aravalalaridan iborat kuchli qo‘shinga ham ega bo‘lganlar.

M.av. XVIII–XIII asrlarda podsholikda dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiq rivojlangan. Troyaliklar yilqichilikka alohida e’tibor bergenlar. Ular otlardan xo‘jalik va harbiy maqsadlarda keng foydalangan. Tarixchi Gerodot troyaliklarni “*ot o‘rgatuvchilar*”, deb, ularning jang aravalarini ham tilga olgan edi.

M.av. 1300-yilda Troyada qattiq zilzila bo'lib, shahar katta talofat ko'rgan. Zilzila natijasida aholining bir qismi halok bo'lgan.

Yunon – Troya urushlari oqibatlari. M.av. 1260-yilda Miken shohi Agamennon boshliq Yunon shahar-davlatlarining floti Troya ustiga bostirib keladi. Troya shohi **Priam** frigiyalik, likiyalik va frakiyaliklarni yordamga chaqirib, ular kelgunlariga qadar kurashni boshlab yuboradi. Urush 10 yil davom etadi. Yunon – troya urushlari, Troya fojiasi va yunonlar hiylasi yunon baxshisi Gomerning mashhur "Iliada" dostonida ajoyib tarzda ta'rif va tavsif etilgan.

Yunonlar Troyani ishg'ol qilish uchun uzluksiz janglar olib borganlar. Chunki shahar qalin, mustahkam mudofaa devorlari bilan o'ralgan edi. Ular har qancha urinmasin shahar ichkarisiga kira olmaganlar. Chunki troyaliklar o'zlarining jonajon shaharlarini mardonavor himoya qilganlar.

Shaharni jang bilan olishga ko'zi yetmagan yunonlar harbiy hiyla ishlatishga jazm qiladilar. Ular Yunonistonning Itaka oroli shohi Odisseyning maslahati bilan yog'ochdan katta ot yasaydilar. Yog'och ot ichiga jasur jangchilarni joylab, uni Troya shahri devori tagiga olib borib qo'yadilar. Troyaliklar shubhalanmasliklari uchun yunonlar shahar devori atroflaridan chekinib dengizdag'i kemalariغا borib o'rashadilar. Troyaliklar yunonlarning mash'um hiylasidan bexabar shahar devori ostidagi ulkan yog'och otni xotirjamlik bilan shaharga olib kirib, uni tomosha qiladilar. Tomoshadan keyin troyaliklar xotirjam bo'lib uyquga ketadi. Fursatdan foydalanib yunon jangchilari yog'och ot ichidan chiqib uyquda yotgan darvoza posbonlarini o'ldirib shahar darvozasini ochadilar. Bu vaqtda yunon askarlari kemalardan qaytib kelib shaharga bostirib kirishga tayyor turgan edi. Shundan so'ng yunon jangchilari shaharga seldek bostirib kiradi. G'aflatda qolgan troyaliklar uyg'onib, yunonlar bilan ayovsiz jang boshlaydilar. Yunonlar qal'adagi aholini shafqatsiz ravishda qirg'in-barot qiladi. Shaharni talon-taroj qilib, unga o't qo'yadilar. Ular ko'p o'lja va asirlar bilan Yunonistoniga qaytadi. Qaytishda dengizda halokatga uchrab, ko'pchiligi halok bo'ladi. Yunonlar ketgach Troya 400-yilcha tashlandiq holda xarob bo'lib yotadi. M. av. 700-yilda Yunonlar Troya o'rnida yangi

Ilion shahrini bino qiladilar. Garchi shahar qayta tiklangan bo'lsa ham, o'zining avvalgi darajasiga ko'tarila olmaydi. Troya dastlab Frigiya va Lidiyaga, keyinchalik esa birin-ketin Eron, Makedoniya, Pergam, Rim va Vizantiya hukmdorlarining ta'siriga tushib qoladi.

Frigiya podsholigi. Frigiya Kichik Osiyoning markaziy va g'arbiy qismidagi qadimgi davlatlardan biri. Mamlakatdan ko'p irmoqli *Sangariy* daryosi oqib o'tib, Qora dengizga quyiladi. Uning iqlimi mo'tadil bo'lib, yog'ingarchilik bahor va qish oyalarida ko'proq bo'ladi, qishi mo'tadil. Qadimgi Frigiyada xettlarga qarindosh qabilalar yashagan.

M.av. II mingyillik o'rtalarida bu yerga Makedoniya va Frakiyadan juda ko'p qabilalar ko'chib kelib joylashganlar. Ular o'zlarini frigiylar deb atagan va mahalliy aholiga qo'shilib ketgan.

M.av. II mingyillikning ikkinchi yarmida ular **Frigiya podsholigiga** asos soladilar. Frigiyaliklar Troya-Yunon urushi davrida troyaliklar bilan yelkama-yelka turib yunonlarga qarshi kurashganlar. Troya yengilgach, Frigiya uni o'z ta'siriga olgan. M.av. XII asrda Frigiya qo'shinlari sharq tomonga bir necha bor hujum uyuştiradi. Biroq ularning harbiy yurishlari Ossur qo'shinlari tomonidan to'xtatilgan.

M.av. X–VIII asrlarda Frigiya podsholigi birmuncha kuchayadi. Sangariy daryosining o'ng sohilida joylashgan Gordion shahri podsholikning markazi edi. Frigiyaliklar oddiy dehqondan chiqqan podsholari **Gordiya** bilan g'ururlanganlar. Gordyaning o'g'li Midas davrida Frigiya podsholigi o'z kuch-qudratini saqlab, podsholik yerlarini kengaytirish uchun Sharq tomon qo'shin tortgan. Ammo Ossur shohi Sargon II firigiyaliklarni yengib, 300 qal'a, 10 shahar, 2400 asir va behisob boyliklarni qo'lga kiritgan. Midas Ossuriya hukmronligini tan olib, Ossur shohiga o'lpon to'lash majburiyatini olgan.

M.av. VIII asr oxiriga kelib Frigiya qo'shni qabilalarning shiddatli hujumi girdobida qolgan. Frigiya qo'shinlari ketma-ket mag'lubiyatga uchragach, Midas o'zini o'zi o'ldirgan.

M.av. VII asr boshlarida Frigiya kuchsizlanib, dastlab Lidiya, Eron, keyinchalik yunon-makedonlar, rimliklar va vizantiyaliklar ta'siriga tushib qolgan.

Frigiyaning xo‘jaligi va madaniyati. Frigiyaning qulay tabiiy sharoiti va mehnatkash aholisi xo‘jalikning hamma tarmoqlarini rivojlanishiga imkon bergan. Gomer va Gerodotlarning ma'lumotlariga ko‘ra, frigiyaliklar bog‘dorchilik va yilqichilikda shuhrat qozonganlar. Mamlakat dehqonlari va bog‘bonlari arpa, bug‘doy, tariq, kunjut, anjir, olma, nok, uzum ekib, ulardan yuqori hosil olgan. Ular qo‘y, echki, xachir, eshak va ot boqib, chorvachilikka ham katta e‘tibor berganlar. Ho‘kiz, eshak, xachirdan xo‘jalik maqsadlarida otlardan esa harbiy maqsadlarda foydalaniłgan. Frigiya tog‘lari oltin, kumush, mis, temir, qo‘rg‘oshin va boshqa ma‘dangarga boy bo‘lgan. Shu bois u yerda tog‘-kon sanoati, temirchilik, qurolozlik, zargarlik, me‘morchilik, kulolchilik, to‘qimachilik va xo‘jalikning boshqa sohalari yuksak darajada rivoj topgan edi.

Frigiya uzoq-yaqin qo‘shni mamlakatlar va xalqlar – yunonlar, misrliklar, lidiyaliklar, ossurlar, urartlar bilan qizg‘in savdo-sotiq ishlarini olib borgan.

Frigiyaliklar qo‘shni xalqlar madaniyatidan bahramand bo‘lib, o‘zlariga xos madaniyat yaratganlar. Ularning Gordiya va Midas kabi shohlari ilm-fan, san‘at va madaniyat homiylari bo‘lgan. Kichik Osiyo yunonlarining alifbosi asosida o‘z yozuvlarini ham yaratganlar.

Ilm-fanning turli sohalarida, shuningdek, adabiyot sohasida ham katta yutuqlarga erishgan.

Frigiyaliklarning Darete nomi bilan mashhur bo‘lgan shoiri Gomergacha Frigiya “Iliada”sini yozganligi ma’lum. Ularda kuy, raqs, qo‘sishchilik san‘ati ham ancha rivoj topgan ekan. Frigiyaliklar xilma-xil musiqa asboblari yasash va ularni ijro etishda shuhrat qozonganlar.

Frigiyaliklar dastlab tabiat kuchlariga, buyumlarga va ba‘zi hayvonlarga e‘tiqod qilgan. Ularda ko‘pxudolik, totemizm, animizm, fetishizm va boshqa diniy e‘tiqodlar saqlanib qolgan edi.

5-§. Qadimgi Lidiya podsholigi

Qadimgi Lidiya podsholigining joylashuvi va tabiat. Qadimgi Lidiya Kichik Osiyoning g‘arbiy qismida joylashgan quldor-

lik davlatlaridan biridir. Uning g'arbiy qismini Egey dengizining suvlari o'rabi turadi. Mamlakat hududi tog'lik va tekisliklardan iborat. Tog'lar orasidan katta-kichik soylar oqib chiqib, ularning ba'zilarigina Egey dengiziga borib quyiladi. Mamlakat g'arbida iqlim mo'tadil, dengiz iqlimiga yaqin. Sharqiy qismida iqlim kontinental – qishi sovuq, yozi issiq. Yog'in-sochin ko'proq kuz, qish va bahor oylarida yog'adi. Hayvonot va o'simliklar olami u qadar boy emas. Uning tog'lik joylarida oltin, kumush, mis, temir va boshqa konlar bor. Aholining asosiy qismi lidiyalik va yunonlardan iborat. Bu mamlakatda qadim zamonlardan boshlab aholi yashab keladi.

Lidiya podsholigining tashkil topishi va rivoji. M. av. XIII asrda Sardi shahri Assuva (Osiyo) mamlakatining poytaxti bo'lgan ekan. M. av. XIII asrda Assuva xett qo'shinlari tomonidan bosib olinadi, uning poytaxti Sardi talanib, so'ng unga o't qo'yiladi. Xettlar katta o'lja va ko'pdan-ko'p harbiy asirlar bilan vatanlariga qaytadilar. Xettlardan keyin mamlakatni yunonlar osonlik bilan bosib oladi.

M.av. I mingyillik boshlarida Lidiya Frigiya podsholigi tomonidan bosib olinadi. M.av. VII asr boshlariga kelib Frigiya podsholigi parchalanib ketadi. Lidiya uning tarkibidan chiqib ketadi.

Mermnadlar sulolasasi davrida Lidiya. M.av. VII asr boshlarida Lidiya o'zini tiklab oladi. Lidiya podsholigi Mermnad sulolasining asoschisi Giges (m.av. 692-654) podsholik qilgan davrda kuchayadi. Giges davrida Frigyaning bir qismi, Karn, Troya va Misiya Lidiya tarkibiga qo'shib olinadi. Giges Egey dengizi sohillariga chiqishi uchun Milet va Smirna shaharlari ustiga qo'shin tortadi. Gigesning bu yurishi yaxshi natija bermaydi. Giges ossur podshosi bilan ittifoq tuzib, Kappadokiyada kimmeriyalar ustidan g'alaba qozonadi. Shu yo'l bilan Ossuriya Lidiyani o'ziga tobe qilib olmoqchi edi. Lidiya Ossuriya asoratiga tushib qolmaslik uchun Misr va Bobil bilan bitim tuzadi. Shu vaqtida kimmeriyalar Lidiyaga bostirib kirib, Gigas qo'shinlarini yengadi. Jangda Giges halok bo'ladi. Gigesning o'g'li Ardis (m.av. 654–605) davrida Lidiya nozik siyosat qo'llab, ossurlar va kimmeriyalar asoratidan qutuladi. Ardis kimmeriyarning yangidan boshlagan hujumini qaytarib, Egey dengiziga yo'l ochish uchun kurash boshlaydi.

So'nggi Mermnadlar davrida Lidiya podsholigi. Lidiya shohlari Sadiatt va Aliatt davrlarida g'arbda Milet bilan kurash olib boradi. Midiya bilan urush m.av. 585-yil 28 maydagi sulk bilan tugaydi. Chunki shu kuni quyosh tutilib, jang maydoni qop-qorong'i tunga aylanadi. Bu hodisadan qo'rqib dahshatga tushib har ikki tomonning qo'shini jang maydonini tashlab qochadi.

Sulhga binoan Galis daryosi ikki mamlakatning chegarasi bo'lib qoladi. Sulhga ko'ra Alitta o'z qizini Midiya shahzodasi Astiagga uzatadi. Podsho Krez davrida Lidiya qo'shirlari Kichik Osiyo sohilidagi yunon shaharlarini bosib oladi. Shu davrda Eron Lidiyaga tahdid sola boshlaydi. M.av. 546-yili Krez qo'shirlari Kappadokiyadagi Pteriya shahri yaqinida Eron qo'shirlari bilan to'qnashadi. Urush har ikki tomon uchun natijasiz tugaydi. Shu yili Eron shohi Kurush II qo'shirlari Sardi shahri yaqinida Lidiya qo'shirlarini tor-mor etadi. Krez asir olinib o'ldiriladi. Shu bilan Lidiya podsholigi barham topib, Ahamoniylar davlati tarkibiga qo'shib olinadi.

Lidiyaning ijtimoiy tuzumi, xo'jaligi va madaniyatি.

Lidiya Kichik Osiyodagi quldorlik davlatlaridan biri edi. Lidiya yakka hokimlikka asoslangan davlat bo'lib, davlat tepasida shoh turardi. Shoh saroyida qarindoshlari va oliy darajadagi aslzodalarining mavqeyi ham baland edi. Davlatning asosiy tayanchi piyoda, otliq va jangovar aravalardan tuzilgan qo'shin edi. Shoh huzurida aslzoda va harbiylardan tuzilgan kengash faoliyat olib borar edi. Davlat ahamiyatiga ega bo'lган masalalarni hal etish uchun xalq yig'ini ham chaqirilib turilardi. Lidiyada taxt albatta otadan bolaga meros qilib qoldirilgan.

Lidiya xo'jaligining asosini dehqonchilik tashkil etgan. Germ, Pektol va Meandr daryolari vodiysining tuprog'i juda unumdar bo'lib, dehqonlar bu yerlarga dukkakli o'simliklar, g'alla va sabzavot ekishgan. Tog' yonbag'rlariga uzum, olma, anor, nok ekib bog'dorchilik bilan ham shug'ullanganlar.

Lidiya yaylovlarida qo'y-echki, cho'chqa, qoramol podalari va yilqi uyurlari boqilgan. Lidiya tog'laridan tilla, kumush, mis, temir va qalay qazib olingan.

Lidiyada hunarmandchilik ancha rivoj topgan bo'lib, usta-lar ajoyib zargarlik, kulolchilik buyumlari, xushbichim kiyimlar tayyorlashga mohir bo'lishgan. Hunarmandlar pishiq g'isht, turli bo'yoq va sard oxrasini yaratganlar. Lidiyada savdo-sotiq rivojlangan edi. Savdogarlar Yunoniston va Old Osiyo mamlakatlari bilan qizg'in savdo-sotiq ishlarini olib borganlar. Shuni ta'kidlash kerakki, Lidiya shaharlarida uzoq-yaqin mamlakatlardan kelgan savdogarlar va mehmonlar uchun maxsus mehmonxonalar bo'lgan. M.av. VII asrda, ya'ni Giges va Krez davrlarida kumush, oltin, oltin va kumushning tabiiy qotishmasi elektrumdan tanga pullar zarb etilgan. Lidiyaliklar o'zlariga xos madaniyat yaratgan. Ular yunon alifbosi asosida o'z yozuvlarini yaratganlar. Lidiyada turli amaliy bilimlar, xususan tabobat ancha rivoj topgan edi. Tabiblar bemorlarni davolashda shifobaxsh meva va giyohlardan dori-darmon sifatida keng foydalanganlar. Lidiyalik ustalar me'morchilikda shuhrat qozonib, ajoyib saroylar, ibodatxonalar va mehmonxonalar qurgan. Qadimgi Lidiyada naqqoshlik, rassomlik va tasviriy san'atning boshqa tarmoqlari ham rivoj topgan edi.

Zargarlar oltin, kumush, qimmatbaho toshlardan nafis zeb-ziy-nat buyumlari yasab shuhrat qozongan. Lidiyaliklar musiqa, raqs va qo'shiqchilikda ham katta yutuqlarga erishganlar.

Lidiyaliklar Sandon, Attis, Sabaziy va boshqa xudolarga e'tiqod qilishgan. Ular Ulug' Ona, Ona Xudo, Kibeli kabi xudolarga alohi-da ehtirom bildirilganlar. Lidiyaliklar qo'shni xalqlar madaniyatididan keng foydalanib, ular madaniyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatganlar.

6-§. Qadimgi Van-Urartu podsholigi

Urartuning tabiatи va aholisi. Van-Urartu Kavqazortidagi qadimgi davlatlaridan biri hisoblanadi. Uning katta qismini Kavkaz va Arman tog'lari egallab yotadi. Urartudan **Kura, Araks, Frot** va **Diyala** daryolari oqib o'tadi. Tog'lar orasida Van, Urmiya va Sevan ko'llari joylashgan. O'lkaning yozi u qadar issiq emas. Qish biroz sovuq bo'lib, yog'in-sochin asosan bahor, qish va kuz oy-larida yog'adi. Tog' yonbag'irlari va daralarda har xil o't-o'lanlar,

butalar va daraxtlar o'sib yotadi. O'lkada tog' echkilari, bo'ri, yovvoyi cho'chqa, qoplon, sudralib yuruvchilar va qushlar yashaydi. Tog'larda temir, qo'rgoshin, mis va boshqa ma'danlar serob.

Arxeolog olimlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, Kavkazorti va Urartu hududida bir necha ming yillardan beri aholi yashab keladi. Ular hozirgi arman va gruzin xalqlarining ota-bobolari bo'lib, keyinchalik ular urartlar deb nom olgan. Qadimgi Urartu hududida *xett, hurrit, ossur va boshqa* qabilalar ham yashaganlar.

Urartu va Kavkazorti mamlakatlari. Manbalar va tarix-navislik. Urartu va Kavkazorti mamlakatlarining qadimgi tarixini va madaniyatini o'rganishda urartu yozuvlari katta ahamiyatga ega bo'lib, ular 1828–1829-yillarga kelib ma'lum bo'ldi. XIX asrning oxirlariga kelib qadimgi sharq lingvistikasida ayrim siljishlar ro'y berdi. Topilgan yozuvlarni o'qib chiqish jonlandi. Kavkazortidagi Urartu yozuvlari ilk bor M.V.Nikolskiy tomonidan o'qilgan va nashr etilgan.

XX asrning boshlarida I.A.Orbeli rahbarligidagi ekspeditsiya Van ko'li sohilidagi yozuvlarni kashf etdi. Bu shoh Sardur II yozuvlari edi. Urartu yozuvlari o'zining mazmuniga ko'ra Urartu podsholarining faoliyatini-yilma-yil bayon etuvchi yilnomani eslatadi.

Qadimgi Urartu haqidagi ma'lumotlar ossur va bobilliklarning ayrim manbalarida ham keltirilgan. Ularda Urartu davlati, uning qo'shni mamlakatlar bilan munosabatlari, harbiy yurishlari va boshqalar haqida bayon etiladi. Qadimgi Urartu tarixini o'rganishda Karmir-blur (Teyshabani), Argishtixinili va Erebunida olib borilgan arxeologik qazish ishlari va u yerdan topilgan juda ko'p moddiy va madaniy buyumlar majmuasi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Urartu tarixini o'rganishda I.M.Dyakonovning ham xizmatlari kattadir. U qadimgi Urartu tarixiga oid ossur-bobil yozuv manbalarini tarjima qilib sharhlab bergen. Shuningdek, I.M.Dyakonov urartu tarixiga oid urartu hujjatlarini ham o'qib chiqib ularni sharhlab bergen. G.A.Melikishvili ham ururtu yozuvlarini nashr ettirib, sharhlagan. B.B.Piotrovskiyning Urartu bo'yicha to'plagan katta ilmiy ishi 1944-yilda bosilib chiqadi. Uning qayta ishlangan nashri

esa 1959-yilda bosilgan. B.B. Piotrovskiyning bu ilmiy ishida Qadimgi Urartu tarixi va madaniyati haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

Qadimgi Urartu tarixi va madaniyati haqida G.V.Sereteli, I.I.Meshaninov, N.V.Arutyunyan, A.A.Martirosyan va boshqa olimlarning xizmatlari katta.

Keyingi yillarda Turkiya va Eronda urartu yodgorliklarini qazish ishlari olib borildi. Qadimgi Urartu madaniyatini bilan A.Seys, K.F.Lemann-Xaunt, R.Barnet, F.Kening va I.Fridrix kabi olimlar qizg'in ravishda o'rgandilar.

Urartu podsholigi

Urartuda ilk davlatlarning tashkil topishi va kuchayishi.

M. av. XV–XIV asrlarda **Sevan**, **Van** va **Urmiya** ko'llari atrofida Urartu va ularga qarindosh qabilalar yashar edilar. Ular alohi-da-alohida qabilalar ittifoqiga birlashib yashaganlar. Bu qabilalar ittifoqi orasida Urartu ittifoqi kuchliroq edi.

M. av. XIII asrda Ossur qo'shinlari bir necha bor bu qabilalar ustiga bostirib kirib, ular bilan jang qilgan. M.av. XII asrda Ossur podshosi **Tiglatpalasar I** Van ko'li atrofiga bostirib kirib, u yerdagi 23 podsho ustidan g'alaba qozonganini qoyatoshga yozdirgan ekan.

M.av. XI–X asrlarda Van ko'li atrofidagi qabilalar Urartu atrofida birlashib, Urartu podsholigini tashkil etadilar. Urartu davlatin-ning hukmdori **Aramu** m.av. 864–845-yillarda podsholik qilgan. U Ossuriya podshosi **Salamansar III** ning Urartuga bostirib kirgan qo'shinlariga qattiq zarba bergen.

Urartu podsholigining kuchayishi. M.av. 835–825-yillar Sarduri I Urartu podsholigini boshqargan. Sarduri I qo'shinlari os-sur qo'shinlari ustidan bir necha bor g'alabaga erishgan. U o'zini „*Hamma podsholardan sovg'a oluvchi ulug' qudratli podsho-shahshoh*”, deb e'lon qilgan. Sarduri I qo'shinlari qo'shni qabilalar ustiga yurish qilib, Urartu yerlarini kengaytirgan. Sarduri I bosib olingen qabilalardan boj-xiroj olgan. U Van ko'li sohilida mustah-kam **Tushpa** shahrini barpo qilib, uni Urartu podsholigining poy-taxtiga aylantiradi.

Sarduri I vafot etgach taxtga uning o'g'li Ishpuini o'tiradi. Ishpuini (m.av. 825–810-yillar) davrida Urartu podsholigi yanada kuchayadi. Van ko'li shimolidagi yerlar Urartuga qo'shib olinadi. Ishpuini qo'shinlari Urmiya ko'lining janubi-g'arbidagi Mannan podsholigining yerlarini bosib olib, Ossuriyaga xavf soladilar. Urartu qo'shinlari Mannadan katta o'ljalar – qo'y, echki, qoramol, ot va ko'p sonli asirlar bilan Urartuga qaytganlar. Ishpuini vafotidan so'ng Urartu taxtiga uning o'g'li Menua o'tiradi. Menua (m. av. 810–786-yillar) davrida Urartu podsholigi kuchayadi. Menua shi-molda Araks daryosi, janubi-g'arbda Frot daryosining yuqorisidagi mamlakatlar ustiga zafarli yurishlar qiladi. O'sha vaqtdagi toshga bitilgan yozuvlarning birida "*Menua mingan ot – Arsibinni 22 tirsak – 11 metr-u 20 sm kenglikdagi jarlik ustidan sakrab o'tgan*". deyiladi. Shu tufayli podsho mingan otning nomi "Arsibin" – "Bur-gut" bo'lgan ekan. Manbalarda Menua qo'rmas jangchi, mashhur shoh va uzoqni ko'rvuchi dono siyosatchi kishi bo'lganligi hikoya qilinadi. U mamlakat mudofaasi va obodonchiligiga katta e'tibor berib, Van ko'lidan suv oluvchi 70 km. lik "Menua kanali" ni qazdirgan.

Menua davrida Urartu podsholigi har jihatdan gullab-yashnagan davlatga aylangan.

Argishti I va Sarduri II lar davrlarida Urartu. Menuaning o'g'li Argishti I davrida m.av. 786–764-yillarda Urartu podsholigi yanada kuchaydi. Argishti I qo'shinlari shi-molda Kolxidaga kirib borib, Araks daryosi bo'yida Argishtixinili shahrini qurdirdi. Argishti I qo'shinlari Mannaga, Ossuriyaga hujum qilib, Diyla daryosi sohili va Bobil chegaralarigacha kirib boradilar. Janubi-g'arb tomonda Urartu qo'shinlari Frot daryosining yuqorisidagi mamlakatlar, shuningdek, Suriyagacha kirib boradi.

Argishti I harbiy yurishlari davrida juda ko'p boylik, chorva va 280000 erkak, ayol va bolalardan iborat asirlarni mamlakatga olib keladi.

Argishti I vafotidan so'ng Urartu taxtiga **Sarduri II** o'tiradi. Sarduri II davrida (M. av. 764–735-yillar) Urartu podsholigi yanada mustahkamlanadi. U harbiy islohot o'tkazib, ixtisoslash-

gan qo'shinni kuchaytiradi. Urartu qo'shinlari shimolda **Eriax** mamlakatini bosib olib, g'arbda Shimoliy Suriyaga kirib boradilar. Qo'shin janubda Ossuriya qo'shinlariga qaqshatqich zARBalar bera-di. Sarduri II davrining birinchi yarmida Urartu Old Osiyodagi eng qudratli davlat bo'lib qoladi.

Urartu podsholigining kuchsizlanishi va parchalanishi.

M. av. VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Ossuriya podsholigi kuchayadi. Urartu o'zini Ossuriyadan himoya qilish uchun Shimoliy Suriya va Kichik Osiyoning sharqidagi katta-kichik davlatlar bilan ittifoq tuzadi. M.av. 743-yili Ossur podshosi Tiglatpalasar III Suriyaning Arpada shahri yaqinidagi mudhish jangda Sarduri II va uning ittifoqchilari ustidan g'alaba qozonadi. Sarduri II Urartuga chekinishga majbur bo'ladi.

M.av. 735-yili Ossuriya qo'shinlari Urartuga bostirib kirib. Sarduri II qo'shinlarini yana yengadi. Shu yili Sarduri II vafot etib, taxtga o'g'li Rusa I o'tiradi. Rusa I m.av. 735–712-yillarda Urartu podsholigini boshqaradi. Rusa I podsholigining dastlabki davrida mamlakatda ichki g'alayonlar boshlanadi. U Kavkazorti va Sevan atrofida qo'zg'olon ko'targan 23 ta podsholik ustidan g'alaba qozonadi.

M.av. 714-yili Ossur podshosi Sargon II Urartu ustiga yana qo'shin tortadi. Urmiya ko'li yaqinidagi jangda Sargon II qo'shinlari Urartu qo'shinlari ustidan g'alaba qozonadi. Ular shahar va qishloqlarni vayron etlib, katta boylik bilan Urartuga bostirib kirib uni ham vayron qiladilar. Bu xabarni eshitgan Rusa I o'zini o'zi o'ldiradi. Rusa I vafotidan keyin taxtga Rusa II o'tiradi. Bu davrda Urartu o'z mustaqilligini saqlab qolgan bo'lsa ham, avvalgi shon-shuhratini boy bergen edi. Shu davrda Urartu podsholari Ossuriya bilan yaxshi munosabat o'rnatishga harakat qilganlar.

Shu davrda Urartuga shimoldan kimmeriyalar va skiflar bostirib kirib, mamlakatni xonavayron qilganlar. Sharqdan Midiya qo'shinlari hujum boshlab, Urartuni bosib olgan. Shunday qilib ichki g'alayonlar, qo'shni davlatlar va qabilalarning hujumlari natijasida Urartu davlati kuchsizlanib, barham topib, so'ngra mayda davlatlarga bo'linib ketadi.

Urartu podsholigining ijtimoiy tuzumi, xo‘jaligi va madani-yati. Urartuda ishlab chiqarish, savdo-sotiqning rivojlanishi, va nihoyat talonchilik urushlari, xususiy mulkning orta borishi hamda mulkiy tengsizlikni kuchayishiga olib keladi. Bu hol aholi orasida tabaqalanishni keltirib chiqardi. Urartu aholisi boy-badavlat, o‘rta-hol, kambag‘al va qullar tabaqasiga bo‘linib ketadi. Ayniqsa xalq yig‘ini tomonidan saylangan oqsoqollar va harbiy boshliqlar boyib keta boshladilar. Ular o‘zlarini aslzoda, ya’ni zodagonlar deb hisoblay boshlaydi. Ayrim-ayrim viloyatlarning hukmdorlari bo‘lib oladilar. Bu hukmdorlar o‘z o‘rinlarini o‘g‘illari yoki aka-ukalariga meros qilib qoldiradigan bo‘lganlar. Qabilalar ittifoqi birlashib. Urartu podsholigi tuzilar ekan, taxt otadan bolaga yoki aka-ukalariga meros qilib qoldirilgan.

Urartu podsholari huzurida uning aka-ukalari, qabila oqsoqol-lari va harbiy boshliqlardan iborat aslzodalar kengashi faoliyat ko‘rsatgan. Podsho mamlakatni amaldorlar, harbiylar, ruhoniylar va aslzodalar kengashiga tayanib boshqargan.

Kavkazorti qabilalarining xo‘jaligi. M.av. V–IV mingyil-liklarda Kura va Araks daryolarining vodiylari va bu ikki daryoga kelib qo‘shiladigan soy va jilg‘alar bo‘yida qadimgi o‘troq dehqon-chilik va chorvador qabilalar yashar edilar. Mazkur vohada qadimgi o‘troq dehqonlar va chorvadorlarning qishloqlari xarobalari saqlanib qolgan. Ozarboyjondagi Shomutepa, Gruziyadagi Shulaveri va Armanistondagi Texut kabi qadimgi qishloqlar arxeologlar tomonidan yaxshi o‘rganilgan. Ular doirasimon uylardan iborat bo‘lib, devorlari paxsadan ko‘tarilgan. Turar joylar yaqinida xo‘jalik binolari ham bo‘lgan. Bunday xo‘jalik binolari va turar joylar Kavkazorti, shuningdek, Urartu qabilalariga xos, Yaqin Sharqning boshqa joylarida uchramaydi. Qadimgi Sharqning boshqa joylarida esa turar joylar va xo‘jalik binolari to‘rtburchak shaklida qurilgan. Bu qabilalar xo‘jaligida tosh, chaqmoqtosh va suyakdan yasalgan qu-rollar katta o‘rin tutgan. Mazkur davrda tosh va suyakdan yasalgan qurollar bilan bir qatorda, misdan yasalgan buyumlar paydo bo‘la boshlaydi. Xo‘jalikning asosini motiga dehqonchiligi tashkil etib, dehqonlar arpa, bug‘doy, kunjut, tariq va boshqa har turli ekinlar ekib, mayda va yirik shoxli mol boqib ko‘paytirganlar. 0,5–1 hektar joydagи qishloqda 100–300 kishi bir jamoa bo‘lib yashagan.

M.av. III mingyillikda Arman tog'lari va Kavkazortida kura-araks davri deb atalgan ilk bronza madaniyati tarqaladi. Bu davrda dehqonchilik ancha rivojlanib, yerni oddiy so'qa, omochda haydab, hosilni mis bilan qalayni qo'shib eritib tayyorlangan jez o'roqlarda o'rib olganlar.

Bu davrda hunarmandchilikning kulolchilik, temirchilik, zargarlik, quroloszlik sohalari rivojlanib, har bir qishloqda hunarmandning uy-ustaxonasi bo'lgan. Ustalar bolta, xanjar, nayza, o'q-yoy, to'qimachilik mahsulotlari va kulolchilik buyumlari ishlab chiqarganlar. M.av. III mingyillikda tog', tog'oldi va tekisliklar o'zlashtirilib, Kavkazorti qabilalari o'z podalari bilan baland tog'lik yaylov hududlarga ko'tarilganlar.

Bu yerda xo'jalikning alohida shakli-yaylov chorvachiligi shakllanadi. Chorvador-dehqon qabilalari uchun tog' yaylov chorvachiligi qo'shimcha boylik, daromad keltiruvchi manba hisoblangan. Shu davrdan boshlab Kavkazorti qabilalarida xususiy mulk, mulkiy tengsizlik va tabaqalanishning ilk ko'rinishlari paydo bo'la boshlaydi. Xo'jalikning dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik tarmoqlari oldingiga nisbatan birmuncha rivojlanadi.

M.av. II mingyillik oxirlariga kelib bu yerda temir va temirdan yasalgan turli qurollar paydo bo'ladi. Joylarda mustahkam devorli qal'alar quriladi. Bu jarayonlarning barchasi Kavkazorti o'lkalari-da qabilalar ittifoqiga asoslangan ilk davlatlarning vujudga kelishi uchun shart-sharoit yaratadi.

Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi. Tarixchi va arxeologlarning bergen ma'lumotlariga ko'ra, Urartu hududida yashagan ibridoiy qabilalar dastlab termachilik va ovchilik bilan kun kechirganlar. Keyinchalik termachilikdan dehqonchilik, ovchilikdan esa chorvachilik kelib chiqqan ekan. Ilk dehqonlar yerni motiga bilan yumshatib turli ekinlar ekishgan. Keyinchalik esa omoch kashf etilib, omoch dehqonchiligi kelib chiqqan. Urartu hududidan Araks, Kura, Frot, Dajla va katta-kichik soylar oqib o'tadi. Bu daryo va soy vodiyalarining tuprog'i nihoyat darajada unumdor bo'lgan. Qadimgi Urartu dehqonlari yerni omoch bilan haydab, bug'doy, arpa, tariq, kunjut va boshqa ekinlar ekkanlar. Tog' yonbag'irlarida uzum va turli mevali bog'larini barpo qil-

ganlar. Bog'bonlar uzumdan ajoyib musallas tayyorlashni yaxshi bilishgan. Qadimgi Urartu shahar va qishloqlarining xarobalari kavlanganda ulardan maxsus musallasxonalar, katta-katta xumlar topilgan. Musallas ana shu xumlarda saqlangan.

Hunarmandchilik va savdo. Urartu tog'larida oltin, kumush, mis, qo'rg'oshin va turli tosh konlari ko'p bo'lgan. Hunarmandlar tosh, temir va boshqa ma'danlardan omoch tishi, o'roq, pichoq, xanjar, nayza, kamon o'q uchlari, panshaxa, dubulg'a, qalqon, zirh, tegirmontosh, jang aravalari va ot afzallari yasashga usta bo'lishgan.

Urartu ustalari ajoyib harbiy kiyimlar, ziynat va zargarlik buyumlari ham yasaganlar. U yerda to'qimachilik, kuolchilik va hunarmandchilikning boshqa sohalari yaxshi taraqqiy etgan edi. Shuningdek, Urartu podsholari me'morchilikka-binokorlikka ham katta e'tibor bergenlar. Qal'a va shaharlar qalin mudofaa devorlari va burjlar bilan o'rالgan edi.

Urartu savdogarlari Kichik Osiyo, Kavkaz, Mesopotamiya va Old Osiyoning ko'p mamlakatlari bilan qizg'in savdo-sotiq ishlarini olib borganlar.

Qadimgi Urartu madaniyati. Qadimgi Urartu Old Osiyodagi yuksak madaniyatli mamlakatlardan biri hisoblanadi. Urartu xalqlari Mesopotamiyaning surat-belgili va mix-ponasimon yozuvlaridan foydalanib o'z yozuvlarini yaratganlar. Arxeolog olimlar Qadimgi Urartu hududidan shu yozuvda bitilgan yozuv namunalarini topishgan. Bu jihatdan Argishti I ning xor-xor yozuvi va Sarduri II ning katta yozuvi diqqatga sazovordir. Shuningdek, Van ko'li yaqinidagi qoya tokchasi – "Mehr eshigi", Karmir-Blurdan topilgan dubulg'a, sopol va jez idish sirtiga bitilgan Urartu yozuvlari diqqatga sazovordir. Urartu hududidagi Tuproqqa'adan ham sopol buyum parchasiga bitilgan urartu yozuvlari topilgan. Qadimgi Urartu yozuvlarini o'qish va o'rganishda M.V.Nikolskiy, M.Sibatyan, I.A.Orbeli va boshqa olimlarning xizmatlari kattadir.

Qadimgi Urartu yozuvlarining o'lka tarixi va madaniyatini o'rganishda juda katta ahamiyatga egadir. Qadimgi Urartuda tarix, matematika, astronomiya, tabobat, veterenariya, geografiya bilim-

lari ancha rivoj topgan edi. Urartuliklarning xalq og'zaki ijodiyoti va yozma adabiyoti ancha boy bo'lgan. Bu jihatdan M.Xorenning asarlari, Nard eposi, Dovud Sosuniy dostonlari urartlar adabi-yotining ajoyib namunalari hisoblanadi.

Qadimgi Urartuda me'morchilik, haykaltaroshlik, o'yma, chizma, qabartma rassomlik va san'atning boshqa turlari yuksak darajada taraqqiy etgan edi. Ustalar qal'a devorlari, ibodatxona, shoh saroylarini har xil rasm va haykallar bilan bezaganlar. Rassomlar qalqon sirti, dubulg'a va boshqa buyumlarni echki, buqa, sher, qoplon va odam. muqaddas hayat daraxti tasvirlari bilan bezaganlar.

Haykaltaroshlarning jezdan ishlagan yarim odam, yarim hayvon qiyofasidagi haykali, ma'buda Teyshebuning haykalchasi, hosildorlik ma'budasining oltindan ishlangan medalyonlari Urartu tasviriy san'atining nodir namunalari hisoblanadi.

Urartularning diniy e'tiqodi. Urartu ko'p xudolik mamlakati bo'lib, ularning ota-bobolari dastlab tabiat hodisalari, turli buyum va hayvonlarga e'tiqod qilishgan. Qadimgi manbalarning birida ko'p xudolarning nomi sanab o'tiladi. Urartlarda muqaddas daraxtlarga sig'inish ham keng tarqalgan. Ularda Xald tog' xudosi hisoblanib, keyinchalik u urush xudosiga, podsho va davlatning homiy-siga aylantirilgan.

Urartuda Teyshub momaqalldiroq va bo'ron, Ard esa quyosh xudosi hisoblangan. Turli buyumlarda "muqaddas daraxt", Xald, Ard va boshqa xudolarning rasm-tasvirlari saqlanib qolgan.

Urartu podsholari dinning oliy ruhoniylari hisoblanishgan va xudolarga bag'ishlab turli marosimlar o'tkazishgan. Shuningdek, ular o'z xudolariga atab hayvonlar so'yib qurbanlik qilganlar. Shunday qilib urartlar qo'shni xalqlar madaniyatidan bahramand bo'lib, o'zlariga xos madaniyat yaratganlar. Ular ham qo'shni xalqlar madaniyatining rivojiga o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar.

Seminar mashg'uloti uchun savollar:

1. Qadimgi Xett podsholigi tarixini yorituvchi manbalar haqida ma'lumot bering.
2. Troya, Frigiya va Lidiya podsholiklari tarixiga oid manbalar.

3. Kichik Osiyoda ilk davlatlar tashkil topishining shart-sharoitlari haqida nimalarni bilasiz?
4. Qadimgi, O'rtta va Yangi Xett podsholiklari tashkil topishi omillari.
5. Xett podsholigining kuchsizlanishi va parchalanishi sabablarini ko'rsating
6. Qadimgi Troya va Frigiya podsholiklari.
7. Yunon – Troya urushlari oqibatlari haqida so'zlab bering?
8. Lidiya podsholigining tashkil topishi va rivoji sabablari.
9. Qadimgi Van-Urartu podsholigi davrining asosiy jihatlari.
10. Urartu va Kavkazorti mamlakatlarining qadimgi tarixini va madaniyatini o'rghanishda urartu yozuvlarining ahamiyati.
11. Urartuda ilk davlatlarning tashkil topishi va kuchayishi.
12. Argishti I va Sarduri II lar davrlarida Urartu.
13. Urartu podsholigining kuchsizlanishi va parchalanishi sabablari.
14. Qadimgi Urartu madaniyati.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xet'larning ijtimoiy tuzumi, xo'jaligi va madaniyati.
2. Qadimgi Xett dini va e'tiqodi.
3. Frigiya podsholigi.
4. Gomer va Gerodot asarlarida Frigyaning xo'jaligi va madaniyati.
5. Mermnadlar sulolasiga davrida Lidiya.
6. Lidiyaning ijtimoiy tuzumi, xo'jaligi va madaniyati.
7. Urartularning diniy e'tiqodi.
8. Urartu podsholigining ijtimoiy tuzumi, xo'jaligi va madaniyati.

V BO'LIM. QADIMGI ERON PODSHOLIGI VA O'RTA OSIYO

1-§. Qadimgi Eronda dastlabki davlatlarning tashkil topishi

Eronning tabiatи va qadimgi aholisi. Eron janubi-g'arbiy Osiyodagi qadimgi qulchilikka asoslangan mustabid davlatlardan biri bo'lgan. Eron qudratli davlatga aylangan davrda uning g'arbiy chegarasi O'rtayer dengizi sohillariga borib yetgan. Shimolda esa uni Pont, Elbrus, Turkman-Xuroson, Hindikush tog'lari o'rabi turar edi. Sharqda esa Sulaymon tog'i va Hind daryosi uni Hindiston-dan ajratib turardi. Janub va janubi-g'arbda esa mamlakat Eritrey dengizi va Fors qo'ltig'ining suvlari bilan o'ralgan edi. Eronning markaziy qismi yassitog'lik, sho'rxok yerlar, janubi esa Gardesiya sahrosiga tutashib ketadi. Eronda Karun, Kerxa, Xilmand kabi kichik daryo va suvi yozda qurib qoladigan soylar ko'p bo'lgan. Tog'larida temir, kumush, niis, oltin kabi ma'danlar serob. Mamlakat iqlimi har xil – shimolda kuz sovuq, yoz esa issiq, janubda esa qish iliqliqroq, yozi ancha issiq bo'ladi. Arxeologlar bergen ma'lumotlariga ko'ra Eronda ibridoij jamoa tuzumining muste davridan – 70–50 ming yillardan beri aholi yashab keladi. Qadimda bu mamlakatda elamliklar, lulubeylar, amoriylar, kassitlar, guteylar, habash, fors, midiya va aramey kabi qabilalar yashaganlar.

Eron hududida eng dastlabki davlat birlashmalarini mamlakatning janubi-g'arbida joylashgan elamliklar tuzgan.

Qadimgi Eron manbalari va tarixnavisligi. Qadimgi Eron xilma-xil yozma manbalarga boy hujjatlari bilan ajralib turadi. Ayniqsa, Eron sultanati tarixi bilan bog'liq yozma manbalar ko'pchilikni tashkil etadi. Ular orasida xo'jalik hujjatlari, tarixiy yozuvlar, podsholarning viloyat hukmdorlariga yuborgan farmonlari, buyruqlari, ko'rsatmalari, amaldorlarning bir-birlariga yozgan maktublari, ayrim shaxslarning xatlari, diniy, ilmiy va adabiy matnlar shular jumlasidandir. Ularning eng qadimgilari m.av. III–I mingyillikka

oid elam tarixi haqidagi turli mazmundagi matnlarki, ular elam va akkad tillarida yozilgan.

Hozirgi kungacha 200 ga yaqin ponasimon (mixsimon) yozuvlari orasida Kirmon shahrining sharqidagi Behistun qoyasiga o‘yib yozilgan katta xat juda muhim ahamiyatga ega. Bu yozuvda Eron shohi Doro I Kambiz (Kambiz) o‘lgandan keyin mamlakatda ko‘tarilgan qo‘zg‘oltonni qanday qilib bostirgani, barcha isyonchilarni qanday tor-mor qilgani, saklarga qarshi qo‘sish tortib borib, Eron davlatining yahlitligini qanday qilib tiklagani va boshqa siyosiy voqealar mufassal ta’riflanadi. Suvaysh kanali hududida saqlangan va Misr tiliga tarjima qilingan qadimgi Eronning ponasimon mixxati ham shu shohga mansubdir.

Doro I ning muhim yozuvlardan biri Persepol shahridan bir necha km shimoldagi Naqshi Rustam qoyasiga yozilgan yozuvlardir. Bu yozuvda Eron shohligi tarkibida bo‘lgan mamlakatlar va viloyatlarning ro‘yxati berilgan. Shuningdek, Suza shabrida ham g‘isht va marmar lavhalarga bitilgan ko‘p yozuvar borki, unda Doro I ning Suza saroyi qurilishi bilan bog‘liq faoliyati haqida ma’lumot beriladi.

1972-yilda fransuz arxeologlari Suzadan Doro I ning uch metr balandlikdagi haykalini topganlar. Haykalda shohning boshi saqlanmagan qadimgi, Persepol va Pasargaddan esa Kserks yozuvlari topilgan. Bu yozuv qadimgi eronliklarning dinini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Unda qadimgi qabila xudolari man etilib, davlatga sig‘inish rasm qilingani aytilgan.

Eroniyarning diniy e’tiqodi va qarashlarini o‘rganishda zardush-tiylik dinining 21 kitobdan iborat “Avesto” ham qimmatli manba hisoblanadi. Beruniy xabariga ko‘ra “Avesto” 12 ming qoramol terisiga tillo suvi bilan yozilgan ekan.

Persopoldan m.av. VI–V asrlarda elam tilida yozilgan bir necha ming ponasimon hujjatlar topilgan. Bu matnlar shox arxivining bir qismi bo‘lib, unda oziq-ovqat mahsulotlarini tashish, soliqlar masalasi, davlat amaldorlarini maosh bilan ta’minlash kabilalar haqida ma’lumot beriladi.

Qadimgi eroni qabilalari haqida m.av. IX–VII asrga mansub ossur yozuvlari ham qimmatli ma'lumot beradi. Bobilning tarixiy hujjatlarida Eron qo'shinlarining Mesopotamiyani bosib olishi bayon etilgan. Bu voqealar haqida akkad tilida tuzilgan silindr Kir II da ham bayon etiladi. O'sha davrda Eron hududida oromiy tili ham keng tarqalgan edi. Oromiy tilida yozilgan papiruslar, toshlar, terilar, muhr va tangalar uchraydi. Bu yozuvlar Misrdagi Elefantis orasidagi, Hind daryosigacha bo'lgan joylarda, shuningdek Eronda ham keng tarqalgan edi. Bu hujjatlarda Eron tarixi va madaniyati, aholining xo'jalik hayoti haqida ko'pgina ma'lumotlar keltirilgan.

Eronliklar Misrni istilo qilgan va Eron shohlarining Misrda hukmronlik qilgan paytidagi misr yozuvlari ham katta ahamiyatga ega. Masalan Saisdag'i ma'buda Neytning bosh ruhoniysi kohin Ujagorryasentning yozuvi ham Misrning oliv kohini bilan Eron shohi o'rtasidagi o'zaro munosabatni aniqlashga imkon beradi. Demak, Erondan va unga tutash yerlarda topilgan xil yozuvlar qadimgi Eron tarixi va madaniyatini o'rghanishda qimmatli manba hisoblanadi.

Qadimgi Eron tarixi, moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rghanishda arxeologik qazishlar natijasida topilgan buyumlar ham katta ahamiyatga ega. Eronda dastlabki arxeologik qazish ishlari XIX asr o'rtalarida boshlangan. Arxeolog Flanden va Kosta Persepoldagi saroyda dastlabki arxeologiya qazish ishlarini olib boradilar. Ular bu yerdan haykaltaroshlikka oid yodgorliklarni topishga tuyassar bo'lib, Eron shohlarining taxt zalini tiklamoqchi bo'ladilar. XIX asrning oxirlarida esa de Morgan Suzada ulkan arxeologik qazish ishlari o'tkazib, tosh qurollar ishlatalgan eng qadimgi (arxaik) zamonlardan to Eron davlatining ravnaq topgan davrigacha, ya'ni Suza Eronning muhim ma'muriy va madaniy markazlaridan biri bo'lgan davrgacha yetib kelgan bir qancha arxeologik qatlamlarni topdi. Nihoyat XX asrda Qadimgi Eronning poytaxti Persepolda arxeologik qazish ishlari o'tkazildi. Qazishlar natijasida bu yerdan katta bir saroyning xarobalari topib o'rghanildi. Saroy devorlariga bo'rtma-qabariq rasmlar solib bezatilgan keng zinapoyadan chiqilgan. Katta-katta darvozalar oldiga esa shoh saroylarini qo'riqlovchi bahaybat qanotli buqalarning haykallari ishlangan.

Persepoldan topilgan ajoyib san'at yodgorliklari orasida shohning surati, shuningdek, ilohga turli xil sovg'a-salomlar olib kelayotgan xiroj to'lovchi qabilalarning surati ayniqsa qiziqarlidir. Keyingi vaqtarda Eron arxeologiyasiga qiziqish kuchaydi. Arxeologlar – qadimshunoslar Tanjedar, Tepa-Aelab degan joylarda arxeologik qazishlar o'tkazib, mezolit va neolit davriga mansub qishloq va qabristonlarni topganlar. Bu yodgorliklarning madaniy qatlamlaridan qadimiylar sopol buyumlar Suza, Persepol, Dur-Untash va boshqa joylardan ajoyib shoh saroyi, ibodatxona, qalin mudofaa devorlari topilgan. Ular mahobatli haykallar, devoriy rasmlar, qimmatbaho ma'danlardan yasalgan ritonlar, qurol-aslahalar va ziynat buyumlari bilan bezatilgan.



Qadimgi Eron tarixini o'rghanishda xorijiy mammakatlarning olimllari katta yutuqlarga erishgan. Bular qatorida M.M.Dyakonov, R.Fraya, Dj.Kameron, V.Xini, Y.B.Yusifov, I.M.Dyakonov, B.A.Turayev, V.V.Struve, E.A.Granovskiy, M.A.Dandamayev, V.I.Abyayev, V.I.Avdiyev,

G.Maspero, Ed.Meyer, J.Dyushen-Gilmen, G.Videngren va boshqalarning xizmati kattadir.

Shuni ta'kidlash kerakki, qadimgi Eron tarixi, madaniyat va xo'jaligini o'rghanishda m.av. V–IV asrda yashagan yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix" kitobi, Fukididning "Tarix" asari, "Anabasis", m. av. V asrda yashagan Diadorning "Tarixiy kutubxona" asarlari nodir manbalar hisoblanadi.

Shunday qilib, olimlar qadimgi Eron tarixini o'rganishda qadimgi ponasimon, iyeroglifda yozilgan matnlar, arxiv hujjatlari, arxeologik yodgorliklarning madaniy qatlamlaridan topilgan ash-yoviy buyumlar hamda qadimgi mualliflarning qadimgi Eron haqidagi yozib qoldirgan asarlaridan keng foydalanganlar. Shuningdek, qadimgi Elam, Madiya va Eron tarixini o'rganishda G.Kardashin, G.Petgov, E.Zeydlya, I.P.Veynberg, M.Delafus, J. de Morgan, R.de Mekenem, R.Grishman, E.Nechaxban, V.M.Masson va boshqa olimlarning xizmatlari benihoya kattadir.

Zardushtiylik – Eron va O'rta Osiyo xalqlari ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida. Ma'lumki "Avesto" zardushtiylik dinining muqaddas kitob. Zardusht m.av. 660-yilda Xorazmda dunyoga kelgan tarixiy shaxs. Uning otasi savodli bo'lib, karomatgo'y bo'lган ekan. Zardusht 20 yoshidan boshlab yakka xudolikni targ'ib qilgan. 28 yoshlaridan xalq orasida shuhrat qozongan, lekin uning targ'ibotlari mahalliy hukmdorlarga yoqma-gan. Uni osishga hukm qilganlar. Zardusht o'zi bilan 300 ga yaqin safdoshlarini olib hozirgi Afg'onistonga kelib joylashadi. U bu yerda o'z g'oyalarini targ'ib qilib, 77 yoshida vafot etadi.

Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, zardushtiylikning paydo bo'lishi m. av. X asrga to'g'ri keladi. Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" birdan vujudga kelgan emas. U bir necha asrlar davomida yaratilgan. Zardusht "Avesto"ning qadimiy nusxalarini o'rganib, to'plab bir kitob holiga keltirgan. U 30 ta kohin – zardushtiy ruhoniylari bilan uch yil davomida "Avesto"ning matnlarini yig'ib, bir tizimga solgan va Abu Rayhon Beruniy ta'kidlaganidek 12 ming ho'kiz terisidan tayyorlangan sahifaga zarhal harflar bilan yozdirgan. Zardushtning yashagan davri, vatani, "Avesto"ning yozi-lishi tarixi haqida bir-biriga zid fikr va mulohazalar bayon etilgan.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" besh qismdan iborat bo'lgan. Uning birinchi qismi "Vendidad" bo'lib, u 22 bobdan tashkil topgan. Unda bosh xudo Axura Mazda Yerdagi barcha mavjudotlarning yaratuvchi-si ekanligi bayon etilgan. Ikkinci kitob "Visparad" – 24 bobdan iborat bo'lib, ibodat qo'shiqlaridan tashkil topgan. Unda zulmat

kuchlariga qarshi kuchlar kuyylanadi. Uchinchi kitob “Yasna” deb nomlanib, u 72 bobdan iborat, qurbanlik vaqtidagi marosimda aytiladigan qo’shiqlardan iborat. To’rtinchi kitob “Yasht” – 22 qo’shiqdan iborat bo’lib, unda zardushtiylik ma’budalari madh etiladi. Beshinchi kitob Xo’rga Avesto – Kichik Avesto – Qu-yosh, oy va boshqa xudo va ma’budalar sharafiga aytilgan kichik ibodat matnlaridan iborat. “Avesto”ning ko’p qismi Makedoniyalik Aleksandr va arablar istilosini davrida yo’qolib ketgan. Buzgacha yetib kelgan nusxasi 1374-yilda ko’chirilgan bo’lib, hozir Kopengagendagi kutubxonada saqlanib kelinmoqda.

Juda ko’p tadqiqotchilarining fikricha Zaratushtra afsonaviy bo’lmasdan tarixiy shaxs hisoblanadi. U yunon manbalarida Zoroast nomi bilan eslangan. Zaratushtira nomi qadimgi eroncha “Zara – ushtra” so’zidan kelib chiqqan bo’lib, “Zar” – oltin, “ushtra” – tuya degan ma’nolarni bildiradi. U uch xil ma’noda “Oltin tuyali”, “Oltin tuya egasi”, “Oltin tuya yetaklagan odam” deb tarjima qilinadi. U Spitama avlodidan bo’lib, otasini Porushasp, onasini Dugdava deb atashgan.

“Avesto” ta’limotiga ko’ra, olamda ikkita kuch – yaxshilik va yomonlik, yorug’lik va zulmat, issiqlik va sovuqlik kabi qarama – qarshi kuchlar mavjud bo’lib, ular abadiy murosasiz kurashib keladilar. Yaxshilik va yorug’lik kuchlariga Ahuramazda (Janobi donishmand) boshchilik qiladi. Yomonlik, zulmat, sovuqlik va yovuzlik kuchlariga Anxro-Manyo – Axriman rahbarlik qiladi. Bu kurashda yorug’likning zulmat, yaxshilikning yomonlik ustidan g’alabasiga ishonch bildiriladi.

“Avesto”da mehnat nihoyatda ulug’lanadi. Mehnat yaxshilik, moddiy ne’matlar manbayi deyiladi. Inson saxovatli bo’lishi uchun avvalo mehnat qilishi, o’z qo’li bilan noz-ne’matlar yaratishi uqtiriladi. “Avesto”da “don ekkan kishi taqvodorlik urug’ini ekadi. U mazdaga ixlosmandlik e’tiqodini olg’ a suradi, iymonini oziqlantirib turadi...”, deyiladi. Bunga amal qilish o’n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbanlik qilishga teng. Ekin ekish, mehnat qilish, yerdagи yovuzlikni yo’qotish deb qaraladi. “G’alla yerdan unib chiqqanda, – deyiladi “Avesto”da, devlar larzaga ke-

ladi, g'alla o'rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g'alla yanchib un qilinayotganda ular mahv bo'ladi...”.

“Avesto”da inson axloq-odobi, madaniyati quyidagi uchlik: Gumata – yaxshi fikr, Guchta – yaxshi so'z, Gvarshta – yaxshi ishda ifodalananadi. “Men yaxshi fikr, yaxshi so'z va yaxshi ishga shon – shavkat baxsh etaman”, deb ta'kidlaydi Axuramazda.

Yaxshi fikr deganda yaqin kishilarga mehribonlik, muhtojlik va xavf-xavotir ostida qolganda yordam berishga shaylik, kishilar baxt va saodati uchun faol kurashishga doim tayyor turish, hamma bilan ahil va totuv yashash va boshqalar tushuniladi. Yaxshi so'zlar deganda esa va'dasiga rioya qilish, so'zining ustidan chiqish, savdo -sotiq ishlarida halol bo'lish, qarzni o'z vaqtida to'lash, o'g'irlik va talonchilik qilmaslik, buzuqlikdan o'zini tiyish va hokazolar tushiniladi. Yaxshi ishlar deganda insонning o'z xatti-harakatida yaxshi fikr va yaxshi so'zlarda ilgari surilgan barcha ijobjiy yo'l-yo'riqlarga og'ishmay amal qilish nazarda tutiladi.

Zardushtiylik axloq-odobi hayvonlarga nisbatan ham beshafqat bo'lishni qat'ian man etadi. Hayvonlarni kaltaklash va qiy Nash gunoh deb hisoblanadi. Kishilarni foydali hayvonlar haqidagi amxo'rlik qilishga, ularga o'z vaqtida ovqat berib turishga, yirtqich hayvonlardan qo'triqlashga da'vat etadi. Shuningdek, “Avesto”da ozodalik, poklik va tozalikka alohida e'tibor qaratiladi. Hovuzdan yuvilmagan iflos ko'zada suv olgan kishi besh darra urib jazolangan. Inson yashaydigan xonada yuvinish, poklanish qat'ian qoralangan.

“Avesto”da naslning pokligi, tozaligiga ham alohida e'tibor berilgan, qarindosh-urug', aka-ukaning quda-anda bo'lishi qoralangan. Hozirgi tibbiyat fani aka-uka, yaqin qarindoshlar o'rtasida qudashilik munosabatlari kelajak avlodning sog'lom, to'la-to'kis bo'lib tug'ilishiga salbiy ta'sir ko'rsatishini to'liq aniqlagan. Buni esa bizning ajdodalrimiz allaqachon bilganlari hozirgi zamon kishisini lol qoldiradi.

Ko'rib turganimizdek, O'rta Osiyoda keng tarqalgan zardushtiylikda oila va nikoh masalalari, inson muammosiga muhim ahamiyat

berilgan. Insonning jismoniy va ma'naviy pokligi zardushtiylik axloqining eng qadimiy talablaridandir. Oila va nikoh yaratuvchining talabiga mos kelganligi bois uni buzish taqiqlangan. Agarda oilada yer yoki xotin axloqsizlik, ya'ni buzuqchilik qilsa unday kishilar tayoq bilan jazolangan. Shu orqali oila mustahkamligi uchun kurashtiganlar.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra oila muqaddas hisoblangan. Uni mustahkamlab, darz ketishiga yo'l qo'ymanlar. Zardushtiylikda qabristonlar aholi turar joyidan chetda, tepalik joyda bo'lishi kerakligi, u yerga mevali daraxt o'tqazish, o'stirish mumkin emasligi, archa, qayrag'och kabi mevasiz daraxt o'stirish kerakligi ta'kidlanadi. "Avesto"da aholining ko'payishiga ham katta ahamiyat berilgan. Qasddan erga chiqmagan qiz va uylanmagan yigit qopga solinib 50 darra urilgan. Yigitga temir kamar bog'lab yurish buyurilgan.

"Avesto"da qadimgi tabiblarning qasamyodi va tabobat ramzi Ilon va Jom berilgan. Demak, tabib qasamyodi va ramzi Gip-pokratdan emas, qariyb 250–300 yil muqaddam bizdan boshlangan ekan. Bu ham bizning madaniyatimiz qadimiyligini ko'rsatuvchi dalillardan biridir. "Avesto"da ajdodlarimizning necha mingyllik ma'naviy merosi izlari o'z aksini topgan. Unda johillik, zo'ravonlik, tuhmat kabi yomon illatlar qoralanadi. Sof ko'ngilli bo'lish, bir-biriga xiyonat qilmaslik, savdoda bir-birini aldamastlik, haqorat qilmaslik kabi ma'naviy xislatlar targ'ib etiladi.

Qadimgi Elam davlatining tashkil topishi. M.av. VI–V mingyllikda Eronning janubi-g'arbiy burchagida xo'jalik rivojlanib, xususiy mulk, mulkiy tengsizlik va tabaqaqalanish jarayoni sodir bo'ladi. M.av. III mingyllik boshlarida esa u yerda poytaxti Suza bo'lgan Elam davlati tashkil topadi. Hozirgi Eronning Karun va Kerxi daryolari havzasasi m.av. VI–V mingylliklardayoq ibridoiy odamlar gavjum bo'lib yashagan o'lkalardan biri edi. Bu hudud aholisi Karun va Kerxi daryolari, soylari va jilg'alari havzasida dastlab daydib yurib, termachilik, ovchilik, baliqchilik va suv hayvonlarini tutib yeb tirikchilik qilganlar. So'ngra esa bu yerda aholi dastlabki qayr va liman dehqonchiligi bilan shug'ullanib, yerni

motiga – chopqi bilan yumshatib bug‘doy, arpa, kunjut, tariq va boshqa ziroatchilik ekinlari ekib hayot kechirganlar. Ular asta-sekin qayr va liman dehqonchiligidan Karun va Kerxi daryo bo‘ylarida dastlabki sug‘orma dehqonchilikka o‘ta boshlaganlar. Tekislikdagi va tog‘ yaylovlardagi o‘tloqlarda qo‘y, echki, qoramol, yilqi boq-qanlar. Hududda hunarmandchilik va almashuvga asoslangan savdo-sotiqlar topgan. Xususiy mulk, mulkiy tengsizlik, tabaqalanih jarayoni sodir bo‘lib, qabilalar ittifoqi shakllangan. M.av. XXI asrgacha Shumer va Akkad davlatlariga qaram bo‘lib qoladi.

M.av. 2230-yilda Elam hukmdori **Xita** Akkad podshosi **Naram-Suen** bilan shartnomaga tuzadi. Xita “*Naram-Suenning dushmanim mening dushmanim, Naram-Suenning do ‘sti esa mening do ‘stim*”, deb e’lon qiladi.

M.av. XXII asr boshlarida **Kutik-Inshushinak** Elamni birlashtirib, uni yagona davlatga aylantiradi. Shu vaqtida Elamga shimaldan guteylar bostirib kirib, uni o‘zlariga tobe qilib oladilar. Ur III sulolasi davrida Elam Mesopotamiya hukmdorlariga tobe etiladi. M.av. XXI asr oxirida Elam yana kuchayib, mustaqillikka erishib, urni o‘ziga qaratadi va Janubiy Shumerni bosib oladi. Bobil podshosi Xammurapi esa elamlıklarni Shumerdan haydab chiqaradi.

M.av. 1730–1700-yillarda Elam qo‘shinlari Mesopotamiyaga bostirib kirib. Akkadgacha bo‘lgan yerkarni bosib oladi. XIV asr o‘rtalarigacha Elam o‘z mustaqilligini saqlab qoladi. Keyinchalik bobilliklarga tobe bo‘lib qoladi.

M.av. 1180-yilda Elam shohi Shutruk-Naxunta I Bobil qo‘shinlарини mamlakatdan quvib chiqaradi. U Bobilga bostirib kirib bir qancha shaharlarni bosib oladi. Katta o‘ljalar qatori Xammurapi qonunlari yozilgan toshni ham Suzaga olib keladi.

M.av. 1155–1115-yillar Elam podsholigining gullagan davri hisoblanadi. M.av. 1115-yili elamlıklar bobilliklardan yengilib, m.av. VIII asrgacha o‘z mustaqilligini yo‘qotadi.

M.av. VIII asrda Elam mustaqilligini qaytadan tiklaydi va Bobil bilan ittifoq tuzib ossurlarga qarshi kurash boshlaydi. M.av. 720-yili elam qo‘shinlari bobil qo‘shinlari yetib kelmasdan oldin Dyer yaqinidagi dahshatli jangda ossur qo‘shinlarni tor-mor eta-

di. Elamliklar bobilliklar bilan ittifoq tuzib ossurlarga qarshi uzoq kurashadilar. M.av. 639-yili Elam ossurlar, 596-yili bobilliklar ta'sirida bo'ladi. Nihoyat m.av. 549-yili uni eroniylar bosib oladi. Shu bilan mustaqil Elam davlati ham barham topadi. Elamda ilk davlatlar tashkil topgandan boshlab aholi Kerxi, Karun daryolari, katta-kichik soy va jilg'alar bo'yini o'zlashtirib sun'iy sug'o-rishga asosolangan dehqonchilik bilan shug'ullangan. Daryo, soy va jilg'alar bo'yidagi, tog'lik o'lkalarda esa chorvachilik bilan shug'ullangan. Chorvachilikda yirik shoxli qoramol, qo'y-echki, ot va eshak boqilgan. Dehqonchilikda bug'doy, arpa, kunjut, tariq yetishtirilsa, uzum, olma, nok, xurmo va boshqa sabzavotlar ham ekilgan. Elamda temirchilik, zargarlik, kulolchilik, to'qimachilik, toshtaroshlik, me'morchilik, miskarlik, va hunarmandchilikning boshqa tarmoqlari taraqqiy etgan edi. Elam shohlari va savdogarlari uzoq-yaqin mamlakatlar bilan savdo-sotiqlar olib borganlar. Elamda suratli xat mustaqil ravishda yaratilib, keyinchalik bu xat takomillashgan mixxat bilan almashtirilgan. Mixxat esa Mesopotomianing qadimgi xalqlaridan olingan.

Midiya podsholigi. Midiya Eronning shimoli-g'arbida joylashgan qadimiy o'lkalardan biridir. Bu o'lkada qadim zamonalardan boshlab midiya qabilalari yashaganlar. M.av. IX asrda Midiya hududida qabilalar ittifoqiga asoslangan mayda davlatchalar mavjud bo'lib, qo'shni ossurlar bu yerga teztez hujum uyushtirib turgan. Ossurlar midiyaliklarni talab, ulardan xiroj undirganlar, shahar va qishloqlarga o't qo'yib, aholini qirg'inbarot qilib, bir qismini esa asir qilib haydab ketganlar.

M.av. VIII asr oxirida Midiyaga kimmeriylar, m.av. VII asr boshhlari da esa skif qabilalari bostirib kirgan. Ular Urmiya ko'li atrofidagi Sakasana



viloyatiga kelib o'rnashadi. Skiflar shu yerdan turib Ossuriya va Urartu ustiga bosqin uyushtirib turgan. Skiflar va kimmeriyalar mo-hir chavandoz, usta merganlar bo'lib, otlari katta tezlikda ketayot-gan vaqtida ham dushmanlari ustiga o'q yog'dirib borar edilar.

M. av. 672-yili midiyaliklar **Kashtariti** rahbarligida ossurlarga qarshi kurash boshlab, ularni Midiyadan haydab chiqaradi. Kashtari-ti Midiyadagi mayda davlatchalarni birlashtirib yagona davlat tuz-ishga bel bog'laydi va ilk Midiya davlatini tuzishga erishadi.

M. av. VII asr o'rtalariga kelib Midiya Qadimgi Sharqdagi qudratli davlatga aylanadi. M. av. 653-yili Midiya shohi Kashtari-ti ossurlar ustiga qo'shin tortadi. Ossurlar skiflarni midiyaliklarga qarshi kurashga ko'ndiradi. Midiya qo'shinlari ossur va skiflarning ikki tomondan bergen zARBalariga bardosh bera olmay yengiladi. Bu jangda Kashtariti halok bo'lib, Midiya m. av. 653-625-yillar orasida skiflar ta'siriga tushib qoladi.

Kiaksar va Astiag davrida Midiya. M. av. 625-yili Kashtaritining o'g'li **Kiaksar** Midiya podshosi bo'lgach, skiflarni mam-lakatdan quvib chiqaradi. Kiaksar Midiyadagi mayda davlatlarni birlashtirib, uni katta kuchli sultanatga aylantiradi.

M. av. 614-yili Kiaksar qo'shinlari Ossuriyaga bostirib kirib uning poytaxti Ashshurni vayron qiladi va talaydi. Midiyaliklar Os-suriyadan behisob boylik va asirlar olib qaytadilar. Kiaksar Bobil podshosi Nabopalasar bilan harbiy ittifoq tuzib ossurlarga qarshi jang boshlaydi. M. av. 612-609-yillarda Bobil va Midiya qo'shin-lari ossur qo'shinlarini yengib Ossuriyaning Nineviya va Ashshur shaharlarini yana vayron qiladilar. Bu mag'lubiyatdan so'ng ossur qo'shinlari g'arbga chekinadi. Ossurlar Misr bilan ittifoq tuzib, Bobil-Midiya birlashgan qo'shiniga qarshi kurashga otlanadi.

M. av. 605-yilda Misr-Ossur qo'shinlari bilan Midiya-Bobil qo'shinlari o'rtasida Karxemish yonida dahshatlilik jang bo'ladi. Jangda ossur-misr qo'shinlari tor-mor etilib, shu bilan Ossuriya davlati ham barham topadi.

Bu janglardan so'ng shimoliy Mesopotamiyadagi Ossuriya yer-lari Midiya ixtiyoriga o'tadi. Kiaksar Bobil bilan do'stlikni mus-tahkamlash uchun qizini Bobil podshosi Nabopalasarning o'g'li

Navuxodonosor II ga nikohlab beradi. Ikki davlat o'rtasida yaqin do'stlik hukm suradi.

Kiaksar janubda Parsuani, sharqda Parfityani, g'arbda esa Kichik Osiyoning Galis daryosigacha bo'lgan yerlarni Midiyaga qo'shib oladi. M. av. 590–585-yillar orasida Lidiya – Midiya urushi sodir bo'ladi. Rivoyatga ko'ra, m.av. 585-yil 28 may kuni quyosh tutiladi. Bu hodisadan ikki tomon lashkarları vahimaga tushib qurollarini tashlab jang maydonidan qochadilar. Shundan keyin urush to'xtab, tinchlikka asoslangan sulh shartnomasi tuziladi. O'rtadagi gina-kuduratga chek qo'yish maqsadida Midiya shahzodasi **Astiag** Lidiya shohi **Alittaning** qiziga uylanadi.

M. av. 585-yili **Kiaksar** vafot etib. Midiya taxtini uning o'g'li **Astiag** egallaydi. Astiag davrida Bobil bilan Midiya o'rtasidagi munosabat buzilib, qonli janglar boshlanadi. Bu urushlar har ikki tomonni zaiflashtiradi. Forslar **Kayxusrav** boshchiligidagi qo'zg'olon ko'tarib, m. av. 550-yili Astiag qo'shinlarini tor-mor etadilar. Midiya davlati Eronga qo'shib olinadi.

2- §. Ahamoniylar davlati

Ahamoniylar davlatining tashkil topishi. Qadim zamon-dan boshlab Urmiya ko'lining janubiy tomonlarida *parsua* qabilalari yashar edilar. M. av. VIII–VII asrlarda ular Elamga ko'chib **ahamon** urug'idan chiqqan sardor atrofida birlashgan. Dastlabki podsholari Kayxusrav I davrida Ossuriyaga, Kambiz davrida (600–559) Midiyaga itoat etganlar. Kambiz bilan Midiya shohi Astiagning qizi o'rtasidagi nikohdan **Kayxusrav II** dunyoga keladi. Kambiz vafot etgach, Parsua taxtiga Kayxusrav II o'tirib, m. av. 559-yilda Pasarga shahrini qurib, uni davlat poytaxtiga aylantiradi. M. av. 553–549-yillar mobaynida olib borilgan urushlarda Kayxusrav bobosi Astiag qo'shinlarini yengib, Midiya va Elamni Parsuaga qo'shib oladi. Shu tariqa ahamoniylar urug'i asos solgan **Parsua**, ya'ni **Eron davlati** tashkil topadi. Kayxusrav II g'arbda Lidiya shohi **Krez** qo'shinlarini, shimolda urartuliklarni yengib, butun Kichik Osiyoni bosib oladi. Lidiya poytaxti **Sardi** talanib, shoh Krez asir olinadi va o'ldiriladi. M. av. 545–530-yillar orasida Eron shohi

Bobilni ham bosib olib, Hind daryosigacha bo'lgan yerkarni istilo qiladi. Kayxusrav II ning m. av. 530–529-yilda Turonga qilgan yurishi eroniylarning massagetlardan yengilishi va Kayxusravning o'ldirilishi bilan tugaydi.

Kayxusrav II o'ldirilgach, Eron taxtiga uning o'g'li Kambiz II o'tiradi. Kambiz II m. av. 529–522-yillardagi faoliyati davrida itoat ettirilgan mamlakatlar va Erondagi isyonlarni shafqatsizlik bilan bostiradi. M. av. 525-yili u Misrni bosib oladi. Uning Efiopiyaga uyushtirgan harbiy yurishi muvaffaqiyatsizlik bilan tugaydi. Misrda ekanida **Gaumata** boshliq eroniylar isyon ko'taradilar. Isyonni bostirish uchun Eronga qaytayotgan Kambiz II m. av. 522 -yili yo'lda sirli ravishda o'ldiriladi. Taxminlarga ko'ra, shoh Kambizga nisbatan dushmanlari tomonidan maxfiy suyiqaasd uyushtirilgan.

Doro I davrida Eron. Kambiz II o'ldirilgach, Gaumata Eron taxtiga o'tirib, yetti oy podsholik qiladi. Lekin ko'p o'tmay m. av. 522-yil 29-sentabrda u ham fitnachilar tomonidan o'ldiriladi. Gaumata o'ldirilgach, Eron taxtiga ahamoniyilar sulolasidan bo'lgan **Doro I** o'tiradi. Doro I Eron sultanatini m. av. 522-yildan 486-yilgacha – 36 yil mobaynida boshqaradi.

Doro I podsholigining dastlabki yillarida Bobil, Misr, Elam, Turon va boshqa mamlakatlarda boshlangan qo'zg'olonlarni shafqatsizlik bilan bostiradi. Doro I itoat ettirilgan mamlakatlarda biroz osoyishtalik o'rmatgach, bir qator islohotlar o'tkazishga kiri-shadi. U mamlakatni 20 ta satraplikka – viloyatga bo'lib, ularning har biriga alohida **noib** tayinlaydi. Viloyatlardagi qo'shinga harbiy sarkardalar boshchilik qilib, davlat amaldorlari ular ustidan kuchli nazorat o'rnatganlar. Butun mamlakat satrapliklarida „podshoning ko'zi va qulog'i“ deb nom olgan nazoratchilar faoliyat ko'rsatgan. Har bir shubhali kishi qattiq nazorat qilinib, jinoyatiga yarasha jazolangan, hatto o'ldirilgan ham.

Mamlakat viloyatlari o'rtasidagi aloqalarni yaxshilash uchun tosh yotqizilgan "shoh yo'li" qurilgan. Bu yo'llar Pasargaddan mamlakatning turli burchaklariga tarmoqlanib ketgan edi, yo'llarda bekatlar, karvonsaroylar, korizlar qurilib, ularni otliq soqchilar qo'riqlab turgan. Erondan tashqaridagi tobe mamlakatlardan xiroj solig'i undirilgan. Doro I Misr, Milet, Bobil, Elam, Turon va bosh-

qa joylarda ko'tarilgan isyonlarni shafqatsizlik bilan bostirgan va isyonchilarini jazolagan.

Doro I podsholigining so'nggi yillarida eroniylar Frakiya va Makedoniyani bosib olgan, Yunonistondagi Afina va Sparta davlatlari eroniylarga qattiq qarshilik ko'rsatgan. Sharqda eroniylar Hind daryosining o'rta va quyi oqimidagi yerlarni bosib olgan.

Doro I ning Turon va Qora dengiz shimolidagi skiflar yurtiga va Yunonistonga uyuştirgan istilochilik yurishlari eroniylarning mag'lubiyati bilan tugagan.

M. av. 486-yili Misrda eroniylarga qarshi qo'zg'olon boshlanadi. Doro I qo'zg'oltonni bostirishga ulgurmay m. av. 486-yili 64 yoshida vafot etadi.

So'nggi ahamoniylar davrida Eron. Doro I vafot etgach, taxtga uning o'g'li **Kserks** o'tiradi. U Eronda m. av. 486-yildan m. av. 465-yilgacha podsholik qilgan. M. av. 484—81-yillarda Misr va Mesopotamiyada juda katta isyonlar ko'tarilib, Kserks ularni juda qiyinchilik bilan bostiradi.

M. av. 480-yilda Kserks juda katta qo'shin bilan Yunonistonga bostirib kiradi. Eron qo'shnlari yana Frakiya bilan Makedoniyani jangsiz bosib oladilar. Shimoliy Yunonistonni ishg'ol qilgan eroniylar Fermopil dovoni ostonasiga kirib keladi. Fermopil mudofaasiga Sparta podshosi Leonid boshchilik qilib, uning qo'shnlari O'rta Yunonistonga o'tadigan yo'lni to'sib turar edilar.

Leonid o'z qo'shnlari bilan ikki kun davomida eronliklarning hujumini qaytarib turadi. Ammo fessaliyalik bir xoin katta boylik evaziga Eron qo'shnlarini tog' so'qmoqlari orqali Yunon qo'shining orqa tomoniga olib o'tadi. Leonid 300 kishidan iborat sparta jangchilari bilan jangga kiradi. Jang ikki kecha-yu kunduz davom etadi. Ayovsiz jangda Leonid va uning jangchilari qahramonlarcha halok bo'ladi. Eroniylar O'rta Yunonistonga bostirib kiradi va Afinaga yaqinlashadilar. Afina aholisi Salamin oroli va Peloponnesga ko'chiriladi. Afina eroniylar tomonidan ishg'ol qilinib, yondiriladi.

Ammo jang Salamin bo'g'ozida davom etib, eroniylarning mag'lubiyati, yunonlarning g'alabasi bilan tugaydi. Bu mag'lubiyatdan so'ng Eroniylar Yunonistondan ketishga majbur bo'ladilar.

Uunon-eron urushi to'xtab-to'xtab. m.av. 449-yilgacha davom etib, eroniylarning mag'lubiyati bilan yakunlanadi. M. av. 449-yili Suzada bo'lgan "**Kalliy sulhi**"ga binoan Eron Kichik Osiyodagi ko'p joylaridan ajralib, uning harbiy-dengiz floti Egey dengizida suzishdan mahrum etiladi.

M.av. 465-yili Kserks o'ldirilgach, Eron taxtiga birin-ketin **Artakserks I** (460–424), **Doro II** (423–404), **Artakserks II** (404–358), **Artakserks III** (358–336) va **Doro III** (336–330) kelib keta-dilar.

Bu davrda Eron kuchsizlanib ko'p o'lkalarda qo'zg'olonlar avj olib ketadi. Bu qo'zg'olonlarning ba'zilari shafqatsizlik bilan bostiriladi. Ayni paytda Kariya, Lidiya, Kilikiya, Hindiston, Xorazm va boshqa mamlakatlar Eron tobelligidan chiqib ketadilar.

Yunon-makedonlarning sharqqa yurishi va Eron sultanati-ning qulashi. M. av. 336-yili Filipp II o'ldirilgach, Makedoniya taxtiga uning o'g'li **Aleksandr** o'tiradi. M. av. 334-yili Makedoniyalik Aleksandr **30 000** piyoda, **5000** otliq askar va **160** harbiy kemadan iborat kuch bilan Kichik Osiyoga o'tib, Eronga urush e'lon qiladi.

M. av. 334–332-yillardagi dahshatli janglar natijasida Makedoniyalik Aleksandr Kichik Osiyo, Kilikiya, Suriya, Finikiya va Falastin kabi davlatlarni bosib oladi. Iss yonidagi jangdan so'ng Eron shohi xotin, bola-chaqasini tashlab, Markaziy Eronga qochib ketadi. Uning butun oilasi Aleksandrga asir tushadi. Misr Makedoniyalik Aleksandrga urushsiz taslim bo'ladi.

M. av. 331-yil 1-oktabrda Gavgamel yonida-gi dahshatli jangda Eron qo'shinlari yana tor-mor etiladi. Shundan so'ng ikki daryo oralig'i va unga tu-tash bo'lgan Bobil, Suza, Persepol, Eron poytaxti Pasargad yunon-makedon qo'shinlari tomonidan



bosib olinadi. Doro III qolgan qo'shinlari bilan Ekatanga chekinadi. Makedoniyalik Aleksandr esa eroniylarni ta'qib qilib bora-veradi. Ekatanga Makedoniyalik Aleksandr kelayotganini eshitgan Doro III Baqtriyaga qochib ketadi. Baqtriya satrapi Bess o'z qarindoshi Doro III ni o'ldirib, o'zini **Artakserks** IV nomi bilan Eron shohi deb e'lon qiladi. Ko'p o'tmay **Bess** Makedoniyalik Aleksandr tomonidan ushlanib qattiq qyinoqqa solib o'ldiriladi.

M. av. 329–327-yillarda Makedoniyalik Aleksandr Turonning bir qismini, m.av. 327–325-yillarda esa Hindistonning g'arbiy viloyatlarini bosib oladi. U 325-yili ikki daryo oralig'iga qaytib. Bobilni buyuk sultanatining markaziga aylantiradi. Makedoniyalik Aleksandr buyuk sultanatni ikki yildan oshiqroq boshqaradi. Qadimgi dunyoning bu buyuk sarkardasi va shohi tez orada betob bo'lib, ehtimol zaharlanib m.av. 323-yilda vafot etadi. Makedoniyalik Aleksandr tuzgan ulkan davlat mustahkam emas edi. Ayni paytda bu davlatni boshqara oladigan aleksandrzodalar ham yo'q edi. Shu tufayli bu ulkan davlat tez orada parchalanib, uning o'rni da bir qancha mayda davlatchalar tashkil topdi. Ularni Aleksandrning lashkarboshilari bo'lib oladilar. Eronda esa Salavkalar davlati tashkil topadi. Misrda Ptalmeylar, Kichik Osiyoning g'arbiy qismida Pergam podsholigi qaror topadi. Bu davlatlar ellen davlatlari nomi bilan tarixga kirgan.

3-§. Qadimgi Eronning xo'jaligi va madaniyati

Dehqonchilik va chorvachilik. M. av. VIII–VI mingyilliklar orasida Eronning ibridoiy qabilalari termachilikdan dehqonchilikka, ovchilikdan esa chorvachilikka o'ta boshlaganlar. M. av. IV mingyillikdan boshlab esa **Karun**, **Kerxa** va boshqa daryolarning unundor vodiylarida yashovchi aholi sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullana boshlagan. Dehqonlar omoch bilan yer haydab, motiga – ketmonchalar bilan ekinlarga ishlov berganlar. Dehqon va bog'bonlar **arpa**, **bug'doy**, **tariq**, **xurmo**, **sabzavot**, **olma**, **nok olxo'ri**, **uzum** kabi meva daraxtlaridan mo'l hosil olganlar.

M. av. III-II mingyilliklarda Eron, xususan Elam va Midiyada dehqonchilik va chorvachilik yanada rivoj topgan. Dehqonlar tog' va soy daralariga to'g'on, suv omborlari, korizlar qurib, kanallar qazib, ularning suvidan tejab-tergab foydalanganlar.

Qadimgi Eronda chorvachilik ham yaxshi rivoj topgan edi. Chorvadorlar ot va tuya sutidan shifobaxsh ichimlik **qimiz va qumron** tayyorlagan. Eron qo'shinlarining asosiy qismini ot va tuya mingan suvoriyalar tashkil etgan. Qo'shin tarkibida ot qo'shilgan jang aravalari alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

Shuni ta'kidlash kerakki, Eron qo'shinkari qismlarida o'rgatilgan jangovar fil minib urushga kiradigan jangchilar ham bo'lgan. Shunday qilib, dehqonchilik va chorvachilik Qadimgi Eron xalqlari xo'jalik hayotida alohida ahamiyatga ega bo'lgan.

Hunarmandchilik va savdo-sotiqt. Qadimgi Eronda dehqonchilik va chorvachilik bilan bir qatorda hunarmandchilik va savdo-sotiqt rivoj topgan edi. Chunki dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqt bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Eroniyalar yilqichilikka alohida e'tibor berganlar. Makedoniyalik Aleksandr Erondan O'rta Osiyoga o'tayotganda yaylovlarda o'tlab yurgan minglab yilqi uyurlari va qulunlarini ko'rganligi tarixiy manbalarda yozib qoldirilgan.

Eron hunarmandchiligining eng qadimgi tarmoqlaridan biri kulolchilikdir. Qadimgi kulollar loyni pishitib undan har xil sopol buyumlar – ko'za, xum, xumcha, qozon, tovoq, xurmacha, piyola va tog' ora yasaganlar. Ularning ustini jimmijador naqshlar bilan bezaganlar. Ichi va sirtini har turli bo'yoqlarga bo'yashgan. Idishlarning sirtiga odam, hayvon, parranda va o'simlik barglarning tasvirlarini ishlaganlar. To'qimachilik ham Qadimgi Eron hunarmandchiligining muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan. To'quvchilar zig'ir poyasi, jun va ipak qurti pillasidan ip yigirib maxsus dastgohlarda har xil matolar to'qigan. Bu matolardan esa engil-bosh, uy jihozlari va ro'zg'or buyumlari tikkanlar.

Eron tog'laridan mis, qalay, qo'rg'oshin, temir va oltin qazib olish ham uzoq o'tmishga borib taqaladi. Temirchi ustalar temirдан omoch tishi, o'roq, pichoq, xanjar, ketmon, qalqon, nayza,

nayza uchlari, kamon o'qi paykonlari, qalqon kabi urush qurollari yasashgan.

Qadimgi Eronda dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning rivojlanma borishi natijasida ortiqcha mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Ortiqcha mahsulotlar mamlakatning ichki bozorida va tashqi bozorlarida sotilgan yoki buyumlarga almashtirilgan.

M.av. VII–IV asrlarda Eronda tashqi savdo ham rivoj topib, savdogarlar ikki daryo oraliq'i, Kichik Osiyo, Misr, O'rta Osiyo, Arabiston, Kavkaz, Hindiston va O'rtayer dengizi atrofidagi davlatlar bilan qizg'in savdo olib borganlar. Ichki va tashqi savdo ishlarida eshak, xachir, ot va tuya karvonlaridan keng foydalanganlar.

Tashqi savdo ham suv, ham quruqlik yo'li orqali olib borilgan. Eronning Suza shahridan Lidiyaning Sard shahrigacha „Shoh yo'li” o'tkazilgan edi. Undan Eron shaharlaridan atrof mamlakatlarga savdo-karvon yo'llari taralgan edi. Karvon yo'lining har yer, har yerida bekatlar, mehmonxonalar, sardoba – suv saqlagichlar, korizlar, karvonsaroylar va rabotlar bunyod etilgan. Yo'llar serqatnov bo'lib, uni shohning otliq navkarlari – posbonlari doimo nazorat qilib yurardilar.

Hunarmandchilik va savdo-sotiq davlatga juda katta boylik olib kelar edi.

Qadimgi Eron madaniyati. Yozuv. Qadimgi Eronda xilma-xil qabilalar yashagan. Shu tufayli Eron madaniyati xilma-xil va ko'p qirrali bo'lган. M.av. III mingyilliklardayoq elamliklar 150 belgi-rasmdan iborat mustaqil yozuvga ega bo'lганlar. M. av. XXIII–XXII asrlar davomida elamliklar **shumer-akkadning mixsimon yozuvidan** foydalanganlar. Keyinchalik esa 80 belgidan iborat yozuv kashf etilgan.

Ular m.av. VI asrda shumer-akkad mixxatini o'zlashtirib va takomillashtirib 42 belgidan iborat o'z alifbolarini yaratganlar. Ayni paytda ular **aramey** yozuvlaridan ham foydalangan.

Doro I va uning o'g'li Kserks va boshqalar Eron mixsimon xatidan keng foydalangan. Bu jihatdan Doro I ning Behistun va Naqshi Rustam qoyalariga mixsimon alifboda o'yib yozilgan katta xatlari muhim ahamiyatga egadir.

Adabiyot. Qadimgi eronliklar o'zlarining boy xalq og'zaki ijodiyoti va yozma adabiyotiga ega bo'lgan. Ular ko'plab xalq maqollarini, ertaklar, hikoyalari, qo'shiqlar va yozma adabiyotning ajoyib namunalarini yaratganlar. Bu jihatdan xalq og'zaki ijodiyoti bilan sug'orilgan "**Avesto**" va Firdavsiyning "**Shohnoma**" dostoni alohida ahamiyatga ega. "**Avesto**" va "**Shohnoma**"da Eron va Turon xalqlarining qadimgi tarixi, xo'jaligi, diniy e'tiqodi va madaniyatining ko'p tomonlari bayon etilgan. "**Shohnoma**"ning ko'p dostonlari shoshlik katta dehqon hikoyalari asosida yaratilgan. Eroniylar mavsumiy, xususan Navro'z bayramiga ham alohida e'tibor bergenlar. Ahamoni shohlari davrida Navro'z umumdavlat, umumxalq bayramiga aylangan. Navro'z bayrami vaqtida Eron shohlari bayramda qatnashish uchun polvonlarni chavandoz va o'yinchilarni taklif etganlar.

Tasviriy san'at. Tasviriy san'at qadimgi Eron madaniyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Elam, Midiya va Ahamoni eroniylari davrida haykaltaroshlik, rassomlik, toshga qabartma rasmlar ishlash va naqqoshlik ham ancha taraqqiy etgan edi. Haykaltaroshlar tosh, oltin va kumushdan xudolar, ma'budalar, shohlari, sarkardalar, ruhoniylar va ba'zan haybatli hayvonlarning haykallarini ishlaganlar.

Me'morchilik ham Eronda erta shakllanib, ahamoniylar davrida rivoj topdi. Me'mor ustalar, shoh saroylari, maktablar, ibodatxonalar, harbiy qal'alar qurib, ularning ichi va sirtini xilma-xil naqshlar bilan bezaganlar. Bu jihatdan Elamning Dur-Untash shahrida qurilgan 4 qavatli bino – zikkurat. Midiyadagi Xarxar qal'asi, Pasargadda qurilgan Kayxusrav II maqbarasi. Persepoldagi shoh Doro I saroyi, Kserks saroyi qadimgi Eron me'morchiligining ajoyib namunalaridir.

Suzaning Dur-Untash shahridagi m. av. XIII asrga oid zikkuratga kiraverishda sher, buqa, grifon, xudo va podshohlarning oltin va kumushdan ishlangan haykallari ham kishini hayratga soladi.

Bu jihatdan Persepoldagi qabartma suratlari diqqatga sazovordir. Saroy darvozasiga shoh saroyini qo'riqlovchi qanotli, muqaddas buqalarning haykallari ishlangan. Saroy devorlari shohga turli xil sovg'alar olib kelayotgan xiroj to'lovchi qabilalarning qabartma suratlari bilan bezatilgan.

Erondagi Behistun qoyasidan Shoh Doro I va turli o'lkalardan bog'lab olib kelinayotgan qabila sardorlarining qabartma tasvirlari bugungacha saqlanib keladi. Bularning barchasi Eronda tasviri san'atning yuksak darajada rivojlanganligidan darak beradi.

Qadimgi Eronda matematika, astronomiya, tarix, geografiya, tabobat, veterinariya va boshqa bilimlar rivoj topgan edi. Ammo Eron shohlari misrlik va yunon tabiblarini saroylarga tez-tez chorlab turganlar. Tabiblar bemorlarni davolashda shifobaxsh, o'simlik va mevalardan keng foydalangan. Bemorlarni davolashda ilon zahari qo'llanilgan. "Avesto"da jom va ilon tasviri tabobat ramzi hisoblangan.

Diniy e'tiqod. Eronliklarning qadimgi ajdodlari dastlab tog'-u tosh, suv, daraxt va har xil hayvonlarni ulug'laganlar. Tabaqaviy jamiyat tashkil topishi, xo'jalikning rivojlana borishi natijasida e'tiqodda ham o'zgarishlar sodir bo'la boshlagan. Xususan elamliliklar **Pinekyer** degan xudolar onasini ulug'lab, unga e'tiqod qilganlar. Ularda Inshushinak Suza shahri homiysi yer osti xudosi bo'lgan. Naxunt esa quyosh va adolat xudosi hisoblangan. Eronning ko'p joylarida totemizm, fetishizm kabi ibtidoiy din shakllari uzoq vaqtgacha saqlanib qolgan. Midiya podshosi Astiag davrida zardushtiylik keng tarqala boshlaydi.

Bu dinning asoschisi Zardusht bo'lib, din uning nomi bilan zardushtiylik deb atalgan. Zardushtiylik dini kitobi "Avesto"

bo'lib, unda Eron va Turonda yashagan xalqlarning tarixi, xo'jaligi, diniy e'tiqodi va madaniyati haqida ko'p ma'lumotlar bor.

Eron xalqlari Misr, Babil, Elam xalqlari madaniyatidan bahramand bo'lib, o'zlariga xos madaniyat yaratganlar. Bu dinda **Axuramazda** yaxshilik, haqiqat va odillik xudosi hisoblangan. **Axri-Manyu** esa zulmat, o'lim va yomonlik keltiruvchi xudo bo'lgan ekan. Eroniyalar e'tiqodiga ko'ra bu ikki xudo o'rtaida kurash davom etgan.



Eroniylar Mitra degan quyosh. Anaxita degan suv va hosildorlik, shnuningdek, yorug'lik, oy va shamol xudolariga e'tiqod qilganlar. Eron shohi Kserks diniy islohot o'tkazib mayda xudolar, ma'budalar va dev-parilarga e'tiqod qilishni taqiqlagan. Axuramazda eronliklarning birdan-bir samoviy tangrisi deb e'lon qilingan.

4-§. Qadimgi Parfiya podsholigi

Qadimgi Parfiyaning geografik o'rni, tabiatи va aholisi.

Parfiya ham janubi-g'arbiy Osiyodagi qadimgi quldarlik davlatlaridan biri bo'lib, Sharqning eng katta va kuchli davlatiga aylanigan paytda Mesopotamiyadan Hindiston chegaralarigacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olar edi.

Parfiyaning yer usti tuzilishi asosan tog'lik, yassitog'lik va qisman sho'rxok tekisliklardan iborat bo'lgan. Uning hududidan Frot, Dajla, Atrok, Tajan, Murg'ob kabi katta-kichik daryolar oqib o'tgan. Parfiya hududida bir necha yuz ming yillardan beri aholi yashab keladi. Uning tub aholisi parnlar, daxlar, saklar, girkalar va boshqa qabilalar bo'lgan. Parfiya kuchayib atrofdagi o'lkalarni istillo qilgach, aholisi tarkibiga yunon-makedonlar, eroniylar, midiyaliklar, mesopotamiyalik va boshqa xalqlar ham kirgan. O'rta Osiyoning janubiy hududlari bevosita Qadimgi Sharq tarixining tarkibiy qismini tashkil etgan. Uning hududiga Qoraqum etaklari, Kopetdog'ning Shimoliy yonbag'ri, hozirgi Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari va Tojikiston respublikasining janubiy tog'lik o'lkalari kiradi. Qadimgi Sharq dunyosi tarkibiga kirgan bu maskan o'zining qulay geografik o'rni, tabiiy sharoitlarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. O'z davrida sersuv bo'lgan Amudaryo, Surxondaryo, Qashqadaryo, Tajan, Murg'ob va boshqa tog' daryolari va ulardan suv oladigan kanallar bu yerda ilk sug'orma dehqonchilikning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega edi.

Parfiya davlatining tashkil topishi va yuksalishi. M. av. VII-VI asrlarda Kaspiy dengizidan janubi-sharqiy hududlarda parn-parfiya qabilalari yashar edilar. M.av. VII-VI asrlarda Parfiya goh Midiya, goh Eron, goh Yunon-Makedon, goh Salavkalar davlati tarkibida bo'lgan.

M.av. III asr o'rtalarida Salavkalar davlati kuchsizlanib qolgan edi. Shu davrda Turkman-Xuroson tog'lari va uning shimoliy hamda janubiy etaklarida Parfiya satrapligi bo'lib, unga Stagnor degan kishi noiblik qilardi. M. av. 250-yili, salavkiylarning Parfiyadagi noibi **Andragor** o'zini Parfiya podshosi deb e'lon qildi. Lekin Andragorning podsholigi uzoqqa bormadi.

M.av. 247-yili ko'chmanchi sak qavmlarining parn-dah qabilalari Parfiyani bosib oladi. Ularning sardori **Arshak** Parfiya davlatining podshosi deb e'lon qilinadi. Rim tarixchisi Pompey Trogma'lumotlariga ko'ra, Arshakning kelib chiqishi saklardan bo'lib, o'ta jasur va mard odam bo'lgan. Arshak ismi shak botiri, pahlavoni, degan ma'noni bildirgan. Arshak Kaspiyning janubidagi Girkaniyani bosib olib, podsholik yerlarini kengaytiradi. U **arshakiylar** sulolasiga asos soladi. Yunon-Baqtriya podshosi Diodot I bilan harbiy ittifoq tuzib, salavkiylar qo'shinini tor-mor etadi. Mashhur arxeolog-tarixchi olim V.M.Masson "Janubiy Turkmaniston Parfiya davlatining beshigi bo'lgan" deb yozgan.

Salavkiylar podsholaridan Antiox III m. av. 209-yili Parfiya ustiga qo'shin tortadi. Bu jangda Parfiya qo'shirlari yengiladi, amma Parfiya o'z mustaqilligini saqlab qoladi.

Antiox III vafotidan so'ng Salavkiylar davlati kuchsizlanib qoladi. Bu vaziyatdan foydalangan Parfiya shohi **Mitridat** I m. av. (171–138) Midiya bilan Bobilni bosib olib m. av. 141-yilda o'zini **Bobil podshosi** deb e'lon qiladi.

M. av. 140–130-yillarda shimoldan saklarning hujumi boshlanib, Yunon-Baqtriya davlati ag'darib tashlanadi. Saklarning jango-var qismlari Parfiya qo'shirlari bilan ham to'qnashadi. Bu janglarida ikki Parfiya shohi halok bo'ladi. Saklar Erimandyer va Herirud daryolari oralig'idagi viloyatga borib joylashadilar. Shundan boshlab bu viloyat Sakiston deb atalgan. Bu saklar vatani, yurti demakdir.

Mitridat II (m. av. 123–87) davrida Parfiya qo'shirlari salavkiy qo'shirlarini engib, Eron va Mesopotamiyani ishg'ol qiladilar. Mitridat II "**ulug' shahanshoh**" degan unvonga ega bo'ladi. Parfiya qo'shirlari Kichik Osiyo va O'rtayer dengizining sharqiy sohili chegaralarida rimliklar bilan to'qnashadi. M. av. 53-yilda mashhur

sarkarda Krass boshliq Rim qo'shnlari bilan Parfiya podshosi **Orod** (M. av. 55–37) qo'shnlari o'rtasida jang boshlanib ketadi. Shu yili Karri shahri yaqinidagi dahshatli jangda rimliklar yengilib, sarkarda Krass halok bo'ladi. Bu g'alabadan so'ng parfiyonlar katta o'ljaga ega bo'lib, juda ko'p rim askarlari asirga tushadi. Asirlar Marg'iyanaga haydab ketilib o'sha yerga joylashtiriladi.

Bu g'alabadan keyin Parfiya poytaxti **Gekatompildan** Mesopotamiyadagi **Ktezifonga** ko'chiriladi. Bu davrda Parfiya o'z kuch qudratining cho'qqisiga ko'tariladi. Parfiya qo'shnlari Sharqda Hind daryosigacha, g'arbda esa O'rtayer dengizi va Kichik Osiyo chegarasigacha bo'lgan yerlarni egallaydilar.

Parfiya podsholigining tushkunlikka yuz tutishi. M. av. 40-yillardan boshlab rimliklar O'rtayer dengizining sharqiy sohili-dagi mamlakatlarda va Kichik Osiyoda o'z mavqeyini qayta tiklab oladilar. Rim qo'shnlari Parfiya qo'shnlarini Frot daryosining chap sohiliga surib chiqarishga muvaffaq bo'ladi. Ammo rimliklarning M. av. 38-yilda Midiyaga qilgan yurishlari mag'lubiyat bilan tugaydi. M. av. I va milodning I-II asrlaridagi ichki nizolar va to'xtovsiz urushlar Parfiyani biroz kuchsizlantirib qo'yadi. Bu davrlarda Parfiyaga shimoldan alanlar bostirib kiradi. Milodning II asrining birinchi yarmida rimliklar Mesopotamiyaga ikki bor bostirib kirib poytaxt Ktezifonni talab vayron qiladilar.

Shundan keyin Rim bilan Parfiya o'rtasidagi kurash 200 yilcha davom etadi. Bu davr ichida Rim va Parfiya davlatlari kuchsizlanib parchalanishga yuz tutadi. Parfiya esa mayda davlatlarga bo'linib ketadi.

Milodiy III asrdan boshlab podsholikning janubi-g'arbidagi Parsua viloyati yuksalib sosoniy sulolasini asos solgan Sosoniylar davlati tashkil topadi.

Milodiy 224-yilda sosoniy hukmdorlari Parfiya poytaxti Ktezifonni egallab, kuchsizlanib qolgan Parfiya podsholaridan taxtni tortib oladilar.

Shunday qilib, 500 yilcha umr ko'rgan Parfiya podsholigi ag'darilib, uning o'rnida Sosoniylar davlati tashkil topadi. Uning sharqiy viloyatlari mayda davlatlarga bo'linib ketadi.

Parfiyaning ijtimoiy tuzumi, xo‘jaligi va madaniyati. Parfiya janubi-g‘arbiy Osiyodagi yirik quldarlik davlatlaridan biri bo‘lgan. Davlat tepasida arshakiylar sulolasidan bo‘lgan shoh o‘tirgan. Shoh huzurida qabila aslzodalari va ruhoniylardan iborat ikki alohida kengash bo‘lgan. O‘lgan shohning o‘rniga aka-uka va o‘g‘illaridan biri taxtga o‘tzizilgan. Shoh davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan masalalarni aslzoda va ruhoniylar kengashi bilan maslahatlashib hal etgan. Mamlakat aholisining asosiy qismini ozod dehqonlar, hunarmandlar, savdogarlar va ziyolilar tashkil etgan. Parfiyada qulchilik ancha sust rivojlangan edi. Solnomalarda qulning bolasi ham qul bo‘lib qolishi ta‘kidlangan. Qullar mehnatidan xo‘jalikning hamma tarmoqlarida foydalanilgan. Parfiya aholisi to‘rt tabaqadan iborat bo‘lgan. Ular: 1. Zodagon jangchilar. 2. Yengil qurollangan suvoriyalar. 3. Erkin jamoachi dehqonlar. 4. Qullar. Parfiya shohlarining asosiy kuchi qo‘sishin bo‘lgan. Parfiya qo‘sishining asosiy qismini qullar tashkil etgan.

Rim tarixchisi Pompey Trog: “Ularning qo‘sishlari qullardan tashkil topgan, qullar olomoni ko‘payib bormoqda, chunki hech kim ularni ozod etolmaydi, hammasi qullar bo‘lib tug‘iladi. Ular shu qullarni o‘z farzandlaridek ko‘rib tarbiyalaydilar, ot minishga va o‘q-yoy otishga o‘rgatadilar”, deb yozgan ekan.

Parfiyonlar Rim sarkardasi Antoniyga qarshi 50 000 suvoriy tayyorlaganlar, shulardan 400 suvoriy erkin kishilardan, qolgani esa qullardan iborat bo‘lgan.

Parfiya xo‘jaligining asosini dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq tashkil etgan. Parfiya aholisi, ya’ni dehqonlari Murg‘ob, Tajan (Oh), Atrok, Korun, Kerxa kabi daryo va soy bo‘ylaridagi unumdar yerlarga sholi, sabzi, turp, sholq‘om, qovun, tarvuz, qovoq ekib parvarish qilganlar. Ular olma, anor, anjir, o‘rik, uzum va boshqa mevali daraxtlar ekib, bog‘dorchilik bilan shug‘ullangan. Sug‘orilmaydigan lalmikor, kam suvli yerlarga bug‘doy, arpa, tariq, loviya, no‘xat va mosh kabi dukkakli ekinlar ekkalar. Qishloq xo‘jaligi ishlarida qullar mehnatidan keng foydalanlanlar. Ozod dehqonlar olingan hosildan davlatga soliq to‘lagan. Dehqonlar yerni haydash va unga ishlov berishda omoch, belkurak,

ketmon, tesha, o'roq, so'qa, mola kabi mehnat quollaridan foy-dalangan. Qishloq xo'jaligi ishlarida ot, eshak, xachir, ho'kiz va tuyalardan foydalanilgan. Dehqonlar ham kam miqdorda qoramol, qo'y, echki, eshak, ot va tuya asraganlar. Parfiyaning tog', tog'oldi, yassitog'lik va dashtlarida sero't yaylovlar ko'p bo'lgan. Bu yay-lovlarda qo'y, echki, qoramol, eshak, tuya va xachirlar boqilgan.

Parfiyaliklar yilqichilikka katta e'tibor bergenlar. Parfiyaning quruq iqlimli yaylovlar va tog' yonbag'irlarida asl zotli arg'umoq otlar parvarish qilingan.

Hikoya qilishlaricha, Makedoniyalik Aleksandr Parfiya bo'ylab o'tayotganda, mamlakatning dasht va tog' yaylovlarida yuz ming-lab ayg'ir, biya va qulunlar o'tlab yurganini ko'rgan ekan.

Qadimgi solnomachilarining hikoya qilishlaricha, parfiyonlar otga qattiq mehr qo'yganlar. Ular bir umr ot ustidan tushrnay urush-gan, bazm qurban, barcha jamoat va siyosiy ishlarni ot ustidan tushmay bajargan, savdo qilganlar va hatto dam olganlar Qadimgi tarixchi Tatsit "Parfiyaliklarning birdan-bir kuchi ularning suvoriy-laridir", deb yozgan edi. Parfiyaliklar tuyachilikka ham katta e'tibor bergenlar. Mamlakatning qurg'oqchil, quruq iqlimli dashtlarida ko'plab tuyalar boqilgan. Ular ot bilan bir qatorda tuyalarni minib yurganlar, ularda yuk tashiganlar. Ular ichki va tashqi savdoda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan. Tuyalardan harbiy maqsatlarda foy-dalanilgan. Parfiya jangchilari tuya minib urushga kirganlar.

Xitoyliklar Parfiyani Ansi deb ataganlar. Xitoy sayyohlarining yozishlaricha "Ansida yuzga yaqin katta-kichik shaharlar bor. Ularning eng mashhurlari Zadrakarta, Gekotompil, Ekbatan, Niso va boshqalardir. Bu shaharlarda to'qimachilik, qurolozlik, kulol-chilik, zargarlik, ko'nchilik, me'morchilik va hunarmandchilikning boshqa tarmoqlari ham birmuncha taraqqiy etgan edi.

Parfiyada savdo-sotiq ancha rivoj topgan bo'lib, savdogarlar Turon, Xitoy, Hindiston, Kavkaz, Misr, Kichik Osiyodagi mamlakatlar bilan qizg'in savdo-sotiq ishlarini olib borganlar. Parfiya savdogarları g'arb mamlakatlari bilan Xitoy o'rtasidagi savdo ish-larida vositachilik qilishgan. Parfiya ham o'zining qadimiy madaniyatiga ega bo'lgan. Ular aramey yozuvidan foydalanib, xalq og'za-

ki ijodiyoti asosida ko'plab asarlar yaratgan. Adabiyotda Qadimgi Eron an'analarining ta'siri kuchli bo'lgan.

U yerda me'morchilik, haykaltaroshlik, rassomchilik, bo'rtma rasmlar ishlash ancha rivoj topgan. Parfiya me'morchiligi va haykaltareshligida yunonlarning ta'siri kuchli bo'lgan. Shoh saroylarining devorlari xilma-xil mazmundagi rasmlar bilan bezatilgan. Suyakdan yasalgan haykallar, shoxlardan yasalgan qadahlar – ritonlar va boshqa idishlar kishini hayratga soladi. Qadax – ritonlarda mast qiluvchi ichkilik ichilgan. O'sha davrda chiqqan oltin pullarning sathi podsho, malika va jangchilarning tasvirlari bilan bezatilgan.

Parfiyada ibridoiy din shakllari, hayvonlarga tog'-toshlar, daraxtlar va suvgiga sig'inish bilan bog'liq e'tiqodlar saqlangan. Lekin ular zardushtiylikka ko'proq e'tiqod qilib, suv, havo, yer va olovni ulug'laganlar. Axuramazdani ulug'lab, Axrimonga nafrat bilan qaraganlar. Chunki Axrimon yovuzlik va yomonlik timsoli edi.

Parfiyaliklar qo'shni xalqlar madaniyatidan baha olib o'zlariga xos madaniyat yaratganlar.

5-§. Yunon-Baqtriya podsholigi

Yunon-Baqtriya podsholigining geografik o'rni, tabiiy sharoitlari va aholisi. Yunon-Baqtriya Qadimgi Sharqda qisqagina umr ko'rgan davlatlardan biri bo'lgan. U kuchaygan davrda unga O'rta Osiyoning janubiy, janubi-sharqi qismi, hozirgi Afg'oniston va Hindistonning shimoli-g'arbiy hududlari kirgan.

Yer yuzasi tog'lik va tekisliklardan iborat bo'lib katta qismini Oloy, Pomir va Hindikush tog'lari egallab yotadi. Yunon-Baqtriya suv manbalariga boy, mamlakat hududidan Oks-Amudaryo va uning hamma irmoqlari oqib o'tadi. U o'simlik va hayvonot dunyosiga ham boy bo'lgan. Yunon-Baqtriya oltin, kumush, mis, temir va qimmatbaho toshlari bilan qadimgidan mashhur.

Baqtriya insoniyat madaniyatining beshiklaridan biri hisoblanaadi. Bu o'lkada sakkiz yuz – bir million yildan beri odamlar yashab keladilar. Keyinchalik bu yerda baqtriyaliklar, so'g'diyilar, eroniylar.

lar, yunon-makedonlar, hindlar, sak va tohar qabilalari yashaganlar. Bu o'lkaning qulay tabiiy sharoiti atrofda yashagan qabilalar e'tiborini hamisha o'ziga tortib kelgan.

Yunon-Baqtriya podsholigining tashkil topishi va kuchayishi. Makedoniyalik Aleksandr vafotidan so'ng u tuzgan sultanat bir necha katta-kichik davlatlarga bo'linib ketgan. Ularning biri Salavkiylar davlati edi. Bu davlatning hukmdori Salavka I Nikator bo'lib, O'rtayer dengizining sharqiy sohilidan O'rta Osiyo va Hindiston chegaralarigacha bo'lgan yerlar Salavka davlati tarkibiga kirgan.

Salavka vafot etgach (m.av. 280 y), uning vorislari davrida sharqiy viloyatlarda qo'zg'olonlar boshlanadi. Bundan salavkiylarning Baqtriyadagi noibi Diodot ham foydalanadi. U mahalliy zodagonlarning xayrixohligiga tayanib m. av. 250-yilda o'zini Baqtriya podshosi deb e'lon qiladi.

Davlat ishlariga yunonlar va mahalliy baqtriyalik zodagonlar jalg qilinganligi uchun bu davlat **Yunon-Baqtriya podsholigi** deb ataldi. Bu davlatning asosi dastlabki Baqtriya bo'lgan, uning poytaxti Shimoliy Afg'onistondagi Zariasp edi. Keyinchalik bu shahar Baqtr nomi bilan mashhur bo'lib ketgan, hozirgi nomi Balxdir.

Diodot I va Diodot II lar davrida Yunon-Baqtriya yerlari So'g'diyona, Marg'iyona, Choch, Davon, Sharqiy Eron hisobiga kengayadi. M. av. 230-yili So'g'diyona noibi Evtidem I qo'shinlari Diodot II qo'shinlarini yengib Baqtriya taxtini egallaydi.

M.av. 208–206-yillarda Salavka podshosi Antiox III bilan Evtidem I o'rtasidagi ikki yilga cho'zilgan urush sulh bilan tugaydi. Antiox III Evtidemning hukumronligini tan olishga majbur bo'ladi. Chunki shu davrda shimoldan ko'chmanchi qabilalar xavf solib turgan edi. Evtidem I va uning o'g'li Demetriy davrida Yunon-Baqtriya kuchayib Seyistondan Hind daryosigacha bo'lgan yerlar Yunon-Baqtriya podsholigiga qo'shib olinadi.

Yunon-Baqtriya podsholigining parchalanishi va qulashi. M.av. 175-yilda podsho Demetriy Hindistonda jang olib borayotgan edi. Shu davrda uning sarkardasi Evkradit qo'zg'olon ko'tarib Yunon-Baqtriya taxtini egallaydi. Demetriy esa janglarning birida halok bo'ladi. Shundan keyin podsholik ikkiga bo'linib ketadi.

Birinchisi Evkradit va uning vorislari boshqargan **Yunon-Baqtriya**, ikkinchisi esa Demetriy vorislari boshqargan **Yunon-Hind** davlatlaridir.

M. av. 162-yili Evkradit Panjobga qo'shin tortib uni bosib oladi. Lekin ko'p o'tmay Yunon-Hind shohi Menandr qo'shirlari Evkradit qo'shirlarini Panjobdan uloqtirib tashlaydi.

Shu davrda Parfiya podshosi Mitridat I Yunon-Baqtriyaning g'arbiy viloyatlarini bosib oladi. M. av. 160-yili Evkradit bilan o'g'li Geleokl o'rtasida janjal chiqadi. Evkradit o'z o'g'li Geleokl tomonidan o'ldiriladi. Geleokl davrida Yunon-Baqtriyada davlati kuchsizlanib, uning ixtiyorida Baqtriyagina qoladi. M. av. 140–130-yillar orasida shimoli-sharq va shimol tomonidan **sak** va **yuyechji** qabilalarining shiddatli hujumlari boshlanadi. Bu hujumlar natijasida Yunon-Baqtriyada davlati ag'darib tashlanadi. Shu bilan 120-yil davr surgan Yunon-Baqtriyada davlati barham topadi.

Yunon-Baqtriyada podsholigining ijtimoiy tuzumi, xo'jaligi, madaniyati. Yunon-Baqtriyada o'sha zamoning quidorlik davlatlaridan biri bo'lgan. Davlat tepasida podsho turgan. Podsholik taxti boshqa sharq davlatlari kabi otadan o'g'ilga meros bo'lib o'tgan. Podsholik mulklari viloyatlarga bo'linib, uni viloyat hokimlari – gipparxlar boshqargan. Gipparxlar esa to'g'ridan-to'g'ri podshoga itoat etgan.

Podsholikning Yunon-Baqtriyada qismida urug'i Hindistondan keltirilgan paxta ham ekilgan. Ehtimol ipak qurti ham boqilgandir.

Podsholikda qo'y, echki, qoramol, ot, tuya, qo'tos, o'rgatilgan fil, it va parranda boqqanlar. Yunon-Baqtriyada otlari va tuyalari juda mashhur bo'lgan.

Boshqa joylarga qaraganda Yunon-Baqtriyada shaharlar ko'p bo'lgan. Shuning uchun qadimgi tarixchilar Pompey va Apolloderlar Yunon-Baqtriyani "ming shaharlar mamlakati", deb bejiz aytishmagan. Eng yirik shaharlar Baqtra, Termiz, Evkratideya, Demetriya, Aleksandriya va boshqalar bo'lgan. Bu shaharlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq rivoj topgan.

Yunon-Baqtriyada savdo-soti^q ham juda rivojlangan edi. Davlat shimoldan janubga, sharqdan g^rarbgan o^tadigan karvon yo^lining qoq o^rtasida joylashgani savdo-sotiqning rivojlanishiga imkon bergen. Yunon-Baqtriyada savdogarlari va podsholari Hindiston, Xitoy, Parfiya davlatlari, Oks va Yaksart bo^yi xalqlari bilan savdo, iqtisodiy va madaniy aloqalar olib borganlar. Yunon-Baqtriyada savdogarlari Buyuk Ipak yo^lli tarmoqlaridan savdo-soti^q ishlarida unumli foydalangan. Mamlakat podsholari savdoda qo^{ll}aniladigan oltin va kumush tangalar chiqarganlar. Yunon-Baqtriyada madaniyatining ildizlari uzoq o^tmishta borib taqaladi. Buni biz m.av. X–V mingyilliklarga mansub Zarautsoy, Pomirdagi Kurtakasoyning shaxta g^rori devorlari, shiplariga oxra bo^yog'i bilan chizilgan qoyatosh rasmlari va qadimiy yodgorliklar misolida ham ko^rishimiz mumkin.

Yunon-Baqtriyada yunon va mahalliy baqtr madaniyatining aralashuvi natijasida elliⁿ madaniyati vujudga kelgan. Haykaltaroshlik, rassomchilik va naqqoshlik kabi tasviriy san'at ham rivoj topgan. Bu yerda hindlarning buddizm, zardushtiylik va yunonlarining ko^p xudolik dinlari aralashib ketgan edi.

Yunon-Baqtriyada davlati yuz yildan ziyodroq yashadi. Lekin u yerda yashagan xalqlar yuksak madaniyat yaratib, qo^{shni} xalqlar madaniyatiga barakali ta'sir ko^rsatgan. Bu madaniyatning rivojida O'rta Osiyo, xususan o^rzbek xalqi bobokalonlarining ham katta xizmatlari bor.

6-§. Kushon podsholigi

Kushon podsholigining geografik o^rni, tabiatи va aholisi. Kushon podsholigi Osiyodagi eng yirik quldarlik davlatlaridan biri bo^{lgan}. U ravnaq topgan vaqtida Turonning sharqiy, janubi-sharqiy viloyatlari, g^rarbiy Xitoy, Baqtriyada Hindistonning katta qismini egallagan edi. Podsholik yerlarining katta-katta maydonlari tog'lar dan iborat. Hind, Oks, Gang, Braxmaputra va Jamina daryolarining bo^{ylari} tekisliklardan iborat bo^{lgan}. Bu o^{lka} hayvonot, o^simliklar, yer osti va usti qazilma ashyolariga juda boy bo^{lgan}.

O^{lkaning} boy tabiiy sharoiti bu yerda qadimdan odamlarning yashashlari uchun imkon bergen. Bu o^{lkada} ilk tosh asridan beri

aholi yashab keladi. Podsholik katta maydonni egallagani uchun unda – hind, tohar, so‘g‘d, baqtra, yunon, usun va boshqa qadimgi o‘rtalosiyolik qabilalari va elatlar ham yashaganlar.

Kushon podsholigining tashkil topishi. M. av. IV– III asrlarda shak qavmlariga mansub yuechji qabilalari Markaziy Osiyoning g‘arbiy qismida yashar edilar. Yuechjilardan sharqdagi bepoyon dashtlarda esa xunn qabilalari yashagan. Uzoq yillar mobaynida yuechjilar o‘tloq yer talashib xunnlar bilan kurash olib borganlar. Bu janglarda goh xunnlar, goh yuechjilar g‘olib chiqar edi. Keyinchalik xunnlar kuchayib, yuechjilarni Markaziy Osiyodan g‘arba chekinishga majbur qilganlar. Ular dastlab Oloy va Dovonga (Farg‘ona vodiysi) ko‘chib, so‘ng So‘g‘diyona, shimoliy Baqtriya, undan esa Janubiy Baqtriya bo‘ylab tarqalganlar. Yuechjilar xyumi, shuanmi, guyshuan, xisi va xuanmi kabi bir-biriga qarindosh-urug‘ qabilalardan iborat etnik guruhlardan tashkil topgan edi.

Bir tornondan yuechji, ikkinchi tomondan ko‘chmanchi saklarning shiddatli hujumlari natijasida Yunon-Baqtriya davlati ag‘darib tashlanadi. Guyshan qabilasining sardori Kudzula Kadfiz I (mildiy 1–50-yillar) qolgan 4 qabilani birlashtirib. Kushon davlatiga asos solgan va o‘zini “**Shohlar shohi**” deb e’lon qilgan. Kudzula Kadfiz I janubiy Baqtriya va Kashmir viloyatini bosib oladi. U Kushon davlatini ancha mustahkamlab 80 yoshlarida dunyodan ko‘z yumadi.

Kushon podsholigining kuchayishi va yemirilishi. Kudzula Kadfiz I vafotidan so‘ng podsholik taxtiga o‘g‘li Vima Kadfiz II o‘tiradi. U 30 yil podsholik qilib, Hindistonning Panjob va Gang vohalarini bosib oladi. Kadfiz II o‘z nomidan oltin va kumush tangachalar chiqaradi. Kushon podsholigi Kanishka (78–123) davrida Osiyodagi eng kuchli quzdorlik davlatlaridan biriga aylanadi. Kanishka Hindistonning katta qismini Kushon davlati tarkibiga qo‘sib oladi. U Parfiya bilan zafarli urushlar olib boradi. Kanishka davrida Qoshg‘ar, Yorkent va Xo‘tan ham Kushon sultanati tarkibiga kiradi. Shu davrda Kushon sultanatining yerlari Hindistondan Orol dengizigacha. Parfiyadan Xo‘tangacha yoyilgan edi. Bu davrda Kushonlar sultanatining poytaxti Baqtradan Peshovarga ko‘chirilgan.

Kanishkaning vorislari Xuvishka va Vasudevalar davrida ham Kushon davlati o'z kuch-qudratini saqlab qolgan.

Xitoy tarixchilaridan biri "Kushon podsholigi 100 ming oila va 100 ming kishilik qo'shindan iborat bo'lgan", deb ta'kidlaydi. Ammo podsho Xuvishka vafotidan so'ng Kushon davlati ikkiga bo'linib, birida Vasudeva, ikkinchisida esa Kanishka III podsholik qilgan. Kushon podsholigining ikkiga bo'linib ketishi uning kuch-qudratiga putur etkazadi va zaiflashtiradi.

Xuddi shu davrda Eron sosoniylari kuchayib, Kushon podsholigining g'arbiy viloyatlariga bostirib kiradi. 242–243-yillarda bo'lgan shiddatli janglarda sosoniy shohi Shopur I (309–379) qo'shinlari kushon qo'shinlari ustidan g'alaba qozonadi. Keyingi janglarda ham kushonlar sosoniylardan yengilib g'arbiy viloyatlaridan ajradilar.

Uzoq davom etgan ichki nizolar, g'arbdan sosoniylar va shi-moldan ko'chmanchi qabilalarning shiddatli hujumlari tufayli IV asr oxiriga kelib Kushon podsholigi emirilib batamom barham topadi.

Kushon podsholigi davrida xo'jalik va madaniyat. Kushon podsholigi davrida xo'jalikning hamma tarmoqlari rivoj topdi. Gang, Hind, Oks, Jamna kabi katta-kichik daryolarning bo'yłaridagi unumdon yerlar dehqonchilik markazlari edi. Kushonlar davrida suv omborlari, kanallar, ariqlar va suv inshootlari qurilishiga katta e'tibor berilgan. Ziroatkorlar bug'doy, arpa, sholi, g'o'za, tariq, kunjut, mosh, no'xat kabi ekinlar ekib, ulardan mo'l hosil olganlar. Dehqonlar podsholikning O'rta Osiyo qismida qovoq, bodring, qovun va tarvuz ekib polizchilik bilan ham shug'ullanganlar. Podsholikning ko'p joylarida, ayniqsa tog' va tog'oldi yerlarida bog'bonlar olma, nok, o'rik, gilos, shaftoli, anor, anjur kabi mevali daraxtlarni ekib parvarish qilganlar. Kushonlar podsholigi davrida chorvachilik ham ancha taraqqiy etadi.

Kushonlar davrida hunarmandchilik ham ravnaq topadi va yuksaladi. Podsholikda temirchilik, to'qimachilik, kulolchilik, qurolsozlik, me'morchilik, zargarlik va kemasozlik ancha taraqqiy etgan edi. Hunarmandchilikning yirik markazlari – shaharlar va yirik qishloqlar bo'lgan.

Kushonlar davrida savdo-sotiq ham rivojlangan edi. Hind savdogarlari “Buyuk ipak yo‘li” va boshqa savdo yo‘llarining tarmoqlari orqali Xitoy, O‘rta Osiyo, Old Osiyo mamlakatlari bilan savdo qilganlar. Kushonlar podsholigi davrida Sharqning mashhur “Buyuk ipak yo‘li”ning tarmoqlari uzaytirilib, savdo-sotiq hamma davrlarga nisbatan gavjumlashadi.

Kushon podsholigida juda ko‘p xalqlar va elatlar yashagan. Shuning uchun ularning madaniyati rang-barang bo‘lgan. Bu narsa tasviriy san’atda, diniy e’tiqodda ham o‘z aksini topgan. Kushon podsholigidagi qabila va elatlar buddizm, zardushtiylik va ibtidoiy din shakllariga e’tiqod qilganlar.

Kushon davrida ilmiy-amaliy bilimlar –falsafa, tarix, geografiya, tabobat, matematika kabi fanlar ham rivoj topgan edi. Kushon madaniyati Qadimgi Hindiston va O‘rta Osiyo xalqlarining ma-shaqqtli mehnati bilan yaratilgan va ravnaq topgan.

Kushon madaniyati jahon va Osiyo xalqlari madaniyatiga o‘zining samarali ta’sirini o‘tkazgan.

Seminar mashg‘uloti uchun savollar:

1. Qadimgi Eronda dastlabki davlatlarning tashkil topishi.
2. “Avesto” va zardushtiylik dini.
3. Qadimgi Elam davlatining tashkil topishi.
4. Midiya podsholigi.
5. Ahamoniylar davlati: tashkil topishi va inqirozga uchrash sabablari?
6. Qadimgi Eron aholisining xo‘jaligi va madaniyati.
7. Qadimgi Parfiya podsholigi tashkil topishi va yuksalishi.
8. Parfiyaning ijtimoiy tuzumi, xo‘jaligi va madaniyati.
9. Yunon-Baqtriya podsholigining tashkil topishi va kuchayishi.
10. Yunon-Baqtriya podsholigining parchalanishi va qulashi.
11. Kushon podsholigining tashkil topishi.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:

1. Eron sultanati tarixi bilan bog‘liq yozma manbalar.
2. Behistun va Naqshi Rustam qoyatosh yozuvlari haqida ma’lumot bering?

3. "Avesto" Eron va O'rta Osiyo xalqlari diniy e'tiqodlari to'g'risida ma'lumot beruvchi qimmatli manba sifatida.
4. Midiya Kiaksar va Astiag davrida.
5. Eron Doro I davrida.
6. Eron so'nggi ahamoniyalar davrida.
7. Yunon-makedonlarning sharqqa yurishi va Eron sultanating qulashi.
8. Qadimgi Eron madaniyati. Yozuv.
9. "Avesto" va "Shohnoma"da Eron va Turon xalqlarining qadimgi tarixi, xo'jaligi, diniy e'tiqodi va madaniyati haqida ma'lumotlar.
10. Kushon podsholigi davrida xo'jalik va madaniyat.

VI BO'LIM. QADIMGI JANUBIY OSIYO TARIXI

1-§. Qadimgi Janubiy Osiyoning geografik o'rni, tabiiy sharoitlari, aholisi, davrlashtirilishi, asosiy manbalari va tarixnavisligi

Janubiy Osiyoning geografik o'rni, tabiiy sharoitlari va qadimgi aholisi. Janubiy Osiyo ulkan Osiyoning janubidagi Hindiston yarimoroli, Seylon, Shri-Lanka, Andaman, Nikabor orollarini o'z ichiga olgan qadimgi o'lka. So'nggi ma'lumotlarga ko'ra yer maydoni 4, 5 mln km², aholisi bir yarim milliarddan oshiqroq. Janubiy Osiyo tarixida bir qator katta-kichik davlatlar bo'lgan.

Hindiston yarim oroli tabiiy-geografik jihatidan xilma-xildir. Yarimorol shimalida Hindikush, Himolay tog' tizmalari bilan, janubda Hind okeani, g'arbda Arab va sharqda Bengal ko'rfa suvlari bilan o'ralgan. Yarimorolda joylashgan Dekan yassi tog'lari Konkana vodiysi bo'ylab cho'zilgan, sersuv Hind va Gang daryolaridan paydo bo'lgan serhosil vodiyidan iborat o'ziga xos tabiiy iqlimi ni tashkil etadi. Katxiyavar orolidan shimali-sharq tomon cho'zilgan Aravalli tog' tizmalarining g'arbida joylashgan bepoyon Tor yoki Buyuk Hind sahrosi, Rajaston dashti va Sind tekisliklari ham o'ziga xos tabiiy manzara yaratgan. Janubiy Osiyoda Braxmaputra, Hind, Gang, Jamna, Mahanadi, Kisna, Gadovari kabi katta-kichik daryolar oqib o'tadi. Bu kabi daryolar sug'orma dehqonchilikning shakllanishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit tug'dirgan. Hindiston yarimorolinnig eng qurg'oq Hind tekisliklarida o'simlik dunyosi ancha qashshoq va siyrak, namli tropik iqlimli hududlarda esa har xil daraxtlar, o'rmonlar, chakalakzorlar va o'simliklar ko'p.

Janubiy Osiyoning o'simlik va hayvonot dunyosi qadimiy davrlardan juda boy bo'lgan, keng hududni subtropik va tropik o'rmonlar, changalzorlar egallagan. Ammo keyingi davrdagi inson

faoliyati tufayli daraxtazorlar kamayib ketgan. Oqibatda turli-tuman o'rmon hayvonlari soni va turi qisqarib ketgan.

Yarimorol janubidagi Shri-Lankaning ham tabiiy, o'simlik va hayvonot dunyosi o'ziga xos. Yarimorol bilan bu orol orasi 35 km. Orolning beshdan to'rt qismida uncha baland bo'limgan tog'lar mavjud, iqlimi esa ekvatropik mussonli.

Shuni aytish joizki, Hindiston yarimorolining asosiy katta qismi tabiiy-geografik sharoiti jihatidan odamlar yashashi uchun qulaydir. Shu bois yarimorolda qadim zamonlardan boshlab odamlar yashab keladilar. Olimlarning ta'kidlashicha, yarimorolda 600–500 mingillardan beri odamlar yashab keladi va bu hudud odamzodning ilk vatanlaridan biri hisoblanadi.

Antropologik jihatdan Janubiy Osiyoliklar asosan evropoid irqiga mansub bo'lib, o'ziga xos janubiy tarmoqni tashkil qiladi. Ular uchun qora qo'ng'iroq sochlari, qo'y ko'zlar, qirra burun, ancha cho'zinchoq yuzlari xarakterli belgilaridir. Yarimorolda negroid va mongoloid irqlari aralash tiplarni, shimol va shimoli-sharqda mongoloid, Janubiy Hindiston va Shri-Lankada veddoid, dravid va hatto avstroloid-negritos tiplarini ham uchratish mumkin. Past bo'yli pigmey tipidagi andamanliklar jismoniy tuzilishi bilan ajralib turadi.

Janubiy Osiyoning lingvistik tuzilishi xilma-xil, u yerda 180 dan ortiq til turkumi, Hindistonning o'zidagina 1652 til va shevalar mavjud. O'lkaning shimoliy va shimoli-g'arbiy hududlarida hind, bengal tilida gaplashuvchi hind –yevropa tillari, janubda esa dravid tillarida gaplashuvchi etnik guruhlar istiqomat qilishadi. Janubi – Sharqiyy Osiyo, Tibet va Xitoy chegaralarida tibet-birma va munda til oilasiga mansub etnik guruhlar yashab keladilar. Shri-Lanka aholisining aksariyat qismi hind-yevropa til oilasiga mansub shevalarda, ozgina qismi esa dravid til oilasiga mansub shevalarda so'zlashadilar.

Hindyeuropa til oilasiga mansub oriyalar Hindistonga m. av. II ming yillik o'rtalaridan boshlab kirib kelganlar. Shuni aytish joizki, dravid til oilasiga mansub qabilalar o'lka bo'ylab keng tarqalgan. Ular asosan yarimorolning markaziy va shimoli-g'arbiy qismini

egallagan. Singallar esa materikdan Shri-Lankaga m.av. I mingyilik o'rtalarida ko'chib o'tgan ekan. Orolga tamillar ham materikdan ko'chib o'tgan. Hindiston yarimorolining ibtidoiy aholisi dastlab termachilik, ovchilik, dengiz, daryo va ko'l hayvonlarini ovlash bilan tirikchilik o'tkazgan. Daryo, dengiz sohillari va sayoz ko'llarda baliqchilik bilan shug'ullanganlar.

Hindiston tarixining tarixiy davrlari. Ma'lumki, boshqa sharq mamlakatlarining tarixi muayyan davrlarga bo'lib o'r ganilgani kabi qadimgi Hindiston xalqlari tarixi ham davrlarga bo'lib o'r ganiladi. Tarixchi, arxeolog olimlar Janubiy Osiyo, xususan Hindiston tarixini quyidagi davrlarga bo'lib o'r ganishini tavsiya etishadi.

1. Eng qadimgi Hind sivilizatsiyasi davri, bu davr m.av. XXIII – XVIII asrlar orasidagi davrni o'z ichiga oladi. Bu davr orasida Hindistonda ilk davlatlar tashkil topadi.

2. Bu davr m.av. II mingyillikni o'z ichiga olib, hududda hind yevropa qabilalarining – oriylarning paydo bo'lish davriga to'g'ri keladi. M.av. II mingyillikning oxiri va m. av. I mingyillikning oraliq'idagi Hindiston muqaddas diniy kitoblar – "vedalar"ning paydo bo'lishi tarixiy davridir.

Shuni aytish kerakki, tarixchi olimlar ikki bosqichga bo'lib o'r ganishni tavsiya etadilar. Uning birinchi ilk bosqichi m. av. XIII–IX asrlarni o'z ichiga oladi. Bu ilk bosqichga oriy qabilalari shimoliy Hindiston bo'y lab tarqaladi. Uning so'nggi bosqichi m. av. VIII–VI asrlar orasidagi davr bo'lib, shimoliy Hindiston, xususan, Gang vohasida ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar va shuningdek, hududda bir qancha katta-kichik davlatlarning tashkil topishi bilan belgilanadi.

3. Janubiy Osiyo tarixidagi "Budda davri" nomi bilan mashhur bo'lgan davr m.av. V–III asrlar orasidagi davrni o'z ichiga oladi. «Budda davri» mamlakatda budda dinining kelib chiqishi va tarqalishi bilan belgilanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tarix nuqtayi nazaridan qaralsa bu davr yirik davlashtirishning va shaharlashtirishning va hatto Mauriya kabi umumhind davlatining barpo bo'lishi bilan belgilanadi.

4. Bu davr m.av. II-milodiy V asr oralig‘idagi davrni o‘z ichiga oladi. Bu davr Hindiston tarixidagi “klassik davr” hisoblanadi. Bu davr mamlakatdagi turli ijtimoiy, iqtisodiy tuzumdagi davlatlar va Janubiy Osiyodagi madaniy yuksalish bilan xarakterlanadi.

Qadimgi Hindiston tarixiga oid manbalar va tarixnavislik.

Qadimgi Hindiston haqidagi yozma manbalar. Moddiy madaniyat yodgorliklar, ayniqsa yilnomalar tarzidagi tarixiy asarlarning kamliqi Hindiston tarixining qadimgi davrini o‘rganishni birmuncha qiyinlashtirdi. Ammo qadimgi Hindistonda ham o‘tmishni o‘rganishga qiziqish bo‘lgan.

Masalan, xitoylik buddizm targ‘ibotchisi Syuan Szyanning yozishicha. Hindistonning har bir viloyatida muhim voqealarni yozuvchi maxsus mansabdorlar bo‘lgan. XII asrda Kolxan tomonidan yaratilgan tarixiy asarda qadimgi podsholar xronikalari yilnomachilari haqida gapirilgan. Bularning hammasi albatta hindlarning o‘tmishga qiziqqanligidan darak beradi.

M.av. I mingyillikning o‘rtalarigacha Yevropada Hindiston haqida hech nima ma’lum bo‘lmagan. Ahamoniylar Eron sultanating vujudga kelishi bilan vaziyat o‘zgargan. Chunki o‘scha davrda Hindistonning shimoli-g‘arb qismi va Elladaning sharqiy qisimi ham Eron tarkibiga kirgan. Shundan boshlab Hindiston tarixiga qiziqish kuchaygan. Yunon tarixchisi Gerodot o‘zining “Tarix” kitobida Hindistonga oid ba’zi malumotlarni yozib qoldirgan. Lekin uning o‘zi Hindistonda bo‘lmaganligi sababli faktlarni solishtira olmagan.

Aleksandr Makedonskiyning Hindistonga bostirib kirishi, tashqi dunyo bilan Hindistonning aloqasini kengaytirgan. Aleksandrning safdoshlari – Nearx, Ptolemy, Aristobul bu yurish haqida yozib qoldirganlar. Antik dunyo mualliflaridan Strabon o‘zining “Geografiya” asarida, Arrian “Aleksandr Anabasisi” va “Hindiston” degan asarlarida mamlakat tarixiga oid ma’lumotlarni yozib qoldirganlar. Ular bu asarlarni yozishda Megasfening “Indika” asaridan foydalangan. Megasfen Salavka Nikatorning Chandragupta huzuridagi elchisi bo‘lgan.

Hindistonning siyosiy va ijtimoiy tuzumi, madaniyati, ayniqsa dini haqidagi manbalar xitoylik Fa Syan asarlarida ham saqlanib qolgan. U Hindistonda milodiy 399–411-yillarda bo‘lib, o‘zi ko‘rgan narsalarni yozgan. Keyingi davrga taalluqli bo‘lgan manbalarning ichida eng qiziqarlisi O‘rta Osiyoning buyuk olimi Beruniyning “Hindiston” asaridir. Bu asarda Hindiston madaniyatiga oid, xalqimiz turmushiga oid qimmatli ma‘lumotlar bor.

XIX asrda Hindistoni Yevropa mustamlakachilari bosib oladilar. Shu vaqtidan boshlab uning yodgorliklari o‘rganila boshlangan. Ingliz tadqiqotchisi U.Xons sanskrit tilidagi qadimgi hind yozuv yodgorliklarini, jumladan “Manu qonunlari”ni ingliz tiliga tarjima qilgan. U birinchi bo‘lib sanskrit tili yunon va lotin tillari bilan yaqinligini aytgan.

XIX asrning birinchi yarmida bu fikrni nemis olimi F.Bonn ilmiy asosda tasdiqlab bergen. Hindiston tarixini o‘rganishda 1874-yildan boshlab chiqarila boshlagan “Bengal-Osiyo” jamiyatining to‘plamlari, ayniqsa 1875-yildan boshlab nashr qilingan “Osiyoning muqaddas kitobi” katta ahamiyatga egadir. Bu asar 50 jilddan iborat bo‘lib, qadimiy diniy to‘plamlarning tarjimasidir. Epigrafiqa sohasidagi katta yutuqlardan biri, 1887-yilda ingliz olimi D.Perinsol tomonidan shoh Ashoka yozuqlarining



o'qib chiqilishi bo'ldi. Qadimgi hind adabiyotini ilmiy tekshirish ishiga rus filologlari I.P.Minayev, Y.A.Kosovich va boshqalar ham ko'p hissa qo'shdilar.

Sanskrit tilidagi yodgorliklarning o'rganilishi, tarjima qilinishi, nashr etilishi Hindistonning uzoq o'tmishini o'rganish va bilib olish uchun asos bo'ldi. Hindiston tarixini o'rganishga Yevropa mamlakatlarining ko'pgina universitetlari va olimlari qiziqadilar.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Hindistonga bir qancha yirik tarixchilar yetishib chiqdi. Bularga Rajendrala Mitrini kiritish mumkin. U bir qancha maxsus asar yozish bilan bir qatorda o'zining faol ishtiroki bilan "Osiyo jamiyat"da hindshunoslik rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. U 1885-yilda jamiyatning birinchi hindistonlik prezidenti bo'ldi.

Hind tarix fanining asoschilaridan biri R.G.Baxandarkar (1837-1925) hisoblanadi. Uning Hindiston tarixiga oid ko'plab asarlari hali ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Yirik hind tarixchilaridan R.Ch.Dattning "Qadimgi Hindiston sivilizatsiyasining tarixi" (1893) asari ham katta ahamiyatga ega. Hindiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin turli fanlarning, shu jumladan tarix fanining rivojlanishi uchun keng yo'l ochildi. Bir qancha ilg'or fikrli tarixchi olimlar yetishib chiqib, Hindiston tarixi xalqona tarzda o'rganila boshlandi. Bunga S.A.Danganing "Hindiston ibrido jamoadan to urug'chilik tuzumining buzilishi-gacha" asari misol bo'la oladi.

Rus olimlaridan G.M.Bongard-Levin, G.F.Ilinning "Qadimgi Hindiston" asari, A.M.Osipovning "Hindiston tarixining X asrgacha bo'lgan qisqacha ocherki" asari va D.A.Sleykining "Hindiston tarixini davrlarga bo'lish masalasi" kabi ishlari shular jumlasidadir.

Hindistonda arxeologik izlanishlar tarixidan. Arxeologiya Hindistonda tarix fanining boshqa sohalariga qaraganda ancha keyin rivojlangan. Arxeologiya bilan dastlab havaskor qiziquvchilar shug'ullangan. Faqat 1871-yilda A.Kanningxern tomonidan "Shimoliy Hindiston arxeologiya jamiyat"ning tashkil etilishi ilmiy arxeologiyaning eng katta yutuqlaridan biri bo'ldi.

1920–1930-yillarda arxeologlar R.Saxni va R.Banerji tomonidan Hind daryosi vodiyisida eng qadimgi sivilizatsiya markazi topildi. Bu topilmalarga qaraganda Hindistonda odamlar qadimgi tosh davridayoq yashagan. Ko‘p yillar davomida Marshal Taksilizada hozirgi g‘arbiy Pokistonda arxeologik qazishlar olib bordi. Topilgan manbalar Qadimgi Hindistonning eng muhim savdo markazining ijtimoiy-iqtisodiy tuzumini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Arxeologik qazish ishlari Kaushambuda, Redjagrixda va Pataliputradan olib borilgan. Bular natijasida mazkur yodgorliklarning madaniy qatlamlaridan Hindiston tarixiga oid juda ko‘p ashyoviy buyumlar, shuningdek, tanga pullar ham topilgan. Qadimgi tanga pullar bilan numizmatika fani shug‘ullanadi. Qadimiy tanga pullar Hindistonning siyosiy, iqtisodiy va qo‘shti xalqlar bilan savdo-sotiq aloqlari tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Bizgacha Qadimgi Hindiston tarixiga oid ko‘p yozma manbalar ham yetib kelgan. Bular ichida vedalar katta ahamiyatga ega. Bular “Regveda”(diniy madhiyalar to‘plami), “Samaveda” (Qo‘shtilar to‘plami) va “Atxarveda” (Afsungarlik formulasi to‘plami).

Vedalar shimoli-g‘arbiy Hindistonga bostirib kirgan oriyalarning xo‘jaligi va ijtimoiy tuzumi, Gang daryosi vodiyisining o‘zlashtirilishi va davlatlarning vujudga kelishini o‘rganishda asosiy manba hisoblanadi. Bu topilmalarning eng qadimgisi “Rigveda” bo‘lib, bizgacha to‘liq yetib kelgan. U m.av. II va I mingyilliklarda yozilgan.

“Atxarveda” madhiyalar ham katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular qadimgi Hindistonning ijtimoiy, siyosiy tuzumini, oila munosabatlarini, turmushini va xo‘jaligining turli sohalarini yoritishda qimmatli manba hisoblanadi. Hindistonda keng tarqalgan “Manu qonunlari” ham manba sifatida katta ahamiyatga ega. Bu qonunlar to‘plami m.av. II asr va milodning II asri orasidagi tarixiy davrlarni o‘z ichiga oladi. Bu qonunda odamning paydo bo‘lishi to‘g‘risidagi turli afsonalar to‘plangan. Hindiston tarixi va madaniyatiga oid manbalar orasida asosiy o‘rinni “Arxashastri Kautilli” nomli siyosiy-iqtisodiy traktat egallaydi. Bu traktat XX asr boshida hind olimi R.Shamashastra tomonidan topilgan. Asarning yaratilish davrini olimlar m.av. IV asrdan, milodiy I asrgacha bo‘lgan deydilar.

“Arxoshastri”da davlat idorasining tuzilishi, idora uslubi, podsho siyosati va xo‘jalikning turli sohalari yoritilgan. Ayniqsa, Maurya davrini o‘rganishda “Arxoshastri”ning ahamiyati katta. Chunki uni shoh Chandraguptaning maslahatchisi Kaushile va uning shogirdlari to‘plagan.

Xalq og‘zaki ijodiyotining namunalaridan bizgacha ikkita doston yetib kelgan. Ularning biri “Mahobxarat” va ikkinchisi “Ramayana”dir. Bu asarlar m.av. I mingyillikning o‘rtalarida tarkib topa boshlagan va milodning dastlabki asrlarida qat’iy shakl olgan.

“Mahobxarat”da Bxarata podsho urug‘ining ikki avlodni Kauravlar va Pandavlarning toju-taxt uchun olib borgan jangu-jadallari hikoya qilinadi.

“Ramayana”da esa o‘gay onasining ta’qiblariga chiday olmay, tug‘ilib o‘sgan Ayodxaya shahrini tashlab ketgan shahzoda Ramning g‘urbatda kezib yurgani bayon qilinadi. Ramning xotini Sitasini Lanka orolidagi dev o‘g‘irlab ketadi. Bu dostonlar hozirgi kunda ham xalqning eng sevimli asarlari hisoblanadi. Hatto bu dostonlar asosida ko‘p seriyali kinofilmlar ham ishlangan.

Qadimgi Hindiston tarixiga oid bo‘lgan manbalarning eng asosiyalaridan biri epigrafik manbalardir. Epigrafik manbalar ayrim tarixiy voqeя va hodisalar haqida hikoya qiladi. Masalan, shoh Ashoka yozuvlari, Ro‘zrad mana yozuvidir. Bulardan podsholarning hukmronlik qilgan yillarini, Chandragupta davridagi sug‘orish inshootlarining qurilishini bilib olish mumkin.

Lekin epigrafik yozuvlarni o‘qib chiqish ancha qiyinchilik tug‘diradi. Epigrafik yozuvlar ikkiga bo‘linadi. Birinchisi, davlat yozuvlari, ikkinchisi shaxsiy yozuvlar. masalan, davlat yozuvlari ga shoh Kalinjing Kxaravel yozuvi kiradi. Bunda podshoning yoshligi, uning o‘qishdagi va hukmronlik yillari va ishlari aks ettirilgan. Bu yozuvlar oldin palma barglariga yozilgan, keyinchalik ularni saqlab qolish maqsadida muhimlari toshlarga ko‘chirilgan.

M.av. I asrda epigrafik yozuvlarda sanskrit tili ayriqsa keng tarqalgan. Hind-Eron va Kushon davridagi yozuvlar ham Hindiston tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Bularidan Doro I ning mixsimon-ponasimon yozuvlari muhimdir.

Ularda shimoli-g'arbiy Hindiston to‘g‘risida anchagina ma‘lumot bor. Qadimgi Hindiston tarixiga oid qimmatli manbalar buyuk Hindiston grammatigi-tilshunosi Paninining “Ashtadx'yaxi” (sakkiz kitob) asarida saqlanib qolgan. Panini m.av. 500–400-yillarda yashagan. Uning asarlari qadimgi geografik nomlarni, toponimlarni o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

Panini hind grammatikasi maktabining asoschilaridan hisoblanadi. Hozirgi kunda ham hind tarixchilari, tilchilari o‘z vatanlarining tarixiga oid ko‘plab yangi manbalarni topmoqdalar. Bu izlanishlar qadimgi Hindiston tarixini yanada chuqurroq, mukamalroq o‘rganishga imkon beradi.

2-§. Ilk Hind sivilizatsiyasi (m. av. XXIII – XVIII asrlar)

Ilk Hind sivilizatsiyasi vujudga kelishining shart-sharoitlari. Yuquerida ta’kidlab o‘tilganidek Janubiy Osiyoning qulay tabiiy geografik muhiti u yerda ibridoiy jamoat tuzumining hamma bosqichlarida odamlar yashashi uchun imkon bergen. Keyingi 100 yil mobaynida olib borilgan arxeologik va antropologik tadqiqotlar natijasida hududdan juda ko‘p ibridoiy odamlar yashagan, ilk, o‘rta, so‘nggi tosh asri, shuningdek mezolit, neolit, eneolit va jez davriga mansub yodgorliklar majmuasi topib o‘rganildi. Mezolit davri yodgorliklari m. av. XII–VII mingyilliklarni qamrab oladi.

Mezolit davriga kelib Hindistonda toshdan mikrolit qurollar yasash ancha takomillashib, toshning har xil navlaridan segment, trapetsiya, kesgich, sanchgich qurollar yasash boshlanadi. Shuningdek, yog‘ochdan, suyakdan nayza uchlari bigizlar yasaladi. Toshdan yasalgan parrakchalar yog‘och dastalarga bitum – qatron bilan yopishtirilib mustahkamlangan yoki hayvonlarning achchiq ichaklari va terilaridan tayyorlangan qayish bilan bog‘langan. Bu qurollardan mezolit davri kishilari buyumlarni kesish, go‘shtni nimtalarga ajratish, boshqoli o‘simliklarning boshqolarini o‘rish maqsadlarida pichoq va o‘roq sifatida keng foydalanganlar. Undan tashqari Hindistonda yashagan mezolit davri kishilari bigiz, igna, so‘zan, tosh sandonlar, ushatgich, nayza, nayza uchlari va boshqa

qurollar ham yasaganlar. Hindistonda tarqalgan mezolit davri ma-konlarining madaniy qatlamlaridan toshdan yasalgan kamon o'qla-rining uchlari ham topilgan. Madaniy qatlamlardan topilgan kamon o'qining uchlariga qarab xulosa qilinsa, u davr kishilarini o'zlarining ov va xo'jalik hayotlarida o'q-yoydan keng foydalanganliklarini bildiradi.

Tadqiqotchilaring fikrlariga ko'ra, mezolit davrining eng katta kashfiyot va yutuqlaridan biri – kamon va o'qning kashf etilishi edi. Kamon va o'q – inson kashf etgan eng dastlabki murakkab mosla-ma bo'lib, u insoniyatning uzoq davom etgan mehnat tajribasi va zakovatining natijasi edi. Mashhur etnograf L.G.Morgan o'z vaqtida kamon va uning o'qiga yuksak baho bergen edi. Chunki bu qurol uzoqqa otlishi jihatidan o'sha davrdagi boshqa qurollardan ustun turar edi.

Yoy, tanob va o'q juda ham murakkab quroldirki, bu asbobning ixtiro qilinishi uchun uzoq vaqt tajriba to'plangan bo'lishi, aqliy layoqat ko'roq rivojlangan bo'lishi va binobarin, ayni zamonda boshqa bir ko'p ixtirolar bilan ham tanishilgan bo'lishi kerak. O'q – yoyning kashf etilishi munosabati bilan daraxt shoxida o'tirgan, uchib ketayotgan qush va yurib ketayotgan yoki bir joyda turgan hayvonga o'q uzish va o'lja qilib olish mumkin va oson bo'lган.

Mezolit davridan keyin kelgan neolit davri ilk chorvachilik, ziroatchilik, to'qimachilik, kulolchilik, qayiqsozlik kabi qator kashfiyotlari bilan shuningdek, oddiy me'morchilik bilan ilk hind sivilizatsiyasiga poydevor toshini qo'yib bergen. Shu bois mashhur ingliz arxeologi Gordon Chayld tosh asrining so'nggi bosqichiga baho berib uni bekorga "neolit inqilobi" deb atamagan.

Shuni yana bir bor ta'kidlash joizki, neolit davridan keyin kel-gan bronza davri kashfiyotlari "Ilk Hind sivilizatsiyasi"ning rivoji-ga o'zining ijobjiy ta'sirini ko'rsatadi. Chunki bu davrda sug'orma ziroatchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq hamma o'tgan davrlarga nisbatan o'zining yuqori pog'onasiga ko'tarildi.

Shuningdek, bu davr ishlab chiqarishning rivojlanishi munosabati bilan ortiqcha mahsulot yetishtirib, odamlar orasida xususiy

tengsizlik, tabaqalanish va ilk davlatlarning paydo bo‘lishi uchun zamin hozirladi.

Eng Qadimgi Hindiston jamiyati va madaniyati. Hindiston yarimorolining shimoli-g‘arbidan Hind daryosi oqib o‘tadi. Bu daryo sanskrit tilida Sindxu, pushtu tilida esa Abbasin – “daryolar otasi” deyiladi. Bu daryoning besh irmog‘i oqib o‘tadigan joy Panjob – Beshsuv deyiladi. Hind daryosi, ayniqsa uning yuqori qismi Panjobda ibridoiy davrdan boshlab odamlar yashab kelishgan.

1920 – 1922-yillarda arxeologlar Panjob hududidan, Xarappa va Hind daryosi bo‘yidan Maxenjo-Doro yodgorligini topgan va u yerda arxeologik qazishlar o‘tkazadilar. Tekshirishlardan bu yodgorlik qadimgi Hind shaharlarining xarobasi bo‘lib chiqdi. Moxenjo-Doro Hind daryosining o‘rta qismida joylashgan bo‘lib, har biri ikki yarim kv km joyni egallab yotar edi. Xarappa va Moxenjo-Doro m.av. III mingyillik va II mingyillikning o‘rtalarida mayjud bo‘lgan davlatlarning markaziy shaharlari bo‘lgan ekan. Bu shaharlarda aholi zich yashagan. Har ikki shahar xarobasini qazigan arxeologlar pishiq va xom g‘ishtdan qurilgan 1,2,3 qavatli uy-joy, ibodatxona, hukmdorlar saroyi, omborxona hamda podsho qaror-gohlarining qoldiqlarini topganlar. Bu joylardan g‘isht yotqizilgan ko‘chalar, pishiq g‘ishtdan qurilgan quduq va hovuzlar ham topilgan. Shahar tog‘dan sopol quvurlar orqali keladigan suv bilan ta‘minlangan. Shaharda iflos suvlarni tashqariga chiqarib yuboradigan yer osti qurilma inshootlari ham bo‘lgan. Har ikki shaharda zargarlik, me’morchilik, to‘qimachilik, kulolchilik, qurolozlik va hunarmandchilikning boshqa sohalari ham rivojlangan. Xarappa va Moxenjo-Doroliklar sopol, qayiq va kemalar yasab, daryo va dengizlarda bemalol suzganlar. Har ikki shahar ham qal’alar, qal’in, baland minorali mudosaa devorlari bilan muhofaza qilingan. Xarappa va Moxenjo-Dorodan iyeroglis yozuvlari va tosh tarozlari ham topilgan.

M.av. XVI–XIII asrlar orasida Xarappa va Moxenjo-Doro shaharlari xarobazorga aylanib inqirozga yuz tutgan. Olimlarning fikrlariga ko‘ra, Xarappa va Moxenjo-Doro shaharlari shimoli-g‘arbiy Hindistondagi qadimgi davlatlarning poytaxti bo‘lgan bo‘lsa

kerak. Bu ikki shahar m.av. II mingyillik o‘rtalarida O‘rta Osiyo va Erondan kelgan oriy ko‘chmanchilarning talon-taroj urushlari natijasida vayron etilgan, degan fikr bor.

Eng Qadimgi Hindistonning ijtimoiy tuzumi va xo‘jaligi. Eng Qadimgi Hindiston tabaqaviy jamiyatga asoslangan quldarlik davlati edi. Eng Qadimgi Hindistondagi davlatlar podsholar tomonidan boshqarilgan. Podsholar oqsoqollar kengashi va qo‘singa tayanib ish olib borganlar. Qadimgi aholi boy-badavlat, hunarmand, mayda savdogar, o‘rtahol dehqon va ziyolilardan iborat o‘rta tabaqaga hamda kambag‘allar, qashshoqlar va qullarga bo‘lingan.

Hindistonda yashagan aholi tirikchiligining asosini sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik tashkil etgan. Dehqonlar daryo vohalaridagi unumdon yerlarni o‘zlashtirganlar. Buyvol, zubr va qo‘tos ho‘kizlarini qo‘sh omochga qo‘sib yer haydaganlar. O‘zlashtirilgan tekis yerlarga suv kanal va ariqlar orqali kelgan. Balandroq yerlarga esa charxparraklar orqali suv chiqarilgan. Suvni yuqoriga chiqarishning eng qadimgi qo‘l usuli Misr tipi – shoduflar bo‘lib, ular qadimiy Misr, Mesopotamiyada va Hindistonda keng tarqalgan edi. Shoduf moslamasi Hindistonda “densli” nomi bilan mashhur bo‘lgan. U yerda “rati” deb yuritiladigan yuqoriga suv chiqarish moslamasi keng tarqalgan bo‘lib, bular Misr “atue”siga o‘xshaydi. Dehqonlar dalalarga bug‘doy, arpa, no‘xat, sholi, shakarqamish va g‘o‘za ekkalar. Hindiston g‘o‘za – paxtaning ilk vatanidir. Ular banan, anjir, anor, qovun, o‘rik, olma yetishtirib, polizchilik va bog‘dorchilik bilan ham shug‘ullangan. Dalalarda har turli sabzavotlar ham yetishtirilgan. Dehqonchilikda tosh, mis va jezdan yasalgan qurollardan foydalanganlar. Hind vohasida, ayniqsa Panjobda sero‘t yaylovlar ko‘p bo‘lgan. Shu bois aholi qoramol, qo‘tos, zubr, qo‘y, echki, cho‘chqa va eshak boqib, chorvachilik bilan shug‘ullangan. Qadimgi hindlar yovvoyi fillarni qo‘lga o‘rgatib, ulardan xo‘jalik va harbiy maqsadlarda foydalanganlar. Dehqonchilik va chorva mahsulotlari aholini oziq-ovqat, jun, teri kabi xomashyo bilan ta‘minlagan.

Eng Qadimgi Hindistonda hunarmandchilik ham rivoj topgan edi. Hind ustalari tosh, mis, jez, kumush, oltin va qimmatbaho tosh-

lardan mehnat va jangovar quollar, muhrlar, uy-ro^zg^{or}, zargarlik buyumlari va turli jihozlar tayyorlagan. U yerda to^zqimachilik, k^ulolchilik, qayiqsozlik, hatto kemasozlik ham ancha taraqqiy etgan.

Arxeologlar Hind vohasi va Panjobning ko^p joylaridan savdo omborxonalarini va do^konlарining qoldiqlarini topganlar. U yerlardan qadoq toshlar ham topilgan. Bu Hindistonda ichki va tashqi savdoning rivojlanganligidan dalolat beradi. Savdogarlar Eron, Turon, Xitoy, Mesopotamiya, Arabiston va boshqa mamlakatlar bilan suv va quruqlik yo^{ll}ari orqali savdo-sotiq ishlarini olib borgan.

Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanishi, shuningdek, talonchilik urushlari natijasida ayrim kishilar ixtiyoroda ortiqcha boylik yig^{il}gan. Bu hol mulkiy tengsizlik va tabaqalanishni yanada tezlashtirgan, bo^{lg}usi yirik davlatlarning vujudga kelishi uchun zamin tayyorlagan.

Eng Qadimgi Hindiston madaniyati. Eng Qadimgi Hindiston madaniyatining vujudga kelishi ibtidoiy jamoa tuzumi va u yerda harbiy dernokratiya davriga borib taqaladi. Qadimgi hind madaniyati ularning xo^jaligi bilan chambarchas bog^{li}q bo^{lg}an.

Hind va Panjob viloyati eng qadimgi hind madaniyatining beshigi hisoblanadi. Yozuv eng qadimgi hind madaniyatining ajralmas qismi bo^{lg}an. Arxeologlar Xarappa, Moxenjo-Doro va



boshqa joylardagi yodgorliklardan sopol parchalari, muhrlar sathi va toshlarga bitilgan g‘alati yozuvlar topishgan. Bu yozuvlar ba’zi jihatlari bilan misr va shumerlarning iyeroglislariga o‘xshab ketadi. Qadimgi hind alifbosining 700 ga yaqin rasm-belgilardan iborat ekanligi olimlar tomonidan aniqlangan. Tekshiruvchilar bu yozuvni o‘qishga urinib ko‘rganlar. Lekin bu urinish hozircha yaxshi natija bergani yo‘q. Qadimgi Hindistonda haykaltaroshlik ham rivoj topgan. Bu jihatdan Xarappa va Moxenjo-Dorodan topilgan erkak kishi, raqqosa ayol timsoli va boshqa haykallar diqqatga loyiqdир. Eng qadimgi Hindistonda rassomchilik ham taraqqiy etgan. Hind vohasi va Panjobdag‘i eng qadimgi yodgorliklardan, hatto uzoq Mesopotamiyadan odam, odam qiyofasidagi xudolar, zubr, karkidon, buqa, fil, qo‘tos, shuningdek, eng qadimgi rasm-belgili yozuv tushirilgan tosh muhrlar topilgan. Sopol va tosh muhrdag‘i qabartma rasm-tasvirlar o‘sha qadimiy, ko‘hna davrdagi rassomchilikning qay darajada rivojlanganligini ko‘rsatadi.

M.av. III-II mingyillikkarda Hind vohasida hisob-sananing o‘nlik tizimidan foydalanilgan. Bir, ikki, uch, besh, to‘qqiz |va boshqa katta-kichik sonlarga yonma-yon qo‘yiladigan nol(0)ni, shuningdek, birdan to‘qqizgacha bo‘lgan sonlar va ularning belgisini hindlar kashf etishgan. Bu raqamlar keyinchalik vatandoshimiz ulug‘ Al-Xorazmiy tomonidan biroz isloh qilingach, arablar dunyosiga o‘tgan. Bu ikki xalq madaniyati mevasining yorqin namunasidir.

Eng Qadimgi Hindistonda me’morchilik ham rivoj topgan edi. Qadimgi hind ustalari zargarlik, naqqoshlik va tasviriy san‘atning boshqa sohalarida ham katta yutuqlarga erishgan. Eng qadimgi Hindistonda alifbo, hisobning o‘nlik tizimi mavjud bo‘lgan. Demak, u yerda matematika, geometriya, astronomiya, tabobat va boshqa ilmiy-amaliy bilimlar rivoj topgan. Hind tabiblari bemorlarni davolashda shifobaxsh o‘simpliklar, mevalar va hayvonlarning ayrim qismlaridan dori-darmon tayyorlaganlar va bemorlarni mahorat bilan davolaganlar.

Eng qadimgi hindlar o‘zlariga xos madaniyat yaratib, bu bilan jahon madaniyati sivilizatsiyasi xazinasiga o‘zlarining barakali, ulkan hissalarini qo‘shganlar.

Oriylar va ularning Hindistonga kirib kelishi. Ularning bir qismi O'rta Osiyo va Erondagi daryo bo'yalaridagi unumdar yerlarda yashab dehqonchilik bilan shug'ullangan. Oriylarning boshqa qismi esa shu hududning dasht va tog' yaylovlari yashab qoramol, qo'y, echki, ot va tuya boqib chorvachilik bilan shug'ullanganlar. Sharqda va Janubi-sharqda Qadimgi Hindistoi bilan chegaradosh bo'lishgan, ular bilan qo'shnichilik qilishgan. Qadimgi hindlar ularni "oriy", "oriya", Eroniylar esa "ayriya" "eyraj" deb nomlaganlar. Oriy atamasining o'zbekcha tarjimasi oljanob, ulug'vor, yaxshi oiladan va aslzoda kabi ma'nolarni anglatadi.

M.av. II mingyillikning o'rtalarida oriylarning bir qismi Sulaymon, Hindikush va Janubiy Badaxshondan oshib o'tib, Panjob viloyatini bosib olganlar. Oriylar bilan Hindistonning mahalliy aholisi o'rtasida ayovsiz shiddatli janglar bo'lgan. Bu janglar haqidagi "Maxabxarata" va "Ramayana" dostonlarida mukammal ma'lumot berilgan. Panjobga o'rashib olgan oriylar qoramol – sigir, buqa, ho'kiz, buzoq, qo'y, echki, ot va tuyalar boqib, asosan chorvachilik bilan shug'u'llangan. Keyinchalik esa ular Gang va Jamna daryosi bo'yidagi unumdar yerlar hamda tog' yaylovlari bosib olganlar. Oriylar kelgunicha Hindistonda ot bo'lмаган. Ular Hindistonga o'zları bilan ot, tuya va qoramollarning yangi zotlarini olib kelganlar.



Oriylar Hindistonning shimali-g'arbiy va shimaliy viloyatlarini bosib olib, asta-sekinlik bilan mahalliy hind qabilalari bilan aralashib

ketgan. Mahalliy aholi oriylardan temirchilik va temir qurollardan foydalanishni o'rgangan. Temirdan bolta, belkurak, ornoch tishlari, qurol-yarog*, aslaho va turli buyumlar yasaganlar. Temir tishli ornoch va boshqa temir qurollardan foydalanish dehqonchilik va hunarmandchilikning yanada rivojlanishiga, xo'jalikdagi boshqa tarmoqlarning ravnaq topishiga juda katta turtki bergan.

Hindistonda tabaqalanishning kuchayishi. Dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va chorvachilikning rivojlanishi natijasida Hindiston viloyatlarida tabaqalanish yanada kuchaygan. Aholi orasida mehnatkashlarning sa'y-harakatlari evaziga boyib ketgan jamoa oqsoqollari – rojalar, ruhoniylar va sarkardalar ajralib chiqqanlar. Dehqonlar, hunarmandlar, oddiy chorvador va savdogarlar aholining o'rta tabaqasini tashkil etgan. Aholi orasida kambag'allar ham ko'p bo'lgan. Urushda asir tushgan begonalar va boylardan qarzdor bo'lib qolgan hindlar qullarga aylantirilgan. Ular qullarni "begona", „dushman" deb atashar edi. Rojalar, lashkarboshilar va ruhoniylar oddiy kishilar va qullarni uylari, dalalari, ustaxonalarida ishlatib, chorvalarini boqtirganlar. Oddiy kishilar va qullar mehnati evaziga boyib olgan oqsoqollar, lashkarboshilar va ruhoniylar asta-sekin quldarlarga aylana borganlar. Qullar va oddiy kishilarni itoatda saqlash uchun roja, lashkarboshi va ruhoniylar ixtiyorida qurollangan jangchilar, nazoratchilar, soliq yig'uvchilar, soqchilar va boshqa xizmatchilar bo'lgan. Aslzodalar, qozilar tomonidan gunohkor deb hisoblangan oddiy kishilar va qullar shafqatsiz tomonidan qattiq jazolangan.

Rojalar, lashkarboshilar va ruhoniylarga xizmat qiluvchi soqchi, nazoratchi qurolli jangchi, soliq yig'uvchi, qamoqxona, sudya-qozilar jamiyatni boshqaruvchi tashkilot – davlat tizimiga aylana borgan.

Rojalar saylab qo'yilgan qabila oqsoqollari, rahbarlardan asta-sekinlik bilan hokimlar va podsholarga aylana borganlar. Endilikda ular faqat o'z mol-mulklarinigina emas, balki hokimiyatni, podsholikni ham bolalari va aka-ukalariga meros qilib qoldiradigan bo'lgan.

Shunday qilib, m. av. I mingyllik boshlarida Hindistonda podsho boshqaradigan davlatlar qaytadan tashkil topgan.

Shimoliy Hindistondagi dastlabki davlatlarning tashkil to'pishi. M.av. IX–VI asrlarda Gang vohasi va Shimoliy Hindistonda xo'jalik asta-sekinlik bilan rivojlana borgan. Xo'jalikni boshqarish. aholi orasida tartib-intizomni saqlash va u yoki bu viloyatni tashqi dushmanlar hujumlaridan himoya qilish uchun davlat zarur edi. Bunga emas, boy-badavlat kishilar uchun ham podsholik, ham davlat zarur edi. Ular: “Agar podsho, davlat himoya qilmasa, badavlat kishilar o'lim va quvg'inlikka mahkum bo'ladilar” – der edilar.

M. av. VI asrga kelib Gang – Jamna vohasi va Shimoliy Hindistonda 20 dan ortiq katta-kichik davlatlar bo'lib, ularning yiriklari Koshala, Kashi, Magadxa, Anga, Shakya, Gandxar, Malla va boshqalar edi. Ular podsho boshqaradigan yakka hokimlikka asoslangan – despotik davlatlar bo'lган. Vridji va Malla kabi davlatlar ham bor ediki, ular respublika maqomiga ega bo'lган.

M. av. VI–V asrlarda Shimoliy Hindistonda hukmronlikni qo'lga olish uchun yuqoridagi davlatlar o'rtaida shiddatli janglar bo'lib o'tgan. Podsho Bimbasara (543–491) davrida Magadxa kuchayib, uning qo'shinlari Gang vohasidan Bengal qo'ltig'igacha bo'lган yerlarni bosib olgan. Bimbasara vorislaridan Ajatastru davrida butun Gang vohasi va Markaziy Hindistonda yirik davlat tashkil topadi.

M. av. 345-yili aholining quiy tabaqasiga mansub bo'lган Ugrasen Nand Magadxa podshosini yengib taxtni egallaydi. U qudratli Nand podsholigiga asos soladi. Ugrasen davrida Shimoliy, Markaziy va hatto Janubiy Hindistonning katta qismi Nandlar davlati tarkibiga qo'shib olinadi. Nand Hindistondagi qudratli davlatga aylanib bu davrda xo'jalik va madaniyat har tomonlama rivoj topadi. Nand davlati m. av. 345-yildan 317-yilgacha faoliyat ko'rsatadi.

M.av. VI–IV asrlarda Hind vodiysi va Panjob viloyatida ham ko'pgina mayda davlatlar bo'lган. Bu davlatlarning aksariyati Doro I davrida Eronga tobe bo'lib, ko'p miqdorda xiroj to'lab turgan.

Makedoniyalik Aleksandrning Hindistondagi istilolari. M. av. 329–327-yillarda Makedoniya podshosi Aleksandr Turonda-

gi istilolardan so'ng, 120 ming kishilik qo'shin bilan Hindikush va Sulaymon tog'laridan oshib o'tib, Panjob viloyatiga bostirib kiradi. Panjobdag'i mayda davlatlarning ko'pchiligi Makedoniyalik Aleksandrغا itoat etadilar.



Ammo Panjobdag'i eng kuchli podsholardan biri Por Aleksandrغا qarshi kurashga otlanadi. Por ixtiyorida 30 ming piyoda, 4 ming otliq askar, 3000 jang arava va 200 jangovar fil mingan jangchilar bor edi. Ikki shoh askarlari o'rtasida shiddatli jang boshlanadi. Porning o'zi jangovar fili ustida dushmanlar bilan qahramonlarcha kurashib 9 joyidan og'ir yarador bo'ladi. Janglarning birida uning ikki o'g'li o'ladi. Ammo shunga qaramay u urush maydonini, askarlarini tark etmay, jangni davom ettiradi. Urush Aleksandr qo'shinlarining g'alabasi bilan tugaydi. Por bilan bo'lgan urushda Aleksandr ko'p askarlaridan ayrıldi. Makedoniyalik Aleksandrning sevimli jangovar oti **Butsefal** ham janglarning birida tig' tegib halok bo'lgan. Aleksandr halok bo'lgan oti sharafiga Hind daryosi bo'yida Butsefaliya shahrini qurdirgan. Aleksandr Porning jangdagi qahramonlig'i va irodasiga tan berib, uni o'z sultanati podshosi qilib qoldiradi. Aleksandrning Gang vohasiga bostirib kirish niyati ham bor edi. Xuddi shu davrda Aleksandr qo'shinlari o'rtasida kasallik tarqalib, uning sarkardalari Gang tomon yurishdan bosh tortadilar.

Ikkinchidan, Gang daryosining chap sohilida qudratli Nand davlatining 200 ming piyoda, 80 ming otliq. 8 ming jang aravali va 6 ming jangovar fil mingan suvoriydan iborat katta qo'shini turardi. Makedoniyalik Aleksandr Nandlarning qudratli qo'shinini yengishga ko'zi yetmay Gang tomon yurishni qoldirishga majbur bo'ladi. Hind va Panjobda ozroq qo'shin qoldirib, M.av. 325-yili Hindistonni tark etib. Bobilga qaytadi. U Bobilni o'z sultanatining markaziga

aylantiradi. Ammo u 12 yil kurashib, jang qilib qo'lga kiritgan ulkan sultanatini 2–2,5-yilgina boshqaradi-yu, m. av. 323-yilda og'ir betoblik va zaharlanishdan vafot etadi. Bu vaqtida u endigina 34 yoshga qadam qo'ygan edi.

4-§. Makedoniyalik Aleksandr davlatining parchalanishi

Makedoniyalik Aleksandr davlati va uning parchalanib ketishining sabablari. Yunonlarning istilolari natijasida Bolqon yarimorolidan Hind daryosigacha, Sirdaryo bo'ylaridan Hind okeani sohillarigacha chozilgan g'oyat katta maydonda Aleksandr boshliq yunon-makedon sultanati vujudga keladi. Sharq yurishi tugagach, Aleksandr Bobilda qolib, buyuk sultanati poytaxtini shu yerda barpo qiladi. Bu davlatning maydoni Eron davlatiga qara-ganda ham katta edi. Sharq yurishidan keyin Makedoniyalik Aleksandr Suzada katta bayram tantanasini o'tkaib, unda 10000 askar mahalliy ayollarga uylantiriladi. Bayramdan keyin Aleksandr davlatning ichki ishlari bilan shug'ullanib, o'zi orzu qilgan garbiy yurishga ham tayyorgarlik ko'radi. Shu vaqtida Mesopotamiyadagi Opis shahrida makedoniyalik askarlarning qo'zg'oloni bo'lib o'tadi. Aleksandr bu qo'zg'oloni shafqatsizlik bilan bostiradi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, Aleksandr Sharq urushiga ketish oldidan o'z qarindoshi Antipatrni Makedoniya hokimi etib tayinlagan edi. Antipatr Makedoniyada o'z bilganicha ish tutar, Aleksandrga itoat etishni xohlamas edi. Aleksandr uni Bobilga chaqiradi. U Bobilga kelishni xohlamay, o'g'li Iollani yuboradi. Iolla Bobilga kelib katta ziyofat beradi. Ziyofatdan keyin Aleksandr og'ir kasal bo'lib qoladi. Ziyofatning o'n ikkinchi kuni u vafot etadi. Bu voqeа m. av. 323-yilda bo'lgan. Bu vaqtida Aleksandr endi 34 yoshga kirgan edi. Uni Antipatrning o'g'li Iolla zaharlagan bo'lsa kerak degan taxminlar bor. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, u bezgak kasalidan vafot etgan. Makedoniyalik Aleksandrni Misrdagi Iskandariya shahriga olib borib ko'madilar. Aleksandr dafn etilmasidan ilgariroq uning lashkarboshilari va yordamchilari o'rtasida toj-taxt uchun janjal boshlanib ketadi. Makedoniyalik Aleksandr sultanati o'rnida

bir qancha podsholiklar vujudga keladi. Aleksandrning eng nufuzli do'stlari va sarkardalari bu mamlakatlarning podsholari bo'lib oladilar. Ko'p o'tmay bu podsholiklar o'rtasida qonli janglar boshlanib ketadi. Bu qonli janglarning butun og'irligi mehnatkash xalq yelkasiga tushgan edi.

Shu tariqa bosqinchilar istilosini natijasida Misr, Kichik Osiyo, Eron, shuningdek, Turon va Hindistonning bir qismi yunon va makedoniyalik quldorlar asoratiga tushib qoladi.

Ellin davlatlari va madaniyati. Aleksandr boshliq yunon-makedoniyaliklar istilosidan keyingi 300 yillik davr Sharq mamlakatlari tarixi Ellin davlatlari tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Ellin davlatlari tarkibiga Yunoniston, Makedoniya, Misr, Eron, Turonning janubiy viloyatilari va O'rtayer dengizining sharqidagi mamlakatlar kirgan. Bu davlatlar Makedoniyalik Aleksandr vafotidan boshlab m. av. 30-yillarga qadar umr ko'rgan.

Ellin davri qadimgi yunon va Sharq dunyosining iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan qo'shib, bir-biriga ta'sir etishi jarayoni davridir. Bu davrda Sharq mamlakatlari bilan G'arb davlatlari o'rta-sida madaniy aloqalar va savdo-sotiq ishlari ancha rivoj topgan.

Turon o'lkasidagi janubiy viloyatlarga ham ellin madaniyati kuchli ta'sir etgan. Ayni paytda o'lcamizning qadimgi madaniyati ham ellin madaniyatiga barakali ta'sir ko'rsatgan.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, Makedoniyalik Aleksandr vafotidan keyin u istilo etgan o'lkalarda Ptolomeylar, Salavkiylar, Yunon-Baqtriya, Pergam podsholiklari, Makedoniya va Yunoniston kabi davlatlar qaror topadi.

Ptolomeylar podsholigi. Makedoniyalik Aleksandr vafotidan so'ng Misrda Ptolomey va ptolomeylar boshqargan kuchli ellin davlati qaror topadi. Ptolomey Makedoniyalik Aleksandrning mashhur lashkarboshilaridan biri edi. Shuning uchun davlatning nomi ham Ptolomeylar podsholigi deyilgan. Bu podsholikka Afrika shimolidagi Kirenaika, Kipr oroli, Janubiy Suriya, Finikiya, Kichik Osiyoning janubiy va g'arbiy sohilidagi joylar, yunon shaharlari va Egey dengizidagi ayrim orollar ham kirgan. Bu o'lklalar o'z mahalliy boshqaruvini saqlab qolgan bo'lsalar ham ptolomeylar tayin

etgan noiblarning nazorati ostida ish olib borganlar. Ptolomeylar quruqlikda hamda dengizda kuchli qo'shinga ega bo'lib, quruqlik va dengizdagi yo'llarni nazorat qilib turganlar.

Bu o'lkada yerning katta qismi podsho va uning amaldorlari qo'lida bo'lib, unda korandalar-yollanib ishlovchilar ishlar edi. Yerning bir qismi mayda dehqonlar ixtiyorida bo'lib, ular podsholikka muayyan miqdorda soliq to'lab turganlar. Bu davrda nullarni, korandalarni ezish juda kuchaygan. Dehqonlar asosan g'alla, poliz, zig'ir va bog'dorchilik ekinlarini ekkalar.

Ptolomeylar davrida hunarmandchilik va savdo-sotiq ancha rivoj topgan bo'lib, savdogarlar uzoq va yaqindagi mamlakatlar bilan qizg'in savdo ishlarini olib borganlar.

Ptolomeylar podsholigi salavkiylar bilan olib borilgan tinimsiz urushlar natjasida kuchsizlanib qolgan. M. avvalgi 30-yilda ptolomeylar mulki hisoblangan Misr Rimga qo'shib olingach, podsholik o'z mustaqilligini yo'qotgan.

Salavkiylar davlati. Salavkiylar davlati Yaqin va O'rta Sharq-dagi eng yirik ellin davlati edi. Unga Makedoniyalik Aleksandr tuzgan davlat inqirozga uchragach, Bobil satrapligining hukmdori Salavka I Nikator (m.av. 350–280) tomonidan asos solingan. U ham Aleksandrning do'sti va sarkardalaridan biri edi. Salavka va Salavkiylar davlati kuchaygan vaqtida Persida, Midiya, Suriya va Kichik Osiyoning katta qismi podsholik tarkibiga kirgan. Saltanat boshida podsho turib, joylardagi satrapliklarni strateglar boshqarganlar. Salavkiylar podsholigi o'sha davrdagi eng kuchli quidorlik davlati edi.

So'nggi salavkiylar davrida bu davlat kuchsizlanib, m. av. 190-yilda rimliklar bilan bo'lgan urushda yengilib, ko'p viloyatlardan ajraladi. Rim imperiyasi kuchaygan, m. av. 64-yilda Salavkiylar podsholigining g'arbiy qismini o'z viloyatiga aylantiradi.

Salavkiylar podsholigi kuchaygan vaqtida uning xo'jaligi ancha rivojlanadi. Daryo va soy bo'ylaridagi yerlarda dehqonchilik, bog'dorchilik, dasht va tog yaylovlari esa chorvachilik ancha taraqqiy etgan edi. Salavkiylar podsholigining kuchaygan davrida sharqdan g'arbgaga va shimaldan janubga o'tadigan savdo-tijorat

yo'llari podsholikka qarar edi. Shuning uchun bu yerda savdo rivoj topib, shahar va qishloqlarda hunarmandchilik ravnaq topadi.

Pergam podsholigi. Ellin davlatlaridan yana biri Pergam podsholigi edi. U Kichik Osiyoning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan. Pergam m. av III asrda ravnaq topib, ellin dunyosining eng yirik savdo-hunarmandchilik va madaniy markazlaridan biri bo'lган. Pergamning serhosil yerkari va yaylovlari, chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishiga imkon bergan.

Podsholikning markaziy shahri Pergam nomigagina yunon polisi shahri hisoblangan. Mamlakatdagi boshqa shahar va qishloqlardagi yerkarning ko'p qismi podsholikka qarashli edi. U yerdarda hunarmandlar va qaram qo'shchi dehqonlar ishlaganlar. Pergamda hunarmandchilik ustaxonlari ko'p bo'lib, ularda ko'plab qullar mehnatidan foydalanimagan.

M.av. III asrning birinchi yarmida Pergamda Attaliylarning yunon sulolasi tashkil topadi va davlatni boshqaradi. Keyinchalik Pergam podsholigi kuchsizlanib, Rim saltanatining ta'siriga tushib qoladi.

5-§. M.av. IV–I va milodiy I–IV asrlarda qadimgi Hindiston

Magadxa davlatining tashkil topishi va kuchayishi. M. av. 325-yilda Aleksandr Hind vohasida uncha katta bo'limgan qo'shin qoldirib, Hindistonni tark etdi. Aleksandr ketgach, ko'p o'tmay, hind qabilalari yunon-makedon asoratiga qarshi ozodlik urushini boshlab yubordilar. Bu harakatga mashhur hind sarkarsi Chandragupta boshchilik qiladi. M. av. 317-yili yunon-makedon qo'shnlari Hind vohasidan butunlay quvib chiqariladi.

Rivoyatlarga qaraganda, Chandragupta aslzodalardan bo'lmay, eng past shudra yoki kshatriyalardan kelib chiqqan ekan. U yoshligida Nand sulolasi podsholariga xizmat qilgan. U podsho bilan chiqisha olmay Panjobga, Makedoniyalik Aleksandr huzuriga kelib unga xizmat qilgan. Chandragupta Aleksandrni Nandlar shohi ustiga qo'shin tortishga undagan.

Yunon-makedonlar Panjobdan quvilgach, Chandragupta katta qo'shin bilan Magadxaga qaytib, Nand shohi qo'shinlarini yengib taxtni egallaydi. U Maurya podsholigiga asos solib, m.av. 317–298-yillarda hokimiyatni boshqaradi. Chandragupta Patalaputra shahrini davlat poytaxtiga aylantiradi. U butun Shimoliy Hindistonni birlashtirib, Maurya sultanatini kuchaytiradi. M.av 305-yili Chandragupta bilan Salavka qo'shnlari o'rtasida qattiq jang bo'lib, salavkiylar qo'shini mag'lubiyatga uchraydi. Chandragupta bilan Salavka o'rtasida sulh tuzilib, Sharqiy Eron va Belujiston Maurya davlati tarkibiga qo'shib olinadi. Chandragupta Salavkaga 500 jangovar fil in'om qiladi va uning qiziga uylana-di. Chandraguptaning vorislari Bindusara (m.av. 293–268-yillar) va Ashoka (m.av. 268–231-yillari davrlarida Maurya davlatining chegaralari kengayib, qudratli davlatga aylanadi. Ashoka davlatni boshqarish, din, madaniyat va xo'jalik sohalarida islohotlar o'tka-zadi. Ashoka davrida Maurya davlati kuch-qudratining cho'qqisiga ko'tariladi.

Maurya davlatining qulashi va Hindistonning mayda davlatlarga bo'linib ketishi. Ashoka vafotidan so'ng mamlakatda toj-taxt uchun sulolaviy janglar avj oladi. Shimoli-g'arbdan Panjobga Yunon-Baqtriya qo'shnlari bostirib kiradi. M.av. 180-yilda Maurya sulolasining so'nggi podshosi taxtdan ag'darib tashlanadi va o'ldiriladi. Shu yili taxtni Shunglar sulolasiga mansub kishilar egallaydi. Bu davrda Maurya davlatining chegaralari Gang vohasi bilan kifoy-alangan edi. Shunglar davlati uzoq yillar davomida Yunon-Baqtriya va mayda Hind davlatchalari bilan urushlar olib borgan. Shu davrda Panjobda Yunon-Hind podsholigi tashkil topadi.

Shu davrlarda g'arb va shimoli-g'arb tomonidan Panjobga yunon, sak va Parfiya qo'shnlari tez-tez hujum qilib turishgan. Shunglar sulolasini mamlakatni m.av. 180-yil bilan 68-yillar orasida boshqargan. M.av. 68-yili Magadxada navbatdagi davlat to'ntarishi sodir bo'lib, taxtni Kanha sulolasiga mansub kishilar egallaydilar. Ular Magadxa qo'l ostidagi mamlakatni 45 yil boshqaradilar. O'zaro urush-janjallar tufayli bu davlat ham ko'p o'tmay yemiriladi, Hindiston yana mayda davlatlarga bo'linib ketadi.

Hindistonning Kushonlar davlatiga qo'shib olinishi. Hindistonda o'zaro urushlar avjiga chiqib, mayda davlatlarga bo'linib ketayotgan bir davrda, shinioli-g'arbdan Kushon podsholarining istilolari boshlanadi.

M. av. II asr o'rtalarilda Baqtriyaga o'tib joylashgan yuyechjilar shu yerda Kushon davlatiga asos soladilar. Kushon davlatining asoschilaridan biri Kudzula Kadfiz I Kashmir va Janubiy Baqtriyani bosib oladi. Uning o'g'li Vima Kadfiz II esa Hindistonidagi o'zaro urush-janjallardan foydalanib Panjob viloyati, Quyi Hind bo'yłari, Bengaliya va Hindiston yarimorolining markaziy qismlarini ham bosib oladi. Kadfiz II vafotidan keyin Kushon taxtiga uning o'g'li Kanishka I o'tiradi. Kanishka I (78–123-yil) davrida Hindistonning janubiy viloyatlari ham Kushon sultanati tarkibiga qo'shib olinadi. Kanishka davrida Kushon sultanatining poytaxti Baqtrdan Peshovarga ko'chiriladi. Kanishka podsholik qilgan davrda Kushon podsholigi qudratli sultanatga aylanadi. Xuvishka podsholik qilgan davrlaridan keyin Kushon davlati kuchsizlanadi. Ammo III asr oxirlarida ichki kurashlar va g'arbdan sosoniy qo'shinlarining bergen qaqshatqich zARBalari ostida Kushon sultanati yemirilib, uning o'rniда katta-kichik davlatlar tashkil topadi.

Guptalar davrida Hindiston. Kushon sultanati barham topgach, Hindistonda bir qancha davlatlar tashkil topadi. Milodning IV asridan boshlab Gang vohasidagi Magadxa davlati yana kuchayadi. Bu davlatning asoschisi Gupta bo'lib, sulola ham shu nom bilan atalgan. Magadxa davlati Guptaning nabirasi Chandragupta I (milodiy 320–335) o'g'li Samudragupta (milodiy 335–380) davrida ancha kuchayib, ular Himolay tog'laridan Madras shahri oralig'idagi yerkarni bosib oldilar. Guptalar sulolasi sultanating gullab-yashnagan davri Chandragupta II podsholik qilgan 380–415-yillarga to'g'ri keladi. Chandragupta II davrida Hindistonning yerlari Panjob, Hind vohasi hisobiga kengayadi. Bu davrda Hindistonda dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, ayniqsa savdo-sotiq nihoyat darajada rivojlanadi.

Chandragupta podsholik qilgan yillar Hindiston tarixida "Guptalarning oltin asri" deb madh etilgan.

Chandragupta II vafotidan keyin Hindistonga O'rta Osiyo tomonidan kidariylar, eftaliylar va boshqa qabilalarning hujumi boshlanib, ular Panjob va Hind vodiysida o'rnashib qoladilar.

Kidariylar va eftaliylar bilan olib borilgan urushlar natijasida juda ko'p kishilar halok bo'ladi, xo'jalikning hamma tarmoqlari izdan chiqadi.

Guptalar mamlakatda markazlashgan davlat tuzishga ko'p harakat qiladilar. Lekin bu harakatlar yaxshi natija bermaydi. Shu bilan Hincistonning qadimgi tarixi ham o'z nihoyasiga yetadi.

M.av. VI va milodiy V asrlarda Hindistonning xo'jaligi. M. av. I ming yillik o'rtalariga kelib, dehqonchilik Gang vodiysi xo'jaligining asosiy tarmog'iga aylangan. Dehqonlar ekinlarni sug'orishda sun'iy kanal, ariq va charxpalaklardan foydalanganlar. Bu davrda ham Hind, Ganga, Jamna, Panjobdagi daryo bo'yлari-dagi baland yerkarda suv chiqarishda shoduf qurilmasidagi "dene-li", "rati" va hind xurustidan keng foydalananilgan. Shuningdek, irrigatsiya texnika taraqqiyoti tarixida Misrda Arximed vinti va Hindistonda suv chiqaradigan mayatnikdan keng foydalananilgan.

Sharq mamlakatlarining irrigatsiya xo'jaligida suvni yuk hayvonlari kuchi bilan chiqarish keng rasm bo'lган. Bu yuqorida ta'kidlangan hind xurustidir. Chuqurrrorq kanal. quduq qirg'og'ida ikki ustun o'rnatilib, ularning ustki uchi g'altak bilan birlashtiriladi. Bu g'altakka arqon tashlanadi va bir uchiga teridan qilingan katta paqir yoki qovg'a (idish) bog'lanadi, ikkinchi uchini uy hayvonlariдан ho'kiz, ot, tuya, eshak yoki xachir tortgan.

Bobur Hindiston xurusti haqida shunday yozadi: "Xurustiga bog'langan ho'kiz qovg'a quduqdan suvga to'lib chiqqunga qadar ustunlardan uzoqlashib, arqonning bir uchini tortadi, bunda odam suvni tarnovga quyadi, ho'kiz esa avvalgi joyiga qaytib keladi". Demak, hind ziroatkorlari balandlikka suv chiqarib dehqonchilik qilishda sun'iy sug'orishning turli usullaridan foydalangan ekanlar.

Yer haydashda ho'kiz qo'shilgan omoch va so'qalardan foydalangan. So'qa va omochlarga qo'tos, eshak, xachir va otlarni ham qo'shgan bo'lislari mumkin. Hind dehqonlari zarang yerkarni 6-12 ho'kiz qo'shilgan qo'shaloq qo'sh-omoch bilan haydaganlar.

Qullar sonining orta borishi munosabati bilan yerga ishlov bershda omoch. so'qa. tirma va molalarni qullar ham tortganlar. Dehqonlar bug'doy, agra, tariq, zig'ir, sholi, suli, dukkakli o'simliklar, paxta, shakarqamish va choy ekkanlar.

Qadimgi hind aholisi xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri chorvachilik bo'lgan. Hindistonda yirik shoxli qoramol – sigir, buqa, ho'kiz, hind buyvoli, qo'tos va buzoqlar boqishga katta e'tibor bergenlar.

Otlar Hindistonda yuqori baholangan. Ot asosan Panjob viloyati va Hind daryosining Tar cho'liga tutash bo'lgan joylarda boqib parvarish qilingan. Otlardan asosan minib yurish, jang aravalalariga qo'shish va otliq qo'shin uchun foydalilanilgan.

Hindistonda Nand, Maurya, Kushon va Guptalar sultanating qaror topishi munosabati bilan sug'orma dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik yanada rivojlanadi.

M.av. VI asrdan –milodiy V asrgacha bo'lgan davrda ichki va tashqi savdo ham muttasil rivojlanib borgan. Mazkur podsholiklar, ayniqsa, Kushon sultanati davrida davlatlararo Buyuk Ipak yo'lidan unumli foydalilanilgan.

M.av. VI asrning oxiri – V asr boshlaridan boshlab Hindistonda kumush tangalar ham zarb etilgan. Qadimgi Hindiston tarixining hamma davrlarida ham yirik savdogarlar va hunarmandlar badavlat bo'lishgan.

M.av. VI–IV asrlarda Hindistondagi davlatlar va savdogarlar suv va quruqlik yo'li orqali Janubi-sharqiy Osyo, Shri-Lanka, Arabiston, Afrika, Eron va Turon o'lkalari bilan qizg'in savdo ishlarini olib borganlar. Kushonlar davrida esa Hindiston yuqorida nomlari aytilgan mamlakatlardan tashqari Rim, Mesopotamiya va Xitoy bilan ham savdo-sotiq ishlarini yo'lga qo'ygan.

Bu jihatdan m. av. II asrda "Buyuk ipak yo'li"ning shakllanishi alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, "Buyuk ipak yo'li" ko'p tarmoqli bo'lib, u Xitoya Vohandaryo, Vaxsh – Qizilsuv, Farg'onadan Qorag'ulja, Ili daryolari, Ettisuv – Zayson orqali yo'nalgan. Xitoydan g'arbiy o'lkalarga ham shu yo'l orqali borilgan. Bu yo'llarning hammasi O'rta Osiyodan

o'tgan. Demak, qadimgi hind savdogarları Ipak yo'lining mazkur tarmoqlari orqali uzoq-yaqin mamlakatlar bilan siyosiy, iqtisodiy, harbiy, madaniy va savdo-sotiq aloqalarini olib borganlar. Hikoya qilishlaricha, Hindiston janubidagi Kerala, Chola va Pandya kabi davlatlarga Rim savdo kemalari kelishgan ekan. Milodiy I-IV asrlarda Kushon podsholari turli ma'danlardan tanga pul chiqarganlar. Oltin tangalar zarb qilish ham kushonlar davriga to'g'ri keladi. Savdo-sotiq Hindistonda hukm surgan hamma davlatlar davrida rivojlangan. Chunki savdogarlar hunarmandlar singari davlatga juda katta foyda keltirgan.

Shunday qilib, dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashda, hunarmandchilik uchun turli xomashyo yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etgan. Uzoqni ko'zlagan, siyosatdon podsho va amaldorlar xalqaro savdo rivojiga homiylik qilganlar.

6-§. Qadimgi Hindistondanning ijtimoiy tuzumi va madaniyati

Hindistondagi davlatlarning ijtimoiy tuzumi. Ma'lumki, m. av. III mingyllikning ikkinchi yarmida Qadimgi Panjob va Hind daryosi vodiysida tepasida podsho turgan davlatlar vujudga kelgan.

O'sha vaqtdayoq aholi orasidan podsho boshliq oliy mansabdagagi boy-badavlat aslzodalar ajralib chiqqanlar. Hunarmandlar, mayda savdogarlar, kichik yerli dehqonlar aholining o'rta tabaqasini tashkil etgan. Endigina paydo bo'layotgan qullar va qashshoq kishilar aholining quyi tabaqasi hisoblangan. Podsho mamlakatning mutlaq hokimi bo'lib, u qarigan va o'lgan taqdirda uning taxti, mamlakat va uning mol-mulki o'g'illari va aka-ukalariga meros bo'lib qolgan.

M.av. I mingyllik o'rtalariga kelib Shimoliy Hindistonda 20 dan ortiq katta-kichik davlatlar tashkil topadi. Shimoliy Hindistondagi Magadxa, Kashala, Nand, Maurya kabi yirik podsho boshqaradigan davlatlar bo'lgan. Bunday davlat **monarxiya** deyilgan.

Qadimgi Shimoliy Hindistonda **Vridji** va **Malla** kabi davlatlar ham bor ediki, bu davlatlarni oqsuyak-zodagonlar kengashi va xalq yig'ini tomonidan saylab qo'yiladigan hokimlar boshqargan. Bunday davlatlar **respublika** maqomidagi davlat hisoblangan.

Qadimgi Hindistonda toifachilik tuzumi. Hindistonning qadimgi solnomalari. Veda kabi diniy to'plamlarida aholi bir-biridan farq qiladigan turli toifa – varna-kastalarga bo'linganligi ta'kidlanadi. Shulardan birinchisi oliy varna-kastaga mansub bo'lган braxmanlar bo'lган. Braxmanlar toifasiga yirik yer egalari, ruhoniy-kohinlar, amaldorlar va aslzodalar a`zo bo'lishgan. Ular oliy xudo Braxmaning og`zidan yaratilgan ekan. Ikkinci varna-kasta kshatriyalar bo`lib, ular xudo Braxmaning elkasidan vujudga kelgan ekanlar. Kshatriyalar toifasiga harbiy sarkardalar va jangchilar kiran.

Aholining eng ko'p qismini tashkil etgan hunarmandlar, mayda savdogarlar, dehqon va dehqon jamoalari uchinchi toifa – varni vayshilarni tashkil etgan. Ular xudo Braxmaning qovurg'asidan paydo bo'lган ekan.

Hindiston aholisining eng quyi tabaqasi shudralar bo'lган. Ular Braxmaning tovonidan paydo bo'lган ekan. Shudralar ajnabiy o'lkaning odamlari, o'z urug'-qabilalaridan ajralib ko'chib kelgangan hisobiga to`ldirib turilgan. Ular zoti past kishilar hisoblanib, chang-tuproqqa belanib yashashga mahkum etilgan. Ular jamoalariga aralashtirilmagan, biron-bir xizmat va vazifaga tayin etilmagan.

Hindistonda to'rt varna-toifaning birortasiga kirmagan kishilar ham bo'lishgan. Ular „**chandallar**” – toza suvni harom qiluvchilar edilar. Ulardan hazar qilinib, jamoat binolariga, ibodatxonalarga hatto quduqlar yoniga ham yaqinlashtirilmagan. Chandallar, ya'ni hazar qilinganlar eng og'ir va iflos ishlarni – axlatlarni olish, iflos joylarni tozalash, o'lган hayvonlar terisini shilish kabi ishlarni bajarganlar.

Vedada aytishicha, odam qaysi toifadan tug'ilga bo'lsa, umr bo'yi o'sha toifada qolar ekan. Hindistonda qadim zamonlardayoq adolatparvar kishilar ham yetishib chiqqan. Ular o'sha vaqtida ijtimoiy tuzumga, diniy e'tiqodlarga va odamlarning toifalarga bo'linishiga qarshi chiqqanlar.

Yozuv va adabiyot. Hind vohasi va Panjobda yashagan hind xalqlarining eng qadimgi ajdodlari o'z yozuvlariga ega bo'lган. Arxeologlar Xarappa va Moxendjo-Dorodan hayvon va qandaydir

rasm-belgilari tushirilgan muhrlar va sopol idishlarning parchalarini topganlar. Tilshunos olimlar Hind vohasidagi yozuvlarni tekshirib ko'rgan. Ba'zi tilshunoslar hind yozuvi 400 belgi-rasmdan iborat desalar, boshqalari 250 va yana o'zgalari 300 belgi-rasmdan iborat deb ta'kidlaydilar. Ammo hanuzgacha qadimgi hind yozuvlari to'la o'rganilmagan. Ba'zi olimlar hind yozuvini shumerlarnikiga, boshqa olimlar esa xett yozuviga o'xshash deyidilar.

M.av. V asrdan boshlab Hindistonda braxmi, kxaroshtxi, aramey, gupta va boshqa yozuvlardan foydalanganlar. Qadimgi Hindistonda xalq og'zaki ijodi va uning davomi hisoblangan yozma adabiyot ham erta rivoj topgan. Ular maqol, matal, ertak, hikoya, doston, diniy qo'shiqlar va ajoyib afsonalar yaratganlar.

Vedalar – gimn, qo'shiqlar, afsungarlik va diniy duolardan iborat katta to'plamdir.

Qadimgi Hind adabiyotining eng nodir asarlari qatoriga "Maxabxarata", "Ramayana", "Pancha tatra", "Kalila va Dimna" kabi asarlarni kiritish mumkin.

"Ramayana" dostonida o'gay onasining bergen azoblariga chiday olmagan shahzoda Ramning o'z shahri Ayodxiyani tashlab ketib o'zga yurtlarda boshidan kechirgan sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi. Hikoya qilinishicha, Seylonda devlar Ramning xotini Sitani o'g'irlab ketadilar. Ram ayiq va maymunlardan qo'shin tuzib, devlarni tor-mor etib, xotinini ozod qiladi. Nihoyat Ram o'z vataniga qaytib, otasi taxtini egallaydi va uzoq davr davlatni adolat bilan boshqaradi.

"Maxabxarat" dostonida Bxarata podsho urug'inining ikki avlodи – Kauravlar va Pandavlarning toj-taxt va boylik talashib olib borgan kurashlari hikoya qilinadi.


V asrda yashagan Kalidasa ajoyib drama asarlari yozgan mashhur adib. U yozgan drama asarlaridan eng mashhuri "Shakuntala"dir.

Hindistonda ilmiy bilimlarning rivojlanishi. Hindistonda aniq fanlarga ham katta e'tibor bergenlar. Geografiya, tarix, astronomiya, matematika fanlari ham taraqqiy etgan edi. Hind faylasuflari Charvak degan ta'limot yaratganlar. Bu ta'limotga ko'ra ilmning bosh manbayi – tajribadir deyiladi.

Hindiston shaxmat o'yinining ham vatanidir. Hind astronomlari va matematiklari bir yilni 365 kunga, 12 oyga bo'lib, shundan 5 kunini bayram hisoblaganlar. Ularning hisobida bir yil 365 kunga teng bo'lgan. Ular quyosh va suv soatlarini kashf etib, ulardan foydalanganlar.

Astronom Aryabxata V asrdayoq Yerning sharsimon ekanligini va yerning o'ziga tortish qonunini, ayni paytda u o'z o'qi atrofida aylanish farazini aytgan.

Hindistonda tabobat ilmi ham ancha rivoj topgan edi. Tabiblar tomir harakatiga qarab kasalliklarni aniqlaganlar. Bemorlarni shifobaxsh o'simlik, ho'l meva, hayvon a'zolari va boshqa narsalardan tayyorlangan sodda va murakkab dorilar bilan davolaganlar.



Me'morchilik va tasviriy san'at. Hindistonda me'morchilik erta rivoj topgan. Ustalar me'morchilikda loy, xom, pishirilgan g'isht, tosh, maxsus qorishma va yog'ochlardan foydalanganlar. Ular shoh saroylari, ibodatxonalar va ma'muriy binolar qurishda katta yutqlarga erishgan. Hindistonda haykaltaroshlik ham rivoj topgan.

Haykaltaroshlar podsho, budda, arslon, fil, karkidon va boshqa narsalarning haykal va rasmlarini ishlaganlar.

Bu jihatdan muhr va tangalar sirtiga tushirilgan Tosh darvoza, rasmlari Ashoka davrida tosh ustun ustiga o'matilgan 4 sher haykali kishini hayratga soladi. Gumbazli binolar va tog' qoyalarini o'yib ishlangan binolar o'zining go'zalligi bilan ajralib turadi. Hindiston mustaqilligi e'lon qilinishi munosabati bilan tosh, ustun ustiga o'rnatilgan qadimgi to'rt qo'shaloq arslon haykali, bugungi kunda bizdagi **Humo qushi** kabi Hindistonning davlat ramziga aylantirilgan.

Diniy e'tiqod. Qadimgi Hindistonda juda ko'p urug', qabila va elatlar yashagan. Ularning xo'jaligi, turmush tarzi har xil bo'lganligi uchun diniy e'tiqodlari ham turlich raqamli bo'lgan. Hindistonda yasha-

gan aholi hayotida tabiat hodisalariga, ajdodlari ruhiga, tog'-tosh-larga, hayvonlarga, suv va daraxtlarga sig'inish uzoq davom etgan. Ularda oy, quyosh va olovga sig'inish keng tarqalgan edi. Hindlar **Agni** olov, **Indra** momaqaldiroq, **Aditinani** esa hosildorlik xudosi deb bilganlar.

Hindistonda diniy e'tiqodlarning kelib chiqishi ham boshqa xalqlar kabi ularning turmush tarzi va xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan.

Davlatlar vujudga kelishi munosabati bilan Hindistonning ko'p joylarida braxman dini keng yoyilgan. Bu din m.av. IX–VIII asrda vujudga kelib, uning xudosi Braxma bo'lgan. Bu dinning ruhoniyllari **braxmanlar** deyilgan. Ularning ta'limoti bo'yicha Braxma olam va odamning yaratuvchisi hisoblangan. Aditinani "hammaning onasi", "hamma narsaning mohiyati", "abadiyat", "yaratilgan va yaratuvchi" kabi nomlar bilan ulug'laganlar. Dastlab momaqaldiroq, hosildorlik xudosi hisoblangan **Indra** keyinchalik hokim, hukmdor va podsholar homiysiga aylangan. Indra so'zining o'zi ham podsho, hokim, hukmdor kabi ma'noni anglata boshlagan.

Hindistondagi diniy e'tiqodlardan yana biri **buddizm** bo'lgan. Bu din m.av. VIII–VI asrlarda vujudga kelgan. Dinning asoschisi shahzoda **Siddhartha Gautama** bo'lgan. U **Budda**– „Ma'rifatparvar” laqabi bilan o'z ta'limotini mamlakat bo'ylab 40 yil davomida targ'ib qilgan. U braxman xilidagi kasta-tabaqalarga bo'linishni qoralab, jamiyatdagи barcha kishilar xudo oldida teng huquqqa egadirlar, deb ta'lim bergen. Keyinchalik buddiylik davlat dini darajasiga ko'tarilib, avval Turonning janubiy hududlari, keyin Xitoy va Markaziy Osiyoga yoyiladi. Shuni ham aytib o'tish joizki, Qadimgi Hindistonda zardushtiylik dinining an'analari ham saqlanib qolgan va hozir ham ular hududning g'arbida faoliyat ko'rsatar ekanlar.

Shunday qilib, Qadimgi Hindiston xalqlari o'zlariga xos boy madaniyat yaratganlar. Keyinchalik hind madaniyatidan janon xalqlari bahra olganlar. Hindistonda keyingi vaqtida olib borilgan arxeologik va ilmiy tadqiqotlar ba'zi g'arb olimlarining hindlar hech qanday madaniyat yaratmaganlar degan fikrini chippakka chiqardi. Ta'bir joiz bo'lsa, hind xalqlari ilm-fanning ba'zi sohalarida yevropaliklardan o'tib ketishgan.

Seminar mashg‘uloti uchun savollar:

1. Hindistonda arxeologik izlanishlar: “Shimoliy Hindiston arxeologiya jamiyat” haqida.
2. Ilk Hind sivilizatsiyasi vujudga kelishining shart-sharoitlari.
3. Eng Qadimgi Hindistonning ijtimoiy tuzumi va xo‘jaligi.
4. M. av. XV–IV asrlarda Qadimgi Hindiston.
5. Shimoliy Hindistondagi dastlabki davlatlarning tashkil topishi.
6. Makedoniyalik Aleksandrning Hindistondagi istilolari.
7. Makedoniyalik Aleksandr davlati va uning parchalanib ketishining sabablari.
8. Magadxa davlatining tashkil topishi va kuchayishi.
9. Maurya davlatining qulashi va Hindistonning mayda davlatlarga bo‘linib ketishi.
10. Hindiston Kushonlar davlati tarkibida.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:

1. Janubiy Osiyoning qadimgi aholisi.
2. Hindiston tarixining tarixiy davrlari.
3. Eng Qadimgi Hindiston madaniyatining vujudga kelishi.
4. Oriylar va ularning Hindistonga kirib kelishi.
5. Salavkiylar davlati: Yaqin va O‘rta Sharqdagi eng yirik ellin davlati.
6. Ellin davlatlari va madaniyati.
7. Pergam podsholigi.
8. Eng Qadimgi Hindiston jamiyati va madaniyati.
9. Xarappa va Moxenjo-Doro yodgorliklari.
10. Qadimgi Hindiston haqidagi yozma manbalar.
11. Abu Rayhon Beruniyning “Hindiston” asari.

VII BO‘LIM. QADIMGI XITOY VA XUNNLAR DAVLATI

1-§. Eng Qadimgi Xitoy

Qadimgi Xitoyning geografik o‘rni va tabiiy sharoithari. Xitoy Markaziy va Sharqiy Osiyodagi eng qadimgi mamlakatlardan biridir. Hozirgi Xitoyning g‘arbiy chegaralari bizning Turon zamin chegaralariga kelib tutashadi. Shimolda Mo‘g‘uliston, Rossiya, janubda esa Himolay tog‘lari orqali Hindiston bilan chegaradosh. Mamlakat sharqi Tinch okeanning Sariq, Sharqiy Xitoy va Janubiy Xitoy dengizlarining suvlari bilan o‘ralgan. Mamlakatning katta qismi tog‘lardan, g‘arbiy tomoni dashti biyobon va sharqiy qolgan ozroq qismi tekisliklardan iborat. Xitoyning kunchiqish tomonini Buyuk Xitoy pasttekisligi qoplab yotadi. Iqlimi o‘ziga xos, yozi o‘rtacha issiq, qishi shimolda sovuqroq, janubda u qadar sovuq emas. Yog‘in-sochin mamlakat sharqida ko‘proq, markaziy va g‘arbiy qismida kamroq yog‘adi. Xitoyning eng yirik daryosi Xuanxe bo‘lib, xitoyliklar uni “Tentak daryo”, “Xitoyning sho‘ri”, “Ming xil kulfat keltiruvchi daryo” deb ham ataydilar. Chunki u bahor oylari toshib odamlarga ko‘p tashvish va kulfat keltirgan. Bu daryo loyqaligi bois Sariq daryo ham deyiladi. Sharqiy Xitoydan Yanszi, Sitszyan kabi katta daryolar, g‘arbiy qismidan esa Tarim daryosi oqib o‘tib, G‘arbiy Xitoydagи qumliklarga singib ketadi. Bu daryolar bahor oylarida qattiq toshib xalq xo‘jaligiga katta zarar keltiradi. Xitoy o‘simliklar, hayvonot va qazilma ma’danlariga ancha boy mamlakat hisoblanadi.

Xitoyning eng qadimgi aholisi va ularning mashg‘uloti. Xitoyning qulay geografik muhiti bu yerlarda juda qadim zamonlaridan boshlab ibridoiy va qadimgi odamlarning yashashlari uchun imkon bergen. Arxeolog va antropologlarning bergan ma’lumotlariiga ko‘ra, Xitoy hududidan ibridoiy va qadimgi davrga mansub yodgorliklar topilgan. Bular orasida bundan 600–500 ming yil il-

gari yashagan sinantrop – xitoy odami va Lantyan kabi odamlar-ning manzil-makonlari diqqatga sazovordir. Ibtidoiy davrga man-sub yodgorliklar Xitoyning juda ko'p joylaridan topilib, ularning madaniy qatlami o'rganilgan. Ayni paytda Xitoyning hamma joyi- dan qadimgi, so'nggi paleolit, mezolit, neolit, eneolit, jez va qa- dimgi davriga oid ko'plab arxeologik yodgorliklar topilgan. Bu yodgorliklarni tekshirgan arxeolog, antropolog olimlar Xitoyda juda qadim zamondan boshlab ibtidoiy va qadimgi odamlar yashaganligini isbotlab berdilar. Keyinchalik aholi ko'paya borib Xitoyning ko'p joylariga borib joylashgan. Shuningdek, Xitoyga shimol, janubi-sharqdan xilma-xil urug' va qabilalar kirib kelib joylashganlar.

M.av. IV–V mingylliklarda Xuanxe daryosining o'rta oqimi- da bir necha neolitik madaniy markazlar paydo bo'lgan. Xitoyning sharqiy sohillari – Szyansu va Chjeszyan provinsiyalarida kashf etilgan Sinlyangan madaniyati keyinchalik "Sharqiy" nomli etnos- larning paydo bo'lishiga zamin yaratgan. O'sha davrda Xuanxe daryosining bosh irmog'i Veyxe vodiysida mashhur. Yanshao neo- litik dehqonchilik madaniyati paydo bo'lib, xitoy xalqining eng qadimgi ajdodlari asosi, bir qismi esa tibet-birma etnoslarining shakllanishiga sabab bo'lgan. "Yanshao"liklar daryo sohillarida yarim yerto'lalarda va ustunlarga o'rnatilgan sinch uylarda yashab, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Ularning bir qismi termachilik, ovchilik va baliqchilik bilan mashg'ul bo'lgan.

M.av. III mingyllikda sharqiy "yansha"oliklar o'rta Xitoy tekis- liklarida yashovchi janubiy qabilalar bilan aralashib ilk Xitoy tili- ga asos solganlar. Keyingi mingyllikda qadimgi Xitoy qabilalari – sya va shan (in)lar yirik qabilaviy ittifoq tuzib, dastlabki tabaqa- viy jamiyatlar negizidagi ilk davlatlar(eng kuchlisi Shan, keyin Ch- jouni yaratganlar. Undan keyingi davrlarda esa Xitoyga shioldan turli qabilalar kirib kelib mahalliy aholiga qo'shilib, aralashib ket- gan. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Janubiy Xitoyda qadimdan bosh- lab har turli qabilalar yashagan. M.av. davrning so'nggi asrlarida xitoyliklar janubga harakat qilib, mahalliy qabilalarni asta-sekin xitoy lashtira boshlaydilar. Shunday qilib, Xitoy aholisi hududda yashagan turli urug', qabila va etnik guruhlardan tashkil topgan.

Qadimgi Xitoy tarixining davrlarga bo‘linishi va ularning bosqichlari. Qadimgi Sharqning boshqa davlatlari kabi Xitoy tarixini bir necha tarixiy davrlarga bo‘lib o‘rganiladi. Ular quyidagilar:

1. Xitoyda ibridoij jamoaning buzulishi va eng qadimgi davlatlarning barpo etilishi – m. av. II ming yillik.
2. M.av. VIII–III asrlarda Qadimgi Xitoy.
3. Xitoyda dastlabki markazlashgan davlatning qaror topishi – Sin imperiyasi davri – m.av. 221 – 207-yillar.
4. Xan imperiyasi davri m.av. III–I asrlar.
5. Qadimgi Xitoy milodiy I–III asrlarda.

Ba’zi olimlar ilk Xitoy tarixini sulolalar bo‘yicha tarixiy davrlarga bo‘lishni tavsiya etganlar. Aksariyat olimlar Qadimgi Xitoy tarixini beshta davrga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq ekanligini ma’qulluaydilar. Qadimgi Xitoy tarixini mazkur tarzda davrlarga bo‘lib o‘rganish talabalarga ancha yengillik tug‘diradi.

Qadimgi Xitoy tarixining asosiy manbalari. Boshqa qadimgi Sharq mamlakatlari kabi Qadimgi Xitoy tarixini o‘rganishning o‘ziga xos ilmiy manbalari bor. Bular qadimgi hujjatlar, jumladan m. av. II mingyilikka oid suyaklardagi hamda toshbaqa kosalari usidagi yozuvlar bo‘lib, ular Shan-In davlati davridagi (m.av.XVIII–XII asrlar) qadimgi Xitoyning xo‘jalik, ijtimoiy va davlat tuzumini tasvirlashga imkon birmuncha beradi. Diniy marosimlarda ishlatalidigan jez davridishlaridagi yozuvlar bu davrning oxirgi, shuningdek, m.av. XII–VIII asrlarga oid manbalardir. Bu yozuvlar orasida hadya yorliqlari ham uchraydi. Sin sulolesi, ya’ni m.av. III asrga oid tosh barabarlardagi yozuvlar ham katta ahamiyat-



ga egadir. M.av. III va milodiy III asrga oid Xan sulolasiga davriga mansub bo'rtma suratlar ham qadimgi Xitoy tarixi va madaniyatini o'rganishda juda muhim manba hisoblanadi.

Davri aniqlanmagan yozma manbalar orasida Lu podsholigi davrida, ya'ni m.av.VIII–V asrda to'plangan "Chun-syu" va "Bahor va Kuz" kitobi alohida o'rinni egallaydi. Bu kitobning muallifi haqidagi turli fikrlar bor. Ba'zi rivoyatlarga ko'ra, "Chun-syu" kitobining muallifi Konfutsiy deyiladi. O'sha davrda yaratilgan yilnomalaridan biri "Szochjuan" hisoblanadi. "Shanshu" ("Shutszin") – "Tarix kitobi", "Hujjatlar kitobi" qadimgi Xitoyning mumtoz adabiyoti orasida alohida o'rinni egallaydi. Ma'lumotlarga ko'ra, bu kitobga qadimgi podsholar yoki ularning maslahatchilariga qarashli nutqlar, nasihatlar va amr-farmonlar kiritilgan. Bu kitobda mammalakat topografiyasi va boshqarish tizimiga doir qimmatli ma'lumotlar ham bor. Rivoyatlarga ko'ra, kitob Konfutsiy tomonidan tahrir qilinib qayta ishlangan ekan.

Xitoyning qadimgi tarixi va madaniyatini o'rganishda "Shi-szin" – "Qo'shiqlar kitobi" ning ahamiyati ham katta. Kitob xalq qo'shiqlari asosida tuzilib, unda juda qadim zamonalarga oid qo'shiqlardan parchalar bor. Kitobda xitoyliklarning eng qadimgi davrdagi chinakam hayoti xalq qo'shiqlarida aks ettirilgan. Shuningdek, kitobda m.av. I mingyillik birinchi yarmidagi xitoy xalqining turli urf-odatlari, rasm-rusumlari, to'ylari va turinush tarizi to'lar o'qida etilgan. Shuni ham aytib o'tish kerakki, "Qo'shiqlar kitobi" ning eng qadimgi qismi m.av. XII–VII asrlarga mansubdir.

Nomi yuqorida tilga olingan "Szo-chjuan" asarida ham mammalakat tarixiga oid ancha ma'lumotlar bor. "Szo-chjuan" ni Xitoy adabiyotida Qadimgi Xitoy tarixiga oid birinchi to'la asar deyish mumkin. Qadimgi Xitoy manbalari orasida m.av. XII–VIII asrlarda tuzilgan "Bambuk yilnomalari" ham muhim ahamiyatga egadir. Mazkur yilnomalar o'sha davr podsho, hokim va knyazlari uchun tuzgan yilnomalar bo'lsa kerak. Bu yilnomada m.av. 776-yilda quyosh tutilishi ko'rsatilgan sana. so'nggi Shan-In sulolasiga mansub podsholarning ro'yxati va boshqa bir qancha qimmatli tarixiy ma'lumotlar saqlangan.

Shan-In davriga mansub fol ko'radigan suyaklardagi eng qadimgi iyeiroglif yozuvlari ham xitoyliklarning o'tmish tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri bo'lishi mumkin.

M.av. II–I asrlarda Xitoyda dastlabki tarixiy asarlar vujudga keladi. Bu jihatdan m.av. 145–90-yillarda yashab o'tgan tarixchi Sima Syanning "Tarixiy xotiralar"i katta ahamiyatga ega. Sima Syanning bu asari Xitoyning eng qadimgi davridan m.av. II asr oxirigacha bo'lgan tarixiy voqealarni o'z ichiga oladi. Bu kitob besh bo'limdan iborat bo'lib, unda qadimgi Xitoyning siyosiy va madaniy tarixiga oid, shuningdek, xronologiyasini tiklash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar berilgan. Tarixchi "Tarixiy xotiralar"da qadimgi Xitoy tarixining umumiylar manzarasini birinchi marta keng ko'lamda bayon etadi. Sima Syanning bu asari Xitoy tarixnavisligining o'zidan keyingi rivojlanishiga kuchli ta'sir etadi. Ban Byao, milodiy 32–92-yillarda yashab ijod etgan o'g'li Ban Gu va qizi Ban Chjaolar "Xan tarixi" ("Xan Shu") tarixiy kitoblarini yozgan. Bu tarixiy asarlarni yozishlarida ular Sima Syanning tarixnavislik uslubidan keng foydalangan.

Ban Guning "Xan tarixi kitobi" Xan, aniqrog'i G'arbiy Xan sulolasiga tarixiga (m.av. 206–milodiy 25 yil) bag'ishlangan. Ban Gu boshliq oilaviy tarixchilar yangi xitoy tarixnavisligiga, ya'ni yangi "sulola tarixchiligi"ga asos soladilar.

Milodiy 398–445-yillarda yashab ijod etgan tarixchi Fan E "So'nggi xan sulolasiga tarixi" kitobini yozgan. Bu kitobda Xitoyning I–III asrlardagi tarixi yoritilgan. Xitoy hududidagi arxeologik yodgorliklar o'lka xalqlari tarixi va madaniyatini o'rganishda juda muhim manba hisoblanadi.

Qazishmalar shuni ko'rsatadiki, Xitoy hududida 600–500 ming yillardan beri kishilar yashab keladilar.

1921-yilda shved olimi I.G. Anderson Xuanxe daryosining o'rta oqimidan neolit madaniyatiga mansub yodgorlikni topib o'rgangan. U Yanshao neolit madaniyati nomi bilan mashhurdir. 1928-yilda esa Shan-In poytaxti Anyan shahri yaqinida arxeologik qazishmalar o'tkazilib, Qadimgi Xitoy tarixining m.av. XIV–XI asrga mansub moddiy madaniyat buyumlari topib o'rganildi. Topilgan buyumlar

bizga o'sha davrdagi Xitoyning ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy tuzumi haqida tushuncha beradi.

Xitoyda arxeologik tadqiqotlar olib borish va o'rganish ishlari u yerda xitoy inqilobidan so'ng rivojiana boshladи. Bu XX asrning 50–70-yillariga to'g'ri keladi. Qazishmalar natijasida neolitdan Xan davrigacha bo'lган xitoyliklar tarixi haqida yangi ashyoviy dalillar to'plandi. Keyingi yillarda arxeologlar Xitoy hududidan Shan-In, Chjou va undan keyingi Xan davriga oid yodgorliklarni o'rgandilar. Chjou davriga oid bronza idishlar Chansha yaqinidan topilgan. U yerda fol xatlari yozilgan sopol buyum, kiyim-kechak, zargarlik va ziynat buyumlari, yog'och lavha va ipak matoga bitilgan qadimgi yozuvlar ham topib o'rganildi. Bu buyumlar m.av. III asrga mansub Chanshadagi qabristondan ham topib o'rganilgan.

Xitoyning Shan-In davridagi qadimgi tarixini o'rganishda epigrafik manbalar, birinchi navbatda "fol xatlari" yozilgan buyumlar ning topilishi katta ahamiyatga egadir. Mazkur "fol xatlari" m.av. XIV–XI asrlarga mansub ekan.

Bu yodgorliklar birinchi bor 1899-yilda xitoylik olimlar Lyu Te-yunem va Van I-junlar tomonidan ochilgan va o'rganilgan. Qazishma vaqtida Anyan shahri yaqinidan juda ko'p epigrafik yozuvlar ham topilgan.

Van Go-vey, Xu Xou-sban va boshqalar mazkur yodgorliklardan juda ko'p epigrafik yozuvlarni topganlar. M. av. X–VII asrlarga mansub bronza idishga yozilgan Chjou davri yozuvlari ham Qadimgi Xitoyning Chjou davri tarixi va madaniyatini o'rganishda katta ahamiyatga ega. M.av. III va III asrga mansub xilma-xil buyumlar va yozuvlar ham xitoyliklar tarixi va madaniyatini o'rganishda muhim manba sifatida qimmatlidir.

Istoriografiya-tarixnavislik. Qadimgi Xitoyda tarixnavislik yoki yilnomachilikka ilk bor amaldor zodagonlardan chiqqan Sima Syan (m.av. II–I asr), undan keyin "Birinchi (Katta) Xan sulolasi tarixi"ni yozgan yilnomachi Ban Byao, uning o'g'li Byan Gu va qizi Byan Chjaolar asos solganlar. Makedoniyalik Aleksandr yurishlarii davrida yashab ijod etgan mualliflar Ellin davlatlari va Rim ipak mahsulotlari olib turadigan mamlakat Xitoy to'g'risida noaniq

va uzuq-yuluq ma'lumotlarnigina bergenlar. Yevropaliklar ungacha Xitoy haqida hech narsa bilmagan.

O'rta asrlardan boshlab Xitoy to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlar venetsiyalik Marko Poloning "Sayohat" kitobida berilgan.

XVI asrdan e'tiboran yevropalik sayyoohlар, missionerlar va savdogarlar Sharqiy Osiyo bilan qiziqqa boshlagan. 1585-yili portugaliyalik Mendozaning "Ulug' Xitoy xalqining tarixi" bosilib chiqqan. Keyinchalik Yevropada qadimgi Xitoy tarixini o'rganish ishiga fransuz sinologik (xitoysunoslik) maktabi katta hissa qo'shgan. XIX asrda fransuz xitoysunos E.Shavanni Sima Syanning "Tarixiy xotiralar" nomli tarixiy kitobini fransuz tiliga tarjima qilishga kirishgan. U Xitoyda bo'lgan vaqtida Xan davriga mansub bo'lgan yoddgorliklarni to'plab nashr ettingan.

M.Grene Qadimgi Xitoy tarixiga bag'ishlab ko'plab asarlar yozgan. Xitoyning qadimgi tarixi bo'yicha xitoysunos tarixchi A.Maspero yirik asarlar yozgan. XX asrning 50-yillarida G.Billensten "Xan jamiyatining siyosiy va ijtimoiy tarixi haqida" yozgan tarixchidir.

XX asrning 30–50-yillarida Go-Mo-jo, Xu You-syuanch, Yan Kuanya, Szyan Bo-szyanya, Xe Chan-syunya kabi xitoylek tarixchilar Shan-In, Chjao va Xan sulolasiga bag'ishlangan ko'plab asarlar yaratdilar.

Yaponiyada ham qadimgi Xitoy tarixiga qiziqish ancha ilgari boshlangan edi. XX asr boshlarida yapon tarixchisi Xayasi Taysuke birinchilardan bo'lib tosh, yog'och, suyak va boshqa narsalarga yo-zilgan fol yozuvlariga tarixiy manba sifatida qiziqkan. Qadimgi Xitoy tarixi bo'yicha mashhur yapon tarixchisi Kaydzuka Sigekining tarixiy asarları esa Xitoyda ilk davlatning vujudga kelishi va yuksalishiga bag'ishlangan. Yaponlarning bir qancha yirik tarixchilari, shu jumladan Moriya Mitsuo Xan davrida ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari ustida tadqiqot olib borgan.

XX asrning so'nggi o'nyilliklarida Amerika Qo'shma Shtatlarida ham qadimgi Xitoy tarixiga qiziqish kuchaydi. Qadimgi Xitoy tarixi bilan ko'proq AQShda yashagan xitoylek olimlar shug'ullan-gan.

XX asrning 60-yillarida AQShda “Qadimgi Xitoy tarixini o’rganish jamiyatii” tuziladi. 1975-yildan boshlab esa “Early China” jurnali chiqa boshlaydi.

Sobiq sovet ittifoqi tarixshunosligida Qadimgi Xitoy tarixi uch tarixiy davrga bo’linadi.

Ulardan birinchisi XX asrning 20-yillari oxiri 30-yillarning boshi. Mazkur davrda qadimgi Xitoy tarixi haqida M.P.Jakov, E.S.Iolk, M.D.Kokin, G.K.Papayan kabi tadqiqotchilar tomonidan ilmiy maqolalar va monografik tadqiqotlar yozilib, chop etildi.

Ikkinchi davr 40–50-yillarni o’z ichiga oladi. Bu davrda L.V.Simonovskaya, L.I.Duman, V.V.Struve, V.I.Avdiyev va boshqalarning Qadimgi Xitoy tarixiga oid qator maqolalari va universitet talabalari uchun yozilgan darsliklari nashr etildi.

Uchinchi davr esa 60-yillardan boshlanib, bu davrda qadimgi Xitoy tarixini o’rganishning yangi bosqichi boshlandi.

Bu davrda sobiq ittifoqda L.S.Vasilyev, S.P.Sinitsin, M.V.Kryukov, M.V.Safronov, N.N.Cheboksarov, L.S.Perelomov, V.I.Kuzishin, V.M.Shteyn, R.V.Vyatkin, V.S.Taskin, Y.L.Krolya kabi yirik tarixchilar, tarjimonlar qadimgi Xitoy tarixi haqida ko’plab maqola va monografiyalar yaratdilar.

Xitoy Osiyogina emas, butunjahon madaniyati taraqqiysiga katta hissa qo’shgan mamlakat hisoblanadi. Xilma-xil tabiiy sharoitga va turli manbalarga boy Xitoy tarixchilarning ulug’, ko’p millionli xitoy xalqining ko’p asrlik tarixini atroflicha o’rganishi imkon beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, qadimgi Xitoy tarixinining urug’-aymoqchilik tuzumi xarobalari ustida eng qadimgi quzdorlik jamiyati va mustabid davlat paydo bo’layotgan paytdan boshlab ilk Xitoy madaniyatiga asos solindi. Bu jihatdan ahamiyatlisi shuki, qadimgi Xitoy davlati tashkil topgan davrda vujudga kelgan xitoy iyeroglif yozuvi tarixiy an’anaga ko’ra uzlusiz ekanligini saqlab qolgan.

Manbalar. Osiyoda tashkil topgan qator qadimgi davlatlar singari Xitoy hududida ham ko’plab arxeologik yodgorliklar, yozma manbalar, xalq og’zaki ijodi namunalari, epigrafik yozuvlari saqlanib qolgan.

Mazkur manbalar va yodgorliklar orasida m.av. II mingyillikda paydo bo'lib, o'zining asosiy xususiyatini saqlab qolayotgan qadimgi xitoy iyeroglisini yozuvidir. Shuni aytib o'itsh joizki, asrlar va ming yillar davomida ko'pgina xitoy iyerogliflarining shakl va ma'nolari o'zgartirilgan, ammo xitoylarlikning hozirgi yozuvi bilan qadimgi yozuvi o'rtaсидаги ма'lum genetik bog'lanish saqlangan. Shuningdek, hozirgi xitoy tilining leksika va grammatikasi qadimgi tildan rivojlanib kelgan.

Qadimgi xitoy matnlarining ba'zi asl nusxalari zamonamizgacha yetib kelgan. Bu matnlar suyak parchalariga, toshbaqa kosasiga yozilgan bo'lib, mazmuni munajjimga berilgan savol va qo'yilgan talablardan iborat. Ular xenan fil suyaklari deb ataladi. Munajjim bu antik davrda: go'yo xudoning irodasini biladigan, har qanday savolga tangri nomidan javob beradigan kohinlar va ularning ibodatxonasi, karomat qiluvchi (bashorat beruvchi) odam, shuningdek folnomma, fol kitobidir. Ular m.av. II mingyillikka Shan-In davriga mansubdir. Jez davriga mansub idishlardagi qisqa-qisqa hadyano-malar m.av. II mingyillik oxiri va I mingyillikning birinchi yar-midagi Chjou podsholigi davriga mansubdir. Kattaroq hajmdagi yozuvlari aksariyat hollarda yog'och taxtalarga, bambuk po'stlog'i, barglari yoki ipakka yozilgan. Bambukka yozilganlari bambuk voqeanolalari deb ataladi.

M.av. I asrda Xitoyda qog'oz ixtiro qilingan va xilma-xil buyumlarga yozilgan yozuvlari keyinchalik kengaytirilib, qaytadan tahrir qilinib, qog'ozga ko'chirilgan.

Hozir tarixchilar ixtiyorida qadimgi Xitoy tarixiga oid yilnomalar mavjud. Ularning xronologiyasini aniqlash uchun tayanch nuqta bor. Bambuk voqeanolalarida m.av. 776-yilda quyosh tutilishi ko'rsatilgan sana m.av. XVIII–XIII asrda yashagan Shan-In sulo-lasiga mansub podsholarning ro'yxati va boshqa bir qancha qimatli tarixiy ma'lumotlar saqlangan.

Xitoy o'lkalaridan biri Lu podsholigining yilnomasini ifodalovchi "Chun-Syu"—"Ko'klam va kuz" asari yaratilgan bo'lib, naqlarga ko'ra uning muallifi mashhur xitoy faylasufi Konfutsiy bo'lib, u m.av. VI asrda yashab ijod etgan.

Qadimgi Xitoy tarixini o‘rganishda m.av. II–I asrda yashagan Sima Syan “Shi-szin” – “Qo‘schiqlar kitobi”, “Shu-szin” – “Tarix kitobi” (“Hujjatlar kitobi”) muhim ahamiyatga egadir.

2-§. Qadimgi Shan-In davlati

Qadimgi Xitoyda ilk davlatlar vujudga kelishining shart-sharoitlari. Ma’lumki, Xitoyning sharqiy qismidagi qulay tabiiy geografik muhit mazkur hududda ancha erta termachilikdan dehqonchilikka, ovchilikdan chorvachilikka o‘tishga, nihoyat hunarmandchilik vujudga kelib rivoj topishiga shart-sharoit yaratdi. Xo‘jalikning bu uch tarmog‘i m.av. IV–II mingyilliklarda asta-sekin rivoj topgan.

Xuanxe, Yanszi va boshqa daryo hamda soy bo‘ylarida yashagan ziroatchi qabilalar dastlab ziroatchilikning motiga dehqonchiligi bilan shug‘ullanib, bug‘doy, arpa, sholi, tariq, kunjut va boshqa dukkakli o‘simliklar ekip parvarish qilganlar. Chorvada qo‘y, echki, cho‘chqa va yirik shoxli qoramol asraganlar. Ular tosh va jezdan har turli mehnat qurollari yasab ishlatganlar. Keyinchalik esa hunarmand-dehqonlar yog‘ochdan omoch yasab motiga dehqonchiligidan omoch dehqonchiligiga o‘tgan. Omochga ulov qo‘shib yer haydab, ekin ekish mehnat unumdorligini bir necha hissa oshirgan.

Bu davrda chorvachilik va hunarmandchilik rivoj topgan. Hududda mehnatning birinchi buyuk ijtimoiy bo‘linishi sodir bo‘lgan. Chorvachilik dehqonchilikdan ajralib chiqqan, savdo-sotiq ham rivoj topgan. Mazkur davrga kelib odamlar orasida xususiy mulk, mulkiy tengsizlik, tabaqlanish shakllanib, Qadimgi Xitoya ilk davlatning vujudga kelishi uchun shart – sharoit paydo bo‘lgan.

Shan-In davlati. Shan-In Xitoydagagi eng qadimgi davlatlardan biridir. M.av. III mingyillikda Xitoydagagi qabilalar tarqoq yashar edilar. Xo‘jalikning asta-sekinlik bilan rivojlanishi natijasida qabilalar birlasha boshlagan. M.av. II mingyillik boshlariga kelib Sya xonadoniga mansub kishilar qabilalarni birlashtirib, Sharqiy Xitoya davlat barpo etganlar. Sya xonadoniga mansub podsho-

lar kuchayib, boshqa qabilalarini o'zlariga itoat ettirganlar. Sya sulolasining so'nggi podshosi boshqa qabilalar ustidan zulmni kuchaytirgan. Shu davrda Xuanxe sohillariga ko'chib kelgan Shan qabilasi kuchayib, qattiq janglardan so'ng syalarni yengib ularni o'zlariga itoat ettiradi. Ular Xuanxe daryosi havzasining katta qismini egallaydi.

M. av. XVIII asrda Chen Tan degan kishi davlat tuzib, uni o'z qabilasi **Shan** nomi bilan ataydi. U yangi sulolaning asoschisi bo'lgan.

M. av. XVIII asrdan boshlab sulola Shan-In deb atala boshlagan. Bu davlatning poytaxti **Shan** shahri bo'lgan. U-Din degan podsho davrida Shan-In davlati kuchayib, atrofdagi hududlarni bosib oladi Ammo XIII asr oxiri va XII asr boshlaridan boshlab Shan-In davlati kuchsizlanib qoladi. Bundan foydalangan qo'shni qabilalar birin-ketin Shan-Inga hujum boshlaydi va uning yerlarini bosib oladi.

Shan-In davlatining xo'jaligi. Shan-In podsholigi davrida xo'jalik ilgarigiga qaraganda ancha rivojlangan edi. Xitoyda ilk dehqonchilik jilg'a, soy etaklari va daryo bo'yalarida liman va qayr asosida shakllangan. Mazkur davr mobaynida mehnat qurollari takomillashgan. Shu bois mehnat unumdorligi oshgan. Keyinchalik mehnat qurollarining takomillashuvi tufayli sug'orma dehqonchilik ancha taraqqiy etgan. Odamlar daryolarga to'g'on, dambalar qurib, suv omborlari barpo etishgan. Kanallar qazib ekinzorlarni sug'orishgan. Xitoy dehqonlari tariq, sholi, arpa, bug'doy, choy va boshqa donli ekinlar ekkanlar. Ular sabzavotchilik va bog'dorchilik bilan ham shug'ullangan. Tut ekib, ipak qurti boqqanlar. Ipak qurti pillasidan ipak tolalari olganlar. Xitoyliklar ipak qurti boqish va ipakechilikning asoschisi hisoblanadilar. Xitoyda yaylovlar serob bo'lGANI uchun u yerlarda qoramol, qo'y, echki va cho'chqa ham boqqanlar. Ho'kizlardan ish kuchi sifatida foydalanilgan. Qo'sh ho'kizga temir tishli omoch qo'shib yer haydaganlar, dalalarga ishloq beriganlar.

Shan-In davrida Xitoyda miskarlik, kulolchilik, to'qimachilik ancha rivojlangan. Kulolchilikda qo'l charxi, to'qimachilikda esa to'qimachilik dastgohi ishlataligan. Ular ipak, jun va zig'ir tolalari-

dan ip yigirib ajoyib mato va gazlamalar to‘qiganlar, ajoyib liboslar tikib kiyganlar.

Xitoy ustalari tosh, yog‘och, loy va xom g‘ishtdan saroylar, ibo-datxonalar, uylar va devorlar qurishgan. O‘sha davrda xitoyliklar savdoga ham katta ahamiyat bergen. Xitoydan tashqariga ipak, jun mahsulotlari, qurol-yarog‘ va boshqa buyumlar chiqarilgan. Chet mamlakatlardan esa jun. teri, qimmatbaho toshlar keltirilgan. Janubdan, ya`ni Yanszi havzasidan esa mis va qalay keltirilgan.

Xitoya dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo sotiqning rivojlanishi tabaqlanishni yanada kuchaytirgan. Odamlar asta-sekin boy-badavlat, o‘rtahol va kambag‘al kishilarga ajrala boshlaganlar. Urushda asir tushganlar va qarzdorlar qullarga aylan-tirilgan.

Shunday qilib, m.av. XVIII–XIII asrlarda Xitoyda dastlabki quldorlik davlati tashkil topgan. Bu davlat m. av. XIII asrgacha yashab, keyinchalik o‘z o‘rnini Chjou podsholigiga bo‘shatib bergen.

3-§. Chjou podsholigi

Chjoular va ularning mashg‘ulotlari. Podsho U-Din vaftidan keyin Shan-In davlati kuchsizlana boshlaydi. Shan-Inga qaram bo‘lgan qabilalar mustaqil bo‘lib oladi. Shunday qabilalardan biri Xuanxe daryosining irmog‘i Vey daryosi bo‘ylarida yashagan jangovar chjou qabilalari edi. Ular asosan chorvachilik, qisman dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq bilan shug‘ullanib hayot kechirgan. Shan-In davlati kuchaygan vaqtlarida chjoular unga tobe bo‘lib, boj-xiroj to‘lar edilar. Shan-In davlati kuchsizlanganligidan foydalangan **chjou** qabila sardorlari Shan-Inga tez-tez hujumlar uyushtirib, shahar va qishloqlarini talab qaytganlar. Chjou qabilalari xo‘jalik va madaniyat jihatidan Shan-Inlardan ancha orqada edilar.

Chjou podsholigining tashkil topishi. M. av. XIII asr oxiri–XII asr boshlarida chjou qabilalari hukmdor Chan – “**Ma‘rifat-parvar hukmdor**” qo‘l ostida birlashib kuchaygan.

M. av. 1027-yili Channing o‘g‘li **U-Van** boshchiligidagi katta qo‘sishin Shan-Inga bostirib kirgan. Shiddatli janglardan so‘ng U-Van qo‘sishinlari podsho Shou Sin boshliq Shan-In qo‘sishinlari ni tor-mor keltirgan. Bu mag‘lubiyatdan so‘ng podsho Shou Sin o‘zini o‘zi o‘ldirgan. Shundan keyin Shan-In davlati qulagan va Xitoyda Chjou podsholigi tashkil topgan. Xitoy tarixida bu podsholik G‘arbiy va Sharqi Chjou podsholiklari davriga bo‘linadi.

G‘arbiy Chjou podsholigi davri m.av. XII–VIII asrlarni o‘z ichiga oladi. G‘arbiy Chjou davlatining chegarasi g‘arbda Vey daryosidan sharqda Sariq dengiz sohiligacha bo‘lgan yerlarni egallagan edi. Uning poytaxti Vey daryosi bo‘yidagi Xao shahri edi. G‘arbiy Chjou podsholari qo‘sni qabilalar, xususan junlar bilan janglar olib borgan. Chjou podsholari mamlakatni viloyatlarga bo‘lib, ularni qarindoshlari, lashkarboshilar va amaldorlariga bo‘lib bergen. Viloyat hokimlari boyib ketgach podshoga itoat etmay qo‘ygan. Bu hol podsho hokimiyati kuchsizlanishiga olib kelgan.

Sharqi Chjou podsholigi. M. av. VIII asr boshlarida Xuanxe daryosining yuqori oqimida yashagan ko‘chmanchi jun qabilalari Chjou podsholigi yerlariga bostirib kira boshlaydilar. Yu-Van podsholigi davrida (m.av. 788–771) chjoular yarim ko‘chmanchi junlar bilan shiddatli janglar olib borgan.

M.av. 770-yili podsho Pin-Van junlar hujumidan bezor bo‘lib podsholik poytaxtini Xaodan Loyanga, ya‘ni Sharqqa ko‘chiradi. Shu tufayli podsholik Sharqi Chjou nomi bilan atalgan. Sharqi Chjou podsholigi davri m.av. VIII–III asrlar orasidagi davrni o‘z ichiga oladi.

Sharqi Chjou podsholari g‘arb tomonda jun, shimolda di, xunn qabilalari va boshqa qabilalar bilan uzoq vaqt urushlar olib borgan.

M.av. 636-yili Chjou hukmdorlaridan Syan-Van di qabilalari bilan bo‘lgan jangda mag‘lubiyatga uchragan.

Syan-Van podsholik poytaxti Loyanni tashlab chiqishga majbur bo‘lgan.

M.av. VII–IV asrlarda Sharqi Chjou mayda podsholiklarga bo‘linib keta boshlagan. Bu podsholiklarning yiriklari **U**, **Chu**,

Si, Szya va Yuz kabi davlatlar edi. Bu Xitoy tarixida “Chjancho” – “Adovatlashuvchi podsholiklar” davri deb atalgan. Bu vaqtida ular Sharqiy Xitoyda hukmronlik qilish uchun uzoq yillar davomida o‘zaro kurash olib borganlar. Uzlusiz jang-u jadallar, qonli urushlar natijasida goh Szin, Yuz, goh Chu, U, Si va Sinlar g‘olib chiqqan yoki mag‘lubiyatga uchragan. Uzoq davom etgan urushlar va xalq g‘alayonlari tufayli M.av. I asr oxirlari–III asr boshlariga kelib Chjou podsholigi ham kuchsizlanib barham topgan.

Chjou podsholigi davrida xo‘jalik. Chjou podsholigi davrida xo‘jalik ilgarigiga nisbatan ancha rivojlangan. Jez, ayniqsa temirdan omoch tishi, belkurak va boshqa qishloq xo‘jaligi asboblari ning kashf etilishi sug‘orma dehqonchilikni yanada rivojlanishiga olib kelgan. Daryo bo‘ylaridagi serunum yerkirada kanallar orqali suv chiqarilgan, suv omborlari qurilgan. Hosildorlikni oshirish uchun almashlab ekish joriy qilingan. Har bir tomorqa uch bo‘lakka bo‘lingan. Tomorqaning ikki bo‘lagiga ekin ekilib, uchinchisi haydab, shudgor qilib qo‘yilgan. Har uchala yer bo‘lagining o‘z nomi bo‘lib, ularning birinchisi “**yangi**”, ikkinchisi “**yangi yer**”, uchinchisi “**uch yoshli dala**” deb atalgan. Yerlar o‘g‘itlanib, dehqonlar kuzgi va bahorgi ekinlar ekkanlar. Dehqonlar bog‘dorchilik, sholikorlik, sabzavotchilik va g‘allachilik bilan shug‘ullanganlar. Mamlakatning katta maydonlarida tutzorlar tashkil etib, ipak qurti boqilib, ipakchilikka katta e’tibor berilgan. Davlat ham dehqonchilikni rivojlantirishga katta ahamiyat bergen. Mamlakatning tog‘li va dashtli viloyatlaridagi yaylovlarda chorvachilik rivojlanigan. Maxsus amaldorlar chorvachilikni rivojlantirish bilan shug‘ullanganlar, yaylovlarda va shaxsiy xo‘jaliklarda qoramol, qo‘y, echki, cho‘chqa va ot boqilgan. Tibet kabi baland tog‘lik hududdarda qoramolning alohida zoti –qo‘tos boqilgan.

Podsholikda mahalliy yilqichilikka alohida e’tibor berilgan. Chunki podsholikning qo‘shini uchun ko‘p miqdorda salt otlari kerak bo‘lgan.

Podshoning yilqilarini boqish uchun alohida o‘tloqlari bo‘lgan. Chorva aholini oziq-ovqat va ishchi kuchi bilan ta’minlagan.


Chjou podsholigi davrida hunarmandchilikka katta e'tibor berilgan. U yerda to'qimachilik, kulolchilik, qurolsozlik, zargarlik, ko'nchilik, uysozlik, tunukasozlik, temirchilik va hunarmandchilikning boshqa sohalari taraqqiy etgan edi.

Dehqonchilik, chovachilik, ayniqsa hunarmandchilikning rivojlanishi savdo-sotiqning ravnaqiga yo'l ochgan. Savdoning rivojlanishi munosabati bilan savdogarlar va savdogarchilik kelib chiqqan va rivoj topgan. Bozorlar bino qilinib, ular alohida rastalarga ajratilgan. Masalan, g'alla sotuvchilar, qurol sotuvchilar, tunukasozlar, kulolchilik va gazlama sotuvchilar rastasi alohida-alohida bo'lgan. Bozorda sotiladigan mollarning sifati va narxi davlat tomonidan chiqarilgan farmon asosida qattiq nazorat qilingan. Xiyonatchi, qallob va ko'zbo'yamachilar qattiq jazolangan.

Bozorlardagi tartibni bozor boshliqlari o'z xizmatchilari bilan hamisha kuzatib turganlar. Bozorda mol o'lchab beriladigan taroziilar ham tekshirib turilgan. Bozor boshliqlarining idorasini bozor maydonining o'rtaida bo'lgan. Chjou podsholigi davrida savdogarlar uzoq-yaqin mamlakatlar bilan suv va quruqlik yo'llari orqali qizg'in savdo-sotiq ishlarini olib borganlar. Mamlakat ichkarisidagi viloyatlar, qishloqlar o'rtaida ichki bozor ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan.

4-§. Sin podsholigi

Xitoyda Sin podsholigining tashkil topishi. "Adovatlashuvchi podsholiklar" davrida olib borilgan urushlar xo'jalikning hamma sohalariga katta zarar, mamlakat aholisi, xususan mehnatkashlar boshiga og'ir kulfatlar keltirgan. Mamlakatdagi o'zaro urushlar va tushkunlikdan Xitoy atrofida yashagan ko'chmanchi qabilalar foydalanganlar. Bu davrda Xitoy shinolida yashovchi qabilalarining talonchilik urushlari kuchaygan. M. av. IV asrning birinchi yarmida Xitoyni yagona bir davlatga birlashtirish g'oyasi tug'ilgan. Xitoydagi Chu va Sin podsholiklari yagona davlat tuzish uchun kurash boshlaganlar. Bu kurashda Sin podsholigi g'olib chiqqan.



Sin podsholigi Xuanxe daryosining irmoqlaridan biri Vey daryosi havzasida joylashgan bo'lib, podsholikning poytaxti Sanyan shahri Vey daryosining chap sohilida joylashgan edi. M. av. IV asr o'rtalariga kelib, podsho Sao-chun davrida (M.av. 361–338-yillar) Sin podsholigi birmuncha kuchayadi

Shan-Yan islohoti va uning oqibatlari. Podsho Sao-chun o'z amaldori Shan-Yanga xo'jalik va mamlakatni boshqarish sohasida islohotlar loyihasini

ishlab chiqishini topshiradi. Shan-Yan bu islohot loyihasini ishlab chiqadi. Islohotga ko'ra, yerni istagancha xususiy mulk qilib olish mumkin. Yerni erkin sotish va sotib olishga ruxsat berilgan. Ilgari hosildan olinadigan soliq yer solig'i bilan almashtirilgan.

Davlatni boshqarishda ham qator ishlar qilingan. Butun podsholik 36 viloyatga bo'linib, uni podsho tayin etgan amaldorlar idora qilganlar. Eski amaldorlar ishlaridan chetlashtirilgan va mamlakatda kuchli nazorat o'rnatilgan. Podsholik maktab va maorif ishlari ga ham katta e'tibor berib bu sohada ham islohotlar o'tkazilgan. Sin qo'shinlari qayta tuzilib mustahkamlangan. Islohot natijalari podsho hokimiyatini ancha kuchaytirgan. Ammo Shan-Yan islohoti eski zodagon, xalq ommasi, konfutsiychi oqim namoyandalarini va qullarning qarshiligidagi uchragan. Podsho Sao-Chun vafotidan keyin islohotchi Shan-Yan qatl etilgan.

Sin podsholigining kuchayishi. M.av. 246-yili Sin podsholigi taxtiga 13 yoshli In Chjen (m.av. 246–210) o'tiradi. U qo'shni

podsholiklarni o‘z davlatiga qo‘sib olish uchun katta tayyorgarlik ko‘radi. Qo‘sishn saflarini mustahkamlagach, m.av. 230-yili Xan podsholigi qo‘sinchilari qat’iy zarba berib uni bosib oladi. M.av. 228–221-yillar orasida olib borilgan shiddatli, g‘olibona urushlar natijasida Sharqiy Xitoydagi Chjao, Vey, Chu, Si, Yan podsholiklarning qo‘sinchilari tor-mor etiladi. M.av. 221-yili yuqorida nomlari keltirilgan davlatlar Sin podsholigiga qo‘sib olingach, Sharqiy Xitoyni birlashtirish jarayoni ham nihoyasiga yetadi. Shu tariqa Xitoya Sin sultanati qaror topadi. In Chjen sultanat taxtiga o‘tirar ekan, o‘zini “**Sin Shi Xuandi**” – Sin sultanating birinchi podshosi deb e’lon qiladi. In Chjen shimolda xunnlar bilan zafarli urushlar olib borib, ularni Xitoy chegaralaridan nariga chekintirgan. Sin qo‘sinchilari Yanszi daryosi quyi qismining janubidagi Yuz podsholigi bilan g‘olibona urushlar olib borib, uni ham Sin ga itoat ettirgan. Sin Shi Xuandi mamlakatni birlashtirgach, podsholikni islohotchi Shan-Yan tuzgan qonun-qoidalarga amal qilib idora etgan. U mamlakatni 36 viloyatga bo‘lib, ularni boshqarishni o‘z amaldorlari zimmasiga yuklagan. Eski zodagon-aslzodalar esa davlat ishidan chetlatilgan. Chunki ular eskilikning jonkuyar tarafдорлари, yangilikning ashaddiy dushmani edi.

Sin Shi Xuandi buyrug‘i bilan yangilikning dushmani hisoblangan 460 konfutsiychi olim tiriklayin yerga ko‘mdirilgan. Boshqa tartiblar hukm surgan zamonni eslatadigan yoki maqtab yozilgan asarlar, solnomalar kuydirilgan. Bularning barchasi keng xalq ommasi orasida Sin Shi Xuandiga nisbatan nafrat uyg‘otgan.

Buyuk Xitoy devorining qurilishi. Qadimgi tarixchilarining, xususan m.av. II asrda yashagan Xitoy tarixchisi Sim-Syanning berган ма‘лумотларига ко‘ра, m.av. VII–VI asrlarda Markaziy Osiyo va unga tutash bo‘lgan ulkan hududda jun, dunxu, xunn (syunnu), yuechji va boshqa jangari ko‘chmanchi qabilalar yashagan. Ayniqsa, junlar va xunnlar xitoyliklarning ashaddiy dushmanlari edi.

Asrlar davomida junlar ham, xunnlar ham ba‘zan ular birlashib Xitoy podsholiklari ustiga bir emas, bir necha marta bostirib kirib, Xitoy shahar va qishloqlarini vayron etib, ekinzor va bog‘larni pay-hon qilganlar. Ular aholini qirg‘in barot-qilib, ko‘plarini asir qilib

olib ketar edilar. Xitoy podsholari mamlakatni ko‘chmanchilar humumidan himoya qilish maqsadida “Buyuk Xitoy devori”ni qurdirganlar. Ma’lumki, Buyuk Xitoy devorining qurilishi m. av. IV asrlarda boshlangan edi. Sin Shi Xuandi Buyuk Xitoy devori qurilishiga juda katta e’tibor bergen. Solnomachilarning bergen ma’lumotlariiga qaraganda, devor qurilishi ishiga sarkarda Min Tyan qo’shinidan uch yuz ming askar jalb qilingan. Devor qurilishida ikki millionga yaqin harbiy askar, qul va mahbuslar, shuningdek oddiy dehqon va hunarmandlar jami 2300000 kishi ishlatilgan. Devor Lyaodun qo’ltig‘i qirg’og’idagi Shanxayguan shahridan boshlangan. Sharqiy Xitoyning shimol tomonidagi tog’, tog’ yonbag’ri, tekisliklarni oralab ikki joyda Xuanxe sohillariga kelib taqalgan. Devor Xu-anxening chap sohilidan g’arb tomon yo’nalib Alashon dashtining janubi, kichik yuyechjilar yashaydigan tog’larning shirmoliy yonbag’ri bilan davom ettirilib, Xitoyning mashhur Dunxuan harbiy qal’a-istehkomiga borib tutashadi. Devorning umumiy uzunligi 4000 km bo’lib, dunyoda qurilgan hamma devorlardan uzun va kattadir. Ba’zi adabiyotlarda uning uzunligi 5000–6000 km deb yozilgan. Balandligi 10 metrdan ziyod, qalinligi 5,5–7 metr bo’lgan. Devor tosh, g’isht, loy, paxsa va maxsus qotishmalardan qurilgan. Devor bo’ylab har 60–100 metrda mustahkam mudofaa minoralari bino qilingan. Devor va istehkomlarning yuqori qismi kungurador bezaklar bilan jihozlangan. Ayni paytda devorlarning yuqori qismida kamondan dushmanlarga o‘q otish uchun maxsus teshiklar – shinaklar qoldirilgan.

Devor usti shunchalar qalin bo’lganki, unda besh qator otliq askar yonma-yon yura olgan. “Buyuk Xitoy devori” aslida harbiy mudofaa maqsadlarida qurilgan. Lekin undan savdo-sotiq maqsadlarini amalga oshirish uchun ham foydalanilgan. “Saddi Chiniy” dunyodagi eng ulkan, eng katta devor bo’lgani uchun u “Buyuk Xitoy devori” deb ataladi. Devor bundan 2400–2200 yillar ilgari qurib bitkazilganligiga qaramay uning ko‘p qismi hozirgacha yaxshi saqlanib qolgan. Devor hozir ham uni ilgari ko’rmagan xitoyliklarni va xorijiy sayyohlarni hayratga solib kelmoqda.

Sin podsholigining yemirilishi va tugatilishi. Sin podsholigi davridagi urushlar, “Buyuk Xitoy devori” qurilishiga, podsho saroysi va amaldorlarining maishatiga behisob boyliklar sarflangan. Bu xarajatlarning butun og’irligi dehqonlar va mehnatkashlar ommasi zimmasiga tushgan. Buning ustiga mehnatkashlardan har xil bahonalar bilan ko‘plab soliq yig‘ish va majburiyatlar bajarish tablab etilgan.

Bu hol oddiy xalq orasida Sin Shi Xuandiga qarshi kuchli norozilik uyg‘otgan. Eski zodagon, o‘ziga to‘q hunarmand, mayda savdogar va ziylilar ham podsho siyosatidan norozi edilar. Podsho siyosatiga qarshi guruhi Sin Shi Xuandiga bir necha bor suiqasd uyuşhtirganlar. Mamlakat miqyosida yashirin ravishda katta qo‘zg‘elonga tayyorgarlik boshlanadi. M. av. 210-yili Sin Shi Xuandi og‘ir toliqishdan so‘ng 48 yoshida vafot etadi. Podsho vafotidan biroz keyin, m.av. 209-yili podsholikning turli joylarida qo‘zg‘olonlar boshlanib ketadi.

5-§. Xan podsholigi

Xan podsholigining tashkil topishi. Sin Shi Xuandi vafotidan keyin sultanatda norozilik harakatlari kuchaydi. Shunday harakatlardan eng kuchlisi Chu podsholigida ham boshlangan. Ular “Ulug‘ Chu qayta tiklanmog‘i kerak” shiori ostida kurash boshlaganlar. Qo‘zg‘olonchilar birin-ketin Chu shaharlarini bosib olib, Sin amaldorlaridan qattiq o‘ch ola boshlaydilar. Chen shahri bosib olingach, jamoa oqsoqollari qo‘zg‘olon rahbarlaridan biri Chen Shenni o‘zlariga podsho qilib ko‘taradilar. Janglarning birida Chen Shen halok bo‘ladi. Eski aslzodalardan bo‘lgan Syan Yuy Chu qo‘zg‘olonchilar qo‘shining qo‘mondoni bo‘lib oladi. Syan Yuy o‘zini “**Chu hokimi**” – “**Chu vani**” deb e‘lon qiladi. Bunday qo‘zg‘olon Sin podsholigida ham boshlangan. Bu yerdagi qo‘zg‘olonga qishloq oqsoqoli **Lyu Ban** boshchilik qiladi. M. av. 207-yilda Sanan shahri ni ishg‘ol qilgan qo‘zg‘olonchilar, m. avv. 206-yili qo‘zg‘olon rabbari Lyu Banni “**Xan hokimi**” – “**Xan vani**” deb e‘lon qiladilar. Qattiq janglar natijasida har ikki tomondan ham ko‘p odam o‘lgan

yarador bo'lgan. Sin Shi Xuandining o'g'li qo'zg' olonchilar qo'liga asir tushib, o'ldirilgan. Shu davr ichida Xan sultanatini egallash uchun Lyu Ban bilan Syan Yuy o'rtasida qonli janglar boshlanadi. Nihoyat, m. av. 202-yil yanvarda Gaysya yonidagi jangda Lyu Ban qo'shinlari Syan Yuy qo'shinlari ustidan g'alaba qozonadi. Shu bilan Xitoyda Sin podsholigi tugatilib, Xan sultanati o'rnatiladi.

Xan podsholigining kuchayishi. Lyu Ban Xan taxtiga o'tirgach, o'zini Gao-Szu deb atashlarini buyuradi. U o'z boshqaruving dastlabki yillarida xalqqa ko'p yengilliklar beradi. Keyincharlik esa u Sinlarning boshqaruv tizimidan foydalanadi. U Xanga itoat etmagan podsholiklar bilan qattiq kurash olib boradi. Shuni ta'kidlash kerakki, Xan podsholigi o'z boshidan Katta Xan sulolasi (m. av. 206, milodiy 25-yillar) va Kichik Xan sulolasi davrini kechirgan.

Xan podshosi Szin-di davrida yetti hokimlikning birlashgan 200 minglik qo'shini sultanat poytaxti Sanyanga hujum boshlaydi. Ammo „Yetti hokim qo'zg'oloni” poytaxt ostonalarida tor-mor etiladi. “Yetti hokim”lar amaldorlarini ishdan olib, mustaqil qo'shin tutishdan mahrum etadi. “Buyuk ipak yo'l”ning markaziy qismi O'rta Osiyodan o'tgan edi. Bu yo'l O'rta Osiyo xalqlarining jahon xalqlari bilan madaniy va iqtisodiy aloqalari tarixida alohida ahamiyat kasb etgan.

Xan podsholigining istilochilik yurishlari. Xan podsholigi tashkil topib, o'zini tiklab olgach, podsholar qo'shni mamlakatlarni istilo qilishga kirishganlar. M.av. 200-yilda Lyu Ban-Gao-Szu o'z qo'shinlari bilan xunnlar ustiga bostirib borgan. Uining qo'shinlari xunnlardan mag'lubiyatga uchragan. Gao-Szuning o'zi asirga tushib, asirlikdan mo'jiza tufayli qochib qutulgan. Xan sultanating eng kuchaygan davri U-Di podsholik qilgan m.av. 140–87-yillardir. Bu davr Xitoy tarixida “Oltin asr” nomi bilan mashhur. U-Di davrida mahalliy aslzodalarning huquqlari biroz cheklanib, sultanat amaldorlari ustidan nazorat kuchaytirilgan. Xunnlarga qarshi kurashda o'ziga ittifoqchilar topish uchun Xan podshosi U-Di m. av. 138-yili Chjan Syan boshliq o'z elchilarini O'rta Osiyo va Hindistonga yuborgan. Chjan Syan m. av. 138–125-yillarda

Qang*, Yuechji, Kushon, Dovon va Baqtriya hukmdorlari huzurida bo'lgan. U bu davlat rahbarlarini Xitoy bilan ittifoq bo'lib xunnlarga qarshi kurashga ko'ndira olmagan. Ammo u O'rta Osiyo va Hindiston xalqlari haqida juda ko'p ma'lumot to'plab kelgan. Shu davrdan boshlab Xitoyning O'rta Osiyo bilan aloqasi kuchayib, "**Buyuk ipak yo'li**" ga asos solingan. M.av. 115-yilda Chjan Syan o'zi kashf etgan bu yo'ldan O'rta Osiyoga yana bir bor kelgan. U Issiqko'l sohilida qarorgoh qurib, O'rta Osiyo, Parfiya, Kushonlar mamlakati va Hindistonga o'z ayg'oqchilarini yuborgan. Ayg'oqchilar esa Chjan Syanga bu mamlakatlar haqida ma'lumotlar yuborib turgan.

U-Di ko'p sonli otliq qo'shinga tayanib m. av. 127–119-yillardagi bo'lgan urushlarda xunnlarni yengib, dastlabki g'alabaga erishgan. U-Di davrida Xan qo'shnulari janubi-sharqiy Xitoydagi ko'p viloyatlarni bosib olgan.

M.av. 130–111-yillar orasida U-Di janubi-g'arbdagi **varvarlar** ustiga ikki marta qo'shin yuborgan. Xan qo'shnulari Hindistonga yo'l topolmasalar ham Yanszi daryosining yuqori oqimidagi joylar podsholikka qo'shib olingan.

M.av. 109-yili Xan qo'shnulari Koreya yarimoroliga ham bostirib kirib, Choson mamlakatini qo'shib olgan. M.av. 104–101-yili U-Di qo'shnulari Dovon mamlakatiga o'tib, uning shaharlardan biri Ershini qamal qilgan. Xitoyliklar Dovondan "*qon bilan terlaydigan osmon otlarini*" olib qaytganlar.

M.av. II asr o'rtalaridan I asr boshlarigacha bo'lgan davr ichida Xan qo'shnulari zafarli yurishlar uyushtirib sultanat chegaralarini ancha kengaytirganlar.

U-Di davrida Xan podsholigi Sharqiy Osiyodagi eng kuchli davlatlardan biri bo'lib qolgan. Xitoya dehqonchilik, hunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotiq ancha taraqqiy etgan. Bu davrda Xitoy savdogarlari Turon, Janubi-Sharqiy Osiyo, Janubiy Osiyo va boshqa mamlakatlar bilan qizg'in savdo-sotiq ishlarini olib borganlar.

Buyuk ipak yo'li va uning Qadimgi Sharq xalqlarining siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy hayotidagi o'rni. Ma'lumki.

“Buyuk ipak yo‘li” Xitoy, O‘rta Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari o‘rtasidagi eng qadimgi, eng uzun karvon savdo yo‘llaridan biridir.

Bu yo‘l orqali Xitoydan Hindiston, O‘rta Osiyo, Kichik Osiyo, Kavkaz va Kavkazorti mamlakatlariga asosan ipak va ipak mahsulotlari yetkazilganligi sababli tarixda u “Buyuk ipak yo‘li” nomi bilan shuhrat topgan. “Buyuk ipak yo‘li” m.av. I mingyillikning oxiridan to milodiy XV asrgacha – suv yo‘llari qaror topguncha Sharqni G‘arb bilan bog‘lagan asosiy savdo yo‘li bo‘lib, Xitoy, Hindiston, O‘rta Osiyo, Eron, Yaqin Sharq hamda O‘rta dengiz mamlakatlari orasida savdo-sotiqlari madaniy aloqalarning rivojlanishida juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

“Buyuk ipak yo‘li” m.av. 138-yili Xitoy imperatori U-Di topshirig‘i bilan O‘rta Osiyoga yuborilgan Xitoy elchisi va sayyohi Chjan Syan tomonidan o‘rganiladi va uning sayohatnomasida tasvirlanadi. Buyuk ipak yo‘li Xitoydagagi Xuanxe daryosining o‘rta oqimida joylashgan Sian shahridan boshlanib, Lanchjou orqali Dunxuanga kelgan. Bu yerda u ikkiga ajralib biri shimoli-g‘arbga, ikkinchisi janubi-g‘arbga yo‘nalgan. Shimoliy yo‘l Turfan orqali Tarim vohasiga va bu yerdan Qoshg‘ar, Qizilsuv, Qorag‘ulja orqali Dovon – Farg‘ona vodiysiga borgan. U yerdan Xo‘jand, Zomin, Jizzax orqali So‘g‘dning markazi Samarqand va Marg‘iyona (Marv) ga yo‘nalgan.

Dunxuandan ajralgan shimoliy tarmoq Yettisuv – Ili daryosi vodiysi bilan Taroz orqali Isfijob(Sayram)ga yo‘nalgan. Yo‘l shu yerda ikkiga bo‘linib, bir tarmog‘i O‘tror orqali Sayhun (Sirdaryo) bilan Dashti Qipchoqning ichkarisiga qarab ketgan. Isfijobdan janubga yo‘nalgan tarmoq esa, Binket(Shosh)ga tomon yo‘nalgan. Binkentda yo‘l yana ikkiga ajralib, biri Xo‘jand tomon yo‘nalgan, Farg‘ona – Zomin yo‘liga kelib qo‘shilgan. Binkentdan chiqqan ikkinchi tarmoq janubi-g‘arbga yo‘nalib, Barket degan joyda Zomin – Samarqand yo‘liga borib qo‘shilgan. Janubiy yo‘l Xo‘jand, Yorkent va Pomir tizma tog‘lari orasidagi Vohandaryo vohasi orqali o‘tib, Baqtiryaning poytaxti Zariasp(Balx)ga borgan. Janubiy yo‘l Balxga Ishkoshim, Talikon, Xulm orqali kelgan. Xulmda esa yo‘l ikkiga ajralib, janubi-g‘arb tarmog‘i Hindiston tomon yo‘nalgan.

Balxdan yo‘lning bir tarmog‘i Termizga chiqib borib, Chag‘oni yonga tutashgan. Balxdan Termizga yo‘nalgan yo‘l u yerdan Nasafga, undan Buxoro tomon ketgan. Balxdan chiqqan yo‘l g‘arbgan yo‘nalib, Andxoyga kelib tutashgan. Andxoydan ikkiga ajralgan yo‘lning shimoliy tarmog‘i Nasafga borib taqalgan. Janubiy tarmoq esa Maymana, Marvirud, Marvga yo‘nalgan va u yerda shimoliy yo‘l bilan tutashgan. Marvdan “Buyuk ipak yo‘li” Parfiyaning povtaxti Niso, Eronning Gekatompil, Apaliya va Ekbataria (Ekbadan) shaharlari orqali Mesopotamiyaga borgan. U yerda Ktesifon va Bag‘dod shaharlaridan o‘tib, Dajla daryosining o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab shimolga yo‘nalgan va Nisibin hamda Antioxiya (Antiokiya) shaharlari orqali Damashqqa borgan. Damashqdan Tir shahri bilan Quddusga va Misrga yo‘nalgan “Buyuk ipak yo‘li” Buxoro – Forob – Amu yo‘nalishi bo‘ylab Amudaryo – Jayhunning chap sohili bo‘ylab Xorazmga, undan esa Itil daryosining Kaspiy deniziga quyilishi joyiga qarab ketgan.

“Buyuk ipak yo‘li” orqali Xitoydan tashqi savdo uchun ipak, ipak shoyi va boshqa buyumlar chiqarilgan. Xitoya esa har xil gazlama, gilam va paloslar, oyna, rangli ma’danlar, zeb-ziynat buyumlari, qimmatbahо toshlar, dorivorlar, dorivor o‘simpliklar olib borilgan. Shuningdek, Xitoya Dovon va Baqtriyadan ot va tuya, beda, g‘o‘zaning chigit va boshqa narsalar ham olib borilgan. “Buyuk ipak yo‘li” tufayli Xitoyning O‘rta Osiyo va Yaqin Sharq, shuningdek, Hindiston bilan savdo va elchilik aloqalari I – II asrdayoq kengayib borgan.

Xitoydan har yili katta savdo karvonlari elchilar bilan G‘arb mamlakatlariiga jo‘natilar va G‘arbdan turli-tuman mollar ortilgan karvonlar bilan elchilar kelar edi. Garchi Xitoy sayyohi Gan In 97 yil Fors qo‘ltig‘iga yetib borgan va makedoniyalik May Titsion 100-yili Langmodga yetib kelgan bo‘lsada, ammo “Buyuk ipak yo‘li” uzoqligi va sermashaqqatliligi sababli Xitoy G‘arb mamlakatlari bilan bevosita aloqa olib borishi mumkin bo‘lmagan. Shuning uchun ham “Buyuk ipak yo‘li” orqali olib borilgan savdo -elchilik aloqalarida osiyoliklar, ayniqsa so‘g‘dlar, baqtriyaliklar va eroniylar vositachilik vazifasini bajarganlar.

“Buyuk ipak yo‘li” Xitoydan III—VI asrlarda Hindistonga borib ziyorat qiluvchi rohiblar uchun X asrda Xitoy bilan Arab xalifaligi va Vizantiya o‘rtasidagi savdo va elchilik munosabatlарining kengayishi natijasida “Buyuk ipak yo‘li”ning xalqaro ahamiyati yana-da kuchaydi. XIII—XIV asrlarda “Buyuk ipak yo‘li” Mo‘g‘ullar imperiyasining chekka o‘lkalarini Mo‘g‘uliston bilan bog‘lashda muhim ahamiyat kasb etadi. XV asrda Buyuk geografik kashfiyolar natijasida dengiz savdo yo‘llarining ochilishi munosabati bilan “Buyuk Ipak yo‘li” o‘z ahamiyatini yo‘qota boshlaydi. Shunday bo‘lsa-da u O‘rta Osiyo. Xitoy va Kichik Osiyo xalqlari o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishida beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan.

6-§. Xan sultanatining zaiflashuvi va ommaviy harakatlar

Xan sultanatining zaiflashuvi. U-Di podsholigining oxiri va vafotidan so‘ng sultanat asta-sekin zaifasha boshlagan. Behisob urushlar, qo‘srimcha soliq va majburiyatlarning barcha og‘irligi dehqonlar, qullar va mehnatkash ommانing yelkasiga tushgan edi. Ayniqsa, jon boshi solig‘i oddiy xalq orasida dahshatli voqealar ni keltirib chiqargan. Qashshoqlar jon solig‘i miqdorini kamaytirish uchun yosh bolalari, keksa ota, ona, buvi va buvalarini o‘ldira boshlaydilar. Bu davrda qullar ham qattiq asoratga solingenan. Og‘ir ahvoldan mamlakat larzaga kelib qo‘zg‘olonlar boshlanish xavfi tug‘ilgan.

M.av. I asrning ikkinchi yarmida podsholikda ahvol shunday yomonlashganki, bundan podsho va hukmdor tabaqa vakillari dahshatga tushganlar. Ular ahvolni yaxshilash uchun mehnatkash aholiga va qullarga yon berib turli islohotlar o‘tkazishga majbur bo‘lganlar. Bu jihatdan Dun Chjun-shu va Van Man islohotlari diqqatga sazovordir. Islohotchi Dun Chjun-shu katta yer egalarini qoralagan. Tuz va temirga nisbatan davlatning yakka hokimligini bekor qilishni taklif etgan. Yana u qullikni bekor qilishni, soliqlarni, harbiy va ortiqcha mehnat majburiyatlarini kamaytirishni talab etgan. Milodiy 8-yildagi qo‘zg‘olon natijasida hokimiyat tepasiga kelgan Van Man ham bir qancha islohotlar bilan maydonga chiqqan.

Uning taklifiga ko'ra, yirik yer egalariga qarashli yerlar musodara qilinib "podsho yeri" deb e'lon qilingan. Yerlar qayta taqsimlangan yer va qullarni sotish va sotib olish to'xtatilgan. U qullarni "shaxsiy qaram kishilar" deb atashni buyurgan. Bu Xitoya da qulchilikni bekor qilish bo'yicha birinchi qadam edi. Van Man narx-navo, savdoni tartibga solish va soliqlarni kamaytirish haqida ham yaxshi fikrlar bildirgan. Ammo Dun Chjun-shu va Van Man islohotlari aslzodalarning qarshiligiga uchrab amalga oshmagan.

"Qizil qoshlilar" qo'zg'oloni. Milodiy birinchi asr boshlari da Xitoya qurg'oqchilik va chigirtka bosishi natijasida hosilsizlik sodir bo'lgan. Mamlakatda qimmatchilik, ochlik boshlangan, islohotlarni amalga oshirish esa to'xtab qolgan. Bu hol Xitoya ommaviy norozilik harakatlari boshlanishiga sabab bo'lgan. Bunday qo'zg'ololnarning biri 18-yili Shandunda boshlanib, unga Fan Chun degan kishi rahbarlik qilgan. Qo'zg'olonga Van Man islohotidan norozi bo'lgan aslzodalar va katta yer egalari ham qo'shilganlar. Qo'zg'olon rahbarlari o'z odamlarini podsho askarlaridan ajratish uchun qoshlarini qizil rangga bo'yatganlar. Shu tufayli bu qo'zg'oloni **"Qizil qoshlilar"** qo'zg'oloni nomini olgan edi. 22-yili Van Man qo'zg'olonchilar ustiga yuz ming kishilik qo'shin yuborgan. Hal qiluvchi jangda qo'zg'olonchilar podsho qo'shinganlari tor-mor etib, Xuanxe daryosining o'rta oqimidagi yerkarni ishg'ol qilganlar.

Shu vaqtida mamlakat janubida ham qo'zg'olon boshlangan. Ular o'zlarini **"Yashil o'rmon qo'shinganlari"** deb ataganlar. 23-yili Van Man qo'shinganlari bilan qo'zg'olonchilar o'rtasida dahshatli jang bo'lib, podsho qo'shinganlari yana tor-mor etilgan. Qo'zg'olonchilar Chanan shahrini ishg'ol qilganlar. Van Man o'ldirilgan. 24-yili qo'zg'olon rahbarlaridan biri Lyu Syuan o'zini podsho deb e'lon qilib, Chanan shahrini egallagan. 25-yili "qizil qoshlilar" Chananga yurib, Lyu Syuan qo'shinganlari tor-mor etganlar, Lyu Syuan o'zini-o'zi o'ldirgan. Shu yili "yashil o'rmon qo'shini" Lyu Syu boshchiligida Chananga qarab yo'l olgan. "Qizil qoshlilar" esa Chananni bo'shatib, Shandunga chekinganlar. Yo'lda ikki qo'shin to'qnashib, "Qizil qoshlilar" yengilganlar. Ularning yo'lboshchisi

Fan Chun jangda halok bo‘lgan. 25-yili Lyu Syu o‘zini podsho deb e‘lon qilgan va poytaxtni Chanandan Loyanga ko‘chirtirgan. Lyu Syu Xan sulolasiga mansub kishi edi. Lyu Syudan boshlab Kichik Xan sulolasi davri boshlangan. Bu sulola 25–220-yillar orasida Xitoyda hukmronlik qilgan. Lyu Syu Guan U-Di nomi bilan podsholikni 25–57-yillarda boshqargan. U aholiga ko‘p yengilliklar berib, soliqlarni kamaytiргan va ko‘plab qullarni ozod etgan. Shu davr dan boshlab qullarni huda-behuda o‘ldirish va tamg‘a bosish bekor qilingan. Guan U-Di va uning vorislari mamlakatda osoyishtalik o‘rnatib, xunn larga qarshi g‘olibona yurishlar qilganlar.

“Sariq ro‘mollilar” qo‘zg‘oloni. Milodiy II asrning ikkinchi yarmida Xan sultanatida jabr-zulm kuchayib, vaziyat ancha keskinlashgan. Xan podsholigining turli joylarida yana qo‘zg‘olonlar boshlangan. Shunday qo‘zg‘olonlardan biri va eng kattasi 184-yilda boshlanib, unga o‘z zamonining **“oqil va saxiy muallimi”** deb nom olgan, mashhur tabib Chjan Szyao va uning ikki ukasi rahbarlik qilgan. Ular xalqqa murojaat qilib, podsholikni ag‘darib tashlashga va farovon hayot qurishga da‘vat etganlar.

184-yilda boshlangan qo‘zg‘olon 20 yil davom etgan. Qo‘zg‘olonchilar o‘z raqiblaridan ajralib turish uchun sariq ro‘mol o‘rab jangga kirganlar. Sariq rang xitoyliklarda farovon hayot ramzi ham bo‘lgan. Shu tufayli bu harakat “Sariq ro‘mollilar” qo‘zg‘oloni nomi bilan mashhur bo‘lgan. Qo‘zg‘olonchilar qo‘shini 300 ming kishidan iborat bo‘lib, 36 qismga bo‘lingan edi. Qo‘zg‘oloni bostirish uchun 40 mingdan ortiq hukumat qo‘shinlari yuborildi. 184–185-yillardagi janglar natijasida qo‘zg‘olon rahbari Chjan Szyao halok bo‘lib, qo‘zg‘olonchilar yengiladilar. Janglarda har ikki tomonidan 80 ming kishi halok bo‘ladi. 188–207-yillar orasida ham Xan podsholigining ko‘p joylarida katta-katta qo‘zg‘olonlar bo‘lib o‘tadi. Ular ham hukumat qo‘shinlari tomonidan shafqatsizlik bilan bostiriladi. Lekin bu qo‘zg‘olonlar Xan sultanatini zaiflashtirib yuboradi.

Ko‘p o‘tmay so‘nggi Xan podshosi **Dun Chjo** o‘ldiriladi va mamlakatda o‘zaro urushlar boshlanib ketadi.

Milodiy III asr boshlariga kelib Xan podsholigidan Vey, Shu, U kabi davlatlar ajralib chiqadi. Xitoyda uch podsholik davri boshlanadi. Shu bilan kichik Xan podsholigi tugab, Qadimgi Xitoy tarixi ham o‘z nihoyasiga yetadi.

Xan podsholigi davrida xo‘jalik va iqtisodiy-madaniy aloqalar: Kichik Xan podsholigi davrida xo‘jalikning asosini dehqonchilik tashkil etar edi. Dehqonlar omoch, so‘qa, mola, belkuraklardan foydalaniib, yerga ishlov bergenlar. Yer haydashda omoch, qo‘sh ho‘kiz va eshaklardan, shuningdek, qullar kuchidan ham foydalanganlar.

Xuanxe, Yanszi, Sitszyan va ularning irmoqlariga to‘g‘ onlar qurib, bo‘z yerkarda kanallar orqali suv chiqarilgan. Balandroq joylarga suv chiqarish uchun charxpalaklardan foydalanganlar. Dehqonlar arpa sholi, bug‘doy, tariq, choy ekkanlar. Sersuv joylarda sholi ekilgan. Xitoyda bog‘dorchilik va sabzavotchilikka ham katta o‘rin berilgan. Ipa-khililikni rivojlantirish uchun tutzorlar ko‘paytirilgan.

Dehqonchilik aholini oziq-ovqat bilan ta‘minlovchi soha bo‘lib qolavergan. Shu davrda Xitoya O‘rta Osiyodan uzum, qovun, beda kabi ekinlarni olib kelib ekkanlar.

Chorvachilik ham xitoyliklar xo‘jaligining asosini tashkil etgan. Tabiiy sharoiti qulay bo‘lgan joylarda qo‘y, echki, qoramol, cho‘chqa boqish rivoj topgan edi. Xitoy podsholari hamma davrda ham yilqichilikka katta e‘tibor bilan qaraganlar. O‘sha davrda Xitoyda Markaziy Osiyoning pakana otlari parvarish qilingan. Xitoyliklar oliy zotli „Osmon otlarini“ Parikan-Dovondan olib kelishgan. Ottlardan ko‘proq harbiy maqsadlarda, ba‘zi hollarda esa ish kuchi sifatida foydalaniilgan. Ho‘kiz va eshaklardan qishloq xo‘jaligi ishlarida foydalaniilgan. Ularni arava omoch – qo‘shga qo‘shganlar.

Xan sultanati davrida Xitoyda kulolchilik, miskarlik, temirchilik, duradgorlik, zargarlik, qurolsozlik, kemasozlik va hunarmandchilikning boshqa sohalari taraqqiy etgan edi. Qog‘oz ishlab chiqarish ham Xitoy hunarmandchiligining eng muhim sohalaridan biri edi. Bu davrda Xitoyda paxta ekilmasdi. Paxta Xitoya Hindistondan O‘rta Osiyo orqali olib kelingan. To‘quvchi ustalar zig‘ir va tabiiy o‘simlik tolalaridan ip yigirib to‘qimachilikka ham katta e‘tibor

berganlar. Ipak qurti boqish, undan ipak tolasini ajratish va ipak matolar to'qish Xitoyda azaldan keng tarqalgan edi. Shuning uchun mamlakat dalalariga tut ko'chatlari ekib parvarish qilingan. Chunki tut bargi ipak qurtining asosiy ozuqasi bo'lgan.

Xitoy savdogarlari Hindiston, Arabiston, Afrika hatto O'rtayer dengizi sohilidagi mamlakatlар bilan qizg'in savdo olib borganlar. U-Di davrida „Buyuk ipak yo'li“ga asos solinib, shu yo'l orqali Xitoy savdogarlari O'rta Osiyo, Parfiya, Hindiston va Vizantiya kabi mamlakatlар bilan savdo aloqalari olib borgan. „Buyuk ipak yo'li“ va dengiz yo'llari Xitoyning tashqi dunyo bilan siyosiy, iqtisodiy, harbiy va madaniy aloqasida muhim o'rinn tutgan.

7-§. Qadimgi Xitoy madaniyati

Qadimgi Xitoy yozuvi. Qadimgi xitoyliklar boshqa Sharq mamlakatlari kabi o'zining qadimiyligi, ko'p qirrali madaniyatiga ega bo'lgan. Qadimgi Xitoy ko'hna Misr va Mesopotamiya singari o'z yozuvi va adabiyotiga ega bo'lgan mamlakatdir. Qadimgi xitoyliklar hozirgi kunimizdan 3,5–4 ming yil ilgari o'zlarining yozuvlarini yaratgan. Ularning yozuvi ham misrliklarniki singari rasim-belgilardan – iyerogliflardan iborat bo'lgan. Har bir ierolif-belgi butun bir so'zni ifoda etgan. Bir kichik shoxcha belgisi “*daraxt*”, ikkitasi “*o'rmon*”, uchtasi esa “*chakalakzor*” kabi ma'nolarni bildirgan. Xitoya dastlabki yozuv m.av. II mingyillikda kashf etilgan. Bu Shan-In davlati davriga to'g'ri keladi. O'shanda iyerogliflar soni 2000 ga yaqin bo'lgan. Xan davrida esa iyerogliflarning soni o'n sakkiz mingga yetgan. Xitoy yozuvlari asrlar mobaynida ayrim o'zgarishlarga duch kelgan. Ammo u o'zining asosiy belgilarini zamonamizgacha saqlab qolgan. Xitoyliklar xatni dastlab suyak, yog'och, cho'p, teri va bambuk tanasidan tayyorlangan maxsus taxtachalarga yozganlar. M.av. IV–III asrdan boshlab esa ipakdan tayyorlangan shoyi parchasiga yozishgan. M.av. I asrda va milodiy I asr chegarasida xitoylar qog'ozni kashf etishgach, yozuvlar ana shu qog'ozlarga yozilgan. Xitoyliklar dunyoda birinchi bo'lib qog'ozni kashf etishgan ekan. Matnlar o'ngdan chapga to-

mon ustunlar tariqasida yuqoridan pastga qarab yozilgan. Yozuvda bo‘yoqcho‘p, qush patlari va cho‘tkachalardan foydalanilgan. Qog‘ozni bambuk, latta va po‘stloq aralashmasidan tayyorlaganlar. Tarixiy manbalarga ko‘ra, Xitoyda qog‘ozni kashf etgan kishi milodiy II asrda yashagan Say Lungo degan fikrlar ham bor. Ehtimol bu shaxs qog‘oz tayyorlash usulini takomillashtirgan bo‘lsa kerak. Shuni ta‘kidlab o‘tish joizki, yangi milodiy yilning birinchi asri-dayoq qog‘oz barcha yozuv vositalarini siqib chiqargan va kundalik hayotda keng qo‘llanilgan.

Qadimgi Xitoy adabiyoti. Qadimgi xitoyliklar o‘zlarining ajoyib adabiyotiga ega bo‘lgan. Qadimgi Xitoy adabiyotining shakllanishi xalq og‘zaki ijodiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Yozuv kelib chiqqach, yozma adabiyot shakllangan va rivoj topgan.

Xitoyliklar ajoyib afsona, ertak, rivoyat, qo‘sish, topishmoq va ko‘plab maqollar yaratganlar. Dostonlar Xitoyning qadimgi adabiyotida katta o‘rin tutadi. Xitoy adabiyotida diniy, tarixiy va falsafiy mavzular keng o‘rin olgan.

Xitoyda m.av. IV–milodning IV asrlarida Soy Yuan, Sima Syan kabi mashhur yozuvchi va shoirlar ijod etishgan. O’sha davrning iste’dodli shoirlaridan biri Syuy Yuan bo‘lib, u m.av. IV asrda Chu podsholigida yashab ijod qilgan. Bu davrda yashagan yana bir xitoylik mashhur adib, tarixchi Sima Syan bo‘lib, m.av. 145–90-yillarda yashab ijod qilgan. Uning “Tarixiy xotiralar” asari mavjud. Qadimgi Xitoyda musiqa, raqs, qo‘sish san’atiga qiziqish erta boshlangan. Ularda musiqa asboblarining torli, urib, puflab chalinadigan turlari keng tarqalgan. Xitoya qo‘shti O‘rta Osiyo xalqlarining arfa kabi musiqa asboblari milodiy I–II asrlarda kirib borgan.

Qadimgi Xitoyda me’morchilik, rassomchilik va haykaltaroshlik. Me’morchilik Qadimgi Xitoy madaniyatida muhim o‘rin egallaydi. Uning kelib chiqishi Xitoy tarixinining uzoq o‘tmishiga borib taqaladi. Me’morlar ajoyib saroylar, ibodatxonalar, ma’muriy binolar va harbiy istehkomlar qurgan. Xitoyning qadimgi Xao Sanyan, Dalyan, In, Shouchun, Chanan kabi yirik shaharlarida ko‘pdan-ko‘p saroylar, ibodatxonalar va ma’muriy binolar bo‘lganki, uni xitoylik qo‘li gul ustalar bunyod etgan. Xitoy ustalari

me'morchilikda o'ziga xos jimjimador qurilish uslubini yaratganlarki, bu uslub boshqa Sharq xalqlari me'morchiligidagi uchramaydi.

Me'morchilik ishlarida loy, g'isht, paxsa va ko'proq yog'och ishlataligani. Bu jihatdan m.av. II-I asrlarda uch qavatli qilib, oynavand, peshayvonlari va to'rt chekkasida qorovulxonasi bo'lgan Chanandagi Xan podsholarining saroyi diqqatga sazovordir. Xitoyda rassomlik ham ancha taraqqiy etgan edi. Rassomlar shoh saroylari, ibodatxona devorlari va amaldorlarning uy devorlarini o'simlik, daraxt, ot, otliq askar, jang aravalari, it, fil va qandaydir maxluqlarning tasvirlari bilan bezaganlar. Xitoyda haykaltaroshlik kamroq rivojlangan. Ustalar mis, jez, kumush, oltin va toshlaridan xilma-xil idishlar yasab, ularning sirtini qush, ajdaho va turli afsonaviy maxluq tasvirlari bilan bezaganlar.

Haykaltarosh ustalar podshoh, sarkarda, boy va oddiy kishilarning haykallarini o'ta nozik did bilan ishlaganlar. Qadimgi Xitoyning qo'li gul ustalari ajoyib zargarlik, kulolchilik, miskarlik va boshqa badiiy buyumlar tayyorlashda shuhrat qozonganlar. Shunday qilib, qadimgi xitoyliklar adabiyot, me'morchilik va tasvirisan'at sohasida o'zlariga xos asarlar yaratib, shuhrat qozonganlar.

Qadimgi Xitoyda ilmiy bilimlarning rivojlanishi. Qadimgi Xitoyda ishlab chiqarish xo'jaligining rivojiana borishi bilan ilmiy-amaliy bilimlar ham ravnaq topgan. Ular matematika, geometriya fanlari sohasida jiddiy yutuqlarga erishgan. Bu jihatdan m.av. II asrda tuzilgan "Matematikaning to'qqiz kitobi" degan asar diqqatga sazovordir. Kitobda matematikaning asoslari tushuntirib berilgan. Bu kitob dehqon, olim, hunarmand, tarixchi, astronom, chorvador va me'morlar uchun uzoq vaqtgacha asosiy qo'llanma bo'lib xizmat qilgan. Xitoy olimlari astronomiya sohasida ham jiddiy yutuqlarga erishganlar. Davlat, xo'jalik ishlarini yuritish, savdo ishlari, vaqtini hisoblash va taqvim tuzish zaruriyati astronomiya bilimlarini toplashni va bilishni taqozo etgan. Xitoy astronomlari m.av. II mingyillikdayoq astronomik kuzatishlarni boshlaganlar.

M.av. 145–90-yillarda yashagan xitoy tarixchisi Sim Syanning "**Tarixiy xotiralar**" kitobining bir bo'limi osmon jismalari masalsiga bag'ishlangan.

Tarixchi Ban Guning “**Xan tarixi**” kitobida 783 yulduzning nomi keltirilgan.

Milodning II asrida yashagan Chjan X彭ning astronomiya va matematikaga oid asarida esa 124 yulduz turkumi, 2500 yulduzlarning nomi eslatib o’tilgan. Bu davrda sayyoralar harakatini kuzatishga ham katta ahamiyat berilgan. Xitoy astronomlari bir yilning 365 kun ekanligini mustaqil aniqlaganlar. Ular bir yilni 12 oyga bo’lgan va quyosh-oy taqvimini tuzgan.

Xitoy astronomlari quyosh va oyning qachon tutilishini oldindan aytib berishgan. Ular fizika sohasida ham jiddiy yutuqlarga erishib, dunyoda birinchi bo’lib **kompasni** kashf etganlar. Kompasni temirdan to’rtburchak qilib ishlashgan. Uning harakatlanuvchi ko’rsatkichi doimo janubni ko’rsatib turgan.

Qadirngi Xitoyda tabobat ilmining rivojanishi. Qadimgi Xitoyda tabobat ham ancha yaxshi rivojlangan. Tabiblar bemor tomirlarini ushlab ko’rib, kasalliklarini aniqlagan, tashxis qo’yib, so’ng davolashga kirishganlar. Qadimgi Xitoyda Van Shu Xe, Ban Sio va Xua Tu kabi mashhur tabiblar yashagan va faoliyat ko’rsatgan. Van Shu Xe tabobatga oid “Ney-Szi”, – „Odam tabiatи va hayoti“. Ban Sio esa “Qiyinchilik haqida kitob” kabi asarlar yozgan. Ular bemorlarni davolashda meva, o’simlik va hayvonlarning ayrim qismlaridan tayyorlangan sodda va murakkab dorillardan foydalanigan. Xitoy tabiblari dunyoda birinchi bo’lib tomirdan shifobaxsh suyuqlik dori yuborib davolash usulini qo’llaganlar. O’sha vaqtida Xitoyda dori-darmonlarning 1000 dan ortiq turi ma’lum bo’lgan. Qadimgi Xitoyning tarkibiy qismi hisoblangan Tibetda tabobat ilmi yuksak darajada rivojlangan. Harbiy qurol hisoblangan poroxni ham xitoyliklar kashf etgan.

Xitoyda geografik va tarixiy bilimlarning rivojlanishi. Xitoyda markazlashgan davlatlarning tashkil topishi va mamlakatni ma’muriy viloyatlarga bo’lish geografik bilimlarga ega bo’lishni talab etgan. M.av. VIII asrda Chjou davlatining yerlari 9 viloyatga bo’lingan edi. Sin va Xan podsholiklari davrida mamlakat 6 viloyatga bo’lingan edi. Podsho va viloyat hokimlari o’zлari yashab turgan viloyatni puxta bilishlari kerak edi. Buni geografiya fani o’rgatardi. Qadimgi Xitoy tarixchilar vatanidir. M. av. 145–90-yil-

larda yashagan mashhur Sim Syan „Tarixiy xotiralar” degan asar yozgan. Bu kitobda Xitoyning eng qadimgi davridan m. av. II asr oxirigacha bo‘lgan tarixi bayon etilgan. Milodning 32–92-yillarida yashagan tarixchi **Ban Gu esa “Xan podsholari tarixi”** asarini yozgan. Unda Katta Xan podsholigi tarixi bayon etilgan.

Qadimgi Xitoyning diniy e’tiqodlari. Qadimgi Xitoyda diniy e’tiqodning shakllanishi ibridoiy davrlarga borib taqaladi. Shan-In davridagi diniy e’tiqodlar ibridoiy din shakllaridan kelib chiqqan. Qadimgi xitoyliklar Quyosh, Oy, osmon, osmon jismlari, sayyora va yulduzlarga topingan. Shu bilan birga ular tabiat va tabiat hodisalari, daraxtlarga sig‘inib tog‘ va daryolarni ulug‘laganlar. Odamlar ana shu ulug‘langan narsalarga e’tiqod qilgan. Xitoyliklar e’tiqodiiga ko‘ra, har bir narsa va hodisaning alohida xudolari bo‘lgan. Bu xudolar alohida nomlar bilan atalgan. Ularda Oliy xudo Di bo‘lib, u odamlarga qurg‘oqchilik, suv toshqinlari yuborgan yoki baxt ulashgan.

Afsonalarning birida aytishicha, Nyuy Va degan xudo odamni loydan yaratgan ekan. Xitoylarning diniy affsonalarida tabiiy ofatlar, odamlarni bu ofatlardan qutqaruvchi qahramonlar haqida hikoya qilinadi.

Qadimgi xitoyliklar o‘lgan ajdodlari ruhlariga ham e’tiqod qilgan. Bu fanda **animizm** deyiladi. Tog‘-toshlar, o‘simlik, daraxtlar, osmon jismlari va har xil buyumlarga sig‘inish esa **fetishizm** deyiladi. Ayni paytda ular hayvon va turli jonivorlarga ham sig‘inganlar. Bu esa **totemizm** deb ataladi. M.av. III–II asrlarda Xitoya Hindistondan O‘rta Osiyo orqali budda dini kirib kelgan va yoyilgan. Shunday qilib, Xitoya diniy e’tiqod xilma-xil shaklda bo‘lib, uzoq vaqtgacha saqlanib qolgan. Qadimgi xitoyliklar juda qadim zamondan boshlab o‘zlariga xos yuksak madaniyat yaratib, jahon madaniyati xazinasiga ulkan hissa qo‘shganlar.

8-§. **Xunnlar davlati**

Xunnlar davlatining geografik o‘rni, tabiatni va aholisi. Qadim zamondan Markaziy Osiyoning katta qismi va unga tutash

bo‘lgan joylarda ko‘chmanchi xunn qabilalari yashagan. Xunnlar mamlakati tog‘lar, yassi tog‘lar, tekisliklar va bepoyon cho‘llardan iborat edi. Bu joylarning iqlimi xilma-xil bo‘lib yozi jazirama issiq. qishi esa qahraton sovuq bo‘lgan. Markaziy Osiyoning bu qismida qishda tez-tez qor bo‘ronlari, yozda esa qum bo‘ronlari bo‘lib turardi. Xunnlar mamlakatidagi tog‘ oralaridan kam suvli soyular oqib chiqib, cho‘llar ichida yo‘qolib ketadi. Bu o‘lkaning shimoliy qismi tayga o‘rmonlariga yaqin bo‘lgani uchun o‘simgiliklar va hayvonot dunyosi boy edi. Janubiy va janubi-g‘arbiy qismi sahro, cho‘l va dashtlardan iborat bo‘lganligi uchun hayvonot va o‘simgilik dunyosi kambag‘alroq bo‘lgan. Xunnlar mamlakati temir, mis, kumush, qo‘rg‘oshin va oltin konlariga boy bo‘lgan. Ammo bu o‘lkada be-poyon yaylovlari mo‘l edi.

Xunnlar yashagan Markaziy Osiyo Xitoya chegaradosh bo‘lib, qadimdan boshlab bu yerda juda ko‘p ko‘chmanchi qabilalar yashagan. Bu ko‘chmanchi qabilalarning katta qismini xunn qabilalari tashkil etgan. Xunnlar Markaziy Osiyoning tubjoy aholisi bo‘lib, ularning ajdodlari tosh asridan beri shu yerlarda istiqomat qilganlar. M. av. III-II mingyilliklarda xunularning ajdodlari ovchilik, ilk dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanib tirikchilik o‘tkazgan. M.av. I mingyillikning birinchi yarmidan boshlab aholining asosiy qismi ko‘chmanchi chorvador bo‘lgan. Mashhur xitoy tarixchisi Sim Syanning ma’lumotlariga qaraganda, xunnlar Markaziy Osiyoning katta qismini egallagan. Ular yerga va aravalarga o‘rnatilgan o‘tovlarda yashaganlar. Har yer-har yerda qishlov uchun qishloqlari bo‘lgan. Xunnlar yilqichilikka alohida e’tibor bergenlar. Qayerda o‘t, suv va yaylov ko‘p bo‘lsa, o‘sha joylarda qoramol podalari, qo‘y-echki suruvlari va ot-tuya uyurlari bilan yaylovdan-yaylovga ko‘chib yurganlar. Tinchlik va osoyishtalik paytlari esa ular yuye-chji, dunxi, usun, ayniqsa xitoyliklar bilan qizg‘in savdo-sotiq ishlarini olib borganlar. Ular Xitoy madaniyatidan bahramand bo‘lgan. Xunnlar janjun, dunxi, yuechji kabi qabilalar bilan muttasil urush olib borib, ularni o‘zlariga itoat ettirganlar. Xitoyliklar bilan ham tez-tez urush qilib, ularning shahar va qishloqlarini talab, yondirib, ko‘p o‘lja va asirlar olib vatanlariga qaytganlar.

Xunnlar davlatining tashkil topishi. M.av. IV asrda Markaziy Osiyoning shimolida xunn qabilalarining harbiy ittifoqi tashkil topadi. Xunn qabilalarining bu harbiy ittifoqi asta-sekin kuchayadi. M.av. III asr oxirlariga kelib xunn qabilalarining harbiy birlashmasi asosida Xunn ko‘chmanchilari davlati tashkil topadi. Xitoy tarixchisi Sim Syanning yozishicha, xunnlarning harbiy sardori Shanyu deb atalar edi. Xunn sardorlari – shanyulari qattiq intizomli, qilich, kamon, nayza, dubulg‘a bilan qurollangan, tez harakat qiluvchi otliq qo‘shinga ega bo‘lgan. Ular quyun kabi o‘z dushmanlari ustiga bostirib borib, ularni vahimaga solib qo‘yanlar.

Xunn sardorlaridan biri Maodun ichki dushmanlarini yenggach, dunxu qabilalari ustiga katta qo‘shin bilan bostirib boradi. Shiddatli va ayovsiz jang oqibatida dunxular tor-mor etiladi. Maodun dunxular hukmdorini o‘ldirib, ko‘p odamlarni asir olib, podalarini haydattirib ketadi. M. av. 203–202-yillarda Maodun qo‘shinlari Sayan, Oltoy va Enisey (Enasoy) daryosining yuqori oqimidagi joylarni bosib oladi.

M.av. 200-yilda Xan podshosi Lyu Ban xunnlarning ustiga qo‘shin tortadi. Maodun harbiy hiyla ishlatib, qo‘shinlari bilan Baydan tog‘lariga chekinadi. Lyu Ban esa bir guruh tezkor jangchilari bilan xunnlarni ta‘qib qilib borib, asosiy qo‘shinlaridan uzoqlashib ketadi. Xunnlar Lyu Ban qo‘shinlarini qurshab olib, qirib tashlaydi. Lyu Ban asir tushadi. U juda ko‘p mol-mulk va qizini Maodunga nikohlاب berish sharti bilan asirlikdan ozod bo‘ladi. Lyu Ban va dasini bajarmay, qizini Maodunga yuborishni paysalga soladi. Maodun katta qo‘shin bilan Xan chegaralaridan o‘ta boshlaydi. Bu xabarni eshitgan Lyu Ban katta mol-mulk bilan qizini xunnlar hukmdoriga uzatishga majbur bo‘ladi. Shundan keyin ikki o‘rtada tinchlik sulhi tuziladi. Sulhdan so‘ng ikki davlat o‘rtasidagi do‘stlik 40-yil davom etadi.

Xunnlar davlatining kuchayishi. Xunnlar Maodun va uning vorisi Laoshin (m. av. 174–161-yillar) davrida yuyechjilar bilan 25 yil davomida urush olib boradilar. Urushda yuechjilar yengilib, ularning sardori halok bo‘ladi. Xunnlarning shanyusi Laoshin

yuechji sardorining bosh chanog‘ini kestirib olib, undan sharob kosa-qadah yasattirgan ekan. Urush xunnlarning g‘alabasi bilan yakunlanadi. Yuyechjilar Pomir va Farg‘ona orqali dastlab So‘g‘d, so‘ng Baqtriyaga ko‘chib ketishga majbur bo‘ladilar.

Shundan keyin xunnlar Markaziy va Sharqiy Osiyodagi eng kuchli davlatga aylanadi. Xan podsholari xunnlardan qo‘rqib, ularga ko‘p miqdorda o‘lpon va sovg‘alar yuborib turgan. Xitoy bozorlari xunn savdogarlari uchun ochiq deb e’lon qilingan. M.av. II asrning birinchi yarmi xunnlar davlatining eng kuchaygan davri bo‘lgan.

Xitoy-Xunn urushlari va xunnlar davlatining zaiflashuvi.

M. av. IV asrdan boshlab avval Sin podsholigi, keyin Xan podsholiklari kuchayib, **У Ди** davrida Xan podsholigi nihoyatda kuchayadi. M. av. 123-yili xitoy qo‘shinlari xunnlarni Xan sultanatining shimoliy chegaralaridan surib chiqaradi. M.av. 121–119-yillarda Xan qo‘shinlari Dunxuangacha bo‘lgan yerlarni bosib oladi. Xunnlar esa xitoylarning g‘arb tomon yurishlariga qarshilik ko‘rsatadi.

M.av. 119-yildagi bo‘lgan jangdan keyin xitoy qo‘shinlari xunn sardorining qarorgohini bosib oladi. Jangda 90 ming xunn askari va ko‘p xitoy askari halok bo‘ladi.

M.av. 99–90-yillar orasida xunnlar bilan xitoylar o‘rtasida yana qattiq urushlar bo‘lib o‘tib, ko‘pincha bu urushlarda xunnlar g‘olib chiqadilar.

Xitoylar esa g‘arbda usunlar, sharqda uxuanlar va Shimolda Enisey bo‘yi qabilalari bilan harbiy ittifoq tuzib, M. av. 71-yili xunnlarga uch tomondan hujum boshlaydi. Bu jang ittifoqchilarning g‘alabasi va xunnlarning ayanchli mag‘lubiyati bilan tugagan. M. av. 71-yilgi mag‘lubiyatdan so‘ng Xunn davlati kuchsizlanib, m. av. 56-yili Shimoliy va Janubiy qismlarga bo‘linib ketadi.

Xunnlarning g‘arbga ko‘chishlari. Shanyu Xuxane boshliq janubiy xunnlar Xitoyga tobe bo‘lib, ular bilan ellik yilcha tinch-tutuv yashaganlar. Chji-chji bosqliq shimoliy xunnlar esa xitoylar bilan chiqisha olmay g‘arb tomon siljiganlar. Lekin xitoy qo‘shinlari ularni ta‘qib qilib borib tor-mor etgan. Milodning I asrida xunnlar o‘zlarini biroz tiklab olganlar. Ammo milodiy 87–93-yillarda xi-

toylar syanbi va dinlinlar bilan ittifoq bo‘lib xunnlarni yana tor-mor keltirgan. Xunnlar esa Sirdaryoning quyi qismi va Orol dengizining shimoliga borib joylashgan. Keyingi asrlar davomida xunnlar Shimoliy Qozog‘iston orqali yurib, Itil va Don daryolaridan o‘tib Shimoliy Kavkazdag‘i alanlarni o‘zlariga itoat ettirganlar. Xunnlar sardori Balamber 375-yili o‘z qo‘shinlari bilan Shimoliy Qora den-giz bo‘ylarini egallagan. Shu yerda yashovchi gotlarning bir qismi xunnlarga tobe bo‘lgan va o‘zlarini *osgotlar*, ya’ni *sharqiy gotlar* deb atagan. Xunnlarga tobe bo‘lmagan gotlar Frakiyaga borib joy-lashib, o‘zlarini vesgottlar – g‘arbiy gotlar deb atagan. 394–395-yil-larda xunnlarning bir qismi Kichik Osiyo, Suriya va Kapadokiyaga bostirib kirgan.

Xunnlar g‘arbg‘a yurishni davom ettirib, Dunay daryosining yuqori qismidagi yerlarni bosib olganlar. Shu yerdan turib ular Sharqiy va G‘arbiy Rim sultanatiga ham tahdid solib turgan. Xunnlarning sardori **Attila** davrida (434–453) Markaziy Yevropa-ning juda ko‘p qabilalari xunnlarga tobe bo‘lgan. 451-yilda xunnlar Galliyaga bostirib kirganlar. Ammo rimliklar, vesgottlar va franklarning birlashgan qo‘shinlari Katalaun yonidagi mashhur jangda xunnlarni yengib, ularni orqaga chekintirganlar. 453-yilda Attila vafot etgach, xunnlar davlati kuchsizlangan. Ularning 455-yili Pannoniyaga, 469-yili Bolqonga qilgan yurishlari ham mag‘lu-biyat bilan tugagan.

Shundan keyin xunnlar ittifoqi tarqalib, davlat mutlaqo kuchsiz-langan. Xunnlar mahalliy aholiga qo‘shilib ketgan. Shu tariqa 7–8 asr hukm surgan Xunnlar davlati V asr oxirlariga kelib barham top-gan.

Xunnlar ham o‘zlariga xos oddiy, ko‘chmanchilarga xos soddagi-na madaniyat yaratganlar. Ammo ular Qadimgi Xitoy madaniyatidan keng foydalanganlar. G‘arbg‘a ko‘chgan xunnlar madaniyatiga O‘rta Osiyo xalqlari va Rim madaniyati ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan.

Seminar mashg‘uloti uchun savollar:

1. Qadimgi Xitoyning geografik o‘rnii va tabiiy sharoitlari.
2. Xitoyning eng qadimgi aholisi va ularning mashg‘uloti.
3. Qadimgi Xitoy tarixining davrlarga bo‘linishi va ularning bosqichlari.

4. Qadimgi Xitoy tarixining asosiy manbalari.
5. Qadimgi Shan-In davlati.
6. Xitoyda Chjou va Sin podsholigining tashkil topishi.
7. Xan podsholigining tashkil topishi va kuchayishi.
8. “Buyuk ipak yo‘li” va uning xalqlar hayotidagi o‘rnii.
9. Xan sultanatining zaiflashuvi va ommaviy harakatlar.
10. Xitoyda “Qizil qoshlilar” qo‘zg‘oloni.
11. Xitoyda “Sariq ro‘mollilar” qo‘zg‘oloni.
12. Xunnlar davlati va kuchayishi.
13. Xitoy-Xunn urushlari tufayli xunnlar davlatining zaiflashuvi haqida.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:

1. Qadimgi Xitoyda tarixnavislik yoki yilnomachilik.
2. Shan-In davlatining xo‘jaligi.
3. Chjou podsholigi davrida xo‘jalik.
4. Shan-Yan islohoti va uning oqibatlari.
5. Buyuk Xitoy devori “Saddi Chiniy”ning qurilishi.
6. Sin podsholigining yemirilishi va tugatilishi.
7. Xan podsholigining istilochilik yurishlari.
8. Xan podsholigi davrida xo‘jalik va iqtisodiy-madaniy aloqalar.
9. Qadimgi Xitoy yozuvi va adabiyoti.
10. Qadimgi Xitoyda me’morchilik, rassomchilik va haykaltaroshlik.
11. Qadimgi Xitoyda tabobat ilmi.

VIII BO'LIM. SHARQIY VA JANUBI-SHARQIY OSIYODAGI QADIMGI DAVLATLAR

1-§. Koreya yarimorolidagi qadimgi davlatlarining tashkil topishi

M.av. I mingyillikning ikkinchi yarmida koreyaliklar yashagan hozirgi Koreya yarimoroli, Janubiy Manchjuriya va Lyaodun yarimorolida kirar edi. Mazkur joydagi o'rmonlarda va vohalarda dehqon qabilalari, o'rmon, tog'larda esa ovchilar istiqomat qilishar edi. M.av. VII asrlarda qadimgi koreyaliklar bronzadan turli buyumlar, mehnat qurollari yasay boshlaganlar. Yarimorolning shimolidagi daryo bo'yalarida yashagan qabilalar esa tariq va arpa, janubdagagi qabilalar sholi ekib parvarishlaganlar. Ular ziroatchilikning turli tarmoqlari bilan shug'ullangan.

M.av. I mingyillik oxirlariga kelib koreyaliklarda temirdan yasalgan mehnat va jangovar qurollar tez tarqaladi. Bu jarayon mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi, ishlab chiqarish xo'jaligining taraqqiy etishi, xususiy mulk, mulkiy tengsizlik va tabaqaviy jamiyat paydo bo'lishiga olib kelgan. Shu munosabat bilan Koreyada m.av. III asrda ilk bor Choson davlati tashkil topadi. Choson davlatining yerlari Lyaodun yarimoroli va hozirgi shimoliy Koreyani o'z ichiga olar edi. M.av. I asrga kelib Shimoliy Koreya hududida qabilalar ittifoqidagi kichik davlatlar: chunonchi shimoliy-g'arbda kochur qabilasi, janubda esa xan qabilasi atrofida birlashadilar. Koguryo qabilalarining ittifoqi natijasida Koguryo davlati tashkil topib, unga Koreya yarimorolining shimoli va Janubiy Manchjuriya kirar edi. Ikki Xan qabilasi o'mida esa Silla davlati, uchinchisi o'nida Pekche davlati vujudga kelgan.

Bular orasida Koguryo davlati birmuncha kuchli bo'lib, hukmdorlarini van deb ulug'lashar edi. Bu davlat uzoq yillar davomida Xitoyning Xan davlati bilan kurash olib borib, mamlakat mustaqil bo'lishiga erishdi.

Qadimgi Koreya jamiyatasi ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishi oqibatida tabaqalarga bo'lingan bo'lib, monarxlar boshchiligidagi zodagonlar aholining yuqori tabaqasini tashkil etar edi. Aholining katta qismi va qullar esa quyi tabaqaga mansub bo'lган. Qullar soni harbiy asirlar, jinoyatchilar va sotib olingen kishilar hisobiga ko'paytirilardi. Qullarni Xitoya olib borib sotishgani haqidagi ma'lumotlar bor. Koreyadagi davlatlarda qul mehnatidan keng foydalanmaganlar, balki ular ko'proq uy xo'jaligida ishlatilgan. Koreyada huquqiy jihatdan ozod, lekin iqtisodiy jihatdan davlatga qaram aholi mamlakatda ko'pchilikni tashkil etgan. Ular yuqori tabaqo vakillari manfaatlari va dabdabali hayoti uchun xizmat qilgan.

Dastlab Koreyada harbiy demokratiya tizimi boshqaruvda hukm surgan. Milodiy I-II asrlarda esa Koreyada harbiy demokratiya asoslari bartaraf qilinib, jamiyatni monarxlar boshqargan. Ular o'n ikki rang darajadan iborat harbiy xizmatchilarga tayanib ish ko'rganlar. Koguryo davlati harbiy xususiyatga ega bo'lган.

Mazkur davrda Koreya yarimorolidagi uchta davlat o'rtaida hukmronlikni qo'lga kiritish va saqlab qolish uchun qonli janglar ham bo'lib turgan. Bu davrda yuqori sinf-tabaqa vakillari manfaatlarini himoya va muhofaza qiluvchi qonunlar joriy etiladi. I-III asrlarda Koguryo Koreya yarimorolidagi eng kuchli davlatga aylangan. IV asrga kelib esa uzoq davom etgan o'zaro urushlardan so'ng mamlakat janubi-g'arbida birlashish jarayoni yakuniga yetib, u yerda Pekche davlati tashkil topdi. V asrga kelib esa yarimorolning janubiy-sharqida Silla davlati kuchayadi.

Tashqi siyosat masalasida yarimoroldagi davlatlar oldidagi muhim vazifa ularning ashaddiy dushmani Xitoyning Xan podsholigiga qarshi kurash edi. Xitoy hukmdorlari bilan olib borilgan kurashning og'irligi Koguryo davlati yelkasiga tushadi.

Shunday qilib, m.av. III asrlarda Koreya yarimoroli va unga tutash joylarda tabaqaviy hokimiyatga asos solgan ilk quzdorlik davlatlari vujudga keldi.

Mazkur davrda koreyaliklar xitoyliklar madaniyatidan bahramand bo'lib, o'zlariga xos madaniyat yaratganlar.

Qadimgi Yapon davlati. Qadimgi Yaponiyaning geografik o'rni va tabiiy sharoitlari. Ma'lumki, Sharqiy Osiyoda Tinch okeanining g'arbidagi Xonsyu, Kyusyu, Xokkaydo, Sukuku va yana 3900 orolni egallagan Yaponiya davlati ham o'zining uzoq tarixiga ega. Bu mamlakatning hozirgi kundagi maydoni 377535 km.kv. aholisining soni 2001-yildagi ro'yxatga binoan 127100000 kishini tashkil etadi. Mamlakatning yer usti tuzilishi tog'lar va tekisliklardan iborat. Baland tog'larning aksariyatida harakatdagi vulqonlar bor. Yaponiyaning eng katta tekisligi Xonsyu orolida Kantomdir, eng uzun daryosi Sinano. Eng yirik ko'li Biva. Aso-siy tabiiy boyliklari toshko'mir, mis, qo'rg'oshin, rux rudalaridir. Dengizlarda baliq ko'p. Haydaladigan yerlari hududning 13 % tashkil etadi, o'rmon va to'qaylar 67 % joyni egallaydi.

Iqlimi mussonli, shimolda mo'tadil, janubda suptropik xususiyatga ega. Yaponiya hududining 2/3 qismi o'rmonlar bilan qoplan-gan. O'rmonlarida eman, qarag'ay, bir necha tur palma, banan, fui-kus, bambuk va boshqa o'simliklar bor.

Yaponiyada bir necha tur maymunlar, ko'rshapalaklar, qora-quyon, "nuro-o'sash", ko'k qushlar "ruri-kasegu", "xabu" zaharli ilonlar uchraydi. Shuningdek, orollarda bo'rsiq, kiyik, quyon, bo'ri, tulki, yoqutsimon itlar, olmaxon, yapon makakasi, yapon qora ayig'i, ulkan salamandrlar yashaydi.

Shuningdek, Xokkaydoda qo'ng'ir ayiq, larik sichqeni, oqsuv-sar, sibir soboli, tyulen, dengiz mushuklari uchraydi. Yaponiya atrofidagi dengiz va okeanda ko'plab dengiz hayvonlari va baliqlar yashaydi.

Yaponlarning etnogenezi va etnik tarixi. Aholining asosiy mashg'uloti. Yaponlar o'zlarini nixondziy-quyoshli o'lka odamlari deb ataydilar. Xokkaydo orolida uning eng qadimgi aholisi-aynlar saqlanib qolgan. Yaponi xalqining etnogenezi haligacha to'liq aniqlanmagan. Yapon tili, ta'kidlanganidek, yirik oilalariga kirmaydi. Yaponlarning eng qadimgi madaniyati neolit davriga oid umumiy "dzyomon" nomi bilan ma'lum bo'lib, kelgindi aholisi aynlar-indoneziyalik va qit'adan kelgan koreyslar bilan aralashib murakkab etnik guruhni yuzaga keltirgan. Milodning I asrlarida Yaponiyada urug'-jamoa tuzumi yemirila borib, tabaqalar paydo

bo‘ladi va VII asrda ilk davlat tashkil topadi. O‘sha vaqtida Yaponiyaga Xitoyning ta’siri kuchli bo‘lgan, yozuvi va madaniy belgilari ko‘chib o‘tgan. Asli yapon va koreys xalqlarining mustaqil millat sifatida shakllanishi milodiy VII–XII asrlarga to‘g‘ri keladi.

Yaponiya ilk davlatlarining tashkil topishi. Olimlarning farazlariga ko‘ra m.av. 7500–3000-yillarda Yaponiyada neolit davri madaniyati–dzyomon mavjud bo‘lgan. M.av. V–milodiy IV asrlarda Yaponiyada dehqonchilik, chorvachilik rivojlangan, metall qurollar qo‘llanilgan. Milodning boshlarida ijtimoiy tabaqalanish kuchayadi; qullar va qul egalari–zodagonlar paydo bo‘ladi. III asrda tashkil topgan qabilalar ittifoqi–Yamato asosida sinfiy tabaqalanish jarayonida ilk yapon davlati tarkib topadi. Yaponiyada VI asrda buddizm tarqala boshlaydi. Yamato hukmdorlari tashqi aloqalarda tenno unvonini qo‘llay boshlagan. Bu titul hozirgacha ham saqlangan va Yevropa tillariga “imperator” so‘zi bilan tarjima qilinadi. Yaponiyada VII asr o‘rtalaridan ilk feodalizm munosabatlari tarkib topa boshlaydi. 645-yilda yer davlat mulki deb e’lon qilinadi.

Yaponianing orollarda joylashuvi Osiyoning sharqida yashagan qadimgi aholining “quyoshli o‘lkaga” o‘tib joylashuvlariga to‘sinq bo‘la olmagan. Yapon orollari atrofi dengiz va Tineh okeani suvlari bilan o‘ralganligi muayyan vaqtgacha bu yerga Sharqiy Osiyodan odamlarning kirib kelib joylashuvlariga imkon bermaxgan. Paleoantropologik ma'lumotlarga ko‘ra va boshqa ashyoviy dalillarga asoslanib, arxeolog va tarixchi olimlar Yaponiyaga dastlabki odamlarning kirib kelib joylashuvlari m. av. VIII mingyillikka mansub ekanligini aniqlaganlar. Yaponiyada eng qadimgi neolit davri madaniyati “dzyomon” (ipli naqsh) nomi bilan mashhurdir. Ma'lumki, Osiyo qit’asining sharqidagi neolit davri kishilari qayiq kashf etganlaridan so‘ng qit’adan yapon orollariga suzib o’tishlari mumkin bo‘lgan. Sharqiy Osiyo, xususan Koreya yarim oroli va Xitoyda qayiqsozlik m.av. VIII–VI mingyilliklarda kashf etilgan bo‘lsa kerak.

Arxeologik ashyolarning guvohlik berishicha, m.av. I mingyillik ikkinchi yarmida Sharqiy Osiyo qabilalari Koreya yarimoroli orqali Yaponianing Kyusuva Xonsyu orollariga ko‘chib o‘tgalar. Shuni aytib o’tish joizki, Xonsyu orolining g‘arbi, Kyusu

orolining shimolidagi qabrlardan bronza qurollari va buyumlari topilgan. Bu bronza qurol va buyumlarning bir qismi Janubi-sharqiy Osiyo bilan bog'lanib ketadi. Mazkur dalillarga tayanib shuni aytish joizki, Yaponiya orollariga odamlar faqat Koreya yarimoroli. Sharqiy Osiyodan emas, balki Janubi-sharqiy o'lkalaridan ham kirib kelib joylashgan ekan.


Shunday qilib, Yapon orollarida yashagan qabilalarning kelib chiqishi bir tomondan Sharqiy Osiyo, ikkinchi tomondan Janubi-sharqiy Osiyoga borib taqaladi. Yapon orollariga ko'chib kelganlar ziroatchilikning sug'orma sholikorlik texnikasini egallagan kishilar bo'lgan. Bu jarayon dastlab Sharqiy Xitoy va hozirgi Koreya yarimorolida sodir bo'lgan bo'lsa kerak.

Yaponiyada sholikorlik ilk bor so'nggi "dzemon" davridan ma'lum.

Ilk yapon qabilalari sholi, tariq, qora javdar kabi donli ekinlarni ekib, parvarish qilishgan. Atrofi dengiz va okean suvlari bilan o'rallanligi uchun xo'jalik hayotida baliqchilik, dengiz hayvonlarini ovlash, quruqlikda esa termachilik va ovchilik ham muhim o'rin tutgan. Yaponiya hududida sug'orma sholikorlikning rivojlanishi va keng tarqalishi hududda xo'jalik-madaniy sohalari rivojlanishi-ga olib keldi.

M.av. I asrda Yaponiya orollarida jez-bronza qurollardan keng foydalanilgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi asboblari tosh va yog'ochdan tayyorlangan. Yerni yumshatishda va ekinlarga ishlov berishda motiga-chopqilardan foydalanilgan, hosilni o'rib olishda esa yarim oy shaklidagi o'roqlar yordami bilan o'rib olganlar. Keyinchalik yapon orollariga Sharqiy Osiyodan ko'chib kelganlar o'zları bilan yirik shoxli qoramol, ot kabi uy hayvonlarini ham olib kelganlar.

Yapon qabilalarining moddiy va ma'naviy madaniyatini, shuningdek, xo'jalik faoliyatlarini o'rganishda arxeologik ashyolar bilan bir qatorda xitoy yilnomalari ham muhim ahamiyatga ega. Bu jihatdan milodiy III asr oxirlarida yozilgan "Vey chji" muhim mamba hisoblanadi. Bu manbada keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, Yaponiyada sholikorlikka o'tish hududning



har xil joylarida jadal sur'at bilan olib borilgan. "Vey chji" muallifi Yaponiyada don, sholi, jut va tut daraxti ekib parvarish qilinishini ta'kidlar ekan, Kusima, Iki va boshqa orollardagi aholi xo'jaligining alohida xususiyatlari haqida to'xtalib, "Ular sholi ekiladigan dalalarga ega emaslar, dengiz mahsulotlari hisobiga ya-shaydilar. Kemalarga o'tirib

shimol va janub uchun g'alla sotib oladilar" deb yozadi. Shu manbada keltirilishicha, u yerdagi kishilar Yaponiyada keng tarqalgan udumga muvofiq badan terilariga tatuirovka qilishgan ekan.

2-§. Janubi-Sharqiy Osiyoning qadimgi davlatlari

Janubi-Sharqiy Osiyoning geografik o'rni va tabiiy sharoitlari. Janubi-Sharqiy Osijo geografik nuqtayi nazardan Osiyoning janubi-sharqidagi ko'pdan-ko'p orollar va Xindixitoy yarim orolidan iborat. Yer yuzasi tog'lik, qisman tekisliklardan iborat bo'lib, maydoni qalin o'rmonlar bilan qoplangan. Xindixitoydan ko'pgina katta-kichik tezoqar daryolar oqib o'tadi. Hududning qit'a qismida Mekong, Menama, Irovadi, Soluen kabi daryolar oqib o'tib, orollarda juda mayda daryolar, ko'llar va botqoqliklar mavjud. Ular orasida Mekong daryosi bir necha mamlakatlardan oqib o'tib, irmoqlari juda ko'p uzunligi 4500 km. Bu daryo qadimdan boshlab aholi ziroatchiligidagi hayot manbasi bo'libgina qolmay, muhim o'zaro aloqa yo'li va keyingi vaqtida katta gidroenergetika zaxirasi ga ham ega bo'lган. Iqlimi tropik, seryog'in, o'simlik va hayvonot olamiga ancha boy. Janubi-sharqiy Osijo antropogenez jarayoni sodir bo'lган mintaqalarining biridir.

Xindixitoyda odamlar ilk paleolit davridan boshlab yashab keldilar. Olimlar hududdagi Yava orolining Trinil, Mojokerto degan joylaridan bugungi kunimizdan 1,5–2 million yil ilgari yashagan eng qadimgi odamlarning makonlarini topganlar. Dastlab ular termachilik, ovchilik va baliqchilik bilan kun kechirgan. Shuningdek, Janubi-sharqiy Osiyodan so'nggi, o'rta tosh (mezolit), m.av. VIII mingyillikka va undan keyingi davrlarga mansub bo'lgan makonlarning o'rni ham topib o'rghanilgan. Bu jihatdan xorijiy, mahalliy, xususan Rossiya olimlarining xizmatlari ham tahsinga loyiqlikdir.

Neolit davrida esa bu yerda sholikorlik xo'jaligi shakllanadi. Janubi-sharqiy Osiyodagi aholi asosan avstroosiyo til oilalariga mansub mon-kxmyer va boshqa etnik guruhlar, hududning materik qismida, orollarda esa avstroneziya til oilasiga mansub malayaliklar, yavaliklar va boshqa etnik guruhlar yashagan.

Xindixitoy janubidagi tekisliklarda yashovchi avstroosiyo til oilasiga mansub etnik guruhlar birmuncha rivojlangan xo'jalikka ega edilar. M.av. V mingyillikda bu yerdagi aholi mustaqil ravishda misdan har xil mehnat qurollari, aslahalar va ziynat buyumlari yasagan. M.av. IV mingyillikdan boshlab esa mis, so'ngra jez-bronzadan har xil ashyoviy buyumlar yasaganlar. Qadimgi ma'dansozlikning bu markazi qo'shni o'lkalar xo'jaligiga chuqur ta'sir etgan. Ammo m.av. II mingyillikda Janubi-sharqiy Osiyoning xo'jaligi atrofdagi qo'shni qabilalar xo'jaligidan orqada qola boshlagan.

Bu joydagи katta daryolarning murakkab tog'lik joylardan oqib o'tishi u yerlarda yirik sug'orish inshootlarini barpo etishga va sholikorlikning yuksak darajada rivojlanishiga imkon bermagan. Faqat daryo sohillarida keyinchalik tiklangan ilk qishloq aholisi sholikorlik bilan shug'ullangan.

So'nggi jez-bronza davriga, ya'ni I mingyillikka mansub mashhur Dongshon sivilizatsiyasi davrida Janubi-sharqiy Osiyoning katta-kichik daryolari vodiylarida dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi keng tarqalib, ular bu joyda ilk davlatlarning vujudga kelishi uchun shart-sharoit yaratdi. Dastlab bu yerlarda motiga dehqonchiligi, keyin asta-sekin so'qa, omochga asoslangan yirik va murakkab sug'orma dehqonchilik qaror topdi.

So'qa va omochga asoslangan ziroatchilikning rivojlanishi mehnat unumdarligini oshiradi. Bu jamiyatda tabaqalanish kuchayishiga olib keldi. Joylarda atrofi mudofaa devori bilan mustahkamlangan qishloqlar paydo bo'lib, ular asta-sekin shaharlarga aylana borgan. Jamiyatdagi bu o'zgarishlar Janubi-Sharqiy Osiyoda dastlabki davlatlarning vujudga kelishiga olib keladi.

Bu joyda G'arbiy Osiyodagi kabi rasmiy iyeroglisini yozuvlari mustaqil tarzda paydo bo'ladi. Qadimgi epigrafik va sanskrit hamda ilk o'rta asrlarga mansub yozuvlar Janubi-sharqiy Osiyo xalqlari haqidagi ilk manbalar hisoblanadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, mazkur hududda yashovchi aholining o'tmish tarixini o'rganishda, vet, mon, qadimgi xitoylik, qadimgi hind va antik mualliflarning solnomalari ham muhim ahamiyatga ega manbalardan hisoblanadi.

Dastlabki tabaqaviy jamiyatlar qadimgi avstroosiy va ularga til jihatdan yaqin bo'lgan vetlarda ilk bor vujudga kelgan. Ilk davlatlar G'arbiy Hindixitoydan hozirgi Shimoliy Vietnam orqali Yanszi daryosining quyi oqimigacha bo'lgan joylarda tarqaladi.

Bular to'rtta guruh davlatlar bo'lib, ular Shimoli-Sharqiy Xindixitoy va Janubiy dengizning shimoliy (Janubiy Xitoy dengizi) sohilidagi davlat, Malakka yarim orolidagi qadimgi Indoneziya va arxipelagdagi davlat. Shimoliy Hindixitoyning markaziy qismi va unga tutash joylarda istiqomat qilgan tan va birmano til oilasiga mansub xalqlar davlatlaridir.

Qadimgi Vet davlati va ularning qo'shnilarini. Shimoliy Vietnam va Janubiy dengizning shimoliy sohillarida joylashgan davatlardan biri Yue (Vet) podsholigidir. Vet podsholigi haqida va uning shimoliy qo'shni davlatlari haqida yozma manbalar saqlanmagan. Arxeologik dalillar Xongxa daryosi (Qizil daryo) quyi qismidagi Shimoliy Vietnam hududida eng qadimgi va o'ziga xos davlat bo'ganligi haqida ma'lumot beradi.

Yue (Vet) podsholigi m.av. VII asrda Yanszi daryosining quyi qismida tashkil topadi. Bu davlatdagisi ijtimoiy tabaqalar haqida qadimgi mualliflar tomonidan qoldirilgan manbalarda ba'zi ma'lumot beradi.



motlar uchraydi. Ular-dagi ijtimoiy tabaqalar o‘zining soddaligi bilan xitoyliklarning ijtimoiy tabaqasidan tubdan farq qiladi. Bu podsholikdagi aholining mashg‘ulotlari xitoyliklardan farq qilib, asosan sug‘orma sholikorlikdan iborat bo‘lgan.

M.av. IV–III asrlarda

Yanszi daryosining quyi qismidan Xongxa daryosining quyi qismiga gacha bo‘lgan joylarda beshta qadimgi davlat tashkil topgan. Ular-dan biri Vanlang (keyinchalik Aulak) davlati bo‘lib, unga Xongxa daryosining quyi qismidagi yerlar qarar edi. Ulardan sharqroqda esa Tayau, Namvet kabi boshqa davlatlar joylashgan edi. Ular ijtimoiy jihatdan biroz rivojlangan edilar.

M.av. III asrdagi ancha rivojlangan davatlardan biri Xongxa daryosining quyi qismida joylashgan Aulak edi. Uning aholisi lakvetnamlar vietnamlarning ajdodlari edilar. Shuningdek, Sitszyan daryosining quyi qismida joylashgan Namvet davlati bo‘lgan.

Aulak aholisining asosiy qismini mayda ishlab chiqaruvchilar tashkil etar edi. Katta yer egalaridan iborat zodagonlar va yuqori darajadagi amaldorlar yuqori tabaqa hisoblanar edilar. Bu davlat tepasida viong-monarx deb ataluvchi yakka hokim o‘tirar edi.



Qadimgi vetlar o‘zlariga xos madaniyat yaratib ajdodlarga, yer ruhiga sig‘inib, timsoh-ajdaho va suv parilarini ulug‘lashgan.

M.av. 221–214-yillarda Aulak, Teyau va Namvetlar xitoyliklarning Sin sultanati bilan kurash olib borgan.

Uzoq davom etgan janglar natijasida Aulak o‘z mustaqilligini saqlab qolib, Teyauning bir qismini o‘z yerlariga qo‘sib olgan. Namvet esa bir necha yil Sin qo‘sinchilari tomonidan bosib olingan. M.av. 207-yili Sin sultanati qulagach, Namvet davlati o‘z mustaqilligini tiklab har iki tomon birlashib, Namvet-Aulak davlati barpo etilgan.

M.av. II asrda Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyoda Viong boshliq Namvet davlati kuchayadi. Namvet davlatida sholi ishlab chiqarish ancha rivojlanadi. Ular rivojlangan hunarmnadchilik tarmoqlariga ega bo‘lib, ichki va tashqi savdo taraqqiy etgan edi. Aholi yuqori va quyi tabaqalarga bo‘lingan, qulchilik ancha rivoj topgandi. Qullarni “no-le” deb atashar, davlat ancha murakkab qurilishlga ega edi.

M.av. II asr boshlaridan monax-vionglar boshliq Namvet-Aulak davlati urush harakatlari va faol diplomatik usullarni qo‘llab, qo‘shti davlatlarni o‘z davlati qo‘l ostida birlashtirishga harakat qilganlar. Namvet-Aulak davlati qo‘sinchilari Xan sultanati va uning ittifoqchilari bilan g‘olibona urushlar olib bordi. Shu davrda vetlar xunnlar bilan bir qatorda Xan sultanatining raqibi bo‘lib maydonga chiqdi. Ammo m.av. II asrda bo‘lib o‘tgan og‘ir janglardan so‘ng mamlakat qiroq U-Di qo‘sinchilari tomonidan bosib olinadi. Ammo U-Dining hukmronligi vetlarda m.av.I asrgacha davom etgan.

M.av. III-II asrlarda Janubi-sharqiy Osiyoning tog‘lik o‘lkalarda qadimgi Dien va Elan davlati tashkil topdi. Bu davlatlarda dehqonchilik ancha sust rivojlangan bo‘lib, ular xo‘jaligida chorvachilik yetakchi o‘rinni egallar edi. Bu davlatlarda ham qulchilik mavjud bo‘lgan. Aholi orasida chorvadorlardan iborat yuqori tabaqa vakillari bo‘lib, qullar soni mahalliy etnik guruuhlar hisobiga to‘ldirilar edi.

Bu davlatlarda xitoy iyergoliflaridan farq qiladigan iyeroglfif yozuvni bor edi. Mamlakatda xo‘jalik ishlari hujjatlari ana shu yozuvlar orqali bajarilgan.

Milodiy I asr boshlarida Xan bosqinchilari Shimoliy Vietnamda lakvetlarga nisbatan ommaviy assimilyatsiya siyosatini olib borishga urinib ko‘rdilar. Bu siyosat omma orasida kuchli norozilik kelib chiqishiga sabab bo‘ldi.

Mamlakatda oliy tabaqa vakillari rahbarlik qilgan qo'zg'olonlar boshlandi. Milodiy 40–44-yillarda ikki opa-singil boshchiligidagi lakvetlar qo'zg'oloni mamlakatni Xanlar zulmidan ozod etdi va qadimgi Aulak mustaqillikni qo'lga kiritdi. Qo'zg'olonga opa-singil Chinglar rahbarlik qilganlar.

Yangi, uzoq davom etgan urushlardan so'ng Xan sultanati bu mamlakatda o'zining kuchli nazoratini o'rnatdi. I-II asrlarda Xan sultanati zulmiga qarshi ommaviy qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Xitoyliklar zo'rlik bilan mamlakat aholisini itoat ettirish mumkin emasligiga ishonch hosil qilganlaridan keyin faol assimilyatsiya siyosatidan voz kechib, asta-sekinlik bilan xitoylashtirish siyosatini qo'llashga o'tdilar.

Milodiy III–V asrdagi xitoy davlati hukmdorlari lakvetlarning ichki mustaqillik huquqlarini tan oladi. Ammo xitoy hukmdorlari vetlar ustidan umumiy nazarat olib boradilar. Biroq ular bu borada uzoq muddatli yaxshi natijalarga erisha olmaganlar. Vet jamiyatni o'zlarining alohida etnik xususiyatlarini saqlab qoldi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan xitoyliklar vet jamiyatiga juda kam ta'sir qila olgan. Milodiy III–V asrlarda vetlar jamiyatiga Hindistondan kirib kelgan buddizm keng tarqaladi. Buddizm XII–XIII asrlargacha vetlarning asosiy dini bo'lib qoldi. Bu davrlarda xitoy madaniyati bu mamlakatda keng ko'lamma tarqaladi.

Mon-kxmyer va indoneziyaliklarda davlatlarning tashkil topishi. Ilk tabaqaviy jamiyatning shakllanishi va aholining xo'jaligi. Yangi milodiy yil arafasida Xindixitoy va Indoneziyaning katta-kichik daryo vodiylarida ilk tabaqaviy jamiyatlar va davlatlar tashkil topa boshladi. So'nggi jez davrida qo'lga kiritilgan yutuqlar va temir qurollardan foydalanishga bu hududda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni yuqori darajaga ko'tardi. Bu shart-sharoitlar mazkur hududda ilk davlat markazlarini barpo bo'lishiga olib keldi. Janubiy Xindixitoydagi dravid qabilalari bilan olib borilgan aloqalar, ular orqali Shimoliy Hindiston, Yaqin Sharq va hatto O'rta Yer dengizi xalqlari bilan yaqin munosabat bog'lashga sabab bo'ldi. Bu yerda vetlardagi kabi kichik qishloq jamoalari voha dehqonchiligining asosi hisoblangan. Mon-kx-

mer va indoneziyaliklar yashagan joy geografiy nuqtayi nazardan xilma-xil va o'ziga xos bo'lgani uchun bu yerlarda xo'jalikning ovchilik, termachilik, chopqi termachiligi, suv hayvonlarini ovlash, shuningdek, sug'orma dehqonchilik xo'jaliklari ham mavjud edi. Janubi-sharqiy Osiyoning ilk dehqonchilik shakllanib rivojlangan joylarida Aulak, Bapkom (Funan), Shriktetra (Tarekittra) kabi davlatlar, Suvannabxumi (Janubiy Birma) kabi kichik mon davlatlari va Tyao-Praye (Menam). Malay, Yavan va boshqa davlatlar tashkil topadi. Bu davlatlar hududida yashagan xalqlarning ba'zilari dehqonchilik bilan, boshqalari esa dengiz hayvonlarini ovlash bilan, ayrimlari esa dengiz savdosi bilan shug'ullangan. Mazkur davlatlarda monarx boshliq katta yer egalari, zodagonlar, amaldorlar davlatni boshqarganlar. Mayda ishlab chiqaruvchilar hukmdor va katta yer egalariga qaram edi.

Hukmron tabaqa va erkin jamoa aholining asosiy qismini tashkil qilardi.

Dehqonchilik va xo'jalikning boshqa tarmoqlarida qullar hal qiluvchi ravqeni egallamagan edilar. Shuni ta'kidlash lozimki, davlat ruhoniylar bilan yaqin aloqada bo'lib, ruhoniylar esa davlat nazorati ostida edi. Bu hududda agrar kultlarga, ajdodlar ruhlariga sig'inish va induizm dini keng tarqalgan edi. Aholidan olinadigan asosiy soliq davlat va yuqori tabaqa zodagonlari manfaatlariga qaratilgandi.

Qadimgi Mon-kxmer davlati va aholining xo'jaligi. Mon-kxmerdag'i ilk davatlarning aksariyati milodiy I asrlarda vujudga keladi. Ularning har biri o'zaro bog'langan edi. Ulardan biri bapnom (Funan) davlati Janubiy Xindixitoydag'i mon va kxmer qabilalarining birlashuvi natijasida tashkil topgan. Bapnom davlatining tashkil topishi milodiy I asrga to'g'ri keladi.

Mamlakatda birlashuv jarayoni milodiy II-III asrlarda tugallanadi. Shundan keyin qadimgi kxmer hukmdorlari bosqinchilik urushini boshlab yuboradilar. Bu joydag'i eng kuchli davlatlardan biri Fanshiman bo'lib, kuchli harbiy dengiz flotiga ega bo'lgan. Fanshiman o'zining kuchli floti va qo'shiniga tayanib, qo'shni davlatlar va qabilalar yerini tortib oladi.

Bapnom kuchli harbiy qo'shinga ega bo'lib, harbiy dengiz va savdo-sotiq milodiy IV asrda ham kuchayib borgan. Mamlakatda irrigatsiya va ibodatxonalar qurishga katta e'tibor berilgan. Induizm va buddizm mustahkamlanib borgan va hukmdorlarning hokimiyati kuchaygan.

V-VI asr boshlarida qadimgi kxmer jamiyatining shimoliy guruh kuchayadi. Ularning qo'shini dengiz sohili bo'yalarini va Bapnomni bosib oladi. Bapnom esa shu bilan o'z faoliyatini to'xtatadi.

Mon-kxmer xalqlari Janubiy Hindiston madaniyatini, jumladan, hind yozuvini, sanskrit tilini, dinning ba'zi xususiyatlarini qabul qiladilar. Xususan, monlar buddizmni, kxmerlar induizm dinini qabul qilgan.

Indoneziya xalqlarining qadimgi davlatlari. Ma'lumki. Indoneziya hududiy jihatdan ikki bo'lakdan iborat, biri ko'pdan-ko'p orollardagi, ikkinchisi esa qit'adagi yerlar.

Milodiy I-VI asrlarda Indoneziyaning orollar qismida ikki guruh davlatlar vujudga keladi. Ularning biri g'arbiy yoki Malaya va ikkinchisi sharqiy yoki Yavan guruhi. G'arbiy guruhga Sumatra davlatlari kirib, ularda markazlashish jarayoni tezroq sodir bo'lgan. Ular Malakka yarimorolidagi kichikroq davlat birlashmalari edi. Ijtimoiy tuzilishi jihatdan bir-biriga o'xshash edi.

Ularning turmushida tashqi savdo katta o'rinn tutardi. Chunki bu davlatlar serqatnov savdo yo'li ustida joylashgan edilar. Janubi-sharqiy Osiyodagi dengizchilar bu davrda mon-kxmerlar va indoneziyaliklar edi.

Shalmaladvipidagi davlatlar orasida Lankasuka (milodiy II asr), Kataxa va Tambarlinga davlatlari mashhurroq edi. Xorijiy sayyohlarning ma'lumotlariga ko'ra, ularning saroylari boy, qo'shini kuchli bo'lgan. Shahar aholisi orasida buddaga va hindulikka e'tiqod, sanskrit adabiyoti, yozuv va tili keng tarqalgan. G'arbiy Indoneziyadagi qadimgi davlatlar g'arb va sharq bilan savdo va diplomatik aloqalar olib borgan.

Yava va Kalimantandagi Malay va Yavan davlatlari xiyla bosh-qacharoq bo'lgan. G'arbiy Yavadagi Taruma va Mulavarmana davlatlari mashhurdir. Kalimantandan sharqda joylashgan Mulavarmananing bir nomi hukmdorlari bilan atalgan. Bu davlatlar IV-V

asrlarda tashkil topgan. Ijtimoiy tuzilishi jihatdan bu davlatlar Bapnom davlati tuzilishiga o'xshashdir. Davlat irrigatsiya qurilishi bilan shug'ullangan. Bu yerda ham dehqonchilik va chorvachilik xo'jaliklari bo'lgan.

Yerning bir qismi davlatlarga qarashli bo'lib, u yerda xususiy yerlar ham bo'lgan. Janubi-sharqiy Osiyodagi davlatlaridan biri Champa bo'lib, aholisi indoneziya til oilasiga mansub bo'lgan. Bu davlat Xindixitoy yarimorolining Sharqiy sohiliga joylashgan. Champa hududdagi dengiz savdosi davlatlaridan biri bo'lib, kuchli derigiz flotiga ega bo'lgan. Bu davlat savdogarlari dengiz orti mamlakatlari bilan qizg'in savdo-sotiq ishlarini olib borganlar. Champa hukmdorlari dengiz qaroqchiligi bilan ham shug'ullanib, dengizda o'z hukmronliklarni o'rnatishga harakat qilgan. Ayni paytda ular qo'shni sohildagi qishloqlarni talab bosqinchilik qilib, qishloq ahlining mollarini, boyliklarini talaganlar. Champilar madaniy jihatidan indoneziya dunyosiga yaqin bo'lib, shuningdek, ular kxmerlar madaniyatidan ham bahramand bo'lganlar.

Qadimda ular xanliklar bilan urushlar olib borib, ular bilan diplomatik va savdo-sotiq munosabatini ham o'rnatgan.

M.av. I mingyillikning o'rtalaridan boshlab Qadimgi Janubi-Sharqiy Osiyo xalqlarida ilk davlatlar shakllanadi. Ular o'zlariga xos xo'jalik shakllariga ega bo'lishgan. Sug'orma sholikorlik qishloq xo'jaligining asosi bo'lgan. Ijtimoiy jihatdan kichik-kichik qishloq jamoalariga ega bo'lganlar; ma'naviy jihatdan ajdodlar ruhiga sig'inganlar va o'zlariga xos tasviriy san'atga ega bo'lganlar.

Ko'p sonli qadimgi xalqlar, etnik guruhlarning ajdodlari bo'lgan vetlar, kxmerlar, monlar, malayyaliklar, yavanliklarning aksariyati katta-kichik daryolarning unumdar yerlarini egallagan edi. Ular dan ba'zilari tog' oldi hududlarida yashovchi etnik guruhlarga o'z ta'sirini o'tkazgan. Mazkur hududning shimoldagi davlatlar, xususan vetlar qadimgi xitoyliklar bilan muttasil mudofaa urushlari olib borganlar. Shu munosabat bilan Qadimgi Janubi-sharqiy Osiyoning yerlari birmuncha qisqarib ketgan. Janubi-sharqiy Osiyodagi boshqa davlatlar mazkur davrlarda yirik urush harakatlari olib bor-

magan. Ular qo'shni xalqlar va davlatlar bilan, xususan Hindiston xalqlari bilan faol savdo va madaniy aloqada bo'lgan.

Seminar mashg'uloti uchun savollar:

1. Koreya yarimorolidagi qadimgi davlatlar: Choson. Koguryo, Silla, Pekche.
2. Qadimgi Yapon davlati.
3. Yaponlarning etnogenezi va etnik tarixi.
4. Janubi-sharqiy Osiyoning qadimgi davlatlari.
5. Qadimgi Vet davlati va ularning qo'shnilarini.
6. Mon-kxmer va indoneziyaliklarda davatlarning tashkil to'pishi.
7. Qadimgi mon-kxmer davlati va aholining xo'jaligi.

Bilimlarni mustahkamlash uchun savollar:

1. Janubi-sharqiy Osiyo xalqlari etnik tarixi.
2. Indoneziya aholisi ma'naviy madaniyati.

Xulosa

Qadimgi Sharq tarixi shimoliy Afrika yerlaridan to sharqiy Osiyo oralig'idagi hududlarni o'z ichiga qamrab oladi. Qadimgi Sharq dunyosining tabiiy geografik hududi nihoyatda xilma-xillligi bilan ajralib turadi.

Qadimgi sharq antropogenez jarayoni sodir bo'lgan va ibtidoiy jamoaning hamma bosqichlarini boshidan kechirgan o'lkdir. Bu hududda turli xil etnik guruhlari—urug'lar, qabilalar, qabilalar ittifoqiga mansub kishilar istiqomat qilganlar. Antropologik jihatdan ular yevropeoid, mongoloid, habashoid, avstraloved va boshqa irqlar shakllangan juda katta hudud hisoblanadi.

Etnolingvistik jihatdan ham qadimgi Sharq xalqlari, elatlari va etnik guruhlari o'zining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Qadimgi Sharqda o'nlab til oilasiga mansub, yuzlab lahja va shevalarda gaplashuvchi turli elatlari tarqalib yashagan. Qadimgi Sharq xalqlari uchun umumiyligi bo'lgan narsa shundan iboratki, ularning ajdodlari ibtidoiy jamoa tuzumining hamma bosqichlarini birin-ketin o'z boshlaridan kechirgan. Qadimgi Sharq tarixi – bu jahon miqyosida

birinchilardan bo'lib ilk sivilizatsiya shakllangan va rivojlangan mamlakatlar tarixidir. Demak, kishilikning ibridoiy tuzumi dastlab shu hududlardagi katta-kichik daryolar bo'yida buziла borib, ishlab chiqarishning asta-sekin rivojlanishi natijasida ilk davlatlarning vujudga kelishiga zamin hozirladi. M.av. IV-mingyllikning 2 yarmida Shumer va Misrda dastlabki sivilizatsiyaning qaror topishi qadimgi dunyoning butun manzarasini o'zgartirib yuborgan. Qadimgi Sharq sivilizatsiyasining asosiy markazlari Nil, Frot, Dajla, Hind, Ganga, Xuanxe va Amudaryo kabi ulug' daryolarning serhosil vohalarida vujudga kelgan. Sharq sivilizatsiyasining shakllanib rivojlanishida ishlab chiqaruvchilar va tabiiy-geografik muhitning o'rni katta ahamiyatga ega bo'lган. Qadimgi sharq tarixini olimlar uchta katta tarixiy davrga bo'lib, o'rganishni tavsiya qiladilar. M.av. IV-mingyllikning oxiri va III mingylliklar Qadimgi Sharq dunyosining dastlabki sivilizatsiyasi mavjud bo'lган. Dunyo miy-yosidagi bu dastlabki sivilizatsiya, keyingi davrdagi boshqa joylar sivilizatsiyasiga o'zining ijobiyligi ta'sirini ko'rsatgan. Bu davrda Shumer, Misr va Hind vodiysida eng dastlabki yozuv tizimi shakllanib, monumental me'morchilik va tasviriy san'at rivoj topdi. Misr ehromlari, qadimgi Shumerning zinopoyali zikkuratlari, Xarappa va Moxenjadoro kabi majmualari kishilik madaniyatining oliy darajadagi yutuqlari qatoriga kiradi.

Mazkur davrda Misr va Shumerda kichikroq hududni egallagan "nom" va "en" deb atalgan dastlabki yangi tabaqaviy jamiyat, shahar va viloyat maqomidagi ilk davlatlar vujudga kelgan. Ular u yoki bu hududda hukmron bo'lish uchun o'zaro kurash olib borganlar.

M.av. XXXIII asrlarda Yuqori Misrda 22, Quyi Misrda esa 20 ta mayda davlatchalar – "nomlar" mavjud edi. Keyinchalik esa Misrda markazlashgan davlat tuzish uchun qizg'in kurash olib borilgan. Nihoyat m.av. XXXI–XXIX asrda olib borilgan kurashar natijasida birlashgan ilk podsholik qaror topadi.

Shumer shahar-davlatlari o'rtasidagi o'zaro kurash m.av. XXIV asrga kelib o'z nihoyasiga yetadi. Oqibatda Misr va Mesopotamiya da cheksiz huquqqa ega bo'lган dispositik podsholiklar shakllanadi.

M.av. XXVIII–XXII-asrlarda Misrda m.av. XXIV–XXI-asrlarda Mesopotamiyadagi sargon va sargoniylar boshliq Akkad.

Urning uchinchi sulolası boshqargan despotik monarxiya—yakka hokimlikning yorqin timsoli bo’ladi. Ular o’z davrining yirik quldorlik davlatlari edi.

M.av. butun III mingyillik davomida qadimgi Sharqning Shimoliy Mesopotamiya, Eron, O’rta Osiyo, Kichik Osiyo va Sharqiy O’rtayer dengizi sohilidagi mamlakatlarida ibridoij jamoa tuzumi emirilib, tabaqalarga ajralgan quldorlik davlatlari tashkil topdi, ular ham sivilizatsiya markazlari hisoblangan qadimgi Sharq dunyosining tarkibiy qismiga aylanadilar.

Birinchi davr oxirlariga kelib Sharqiy O’rtayer dengizi sohillari dan Hindiston yarimoroligacha bo’lgan joylarda ibridoij jamoa yemirilib, tabaqaviy jamiyatga asoslangan davlatlar tashkil topib, ishlab chiqarishning rivojlanishi, ilm-fanning taraqqiy etishi natijasida u yerlarda ham sivilizatsiya markazlari shakllanib ravnaq topadi.

Qadimgi Sharq tarixining ikkinchi bosqichi.

M.av. II- va I mingyillikning birinchi yarmiga oid tarixiy davrni o’z ichiga oladi. Bu davrda bir-biridan uzoq bo’lgan qadimgi Sharq mamlakatlarida, xususan Xuanxe daryosi vodiysida, O’rta yer dengizining sharqiy sohilidagi Ugarit, Ebla, Bibl. Alalah, Kichik Osiyo, Shimoliy Mesopotamiyada. shuningdek, Xett va Ossuriya davlatlari tashkil topadi. Mazkur davrda qadimgi sharq dunyosiga yaqin bo’lgan ko’chmanchi chorvador qabilalar orasida sotsial o’zgarishlar sodir bo’lib, ular o’z sardorlari boshchiligidida dehqonichilik vohalariga tez-tez bosqinlar uyuştirib turadilar. Bu jarayonlar hind yevropa aholisi bilan ularning aralashib ketishida katta ahamiyat kasb etdi.

M.av. III mingyillikda Qadimgi Sharq jamiyatni xo’jaligida katta o’zgarishlar sodir bo’ladi. Mazkur davrda Qadimgi Sharqning daryolar oqib o’tgan vodiylarida sug’orma dehqonchilik, irrigatsiya inshootlari, katta-kichik uy-joylar, xonalar barpo etiladi. Har xil ma’danlarni qazib olish, eritish, bir-biriga qo’shib kashf etiladi. Mis bilan qalayni birga qo’shib eritish natijasida bronza ma’dani hosil qilinadi. Mehnat qurollarining soni oshib sifati yaxshilanadi.

Ma'danlardan harbiy qurol va aslahalar tayyorlanadi. Qadimgi Sharq mamlakatlari orasidagi aloqa yo'llari yaxshilanib savdo-sotiq rivojlanadi. M.av. XVI–XV asrda Shimoli-g'arbiy Arabiston cho'llarida Giksoslar ittifoqi barpo bo'lib ular Misrni o'zlariga itoat ettiradilar. O'rta Suriya va Shimoliy Mesopotamiyada m.av. XVI–XV asrlarda Mitanni davlati kuchayadi. G'arbiy Eronda yashagan kassit qabilalari birlashamasi m.av. XIX–XVIII asrlarda Mesopotamiyada o'z hukmronliklarini o'rnatadilar. Ko'chmanchilar Mesopotamiyada hukmronlik qilishar ekan, sivilizatsiya markazlarida mesopotamiyalik xalqlarning madaniyatini qabul qilib, ulardan bahramand bo'ladilar.

Ammo Hindistonda mazkur davrlarda boshqacha manzara-hodisa yuz bergan. Hindistonga bostirib kirgan ko'chmanchilarning hujumlari natijasida, u yerdag'i qadimgi sivilizatsiya inqirozga yuz tutadi. M.av. I mingyillik boshidan Gang daryosi vodiysida tabaqaviy jamiyat yangidan shakllanib, bir necha yangi davlatlar tashkil topadi.

Mazkur davrda Qadimgi Sharqning ko'pgina mamlakatlari kuchayadi. Yuqori tabaqa zodagon va hukmdorlarga qarshi mahalliy aholi va bosib olingan o'lkalarda esa katta-kichik qo'zg'olonlar boshlanadi.

Ammo bu qo'zg'olonlar, podsho, fir'avn qo'shinlari tomonidan shafqatsizlik bilan bostiriladi.

M.av. II mingyillik o'rtalarida Old Osiyodagi davlatlar orasida, hududda hukmronlikni qo'lga kiritish uchun qirg'in-barot urushlar bo'lib o'tadi. Davlatlar bosqinchilik urushlarini olib borish va o'z davlatlarining mudofaa qudratini oshirish uchun qo'shin sonini oshirish, ularni qurol-aslaha bilan ta'minlashga harakat qilganlar. Hukmdorlar urush harakatlari o'z qo'shinlarida ot qo'shilgan jangovar aravalardan keng foydalanganlar. M.av. XV–XIV asrlarda Misr, Mitanni va Xettlar o'rtasida Sharqiy O'rtayer dengizi sohili-dagi mamlakatlarni qo'lga kiritish uchun qizg'in kurashlar bo'lib o'tgan. Bu jihatdan Misr bilan Xett davlati o'rtasidagi kurash uzoq davom etib, bu urush m.av. 1280-yili Misr-Xett tinchlik sulhi bilan yakun topgan.

Shuni ta'kidlash joizki. Yangi podsholik davrida Misr gullab yashnagan harbiy davlatga aylanadi. Xuddi shu davrda Misrda mahobatli me'moriy obidalar barpo etiladi. To'xtovsiz davom etgan urushlar, ichki soliqlar xalq boshiga katta musibatlar keltiradi.

Bosib olingen o'lkalarda olinadigan soliq-o'lponlar, g'oliblar tomonidan qo'shni mamlakat xalqlarining talanishi ichki, tashqi ziddiyatlar kuchayishiga olib keladi. Bundan oddiy va jabrdiyda xalq ko'proq aziyat chekkan. Bu esa, o'z o'rnida, podsholiklarga qarshi qo'zg'olonlar kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Mazkur davrda Old Osiyoda hukmronlikni qo'lga kiritish uchun hududdagi davlatlar o'rtaida kurash qizg'in tus oladi. Bu jihatdan m.av. IX–VII asrlarda shakllangan. Ulug' Ossuriya podsholigi misol bo'la oladi. Mazkur davrda Ossuriya o'zining qudratli qo'shini ga tayanib Old Osiyoda bosqinchilik va talonchilik urushlarini olib boradi va qo'shni mamlakatlarning yerlarini bosib oladi. Ossur qoshinlari o'z istilolari davrida qishloq va shaharlarni yondirib, mazlum xalqlardan juda ko'p o'lpon undirganlar. Qadimgi Sharq xalqlari Ossuriyani "arslon uyasi", uning poytaxtini esa "qonli shahar" deb bekorga aytmaganlar. Ossur qo'shini asirlarga nisbatan nihoyat darajada shafqatsiz bo'lishganligi manbalarda qayd etiladi.

Harbiy-ma'muriy yo'l bilan barpo etilgan davlatlar oxirigacha qudratli bo'la olmaganlar. Bunday davlatlar tezda tashkil topib, ichki va tashqi ziddiyatlar, inqirozlar natijasida halokatga uchrab barham topganlar. Shunday despotik davlatlardan biri Ulug' Ossuriya m.av. 612–605-yillarda Midiya va Yangi Bobilning birlashgan qo'shini tomonidan tor-mor etildi va davlat sifatida barham topdi. Mazkur davrda temir qurollaridan foydalanish xo'jalikning-taraiqqiy etishiga olib keldi.

Qadimgi Sharq tarixining uchinchi bosqichi.

Bu davr m.av. I mingyillikning o'rtalaridan yangi milodiy yilning o'rtalarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi va qadimgi Sharq jamiyatining yakunlovchi bosqichi hisoblanadi. Bu davrda yaqinginada qudratli bo'lgan harbiy Ossuriya mustabid monarxiyasini Old Osiyodagi o'z hukmronligini Yangi Bobil va Midiyaga bo'shatib

berishga majbur bo'ladı. M.av. VI–IV asrlarda Ahamoniylar davlati kuchayib, O'rta va Old Osiyoda o'z hukmronligini o'rnatadi. Kichik Osiyo va Misrdan O'rta Osiyo va Shimoli-g'arbiy Hindis-tongacha bo'lgan hududlar Eron Ahamoniylari davlati hududiga kiritilishi xalqaro munosabatlar kuchayishiga olib keldi. M.av. II asrdan boshlab O'rta Osiyo va Old Osiyoning Xitoy bilan aloqalari kuchaydi. Bu aloqaning rivojida "Buyuk ipak yo'li"ning ahamiyati katta bo'ldi. Katta savdo karvonlari Markaziy Osiyo sahrolari, dashtlari va cho'llarini kesib Hindiston va Xitoy bilan savdo aloqalarni kuchaytirgan. Hindiston va Xitoyda dunyodagi eng qadimgi dinlardan biri-buddizm keng tarqaladi. Bu davrda Old Osiyodagi ko'pgina davlatlari Yevropa, xususan Yunoniston va Rim bilan qizg'in madaniy aloqa bog'laydilar. Buning natijasida Tinch okeani va Atlantik okeani orasida o'zaro bog'lanish shakillanadi.

M.av. VI–IV asrlarda Eron ahamoniylari sultanati davrida uning hududi bo'y lab "shoh yo'li" tarkib topgan edi. Lekin unga qadar O'rta va Yaqin Sharqda Badaxshon la'liga bo'lgan ehtiyoj hududda "la'l yo'li"ning vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Badaxshoning la'li Mesopotamiya va Misr podsholarining saroylarini, ibodatxonalarini bezashda va ayollarning turli bezaklari ishlashda keng qo'llangan. Ana shunday yo'llardan biri G'arb bilan Sharqni ming yillar davomida bir-biriga bog'lab kelgan "Buyuk ipak yo'li" edi. Bu yo'l orqali Sharqdan Xitoydan G'arbga Vizantiyaga, O'rta Osiyoga, Yaqin va O'rta Sharqqa, shuningdek, Misrga olib boriladigan savdo mollari, asosan, Xitoy ipak mahsulotlari bo'lgani uchun fanga XIX asrning 70-yillarida nemis olimi K.Rextgofen tomonidan "ipak yo'li" nomi bilan kiritildi. Unga qadar "ipak yo'li", "G'arbiy meridian yo'li" deb atalib kelinardi. Shuni ta'kidlash kerakki, "Buyuk ipak yo'li" Xitoyning qadimgi markazi Siandan boshlanib, Markaziy, O'rta Osiyo orqali o'tib, uning tarmoqlari G'arbda Misr va Janubiy Yevropaga kirib borgan.

"Buyuk ipak yo'li" O'rta Osiyo, Old Osiyodo, Shimoliy Afrika va nihoyat, Yevropa xalqlari, umuman butun sharq xalqlarining iqtisodiy, madaniy, harbiy va siyosiy hayotida juda katta o'rinn tutgan.

Ma'lumki, Qadimgi Sharq dunyosining chegaralariga yaqin hududlarda ko'chmanchi qabilalar ko'chib yurar edilar. Ular tez-tez Xitoy, O'rta Osiyo va Old Osiyo hududiga hujumlar, bosqinlar uyushtirib turganlar. Ular dehqonchilik vohalarini istilo etib, m.av. III va milodiy III asrlarda Parfiya, milodiy I-IV asrlarda Kushon sultanatini barpo etganlar.

Bu davrda Qadimgi Sharqda sug'orma dehqonchilikka asoslangan qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivoj topadi, tovar va pul munosabatlari kengayadi. Tovar-pul munosabatlari va savdo-sotiqning rivojlanishi munosabati bilan yo'l va bekatlar yaxshilanib, ularning mudofaasiga alohida e'tibor beriladi. Mazkur davrda Qadimgi Sharqning hamma davlatlarida qul va qulchilik o'z ahamiyatini saqlab qoladi. Ammo qulchilik Qadimgi Sharqning hamma davlatlarida bir xilda, bir davrda kechmagan. Xususan, so'nggi Ossurlar podsholigi, Xan podsholigi davrida qulchilik o'zining eng yuqori pog'onasiga ko'tarilgan edi.

Ammo Parfiya sultanatida qul va qulchilik uncha rivojlanmay, patriarchal – sodda ko'rinishiga ega bo'lgan. Shuni ta'kidlash kerakki, Parfiyada qullar bo'lgan albatta, chunki qadimgi zamonda biron ta jamiyat qul mehnatidan foydalanmay qolgan emas. Parfiyada qullar hatto qo'shinda xizmat qilganlar.

Rim tarixchisi Pompey Trog buni ko'rsatgan holda quyidagilarni yozgan edi: "Ularning qo'shinlari boshqa qabilalarda bo'lganidek, erkin kishilardan emas, balki ko'pchiligi qullardan tashkil topgan. Ular shu qullarni o'z farzandlaridek ko'rib tarbiyalaydilar, ot minishga va o'q-yoy otishga o'rgatadilar."

Shuni ta'kidlash joizki, Iskandar boshliq yunon-makedon qo'shinlari Ahmoniylar sultanatini tor-mor etib, O'rta Osiyo, Hindistonning shimoli-g'arbiy hududlari va Old Osiyoni bosib olgach, Iskandarning katta maydonni egallagan muvaqqat davlati tashkil topadi. Shundan boshlab mazkur hududlarda mahalliy xalq bilan yunon madaniyatining aralashuvi natijasida ellen davlatlari va madaniyati tashkil topadi.

Qadimgi Sharqning tarkibiy qismi hisoblangan Hindistonda m.av. I mingyillik o'rtalariga qadar yirik, markazlashgan davlatlar tashkil topishi uchun shart-sharoit tug'ilmagan.

Xuddi shu davrda Xitoyda markazlashgan yirik davlatlar tashkil topdiki, ular ham podsholarning yakka hokimligiga asoslangan davlatlar edi. Shuni ta'kidlash joizki, bu davrda Hind jamiyatida aholi qatlamini kasta-toifalarga ajratish joriy etilgan edi.

M. I-III asrlarga kelib Qadimgi Sharq dunyosidagi Kushon, Parfiya, Xitoydagagi Xan podsholiklari, shuningdek, Rim imperiyasi ham inqirozga uchrab, qadimgi dunyo tarixi davri o'z nihoyasiga yetgan edi, uning xarobalari o'mida birin-ketin feodalizm – yirik yer egaligi tuzumi shakllana boshlaydi.

Ma'lumki, Qadimgi Sharq xalqlari juda boy moddiy va ma'naviy madaniyat yaratib, jahon madaniyatiga o'zlarining buyuk hissalarini qo'shganlar, Qadimgi Sharqda yozuvning hamma turлari, shuningdek, alifbo yozuvlari qo'shni mamlakatlar va xalqlariga tarqalgan.

Qadimgi Sharq dunyosida "Gilgamish haqidagi doston", "Sinuxet hikoyalari", Payg'ambarlar kitobi "Tavrot", "Zabur", "In-jil", O'rta Osiyo va Eronda "Avesto", Hindistonda "Maxabxarata" va "Ramayana" va boshqa asarlar yaratildi.

Qadimgi Sharq o'zining ulkan ehromlari, qadimgi bobilning zinapoyasimon zikkuratları – ibodatxonaları, observatoriyaları, urartlarning tosh ustidagi qal'aları, ossur podsholarining ajoyib saroylari va boshqa qadimgi sharq me'moriy obidalarining yuksak darajada ekanligini ko'rsatadi.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, Qadimgi Sharq xalqlari ilm-fanning tabobat, astronomiya, taqvim, tarix, geografiya, yer bilimi, ziroatchilik, huquq va boshqa sohalarida katta yutuqlarni qo'lga kiritib, jahon madaniyati xazinasiga o'zlarining ulkan, munosib hissalarini qo'shganlar.

Shu bois Qadimgi Sharqdan chiqqan olimlarni jahon ilm-fanning ustozи avvali deyilsa mubolag'a bo'lmasa kerak.

Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Qadimgi Sharq davlatlaridagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa jarayonlar va so-

dir bo'lgan o'zgarishlar hududning tabiiy sharoiti, ishlab chiqarish usuli va munosabatlaridan kelib chiqib bir muayyan davrda emas, birin-ketin sodir bo'lgan va nihoyasiga yetgan.

Qadimgi Sharq tarixi va madaniyatini sinchiklab o'rganish har bir talaba va o'tmishni o'rganuvchi uchun katta ahamiyatga egadir.

Hova

Qadimgi Misr tarixinining eng muhim tarixiy sanalari

1	Misrning Fayum, Tasa va Badariydagi neolit madaniyati	M.av. V ming yillik.
2	Ilk sulolagacha bo'lgan amrat davri, urug' jamoasi buzilishining boshlanishi	M.av. IV mingyilikning birinchi yarmi
3	Ikkinci sulola (gerzey) davri. Xususiy mulkchilik, tabaqaviy jamiyat va mulkiy tengsizlikning rivojlanishi. Misrda mayda davlatlarning tashkil topishi.	M.av. IV mingyilikning o'rtalari va ikkinchi yarmi
4	Yuqori va Quyi Misrning birlashtirilishi. I-II sulola davridagi ilk podsholik davri.	M.av. XXXI–XXIX asrlar
5	III–VI sulola davridagi Qadimgi podsholik.	M.av. XXVIII–XXIII asrlar
6	III sulola. Josyer piramidasining qurilishi.	M.av. XXVIII asr
7	IV sulola. Xufu (Xeops) va Xafra piramidalarining qurilishi.	M.av. XXVII asr
8	Birinchi o'tish davri. Qadimgi Misr podsholigining inqirozi, nomlarga bo'linish. Gerakleopol va Fivaning hukmronlik uchun olib borgan kurashlari.	M.av. XXIII asr o'rtasi bilan XXI asr orasi
9	XI–XIII sulola davrida o'rta podsholik.	M.av. XXI asr o'rtasi –XVIII asr
10	XII sulola. Amenepxoteb I. Senusert III va Amenemxet III davrilarida Misr podsholigining gullab-yashnashi.	M.av. XX–XVIII asrning boshlari
11	Ikkinci o'tish davri. Xalq qo'zg'olonlari va giksoslarning Misrga bostirib kirishlari. XV–XVI sulola. Giksoslar hukmronligi.	M.av. XVIII asr oxiri–XVII asr.
12	XVIII–XX sulola. Yangi podsholik davri.	M.av. XVI–XI asrlar

13	XVIII sulola. Buyuk sultanat davri.	M.av. XVI–XIV asr o'rtasi
14	Tutmos III va uning istilochilik harbiy yurishlari.	M.av. 1490–1436-yillar
15	Exnatonning boshqaruv davri, uning diniy-siyosiy islohotlari.	M.av. 1365–1348-yillar
16	XIX sulola. Ramzes II davrida Xett podsholigi bilan kurash. Misrda ibodatxonalar qurilishining jadallashuvi.	M.av. 1290–1224-yillar
17	Misr-Xett shartnomasi.	M.av. 1280-yil
18	XX sulola. Ramzes III davrida “dengiz xalqlari” hujumining kuchayishi.	M.av. XII asrning birinchi yarmi
19	Uchinchi o'tish davri.	M.av. XI–X asr o'rtalari
20	So'nggi podsholik davri.	M.av. X asr o'rtalari–VI asr
21	XXI–XXII sulola. Liviyaliklar boshqaruv davri.	M.av. 945–722-yillar
22	Bakxoris islohotlari.	M.av. 718–712-yillar
23	XXV Efiopiya sulolasi Misr kushitlar hukmronligi ostida.	M.av. 712–664-yillar
24	Ossurlar hukmronligi davri.	M.av. 671–655-yillar
25	Misrda katta uyg'onish davri. XXVI Saus sulolasi davri.	M.av. 664–525-yillar
26	Finikiya dengizchilarining Afrika sohillari bo'ylab suzishlari.	M.av. 600-yillar
27	Misr Eron Ahamoniylar davlati tarkibida. XXVIII–XXX sulola podsholarining mustaqillik uchun olib borgan kurashlari.	M.av. 525–332-yillar
28	Makedoniyalik Aleksandr tomonidan Misrning istilo qilinishi va inamlakat tarixida ellen davrining boshlanishi.	M.av. 332-yil

Qadimgi Mesopotamiya tarixinining eng muhim tarixiy sanalari

1	Shimoliy Mesopotamiyadagi Jarmo, Xassuna va Xalaf neolit madaniyati.	M.av. VII–V mingyilliklar
2	«Ubeyd madaniyati» urug' jamaolarining yemirilishi.	M.av. V mingyillik o'rtalari va IV mingyillikning boshlari.

3	Uruk madaniyati. Shumer sivilizatsiyasi asoslarining shakllanishi. Xususiy mulk, mulkiy tengsizlik, tabaqalanishning boshlanishi va Mesopotamiyada ilk davlatlarning tashkil topishi. Piktografik yozuvning paydo bo‘lishi.	M.av. IV mingyllikning o‘rtalari va ikkinchi yarimlari
4	Jemdet-Nasr madaniyati.	M.av. IV mingyllikning oxiri III mingyllikning boshlari
5	Ilk sulolaviy davr. Shumer-shahar davlatlarining tashkil topishi. Mix-ponasimon xatlarning kashf etilishi.	M.av. XXVII asrning boshlari va XXIV asr.
6	Mesopotamiya Akkad hukmronligi ostida. Sargoniylar sulolasining boshqaruvi.	M.av. XXIV–XXII asrlar.
7	Shumer va Akkadning Urning III sulolalari tomonidan birlashtirilishi.	M.av. XXI asr oxiri va XXI asr
8	Qadimgi Bobil podsholigi davrida Bobilning yuksalishi.	M.av. 1894–1595-yillar
9	Xammurapi podsholik qilgan davr. Oonunlar to‘plamining tuzilishi.	M.av. 1792–1750-yillar
10	Bobilning cassit sulolalari tomonidan boshqarilishi.	M.av. 1595–1150-yillar
11	Mitanni davlatining yuksalishi.	M.av. XVI–XIV asrlar
12	Ossuriva. Qadimgi ossur davri.	M.av. XX–XVI asrlar
13	O‘rta Ossur podsholigi davri.	M.av. XV–XI asrlar
14	Ossur qonunlar to‘plamining tuzilishi	M.av. XV–XIV asrlar.
15	Yangiossur podsholigi davri. Ossuriyada buyuk saltanatning tashkil topishi.	M.av. X–VII asrlar
16	Tiglatpalasar III ning podsholik davri. Ossur qo‘sishinlarini qayta tuzish.	M.av. 745–727-yillar.
17	Asaradonning podsholik yillari. Misrning istilo qilinishi. Ossuriya saltanatining yuksalishi.	M.av. 681–669-yillar.
18	Ashshurbanipalning podsholik davri. Nineviya kutubxonasing barpo etilishi.	M.av. 669–627-yillar.
19	Ossuriya poytaxti Ninevyaning qulashi.	M.av. 612-yil
20	Bobilning yuksalishi. Yangi Bobil saltanati.	M.av. 626–539-yil.
21	Navuxodonosor II podsholik qilgan davri.	M.av. 605–569-yillar

22	Bobilning Eron shohi Kir II qo'shinlari tomonidan bosib olinishi va Yangi Bobil sultanatining qulashi.	M.av. 539-yil.
----	--	----------------

Kichik Osiyo mamlakatlari tarixining eng muhim sanalari

1	Chatal-Xyuyuk neolit madaniyati	M.av. VII mingyllikning ikkinchi yarmi VI mingyllikning birinchi yarimlari
2	Kichik Osiyoning sharqidagi savdo koloniyalari-manzillari.	M.av. XX–XVIII asrlar
3	Qadimgi Xett podsholigining tashkil topishi.	M.av. XVIII–XVI asrlar
4	Telepenning boshqaruv davri va uning taxt vorisligi haqidagi farmoni.	M.av. 1500-yil
5	Qadimgi Xett podsholigining zaiflashuvi	M.av. XV asr
6	Yangi Xett podsholigining tashkil topishi. Buyuk Xett sultanatining barpo bo'lishi.	M.av. XIV–XIII asrlar
7	Misr-Xett tinchlik shartnomasi.	M.av. 1280-yil
8	"Dengiz xalqlari"ning istilosи va qudratlari Xett sultanatining qulashi, barham topishi.	M.av. XII asr
9	Frigiya podsholigining ravnaq topishi.	M.av. X–VIII asrlar
10	Lidiya podsholigining yuksalishi.	M.av. VII–VI asrlar
11	Kreznning Eron shohi Kir bilan kurashi va Eroniyalar tomonidan Lidiyaning bosib olinishi.	M.av. 547-yil

Qadimgi Urartu podsholigining eng muhim tarixiy sanalari

1	Urartu qabilalari to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar ossur manbalarida.	M.av. VIII asr
2	Poytaxti Tushpa bo'lgan Urartu davlatining tashkil topishi.	M.av. IX asr
3	Argishti I podsholigi davrida Urartu davlatining siyosiy jihatdan ravnaq topishi.	M.av. 786–764-yillar
4	Urartu davlatining zaiflashuvi va qulashi.	

Sharqiya va G'arbiy O'rtayer dengizidagi qadimgi davlatlarning eng muhim tarixiy sanalari

1.	Dehqon-chorvador qabilalarning Iyerixon madaniyati	M.av. VIII–VII mingylliklar
2.	Ebla davlati	M.av. III mingylliklarning ikkinchi yarmi

3.	Ugarit shahar-davlati.	M.av. II mingyilliklarning ikkinchi yarmi
4.	Tir-Sidon davlatining ravnaq topishi.	M.av. X–IX asrlar
5.	Damashq podsholigining yuksalishi.	M.av. X–IX asrlar
6.	Qadimgi yahudiy qabilalarining Falastin verlariga kirib kelishi.	M.av. XIV asrlar
7.	Yagona Isroil-Yahudiy podsholigining tashkil topishi.	M.av. X asr
8.	Isroil va Yahudiydagি qadimgi yahudiy podsholigining qulashi.	M.av. IX asr
9.	Isroil podsholigining Ossur qo'shinlari tomonidan tor-mor etilishi.	M.av. 722-yil
10.	Iudeya podshosi lofsining diniy islohotlari – monoteizmga (yakka xudolikka) o'tish uchun qo'vilgan qadam.	M.av. 622-yil
11.	Iyerusalim (Quddus)ning bobilliklar tomonidan istilo qilinishi.	M.av. 597-yil
12.	Qadimgi Yahudiy adabiyotining tahrir qilinishi va Bibliya (Injil) qonunlari tuzilishi.	M.av. I mingyillikning ikkinchi yarmi
13.	Karfagen manzilgohining barpo etilishi.	M.av. IX asr
14.	Karfagen quldorlik davlatining yuksalishi.	M.av. V asr o'rtalari va III asr
15.	Rimliklar tomonidan Karfagennenning tor-mor etilishi va yo'q qilinishi.	M.av. 146-yil

Arabiston

16.	Arabiston janubida ilk davlatlarning tashkil topishi.	M.av. X–VIII asrlar
17.	Sabev podsholigi.	M.av. VI–IV asrlar
18.	Ximyarim podsholigining ravnaq topishi.	M.av. II asr

Qadimgi Xitoy tarixining eng muhim sanalari

1.	Yansha neolit madaniyati.	M.av. V–III mingyilliklar
2.	Shan-In davri, ilk tabaqaviy jamiyat va davlatning kelib chiqishi.	M.av. XVII–XI asrlar
3.	Shan tarixining barpo bo'lishi "Fol ochadigan yozuvlarning" paydo bo'lishi.	M.av. XIV asr
4.	G'arbiy Chjou davri.	M.av. XI–VIII asrlar
5.	Poytaxti Loyan bo'lgan Sharqiy Chjou sulolasi boshqaruvi davri.	M.av. VIII–III asrlar

6.	Chonsyu (Bahor va kuz) yilnomasida davr taxlili.	M.av. VIII–V asrlar
7.	Temir qurollarning tarqalishi va ijtimoiy-iqtisodiy sohadagi siljishlar, Konfutsiyning hayoti va faoliyati.	M.av. VI–V asrlar
8.	Birinchi “Urushuvchi podsholiklar” davri (Chjango). Pul munosabatlarning tarqalishi.	M.av. IV–III asrlar
9.	Sin podsholigi davri va Shan Yan islohoti. Yer va qulchilikda xususiy mulkchilikning rivojlanishi.	M.av. 359–350-yillar
10.	Markazlashgan umumxitoy Sin sulolasini tashkil topishi. Sin Shixuan islohotlari. Buyuk Xitoy devorining qurilishida faol davr.	M.av. 221–207-yillar
11.	G‘arbiy Xan sulolasini boshqaruvi.	M.av. 206-yil milodiy 8-yil
12.	U Di imperatorining boshqaruv davri. Xan sultanating “Oltin davri”. Xunnlar bilan olib borilgan g‘olibona urushlar. Sima Syanning “Tarixiy xotitalar” asari.	M.av. 140–87-yillar
13.	Imperator Van Man islohoti.	Milodiy 9–23-villar
14.	«Qizilqoshlar» qo‘zg‘oloni.	Milodiy 18–25-villar
15.	So‘nggi (Sharqiy) Xan sulolasini boshqaruvi. Parfiya va Rim bilan diplomatik aloqalar davri. Xitoyda buddizmning tarqala boshlashi.	Milodiy 25–220-yillar
16.	“Sariq ro‘mollilar” qo‘zg‘oloni Xitoy sultanating tushkinlikka uchrashi, uch podsholikka bo‘linishi, Xitoy tarixida feodal munosabatlarning boshlanishi.	Milodiy 184–207-yillar
17.	Xunnlar davlatining tashkil topishi	M.av. IV–III asrlar
18.	Sayan, Oltoy va Eniseyning yuqori qismining xunnlar tomonidan bosib olinishi.	M.av. 203–202-yillar
19.	Xan imperatori Lyu Banning xunnlar ustiga yurishi. Xunn – Xitoy sulhi.	M.av. 200-yilda
20.	M. av. 174–161-yillar.	Xunn – Yuechji urushlari. Yuechjlarning O‘rta Osiyoga kirib kelishlari

21.	Xitoy – Xunn urushlari	M.av. 133–119-villar
22.	Xitoy qo'shinlarining Davonga (Farg'onaga) bostirib kirishlari. Ershi qamali	M.av. 101-yil
23.	Xitoy – Xunn urushlari	M.av. 99–90-villar
24.	Xitoy – Xunn urushlari	M.av. 71-vil
25.	Xunnlar davlatining g'arbiy va shimoliy qisimlarga bo'linib ketishi	M.av. 56-yil
26.	Xitoylik va dinliklar ittifoqi qo'shinlari tomonidan xunnlarning tor-mor etilishi	Milodiy 87–93-yillar
27.	Xunnlarning g'arbgaga ko'chishi	Milodiy II–IV asrlar
28.	Atillaning hukmronlik qilgan yillari	Milodiy 434–453-yillar
29.	Katalaun jangi bo'lib o'tgan yil	451-yil
30.	1 Atillaning vafoti	453-yi

**Qadimgi Sharqiy va Janubi-sharqiy mamlakatlarning eng muhim
tarixiy sanalari**

31.	Koreyadagi birinchi Choson davlatining tashkil topishi	M.av. III asr
32.	Qadimgi Vet davlatlari haqidagi dastlabki ma'lumotlar	M.av. IV–III asrlar
33.	Namvet-Aulak davlatining ravnaqi	M.av. II asr
34.	Dastlabki Mon va Kxmer davlatlarining tashkil topishi	M.av. I asr
35.	Indoneziya va Malakka yarimorolida ilk davlatlarning vujudga kelishi	Milodiy 1–IV asrlar

IBRATLI HAYOT YO'LI



Ajoyib inson, bilimdon, ayni paytda o'ta kamtirin olim Abdujabbor Kabirov 27 martda 2014- yili 76 yoshlarida vafot etdi.

Ular 1938-yil 2-yanvar kuni Toshkent viloyati Keles tumanida oddiy o'zbek oilasida tug'ildilar. Otalaridan 6 yoshda yetim qolib, onalari qo'lida mamlakat uchun og'ir iqtisodiy qiyinchiliklar davrida maktabda o'qib, darslardan so'ng onalariga jamoa xo'jaligi va uy yumushlarida yordam berib balog'atga yetdilar. Domlaning tengdosh, sinfdoshlari ularni a'lo o'qiganlarini doimo eslab turishadi. 16 yoshlarida maktabni muvaffaqiyatl tugatib Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat

Pedagogika institutiga o'qishga kirdilar. Yosh Abdujabborda institut tarix-filologiya fakultetida O'zbekiston tarixi, arxeologiya fanlaridan dars bergen akademik olim Yahyo G'ulomov, ularning shogirdlari bo'lajak akademik Ahat Muhammadjonovlarni ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari katta qiziqish uyg'otdi.

O'qishni 1959-yili tugatgan A.Kabirov biroz maktabda ishlagach, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Arxeologiya institutiga aspiranturaga kirib, "O'zbekistonda qoyatosh suratlarini tadqiq etilishi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasi mavzusi ustida ish olib bordi hamda Sarmishsoy, Zarautsoy, Bironsoydagi petrogliflarga oid ajoyib chizma, yozma ma'lumotlar to'plab, ilmiy maqolalar bilan to'plamlarda, ilmiy konferensiyalarda chiqa boshlaydi. Uning maqolalari Novosibirsk, Moskvadagi maxsus arxeologik jurnallarda chop etiladi. Olim 1974-yili tarix fanlari nomzodligi unvonini olish uchun dissertatsiyani muvaffaqiyatl himoya qilgach, 1978-yili uning "Sarmishsoyning qoya toshlaridagi suratlar" nomli monografiyalari chop etilishi arxeologiyaning ushbu sohasida muhim voqeа bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi. Mening bilishimcha yurtimizning boy qoyatosh suratlari haqida A.Kabirovdan keyin arzigelik biror bir monografik asar chop etilmadi.

O'sha yili olim hayotida yana bir muhim o'zgarish ro'y berdi. U o'zining arxeolgiya institutidagi 19 yillik faoliyatidan so'ng Toshkentga qaytib ToshDU (hozirgi O'zMU) tarix fakultetida prof. I.M.Jabborov rahbarligidagi "Qadimgi dunyo va o'rta asrlar tarixi" kafedrasiga katta o'qituvchilikka ishga qabul qilindilar. Ustozlari Ya. G'ulomov, A. Muhammadjonovlardan chuqur bilim, mohir pedagogiklik sirlarini mukammal o'zlashtirgan Abdujabbor Kabirov tez orada talabalarning sevimli ustoziga aylandilar. "Qadiimgi Sharq tarixi", "Tarixni o'qitish usullari", "Ibtidoiy jamiyat tarixi" kabi fanlardan ma'ruzalar o'tib, amaliy mashg'ulotlarni bajarib bordilar. Avvalari ilmiy maqolalar, monografiyalar ularning qiziqish doiralarida bo'lsa endilikda talabalar uchun A.Sagdullaev bilan "O'rta Osiyo arxeologiyasi" darsligi (1990-yil), umumta'lim maktablari 6-sinf o'quvchilari uchun "Jahon tarixi" darsligi (2001-yil) nashr etilib oradan 20-30 yil o'tgan bo'lsa ham ular o'z qadrini yo'qotgani yo'q. Ushbu xotimani yozar ekanman men A.Kabirovni so'nggi 5-6 yil davomida "Qadimgi Sharq tarixi" darsligi ustida qanday ishlaganlari guvohi bo'lganimni alohida eslayman. Darslik 2012-yil topshirilishi kerak edi. Lekin Abdujabbor Kabirov A.Muhammadjonovga, M.Ishoqovga taqrizga berib ularning fikrlarini bilish uchun 2014-yilning boshlarigacha qayta-qayta ishlab to'ldirdilar. Afsuski bu zamonaviy juda zarur darslik olimning hayotliklari paytida nashrdan chiqmadi, lekin biz uning do'stlari, shogirdlari darslikni bakalavr tarixchilar qo'liga yetib borishi uchun barcha to'siqlarni yo'qotish umididamiz. Etnologiya kafedrasida 1999-yildan magistrlarni tayyolashda dotsent A.Kabirov qator maxsus fanlar "Toponimika" ("Etnotoponimika"), "O'zbeklarning moddiy madaniyati", bakalavr tarixchi va arxeologlar uchun "O'rta Osiyoning sug'orilishi tarixi", "Jahon xalqlari etnologiyasi" fanlaridan dars o'tdilar. A.Kabirov o'qitgan, tarbiyalagan yuzlab magistrlar, minglab tarixchilar ularni bilimdon ustoz, ibratli inson sifatida eslaydilar. Ular yaratgan darslik va monografiyalar o'nlab yillar yosh avlodni tarbiyasida xizmat qilishiga ishonamiz. Olimning orzulari ko'p edi. Biz hamkorlikda "Nurota tarixi" kitobini yozish ustida so'nggi 1-2 yil davomida ishlayotgan edik. Nurotaga 2 marta ilmiy safarga ham borib kelgan edilar.

Abdujabbor Kabirov ajoyib olim, juda mehribon ustoz, o'ta kamtarin halol-pok inson edilar. Ularning xotiralari biz do'stlari va shogirdlari qalbida abadiy qoladi.

Foydalanylган адабиётлар

1. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йүқ. Т. 1998.
2. Геродот. История в девяти книгах / Пер. Г. А. Стратановского. М.; Л., 1972. («Памятники исторической мысли»; репр. 1993).
3. Авдиев В.И. История Древнего Востока. Москва 1948 .
4. Авдиев В.И. Қадимги Шарк тарихи. Тошкент 1964.
5. Бухарин М. Д., Ладынин И. А., Ляпустин Б. С., Немировский А. А. История Древнего Востока. — М.: Дрофа, 2009.
6. Всемирная история. Государственное Издательство политической литературы Москва. 1955.
7. Гафуров Б.Г, Цибукидис Д.И Александр Македонский и Восток Изд. «Наука». Главная редакция. Восточной литературы Москва. 1980.
8. История Древнего Востока. Под редакции В.И. Кузицина Москва “Высшая школа” 1979.
9. История Древнего Востока. /Под ред. В.И. Кузицина. М., 2009.
10. История Древней Греции / Под ред. В.И. Кузицина. М., 2008.
11. История Древнего Рима / Под ред. В.И. Кузицина. М., 2008.
12. История Древнего Востока. Москва 1988
13. История Древнего Мира. том I . Москва 1983.
14. История Древнего Мира. том II . Москва 1983.
15. История Древнего Мира. том III . Москва 1983.
16. История Древнего Востока. От ранних государственных образований до древних империй. Под ред. А. В. Седова. М., 2004.
17. Қадимги дунё тарихи. II қисм. Ю.С. Крушкол таҳрири остида “Ўқитувчи” нашриёти. Тошкент – 1975.
18. Магье М. Э. Избранные труды по мифологии и идеологии Древнего Египта. М, 1996.
19. Магье М. Э. Искусство Древнего Египта. СПб., 2001.
20. Мелларт Дж. Древнейшие цивилизации Ближнего Востока. М., 1982
21. Майоров Н.И. Введение в историю Древнего Востока. Учебное пособие. — Томск: Изд-во Томского университета. 2003.
22. Флиттнер Н.Д. Культура и искусство Двуречья и соседних стран. М-Л., 1958 г.
23. Перепелкин Ю. Я. История Древнего Египта. СПб., 2000.
24. Тураев Б. А. Египетская литература. СПб., 2000.
25. Ражабов Р. Қадимги дунё тарихи. “Фан ва техника нашриёти “. Тошкент, 2009.
26. Чеккосова Е.А, Редер Д.Г. Қадимги дунё тарихи. “Ўқитувчи “ нашриёти. Тошкент 1974.
27. Этнография. Под редакции Ю.В. Бромлея и Г.Е. Маркова. Москва «Высшая школа» 1982.

Glossariy

- Axuramazda – yaxshilik, haqiqat va odillik xudosi.
- Axri-Manyu – zulmat, o'lim va yomonlik keltiruvchi xudo.
- Aton – yangi podsholik davridagi yagona quyosh xudosi.
- Amon – Ra – yangi quyosh xudosi.
- Ashshur xudosi – ovchilik va chovachilikning homiy-ma'budi.
- Atxarveda – afsungarlik formulasi to'plami.
- Bel-pikittilar – topshiriqlarni ijro etadigan maxsus amaldorlar.
- Giksos – aslida misrcha so'z bo'lib, "xeqa xasut" degan so'zdan ke-lib chiqqan, bu so'z "cho'ponlarning hokimlari", "cho'l mamlakatining hukmronlari" degan ma'noni bildiradi.
- Dimtular – katta oilali uy jamoalar.
- Inshushinak – Suza shahri homiysi, yer osti xudosi.
- Maryanni – aravachi-zodagonlar.
- Mesopotamiya – ikki daryo oralig'i degan ma'noni anglatadi.
- Mushkenumlar – doimo podsho xo'jaliklarida ishlovchilar.
- Petroglif – qoyatosh rasmlari.
- Pankus – harbiylar yig'ini.
- Rigveda – diniy madhiyalar to'plami.
- Samaveda – qo'shiqlar to'plami.
- Tamqarlar – savdo ishi bilan shug'ullanuvchilar.
- Tuliya – oqsoqollar kengashi.
- Utu – Quyosh xudosi (akkad mifologiyasida Shamash deb atalgan).
- Ninnar – oy xudosi bo'lgan (akkad tilida Sin nomi bilan mashhur bo'lgan).
- Naxunt – quyosh vaadolat xudosi.
- Xazannu – qishloq boshlig'i, amaldor.
- Xronologiya – yunoncha "chronoc" (vaqt), "logos" (bilim, tushunchaga) degan ma'noni bildiradi.
- Shoduf – suvni yuqoriga uzatishning eng qadimgi qo'l usuli Misr tipi.
- Shumer yozuvi – yozuv suratlari bo'lib, aytilmoqchi bo'lgan so'z va iboralar rasmlari, belgilar orqali ifoda etilgan. Bu iyeroglyph yozuvlari deyilgan.
- "Fallohlar" – ozod Misr dehqonlari.
- Fetishizm – ibridoq qabilalar xudo deb bilgan narsalar, odamlar so'zsiz va ko'r-ko'rona topinadigan, xudo darajasiga ko'tarilgan narsa, buyum, masalan, pul fetishiga sig'inishdir.
- Exnaton – "Quyosh shu'lesi" demakdir.
- En – shahar-davlat.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'ZBEKİSTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI BO'YICHA
MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODİK MARKAZ

ABDUJABBOR KABIROV

ҚАДИМГИ ШАРҚ ТАРИХИ

Мухаррир: *Ҳ. Нишинов*
Бадиий мухаррир: *Ҳ. Сафаралиев*
Мусаҳҳих: *О. Мухторов*
Саҳифаловчи: *М.Дадажонова*

“Тафаккур” нашриёти.
Босишга руҳсат этилди 12.12.2016.
Бичими 60x84 $\frac{1}{16}$ “Times New Roman” гарнитураси.
Офсет босма усулида босилди.
Нашр босма табоби 23. Адади 250 нусха.

“ИШОНЧ НАШР САВДО” МЧЖ
босмахонасида чоп этилди.
Тошкент шаҳри, Фурқат кӯчаси, 174-үй.



ISBN 978-9943-24-124-4

A standard linear barcode representing the ISBN 978-9943-24-124-4.

9 789943 241244